ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

3-son (2021-yil, iyun)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2021, № 3

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti
Tahririyat manzili: O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY’ATI:
Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor
Bosh muharrir o‘rinbosari: Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Mas’ul kotib: Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori
Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G’arbiy Universitet, Bolgariya)
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor
Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)
Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qiyamov Nishon Sodiqovich, , pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО
Научно-теоретический и методический журнал
№ 3, 2021

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании Решении ВАК от 29 декабря 2016 года для получения учёной степени по **педагогике** и **психологии**.

Журнал основан в 2001г.
Журнал выходит 6 раза в год
Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.
Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.
Учредитель: Бухарский государственный университет
Адрес редакции: Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
e-mail: ped_mahorat@umail.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:
Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
Заместитель главного редактора: Навруз-заде Бахтиёр Нигматович – доктор экономических наук, профессор
Ответственный редактор: Хамраев Алижон Рузикулович – доктор педагогических наук (DSc), доцент

Хамидов Обиджон Хафизович , доктор экономических наук
Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор
Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор
Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)
Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор
Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор
Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)
Чудакова Вера Петровна, PhD (Психология) (Киев, Украина)
Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор
Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор
Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор
Дурдыев Дурдымурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор
Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор
Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор
Каххаров Отабек Сиддикович, доктор экономических наук (DSc)

PEDAGOGICAL SKILLS
The scientific-theoretical andmethodical journal
 # 3, 2021

The journal is submitted to the list of the scientific journals applied to the scientific dissertations for **Pedagogic** and **Psychology** in accordance with the Decree of the Presidium of the Ministry of Legal office of Uzbekistan Republic on Regulation and Supervision of HAC (The Higher Attestation Commission) on December 29, 2016.

The journal is published 6 times a year
The journal is registered by Bukhara management agency for press and mass media in Uzbekistan.
The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
e-mail: ped_mahorat@umail.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.
Deputy Editor: Pedagogical Sciences of Economics, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade.
Editor: Doctor of Pedagogical Sciences*(* DSc), Asst. Prof. Alijon R. Khamraev

Doctor of Economics Sciences Obidjan X. Xamidov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzakbai Sh. Begimkulov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holby I.Ibrahimov
Ph.D. of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova
Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)
Ph.D. of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)
Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov
Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev
Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev
Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov
Doctor of Economics Sciences Otabek S.Kahhorov

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA 7
Азизхон РАХМОНОВ. К вопросу о проектной культуре будущих учителей 7
Hikmat BOBOMIRZAYEV, Sevara SUVONOVA. Yangi O‘zbekistonni qurishda zamonaviy o‘qituvchilarning o‘rni 11
Maral KADIROVA. Talabalarda iqtisodiy ko‘nikmalarni takomillashtirish asoslari 15
Азиза МИРЗАРАҲИМОВА. Ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантириш педагогик муаммо сифатида 20
Nargiz MAHMUDOVA. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimini baholashda jahon tajribasi 25
Акрам СОХИБОВ. Пути совершенствования механизмов применения интерактивных методов в педагогическом образовании 27
Сабоҳат МУРОДОВА, Умида ЯКУБОВА, Расул ИМОМҚУЛОВ. Бошланғич синф ўқувчиларининг билиш фаолиятини ривожлантиришга йўналтирилган ўқув вазиятларидан фойдаланиш 31
Safibullo ABDULLAYEV. Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida o‘qituvchilarni ergonomik faoliyatga tayyorlash 35
O‘tkir HAZRATOV, Sevara SOLIBOYEVA. Amaliy mashg’ulotlarni o‘tishda interfaol usullarning qo‘llanishi samaradorligini baholash 41
Makhfuza RAKHMONOVA. Spiritual and moral heritage of the hadith scientists of the east 45
Шамсиддин НАРЗИЕВ, Гулноза ШАРОПОВА. Влияние интерактивной игры на развитии знаний студентов 49
Nigora RUZIKULOVA. O‘quvchilarning o‘quv materiallari bilan ishlash jarayonida “case-study” metodidan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari 54
Gulnora JUMAYEVA. O‘qituvchining pedagogik mahoratini shakllantirishda innovatsion faoliyat 58
O‘g’iloy SHUKUROVA. Talaba-yoshlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning uzluksizligini ta’minlash texnologiyasi 63
Мехринисо КОЙИЛОВА. Педагогическая основа здоровьесозидающей функции образования 67
Bog’dagul QARSHIYEVA. Turli mamlakatlarda bilingual ta’lim berish va ular o‘rtasidagi farqlar (O‘zbekiston, Rossiya, Germaniya misolida) 72
Bahodirjon SHERMUXAMMEDOV. Yoshlarga g’oyaviy tarbiya berishning mohiyati va vazifalari 78
Dilmurod UMURZOQOV, Nafisa JO‘RAYEVA. Sharq mutafakkirlari asarlarida rahbarlik va boshqaruv muammolarining talqini 81
Gullola KURBANOVA. Oliy ta’lim muassasalari iqtidorli talabalarining tadqiqotchilik salohiyati ahamiyati 83
Ismatulla TO‘XTAROV. O‘zbek falsafasi: tariximiz kabi qadim, ma’naviyatimiz kabi teran 88
Ulfat MAHKAMOV, Dilafruz ISMOILOVA, Munisa MALIKOVA. Bo’lajak o’qituvchilarni tarbiyaviy ishlarga tayyorlash 92
Manzura YULDASHEVA. Ajdodlar merosida oilaviy munosabatlar talqini 95
Mavjuda GULAMOVA, Ilhomjon SHUKUROV, Chori XAYRULLAYEV, Brel Anatoliy KUZMICH. O‘zbekistonda aholi salomatligini muhofaza qilish borasida amalga oshirilgan ishlar, imkoniyatlar va sharoitlar 98
Ikromjon TOSHOV. Yaponiyada mahalliy davlat hokimiyat organlarining hujjatlari ustidan sud nazoratini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari 101
Madina KARIMOVA. Talabalar o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarishning shaxs xususiyatlariga bog‘liqligi 106
Olimjon XOLOV. O‘quvchi-yoshlarda aksiologik ongni shakllantirishning tarixiy asoslari 109
Najmiddin BAKAYEV, Shahobiddin SHODIYEV, Nargiza BAXRIEVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarni hissiy rivojlantirishning dolzarbligi 117
Dilnoza QODIROVA. Kichik maktab yoshi o‘quvchilarida axloqiy-madaniy sifatlarni shakllantirishning o‘ziga xos psixologik jihatlari 121
Shoxrux SALIXOV, Timur SALIXOV. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilish faolligini oshirishning psixologik xususiyatlari 124
Shahlola ULUG‘OVA, Rayima NEMATOVA. Tadbirkor ayollarning bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligining o‘ziga xosligi 128

MAKTABGACHA VA BOSHLANG’ICH TA’LIM 131
Gulnora BO‘RONOVA. Umumiy o‘rta ta’lim maktabning boshlang‘ich sinflarida “Robototexnika” to‘garaklarini virtual didaktik vositalar yordamida tashkil etishning universal metodlari 131

FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘RGANISH 138
Ozoda TURSUNOVA. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ona tili darslarida o‘quv lug’atlaridan foydalanish 138
Дилноза НАЗАРОВА. Ассимилированные слова узбекского языка и их выражение в словарях 143
Nargiza G‘ULOMOVA. Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda mualliflik korpusini tuzishning afzalliklari 149

Bahodir QO‘CHQOROV. “Devonu lug’otit turk” asarida bolalar o‘yinilari 153
Sulaymon HALIMOV. G’aribiy ijodining o‘ziga xos xususiyatlari..... 156
Nozgul SIDIQOVA. Tilshunoslikda pereyonimlarning shakllanish asoslari 161
Sitorabegim MUXAMEDJANOVA. Talabalarda kasbiy faoliyatga oid ingliz tilini o‘qitish jarayonida kommunikativ madaniyatni rivojlantirish metodlari 164
Xolboy IBRAGIMOV, Z.K.SALIMOV. Surxondaryo viloyati Termiz shahri umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishda intensiv metodlarni qo‘llash..... 166
Hilola SUYUNOVA. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda integrativ yondashuvning ahamiyati 170
Rahima BERDIYOROVA. Okkazionalizmlarni hosil qilish usullari..... 173

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH 177
Набия ТУРАЕВА, Жахонгир ТУРАЕВ. Методические рекомендации по обучению будущих учителей математики конструированию и анализу урока 177
Dilorom BESHIMOVA. Differensial geometriya va topologiya kursida to‘plamning urinish, chegaraviy, ichki nuqtalarini o‘qitishda “aqliy hujum” metodining tatbiqi 180
Sagidat KANATBAYEV. Umumta’lim maktablarida fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishning holati va muammolari 185
Мухаммад РАХМАТОВ, Сарвар ИСКАНДАРОВ, Нарзилло БИБУТОВ, Азизжон ХОЖИЕВ. Лабораторные работы по технической механике 189
Nozimbek ZARIPOV. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda Web-freelance faoliyati..... 196
Ruslan BAYDULLAYEV, Zamira AXMEDOVA. Yuqori ishonchlilik tizimlari uchun dasturiy ta’minot arxitekturasi 199
Mansur ERGASHOV, Aziz JO‘RAYEV. Organik kimyo fani ta’limida zamonaviy metodlardan foydalanish orqali talabalarda interaktivlikni oshirish 204
Laziz NIYAZOV, Baxitjan KEDELBAYEV, Javohir KARIMOV. Tibbiy kimyo fanini o’qitishda muammoli vaziyatlar usuli..... 207
Nazifa ACHILOVA. Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish 212
Madina AVEZOVA. Innovative forms of modern education..... 217
Mahfuza ODILOVA. Qora-qir ko‘lidagi suvning fizik-kimyoviy tarkibi 221
Laziz NIYAZOV, Anatoliy BREL, Umurbek G’APUROV. Xorijiy talalabalarga tibbiy kimyo fanidan dars berishning o‘ziga xosliklari 224

IQTISODIYOT VA TURIZM 227
Nurazimxon MAMAXONOVA. O‘zbekiston va Yevropa: hamkorlikning yangi bosqichi 227

TASVIRIY SAN’AT VA MUSIQA TA’LIMI 232
Saidaxbor BULATOV. “Vanitas” usulida ishlangan natyurmortdagi o‘n sakkiz ming olam falsafasi 232

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT..... 237
Ilhomjon TURSUNALIYEV. Jismoniy tarbiya va sport sohasi tadqiqotlariga ilmiy sharh: muammodan amaliy natija sari 237
G‘ayrat SALIMOV, Abdullo FOZILOV. Talabalarning o‘quv jarayonida jismoniy madaniyatini shakllantirish muammosiga tizimli yondashuv 239
Nurzod DAVRONOV. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy sifatlarini rivojlantirishda xalq bayramlarining qadriyat sifatidagi ahamiyati..... 243
Раджаб БАЙМУРАДОВ, Малохат БАХШУЛЛАЕВА. Творческое отношение к работе - залог успеха в педагогической деятельности..... 246
Muxsinbek OLIMOV. Yengil atletikachilarning ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg‘ulot yuklamalarini taqsimlash va boshqarish texnologiyasi..... 250

Ta’lim-tarbiya fidoyisi..... 254
“Педагогик маҳорат” журнали учун мақолаларни расмийлаштириш талаблари..... 255

Азизхон РАХМОНОВ
Начальник Республиканского научно-практического
центра развития инновационных
методик обучения иностранным языкам,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

К ВОПРОСУ О ПРОЕКТНОЙ КУЛЬТУРЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В данной научно-исследовательской статье рассматривается вопрос о проектной культуре учителей, приводятся интерпретации данного понятия, раскрываются элементы усвоения ценностей и раскрывается как целостная система.

Ключевые слова: *проектная культура, проектная деятельность, образовательный процесс, личность, задача, мотивация, планирование, система.*

Мазкур мақолада ўқитувчиларнинг лойиҳа маданияти масаласини ёритилган, лойиҳа маданияти концепцияси талқин қилинган ҳамда қадриятларни ўзлаштириш элементлари ёритилиб, лойиҳа маданиятида ажралмас тизим сифатида очиб борилган.

Калит сўзлар: *лойиҳа маданияти, лойиҳа фаолияти, ўқув жараёни, шахс, вазифа, мотивация, режалаштириш, тизим.*

This research article examines the issue of the project culture of teachers, provides interpretations of this concept, reveals the elements of assimilation of values and reveals it as an integral system.

Key words: *project culture, project activity, educational process, personality, task, motivation, planning, system.*

Введение. На современном этапе развития общества уровень создаваемой человеком техники и технологий достиг небывалых высот. Рожденные человеческой мыслью технические объекты стали неотвратимо и фатально влиять на самого человека и общество в целом, преобразуя их как в позитивном, так и в негативном плане [1, 76].

Проектная деятельность, выполняемая студентами, соискателями и педагогами не владеющим методологией проектирования, основанной на гуманистических ценностях, и не обладающим культурой проектирования, соответствующей современным социокультурным нормам, способна нанести непоправимый ущерб природе, человеку и обществу в целом.

Решением поставленной задачи проектной деятельности является целенаправленное формирование проектной культуры студентов и преподавателей профильного образовательного учреждения. В противном случае вместо решения насущных проблем и достижения реального результата можно получить “воображаемые проекты” или “псевдопроекты”.

Включение формирования проектной культуры в число приоритетных и важнейших задач образовательного процесса – важная задача, стоящая сегодня перед высшими учебными заведениями страны. Об этом говорится в Указе Президента Республики Узбекистан №5847 “Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 год” [2] от 08 октября 2019 года. Проблема формирования проектной культуры важна, потому что она на самом деле прогрессивна, ориентирована на жизнь и практику, культурно согласована, отвечает на необходимость формирования нового качества человека в 21 веке и способствует формированию социальной зрелости учащихся.

Обзор литературы. О.Генисаретский подчеркнул, что “проектная культура” “в самом широком смысле как современный контекст проектирования, взятый в целостности”[3].

В.Ф. Сидоренко в своей научно-исследовательской работе “Генезис проектной культуры”, интерпретируя проектную культуру, отмечает, что “Институциональная проектная культура проявляется непосредственно в проектной деятельности, которая сегодня представляет собой сложную и организованную систему взаимодействия между различными специалистами, функционально связанную с системами управления, планирования и, в свою очередь, является особенным типом при производстве проектной документации” [4, 91]. С.Ю.Камнева считает, что “Проектная культура проявляется в умении решать проблемы в условиях неопределенности задач и вариативности результатов” [5, 44].

Проектная культура является объектом исследования у ряда ученых (О.А. Абдуллина, З.И. Васильева, О.С. Газман, Ф.Н. Гоноболин, В.Ю. Кричевский, Н.В. Кузьмина, В.А. Сластенин, А.И. Щербаков), которые рассматривают данное понятие как объект исследования психологии.

Другие же ученые, Л.С. Выготский, А.Н. Леонтьев, А.А. Мелик-Пашаев, С.Л. Рубинштейн придерживаются позиции, что проектная культура достигается через внутренние состояния личности [6, 136].

В социологических работах проектная культура рассматривается учеными (Г.С. Батищева, В.В. Борисов, С.Н. Войцеховский, Ж.Т. Тощенко, В.А. Луков, Г.А. Люкс, Г.А. Наместникова, Е.А. Окладникова) как процесс овладения навыками проектного мышления и развития, где основным аспектом, характеризующим культуру проекта, является направленность деятельности на достижение определенного результата.

Мы солидарны с П.К.Магамедовой, которая утверждает, что “Проектная культура, являясь важной составляющей готовности педагогов к реализации инновационной деятельности, носит ярко выраженный творческий характер и определяет их способность к педагогической проблематизации, определению целей, конструированию инновационной системы принципов, содержания, форм, методов. реализации учебного процесса с последующим рефлексивным анализом и корректировкой результатов внедрения педагогической инновации” [7, 177].

Проектная культура – относительно новая, но очень важная составляющая профессиональной культуры современного учителя. Он представляет собой набор методов проектирования для инновационной трансформации образовательной реальности на основе прогнозирования, планирования, проектирования, исполнения (в течение определенного периода времени) и оценки достижения [8, 53].

Основная часть. Рассматривая вышеуказанные интерпретации данного понятия, можно сказать, что “проектная культура” стало одним из основных понятий междисциплинарного научного аппарата и распространилось на современную науку в связи с усилением мировоззрения, технологической стороны ряда социокультурных, социально-педагогических профессии.

Проектная культура позволяет инновационным образом решать педагогические ситуации, возникающие в педагогической деятельности. Развитая проектная культура определяется способностью моделировать и прогнозировать педагогические проблемы в условиях неопределенности задач и вариативности возможных результатов. Проектную культуру можно интерпретировать как особую форму инновационных процессов и одновременно как результат творческой самореализации профессионала на каждом этапе его обучения как субъекта деятельности в профессиональной деятельности.

Проектная культура является системно-функциональной по своей структуре, технологической с точки зрения взаимосвязи компонентов и системно-синергической с точки зрения обеспечения эффекта деятельности.

Обобщая вышесказанное, мы считаем, что проектная культура может быть определена как интегративное качество личности, в котором как целостность представлены мотивационно-целевой, интеллектуальный, деятельностный и эмоционально-оценочный компоненты. Это определенная, достаточно квалифицированная степень соответствия деятельности педагога нормам культуры, включающим педагогические нормы и ценности, научно-когнитивные нормы деятельности, предметно-научные нормы и систему социально-ценностных ориентиров.

Мы солидарны с Ф.Н.Алипхановой, которая утверждает, что проектная культура в образовательной деятельности охватывает не только процессы создания социокультурных ценностей, но также состояние личности и продуктивные процессы усвоения этих ценностей [9, 243]. И автор выделяет следующие элементы (см.табл. №1):

Таблица №1. Элементы усвоения ценностей [10, 244]

№	Наименование	Описание
1.	Процедурный	Процесс создания социокультурных ценностей, который включает в себя цели деятельности, мотивы, способы, приемы, действия.
2.	Личностный	Состояния личности, которые побуждают человека к овладению проектной культуры;
3.	Информационный	Усвоенное содержание;

Рисунок 1. Проектная культура как система.

Мы придерживаемся мнения Д.А.Крылова, утверждающего, что технология обучения проектной культуры будущего педагога основана на методе целевой программы, идеях целостности и системности образовательного процесса, а также на системном подходе к учебной деятельности [10, 112]. И рассматриваем проектную культуру как систему (см.рис. №1).

Выводы и дальнейшие перспективы исследования.

Подготовка будущих специалистов, отвечающих современным требованиям рынка, возможна только через интеграцию профессионального развития, которое основано на овладении профессиональными знаниями, умениями и навыками, развитии творческой и практической направленности личности, которые являются ключом, влияющим на формирование проектной культуры.

Выполняя учебные и исследовательские задачи, студенты, вовлеченные в проектную деятельность, больше осознают свою важность для их будущей профессиональной деятельности, что приводит к расширению положительных мотивов и исчезновению нежелательных.

Проектная культура педагога основана на проектной компетенции, которая включает в себя знания и навыки по основам проектирования, формирование творческих качеств и навыков личности, его умение конструировать собственные инновационные технологические подходы к решению задач в условиях динамических нестандартных изменений. творческая деятельность в преобразующей деятельности, направленная на оптимизацию и эстетическую организацию жизнедеятельности человека.

Заключение. Подводя итог, можно сказать, что возрастающая роль образования в современной социально-экономической ситуации приводит к качественному изменению области профессиональной деятельности учителя. Наряду с традиционными функциями учителя (обучение, воспитание, поддержка развития, оценивание, работа с родителями и др.) В контексте модернизации образования появилась такая принципиально новая профессиональная функция, как “проект” (прогнозирование, проектирование и организация содержания и процессные аспекты образования и социокультурной среды).

Развитая проектная культура будущих педагогов позволяет сохранять базовые ценности образования и одновременно учитывать изменения социокультурной ситуации. Создание нового проекта можно определить, как постепенное воплощение образа будущего. Проектная культура субъектов образовательного процесса становится основой инновационных изменений, обеспечивающих повышение качества обучения, активизацию самопознания, понимание путей и возможностей самореализации, самореализации личности.

Литература

1. Петрунева Р.М. Технический университет в постиндустриальную эпоху трунева // Высшее образование для XXI века: докл. и матер. V Междунар. науч. конф. (Москва, 13-15 нояб. 2008 г.). Секция 1: Философия высшего образования. – М.: Моск. гуманитарный ин-т, 2008. - Вып. 1.

2. Указ Президента Республики Узбекистан №5847 “Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://lex.uz/ru/docs/4545887 (дата обращения: 02.02.2021)

3. Генисаретский О.И. Деятельность проектирования и проектная культура. Предисловие к неизданной книге о проектной культуре // Центр гуманитарных технологий. – 1994 [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://gtmarket.ru/ laboratory/expertize/2007/2692 (дата обращения: 04.02.2021)

4. Сидоренко ВФ. Генезис проектной культуры / В. Ф. Сидоренко // Вопросы философии, 1998. – № 3. – С.86–99.

5. Камнева С. Ю. Формирование проектной культуры как инновационный подход //Russian Journal of Education and Psychology. – 2012. – №. 10.

6. Задворная М. С. Сущность понятия “Проектная культура педагога” //Вопросы педагогики. – 2020. – №. 4-2. – С. 134-140.

7. Магомедова П.К., Атаева Э.А., Алиева Р.Р. Формирование проектной культуры будущего педагога в процессе профессиональной подготовки //Мир науки, культуры, образования. – 2018. – №. 3 (70). – 176-178 с.

8. Алипханова Ф.Н. Профессиональная подготовка бакалавров в условиях компетентностного подхода. Научные исследования и образование. 2016; 4 (24): 52 – 56.

9. Алипханова Ф.Н., Магомедова П.К. Содержание и процесс формирования проектной культуры будущего педагога // Современные педагогические технологии профессионального образования. – 2018. – С. 243-255.

10. Крылов Д.А. Технология формирования проектной культуры будущего педагога //Вестник Чувашского государственного педагогического университета им. ИЯ Яковлева. – 2015. – №. 3 (87).

Hikmat BOBOMIRZAYEV
pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent

Sevara SUVONOVA
Navoiy davlat pedagogika instituti
pedagogika nazariyasi va tarixi
mutaxassisligi 2-kurs magistri

YANGI O‘ZBEKISTONNI QURISHDA ZAMONAVIY O‘QITUVCHILARNING O‘RNI

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, ta’lim faoliyati yoritilgan bo‘lib, zamonaviy pedagog kadrlarni tayyorlash, pedagogik mahorat malakalari, ijtimoiy pedagogika sohasining tub mohiyati, muammoli vaziyatlarni konstruktiv tomonga hal etishda ijtimoiy pedagog roli ahamiyati yoritib berilgan.

***Kalit so‘zlar**: pedagogika, “El-yurt umidi jamg’armasi”, ijtimoiy pedagogika, konstruktiv, muammoli vaziyat, ijtimoiylashuv, Shomahmudovlar, Rossiya.*

В данной статье освещены реформы, осуществляемые в новом Узбекистане, в частности, образовательная деятельность, подготовка современных педагогических кадров, квалификация педагогического мастерства, сущность социальной педагогики, роль социального педагога в конструктивном решении проблемных ситуаций.

***Ключевые слова:** педагогика, Фонд “Эл-юрт умиди”, социальная педагогика, конструктивизм, проблемная ситуация, социализация, Шомахмудовы, Россия.*

This article highlights the reforms implemented in the new Uzbekistan, in particular, educational activities, training of modern pedagogical personnel, qualification of pedagogical skills, the essence of social pedagogy, the role of a social teacher in the constructive solution of problem situations.

***Key words:** pedagogy, “El-yurt umidi” foundation, Social pedagogy, constructivism, problematic situation, socialization, Shomahmudovs, Russia.*

Kirish. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar aholi manfaatlari uchun xizmat qilmoqda. Xususan, jamiyat a’zolarining huquqiy madaniyatini yuksaltirish, har bir fuqaroning jamiyatdagi o‘z o‘rni va mavqeyiga ega bo‘lish maqsadida aholining ta’lim olganlik darajasini yuksaltirish uchun qilinayotgan islohotlar bunga misol bo‘la oladi. Jumladan, ta’lim muassasalarida ajratilayotgan qabul kvotalari (sirtqi, kechki, maxsus sirtqi, imtiyozli grantlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillari uchun imtiyozlar) yoinki bakalavr, magistratura hamda doktaranturani nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalarida o‘qish uchun “El-yurt umidi jamg’armasi” tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar, bularning barchasi, zamon talabiga javob beruvchi raqobatbardosh bo‘lgan va innovatsiyaga boy bo‘lgan zamonaviy kadrlarni yetishtirishdan iboratdir. Bu o‘rinda esa ta’lim-tarbiyaning o‘rni beqiyosdir.

Asosiy qism. Ta’lim jamiyatning o‘ziga xos funksiyasidir, uning yordamida avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar, muayyan jamiyatning an’analarining uzluksizligi pedagogik bilimlarning mustahkamlanishi bilan amalga oshiriladi. Pedagogika juda keng qamrovli va tarmoqlanuvchi soha bo‘lib, u o‘z o‘rnida quyidagicha tasniflanadi:



Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etar ekanmiz, unga munosib yosh kadrlar faoliyatini yo‘lga qo‘yilsa raqobatbardosh sifatli, ilmga chanqoq kadrlar bizni kelajagimizni qurishga hissa qo‘sha oladilar.

Bunday kadrlarni yetishtirishni uzluksiz talimning boshlang'ich bo‘g'inlaridan boshlamoq darkor. Shu o‘rinda yurtboshimiz ham ta'kidlab o‘tganlaridek: "Biz ko‘zi yonib turgan iste'dodli yoshlarga sharoit yaratmasak, hech qachon maqsadga erisha olmaymiz. Agar olingan bilim puxta bo‘lsagina diplom o‘z kuchini ko‘rsatadi. Buning uchun yoshlarga maktabda sifatli ta'lim berish lozim. Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi [1],– degan edi davlatimiz rahbari. Shunday ekan maktab ta'limining sifat darajasi ta'lim-tarbiya berayotgan yetuk pedagoglar zimmasidadir.

Jamiyatni tashkil etishda pedagogika fani, xususan, ijtimoiy pedagogika yoshlarni mustaqil hayotga yaxshi va sifatli tayyorlash zarurati, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy jamiyatda yuksalishni ta'minlaydi. Ijtimoiy pedagogika, o‘z navbatida, shaxsga qaratilgan. U insonning ehtiyojlari, bilimlari uchun mas'uldir, Uni jamiyatning ijtimoiy birligi sifatida namoyon bo‘lishiga hissa qo‘shadi. Buning uchun esa ijtimoiy pedagog, tom ma'noda, pedagogik mahoratni puxta egallagan, shuningdek, yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarni konstruktiv tomonga hal qilmog'i lozim. Haqiqiy pedagogik malaka, pedagogik texnikani to‘liq o‘zlashtirish uchun esa mukammal egallangan bilim asqatadi.

Bugungi kunda ijtimoiy pedagogik faoliyat sohasi har bir qatlamda mavjud. Xususan, maktablarda faoliyat olib borayotgan ijtimoiy pedagogning asosiy vazifasi - bu oilani, ta'lim muassasasini, bolani tarbiyalashda turli ijtimoiy institutlarning o‘zaro hamkorligini ta'minlash, uni murakkab zamonaviy sharoitlarga moslashishga yordam berishdir. Buning uchun esa pedagogning o‘zi ham zamon talabiga javob bermog'i lozim.

Zamonaviy o‘qituvchi guruhdagi o‘quv jarayoni tashkilotchisidir. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun o‘quv jarayonida, qo‘shimcha darslarda va, shu bilan birga, darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbaidir. Ko‘pchilik o‘qituvchilar o‘z vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo‘lib hisoblanadilar. Zamonaviy o‘qituvchi ijtimoiy psixolog bo‘lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy- psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur.

O‘qituvchi pedagog jamoa a'zosi sifatida pedagogik faoliyatini uyushtirishda bevosita ishtirok etib, turli fan o‘qituvchilari va guruh murabbiylarining metodik birlashmalarida ishlaydi, topshiriqlarni bajaradi. Har bir o‘qituvchi o‘quvchilarning ota-onalari va jamoatchilik oldida ma'ruzalar o‘qib, suhbatlar olib borar ekan, demak, u pedagogik bilimlar targ‘ibotchisi hamdir.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat - kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biri.

Jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablaridan eng muhimi o‘qituvchining shaxsi va uning kasbi bilan bog‘liq xislatlariga qaratilgan. O‘qituvchining eng muhim xislatlari quyidagilardan iborat:

- o‘qituvchining o‘z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash istagi, o‘z yurti, ona tili, o‘z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatining mustaqilligi g‘oyasida yashashidan iboratligi;
- ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi;
- oliyjanobligi, aqlli, farosati, ma'naviy pokligi ma'naviyat va ma'rifat bo‘yicha yuksak maqsadlarni bolalarga singdirib borishi;
- o‘zini qo‘lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam, matonatliligidir. Bugungi kunda ijtimoiy pedagog lavozimi ikki turdagi muassasalarda - ta'lim va yoshlar ishlari qo‘mitalarida rasman qabul qilindi. Yoshlar ishlari bo‘yicha qo‘mitalar tizimida "ijtimoiy pedagog" lavozimi 8 turdagi muassasalarning shtat jadvaliga kiritildi: kasbga yo‘naltirish markazlari, bolalar ijodiyoti uylari, yoshlar turar joylari, o‘smirlar uchun dam olish uylari, hovli bolalar klublari ta'lim yoshlar markazlari, bandlik markazlari, bolalar va yoshlar mehnat birjalari. Ta'lim sohasida ushbu lavozim 6 turdagi ta'lim muassasalarining shtat jadvaliga kiritildi, ularning tarmog'i faol rivojlanmoqda:

❖ maktabgacha ta'lim muassasalari;
❖ umumiy ta'lim muassasalari;
❖ umumta'lim maktablari;
❖ umumta'lim maktablari - internatlar;
❖ yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun ta'lim muassasalari.

Maktabda ta'lim jarayonini ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning maqsadi: ijtimoiy pedagog o‘quvchilar va ularning oilalariga yordam berish, maktab negizida bolaning ijtimoiylashuvi muammolarini hal qilishdan iborat.

Shaxsning qadri uning jamiyatda tutgan o‘rni bilan belgilanib, ko‘p jihatdan uning tarbiyasiga bog'liq bo‘ladi, tabiiyki, bolaning ilk tarbiyachisi ota-ona hisoblanadi. Bolalarni oila muhitida tarbiyalash davomida ularga hayot to‘g'risida, yaxshi va yomon xulqlar, odamlarning jamiyat oldidagi burchlari haqidagi dastlabki tasavvurlarni berishi lozim. Bolalarning oiladagi an'ana va mavjud ijobiy odatlarni o‘zlashtirishi hamda asta-sekinlik bilan hayot tajribalarni orttirishi tarbiyada beqiyos ahamiyatga ega. Xususan, ulug' hakim Abu Ali

ibn Sino yosh bolani yaxshi axloqli, jismoniy sog'lom bo'lishi uchun tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo'lish usuli g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligini qayta-qayta uqtirib o'tganlar. Ilk tarbiyachilar ta'limga yo'naltirish orqali tarbiyalanayotgan shaxsni ilm sohalarini zabt etib, yuksak cho'qqilar sari harakatlanadi.

Lekin hayot biz o'ylagandek bo'lavermaydi. Ushbu jamiyatda tepalik-u pastlik, chuqurlik-u do'ngliklardan iboratdir. Bola o'sib rivojlanar ekan, ushbu jarayonida uning xulq-atvorida bir qancha ijtimoiy va psixologik muammolar yuzaga kela boshlaydi. Ushbu o'rinda esa pedagogning, jumladan, ijtimoiy pedagogning pedagogik mahorati va psixologik roli beqiyosdir.

Xo'sh, ijtimoiy pedagogning jamiyatimizdagi o'rni va vazifalari nimalardan iborat? Ijtimoiy pedagogika - shaxsning ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganish, jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari, texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo'llashga qaratilgan pedagogika sohasi.

Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan rasman ro'yxatdan o'tgan yigirma mingta kasb orasida "ijtimoiy pedagog" kasbi ham mavjud. O'n besh yildan ortiq vaqt mobaynida Rossiyada ijtimoiy yordam va aholini himoya qilish tizimini ta'minlash uchun mo'ljallangan ijtimoiy o'qituvchilar instituti (kasb sifatida) joriy etilganiga qaramasdan, ko'plab fuqarolar bu haqida juda kam ma'lumotga ega. Bolalar uchun ijtimoiy yordamning ichki va xorijiy tajribasini qiyosiy tahlil qilish, kattalar, xususan, aholining har qanday toifasiga ijtimoiy yordamni olib borish. Bu o'rinda bolaning ta'lim va tarbiyasi, rivojlanishi va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi bilan bog'liq pedagogik komponentga ega bo'lishi kerak. Natijada, bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatishga qaratilgan faoliyat ijtimoiy-pedagogik bo'lib, pedagogik faoliyatning bir turi hisoblanadi.

O'zbekistonda esa ijtimoiy pedagogika fani rivojlanishi aynan urush yillariga to'g'ri keladi. Chunki ijtimoiy pedagogik qarashlarning tub ma'nosida ijtimoiy ko'mak, ijtimoiy himoya yotadi. Urush yillarida esa yetim bolalarni asrab olish, ularni boqish, ijtimoiy himoya qilish tushunchalari nafaqat zamon talabi edi, balki xalqimizninmg azaldan qon-qoniga singan tushunchalar sanaladi. Shomahmudovlarning 16 ta yetim bolalarni asrab olishgani bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari, urush yillarida o'zbek oilalari jami 4,5 ming nafardan ziyod yetim bolalarni asrab olishgan. Shomahmudovlar singari samarqandlik Samadovlar 13, F.Qosimovalar esa 10 bolani parvarishlab o'stirganlar [6]. Bu orqali haqiqiy ijtimoiy pedagogik himoyani namoyon eta olganlar.



Ijtimoiy-pedagogik qo'llab-quvvatlashning funksional mazmuni:

diagnostika (talabalarning shaxsini o'rganish, oilalarni ziyorat qilish), bashoratli (oila tashxisini hisobga olgan holda ta'lim holatini modellashtirish);

tashkiliy-kommunikativ (ota-onalarning psixologik-pedagogik ta'limi);

inson huquqlari (oila a'zolarining huquqlari, erkinliklari, ijtimoiy kafolatlarini himoya qilishda qo'llab-quvvatlash); bolalar nafaqalarini olish, ota-ona huquqlaridan mahrum qilish bo'yicha sudda ishtirok etish tiklandi;

profilaktik-profilaktik (o'quvchilarning deviant xatti-harakatlarining oldini olish); o'quvchilarning akademik ko'rsatkichlari va davomiyligini hisobga olish va nazorat qilish;

ijtimoiy-maishiy (muhtoj oilalarga moddiy yordam koʻrsatish);

ijtimoiy-psixologik (shoshilinch ijtimoiy-psixologik yordamni amalga oshirish); ota-onalarga, oʻquvchilarga, oʻqituvchilarga oʻzlarini qiziqtirgan masalalar boʻyicha maslahat berish;

tashkilotchilik (dam olish - madaniy, sport-sog'lomlashtirish faoliyatini ta'minlash), barcha maktab tadbirlarida va tadbirlarda ishtirok etish.

Shunday qilib, ijtimoiy-pedagog kim, uning vazifalari, oʻziga xos xususiyatlari, kasbiy faoliyatidagi kasbiy va shaxsiy fazilatlari, faoliyat yoʻnalishi toʻg'risida hamda oʻquvchi yoshlarni ijobiy-foydali tashabbuslarni, ijodkorlikni, oʻz-oʻzini qoʻllab-quvvatlashning turli turlarini rivojlantirish, qiymat yoʻnalishlarini shakllantirish uning asosiy faoliyati demakdir.

Pedagogik faoliyatni olib borish jarayonida oʻquvchilarning axloqiy, estetik tamoyillarini shakllantirish, shuningdek, mehribonlik, halollik, tushunish, hurmat, bag'rikenglik, adolat, xushmuomalalik namoyon qilish, shuningdek, mehnatga qiziqish, mehnat qobiliyatini oʻrganish jarayonida mustaqillikka qiziqish uyg'otadigan oʻqituvchi. Oʻqituvchi bolalardagi barcha narsalarni mustaqil ravishda bajarish istagini shakllantiradi. Oʻqituvchi bolaning mustaqil boʻlishga urinishlarini, qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi, mehnatsevarlikni tarbiyalaydi. Erishilgan ish bolalarga erishilgan natijalardan, boshqalarga foydali boʻlishdan quvonch keltiradi. Oʻqituvchi bolalarni umumiy ish bilan birlashtiradi, umumiy mehnat jarayonida bolalarda olingan ish uchun umumiy mas'uliyat, oʻz-oʻzidan va birgalikda harakat qilish va natijaga erishish uchun birgalikda harakat qilish qobiliyati shakllanadi.

Ma'lumki, ijtimoiy oʻqituvchilarni tayyorlash va tarbiyalash faqat oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Mamlakatimizda ma'naviy boylikni va jismoniy sog'lomlikni uyg'unlashtirgan insonni tarbiyalash koʻzda tutilgan. Bugungi zamon sharoitida yosh avlodni tarbiyalash masalalari davlat faoliyatida muhim ahamiyat kasb etdi. Ta'limni hayotning dastlabki yillaridan boshlash va bu boradagi yetakchi oʻrin ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarga tegishlidir. Oʻqituvchi va ijtimoiy oʻqituvchi oʻrtasida professional faoliyatda juda koʻp umumiylik mavjud, biroq ularning vazifalari boʻyicha farqlar mavjud. Bu ikki kasb bolalar bilan ishlashi uning oʻxshashlik jihatlarini birlashtiradi. Shu bilan birga, ushbu mutaxassislarning professional faoliyati bir qator muhim farqlarga ega boʻlib, ular birinchi qarashda ushbu kasblarga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon beradi. Oʻqituvchining asosiy vazifasi oʻquvchilarni bilim, koʻnikma va malakalar bilan qurollantirish, ta'limning tartib-qoidalar va me'yorlarga oʻrgatishdir. Oʻqituvchi birinchi navbatda professional mahoratga, bolalarga boʻlgan muhabbatga ega boʻlishi lozim. Dobrolyubov shunday deb yozgan edi: "Oʻqituvchi boʻlish uchun juda koʻp narsa kerak. Ideal murabbiydan aqliy jihatdan ishonchning ravshanligi va qat'iyligi juda yuqori darajada keng qamrovli rivojlanish talab etiladi. Oʻqituvchining tabiati har tomonlama bolaning tabiatidan ancha yuqori boʻlishi kerak". Ustoz, ota-onadan keyin yaxshilik va yomonlik oʻrtasidagi asosiy farqlarni asoslab beruvchi ikkinchi shaxs. Ma'lumki, har bir inson erkinlik va huquqqa ega boʻlgan noyob, yorqin shaxsdir. "Ijtimoiy oʻqituvchi" kasbining vakillari ham umumiy, oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlishi kerak. Ular insondagi ushbu erkinlik va huquq tushunchalarini anglatish barobarida inson shaxsi uchun yuklatilgan fuqarolik burchi va vazifalarini anglatish, ijtimoiy jamiyatning yetuk a'zosiga aylantirish ularning jamiyat oldidagi asosiy vazifasidir.

Adabiyotlar

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkentdagi Xalqaro kongress markazida 1-oktabr – "Oʻqituvchi va murabbiylar kuni"ga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.// https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-oqituvchi-va-murabbiylar-kuniga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi.

2.Gurov V.N. Ijtimoiy-pedagogik ishlarni tashkil etish tajribasi. –Pedagogika, 2003.- № 4. -P.54.

3. Kalacheva I. Maktab ijtimoiy oʻqituvchilarining kasbiy shakllanishi, etnopsixologik jihatlar. -198 b.

4. Kodjaspirova, G. M. Pedagogning kasbiy ta'lim madaniyati. -M.: "Fan va hayot", 2000. - 246 b.

5. Holostov E. I. Rossiyada ijtimoiy ish tarixi. Darslik.

6. Xabar.uz

Maral KADIROVA
Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti

TALABALARDA IQTISODIY KO‘NIKMALARNI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI

Ushbu maqolada iqtisod tushunchasi turli davrlarda taniqli iqtisodchilar tomonidan ta’riflangan hamda uning tarixiy ahamiyati haqida fikr yuritilgan bo‘lib, iqtisodiy tarbiya mazmuniga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *iqtisodiyot, iqtisodiy tarbiya, ko‘nikma, amaliy ko‘nikmalar, aqliy ko‘nikmalar, ishlab chiqarish, qo‘shma korxonalar, moliya, bank, bozor iqtisodiyoti, kapitalizm, ayriboshlash, taqsimot, iste’mol, an’anaviy iqtisodiyot, Partisipativ iqtisodiyot, merkantilizm, fiziokratizm, kompetensiya, bilim iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyot, deduktiv mantiq, axborot texnologiyalari, modernizatsiya, innovatsiya.*

В данной статье дается определение концепции экономики известными экономистами в разное время и обсуждается ее историческое значение с особым акцентом на содержании экономического образования.

Ключевые слова: *экономика, экономическое образование, навыки, практические навыки, интеллектуальные навыки, производство, совместные предприятия, финансы, банковское дело, рыночная экономика, капитализм, обмен, распределение, потребление, традиционная экономика, экономика участия, меркантилизм, физиократизм, компетенция, экономика знаний, национальная экономика, дедуктивная логика, информационные технологии, модернизация, инновации.*

This article defines the concept of economics by well-known economists at different times and discusses its historical significance, with special emphasis on the content of economic education.

Key words: *economics, economic education, skills, practical skills, intellectual skills, production, joint ventures, finance, banking, market economy, capitalism, exchange, distribution, consumption, traditional economy, participatory economy, mercantilism, physiocratism, competence , knowledge economy, national economy, deductive logic, information technology, modernization, innovation.*

Kirish. Jamiyat rivojining ustuni iqtisodiy-ijtimoiy tafakkur mahsulidir. Bunda har bir shaxs iqtisodiy ongining taraqqiyoti va ko‘lamdorligi yuksak ahamiyat kasb etadi. Jumladan, tafakkurning shakllanish bosqichi bilim, ko‘nikma va malakaning egallanishi bilan baholanadi. Ta’lim jarayonida iqtisodiy ong ta’lim turlarining barcha bosqichlarida dastur va standartlarda belgilangan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiya shakllantirish orqali tashkil qilinadi.

Asosiy qism. “Iqtisodiyot” so‘zining o‘zagini “iqtisod” so‘zi tashkil etadi. Iqtisod so‘zining o‘zbek tilidagi lug’aviy ma’nosi “sarf-xarajatlarda tejamkorlik” demakdir. Mashhur ma’rifatparvar vatandoshimiz Abdulla Avloniy iqtisodga shunday ta’rif beradi: “Iqtisod deb pul va mol kabi ne’matlarning qadrini bilmoqqa aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o‘rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o‘rni kelganda so‘mni ayamas”[1]. Inson yaratilibdiki, mehnatini yengillashtirish, hayot kechirishi uchun zarur ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga harakat qiladi. Mehnat qilishning o‘zi ham tirikchilik o‘tkazishga qaratilgan. Demak, inson dunyoga kelibdiki tirikchilik harakatida bo‘ladi, desak xato qilmaymiz. Insonning mehnat unumi qancha yuqori bo‘lsa, yashash uchun ne’matlar shuncha ko‘p yaratiladi. Ana shuning uchun ham ajdodlarimizning diqqat-e’tibori qanday qilib hayot kechirish uchun zarur ne’matlarni ko‘paytirish yo‘llarini topishga qaratilgan. Eng aqlli, zukkolar o‘z davriga, sharoitiga mos ravishda eng maqbul yo‘llarni topishgan va undan foydalanishni tavsiya etishgan. Ulardan ko‘plarining nomi tarixda qolgan.

Iqtisod - jamiyatning hamma a’zolari uchun faravon hayot yaratish usul va vositalarni o‘rganadigan va amalda qo‘llaydigan soha. Iqtisodiyotning yagona maqsadi esa jamiyatning har bir a’zosi uchun yaxshi turmush tarzini yaratish. Ana shu asosiy maqsaddan boshqa ikkilamchi maqsadlar kelib chiqadi: iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, ishlab chiqarishni rivojlantirish, barchani ish bilan ta’minlash nazarda tutiladi. Jumladan, “iqtisodiyot” so‘zi odatda ikki va hatto uch ma’noda ishlatiladi. Birinchidan, iqtisodiyot – bu xo‘jalik yuritish, inson tomonidan yaratilgan turli ne’matlardan foydalanib hayot kechirish, insonlar hayotini ta’minlash va yaxshilash tizimi. Ikkinchidan, iqtisodiyot – bu resurslar va jamiyat a’zolari tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarning firma va uy xo‘jaliklari orasidagi uzluksiz doiraviy harakati. Uchinchidan, iqtisodiyot – bu fan, turli-tuman cheklangan resurslardan foydalanib, jamiyat ehtiyojlarini qondirish bilan bog’liq bo‘lgan, xo‘jalik yuritish jarayonida odamlar o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlar haqidagi bilimlar majmui.

Shu o‘rinda “iqtisodiy ko‘nikma” tushunchasiga va uning mohiyatiga e’tibor qaratamiz. Ko‘nikma [16] - insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobilyatidir. Ko‘nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo‘llay olishga oid faoliyatning tarkibiy qismidir.

Ko‘nikma faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda harakatni muvaffaqiyatli bajarish usullaridir. U hamisha bilimlarga asoslanadi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanadi. Ko‘nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy ko‘nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy ko‘nikmalar bilim olishga, uni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ko‘nikmalarni bilim bilan adashtirmaslik lozim, chunki bilimlar voqelik to‘gri aks ettirilgan hukm (mulohaza)larda ifodalanadi. Ko‘nikmalar esa ko‘proq aqliy va jismoniy harakatlarda mujassamlashadi.

Iqtisodiy tarbiya orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy tarbiya o‘quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, oila xo‘jaligini yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo – sotiq muhosabatlarini to‘g’ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Iqtisodiyot [13] – cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, insonlar uchun zarur bo‘lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va yetkazib berishga qaratilgan va chambarchas bog’liqlikda amal qiladigan faoliyatlar birligidir.

M. Mahkamova, I.Mastayeva hamda N.Yuldashevalar “Iqtisodiyot odatda samaradorlik, tejamkorlik omillardan oqilona foydalanish” [9] kabi tushunchalar bilan qo‘shilib ular uyg’unligida qabul qilinadi deb keltirishadi.

Shuningdek, D. Tojiboyeva [14]: “Iqtisodiyot har qanday jamiyatning asosi, rivojlanib borish shart-sharoiti, chunki hayot, eng avvalo, tiriklik ne’matlari ishlab chiqarishni obyektiv zarur qilib qo‘yadi”, deydi. Insonlar hayot kechirishlari uchun o‘z ehtiyojlarini qondirishlari shart. Jamiyat bor ekan, ishlab chiqarish, ishlab chiqarilgan ne’matlarni ayirboshlash, taqsimlash va iste’mol qilish mavjud va bu jarayon uzluksiz tarzda bir-biriga bog’liq holda yuz beradi.

Jumladan, M.Yo‘ldoshev, Sh.Mamatqulov, F.Yo‘ldoshev [15]lar iqtisod so‘ziga ta’riflaganlarida quyidagi fikrni keltirib o‘tishadi. “Iqtisod” so‘zi tor ma’noda inson yaratgan barcha ne’matlarni, tabiatdagi barcha boyliklarni, insonning mehnatini tejab-tergab ishlatish ma’nosini ifodalaydi. Keng ma’noda iqtisodiyot deb atalgan holda, u, insonning tirikchiligini o‘tkazishga qaratilgan xo‘jalik faoliyati bo‘lib, bu faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanib, yaratilgan mahsulotlar iste’mol qilinishi bilan yakunlanadi.

Sh.R.Qobilov [12] esa iqtisodiyotni turli-tuman iqtisodiy faoliyatlarni, ishlab chiqarishning muayyan usulini hamda infratuzilmaviy muassasalarini yaxlit qilib birlashtiruvchi iqtisodiy tizim, deb keltiradi.

T.T.Jo‘rayev [8] ham iqtisodiyot so‘ziga ta’rif berar ekan, iqtisodiyot – bu iqtisodiy ne’matlar va vositalarni takror ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar, xo‘jalik yuritish shakllari, ularni tartibga soluvchi mexanizmlar va infratuzilmaviy muassasalarning ma’lum darajada tartibga solingan tizimidir, deb ta’kidlaydi.

B.Y.Hodiyev, Sh.Sh.Shodmonov qadimda iqtisodiy faoliyatning asosiy shakli uy xo‘jaligi doirasida ro‘y bergan. Shuning uchun qadimgi grek olimlarining (Ksenofont, Platon, Aristotel) asarlarida iqtisodiyot - uy xo‘jaligi va uni yuritish qonunlari deb tushuntirilgan. Arab leksikonida “iqtisod” tejamkorlik ma’nosida tushunilgan, chunki, islom diniga oid adabiyotlarda tejamkorlikka alohida e’tibor berilgan. Hozirgi davrda iqtisodiyot tushunchasi faqat uy, individual xo‘jalik yuritish yoki tejamkorlik ma’nosi bilan cheklanmaydi. Balki iqtisodiyot – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jaliklardan, xo‘jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konserinlar, qo‘shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o‘rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o‘ta murakkab iqtisodiy tizimni anglatadi.

Muhokamalar va natijalar. Iqtisodiyot [11] – yunoncha “ekonom” va “oykos” so‘zlari birlashmasidan kelib chiqqan. “Ekonomika” qishloq xo‘jalik asoslari haqida fan degan ma’noni anglatadi. Birinchidan, “ekonomika” so‘zi ommaviy o‘zbek lug‘atiga o‘tilganda “iqtisodiyot” atamasiga o‘zgaradi. Iqtisodiyot cheklanmagan ehtiyojlarni, cheklangan resurslardan samarali foydalanib boshqarishni o‘rganuvchi fan.

Ikkinchidan, kishilar tomonidan mehnatni qo‘llagan holda inson uchun zaruriy bo‘lgan ne’matlar, hayot sharoitlari va vositalarini yaratish orqali tirikchilikni ta’minlash, ehtiyojlarni qondirishda foydalaniladigan xo‘jalik vositalar, obyektlar, jarayonlar majmui. Ishlab chiqarish, ayriboshlash, taqsimot, iste’mol sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni qamraydi.

Uchinchidan, muayyan mamlakatning milliy xalq xo‘jaligi, yoki uning bir tarmog‘i (transport iqtisodiyoti, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va boshqalar).

To‘rtinchidan, xo‘jalikning u yoki bu tarmog‘ini, mintaqa xo‘jaligini, ishlab chiqarishni tashkil etish usullari va shakllarini, shuningdek, ishlab chiqarishni boshqarishni o‘rganadigan iqtisodiyot fanlari (sanoat iqtisodiyoti, savdo iqtisodiyoti va boshqalar).

Iqtisodiyot so‘zi ma’nolari:

1. Qandaydir xo‘jalik sohasining faoliyati, tashkiloti yoki strukturasi, yo bo‘lmasa umuman milliy iqtisodiyot.
2. Ilmiy predmet - iqtisodiyot nazariyasi.

3. Xo‘jalik hayotining faoliyati, tashkiloti yoki strukturasi – jahon iqtisodiyoti, regional iqtisodiyot, dunyo mamlakatlari iqtiodiyoti.

4. Ishlab chiqarish munosabatlari majmui, jamiyatning asosiy ishlab chiqarish usuli. Asosiy va eng umumiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari.

1. Bozor iqtisodiyoti (kapitalizm kabi “o‘ng” iqtisodiy tizimlar asosi).
2. Aralash iqtisodiyot (“markazchilar” tizimi).
3. Loyihaviy iqtisodiyot (sotsializm kabi “so‘l” oqimlar iqtisodiyoti).
4. An’anaviy iqtisodiyot (eng qadimiy tizimlar).
5. Partisipativ iqtisodiyot (yangi tizim).

Qadimda Yunon faylasuflaridan biri Ksenofont o‘zining ilmiy ishlaridan birini “Ekonomikos” deb ataydi. Bu asar orqali mamlakatida ro‘y berayotgan mahsulot almashinishi hamda ishchi xalqni qishloq xo‘jaligidan unumli foydalanib o‘zining moddiy ahvolini yaxshilashi borasida ilk marotaba so‘z yuritilgan. Keyinchalik bu sohalar borasida rivojlanish statistika oqimini keltirib chiqargan, natijada bir necha oqimlar vujudga keladi. Ulardan ayrimlari o‘rta asrlarda vujudga kelib, o‘zining yo‘nalishi bilan bir necha mamlakatlarda shuhrat qozongan.

Merkantilizm - oqimdir bu yo‘nalish “merkante” italiyancha so‘zdan olingan bo‘lib savdogar, xaridor ma’nosini anglatadi. XVI asrning oshlarida paydo bo‘lgan bu oqimning asoschilari taniqli italyan iqtisodchisi Tomas Men va fransuz iqtisodchisi Jan Batist Kolberg o‘zlarining ilmiy va amaliy ishlarida asos soluvchilar qatoridan joy olishdi. Merkantilizm tarafdorlari xalq boyligining manbasi va mamlakkat iqtisodiyotini rivojlanishi bu unin savdo bilan shug‘ullanishi, eksport-importning izchilligidadir deb hisoblashishgan.

Fizikkratizm – fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, hokimiyat tabiati ma’nosini beradi. Bu yo‘nalishning asoschisi fransuz demokratisti Frasnua Kenedir. Uning XVII asrda Parijning kichik bir nashriyotida chop etilgan “Iqtisodiy jadvallar“ kitobi orqali ushbu fiziokrat maqomida atalgan birinchi insonlardan biri sanaladi. Uning kitobida keltirilishcha xalq boyligining manbasi va mamlakat iqtisodiyotini rivojlanish bu aholining qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishiga bog‘liq deb hisoblanilgan.

Klassik iqtisodiyotchilar - bu oqim bizning zamonamizga o‘zaro bog‘liqligi bilan ajralib turadi. XVIII asrning ikkinchi yarmi XIX asrning boshlarida Adam Smid, William Petty, David Ricardo, Jean Baptist Sayning iqtisodiy ruknda ishlari ularni bevosita bu oqimni yaralishiga olib kelgan. Bu iqtisodchilarning fikricha xalq boyligining manbasi va mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi o‘zaro mahsulot ishlab chiqarish, raqobat faoliyatini kengaytirishi asosida yaratiladi deya hisoblashgan va o‘zlarining amaliy ishlarida buni yaqqol isbotlab berishgan. Iqtisodiyot hamisha jamiyat hayotining asosini tashkil etadi. Odam yashashi uchun o‘z ehtiyojlarini qondirishi kerak. Hamma ehtiyojlarni qondirish esa ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan bog‘liq. Inson san’at, adabiyot bilan shug‘ullanishdan oldin avval ovqatlanishi, kiyinishi va yashash joyiga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun zarur mahsulotlar, kiyim-kechak va boshqa tovarlar ishlab chiqarishda yaratiladi. Shu tarzda kishilarning moddiy turmush darajasi, moddiy ehtiyojlarning qondirilishi iqtisodiyotning holatiga, ishlab chiqarishning rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bevosita bog‘liqdir.

Ilmiy iqtisodiyot - iqtisodiyot nazariyasi insonlar va jamiyatning ko‘p maqsadlarda ishlatilishi mumkin bo‘lgan noyob resurslardan foydalanish usulini qanday tanlashlarini o‘rganuvchi fan.

Amaliy iqtisodiyot-iqtisodiyot nazariyasi tomonidan ishlab chiqilgan qonuniyat, nazariya, takliflarni bevosita iqtisodiy tizimning alohida elementlari faoliyatiga tatbiq qilish imkoniyatlarini o‘rganadi.

MDH davlatlarida P.N.Podlavilchevya, P.V.Skripchenko, I.N.Smirnova, F.I. Filchenkova, M.A.Pautova, P.V.Skripchenkolarning mavzu doirasida tadqiqot ishlari kuzatiladi. Jumladan, P.N.Podlavilchevya “Iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirishning omili sifatida deduktiv metod” mavzusida oliy ta’lim muassasalari iqtisodiy yo‘nalishlari talabalarining kasbiy kompetentligini deduktiv metodni qo‘llash orqali samarali shakllantirishning nazariy modelini ishlab chiqish, asoslash va tajriba asosida tekshirish asosida quyidagi yangiliklarni yaratgan. “Deduktiv mantiq” va “deduktiv iqtisodiy fikrlash” tushunchalari aniqlashtirilgan, oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiy fanlarni o‘qitishning samarali omili sifatida deduktiv metodning mazmun va mohiyati ochilgan, deduktiv metodlarni o‘qitish asnosida iqtisodchi-menejerning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish nazariy modeli tajriba asosida tekshirilgan va ilmiy asoslangan, oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetensiyalari mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari aniqlangan va asoslangan.

I.N.Smirnova [6] “Bo‘lajak iqtisodiyot o‘qituvchisining axborot texnologoyalaridan foydalanishda kasbiy tayyorgarligini shakllantirish” mavzusida bo‘lajak iqtisodiyot o‘qituvchisining axborot texnologoyalaridan foydalanishda kasbiy tayyorgarligini shakllantirishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni ochib berish, nazariy asoslash va tajriba asosida tekshirish maqsadi orqali quyidagi ilmiy yangiliklarni asosladi. “O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi” tushunchasi bo‘lajak iqtisodiyot o‘qituvchisining axborot texnologoyalaridan foydalana bilish nuqtayi nazaridan aniqlangan. Bo‘lajak iqtisodiyot o‘qituvchilarining axborot texnologoyalaridan foydalanishda kasbiy tayyorgarligini

shakllantirishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirilgan va asoslangan. O‘qituvchilik faoliyatida bo‘lajak iqtisodiyot o‘qituvchilarining axborot texnologoyalaridan foydalanishda kasbiy tayyorgarligini shakllantirishning mezonlari aniqlangan.

F.I.Filchenkova [7] oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishni oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish modelini ishlab chiqish va tajriba asosida tekshirish maqsadi orqali quyidagicha ilmiy yangiliklarni asosladi. Iqtisodchining kasbiy kompetentligining ta’rifi berildi. Iqtisodchining kasbiy kompetentligi - mutaxassisning jamlangan xarakteristikasi bo‘lib, moliyaviy-iqtisodiy, axborot-tahliliy, boshqaruv-tashkiliy kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi va kasbiy faoliyatni amalga oshirishda sifatni ta’minlaydi. Tizimning barcha qirralarini o‘zgartiruvchi ta’lim jarayonini texnologik tashkil etish asosida oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning modeli ishlab chiqildi. Matematik fanlarni o‘qitish jarayonida bo‘lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini shaklantirishning pedagogik shart-sharoitlari ajratildi:

- pedagogning kompetentligi;
- talabaning bilim olishga tayyorgarligi;
- o‘qitish mazmunining moduliga asoslangan o‘quv jarayonini uslubiy ta’minlash va fanlararo konseptual integratsiya;
- o‘quv fanlarining mazmunida kasbiy yo‘nalganlikni hisobga oluvchi umumiy matematik fanlar siklini o‘qitish jarayonini texnologik tashkil etish.

A.M. Pautova [3] “Iqtisod mutaxassisliklari talabalarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish” mavzusini bo‘lajak iqtisodiyot yo‘nalishlari mutaxassislari kommunikativ kompetentligini ta’minlovchi pedagogik texnologiyaning mazmuni va tuzilishini ochib berish va asoslash hamda oliy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonida tajriba asosida tekshirish maqsadida quyidagi ilmiy yangilikni asosladi. “Iqtisodiyot mutaxassisliklari talabalarning kommunikativ kompetenligi” tushunchasi aniqlashtirildi. Bu shaxslararo va kommunikativ mahoratlarni namoyish qilish qobiliyati, bo‘lajak kasbiy faoliyati bilan bog‘langan, OTMda ish yuzasidan va shaxslararo muloqotlar jarayonida namoyon bo‘luvchi va zamonaviy iqtisodiy ta’lim tendensiyalari hisobidan shakllanuvchi qimmatli noyob xislat. Bu tushuncha motivatsion mazmunli kasbiy va baholovchi asosiy komponentlarini o‘z ichiga oladi, bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarga kommunikativ kompetentligi rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar majmuasi ochib berildi va asoslandi. Mashg’ulotlar kompleksini ishlatish orqali kommunikativ kompetentlikni rivojlanirish zaruriyati nazariy va tajriba asnosida asoslandi, iqtisodiyot mutaxassisliklari talabalarining kommunikativ kompetenligini rivojlantirishni amalga oshirish pedagogik texnologiyasi OTM dagi ta’lim asosida qurilgan va tajriba sinovdan o‘tkazildi, quyidagilarni o‘z ichiga oluvchi mezonlar tizimini ishlab chiqdi: motivatsion, mazmunli, kasbiy va baholovchi kompetentlar, kommunikativ bilimlar va mahoratlar (past, o‘rtacha darajadan past, o‘rtacha va o‘rtacha qiymatdan yuqori darajalar) bo‘yicha aniqlanadi. Har bir mezon bo‘yicha sifat - miqdor baholarining me’yoriy na’munalari ishlab chiqiladi.

Ushbu maqolaning maqsadi iqtisodiyot uchun kasbiy tayyorgarlikning ayrim nazariy qoidalarini rivojlantirish va uni innovatsion asosda takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Jumladan, tadqiqotda quyidagi vazifalar qo‘yildi va hal qilindi: iqtisodiyot uchun kasbiy tayyorgarlikning mohiyati, konseptual apparati, prinsiplari va rolini aniqlashtirish, bilimlar iqtisodiyotini shakllantirish modelini nazariy asoslash, bilimlar iqtisodiyoti uchun kadrlar tayyorgarligini rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash, iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorgarligini rivojlantirish tendensiyalarini, uning kasbiy ta’lim darajalaridagi muvozanatini o‘rganish, bilimlar iqtisodiyoti uchun kadrlar tayyorgarligini modernizatsiya qilish shartlari va yo‘nalishlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar to‘plamini ishlab chiqish, bilimlar iqtisodiyoti uchun kadrlar tayyorgarligi sifatini oshirish modelini asoslash, yosh mutaxassislarning raqobatbardoshligi omillarini baholash usullarini ishlab chiqish, asoslash va sinovdan o‘tkazish.

Maqsadi pedagogika kolleji o‘quvchi-yoshlarida bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishning mazmuni, shakll va usullarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslash, o‘quvchi-yoshlarda iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish. Ilmiy yangiligi - pedagogika kolleji o‘quvchi-yoshlarida iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish muammosi ilmiy pedagogik jihatdan tahlil etilgan. Iqtisodiy tarbiyaga doir xalq pedagogikasi manbalari, Sharq mutafakkirlarining ilgor g’oyalari aniqlandi, pedagogika kolleji o‘quvchi-yoshlarining iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritildi, pedagogika kolleji o‘quvchi-yoshlarida iqtisodiy bilim va malakalarini rivojlantirish mazmuni samarali shakl va metod vositalari aniqlandi, uning o‘ziga xos tasnifi berildi, o‘quvchi-yoshlarda iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy tavsiyalar berildi.

A.Sh.Saipnazarov [10] akademik litseylar matematika kursida o‘quvchilarning iqtisodiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish kitobi. Maqsadi iqtisodiy yo‘nalishdagi akademik litseylarda matematika o‘qitish

jarayonida o‘quvchilarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishning yo‘llari va vositalarini ishlab chiqishdan iborat.

Yangiligi - maktab matematika kursini o‘quvchilarda iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdagi potensial imkoniyatlari ochib berildi, maktab matematika kursini o‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishlari mumkin bo‘lgan iqtisodiy tushuncha va qonuniyatlar sistemasi aniqlandi, maktab matematika kursi bo‘yicha iqtisodiy mazmundagi masalalar tanlash va tuzish prinsiplari ishlab chiqildi, iqtisod litseylari bo‘yicha iqtisodiy mazmundagi masalalar majmuasi yaratildi va ularni yechish metodlari tavsiya etildi.

Matematika darslari bilan to‘garak mashg’ulotlari o‘rasidagi aloqalarni o‘rnatish orqali V-VI sinf o‘quvchilariga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berishga uslubiy jihatdan yondashish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat, bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan o‘quvchilarning iqtisodiy ta’lim-tarbiyasining aniqlangan yangi komponentlari, matematika darslari bilan to‘garak mashg’ulotlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatgan holda o‘quvchilarga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berish yo‘lida yaratilgan yangi usul, shakl va vositalar, hozirgi zamon iqtisodiyoti mazmunini o‘z ichiga oladigan tatbiqiy masalalar sistemasi.

Xulosa. Iqtisodiyot hamisha jamiyat hayotining asosini tashkil etgani bois talabalarning iqtisodiy tafakkurni shakllantirish bosqichlaridan iborat bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarini puxta egallab, amaliyotda qo‘llab bilishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada MDH va respublikamiz olimlarining iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirish modellari, bo‘lajak iqtisodiyot o‘qituvchisining axborot texnologoyalaridan foydalanishda kasbiy tayyorgarligini shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlari tahlil qilindi.

Adabiyotlar

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. -T.: “Yoshlar” nashriyot uyi, 2018. - 97 b.
2. Камалова К.Н. Ўқувчи-ёшларда иқтисодий билим ва кўникмаларни ривожлантиришнинг педагогик шарт-шароитлари. дис. ... педагогика. фан. ном. 13.00.01. – Тошкент., 2005 – 148 б.
3. ПаутоваА.М. Развитие коммуникативной компетентности студентов экономических специальностей. 13.00.08 – теория и методика профессионального образования (педагогические науки). АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание учёной степени кандидата педагогических наук. – Новосибирск, 2009.-стр – 23.
4. Подлавильчевя П.Н. Дедуктивный метод как фактор эффективного формирования профессиональных компетенций студентов вуза экономического профиля 13.00.08 - диссертациия на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Тула, 2013. стр-24.
5. Скрипченко В.П. Совершенствование профессиональной подготовки кадров в условиях формирования экономики знаний. 08.00.05.»Экономика и управление народным хозяйством" (экономика труда) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Белгород-2010.-стр-28.
6. Смирнова И. Н. Формирование профессиональной готовности будущего учителя экономики к использованию информационных технологий/ 13.00.08 - теория иметодика профессионального образования Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Елец, 2007. – стр. 23.
7. Фильченкова Ф.И. Формирование профессиональной компетентности будущих экономистов в вузе.13.00.08 - профессионального образования *Автореферат* диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. - Нижний Новгород, 2009 – стр. 26.
8. Jo‘rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. –T.: “Fan va texnologiya”, 2017. -640 bet.
9. Maxkamova M., Mastayeva I. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi. Axborot-kommunikatsiya tizimlari mutaxassisligi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. -T., 2007. B-14.
10. Saipnazarov A.Sh. Akademik litseylar matematika kursida o‘quvchilarning iqtisodiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish. Diss..pedagogika fan.nom.13.00.02. –Toshkent, 1998. - 142 b.
11. O‘zME. Birinchi jild. -Toshkent, 2000-yil
12. Qobilov Sh.R. Iqtisodiyot nazariyasi // darslik. -T.: “O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi”, 2013. – 711 b.
13. Shodmonov Sh., Jo‘rayev T. Iqtisodiyot nazariyasi // ma’ruzalar matni. – Toshkent, 2000-yil. 12-b
14. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. To‘ldirilgan, 2-nashri. O‘quv qo‘llanma. -T.: TMI, 2005. - 438 bet.
15. Yo‘ldoshev M., Mamatqulov Sh., Yo‘ldoshev F. Iqtisodiyot nazariyasi. kasb-hunar kollejlari uchun darslik, 2-nashr. –Toshkent: “Ilm ziyo”, 2016. b - 6.
16. http://qomus.info/encyclopedia/cat-k/konikma-uz/

Азиза МИРЗАРАҲИМОВА
Термиз давлат университети ўқитувчиси

ЎҚУВЧИЛАРДА ИЛМИЙ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

Мақолада ҳар қандай фаолият шахснинг ўз олдига қўйган мақсади билан боғлиқ ҳолда вужудга келади ва унинг ҳаракатлари ушбу мақсад доирасида амалга оширилади, мазкур мақсадга эришиш натижаси сифатида намоён бўлиши хусусида фикр юритилган. Моддий борлиқдаги етишмовчиликларнинг англаниши натижасида шахс ўз олдига муайян мақсад қўяди. Шу маънода биз ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантиришга асос бўладиган нуқтаи назарларни назарий жиҳатдан таҳлил этишга ҳаракат қиламиз.

Калит сўзлар: *ўқувчи, дунёқараш, ўқитувчи, фаолият, субъект, таълим.*

В статье была высказана мысль о том, что любая деятельность возникает в связи с целью, которую ставит перед собой человек, и что его действия осуществляются в рамках этой цели, проявляются как результат достижения этой цели. В результате осознания недостатков материальных благ человек ставит перед собой определенную цель. В этом смысле мы попытаемся теоретически проанализировать точки зрения, лежащие в основе формирования научного мировоззрения у учащихся.

Ключевые слова: *ученик, мировоззрение, учитель, деятельность, предмет, образование.*

The article suggests that any activity arises in connection with the goal that a person sets for himself, and that his actions are carried out within the framework of this goal, are manifested as a result of achieving this goal. As a result of realizing the shortcomings of material goods, a person sets a certain goal for himself. In this sense, we will try to theoretically analyze the points of view underlying the formation of a scientific worldview among students.

Keywords: student, worldview, teacher, activity, subject, education.

Инсоннинг ўзига хослиги унинг ижтимоий фаолиятида намоён бўлади. Чунки фақат инсонгина фикрлаш ва онгли фаолият кўрсатиш лаёқатига эга. Агар инсон фикрлашдан тўхтаса, унда муайян мақсад ва ўз фаолиятини назорат қилиш имконияти йўқолади. У ўз фаолиятини онги ва ихтиёрига кўра амалга оширади. Ҳар қандай инсон ўз фаолиятининг субъекти ҳисобланади. Чунки у ўз онги, эрки асосида тўлақонли фаолиятни бажаришга қодир бўлади. Ҳар бир инсоннинг ўзлиги унинг шахсий нуқтаи назарида акс этади.

Е.В.Коротаеванинг таъкидлашича, ўқувчилар ҳамда ўқитувчиларнинг субъектив муносабатларини ўзаро тенг ҳодисалар сифатида баҳолаш мумкин эмас. Ўқитувчи – ўқитиш жараёнининг биринчи субъекти ва бошқарувчисидир. Ўқувчи ҳам ўқув-билув жараёнининг субъекти сифатида муайян ўқув фаолиятига киришади. Ўқитиш ва ўқиш ўзаро боғлиқ ҳодисалардир, шунинг учун ҳам ўқитувчи ҳамда ўқувчиларнинг субъект-субъект сифатидаги муносабатлари мазкур жараённинг асосини ташкил қилади. Бу ўринда ўқувчи билим олишга интилса, ўқитувчи уларга мазкур билимларни тақдим этади ва уларнинг билиш жараёнларини бошқаради. Бугунги кунга келиб ҳар бир шахс, шу жумладан ўқувчилар ҳам ўз нуқтаи назарларини бойитиш учун ўзбек халқининг миллий-маънавий қадриятларига мурожаат қилмоқдалар.

Ҳар бир ўқувчининг нуқтаи назарида унинг ҳаётга бўлган қатъий муносабати ифодаланади. Ўқувчи ўзининг ҳаётий нуқтаи назарларини мустақил тарзда эгаллаган билимлари ва тўплаган тажрибалари заминида таркиб топтиради. Ҳар бир ўқувчининг нуқтаи назари қандай таркиб топганлигини, унинг мазмун-моҳияти яққол намоён қилади. Ўқувчилар ўз нуқтаи назарларини ўзларини ўраб турган борлиқ асосида шакллантирадилар. Айнан бир хилдаги кишилар мавжуд бўлмаганидек, ўзаро бир хилда тенг келадиган нуқтаи назар ҳам мавжуд эмас. Буни муайян бир масалага оид фикрларнинг турли-туманлигидан ҳам билиш мумкин. Ҳар бир нуқтаи назар ўзига хос индивидуал характерга эга.

Ўқув-тарбия жараёнининг муҳим вазифаларидан яна бири, ўқувчиларда фуқаролик нуқтаи назарларини шакллантиришдан иборатдир. Ўқувчилар ўз олдиларига қўйган мақсадларига эришишлари учун, уларнинг фаолиятларини мунтазам бойитиш ва рангба-ранг бўлишини таъминлаш лозим. Ўқувчилар ўқув-тарбия жараёнида ўзаро ҳамкорлик, ўзлари ва ўзгалар меҳнатини ҳурмат қилиш, ўқитувчилари билан ўзаро ҳамкорликдан манфаатдор бўлишга ўрганишлари талаб этилади. Ўқувчиларнинг моддий борлиққа бўлган ҳар қандай муносабатлари онгли ва манфаатдорлик

характерига эга бўлиши керак. Ўқувчилар нуқтаи назарлари муҳим жиҳатларидан бири унинг онглилигидир.

Ўқувчиларга йўналтирилган ўқув-билув жараёни уларнинг нуқтаи назарларини тубдан ўзгартиради. Улар сўзсиз бўйсўнувчи, ижрочи шахсдан фаол ижодкор субъектга айланадилар. Ўқувчилар ижодий топшириқларни бажариш жараёнида ўзларининг ақлий фаолиятлари ҳақида фикр юритадилар. Улар ўқув жараёни ва ҳаётий фаолиятлари давомида тўплаган тажрибаларини ишга сола бошлайдилар. Ўқув топшириқларини бажариш жараёнида ўқувчилар ўқув-билув жараёнининг субъекти сифатида намоён бўла бошлайдилар. Ўқувчилар ижтимоий ҳаётда қабул қилинган асосий меъёрларни ўзлаштиришлари учун, улар кишилик ҳаёти ва бу ҳаётни тартибга соладиган фаолият турларини ҳам яхши билишлари талаб этилади. Шу тариқа ўқувчиларнинг нуқтаи назарлари уларнинг хулқ-атвор йўналишларини ҳам ифодалайди.

Ҳар қандай нуқтаи назар муайян фаолиятга йўналтирилган бўлиб барқарорлик характерига эгадир. Ўқувчиларда қатъий нуқтаи назарнинг таркиб топиши, уларнинг соғлом турмуш тарзини танлашларига имкон беради. Ўқувчилар ўқитувчилар билан ҳамкорликлари ва мулоқотлари жараёнида ўзларининг нуқтаи назарларини намоён қиладилар. Ўқувчиларнинг нуқтаи назарлари уларнинг шаклланишларида муҳим аҳамият касб этувчи муносабатлар меъёри сифатида уларни барқарор ҳаёт кечиришга йўналтиради. Бунинг учун улар энг зарур билимларни ўзлаштиришга интиладилар. Ўқувчиларда янги нуқтаи назарлар тасодифан вужудга келмайди. Улар муайян билимлар, ҳаётий тажрибаларни ўзлаштиришлари натижасида ҳосил бўладиган ўқувчиларнинг эркин тарзда қабул қилган қарорларидир. Шу тариқа ўқувчиларда ҳосил бўладиган нуқтаи назарларнинг барқарорлиги таъминланади.

Инсонпарварлик тамойилига асосланган ҳолда уларнинг нуқтаи назарларида инсон ва оламга негбик муносабат алоҳида ўрин эгаллайди. Улар атроф-муҳит, инсонлар, ижтимоий муносабатлар, экологик ҳодисаларга алоҳида муносабатда бўладилар. Ўқувчи ўз фаолиятини баҳолаш орқали ўз имкониятларини тан олади ва ўзининг индивидуал ривожланиш йўналишини белгилайди. Ўқувчилар ҳар доим ўзларининг фаолиятлари кўламини кенгайтиришга интиладилар. Буларнинг барчаси шахсга йўналтирилган ўқув-билув жараёнини такомиллаштириш, уни инсонпарварлик тамойиллари асосида бойитиш заруриятини қўяди. Ўқувчилар бу жараёнда ўзларининг нуқтаи назарлари доирасида ўзлаштирадиган билимларининг муҳимлигини англаб етадилар, улар устида фикрлай бошлайдилар. Ўқувчиларнинг фикрлашлари ва ўз фаолиятларини баҳолашлари инсонпарварлик тамойиллари асосида амалга ошишига уларни ўргатиш ўқитувчининг муҳим вазифаларидан биридир. Барқарор нуқтаи назарга эга бўлган ҳар бир ўқувчи ўз фаолиятини баҳолаш кўникмасини эгаллаган бўлади.

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, нуқтаи назар шахснинг барқарор, онгли ҳамда ўзига хос етакчи муносабатлари йиғиндисидир. Унинг ёрдамида ўқувчилар ўз фаолиятларини баҳолайдилар ва унинг йўналишларини аниқлайдилар.

Инсон ижтимоийлашиши ва ижтимоий ҳаётда фаол ҳаракат қилиши учун ўз нуқтаи назарига эга бўлиши лозим. Ўқувчилар ўз **дунёқарашлари,** атроф-оламга муносабатлари, ўзлари, ўзгаларнинг хусусиятлари, ижтимоий жараёнларнинг моҳиятини англашлари, ўз олдларига аниқ мақсад ва вазифалар қўйишлари, уларга эришиш йўлида ҳаракат қилишлари керак. Ўқувчиларнинг нуқтаи назарлари уларнинг **дунёқарашларига** бевосита боғлиқдир.

Дунёқараш тамойиллар, нуқтаи назарлар, қатъият, моддий борлиққа бўлган муносабатни аниқлаш усулларининг мужассамлашган шаклидир. Дунёқараш ёрдамида шахснинг табиат ва жамиятга нисбатан қарашлари, нуқтаи назарлари ифодаланади. Ўқувчи дунёқараши ёрдамида оламни идрок этади ва ўзининг жамиятдаги ўрнини англайди. Шу билан бир қаторда, ўзини ўраб турган моддий борлиқ ва ўз-ўзи ҳақидаги муносабати ифодаланади. Шунингдек, ўқувчи дунёқарашида жамият аъзолари ҳаётий нуқтаи назарлари, турмуш кечириш қоидалари, қатъиятлари, идеаллари, мақсадлари, билим тамойиллари ва фаолияти, қадриятли йўналишлари билан боғлиқлиги ўз ифодасини топади. Шахснинг дунёқарашида унинг объектив борлиққа нисбатан маънавий амалий муносабат усули намоён бўлади. Дунёқараш ёрдамида ўқувчилар моддий борлиқнинг мазмун-моҳияти ва уни ўзлаштириш йўлларини ҳам англайдилар. Дунёқарашда инсон ҳаётининг борлиқни аниқлашга хизмат қиладиган тамойиллари акс этади.

Дунёқараш нуқтаи назарга нисбатан кенгроқ ва умумийроқ тушунчадир. У инсоннинг барча етакчи муносабатларини ўзида ифодалайди. Инсоннинг ҳар қандай нуқтаи назари дунёқарашининг таркибий қисми сифатида намоён бўлади. Шу тариқа ўқувчиларнинг дунёқарашлари уларнинг нуқтаи назарлари ёрдамида мулоқотга киришиш имконини беради. Демак, шахснинг дунёқараши умумлашганлик характерига эга.

Ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантириш инсонпарварлик тамойиллари асосида ташкил этиладиган шахсга йўналтирилган ўқув-билув жараёнининг муҳим вазифаларидан биридир. Ўқувчиларга турли соҳадаги билимлар ва миллий-маънавий қадриятлар тақдим этилади ҳамда улар ёрдамида ўқитувчилар ўқувчиларни фикрлашга ундайдилар. Мазкур билимларни ўқувчиларнинг ўзлари излаб топишлари, уларнинг мазмун-моҳиятини англашлари, ўз фаолиятига сингдиришлари, уларни бир-биридан ажрата олишлари лозим. Шундагина нуқтаи назарлар каби дунёқараш ҳам ойдинлашади ва ҳар бир ўқувчининг ўзига хос бўлган илмий дунёқараши таркиб топади. Ҳар қандай илмий дунёқараш билимларнинг мазмун-моҳиятини англаш натижасида вужудга келади.

Шахсга йўналтирилган таълим жараёнида ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантириш учун, уларнинг интеллектуал фаолиятлари ва ўзларигагина хос бўлган шахсий сифатларини таркиб топтириш зарурлигини кўрсатмоқда. Ўқувчиларда муайян илмий, эстетик нуқтаи назарлар, маънавий тамойиллар тизими, меъёрлар ва қатъиятлар, ҳаётий қадриятлар, мақсадлар ва уларга эришиш йўллари, ҳаётий ҳаракатларни амалга ошириш йўллари ўргатилиши лозим. Илмий дунёқараш ўқувчининг моддий оламга нисбатан объектив муносабатда бўлишини таъминлайди. Улар кишиларнинг кичик гуруҳлари ва жамият аъзолари орасидаги ҳамкорлик ва алоқадорлик шаклларини ўзлаштирадилар.

Ўқувчи ўзининг илмий дунёқараши ёрдамида бутун олам, табиат ва жамиятни кўра олади ва идрок этади. Ўқувчиларнинг инсон ва жамият, ундаги ижтимоий муносабатлар, жамият аъзолари амал қиладиган қадриятларни тушуниши, мазкур жамиятда ўз ўрнини англаши илмий дунёқарашининг кенглигига боғлиқдир. Ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантиришда таълим жараёни билан бир қаторда, уларни ўраб турган муҳит ва оила муҳим ўрин эгаллайди. Алоҳида илмий нуқтаи назарларнинг ифодачиси сифатида нафақат биргина ўқувчи балки ўқувчилар гуруҳи намоён бўлиши мумкин. Шу билан бир қаторда, алоҳида бир ўқувчининг дунёқараши бошқаларинкидан кескин фарқ қилиши мумкин. Бироқ, уларнинг барчасида умумий жиҳатлар мавжуд бўлади. Шу тариқа дунёқарашга асосланган нуқтаи назарнинг муҳим жиҳатларидан яна бири, унинг объективлигидир.

Ўқувчининг дунёқараши алоҳида-алоҳида блокларнинг уйғунлашувидан таркиб топади. Ўқувчиларда илмий дунёқарашни шакллантириш учун ўқув-билув жараёнида муайян назарий билимлар билан бир қаторда, у яшаб турган жамият ва табиатнинг мавжуд ҳолати, ундаги муаммолар ва ечимлар, ўқувчиларнинг шахс сифатида мазкур жамиятда тутган ўринлари ҳақида ҳам изчил маълумотлар бериш талаб этилади. Ўқувчи шахсига йўналтирилган ўқув-билув жараёнини мақсадга мувофиқ тарзда ташкил этиш ва уни самарали бошқариш натижасида, уларда изчил тарзда таркиб топган нуқтаи назарлар вужудга келади. Ўқувчиларни босқичма-босқич, мақсадли тарзда назарий билимларни эгаллашга йўналтириш натижасида, уларда табиат ва жамият билан онгли ҳамкорлик қилиш кўникмалари вужудга келади.

Моддий оламга нисбатан яхлит тарзда таркиб топган нуқтаи назарлар тизими, бу тизимда инсоннинг тутган ўрни ва моҳияти унинг дунёқарашини ифодалайди. У илм-фан ютуқларини эгаллаш, ижтимоий онгнинг турли шаклларини ўзлаштириш, жамият ҳаётида фаол иштирок этиш, халқнинг ижтимоий тажрибасини эгаллаш воситасида таркиб топади. Ўқувчи ўзининг хулқ-атворини аниқлаши учун жамиятда рўй бераётган воқеа-ҳодисаларнинг ҳаракатини билиши, уларнинг оқибатлари ва йўналишларини кўра олиши, ўзининг дунёқарашига асосланган ҳолда мазкур жараёнда тутадиган ўрнини билиши муҳимдир.

И.С.Кон ўқувчиларнинг дунёқарашларини уларда аниқ нуқтаи назарларнинг мавжудлиги билан боғлаган ҳолда талқин этади. Айниқса ўқувчи ўз касбий фаолияти соҳасини аниқлаш вақтида бу нарса яққол кўринади. Ундаги қатъий нуқтаи назарлар маънавий жиҳатдан ўз-ўзини англаш кўникмасининг шаклланишига кўмаклашади. Ўқувчилар ўз нуқтаи назарларини ойдинлаштиришларида дунёқараш аниқлаштирувчи ҳамда йўналтирувчи кучга эга. Инсоннинг объектив борлиққа нисбатан муносабатлари бу жараёнда мақсадлар ва вазифаларнинг қўйилиши натижасида уларнинг дунёқарашида муайян сифат ўзгаришлар вужудга келади. Ўқувчилар ўз дунёқарашини белгиловчи нуқтаи назарларни англашлари натижасида ривожланиш имкониятига эга бўладилар. Бу жараёнда ўқувчиларнинг шахсий ҳамда ижтимоий қизиқишлари, манфаатлари уйғун тарзда намоён бўлади ва уларда муайян фаолиятга нисбатан қизиқиш вужудга келади. Улар амалий фаолиятлари моҳиятини англай бошлайдилар.

Ўқувчиларнинг илмий дунёқарашлари уйғунлашганлик характерига эга. Шу тариқа ўқувчиларнинг илмий дунёқарашлари заминида уларнинг нуқтаи назарлари, танловлари, ўзига хосликлари, етакчи имкониятлари, онглилик даражалари, баҳоловчи муносабатлари, объектив

қонуниятларни тушуниш кўламлари, барқарор майллари, мақсадлари, қизиқишлари ҳамда ҳиссий, интеллектуал қувватлари ифодаланган бўлади.

Субъект-субъект муносабатлари доирасида ўқувчи илмий дунёқарашининг ўзига хос жиҳатлари тўлақонли тарзда шакллантирилади. Улар сирасига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- аниқ тарзда мавжуд бўлган ҳолатлар;
- фаолият жараёнида ўқувчиларнинг ўзларига боғлиқ бўлган ҳолатлар;
- ўқувчиларнинг имкониятларини ҳаракатга келтирувчи ҳолатлар кабилар.

Бундай таъсирлар натижасида ўқувчилар фаол ҳаракат қила бошлайдилар. Ўқувчиларнинг илмий дунёқарашлари ўқув жараёнининг шакллари ва мазмуни, баъзан эса ўқитувчининг фаолият маромига ҳам таъсир кўрсатади. Ўқув жараёнида шахсга йўналтирилган субъект-субъект муносабатлари доирасини кенгайтиради.

Маълумки, инсонлар ўзларининг икки турдаги муносабатлари билан бир-бирларидан фарқланадилар. Мазкур муносабатларни асосан уларнинг ҳаётий тажрибалари белгилайди. Буни ўқувчилар, ўқитувчилар, ота-оналар мисолида яққол кўриш мумкин. Улар ҳар доим бир-бирларининг ҳаётий тажрибаларини бойитиб, тўлдириб борадилар. Шу билан бир қаторда, ўқувчилар, ўқитувчилар ва ота-оналарнинг бажарадиган вазифалари ҳам турли-тумандир.

Инсоннинг дунёқараши унинг бажарадиган вазифалари билан боғлиқ ҳолда таркиб топади ва намоён бўлади. Масалан, дунёқарашнинг барқарорлиги, инсонпарварлик характерига эгалиги, муайян мақсадга йўналтирилганлиги, бошқарилувчанлиги кабилар.

Ўқувчи дунёқарашининг барқарорлиги унинг муайян ғояларни татбиқ этиш, ижтимоий қимматли фаолият ва ижтимоий ҳаётга тайёрлигини англатади. Бундай тайёрлик улардаги назарий-эмпирик билимларнинг муайян даражаси орқали намоён бўлади. Илмий дунёқараш ўқувчиларнинг қўрқув туғдирадиган вазиятлардан ҳимояланишларини таъминлайди. Шахснинг муайян масалага оид нуқтаи назари унинг дунёқараши барқарор бўлишига кўмаклашади. Ўқувчиларнинг барқарор нуқтаи назарлари ва дунёқарашлари билан боғлиқ ҳолда таркиб топган хулқ-атворлари ҳам барқарор бўлади. Бу уларнинг ўзларига топширилган вазифаларни ситқидиллик билан бажаришлари, уларда мавжуд бўлган майлларнинг муҳим аҳамият касб этиши, ўз майлларини амалга ошириш имконини берадиган ҳаракатларнинг қатъийлиги, қийинчиликларни ҳис этишлари, салбий кечинмаларга қайтарадиган жавоблари, қийинчиликларни бартараф этиш имкониятларини излашлари, салбий кечинмаларининг пасайиши, фаолият кўрсатиш қувватларининг ортишида намоён бўлади.

Бундай ўқувчиларда кишилик дунёсидаги муносабатлар ва ўз-ўзини англашга бўлган интилиш кучлидир. Улар бутун борлиқда рўй берадиган ҳодисаларни объектив, мавжуд ҳолатлар сифатида идрок этадилар, улар орасидаги мантиқий алоқадорликни излайдилар. Воқеа-ҳодисалар орасидаги алоқадорликни топишга интиладилар. Бундай ўқувчилар аксарият ҳолларда воқеа-ҳодисаларнинг натижаларини башорат қиладилар. Улар ўз қарорларида қатъий туриб нотўғри ҳолатларни инкор қиладилар, ҳаққоний ҳолатлар ва вазиятларни исботлашга интиладилар.

Ўқувчиларнинг нуқтаи назарлари қанчалик барқарор бўлса, уларнинг хулқ-атворлари шунчалик бекамикўст, мазмунли ва маҳсулдор бўлади. Улар ўз ҳаракатларини мавжуд дунёқарашлари доирасида амалга оширадилар. Улар ўқув-билув жараёнида ностандарт топшириқларни осонгина еча олиш лаёқатларини намоён эта оладилар. Уларнинг ҳаракатлари мослашувчан ва сафарбарлик кўрсатишга асосланган дир. Бундай ўқувчиларнинг ўқув ҳаракатлари, маданий меҳнат кўникмаларини ўзлаштиришлари ҳамда ўқув жараёни натижаларидан амалиётда фойдаланишлари, ижодий фаолият кўрсатишлари осон кечади.

Ўқувчиларда барқарор дунёқарашнинг шакллантирилиши натижасида уларда тадқиқотчилик кўникмалари ҳосил бўлади. Ўқувчилар нуқтаи назарларининг барқарорлиги натижасида улар ижтимоий ҳаётга осонгина мослашадилар. Ўқувчилар қатъий қарорлар қабул қилишда ўзларининг нуқтаи назарлари ва барқарор дунёқарашларига таянадилар. Бундай дунёқараш ўқувчиларнинг бутун ҳаётлари давомида уларнинг фаолиятларини бошқаради. Ўқувчилар осонгина бир нуқтаи назардан иккинчи нуқтаи назарга ўта олмайдилар.

Ўқувчиларнинг дунёқарашларида барқарорлик вужудга келганда барча ҳолатлар уйғунлашади. Бизнинг кузатишларимиз аксарият ўқувчиларда барқарор нуқтаи назар ва илмий дунёқараш шаклланмаганлигини кўрсатди. Уларнинг хулқ-атворида асосан қуйидагилар намоён бўлиши аниқланди: вазифалар, майллар, ҳаракатларнинг вужудга келиши, уларни татбиқ этиш истаги, қийинчиликларни англаш, салбий ҳиссий таъсир, мантиқсиз ечимларга келиш, ҳис этилган қийинчиликларни мураккаблаштириш, салбий ҳиссиётларнинг кучайиши, фаолият кўрсатишнинг ёмонлашуви, ўқишга бўлган майлларнинг пасайиши кабилар.

Бундай ўқувчиларда салбий ҳиссий зўриқиш кузатилди. Бу тарздаги хулқ-атвор натижасида уларда қўрқув ҳисси кучайганлиги аён бўлди. Бу эса уларнинг хулқ-атворларига салбий таъсир кўрсатади. Бундай ҳолларда ўқувчилар қийин топшириқларни бажаришлари жараёнида ўзларини кўмакдошсиз, нажотсиз қолгандек ҳис этадилар. Улар ўз ҳатти-ҳаракатларига нисбатан беқарор муносабатда бўладилар.

Агар ўқувчиларда вазифаларни ечишда барқарор изланиш эҳтиёжлари ҳосил бўлмаса, улар мазкур топшириқларни тасодифий ҳолдай ечишга ҳаракат қиладилар. Уларда қийинчиликларни бартараф этиш соҳасида фаоллик кўзга ташланмайди, ўз фаолиятларини баҳолаш иштиёқи пасайиб, ўз ҳатти-ҳаракатларидан норозилик ҳисси кучаяди. Бундай ўқувчилар ўзликларини узоқ излайдилар, атрофдагилар ҳамда синфдошлари орасида ўзларининг муносиб ўринларини тополмайдилар. Улар бажарадиган ҳатти-ҳаракатларининг йўналишлари ноаниқ. Улар таянадиган маънавий, ахлоқий тамойиллар барқарор эмас. Бундай ўқувчилар вужудга келган вазиятларга тез мослаша олмайдилар, уларнинг ўз атрофларидаги одамлар, тенгдошлари, ота-оналари билан муносабатлари ноаниқ ва чидаб бўлмасдир.

Ўқувчилар муайян жамоада ўз ўрнини топгандагина кутилган самарадорликка эришиш имконияти вужудга келади. Шу тариқа дунёқараш таркибида жамиятда муносиб ўрин топиш вазифаси мавжудлигини ҳам алоҳида таъкидлаб ўтиш лозим.

Шунинг учун ҳам жамият ўта мураккаб ва хавфли вазиятларда ҳар бир шахснинг нуқтаи назарларини текшириб кўради. Атроф-муҳит билан ҳамкорлик қилиш жараёнида ҳар бир ўқувчи маълум даражада унга алоқадор бўлади. Мазкур жараёнда ўқувчилар нима ҳақида уйлашлари, тасаввур қилишлари лозимлигини ҳис этадилар.

Дунёқараш ўзида яхлит билимларни мужассамлаштиради. Уларнинг изчил тизими ҳозирги замонда мавжуд бўлган билимларнинг асосий таркибини ифодалайди. Дунёқараш асосан методологик ғоялар, назариялар ва тамойиллар доирасида шакллантирилади. Ўқувчилар томонидан ўзлаштирилган билимлар мунтазам ҳаракатда бўлади. Бу ҳаракатлар бошқа тизимлар билан алоқадорлик, уларни кундалик фаолиятда қўллаш ҳамда билиш вазифалари билан боғлиқ ҳолда амалга ошади. Ўқувчиларнинг эгаллаган билимлари қатъий дунёқарашга айланиши учун, уларнинг қарашлари ва фаолиятларига сингиши, мазкур билимларни бойитиш эҳтиёжи вужудга келиши, уларни амалда қўллашдан манфаатдорлик ҳисси кучайиши лозим.

Ўқувчиларнинг ҳиссиётлари ва кечинмалари турли қўзғатувчи кучлар таъсирида вужудга келиши мумкин. Агар ўқувчиларнинг ҳиссиётлари қанчалик кучли бўлса, уларнинг ўзлаштирган билимлари шунчалик мустаҳкам бўлади. Ўз навбатида барқарор нуқтаи назарга асосланган дунёқараш нафақат ақлни, балки ҳиссиётларни ҳам қўзғатади. Ўқувчиларнинг ижобий ҳиссий ҳолатлари уларни ўз шахсий тажрибаларига мурожаат қилиш, улар ёрдамида янгидан-янги билимларни эгаллаш, улар устида уйлашга сафарбар қилади.

Адабиётлар

1. Кон И. С. Психология старшеклассников. М., 1980.
2. Коняев П. Г. Атесистическое значение научного познания Вселенной. – М.: о-во «Знание» РСФСР, 1984 – 38 с.
3. Коротаева Е. В. Директор — учитель —ученик: пути взаимодействия // Директор школы № 5. 2000. С. 7 — 54.
4. Крюкова Е. А. Личностно-развивающие образовательные технологии: природа, проектирование, реализация: Монография. Волгоград, 1999.
5. Кузьмина Л. В. Организация научно — исследовательской работы учащихся в школе — лицее // Теория и практика организации учебного процесса. № 3. М., 1999. С.101 — 103.
6. Кульневич С. В. Педагогика самоорганизации: Феномен содержания. Воронеж, 1997. 235 с.
7. Кульневич С. В. Теоретические основы содержания самоорганизуемой воспитательной деятельности: Автореф. … д-ра пед. наук. Ростов н / Д., 1997.
8. Лазарев В. В. Становление философского сознания нового времени / Отв. ред. Д. В. Джохаузе; АН. СССР, Инс-т философии. – М.: Наука, 1987, 135 с.
9. Левчук Л., Жинжило В. Проектное обучение и российская школа // Экологическое образование. 2001. С. 9-14.
10.Леонтович А. В Модель научной школы и практика организации исследовательской деятельности учащихся // Школьные технологии №5. 2001. С 147-148.

Nargiz MAHMUDOVA
XVXTXQTMOHM katta o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA JAHON TAJRIBASI

Ushbu maqolada yoshlarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda ilg‘or xorijiy tajribalar xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, asosan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimini baholashda jahon tajribasini o‘rganish, PIRLS dasturini qo‘llash to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘z: *ilg‘or xorijiy tajribalar, PIRLS dasturi, savodxonlik, baholash mezoni.*

В данной статье речь пойдет о совершенствовании системы оценивания, основанной на международных критериях и требованиях передового зарубежного опыта формирования знаний, умений и навыков молодежи, изучении в основном мирового опыта оценки знаний учащихся начальных классов Сиф, применении программы PIRLS.

Ключевое слово: *передовой зарубежный опыт, программа PIRLS, грамотность, критерии оценивания.*

This article deals with the improvement of the system of assessment of advanced foreign experience in the formation of knowledge, skills and abilities of young people on the basis of international criteria and requirements, mainly the study and application of world experience in assessing the knowledge of primary school students.

Keywords: *Advanced foreign experience, PIRLS program, literacy, evaluation criteria.*

Barcha sohalar kabi pedagogika yo‘nalishida ham katta o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Rivojlanib borayotgan zamonda yoshlarning fikr mulohazalari, ijodiy g‘oyalari, tashabbuskorligini, ijodkorligini har tomonlama qo‘llab- quvvatlash borish zarur. Ta’limning eng muhim masalalardan hisoblanadi. Buning uchun ilmiy tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik, xalqaro tajribalarni o‘rganish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilm- fan va ta’lim- tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq.

Xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirish xalqaro standartlar talablarning joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada amaliy ishlar xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol keltirishimiz mumkin. 1958- yildan buyon ushbu tashkilot ta’lim sohasiga oid ko‘plab mavzular bo‘yicha o‘ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarni o‘tkazdi. Shundan matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o‘qish (PIRLS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonlik (ISILS), fuqarolik va fuqarolik ta’limi (ISSS)kabi yo‘nalishlarda umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari, umuman olganda ta’lim olish jarayonida erishgan yutuqlari, natijalarini baholash yo‘lga qo‘yilgan. Eng asosiysi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash mezoni bo‘lgan PIRLS tadqiqoti bo‘lib, PIRLS dasturi 2001- yilda ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro baholash dasturi PIRLS dunyoning turli mamlakatlari milliy ta’lim tizimida o‘qish savodxonligi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo‘naltirilgan. Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016- yillarda o‘tkazilgan. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Ushbu nuqtayi nazar o‘quvchilarning o‘qishdan olingan ma’lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko‘proq e’tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Asosiy e’tibor tushunishni namoyon qilishdan o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilgan. Hozirgi vaqtda PIRLS ta’rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

O‘qish savodxonligining bu ko‘rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko‘plab o‘qish nazariyalarini aks ettiradi. O‘quvchining matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchi va matn orasidagi muloqot orqali o‘quvchi ma’noni yaratadi. O‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, ma’no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o‘quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo‘lishi mumkin. Bular an’anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko‘rinishdagi yozma shakllarni ham o‘z ichiga oladi. PIRLS yosh o‘quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o‘qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular:

1. Badiiy tajribalar orttirish;
2. Ma’lumot olish va ulardan foydalanish.

Bundan tashqari, PIRLS o‘qish maqsadlarining har birida to‘rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

1. Diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish;
2. To‘g‘ridan- to‘g‘ri xulosalar chiqarish;
3. G‘oyalar va axborotlarni talqin qilish va uyg‘unlashtirish;
4. Kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

Butun dunyo bo‘ylab o‘qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o‘qishlari bilan bevosita bog‘liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o‘qishni yoki ta’lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Ko‘pgina yosh o‘quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to‘plamlari yoki rasmli kitoblar) yoki o‘quvchilarga atrofdagi dunyo haqida ma’lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma’lumotli matnlardan iborat bo‘ladi. PIRLSda ishlatiladigan badiiy matnlarning asosiy shakli – bu badiiy to‘qimaga asoslangan hikoyalardir. PIRLSda har bir matn parchasi yoki matn yuzasidan beriladigan savollar to‘rtta tushunish jarayonini baholash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘quvchilar matndan ma’no hosil qilar ekan, ular aniq tushuntirilmagan g‘oyalar yoki ma’lumotlarga nisbatan tushuntirishlar beradi. Xulosalash o‘quvchilarga matndan tashqariga chiqishga imkon beradi. Ko‘pgina hollarda muallif matnni o‘quvchining aniq yoki bevosita xulosa chiqarishi uchun yaratadi.

O‘quvchilar oddiy xulosalar bilan bir qatorda, matndagi g‘oyalar va axborotlarni talqin qilishda va uyg‘unlashtirishda aniq yoki umumiy ma’nolarga e’tibor berishlari yoki tafsilotlarni umumiy mavzular va g‘oyalar bilan bog‘lashi mumkin. To‘liq javob berish uchun o‘quvchidan barcha matnni yoki hech bo‘lmaganda uning muhim qismlarini, shuningdek, matndan tashqaridagi fikrlarni yoki axborotni tushunish talab qilinadi.

O‘quvchilardan matnni baholash va tanqidiy tahlil qilishda quyidagilar talab qilinadi:

1. Matnda berilgan ma’lumotlarning aniq va to‘liqligini baholash.
2. Tasvirlangan voqeani haqiqatan sodir etilishi ehtimolini baholash.
3. Insonlarning o‘ylari, bajaradigan ishlarini o‘zgartirishda muallifning fikrlari qanchalik aniqligini baholash.
4. Matn sarlavhasi asosiy mazmunni qanchalik yoritib berishini baholash.
5. Metafora yoki nutq ohangi kabi til xususiyatlari ta’sirini tasvirlash.
6. Muallifning asosiy mavzuga oid qarashlarini aniqlash.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘qish savodxonligi o‘quvchilarning ilmiy va shaxsiy muvaffaqiyatini o‘sishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, shuningdek PIRLS ta’lim sohasida olib borilayotgan siyosatning muvaffaqiyatga ta’sirini baholash uchun qimmatli vosita hisoblanadi. Bu o‘z navbatida O‘zbeksitonning ta’lim tizimini xalqaro standartlar asosida tahlil qilish hamda kamchiliklarni bartaraf qilish uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, 2016
2. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent, 2008.
3. OSNOVNЬIE REZULTATЬI MEJDUNARODNOGO ISSLEDOVANIYA PISA-2015 Rossiya Federatsiyasining Ta‘lim va Fan Vazirligi 2015-yil.
4. Prezident.uz
5. Uzedu.uz
6. www.uza.uz-O‘zbekiston Respublikasi Axborot agentligi rasmiy sayti.

Акрам СОХИБОВ
кандидат педагогических наук,
доцент кафедры педагогики
Каршинский государственный университет

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ПРИМЕНЕНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

На этой статье раскрываетсяпути совершенствования механизмов применения интерактивных методов в педагогическом образовании, такжеиспользование интерактивных методов и их эффективностьпременения на уроке. Основные критерии интерактивного обучения:неформальные дискуссии, способность свободно изложить учебный материал, возможностьстудентов проявить инициативы повышения активности для выполнения заданий, письменных работ и использованиедругих методов для повышения эффективности учебной работы.

Ключевые слова: *пути совершенствования, механизмы применения интерактивных методов, в педагогическом образовании, стимулирование, развитие личностных качеств,повышения активности, между учениками и преподавателем, в учебном процессе, неформальные дискуссии, проявить инициативы, задание, письменная работа, повышения эффективности.*

Ushbu maqolada o‘qituvchi ta’limida interaktiv usullardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, darsda interfaol usullardan foydalanish va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari ochib berilgan. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy munozaralar, o‘quv materialini erkin taqdim etish qobiliyati, o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarish, yozish va o‘quv ishlarining samaradorligini oshirish uchun boshqa usullardan foydalanish faolligini oshirish bo‘yicha tashabbuskor bo‘lish qobiliyati.

Kalit so‘zlar: *takomillashtirish usullari, interaktiv usullardan foydalanish, o'qituvchini tarbiyalashda rag’batlantirish, shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish, faollikni oshirish, o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasida, o‘quv jarayonida, norasmiy munozaralar, tashabbuslar, topshiriqlar, yozma ishlar, samaradorlikni oshirish.*

This article reveals the ways to improve the mechanisms of using interactive methods in teacher education, as well as the use of interactive methods and their effectiveness in the classroom. The main criteria for interactive learning: informal discussions, the ability to freely present educational material, the ability of students to take initiatives to increase activity for completing assignments, writing and using other methods to improve the effectiveness of educational work.

Key words: *ways of improvement, mechanisms for the use of interactive methods, in teacher education, stimulation, development of personal qualities, increasing activity, between students and the teacher, in the educational process, informal discussions, show initiatives, assignment, written work, increase efficiency.*

Вступление. Основные принципы, формы и факторы интерактивного обучения. Интерактивный метод направлен на стимулирование усвоения знаний учащимися, развитие личностных качеств за счет повышения активности между учениками и преподавателем в учебном процессе. Использование интерактивных методов может помочь повысить эффективность урока. Основными критериями интерактивного обучения являются: неформальные дискуссии, способность свободно выражать учебный материал, возможность для студентов проявить инициативуи другие методы, которые имеютбольшо значения е в повышении эффективности учебной работы.

Методы и материалы. Факторы эффективности интерактивного обучения.

Одним из основных направлений совершенствования методов обучения сегодня является внедрение интерактивных методов преподавания и обучения. Все учителя естественных наук, и другие чаще используют интерактивные методы в своей деятельности.

В результате использования интерактивных методов у студентов развиваются навыки самостоятельного мышления, анализа, умения делать выводы, выражения своего мнения, отстаивания на его основе, здорового общения, обсуждения, дискуссии.

В связи с этим американский психолог и педагог Б. Блюм создал таксономию педагогических целей в когнитивной и эмоциональной сферах. Это таксономия Блюма. (Таксономия - теория классификации и систематизации сложных структурированных областей существования). Он разделил мышление на шесть уровней в соответствии с развитием познавательных способностей.

По его словам, развитие мышления происходит на уровне знаний, понимания, применения, анализа, обобщения, оценки. Каждый уровень представлен следующими символами и примерами глаголов, соответствующих каждому уровню, включая:

Познание - это начальный уровень мышления, на котором учащийся может произносить термины, знать конкретные правила, концепции, факты и так далее. Примерами глаголов, подходящих для этого уровня мышления, являются: уметь повторять, усиливать, передавать информацию, говорить, писать, выражать, различать, распознавать, повторять.

Когда есть понимание уровня мышления, ученик понимает факты, правила, схемы, таблицы. На основании имеющихся данных можно спрогнозировать будущие последствия. Примерами глаголов, подходящих для этого уровня мышления, являются: обоснование, замена, уточнение, определение, объяснение, перевод, реконструкция, разъяснение, толкование, пояснение.

На уровне прикладного мышления студент умеет использовать полученные знания не только в традиционных, но и в нетрадиционных ситуациях и правильно их применять. Примеры глаголов, подходящих для этого уровня мышления: представить, вычислить, продемонстрировать, использовать, научить, определить, реализовать, вычислить, применить, решить.

На уровне анализа ученик способен различать части целого и взаимосвязи между ними, видеть ошибки в логике мышления, различать факты и последствия, оценивать важность информации. Примерами глаголов, подходящих для этого уровня мышления, являются: происхождение, разделение, стратификация, классификация, предположение, предсказание, распространение, распределение, проверка, группировка.

Существует множество различных типов интерактивных методов, каждый из которых, как и любой прогрессивный метод, требует от учителя большой подготовки перед уроком.

При организации этих уроков можно лучше понять основные особенности интерактивного урока, если учесть некоторые его отличия от традиционного урока. Для этого представляем следующую таблицу:

Некоторые различия между традиционными и интерактивными уроками

Основные понятия	**Традиционный урок**	**Интерактивный урок**
L Evel из приложения	Используется в виде удобных для них уроков по всем темам.	Используется в виде интерактивных уроков по некоторым темам. Для остальных предметов используется традиционный урок.
Цели курса	Формирование и закрепление знаний, навыков и умений по предмету.	Научить студентов самостоятельно думать о теме урока, делать выводы, описывать их, отстаивать.
Обязанности учителя и методы работы	Объяснять, укреплять, контролировать, назначать новую тему.	Организуйте, управляйте, контролируйте и обосновывайте независимую работу и презентации студентов.
Требования к подготовке к уроку	Подготовка планов уроков, конспектов и дидактических пособий.	Подготовка интерактивных планов уроков, заданий для самостоятельной работы, раздаточных материалов, других необходимых инструментов.
Требования к подготовке студентов	Выполните задания из предыдущего урока.	Изучить основы и справочную информацию по новой теме курса.
Студенческие задачи и методы работы	Слушает и осваивает учителя, выполняет задания.	Самостоятельно обдумывайте задания преподавателя, сравнивайте собственное мнение и выводы с другими и приходите к окончательному выводу

Распределение времени	Большую часть времени в классе учитель тратит на объяснение, анализ, объяснение заданий и мониторинг обучения.	Большая часть учебного времени уходит на то, чтобы студенты выполняли самостоятельные задания, обменивались идеями, наблюдали, обобщали и защищали свои выводы.
Модули и алгоритмы уроков	Каждый учитель использует модули и алгоритмы урока в соответствии с используемым им методом.	Каждое занятие проводится по заранее подготовленным модулям и алгоритмам, проектам.
Уровень активности, необходимый от студентов	Учитель активен во всех аспектах, ученики активны в концентрации, понимании, мышлении и выполнении заданий. Формы общения: педагог-группа; учитель-ученик; студент-студент; ученик-преподаватель; групповой учитель;	И учитель, и ученики очень активны. Формы сотрудничества, сотрудничества: преподаватель-ученик; студент-студент; студенческая малая группа; малая группа-малая группа; ученик-преподаватель; учитель малых групп; групповой учитель
Основные способы получения знаний	Общение, обсуждение, переговоры, дебаты, обсуждения, размышления, анализ, наблюдение, чтение и многое другое.	Общение, чтение, наблюдение, обсуждение, переговоры, дебаты, обсуждения, размышления, анализ и многое другое.
Формы предоставления обучения	Лекции, семинары, практические занятия, лабораторные занятия, круглые столы, дискуссии, дискуссии, консультации и др.	Лекции, групповая или парная работа, презентации, дискуссии, дискуссии, круглые столы, практические занятия и т. Д.
Ожидаемый результат	Приобретение студентами знаний, навыков и умений по теме.	Сформировать у студентов собственное мнение и выводы по теме, научить их учиться самостоятельно.

В этой таблице идея изложена очень кратко, чтобы не увеличивать громкость.

Различия в таблице наглядно показывают преимущества и недостатки этих двух типов тренировок.

Результат и обсуждение. На основании анализа некоторых аспектов интерактивного обучения, представленного в данной таблице, можно сделать следующие выводы:

1. При обучении предметам учебной программы необходимо учитывать темы, по которым желательно организовать интерактивные уроки. Это предполагает использование интерактивных или традиционных форм обучения, которые обеспечивают полное достижение цели обучения по заданной теме.

2. Для того чтобы интерактивный урок был эффективным, важно убедиться, что учащиеся знают основные понятия и справочную информацию по теме до нового урока.

3. Важно помнить, что интерактивное обучение требует от учащихся больше времени для самостоятельной работы, чем традиционное обучение.

Несколько веков назад А.Навои писал о влиянии таких различий в общественной жизни в предисловии к своему знаменитому произведению “Махбуб уль-кулуб”: “Умид ульким, читатели обращают внимание и е”. Пусть смотрят друг на друга.своими глазами, и пусть каждый будет наслаждаться согласно своему собственному пониманию ... Это показывает, что каждый может понять, освоить, извлечь пользу и применить эту работу по-разному, то есть только на уровне своего собственного понимания, и Отсюда мы можем понять суть интерактивных методов обучения и суммировать приведенные выше выводы об основных отличиях от традиционных методов, то есть о повышении понимания учащимися.

Следует отметить, что интерактивные методы обучения в Узбекистане издревле используются в образовательном процессе, такие как обсуждение, дебаты, переговоры, наблюдение, анализ, консультации, чтение стихов, чтение в диалоге между учителем и учениками и между учениками и учениками. Используется в формах.

Эти методы помогли студентам стать независимыми мыслителями, развивая свою речь, мышление, рассуждение, интеллект, талант и интеллект.

Сейчас известно, что интерактивное обучение основано на интерактивных методах. В будущем желательно, чтобы эти методы вырастали до определенной степени интерактивными технологиями. На наш взгляд, в этом заключается разница между концепциями этого интерактивного метода и технологии.

Интерактивный метод обучения реализуется каждым преподавателем на уровне имеющихся инструментов и возможностей. В этом случае каждый ученик учится на разном уровне в зависимости от своих мотивов и интеллектуального уровня.

Технология интерактивного обучения - гарантирует, что каждый учитель проводит уроки, которые усвоили все ученики, как задумано. В этом случае каждый ученик усвоит урок на заданном уровне, со своими мотивами и интеллектуальным уровнем.

Основываясь на некотором опыте интерактивного обучения, мы можем определить некоторые факторы, которые влияют на качество и эффективность этих тренингов. Их условно можно назвать организационно-педагогическими, научно-методическими и факторами, относящимися к учителю, учащимся, учебным пособиям. Мы должны помнить, что они могут иметь положительный или отрицательный эффект в зависимости от их характера.

Подбор интерактивных методик согласно цели обучения

Существует множество типов интерактивных занятий, которые выбираются и готовятся в соответствии с характером темы и предполагаемой целью. Существуют определенные требования к подготовке учеников к участию в интерактивных уроках, которые включают приобретение знаний, необходимых для активного участия в уроке, готовности к общению, сотрудничеству, самостоятельного мышления, самовыражения. Навыки свободы слова и защиты и так далее.

Обязательно используйте свое время с максимальной пользой. Это требует правильного выбора и подготовки необходимых инструментов, а также четкого определения тренеров и их обязанностей. Между интерактивными методами и традиционными методами обучения существуют определенные различия, и каждый учитель должен сравнивать эти различия, их преимущества и недостатки по отношению друг к другу при выборе методов планирования и проведения уроков. Следует принимать во внимание.

В этом случае наиболее подходящий интерактив для передачи новых знаний, формирования, развития, закрепления навыков, повторения знаний, практических занятий, а также для обучения по каждой теме с учетом специфики предмета. Или правильный выбор других техник.

Правильно покрытый, он выдержит множество неблагоприятных условий.

Вывод. Интерактивные методы относятся к теории конструктивизма, и при применении этих методов на практике следует учитывать следующие основные выводы конструктивизма:

1. Ученик должен учиться сам, иначе никто его ничему не научит;
2. Учитель организует процесс, который помогает ученикам “открывать” знания;
3. Знание - это не копия существования, оно создано человеком.

Литература

1. Очилов М. Новые педагогические технологии. - Карши: “Насаф”, 2000.
2. Толипов О., Усмонбаева М. Прикладные основы педагогических технологий. - Т., 2005.
3. Авлиякулов Н.Х., Мусаева Н.Н. Педагогические технологии. Учебник для вузов.
4. Азизходжаева Н.Н. Педагогическая технология и педагогическое мастерство. -Ташкент: “Финансы”, 2002.
5. Азизходжаева Н.Н. Педагогическая технология и педагогическое мастерство. - Т.: “Наука”, 2006.
6. Юлдашев Ю.Г., Усманов С. Передовые педагогические технологии. - Т.: “Учитель”, 2004.

Сабоҳат МУРОДОВА
Термиз давлат университети ўқитувчиси

Умида ЯКУБОВА
Термиз давлат университети ўқитувчиси

Расул ИМОМҚУЛОВ
Термиз давлат университети ўқитувчиси

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ БИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ЎҚУВ ВАЗИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Мақолада ўқитиш ва ривожлантириш жараёнининг ўзаро алоқадорлиги муаммоси дидактиканинг етакчи муаммоларидан бири эканлиги таҳлил қилинади. Мазкур муаммо доирасида бир қатор дидактик вазифаларнинг ечимини ишлаш талаб қилинади. Жумладан, ўқув-билув вазияти ва билиш жараёнини ривожлантиришнинг ўзаро алоқадорлиги каби.

Калит сўзлар: *ўқув вазияти, топшириқ, ўқувчи, борлиқ, муаммо, фаолият, восита.*

В статье анализируется, что проблема взаимосвязи процесса обучения и развития является одной из ведущих проблем дидактики. В рамках данной проблемы требуется проработать решение ряда дидактических задач. В частности, как взаимосвязь учебно-познавательной ситуации и развития познавательного процесса.

Ключевые слова: *учебная ситуация, задача, ученик, существование, проблема, деятельность, средство.*

The article analyzes that the problem of the relationship between the learning process and development is one of the leading problems of didactics. Within the framework of this problem, it is necessary to work out the solution of a number of didactic tasks. In particular, as the relationship between the educational and cognitive situation and the development of the cognitive process.

Keywords: *educational situation, task, student, existence, problem, activity, means.*

Кўпгина мутахассислар шахснинг ривожланиши моддий олам билан боғлиқ бўлиб, инсон турмуш тарзи унинг онгини белгилайди, деб ҳисоблайдилар. Инсоннинг болаликдаги ривожланишида ўқув-билув фаолияти муҳим ўрин эгаллайди. Ўқувчилар билиш фаолиятининг ривожланиши биринчи навбатда уларнинг илмий ҳодисалар, фикрлар, ғоялар, далиллар ва ижтимоий тажрибани ўзлаштиришлари натижасида амалга ошади.

Педагогика фанида ривожланиш ва ўқитишнинг ўзаро алоқадорлиги ўзига хос тарихий тараққиёт йўлига эга. Дастлаб педагоглар ўқувчиларнинг ривожланиши ўз-ўзидан амалга ошади, деган фикрни илгари сурганлар. Кейинчалик эса, таълимнинг ривожланишга бўлган таъсирини аниқлаганларидан сўнг улар бу таъсирнинг автоматик характерга эга эканлигини таъкидлаганлар. Ўқишнинг кенг қамровлилиги ва кўпқирралилиги билан кўрсатилган муаммо таълим ва ривожланишнинг ўзаро алоқадорлиги тарзида тушунила бошланди.

Педагогик-психологиянинг етакчи намоёндалари таълим ва ривожланиш мукаммосини ўрганган мутахассислар Л.С. Выготский, В.В.Давидов, Э.Ғозиевнинг ишларида бу масала ўз ифодасини топган. Шу билан бир қаторда, улар ўқувчиларни ўқитиш ва ақлий ривожлантириш муаммоси бўйича шахсий нуқтаи назарларини вужудга келтирди. Мазкур нуқтаи назарнинг асосий моҳиятини Л.В. Занков қуйидагича ифодалаган эди: “яхши ташкил этилган ўқув жараёни ўқувчи ривожланишини жадаллаштиради. Таълим нафақат якунланган туркумларда қурилади, балки биринчи навбатда ҳали етилмаган руҳий вазифаларда намоён бўлиб, уларнинг шаклланишини илгарилатади”.

Кўплаб психологлар Л.С.Выготскийнинг ёндашувларига таянган ҳолда ўқитиш ва ривожланиш муаммосини ҳар томонлама ўрганишга интилдилар. Ёндашувларнинг асосида таълимнинг иккиёқлама жараён эканлиги ҳақидаги ғоя ўз ифодасини топган. Унда фаолиятнинг икки тури ўзаро алоқага киришади: ўқитиш ва ўрганиш жараёнида фаолиятнинг иккита субъекти иштирок этади. Улар ўқитувчи ҳамда ўқувчи.

Фаолият шахсни ривожлантирувчи асосий воситадир. Мазкур қонуниятни икки йўналишда асослаш мумкин: а) фаолият шахснинг ривожланишини таъминлайди; б) фаолиятни ташкил этиш учун шахс тараққиёт даражасини ҳисобга олиш керак.

Ушбу ёндашув асосида педагогика фанида таълимга фаолиятли, индивидуал, табақалашган ёндашув назарияси вужудга келди. Шахснинг ривожланиш жараёнида бир хиллик мавжуд эмас. Бунинг тасдиғи сифатида шахс ривожланишининг сензитив босқичида шахс танлаб олинган муайян йўналишда тараққий этади.

Бошланғич синф ўқувчилари учун бу давр образли тафаккур қилиш асосида интеллектуал ривожланиш давридир. Бу асосан ўқув-билув жараёнида амалга ошади. Бу ўқув-билув жараёнида шахснинг бошқа жиҳатлари ривожланмайди деган хулосага келиш учун асос бўла олмайди. Биз бошланғич синф ўқувчилари учун етакчи бўлган ривожланиш йўналишини асослашга ҳаракат қиламиз. Бу даврда ривожланиш жараёни бошланғич синф ўқувчиларининг идентификацияси, яъни айнан ўхшатилиши, тенглаштирилиши билан чамбарчас боғлиқдир.

Интеллектуал ривожланишда ўз-ўзини ҳурмат қилишнинг асосини ўқувчиларнинг шахсий ижобий тажрибаси ташкил қилади. Бу ўқув-билув жараёнида намоён бўлади. Кузатишларимиз шуни кўрсатмоқдаки, аксарият бошланғич синф ўқувчиларида бундай тажриба мавжуд эмас. Ўз фаолияти натижасидан қониқмасликнинг ўзигина ўқувчилар ўз-ўзларини ҳурмат қилишларининг асосини ташкил эта олмайди. Бу йўналишда муҳим ўрин эгаллайдиган қонуниятлардан бири – бошланғич синф ўқувчиларида муайян ўқув вазиятларида билиш фаолиятининг ривожланиши, шахсий тенглик ҳамда ўз-ўзларини ҳурмат қилишларидир.

Изланишларимизнинг асосини муайян ўқув вазиятларида ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини ривожлантиришнинг самарали йўлларини излаш ташкил қилади. Ўз-ўзини ҳурмат қилиш ҳар бир шахснинг таҳлилий сифатидир. Мазкур сифатнинг таркибини таҳлил қилиш орқали биз ўқувчининг майллари, қадриятлари, таянадиган қоидалари ушбу таркибнинг асосини ташкил қилишини аниқлашга муваффақ бўлдик. Бу ўқувчиларнинг жадал фаолиятлари орқали намоён бўлади. Ўқувчи билиш фаолияти жараёнидаги йўл қўйилган хатолар унинг кайфияти ва ривожланишига муайян таъсир кўрсатади.

Мавжуд илмий манбаларнинг таҳлили ва амалга оширилган кузатишларимиз натижасида биз ўқувчилардаги билиш фаолияти қуйидаги таркибий қисмлардан иборат эканлигини асослашга ҳаракат қилдик:

- билиш қизиқишлари;
- ўқув мақсадлари;
- ҳиссиётлар: шахсий безовталик ва ҳиссий барқарорлик;
- ютуқларни қўлга киритиш ва мулоқот қилишга бўлган эҳтиёж;
- интеллектуал лаёқатлилик ва мулоқотга киришувчанлик;
- шахсий тажрибалар ҳамда кўникмалар;
- шахсий тажриба ҳамда билим.

Ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини жадаллаштириш – бугунги кунда педагогиканинг муҳим муаммоларидан бири ҳисобланади. Унинг долзарблиги методик усуллар ва воситаларни излаш, ишлаб чиқиш зарурияти билан белгиланади. Ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини жадаллаштириш муаммосини ечиш учун ўқув материалларининг назарийлик даражасини кучайтириш билан бир қаторда, ўқувчиларга билиш методларини изчил тарзда ўргатиш талаб қилинади. Бу тадбир муайян ўқув вазиятларида амалга оширилади. Муайян ўқув вазиятларида ўқувчиларни билиш методлари ва усуллари билан қуроллантириш талаб қилинади. Бунинг натижасида ўқувчилар тафаккурининг ривожланиши билишга асосланган бошқа руҳий ҳолатларга таъсир кўрсатади.

Шахсга йўналтирилган таълим жараёнида ўқувчиларда мантиқий ҳамда танқидий фикрлашни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилади. Чунки ўқувчиларнинг мантиқий ҳамда танқидий тафаккурлари билиш фаолияти жадаллигини таъминлаш имконини беради. Бунинг натижасида ўқувчилар муайян ўқув вазиятларида ўқув материалларини муваффақиятли ўзлаштириш имкониятига эга бўладилар. Бу эса уларнинг ақлий ривожланишларини жадаллаштириб, билиш имкониятларини кенгайтиришга асос бўлади.

Бугунги кунда синф-дарс тизимини кучайтириш йўлларини излашга йўналтирилган педагогик фаолият кенгаймоқда. Бунда ўқувчиларнинг оқилона билиш фаолияти асосий ўрин эгаллаши лозим. Бунга ўқитишнинг мужассамлашган методлари ва воситаларини ишлаб чиқиш йўли билан эришиш мумкин. Мазкур методик тизим ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини бошқариш вазифасини бажариши керак. Шу билан бир қаторда, мазкур воситалар ўқувчиларда ўқув ишини фаол тарзда бажариш кўникмаларини фаоллаштиришга ҳам хизмат қилиши лозим. Бундай ўқув-методик мажмуалар замонавий педагогик жараённинг муайян шароитларига кўпроқ тарзда мос келиши лозим. Бундай ўқув вазиятларини танлашда замонавий педагогик тадқиқотларнинг натижаларига таяниш лозим.

Кузатишларимиз шуни кўрсатдики, ўқувчиларнинг янги ўқув материалларини ўзлаштиришга бўлган қизиқишлари ва эҳтиёжлари жуда бўш тарзда шаклланган. Бошланғич синф ўқувчиларининг

ўқув материалларини билиш қувватлари ва имкониятларини ривожлантириш ўқув материалларининг ижтимоий аҳамиятлилик даражасига ҳам боғлиқ.

Ўқувчилардаги билиш фаоллиги кенг маънода уларнинг биологик ўзига хосликлари билан боғлиқдир. Бунда асосий эътибор ўқувчиларнинг муайян фаолиятга йўналтирилганлиги ва ўз эҳтиёжларини қондириш имкониятларига қаратилади. Билиш фаолиятига муносабат ҳақида фикр юритар эканмиз, бу ўқувчиларда билиш майллари, унга эришиш йўллари, ахборотлардан фойдаланиш, ақлий фаолият кўникмаларининг шаклланишида намоён бўлади. Бу ўз навбатида маҳсулдор ўқув-билув фаолиятининг вужудга келишини таъминлайди. Фаолиятнинг натижавийлиги ўқувчиларда ижобий кечинмалар, ҳис-туйғулар, юқори даражадаги билиш қизиқишларини уйғотиб, уларни истиқболдаги билиш фаолиятига йўналтиради.

Ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини ривожлантиришнинг зарур шарти – муайян ўқув вазиятларида ўзларини мустақил бошқаришларида намоён бўлади. Бу уларнинг ўз хулқ-атворларини бошқаришларида яққол акс этади. Фаолият характери ва амалга ошириш шароитларига боғлиқ ҳолда қўйилган мақсадга эришишга йўналтирилган ихтиёрий қувватлар намоён бўлади.

Ўқув фаолиятининг шаклланганлиги – ўқувчи хулқ-атворининг мустақил бошқарилиши, ўз руҳий ҳолатлари ҳақида ўйлаш, ўқув майлларининг барқарорлиги, ўзаро тенг келадиган усуллар ёрдамида ўқувчиларга ўз билиш фаолиятларини амалга ошириш имконини беради. Ўқувчиларнинг ўқув жараёни субъекти сифатида шаклланишлари уларда руҳий билиш имкониятини таркиб топтирмасдан амалга ошмайди. Биринчи навбатда тафаккур, ўзи ҳақида ўйлаш имкониятининг вужудга келиши, ўз-ўзини назорат қилиши, ўз-ўзини баҳолаши ўқувчиларда ақлий фаолият операцияларининг шаклланганлигидан далолат беради. Бу қуйидаги кўникмалар орқали аниқланади: таҳлил қилиш, умумлаштириш, қиёслаш ҳамда оммалаштириш орқали.

Ўқувчиларда ўқув фаолиятига оид кўникмаларнинг шаклланмаганлиги ўқув жараёнини самарадорлиги пасайишига олиб келади. Бунинг натижасида ўқувчиларнинг ўқув фаолиятидаги муваффақиятсизликлари кучайиб, ўқув-билув майллари йўқолади.

Илмий манбаларда ўқувчиларнинг билиш фаолликлари уларнинг моддий борлиққа бўлган муносабатлари сифатида талқин этилади. Ўқувчилар ижтимоий-тарихий тажрибани ўзлаштиришлари асосида ижтимоий жиҳатдан аҳамиятли бўлган моддий ва маънавий воситаларни билиш имкониятига эга бўладилар. Ўқувчиларнинг ижодий фаолиятлари уларнинг билиш фаолиятларини жадаллаштиради. Бу уларнинг ихтиёрий ҳаракатлари ва мулоқотларида намоён бўлади.

Ўқув-билув жараёнида билиш фаоллигини ривожлантиришга бағишланган тадқиқотларда ўқувчиларнинг мустақиллигидан келиб чиққан ҳолда ўқув жараёнида улар фаоллигини таъминлашнинг уч йўналиши ажратилган:

- намунага асосланган тақлидий;
- изланувчиликка асосланган ижрочилик;
- ижодий билиш фаолияти.

Намунага асосланган тақлидий фаолият ҳаракатнинг тайёр намуналари асосида ҳосил бўлади. Идеал тарзда бўлгани каби, предметлилик асосида ҳам ўқувчиларни уларни қўлга киритиш усуллари ҳақида ўйлашга ундайди. Изланувчиликка асосланган ижрочилик фаолияти тадқиқотчилик фаолияти билан қиёсий тарзда ўқитувчи томонидан таклиф этилган муаммоли вазиятларни ечиш йўлларини мустақил тарзда излашдан иборат. Ижодий фаолият эса, билиш фаолияти ҳосил бўлишининг юқори шакли сифатида берилган вазият доиарсидан ташқарига чиқишдан иборат бўлиб, муаммоларни ечишнинг янги, ўзига хос усулларини излаш, ўз ҳатти-ҳаракатларини мустақил бошқаришнинг юқори кўрсаткичларини намоён қилишдан иборат бўлиб, мазкур даражани шахсий фаоллик билан қиёслаш мумкин.

Анъанавий таълим шароитида билиш фаолияти ўқитувчининг ўқувчиларга тайёр билимларни узатиши ва ўқувчиларнинг мазкур билимларнинг ўзлаштиришга йўналтирилган ҳаракати сифатида тушунилади. Мутахассислар босқичма-босқич билиш фаолиятининг янги даражаларига ўтиш зарурлигини тушуна бошладилар. Дастлаб билимларнинг муайян қисми, кейинчалик эса барча ахборотлар ўқувчиларга тайёр тарзда узатилмаслиги лозимлигини мутахассислар назарий жиҳатдан асослай бошладилар. Ўқитувчи ўқувчиларга мулоқот асосида тақдим этадиган ахборотларнинг муайян қисми мустақил изланиш учун асос бўлишига эришиш назарда тутила бошланди. Бугунги кунда тушунишга асосланган ўқув жараёнидан муаммоли таълим жараёнига ўтиш зарурлигини барча ўқитувчилар тушуниб етмоқдалар. Шу тариқа, ўқувчиларнинг билиш фаолиятлари элементлари уни фаоллаштиришга асос бўладиган ҳодиса бўлиб, ҳиссий фаолият каби воқеаларни идрок этиш ва тасаввурларнинг шаклланиш даражасига эга бўлиб, ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари ва руҳий

ҳолатлари билан чамбарчас боғлиқдир. Фикрий фаолият ҳам далиллар ва ҳодисаларни назарий фикрлаш даражасига эга.

Ўқувчиларда билиш фаолиятининг таркибий қисми ички майллардан бошланиб, билиш манбалари, хулқ-атворининг ички ташкил этувчилари, билиш қизиқишлари, ҳиссий кечинмалар, атроф-оламни билиш йўналишлари, билимларни ўзлаштириш жараёнини қамраб олади. Ўқувчиларнинг билиш фаолияти дидактик ёндашувларда қуйидагича талқин этилмоқда: қизиқишлар – ирода – диққат – фикр – изланиш. Бу тизимда ўқувчиларнинг билимлар ва ахборотларни ўлаштиришнинг оптимал методларини излашлари устувор ҳолат сифатида эътироф этилади. Чунки мазкур ҳолат ўқувчилар билиш фаолиятларининг муваффақиятини таъминлайди. Билиш фаолиятини мунтазам йўналиш асосида ташкиллаштириш, жумладан, қизиқиш, ирода, диққат кабилар биринчи навбатда бир қатор педагогик-психологик омиллар билан боғлиқдир. Чунки ўқувчининг фикрлари, уларнинг иродалари ва ҳиссиётлари билан боғлиқ тарзда вужудга келади. Ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини ривожлантириш муайян дидактик вазиятлар ва методик воситаларни ишлаб чиқишни тақозо қилади. Бу вазиятлар биринчи навбатда ўқувчиларнинг фикрлаш усулларини ўзлаштиришларига йўналтирилиши лозим.

Бошланғич синф ўқувчиларининг нутқини ривожлантириш учун она тилининг сўз бойлиги билан ўқувчиларни таништириш вазифаси муҳим аҳамият касб этади. Ўқувчиларнинг нутқий тафаккурини шакллантириш учун дастлаб, ўқувчилар олдига муаммоли саволлар қўйиш лозим. Мазкур саволлар ёрдамида эса муаммоли вазиятларни вужудга келтириш керак. Бундай вазиятлар ўқув топшириғини бажариш зарурияти ва бу вазифани ўқувчиларнинг мавжуд билимлари ва кўникмалари ёрдамида бажариш имконсизлиги натижасида вужудга келади. Мазкур номувофиқликни англаш натижаси сифатида ўқувчининг билиш майллари намоён бўлади. Бу эса ўз навбатида ўқувчиларни янги билимлар ва ахборотларни ўзлаштиришга ундайди. Улар муаммоли саволларга жавоб топишнинг усуллари ва воситаларини излай бошлайдилар.

Адабиётлар

1. Розиқов О., Оғаев С. Таълим технологияси. –Т.: 1999. –71 б.
2. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. - СПб.: Изд-во «Питер», 2000.-712 с.
3. Сафарова Р., Мусаев У.Қ., Мусаев П. ва бошқ. Ўзбекистон Республикасида умумий ўрта таълим стратегияси муаммолари ва таълим мазмунининг янги моделлари, уларни татбиқ этиш йўллари. –Т.: Фан, 2005. – 255 б.
4. Сафарова Р. Теория и практика обучения родного языка в школах Узбекистан в условиях национального возрождения: Автореф. дисс… док.. пед. наук. – Т., 1998. – 36 с.
5. Сафарова Р., Мусаев У. ва б. Умумий ўрта таълим мазмунини модернизациялашнинг дидактик параметрлари. –Т.: Фан, 2008. 222 б.
6. Сафарова Р., Неъматов Ш. ва б. Ўқув предметлари мазмунини аниқловчи асосий параметрлар. Т.: Фан ва технология, 2011. – 159 б.
7. Скаткин М. Н. Проблемы современной дидактики. - М.: Педагогика, 1981. - 96 с.
8. Талызина Н. Ф. Формирование познавательной деятельности учащихся. - М.: Знание, 1983. - 96 с.
9. Тошимов Р.Ю. Ахлоқий тарбиянинг баъзи масалалари. – Т.: “Ўқитувчи” 1984. – 14 б.
10. Требования к знаниям и умениям школьников. Дидактико-методический анализ / Под ред. А. А. Кузнецова. - М.: Педагогика, 1987. - 176 с.
11. Усова А.В., Бобров А.А. Формирование у учащихся учебных умений-М.: Знание, 1987.-80 с.
12. Учебный материал и учебные ситуации: Психологические аспекты / Под ред; Г.С. Костюка, Г. А. Балла. - Киев: Радянська школа, 1986. - 143 с.
13. Формирование интереса к учению у школьников / Под ред. А.К.Марковой. - М.: Педагогика, 1986. - 192 с.
14. Формирование учебной деятельности у младших школьников / Под ред.;. В.К.Давыдова, И. Ломпшера, А.К.Марковой. -М.: Педагогика, 1982. - 216 с.
15. Галперин Д. Психология критического мышления. - СПб.: Изд-во «Питер», 2000.-512 с.

Safibullo ABDULLAYEV
Namangan viloyati Xalq ta'limi xodimlarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish hududiy markazi
pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari
kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH MUASSASALARIDA O'QITUVCHILARNI ERGONOMIK FAOLIYATGA TAYYORLASH

Maqolada maktablarda yangi ergonomik ta'lim muhitini tashkil etishning va hozirgi zamon maktab o'qituvchisining ergonomik madaniyatini rivojlantirishda ergonomik bilim, ko'nikma va malakalarning dolzarbligi asoslangan. Ergonomik tizimda pedagog va o'quvchilarning mehnatni tejash, maktabda qulay va samarali, xavfsiz ta'lim muhitini yaratishda o'qituvchining ishtirok etishi muammolari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *ta'lim ergonomikasi, o'qituvchi ergonomik madaniyati, ergonomik ta'lim muhiti.*

Организация новой эргономичной учебной среды в школах и развитие эргономической культуры современного школьного учителя основаны на актуальности эргономических знаний, навыков и компетенций. Эргономическая система решает вопросы участия учителей и учеников в экономии рабочей силы, создавая комфортную, эффективную, безопасную учебную среду в школе.

Ключевые слова: *эргономика обучения, эргономическая культура учителя, эргономическая среда обучения.*

The organization of a new ergonomic learning environment in schools and the development of the ergonomic culture of the modern school teacher are based on the urgency of ergonomic knowledge, skills and competencies. The ergonomic system addresses the issues of teacher and student participation in saving labor, creating a comfortable and effective, safe learning environment at school.

Keywords: *educational ergonomics, teacher ergonomic culture, ergonomic learning environment.*

Kirish. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar bilan bir qatorda, ta'limni modernizatsiya qilish yo'nalishida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutgan holda malaka oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning o'quv modullari va bloklari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, kasbiy rivojlanishlarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni belgilab berdi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlari asosida ta'lim-tarbiya berish, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishdir. Tarbiyalanuvchilarning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli jarayonda muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga erishishga yo'naltirilgan, ta'lim natijasini kafolatlaydigan pedagogik jarayon tashkil etish maktab o'qituvchilaridan pedagogik ergonomika bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga asoslangan ergonomik madaniyatni talab etadi.

Asosiy qism. Dars mashg'ulotlarining internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda masofadan turib amalga oshirilishi, muayyan loyiha asosida tashkil etish, aniq maqsadga erishishga yo'naltirilgan, ta'lim natijasini kafolatlaydigan pedagogik jarayonlarda eng samarali metodlardan foydalanish, ta'lim va tarbiya texnologiyalarini tanlash hamda dars jarayonlarini tashkil etish samaradorligini ta'minlashga ergonomik madaniyat xizmat qiladi. Ta'lim mazmunini belgilash tamoyillari hamda mezonlariga rioya etgan holda o'quv materiallarini tanlash va tizimlashtirish, ta'lim muassasasi o'quv moddiy bazasi va ta'lim vositalariga qo'yiladigan ergonomik talablarni hisobga olish o'quv materiallarini samarali modellashtirish imkoniyatini beradi [1, 54]. Natijada, yaxlit pedagogik jarayonning umumiy qonun, qonuniyat va tamoyillariga amal qilgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida gnoseologik, tashkiliy, psixologik, didaktik, sotsiologik va kibernetik qonuniyatlarinining uyg'unligiga erishiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni tarkibiy qismlarining o'zaro aloqadorligi va umumiyligini hisobga olib ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy va yordamchi shakllaridan unumli foydalanish o'quvchilarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va o'tkazish o'qtuvchilarning kreaktiv salohiyatini hamda ergonomik madaniyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi. Ta'lim muassasida faoliyat yurituvchi o'qituvchilarning kasbiy malakasi, tegishli funksional vazifalari bo'yicha ish tajribalari, kasb sohasiga muvofiqligi, egallab turgan lavozimi bo'yicha funksional vazifalarni bilishi, tashabbuskorligi, ishga ijodiy yondashuvi zamonaviy talablar darajasida bo'lishi, hamda uning xolislik, oshkoralik, shaxsiy va kasbiy kompetentlik, amaliy tajriba,

boshqaruv mahoratlari, mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik kabi sifatlari ularning ergonomik madaniyatlari darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim muassasalari o'qituvchilari ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish borasida pedagogik ergonomika talablariga asosan oqilona faoliyat yuritishlari, ta'lim muassasasining haqiqiy egasi bo'lish, xavfsiz va qulay o'quv jarayonini tashkil etishning barcha jabhalarini mukammal egallash, o'z lavozim vazifalariga nisbatan o'ta mas'uliyatli bo'lish, ta'lim jarayoni xavfsizligi va qulayligini ta'minlay olish sifatlarining ularda mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta'lim muassasasi o'qituvchilaridan ergonomik kompetentlik negizida rivojlanuvchi ergonomik madaniyati, tashabbuskorligi, shaxsiy sifatlari, tizimli tahlil va qaror qabul qilish malakasi, lavozim vazifalarni, eng avvalo, davlat siyosati talablaridan kelib chiqqan holda bajarishning maqbul, samarali yo'llarini amalga oshirish talab etiladi.

Bugungi kun ta'lim tizimini modernizatsiya qilinishi, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta'lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturlarini o'zgartirib, yangilab borishni ko'zda tutadi.

Ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, iqtisodiyotdagi ijobiy o'zgarishlar, chet el investitsiyalari ko'lamining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesning rivojlanishi, shuningdek, uzluksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga integrativ yondashuvni joriy etilishi ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarning yaratilishini, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini pedagogik ergonomika talablariga muvofiq ravishda takomillashtirishga asos bo'ladi.

Bu o'z navbatida, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalari o'qituvchilari zimmasiga umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining ergonomik madaniyatini takomillashtirish borasida ta'lim, fan, texnika va texnologiyalarning jahon miqiyosidagi yutuqlarini, ilmiy asoslangan innovatsiyalarni tatbiq etgan holda pedagogik jarayonlarni pedagogik erganomika talablari asosida tashkil etish va boshqarish, shuningdek, pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash yo'nalishidagi mavjud muammolarni ijobiy hal etish masalalari yuzasidan yangi vazifalarni yuklaydi. Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida o'qituvchilarni ergonomik faoliyatiga tayyorlash yo'nalishida ta'lim mazmuniga, tinglovchilarning tayyorgarlik darajasi va o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar darajasiga hamda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablar ergonomik faoliyatga tayyorlash jarayoni mazmunini yaratish, ta'lim mazmuni va ta'lim berish usullarini yanada takomillashtirish, ilg'or pedagogik texnologiya, innovatsion ta'limning eng samarali texnologiyalarini qo'llashni taqozo etmoqda. Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida tahsil olayotgan o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasiga, fanlar bo'yicha o'qituvchi-tinglovchilarda shakllanishi zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarga, o'zlashtirishi zarur bo'lgan bilimlar mazmuniga va ta'lim dasturlarining mazmuni hamda komponentlariga qo'yilayotgan talablarda o'qituvchilarda pedagogik ergonomika yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish zaruriyati dolzarb bo'lib qolmoqda.

"Ergonomika" atamasi birinchi marta polshalik tabiatshunos V.Yastshembovskiy tomonidan 1857-yilda ishlatilgan bo'lib, u tabiat to'g'risidagi qonuniyatlarga asoslanib, mehnat haqidagi fanni nazarda tutgan [4, 343]. Ergonomika ta'limining kelib chiqishiga B.G.Ananiyev [2, 288], V.P.Zinchenko [4, 343], A.N. Leontiyev [5, 304], B.F.Lomovlar asos solganlar [7, 465]. Umuman olganda, ergonomika "insonni zamonaviy ishlab chiqarishdagi faoliyatining o'ziga xos sharoitlarida har tomonlama o'rganadigan ilmiy fan sohasidir" [3, 230].

1986-yildan boshlab "Ergonomics Abstfacts" jurnalida ta'limning erganomik muammolariga bag'ishlangan yangi fan sohasi paydo bo'ldi. Education (Ta'lim) - deb rus tadqiqotchisi A.A.Kuligina o'zining "Ta'lim dunyosida ergodizayn" nomli asarida dastlab yoritib berdi [8, 356].

Lekin ta'lim muammolarini hal etishga bo'lgan qiziqish ergonomistlarda avvalroq paydo bo'lgan edi. 1980-yili inson omillari jamiyatida ergonomikaning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash uchun maxsus guruh tuziladi. Guruh tomonidan tavsiya etilgan 8 ta yo'nalishning bittasi ta'lim va mashg'ulotlar tizimini yaratish bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, o'tgan davr ichida ergonomikaning bu yo'nalishi faqat operatorlar kasbi bilan bog'liq (insonning texnika bilan bog'liq), mehnat faoliyatini o'rganishga qaratilgan holda rivojlandi.

Bir qator mualliflar ergonomikaning tamoyillari va tavsiyalarini ishlab chiqarish jarayonidan pedagogik jarayonga o'tkazish mumkin deb hisoblashadi. Jumladan, V.P. Zinchenko "pedagogik ergonomika yaratishga ehtiyoj bor" deb juda to'g'ri ta'kidlaydi [4, 343]. "Ergonomika" odam - mashina "tizimini tekshirsa ham, uning ko'plab xulosalari va tavsiyalari maktabdagi o'quv jarayonini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin", deydi A.A.Chensov [10, 273]. "Bir qator mehnat faoliyati to'g'risidagi fanlar va texnik fanlarning yutuqlarini sintez qilish orqali ergonomika tegishli fanlararo aloqalarni o'rnatishga va o'quv jarayonining o'zini yaxshi tashkil etishga hissa qo'shishi mumkin" [4, 343]. "Murakkab zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash muammolarini har tomonlama hal qilish usullaridan biri bu ergonomik yondashuvdan foydalanishdir" [6, 141]. "Asosan antropotexnik tizimlar dizayni bilan shug'ullanadigan

an’anaviy yondashuvdan farqli o‘laroq, kasb-hunar ta’limi ergonomikasi yangi o‘qitish uslublarini, tizimli va kompleks yondashuvga asoslangan texnik o‘quv vositalarini asoslash bilan bog’liq bo‘lishi kerak” [6, 141]. “Ergonomik talablarni hisobga olgan holda, ushbu fanning tavsiyalaridan foydalangan holda maktab jihozlari, ko‘rgazmali qurollarni loyihalashda, sinfda kerakli qulaylikni yaratish, shubhasiz, o‘quvchilar tomonidan bilim, qobiliyat va ko‘nikmalarni egallash jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘quv tizimini umuman yaxshilaydi” [10, 273].

Ta’lim ergonomikasi esa kognitiv ergonomika (bilish ergonomikasi) g’oyalariga tayanadi va ularni ta’lim sohasida qo‘llashga harakat qiladi. Kognitiv ergonomika – bu aqliy mehnatni qanday yaxshilash va yengillashtirish haqidagi fan. Ta’lim ergonomikasi – bu o‘quv faoliyatini qanday yaxshilash va yengillashtirish haqidagi fan [9, 200].

Tashkiliy ergonomika ta’lim jarayonini tashkil etishda ta’lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish, o‘quv-tarbiyaviy jarayonning tashkiliy tuzilmalari va boshqarish jarayonlarini o‘z ichiga olgan holda optimallashtirish bilan bog’liq masalalarni hal etish va individlararo aloqalar tizimi, inson resurslarini boshqarish, loyihalar ishlab chiqish, kooperatsiya, jamoa ishini oqilona tashkil etish va boshqarish masalalarini o‘rganadi.

Oliy ta’limdagi o‘quv-tarbiyaviy jarayon o‘z ichiga quyidagi jarayonlarni oladi: tarbiya, ta’lim, malakali kadrlar shaxsini shakllantirish va rivojlantirish, va shu kabilar. Bularning hammasi yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, talaba va professor-o‘qituvchilar faoliyati, talabalar va professor-o‘qituvchilar orasidagi ijtimoiy muhit va uning sog’lomligi, o‘quv yurtining moddiy-texnik ta’minoti, o‘rnatilgan hamkorlik aloqalari va bir qator boshqa omillar tufayli erishiladi.

Shuningdek, zamonaviy ta’lim jarayonini tashkil etishda quyidagi omillarni e’tiborga olish zarur bo‘ladi:

-bilim olish usullarining o‘zgarib borayotganligi;

-zamonaviy ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi, o‘qitish usullari va mazmunini o‘zgarish imkoniyatlarining ochilayotganligi;

-o‘quv jarayonida o‘qituvchi rolining o‘zgarib borishi;

-masofaviy ta’lim va ta’lim olishga keng imkoniyatlarning ochilishi.

Hozirgi davrda yuqori sifatli bilim berish va ta’lim jarayonini tashkil etish talab etiladi. Bu jarayonda quyidagi ishtirok etuvchi subyektlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin: har qanday ishlab chiqarish jarayonining ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilari bo‘lganidek, birinchisi bilim olish jarayoni uchun manbalarni tayyorlovchilar (professor-o‘qituvchilar, olimlar), ikkinchisi tayyorlangan manbalarni iste’mol qiluvchilar (talabalar, malaka oshiruvchilar, tadqiqotchilar) hamda ta’lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subektlardir (rahbar xodimlar).

Bilim olish manbalari ko‘payib borishi bilan bilim olishning yangi konsepsiyasi paydo bo‘ldi: butun hayot davomida ta’lim olish, uzluksiz ta’lim olish va boshqalar. Shu munosabat bilan zamonaviy talablardan biri ta’lim olish jarayoni sifat va samaradorligini tubdan oshirish, ta’lim jarayonining ergonomik jihatlarini o‘rganish, ta’lim jarayoni subyektlari va oliy ta’lim muassasalari faoliyati sifat va samaradorligini oshirish masalalariga tizimli integrativ yondashish kerak bo‘ladi. Natijada, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘rganiladigan “Pedagogika” turkumidagi fanlar ergonomika (xavfsiz va qulay ta’lim muhitini tashkil etish), ekonomika (ta’limni rivojlantirishni loyihalash jarayonida iqtisodiy ehtiyojlar va resurslarni aniqlash), psixologiya (o‘quvchilarning ruhiy holatlarini hisobga olish), sotsiologiya (ta’limda ijtimoiy ehtiyojlarni aniqlash), meditsina (o‘quvchilar salomatligi holatini o‘rganish, jismoniy rivojlanishi va sog’lig’ida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga maxsus sharoitlar yaratish), fiziologiya (o‘quvchilarning fiziologik va yosh xususiyatlarini hisobga olish), filosofiya (umumilmiy yondashuv va falsafiy konsepsiyalardan foydalanish), matematika (pedagogik diagnostika va pedagogik tadqiqotlarda matematik hisoblash usullarini qo‘llash), tarix (ta’limning tarixiy tajribalarini o‘rganish va qo‘llash), antropologiya (tarbiya predmeti sifatida insonga kompleks yondashuv) fanlari bilan uzviy bog’liq holda o‘rganilishi maqsadga muvofiqligi yaqqol nomoyon bo‘lmoqda.

Ayrim pedagogik fanlar dasturida mazkur fanlar qisman bo‘lsada inobatga olingan hamda fanlarning maqsadi va vazifalarini yoritishda ularning o‘zaro aloqalari keltirilgan.

Bizning fikrimizcha, mazkur fanlarni o‘qitishda ko‘zda tutilgan fanlararo aloqalar ta’minlanishida oliy ta’lim pedagogika ta’lim sohasi talabalari uchun “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanidan ishlab chiqilgan dasturda ta’lim ergonomikasi bo‘yicha talabalarga tushunchalar berish uchun alohida bo‘lim keltirilmaganligi va mazkur bo‘limda bakalavrlarga ta’lim tizimi muammolarini bartaraf etishning psixologik-pedagogik asoslarini o‘rgatish belgilanmaganligini, shuningdek, “Pedagogik ergonomika” fanidan mashg’ulotlar tashkil etilishi nazarda tutilmaganligini inobatga olishimiz mumkin.

“Pedagogik ergonomika” o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘qitishning texnik vositalari, didaktik vositalari, pedagogik texnologiyalari hamda maktabdagi ta’lim va tarbiya muhiti bilan bog’liq holda har tomonlama o‘rganadigan ilmiy fan sohasidir [9, 200].

Pedagogik ergonomika – xavfsiz va qulay ta’lim muhitini tashkil etish maqsadida o‘qitish va o‘zlashtirish jarayonini inson va texnika imkoniyatlari hamda ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda yaratish, tatbiq etish, aniqlash, o‘qituvchi va o‘quvchi mehnatini yengillashtirish, ruhiy zo‘riqish holatlarini kamaytirish, ta’lim tizimi muammolarini bartaraf etishdir [1, 54].



1-rasm. O‘qituvchilar ergonomik madaniyatini rivojlantirish tizimi va texnologiyasi

Fikrimizcha, pedagogik ergonomika fanining o‘qitilishida rejalashtiriladigan: ta’lim va tarbiyaviy muhit ergonomikasi, ta’lim va tarbiya jarayoniga oid mehnatga aloqador bo‘lgan insonning biomexanik, fiziologik, antropometrik, anotomik tavsiflari bilan bog’liq masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayoni dolzarb muammolarni hal etish yo‘llarini izlash ishlari olib borish: ish o‘rni, materiallarga ishlov berish, inson tayanch-harakat a’zolarining o‘zgarishi, ish o‘rni komponovkasi, ishonchlilik va salomatlik; tashkiliy ergonomika ijtimoiy texnik tizimlar va ularning tashkiliy tuzilmalari va boshqarish jarayonlarini o‘z ichiga olgan holda optimallashtirish bilan bog’liq masalalarni hal etish va boshqalarni nazarda tutiladi.

Shuningdek, individlararo aloqalar tizimi, inson resurslarini boshqarish, loyihalar ishlab chiqish, koperatsiya, jamoa ishi oqilona tashkil etish va boshqarish masalalari o‘rganiladi; kognitiv ergonomika ruhiy jarayonlararo aloqalarni (idrok, xotira, qaror qabul qilish va boshqalar) topish, tizimning boshqa elementlari bilan insonning aloqadorlik masalalarini o‘rganiladi. Aqliy mehnat, qaror qabul qilish, malakali bajarish, inson va kompyuter hamkorligi kabi muammolar ko‘rib chiqiladi, bu jarayonda ijtimoiy texnik tizimlarni loyihalashda insonga uzluksiz ta’lim berish va uni kasbiy tayyorlash masalasiga e’tibor qaratiladi va tushunchalar beriladi. Pedagogik ergonomika talabalarni ta’lim tizimi muammolarini oqilona bartaraf etish faoliyatiga tayyorlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, pedagogika nazariyasi va tarixi fanining o‘quv dasturida keltirilgan tarbiya maqsadi, tarbiya vazifalari va mazmuni, shaxsning intellektual, fuqarolik, ma’naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ekologik, estetik tarbiyasi haqida tushunchalar berishda ergonomik tarbiya va uning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha tushunchalar berish; ta’lim natijalarini tekshirish va baholashga qo‘yiladigan talablar, ta’lim natijalarini nazorat qilish va baholash samaradorligining psixologik-pedagogik shart-sharoitlari yo‘nalishlarida tushunchalar berishda, ergonomik rejalashtirish, tashkiliy-ijrochilik, nazorat-tashxis funksiyalarining o‘ziga xos xususiyatlari, nazoratning o‘ziga xosligi haqida tushunchalar berilishi; o‘qituvchi va uning shaxsiga qo‘yiladigan talablar, o‘qituvchining kasbiy va ergonomik sifatlari, o‘qituvchining ergonomik madaniyati tushunchalarini o‘qituvchi shaxsi va uning kasbiy, ma’naviy va shaxsiy sifatlari hamda fazilatlari bilan bog’lab o‘qitilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqorida keltirganimizdek, pedagogika nazariyasi va tarixi hamda pedagogik ergonomika fanlarini o‘qitish jarayonida fanlararo aloqalarni ta’minlash, ya’ni mavzularni ta’lim tizimi muammolarini oqilona bartaraf etish yo‘nalishidagi tushunchalar bilan bog’lab o‘rgatilishi talabalarni mazkur faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘z navbatida, talabalarning ergonomik madaniyatini rivojlantirish maqsadida, pedagogika nazariyasi va tarixi hamda pedagogik ergonomika fanlarini o‘qitishda ta’lim tizimi muammolarini oqilona bartaraf etish yo‘nalishida tushunchalar berish, mavzularning o‘zaro aloqadorligi va bog’liqligini ta’minlash, ya’ni mazkur fanlar bo‘yicha ta’lim jarayonini integrativ va androgogik yondashuv asosida tashkil etish zaruriyatini belgilaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, talabalar ergonomik madaniyatini rivojlantirish yo‘nalishlari, integrativ va androgogik yondashuv fanlar bo‘yicha ishchi dasturlar tuzishda, mavzularning mazmun-mohiyatiga ko‘ra soatlar taqsimlashda, shuningdek, ta’lim jarayonini loyihalashtirish va tashkil etishda mavzularning o‘zaro aloqadorligi va bog’liqligi ta’minlanishi, fanlarning maqsad va vazifalarini o‘zaro muvofiqlashtirilishini nazarda tutadi va o‘z navbatida o‘quv rejasida fanlar bo‘yicha ajratilgan soatlardan unumli foydalanishga, mavzularning ahamiyatini kengroq yoritib berishga, talabalarning dunyoqarashi va fanlar bo‘yicha tushunchalarini kengaytirishga, ularning o‘zi tanlagan kasbga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga, ularni amaliy faoliyatga tayyorlashda ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Demak, ta’lim tizimi muammolarini oqilona bartaraf etish ergonomik faoliyatiga oliy pedagogik ta’lim muassasalari talabalarni maxsus tayyorlash jarayoni tashkil etilmaganligini inobatga olgan holda biz malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida o‘qituvchilarni ergonomik faoliyatga tayyorlash jarayonini tashkillashtirish va ularning tayyorgarlik darajasiga, pedagogik ergonomika bo‘yicha shakllanishi zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarga, o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilimlar mazmuniga va ta’lim dasturlarining mazmuniga belgilangan talablarning yo‘nalishini ifodalovchi va ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘zlangan natijalarga erishishni, o‘qituvchilarda ergonomik madaniyatni rivojlanishini ta’minlovchi o‘zaro bog’liq bo‘lgan va bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi komponentlardan iborat bo‘lgan texnologiya va tizimni tavsiya etamiz (1-rasm).

Texnologiya va tizimni tashkil etuvchi komponentlarning o‘zaro aloqadorligi va bog’liqligi kabi qator xususiyatlar inobatga olinadi, sababi mazkur xususiyatlar ergonomik madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Muhokamalar va natijalar. O‘qituvchi-tinglovchilarning ergonomik madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi obyektiv va subyektiv omillar ta’sirining xususiyatlarini hisobga olib, biz tinglovchilarning ergonomik madaniyatining shakllanish darajasini (yuqori, o‘rta, past) baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqladik:

a) kognitiv xususiyat tinglovchilarning ergonomik madaniyat, uning shakllanish yo‘llari haqidagi bilimlarini tavsiflaydi;

b) motivatsion tinglovchilarning ergonomik madaniyatini shakllantirish muammolariga munosabatni belgilaydi;

d) integrativ faoliyat zamonaviy maktabda qulay, samarali va xavfsiz o‘quv muhitini yaratish bo‘yicha ergonomik qobiliyatlarni, ko‘nikmalarni egallashni ko‘rsatadi.

Shunday qilib, Namangan viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazida bir guruh tinglovchilarga ergonomika va uning ta’lim tizimidagi o‘rni haqidagi

test savollariga javob berish so‘raldi. Test sinovlarida ma’naviy va ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, o‘quv tarbiyaviy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, boshlang’ich sinf o‘qituvchilari, fizika, matematika, geografiya, texnologik ta’lim, jismoniy tarbiya yo‘nalishlari tinglovchilari qatnashdilar. Natijada, tinglovchilar atigi 14% ular ergonomika tushunchasi bilan tanish ekanliklarini va ergonomikadan foydalanish g’oyasi borligini aytishdi, shundan atigi 9% ular ta’lim tizimida ergonomikadan foydalanish to‘g’risida eshitganliklarini aytishdi. Ergonomikadan va uning ta’lim tizimidagi o‘rni va mavqeidan xabardorlikning bunday past darajasi bizni mehnat funksiyalarini o‘qituvchining kasbiy standartiga muvofiq bajarishga yetarli darajada tayyor emasliklarini taxmin qilishimizga imkon beradi. Tinglovchilar “Qulay va xavfsiz o‘qish madaniyatini qanday rivojlantirish kerak?” degan ochiq savolga javob berar ekanlar, 59% tinglovchilar “Jismoniy madaniyat va sport” fanini, 41% - “Hayot faoliyati xavfsizligi” fanidan foydalanishni bildirishdi. Shunday qilib, faqat 18 kishida qulay va xavfsiz ta’lim madaniyatini shakllantirish ergonomik tarkibiy qismda aks ettirilgan bo‘lishi mumkin, chunki ergonomikaning asoslarini o‘rganish “Hayot faoliyati xavfsizligi” va “Yosh fiziologiyasi va gigienasi” fanlarini o‘rganish bo‘limlaridan biri hisoblanadi va ko‘pincha o‘qituvchilar mustaqil ravishda o‘rganadilar degan fikrlarni bildirdilar. Umuman olganda, tinglovchilarning aksariyati ergonomik madaniyatning past darajasiga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida tinglovchilarni o‘qitish o‘qituvchi uchun ta’lim tizimidagi ergonomik komponentning zarur darajasini ta’minlamaydi.

Xulosa. Malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasalarida o‘qituvchi-tinglovchilarning ergonomik madaniyatini muntazam takomillashtirib borish bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya’ni pedagogik jarayon subyektlariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, mazkur jarayonni amalga oshirish uchun moddiy-texnika bazani yaratish va mustahkamlab borish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan qurollantirish, yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash kabi qator vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi. Shunday ekan, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasasida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga va uning samaradorligini ta’minlashga mas’ul rahbar va pedagog xodimlar nafaqat pedagogik tajribaga, balki ergonomika va menejment, pedagogik ergonomika kabi qator yo‘nalishlar bo‘yicha yetarli tushunchalarga ega bo‘lishi zarur. Shu sababli, malaka oshirish va qayta tayyorlash muassasasida o‘qituvchi-tinglovchilar uchun kasbiy standartga muvofiq mehnat funksiyalarining bajarilishini ta’minlaydigan ergonomik bilimlarni o‘rgatishga maxsus tayyorgarlik zarur bo‘ladi. Xulosa qilib aytish mumkinki, ergonomik madaniyatni rivojlantirish jarayonida uning ergonomik bilim, ko‘nikma, fikrlash, yo‘nalish kabi tarkibiy qismlarini o‘qituvchi - tinglovchilarda shakllantirish darajasini nazorat qilib borishi kerak bo‘ladi. Agar o‘quv jarayonida turli xil nazorat turlari, ergonomik bilimlar va ko‘nikmalar taqdimoti o‘tkazilsa, o‘qituvchi-tinglovchilarning o‘quv faoliyatini, bilimlardagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida aniqlab va bartaraf etib borilsa, bizning fikrimizcha, o‘qituvchilarda ergonomik madaniyat takomillashib, rivojlanib boradi.

Adabiyotlar

1. Абдуллаев С.Х. Эргономика, малака ошириш тизимининг эргономик муаммолари. МГУ. Филиал МГУ имени М.В.Ломоносова в городе Ташкенте. Наука, просвещение и культура в системе непрерывного образования: проблемы и решения по реализации государственной программы. “Год внимания и заботы о старшем поколении” Материалы нучно-практической конференции. Часть 1. Стр. 48-54. –Ташкент, 2015 г.

2. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания//Избранные психол.труды: В 2-х т. –Т.2. –М.: “Педагогика”, 1980. -288 с.

3. Большая советская энциклопедия. 3-е изд. –М., 1978. –Т.30. – 230 с.

4. Зинченко В.П., Мунипов В.М. Основы эргономики. –М.: “МГУ”, 1979 г. -343 с.

5. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. –М.: “Политиздат”, 1975 г. – 304 с.

6. Лернер И.Я. Внимание – технологии обучении// Советская педагогика. -1990г. - №3. –с 139-141.

7. Ломов Б.Ф. Человек и техника. – М.: “Советское радио”, 1966. – 465 с.

8. Мунипов В.М., Зинченко В.П. Эргономика: человекоориентированное проектирование техники, программных средств и среды: Учебник. -М., 2001. -356 с.

9. Окулова Л.П. Педагогическая эргономика: монография. – М.: “Ижевск” Институт компьютерных исследований, 2011. – 200 с.

10. Ченцов А.А. Теоретические основы научной организации учебного процесса. –Белгоград, 1972. -273 с.

O‘tkir HAZRATOV
Abu Ali ibn Sino nomidagi
Buxoro davlat tibbiyot instituti
ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi dotsenti,
tibbiyot fanlari nomzodi

Sevara SOLIBOYEVA
Toshkent davlat farmatsevtika instituti
tibbiy va biologik fanlar kafedrasi assistenti

AMALIY MASHG’ULOTLARNI O‘TISHDA INTERFAOL USULLARNING QO‘LLANISHI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Maqolada ikkinchi kurs tibbiyot instituti talabalariga “Ichki kasalliklar” fanidan o‘tkazilgan amaliy dars jarayonida I guruhda “Baliq skeleti” va II guruhda “Uch pog’onali intervyu” interfaol usulini qo‘llanilish samaradorligi natijalari keltirildi. Olingan dalillar asosida “Baliq skeleti” va “Uch pog’onali intervyu” usuli talabalarning nazariy bilimi va amaliy ko‘nikmani o‘zlashtirishlari uchun turli darajada ta’sir qilishi aniqlandi. “Baliq skeleti” usuli mashg’ulotlarning nazariy qismini o‘rganitish uchun mos keladi, talabaning tezkor fikrlashi bo‘yicha “Uch pog’onali intervyu” usuliga deyarli teng bo‘ladi. II guruh talabalarda amaliy ko‘nikmani egallash mahorati nisbatan 2,5 baraborga ortadi.

Kalit so‘zlar: *interfaol o‘yinlar, “Baliq skeleti”, “Uch pog’onali intervyu”, nazariy bilim, amaliy ko‘nikma.*

В статье приведены результаты сравнительной эффективности интерактивных методов обучения в первой группе “Рыбий скелет” и во второй группе “Трехступенчатой интервью” по предмету “внутренних болезней” студентам второго курса медицинского института. На основании полученных данных выявлены для повышения теоретического и овладения практических навыков по разному степени влияют методы “Рыбий скелет” и “Трехступенчатой интервью”. Метод “Рыбий скелет” подходит для прохождения теоретической части предмета, для требующего быстрого осмысления не уступают от метода “Трехступенчатой интервью”. Во второй группе овладению практических навыков сравнительно превышает 2,5 раза.

Ключевые слова: *интерактивные игры, “Рыбий скелет”, “Трехступенчатое интервью”, теоретическое знание, практические навыки.*

The article presents the results of the comparative effectiveness of interactive teaching methods in the first group “Fish skeleton” and in the second group of “Three-stage interviews” on the subject of “Internal diseases” to second-year students of the medical institute. On the basis of the data obtained, the methods of “fish skeleton” and “Three-stage interviews” have been revealed to improve theoretical and mastery of practical skills to different degrees. The “Fish skeleton” method is suitable for passing the theoretical part of the subject, for those requiring quick comprehension they are not inferior to the “Three-stage interview” method. In the second group, the acquisition of practical skills is comparatively more than 2.5 times.

Key words: *interactive games, “Fish skeleton”, “Three-stage interview”, theoretical knowledge, practical skills.*

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy pedagog oldiga yuksak kasbiy tayyorgarlik asosida yangi innovatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng tadbiq qilishi vazifasi turadi. Buning uchun birinchi navbatda, pedagog xodimning o‘zi oliy ta’lim tizimida o‘qitishning yangi texnologiyalaridan xabardor bo‘lishi, davr talabi asosida darslarni ijodiy yondashgan holda tashkil qilishi muhim sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprelda qabul qilingan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Qarori asosida oliy ta’lim tizimini kelajakda yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo‘yicha o‘ta dolzarb vazifalar sifatida ta’lim jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan holda o‘quv pedagogik faoliyatga ilg’or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilishni talab qiladi. Bunda amaliy darslarni o‘tkazish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning belgilab berilganligi muammoning naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Asosiy qism. “Interfaol” tushunchasi inglizcha “Interact” - “inter” - “birgalikda”, “act” - “ta’sir qilish” ma’nosini anglatadi. Bundan chiqadiki, “interfaol usullar” deganda talabalarning o‘zaro ta’siri tushuniladi. “Interfaol o‘qitish usuli” o‘qitiladigan talabalarning hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish shaklini belgilaydi. Interfaol usulning mohiyati hamma talabalar va o‘qituvchining o‘zaro ta’siridan iborat [6, 7]. Ilmiy-texnika taraqqiyotidan ortda qolmaydigan malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Shuningdek,

zamonaviy oliy ta’limda iqtidorli kasb egalarini yetishtirib berish uchun o‘qitishning uslublarini qayta shakllantirish talab qilinadi [1].

“Baliq skeleti” (“Fishboun”, “Fish skeleton”) usuli orqali talabalar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o‘rganadilar. Ushbu texnologiya baliq modeli chizmasi yoki videorolik orqali namoyish etilib, bunda talabalar o‘rtaga tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. “Baliq skeleti” chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qimiga muammoni hal etilish yo‘llari yozib boriladi. “Baliq skeleti” chizmasi bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda “Baliq skeleti”ning yuqori tomonidagi suyaklarida kichik muammoni ifodalaydi, pastda esa ushbu kichik muammoni tasdiqlovchi dalillar yoziladi. Talabalar kichik guruhlarga birlashib natijalarni taqqoslaydilar, o‘zlarining chizmalarini to‘ldiradilar, umumiy chizmaga keltiradilar.

O‘qituvchi keltirilgan g’oyalar orasidan amaliyot uchun ahamiyatli bo‘lganlarini saralab oladi. Bunda o‘qituvchida avvaldan tayyorlab qo‘yilgan darsga oid muammoli vaziyat amaliy mashg’ulotni o‘tkazish jarayonida qo‘llanishi mumkin. O‘quv jarayonini optimallashtirishda yangi pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni qo‘llash talabaning klinik bilimini baholashni takomillashtirishga olib keladi [1, 2, 3]. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatish va uning bajarilishini baholash alohida yondoshuvni talab qiladi [7]. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, o‘qitishning yangi turlari va takomillashgan usullarini tadbiq qilmasdan, tibbiy ta’limni har tomonlama rivojlantirib bo‘lmaydi [4, 5, 6]. Taklif qilingan “Baliq skeleti” va “Uch pog’onali intervyu” usuli talabalarning nazariy va klinik bilimini takomillashtirish uchun muhim sanaladi [8, 9].

Ishning maqsadi. Talabalarga o‘tkazilgan amaliy mashg’ulotlarda “Baliq skeleti” va “Uch pog’onali intervyu” interfaol usulining samaradorligini o‘rganish.

Muhokamalar va natijalar. Buxoro davlat tibbiyot institutining “Ichki kasalliklar propedevtikasi” kafedrasida va Toshkent davlat farmatsevtika institutining “Tibbiy va biologik fanlar” kafedrasi xodimlari hamkorligida ikkinchi kursda o‘qitiladigan “ichki kasalliklar” fanidan talabalarga o‘tkazilgan amaliy mashg’ulotlarda interfaol usulning samaradorligi ko‘rsatkichlar bo‘yicha tahlil qilindi. Qo‘yilgan maqsadni amalga oshirish uchun reyting ko‘rsatkichlari bo‘yicha deyarli teng va o‘tiladigan mavzular aynan o‘xshash ikkita reprezentativ guruhlarda interfaol va an’anaviy usullarda o‘tilgan mashg’ulotlar samaradorlik ko‘rsatkichlari baholandi. Nafas a’zolarining xastaliklariga oid 4 ta amaliy mashg’ulot natijalari qiyoslandi. Hamma talabalar bilim darajasi bo‘yicha, reyting ko‘rsatkichlari bo‘yicha guruh fan o‘qituvchisi va kafedraning mazkur bo‘lim bo‘yicha yetakchi mutaxassislari tomonidan baholab borildi. Talabalar ikkita guruhga ajratildi: birinchi guruhda 4 ta mavzuda (21 talaba) “Baliq skeleti” usuli, ikkinchi guruhda (22 talaba) –“Uch pog’onali intervyu” interfaol usuli texnologiyasi qo‘llandi.

“Baliq skeleti” usulida muammolar talabalar diqqatiga havola qilinadi, tezda birgalikda tahlil qilishib 1-1,5 daqiqada javob qaytarishadi. “Baliq skeleti”ning yuqori tomonidagi suyaklarga muammolar nomi, kasallik misolida uning sababchi omillari ko‘rsatiladi. Masalan, bronxial astma kasalligining klinik belgilarini o‘rganish mavzusini o‘tishda kasallikning sababchi omillarini bartaraf qilish yo‘llari pastki suyaklarda belgilab qo‘yiladi. “Baliq skeleti” usuli fanning umumiy qismi mavzularini, “Uch pog’onali intervyu” usuli maxsus bo‘limlarini o‘rgatishda qo‘llanildi. Talabalarning bilim darajasi va uning mustahkamligi savol-javoblarda, yozma ishlar, test natijalari, oraliq va yakuniy baholash natijalari bo‘yicha o‘rganildi.

“Uch pog’onali intervyu” usulida har guruhda uch kishidan iborat talabalar guruhi “vrach”, “bemor”, “ekspert-UASH” rolini bajarishdi, 10-15 daqiqa vaqt ajratildi. “Ekspert” shifokor harakatlariga baho berdi, bunda “nima to‘g’ri bajarildi?”, “nima xatolik bo‘ldi?”, “qanday bajarish lozim?” tahlil qildi, so‘ngra o‘qituvchi tomonidan muhokama qilindi.



1-rasm. “Baliq skeleti” usulining amaliy mashg’ulotni o‘tkazish jarayonida qo‘llanishi

“Baliq skeleti” usulida (α1, α2 va α3) variantdagi savollar berildi. Tekshirish natijalarining ko‘rsatishicha “Baliq skeleti” va “Uch pog’onali intervyu” usuli talabalarning bilim darajasining shakllanishiga har xil ta’sir qildi. Bu haqida akademik guruhlarda olingan nazorat ishi natijalari tahlili dalolat

berdi (rasm “Baliq skeleti” usulining amaliy mashg’ulotni o‘tkazish jarayonida qo‘llanishi. Olingan dalillar asosida ko‘rinadiki, “Baliq skeleti” usuli talabalarning og’zaki va tezkor fikrlashini rivojlantirishi egallangan bilim nazorati tahlilida namoyon bo‘ldi. “Baliq skeleti” interfaol usulida dars o‘tilgan 14 holatda (66,7%) klinik bilim egallashda og’zaki nutq, 6 holatda (28,6%) esa klinik mushohada ko‘nikmalari shakllandi, bundan anglash mumkinki, usul mashg’ulotning faqat nazariy qismi uchun muhim bo‘lib, amaliyot ko‘nikmalarini egallash uchun yetarli darajada ahamiyatga ega bo‘lmaydi.



2-rasm. “Baliq skeleti” va “Uch pog’onali intervyu” usulining amaliy mashg’ulotni o‘tkazish jarayonida qo‘llanishi

Dars jarayonida o‘zlashtirish natijalari bo‘yicha 2-guruhdagi talabalarda 1-guruhdagi talabalarga nisbatan sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. “Bemor” rolini ijro qiladigan talabalar kasallikning belgilarini imkon qadar chuqur o‘rganishga, subyektiv ma’lumotlarni o‘zlashtirishi 75% ga yetganligi aniqlandi, bu rolni ijro qilmagan talabalardan ishonarli darajada 48% farq kuzatildi ($r<0,005$), “vrach” rolini bajaruvchi talabalarda esa subyektiv ma’lumotlar bilan bir qatorda obyektiv ma’lumotlar - palpatsiya. perkussiya, auskultatsiya ko‘nikmalarini puxta o‘rgandilar va amaliy ko‘nikmani bajarish 78% ga yetdi, fizikaviy tekshirish usuli bo‘yicha oradagi farq 50%ni tashkil qildi ($r<0,005$).

“Shifokor” rolini ijro qilgan talabalarning amaliy ko‘nikmani bajarish jarayonida o‘zaro faollashuvi yaqqol sezildi. Shuningdek, laborator-instrumental tekshirishlarning natijalarini o‘zlashtirishi talabalarda 27% ga ortganligi, bemorning oldida o‘zini tutishni o‘rganishiga yordam berdi (2-rasm).

“Ekspert” rolini ijro qiluvchi talabalar ijobiy yutuqlar bilan birgalikda yo‘l qo‘yilgan xato-kamchiliklarni o‘z vaqtida payqab, buning oldini olish yoki bartaraf qilishning tezkor choralarini nisbatan puxta o‘rgandilar. Usulning kamchilik tomoni shundaki, hamma ishtirokchilar dars jarayoniga faol qatnasha olmadi. Bundan kelib chikadiki, “Uch pog’onali intervyu” usuli talabalarni erkin fikr yuritishiga imkon berib, klinik tafakkurini va amaliy ko‘nikmalarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichini oshiradi.

I guruhdagi talabalarda klinik holatlarni tahlil qilishda tezkorlik 21% ga ishonarli darajada ortdi ($r<0,05$), dars davomida o‘zlarini nisbatan erkin his qilishdi, yutuq va kamchiliklarni o‘zaro tahlil qilishni, mustaqil fikrlashni o‘rgandilar, amaliy bilimlarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichi II guruhdagi talabalardan sezilarli ortda qolganligi aniqlandi ($r<0,005$).

Yuqoridagi olingan natijalar tahlili dalolat beradiki, “Baliq skeleti” usuli talabalarning nazariy bilimini mustahkamlashga, tezkorlikka o‘rgatadi, “Uch pog‘onali intervyu” usuli esa klinik mushohada qilishga va amaliy ko‘nikmalarni egallashiga yordam beradi.

Bundan kelib chiqadiki, “Baliq skeleti” usuli amaliy mashg‘ulotlarning nazariy qismini, “Uch pog‘onali intervyu” usuli esa amaliy qismini o‘tish uchun qulay.

Xulosa: 1. “Baliq skeleti” va “Uch pog‘onali intervyu” usuli talabalarning bilimini shakllanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

2. Amaliy mashg‘ulotlarda interfaol usulni har bir mavzu uchun aniq belgilab, shunga mos yondashish lozim.

3. “Baliq skeleti” usuli mashg‘ulotlarning nazariy qismiga mos keladi, talabaning tezkor fikrlashga o‘rgatadi, nazariy bilimning shakllanishi “Uch pog‘onali intervyu” usuliga deyarli teng bo‘ladi.

4. “Uch pog‘onali intervyu” usuli mavzuning maxsus qismiga mos kelib, nazariy bilimni va amaliy ko‘nikmani puxta egallashiga yordam beradi. Bu usul qo‘llanilganda talabalarning ko‘nikmalarni egallash mahorati 2,5 baraborga ortadi.

Adabiyotlar

1. Григораш О.В. Система подготовки специалистов высшего профессионального образования / О.В. Григораш //Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского

Государственного аграрного университета (Научный журнал КубГАУ) [Электронный ресурс]. – Краснодар.: КубГАУ, 20I4,-№ 06(I00). С. 4II-430.

2. Djanaliyeva G.A. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda interfaol metodlarning qo‘llanishi. –Ta’lim, fan va innovatsiya. 2016, -№2. 91-95 b.

3. Каримов Х.Я. Новые педагогические технологии. -Второй Ташкентский Государственный медицинский институт. 2001 г. С. 150.

4. Контроль знаний в высшей медицинской школе: учебное пособе/ Сост. Г.В. Безродная и соавт. Шпикс. -Новосибирск: Сибмедиздат НГМУ. 2007.С. I25.

5. Дронова Т.А. К вопросу о преподовании пропедевтики внутренних болезней. -Клиническая медицина. №3 2003г. С. 67-70.

6. Нарзиев Ш.С., Ҳазратов Ў.Ҳ., Аслонова И.Ж**.** Оценка эффективности интерактивных методов обучения в формировании знаний студентов потерапии Бухоро Давлат университети илмий ахбороти 2015,-№4.С. 174-179.

7. Hazratov O‘.H., Aslonova I.J. Hamshiralik ishi o‘qitishda interfaol usullarning ahamiyati. Buxoro davlat universiteti axboroti. 2019. №3., 269-272 b.

8. Chong S.C., Low M.Y.H. A Bee Colony Optimization Algorithm to Job Shop Scheduling // Winter Simulation Conference: Proceedings of the 38th Conference on Winter simulation. –Monterey: Monterey Press, 2006. – P. I954–I96I.

9. Teodorović D., Dell’Orco M. Bee Colony Optimization – a Cooperative Learning Approach to Complex Transportation Problems // Advanced OR and AI Methods in Transportation: Proceedings of I6th Mini–EURO Conference and I0th Meeting of EWGT (I3-I6 September 2005). – Poznan: Publishing House of the Polish Operational and System Research, 2005. – P. 5I–60.

Makhfuza RAKHMONOVA
Candidate of pedagogical sciences,
senior lecturer
Karshi state university

SPIRITUAL AND MORAL HERITAGE OF THE HADITH SCIENTISTS OF THE EAST

This article is based on the development of proposals and recommendations related to the formation of spiritual and moral education of students by means of the scientific heritage of Hadith-scholars. The useful aspects of hadiths in the upbringing of youth in the classes of "Tarbiya" of grades 5-7 are also revealed.

Key words: *scientific heritage, scholars-hadithsaveda, spiritual and moral education, historical roots, historical and theoretical.*

Данная статья основана на разработке предложений и рекомендаций, связанных с формированием духовно-нравственного воспитания учащихся средствами научного наследия хадисоведов. Выявлены полезные аспекты хадисов в воспитании юношества в классах "Тарбия" 5-7 классов.

Ключевые слова: *научное наследие, ученые-хадисаведы, духовно-нравственное образование, исторические корни, историко-теоретические.*

Ushbu maqolada hadisshunoslarning ilmiy merosi orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish xususida fikr bayon etilgan. 5-7-sinflarning "Tarbiya" sinflarida yoshlarni tarbiyalashda hadislarning foydali tomonlari ham ochib berilgan.

Kalit so'zlar: *ilmiy meros, hadis-ulamolar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, tarixiy ildizlar, tarixiy va nazariy.*

Relevance and relevance of the research topic. In the field of teaching and educational education all over the world, scientific research is carried out aimed at educating young people who have formed a devotion to universal values, possessing high personal and professional qualities, spiritual and moral abilities, mental maturity and spiritual and moral outlook. From this point of view, the definition of strategic and tactical goals for the development of the spiritual and moral worldview of the younger generation, the implementation of systematic work on the scientific solution of the processes of their achievement is of great scientific and practical importance.

According to the world's best teaching experience and opinion, the strategic goal of education development is to solve the problem of the ability to organize student-centered learning. The study of a person teaching according to this model, his cognitive activity is always in the center of the teacher's attention. In the same way, the compiled system of education, in its essence, is the basis for the formation of a spiritual, moral and humane personality-student. Uzbekistan is undergoing radical reforms in the field of education.

For the development and prosperity of the Republic of Uzbekistan, one of the topical issues is the upbringing of a selfless, intellectually developed generation. During the years of independence, the society has undergone socio-economic, political and spiritual transformations, followed the path of renewal. The results of the reforms carried out in all spheres of society are inextricably linked with the revival of rich spirituality, a wide study of our national historical heritage, the preservation of our traditions, with the development of culture, art, science and education.

The degree of knowledge of the problem. On the study and development of the educational process, the activities of scholars of hadithsaveda, in particular, the historical basis of the Islamic religion, the spiritual heritage of great scholars, who studied their theoretical foundations, many scholars carried out research work. The merit of scientists from Europe, America, Russia in the study of the holy book of the Koran, the foundations of the Islamic religion, history and samples of hadith is great. For example, the translation of the Quran into Latin by the European orientalist Maracchi in 1698 radically changed the attitude of the peoples of Europe towards Islamic religion and culture.

The historical roots of the Islamic religion, scientific research carried out on the study of the Koran and the science of hadith, as well as the analysis of works, scientific works of foreign scholars can be divided into three groups: the first group includes I. Barth, G. Bergstresser, H. Vambery, A. Lammens , A. Müller, T. Neldecke, H.C. Hurgron, whose scientific works are devoted to theoretical problems of the development of the history and culture of the Islamic religion; the second group includes scientists A.Zh. Arberry, M. Buber, W. Dilthey, T. Litt, L. Massignon, P. Natorp, B. Radtke, A.N. Whitehead, J. Welton, A. Fouye, A.E.

Schmidt, E. Spryanger, K. Jaspers, whose scientific works are devoted to the problems of studying the history of individuals and their views, who made a huge contribution to the development of the Islamic religion; the third group of scientists J. Adame, J. Adamson, K. Brockelmann, I. Goldzier, R. Rusk, J.P. Sartre, M. Francius, whose works highlight the analysis, comments on sources devoted to Islam.

The study of Islamic religion and culture, the science of hadiths, the analysis of scientific works by scientists of the CIS countries made it possible to identify the sequence of classification features: the first group consists of the scientific works of V.V. Bartold, V. Belyaeva, E.E. Bertels, D.N. Boguslavsky, P. Gryaznovich, Yu.F. Krachkovsky, I. Yu. Rachkovsky, A. Masse, G.S. Sablukova, A. Yu. Yakubovsky, whose works are devoted to scientific research aimed at studying the history, culture of the Islamic religion, theoretical foundations, as well as historical manuscripts. The second group includes N.V. Bordovskaya, G.N. Volkov, A.A. Dzhurinsky, A. Dolina, A. Nevolnik, A.A. Reanne, scholars researching the rich Islamic religion. Research and monographs by Yu.B. Vakhtin, L.I. Klimovich, D.A. Knysha, A.A. Kononova, V.F. Panova, E.A. Rezvan devoted to the life and work of scholars of the Islamic world belong to the third group.

It was in the countries of Asia, starting from the 9th century, that the translations of the works of Imam al-Bukhariy, Imam at-Termezi and al-Hakim at-Termezi began, comments were written on the works, valuable historical information about the life and work of scientists was highlighted, as well as early views about the scientist Imam at-Termezi are reflected in the works of Imam Bukhari, ibn Khojar al-Askolani "Takhziyb at-takhziyb", in the work of the scholar-historian of Central Asia Abu Saad Abdulkarim As-Samoniy (XII century), the Arab historian Shamsiddin al-Zakhabiyya ulu Huffozkirat (XIII century), in the work of the founder of Uzbek poetry Alisher Navoi "Nasoyim ul muhabbat min shamoyim ul futuvvat", in the work of Abdurahman Jami "Nafakhot ul uns min khazarot il quds", Farididdin Attor "Tazkirat ul-avliye". Subsequent information was reflected in the works of Hofiz Umar ibn Alak, Ibn ul-Athir, Az-Zakhabiy, Ibn Kasir, Nuriddin Atar.

The issues of studying the life and work of prominent scientists, Islamic culture, history, the introduction of their works in our republic and their wide coverage began after gaining independence.

In Islamic teaching, the formation of a person from the point of view of spirituality, the study of the socio-philosophical views of encyclopedic scholars and other methods contributed to clarification of scientific and pedagogical problems. The research work of the scientist-educator N. Ortikov highlights the use of Islamic religious values in the educational process.

In the study of the foundations of the theory of teaching and education of Islamic culture and the teaching of hadith in Uzbekistan, as well as their implementation in life, the works of our compatriots Kh. Karomatov, M. Kenzhabek, N. Komilov, Sheikh A. Mansur, Sheikh M.S. Muhammad Yusuf, S. Sayfullokh, Z. Khusniddinova; in the study of legal issues of Islamic culture, works - H. Boboeva, A.Sh. Zhuzzhoniy, A. Saidova, A. Khasanova; in the study of the life and work of hadith scholars and their introduction - A. Abdullah, Sh. Babakhonov, S. Mamadaliev, O. Musurmonova; The works of S. Arifkhanova, Z. Islomov, Kh. Obidov, U. Uvatov, S. Tursunov, M. Khairullaev were highly noted in the direction of the history of scholars of the Islamic religion, source study, and ethnography.

The relevance and value of this study consists of the recognition of the representatives of their nation who created a thousand years ago, the unexamined aspects of the work of the ancestors of our people, consistently observing the historical stages of educational issues. And also on this basis to create and form the recommendations necessary for the modern educational process.

Despite the fact that special attention is paid to the research works of the above scholars such as Imam Ismail al-Bukhari, Imam Abu Iso at-Termezi, as well as in the analysis of the works of other Hadith scholars, much attention is paid to pedagogical problems, its roots, that is, spiritually -moral, educational views have not been sufficiently studied as separate pedagogical problems, or it can be seen that they have not been studied as a special object of research.

In addition, the useful aspects of hadiths in the upbringing of youth are revealed, the forms and methods of their use in the educational process are insufficiently covered and are considered one of the topical issues that await their authors.

Purpose of the study. Development of proposals and recommendations related to the formation of spiritual and moral education of students by means of the scientific heritage of hadisaveda scholars.

Research objectives:

- the study of the historical, theoretical and pedagogical conditions of the problem, the identification of the pedagogical aspects of the scientific heritage of the hadith scholars, as well as the coverage of their educational value;

- study of theoretical and historical sources of the scientific heritage of scholars-hadithsaveda, as well as research studies directed in this direction;

- Revealing the role in the process of spiritual and moral education of the scientific heritage of scholars-hadithsaveda;

- using educational thoughts and views reflected in the scientific works of hadithsawed scholars to develop proposals and recommendations and scientific justifications for the formation of a modern educational process.

Object of study. Noting the process of improving the spiritual and moral education of students, 200 students from 8 schools of the Kashkadarya region were involved in experimental work through the scientific heritage of hadithaveda scholars.

Subject of study. In the process of teaching the subject "Education" in secondary schools, forms, methods and means of spiritual and moral education of students.

Research methods. Comparative study and analysis of psychological and pedagogical, philosophical, sociological literature related to research, as well as the use of mathematical and statistical methods, socio-pedagogical (observation, conversation, diagnosis, survey, test), experimental and monitoring results.

The scientific novelty of the research consists of the following:

- characterize the spiritual and moral education of students as a pedagogical problem, revealing the role and significance of spiritual and moral education in the development of a harmonious personality, highlight the educational value of opportunities in the process of classes in secondary schools where training in the subjects of "Education" is conducted;

- improving the studied research works related to the scientific heritage of hadith scholars, developing a model aimed at the spiritual and moral education of students, and also developing, on the basis of theoretical knowledge, the content of the model, practical skills and dexterity in the development of aspects of technological development in the younger generation (interactivity, dialogue, joint learning, information, problem technologies);

-revealing the role of the possibilities of the educational process of general education schools, on the basis of the scientific heritage of Hadith scholars, ensuring the effectiveness of spiritual and moral education of students, aimed at implementing the development of a system of spiritual and moral measures (cultural disposition, ensuring decent behavior, professional skills, social and pedagogical knowledge), exercises that carry out scientific, pedagogical and methodological (lesson and extracurricular) activities;

-developed proposals and recommendations for improving the spiritual and moral education of students, through the scientific heritage of scholars-hadithsavids.

Practical results of the research. Created electronic educational and methodological support related to the spiritual and moral education of students, through the scientific heritage of scholars of hadith scholars;

- for the purpose of spiritual and moral education of students, through the scientific heritage of hadith scholars, a circle "Studying hadiths" was organized and its didactic and methodological support was developed;

- by means of hadiths, within the framework of the development of the system of spiritual and moral education of students, a set of works has been developed on the use of training and methods.

Scientific and practical significance of the research results. The scientific significance of the study is explained by the use of methodological approaches, as well as the improvement of pedagogical conditions that serve to develop the process of spiritual and moral education of students.

The practical significance of the research as a means of interactive educational methods serves to develop the process of spiritual and moral education of students and the scientific heritage of hadith scholars on spiritual and moral education, improving the information and methodological system to create an educational environment, as well as to develop the spiritual and moral competence of students.

CONCLUSIONS

In the process of research, based on the above thoughts, we came to the following conclusions.

1. Based on national values with teaching technologies that meet world standards, it is revealed that the upbringing of students involves spiritual and moral education. In the development of society and the perfection of the individual, as a result of the positive influence of spirituality, all the positive qualities of a person such as behavior, conviction, intellectual mind, ideological worldviews are commented on by the creation of "spiritual and moral education" in unity and direct connection with skills.

2. With the transformation of the scientific heritage of hadith scholars into an educational tool, the ideological nature of education and orientation towards the goal, as well as observance of laws, the influence of the individual on spiritual and moral education was revealed.

3. Hadiths, considered to be the rich spirituality and mental heritage of the Uzbek people, are the main source of national and universal values in the thinking of the younger generation, in the formation of spiritual and moral views and the implementation of the ideas of independence. It has been proved that the roots of

spiritual and moral education go back to the distant past, spiritual and moral education is being improved in the educational process.

4. In raising the intellectual and cultural level of students in general education schools, it is important to take into account their age and psychological characteristics. Physiological, mental, social changes occurring in the child, in particular among senior students, increases the need for spiritual and moral perfection. From this point of view, it was revealed that in the spiritual and moral education of students, it is necessary to take into account their peculiar intellectual characteristics.

5. Reasonable use of hadiths in spiritual and moral education increases the efficiency of their use. First, sensuality-oriented events; secondly, situations related to intelligence; thirdly, the certainty associated with activity and directed at the will and consciousness, also at the further and joint strengthening of the methods of spiritual and moral education.

6. In the spiritual and moral education of students of general education schools, the possibilities of the subject "Education" are great, this is justified by the important value of being armed with advanced pedagogical technologies, methodological security. In this regard, taking into account the interest and level of knowledge of students and the development of lessons on the basis of advanced pedagogical technologies, it has been proved that such works as business games, competitive lessons, an intellectual ring, stage exercises, work in younger groups, creative contests "funny and resourceful" debates, round tables, talks, press conferences, evenings on hadith studies, a field of miracles, travel lessons, conferences of book lovers, circles will lead to an effective result.

Literature

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma. - T.: "Xalq merosi", 1993. – 3–182 b.

2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Bukhoriy. Adis. (al-Jomye as sahih). – T.: "Qomuslar", 1997. - 560 b.

3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Bukhoriy. Al-adab al-mufrad (adab durdonalari). - T.: "Uzbekiston", 1990 .-- 199 b.

4. Alikulov H. Ethical views of the thinkers of Central Asia and Khorasan (XIV-XV centuries). Ed. Acad. ANRUz. M.M. Khairullaev. - T., 1992 .-- 98 p.

5. Komilov N. Tasavvuf. 1-kitob –T.: "Sharq", 1996. - 272 b.

6. Samiev A.S. The species divisions of the Qadis in the work of Imam at-Termizi "Sunani Termizi" // Actual scientific research in the modern world. –Ukraine, Journal Issue 1 (57) Part 3. Pereyaslav, 2020. - pp. 124-128.

7. Rakhmonova Makhfuza Kholmurodovna Moral and ethical heritage of thinkers of central asia and east. Polish science journal issue 3 (36) pfst 2 international science journal. WARSAW, POLAND Wydawnictwo Naukowe "iScience" 2021. Pp. 32 -40.

Шамсиддин НАРЗИЕВ
Доцент кафедры пропедевтики внутренних болезней, кандидат медицинских наук,
Бухарский государственный медицинский институт

Гулноза ШАРОПОВА
Ассистент кафедры пропедевтики внутренних болезней
Бухарский государственный медицинский институт

ВЛИЯНИЕ ИНТЕРАКТИВНОЙ ИГРЫ НА РАЗВИТИИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ

В статье приведены результаты анализа эффективности применения интерактивных методов обучения "Диаграмма Венна" и "Трёх ступенчатый интервью" в преподавании предмета "Пропедевтика внутренних болезней" 3 курса Бухарского государственного медицинского института.

Ключевые слова: *"Диаграмма Венна", "Трёх ступенчатый интервью", оптимизация, пропедевтика внутренних болезней, мышления, уровень знания студентов.*

Maqolada Buxoro davlat tibbiyot instituti 3-kurs talabalariga "Ichki kasalliklar propedevtikasi" fanidan o'tkazilgan amaliy dars jarayonida "Venn diagrammasi" va "Uch pog'onali interviyu" interfaol usulini qo'llashning samaradorligi baholandi.

Kalit so'zlar: *"Venn diagrammasi", "Uch pog'onali intervyu", optimallash, ichki kasalliklar propedevtikasi, fikrlash, talabalar bilimi darajasi.*

The article presents the results of using the interactive methods as "Venn Diagram", "Three-step interviev" during the practical lessons on "Propaedeutics of Internal Diseases".

Key words: *"Venn diagram", "Three-step interviev", optimization, propaedeutics of internal diseases, opinion, the survivability of information in students' memory.*

Интерактивные методы – позволяют студентам взаимодействовать между собой. "Интерактивное обучение" рассматривается как "способ познания, осуществляемый в формах совместной деятельности обучающихся" и это является сущностью интерактивных методов, которая состоит в том, что обучение происходит во взаимодействии всех студентов и преподавателя [6, 7, 8, 9]. В преподавательской деятельности основное место занимает группа взаимодействующих учащихся, которые, обсуждая вопросы, спорят и соглашаются между собой, стимулируют и активизируют друг друга [10, 11, 12]. При использовании новых педагогических технологий больше всего действуют на интеллектуальную активность дух соревнований, состязательности, который проявляется, когда люди коллективно ищут решение вопроса. При проведении занятий с интерактивными методами от преподавателя требуется гораздо больше активности и творческого подхода. Во время участия преподавателя в дискуссии с студентами могут быть самыми разнообразными, но, не должен стать навязыванием своего мнения. Такой подход надо делать путем тонко рассчитанного управления ходом дискуссий, через постановку проблемных вопросов, требующих продуктивного мышления, творческого поиска истины. Темпы научно-технического прогресса повышают требования к Высшим учебным заведениям, которая должна готовить востребованных и конкурентоспособных специалистов. По этому настоящее время происходит реформирования в системы высшего образования [1]. Среди задач непрерывной оптимизации учебного процесса самым важным с практической точки зрения и одновременно самым сложным является класс задач глобальной оптимизации. Методы решения задачи глобальной оптимизации делятся на детерминированные, стохастические и эвристические [7].

"Диаграмма Венна" является одним из новейших методов, относящихся к рассматриваемому направлению. Процессе обучения и оптимизации учебных работ широко применяется новые педагогические технологии и интерактивные способы, способствующие совершенствованию оценки уровня клинических знаний обучающих [1, 2, 4, 5]. Всестороннее развитие высшего образования, в том числе медицинского, невозможно без внедрения в круг методических навыков преподавателя современных педагогических технологий, новых приёмов обучения и их способов совершенствования [3, 4, 5]. Предложенная работа посвящена изучению эффективности применения методов "Диаграмма Венна" и "Трёх ступенчатый интервью" в образовательном процессе [13, 14].

Целью использования методов "Диаграмма Венна" и "Трёх ступенчатый интервью" является созданием новых и выявлений лучших идей или лучшего решения, а также поиск направлений решения задачи.

Материалы и методы исследования. Для осуществления поставленных задач по предмету пропедевтики внутренних болезней в шести подгруппах 3-курса, равных по рейтинговым

показателям, сравнивали данные проведенного практического занятия с использованием интерактивных методов обучения – “Диаграмма Венна” и “Трёх ступенчатый интервью”.

Порядок проведения интерактивного метода “Диаграмма Венна” и “Трёх ступенчатый интервью”.

Ход проведения интерактивного метода “Диаграмма Венна” следуюший:

1. Преподаватель предварительно готовит учебные материалы на каждого студента для проведения метода “Диаграммы Венна” и в диаграмме крайних кольцах отметит диагноз болезней по текущему занятию предмета (рис. 1).
2. Преподаватель раздаёт “Диаграмму Венна” каждому студенту по одной диаграмме.
3. Студенты должны записывать в течении 10 минут в среднем в перекрещенном кольце похожие признаки указанных заболеваний.
4. Остальные три периферических кольца, где указаны диагноз заболеваний, заполняют отличаемыми симптомами болезней по нозологиям.
5. Учащиеся после заполнения диаграммы представят свои варианты ответа.

Рис. 1. Диаграмма Венна.

6. Преподаватель оценивает студентов словами “правильно” или “неправильно”, если студент даёт неправильный ответ, тогда преподаватель рассказывает правильный ответ.
7. Студенты, давшие правильный ответ, оцениваются положительно, учитывая нахождения ими схожих признаков и отдельных симптомов заболевания.

Во второй группе проведена интерактивная игра “Трех ступенчатое интервью” (Для проведения интерактивной игры “Трёх ступенчатого интервью” группа делятся на 2-3 подгруппы. В каждую группу включают по 3 студента. Каждому студенту даются отдельные задания. Один из студентов выполняет функцию врача, который расспрашивает больного, второй- больного и третий функцию эксперта. Студент, выполняющий роль врача, расспрашивает жалобы больного, проводит общий осмотр, пальпацию, перкуссию, аускультацию больного и рассказывает какие лабораторные и инструментальные изменения происходят у данного больного. Преподаватель предварительно ознакамливает эксперта на что он должен обратит внимание, также он должна иметь достаточной уровень знаний о диагнозе заболевания и изменениях, происходящих при объективных методах исследования (при общем осмотре, пальпации, перкуссии и аускультации), об изменениях, происходящих при лабораторных и инструментальных методах исследования больных к студенту, выполняющего данного рола. Каждому студенту даются определённые задания. Больному студенту анонимно рассказывается диагноз и клинические признаки болезни, которые во время расспроса рассказывает студенту, выполняющему функцию врача. Каждая подгруппа в течение 15 минут делает расспрос и осмотр предварительно подготовленного студента, исполняющего роль больного. Эксперт оценивает знания студента, выполняющего роль врача по трём параметрам:

1. Что выполнено правильно.
2. Что выполнено неправильно.
3. Как надо было выполнить, (даётся правильный ответ со стороны студента, исполняющего роль эксперта).

Занятия проводились в целях проверки формирования уровня клинических знаний студентов III курса на кафедре пропедевтики внутренних болезней Бухарского Государственного медицинского института.

Преподаватель предварительно готовит из каждой группы студента, который выполняет роль больного и ему рассказывает диагноз и симптомы болезни по текущему занятию. Каждой группу раздаются задания и для подготовки выделяют 10-15 минут, каждая группа решает свой вариант. После ответов всех групп, преподаватель оценивает всех студентов, которые выполняли роль. Рассказывает правильный ответ и ход общего осмотра, также о недостатках практических навыков и показывает как надо было выполнять пальпацию, перкуссию и аускультацию. Дополняет, какие лабораторное и инструментальные изменения происходят при данной патологии.

Интерактивные методы “Диаграмма Венна” и “Трёх ступенчатый интервью” применяли при изучении 17 аналогичных тем по предмету “Пропедевтики внутренних болезней” (ПВБ) студентам 3 курса Бухарского Государственного медицинского института в репрезентативных группах. Проблемы разрешают на основе стимулирования креативной активности, при котором студентам предлагают высказывать правильные ответы и свой вариант. Преподаватель учитывает при оценке высказанных правильных вариантов ответов, которые могут быть использованы на практике. Метод широко используется во многих организациях для поиска нетрадиционных решений самых разнообразных задач, в том числе проблемных ситуациях.

После раздачи вопросов преподаватель должен изложить студентам ход выполнения работы и могут "выдавать" некоторые идеи. Коротко излагать своё предложение о способе решения данной задачи, при этом должны быть полностью исключены критика и оценка предлагаемых идей. Последующим после ответа студентов можно дополнять и развивать, не критикуя чужие идеи.

Учебные игры “Диаграмма Венна” и “Трёх ступенчатый интервью” использовались по ходу обучения темам, как из общей, так и специальной части предмета ПВБ.

Уровень знаний и степень их закрепления проверялись с помощью вопросов, заданных в практических занятиях и промежуточных и итоговых контрольных работ.

Результаты и их обсуждения: Проведённые исследования показали, что при обучении интерактивных методов “Диаграмма Венна” и “Трёх ступенчатый интервью” не одинаково влияло на знания обучающихся. Это показывают результаты многократной контрольной проверки в академических группах. Полученные данные показывают, что учебная игра “Диаграмма Венна” в большей мере способствовала совершенствованию теоретических знаний.

Из 17 проведённых занятий в медицинском институте с помощью интерактивного метода обучения “Диаграмма Венна” у 67,4% студентов формирование клинических знаний ограничивалось теоретическим уровнем. У остальных 32,6% студентов отмечалось формирование теоретических и умениями практических навыков (рис.2.). Применение полученных знаний на практике, тем более творческий подход к ним, практически не было замечено, что является существенным недостатком учебного метода “Диаграмма Венна”.



Применение второго метода “Трехступенчатого интервью” давало иной результат. Метод вызвал более повышенный интерес у студентов и полученные ими знания с его помощью. Из 17 пройденных тем у 74,2% студентов были выявлены значительные сдвиги в формировании теоретических и практических навыков; и у остальных 25,8% студентов отмечено менее выраженное умение практических навыков, они ограничивались только теоретическими знаниями (рис.3.).



Это по-видимому связано с неполным участием участников игры, в ходе выполнения практических навыков. Следует признать, что в ходе использования интерактивного метода обучения “Трехступенчатого интервью”, студенты гораздо быстрее начали осмысливать формирующиеся знания, что является важным доказательством результативности данного метода обучения. Наряду с этим выявилось и другое положительное качество учебной игры “Трехступенчатое интервью”. Так, среди студентов-участников учебной игры возросла частота овладения практическими навыками (пальпация, перкуссия и аускультация). Вместе с этим, непременно улучшалось качество применения ими данных навыков, что полностью соответствовало поставленным задачам и цели. Единственный недостаток, который наблюдался в ходе использования интерактивного метода обучения, - не все студенты выполнили практические навыки.

Выводы:

1. При изучении предмета пропедевтики внутренних болезней интерактивные игры “Диаграмма Венна” и “Трёх ступенчатый интервью” неодинаково влияют на развитие знаний студентов;

2. Для проведения клинических занятий выбор интерактивных методов необходимо осуществлять в зависимости от теоретической и клинической части занятий;

3. Интерактивный метод “Диаграмма Венна” оказался гораздо эффективнее в ходе обучения теоретической части, а “Трехступенчатое интервью” при изучении теоретической и клинической части предмета пропедевтики внутренних болезней т.е. обеспечивает усвоение практических навыков (пальпация, перкуссия и аускультация);

Литература

1. Григораш О.В. Система подготовки специалистов высшего профессионального образования //Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университет [Электронный ресурс]. - Краснодар: КубГАУ, 2014. - № 06(100). - С. 411-430.

2. Джаналиева Г.А. Мутахассислик фанларни укитишда интерфаол методларни кулланилиши. Таълим, фан ва инновация. Ташкент, 2016.- С. 91-95.

3. Дронова Т.А. К вопросу о преподавании пропедевтики внутренних болезней // Клиническая медицина. - М., 2003. - №3. - С. 67-70.

4. Нарзиев Ш.С., Рахимов З.К., Хазратов У.Х. Эфективность новой педагогический технологии в формировании знаний студентов/ Pedagogik mahorat. Бухоро 2018. №3.стр. 37-41.

5. Нарзиев Ш.С., Хазратов У.Х., Аслонова И.Ж. Оценка эффективности интерактивных методов обучения в формировании знаний студентов по терапии. Buxoro Davlat Universiteti Ilmiy Axboroti. Бухоро 2015. № 4. С. 174-178.

6. Нарзиев Ш.С. Эффективность интерактивной игры в развитии знаний студентов. Педагогик махорат. Бухоро 2020. № 1. С. 40-44.

7. Панина Т.С., Вавилова Л.Н. Современные способы активации обучения / Под ред. Т.С. Паниной. - М.: Академия, 2007. - С.176.

8. Реутова Е.А. Применение активных и интерактивных методов обучения в образовательном процессе вуза: Методическое рекомендации. - Новосибирск, 2012. - С.4.

9. Хазратов У.Х., Аслонова И.Ж., Халимова Д.Ж. Хамширалик иши фанини укитишда интерфаол усулларнинг ахамияти. Buxoro Davlat Universiteti Ilmiy Axboroti. Бухоро 2019. № 3. С. 269-273.

10. Beni G., Wang J. Swarm Intelligence // Annual Meeting of the Robotics Society: Proceedings of Seventh International Conference. - Tokyo: RSJ Press, 1989.- pp. 425-428.

11. Bonabeau E., Dorigo M., Theraulaz G. Swarm Intelligence: From Natural to Artificial Systems. - New York: Oxford University Press, 1999. - 320 p.

12. Chong S.C., Low M.Y.H. A Bee Colony Optimization Algorithm to Job Shop Scheduling //Winter Simulation Conference: Proceedings of the 38th Conference on Winter simulation. - Monterey: Monterey Press, 2006. - P. 1954-1961.

13. Lućić P., Teodorović D. Bee System: Modeling Combinatorial Optimization Transportation Engineering Problems by Swarm Intelligence //Transportation Analysis: Proceedings of the Triennial Symposium TRISTAN IV. - Sao Miguel: Azores Press, 2001. - P. 441-445.

14. Teodorović D., Dell'Orco M. Bee Colony Optimization - a Cooperative Learning Approach to Complex Transportation Problems // Advanced OR and AI Methods in Transportation: Proceedings of 16th Mini-EURO Conference and 10th Meeting of EWGT (13-16 September 2005). - Poznan: Publishing House of the Polish Operational and System Research, 2005. - P. 51-60.

15. Farxod A. MAXMUDOV, Olim B. RAXMATOV, Gulnoza S. SHARAPOVAIxtiyor I. LATIPOV, Mirabbos K. RUSTAMOV, INTRAVENOUS LASER BLOOD IRRADIATION IN THE COMPLEX TREATMENT OF PATIENTS WITH CUTANEOUS LEISHMANIASIS. Journal of Natural Remedies Vol. 22, No. 1(1), (2021)

Nigora RUZIKULOVA
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

O‘QUVCHILARNING O‘QUV MATERIALLARI BILAN ISHLASH JARAYONIDA “CASE-STUDY” METODIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK VA METODIK IMKONIYATLARI

O‘qitish shakllari mos ravishda ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi metodlar yordamida amalga oshiriladi. Ushbu maqolada o‘quvchilarning o‘quv materiallari bilan ishlash jarayonlarida “Case-study” metodidan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *“Case-study”, metod, amaliy metod, kompetensiyaviy yondashuv, muammo, kasbiy tayyorgarlik, natija.*

Формы обучения реализуются с использованием методов, служащих для эффективной организации учебного процесса. В статье исследуются педагогические и методические возможности использования метода Case-study в процессе работы с учебными материалами студентов.

Ключевые слова: *“Case-study”, метод, практический метод, компетентностный подход, проблема, профессиональная подготовка, результат.*

Forms of teaching are carried out using methods that serve to effectively organize the educational process. This article explores the pedagogical and methodological possibilities of using the Case-study method in the process of working with teaching materials.

Key words: *“Case-study”, method, practical method, competency approach, problem, professional training, result.*

Kirish. O‘quvchilarning o‘quv materiallari bilan ishlash va ularni hayotiy faoliyatlarda qo‘llay olishi ta’lim jarayonida bevosita bir qancha ta’limiy ish turlarini bir vaqtning o‘zida amalga oshirishini, ta’lim oluvchilarning jarayondagi faol ishtiroki talab qiladi. Maqolada metodlar o‘zaro muloqot, o‘quvchilarda mavjud bilimlarni faollashtirishga undash, mustaqil fikrlash, xulosalash va umumlashtirish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirishga erishish, o‘tilgan mavzuni takrorlash, o‘zlashtirilgan bilimlarning hayotiy ahamiyatini ko‘rsatib berishi (amaliy metodlar) sifatida “Case-study” metodidan foydalanishning pedagogik va metodik imkoniyatlari o‘rganildi. Ushbu metodning pedagogik imkoniyatlari keng bo‘lib, ta’lim jarayonida o‘quvchining yetarli darajadagi faolliligini ta’minlashga (domiy ravishda yechimlarni topish uchun zarur dalillar bilan ishlash, ishtirokchilarning o‘zaro hamkorligi kabilar asosida) xizmat qiladi.

Asosiy qism. O‘quv materiallari bilan ishlash samaradorligi nafaqat darsliklardagi o‘quv materiallari, balki qo‘shimcha axborotlar bilan ishlashga ham bog‘liq. Axborot almashinish muhitida “Case-study” metodining kompetensiyaviy yondashuvida o‘quvchilarni muammo mohiyatini aniqlash, g‘oyalarini ilgari surish, topshiriqlar yechimini topish, ma’lumotlarni taqqoslash, muqobilini tanlash, tahlil qilishi orqali o‘quv materiallari bilan ishlashga o‘rgatish maqsad qilib olindi.

“Case-study” metodining kompetensiyaviy yondashuvi orqali o‘quvchilar mustaqil ijodiy izlanish yo‘li bilan o‘quv materiallarini izlab topish, muqobilini tanlash, muammo mohiyatini anglash, g‘oyalarni ilgari surish, ma’lumotlarni taqqoslash, tahlil qilish va umumlashtirish malakasiga ega bo‘ladi [5,14].

Amaliy yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etib, amaliy yo‘naltirilgan metodlarni qo‘llash jarayonida foydalaniladigan o‘quv materiallari o‘z o‘rnida metodning samarali qo‘llanilishini ta’minlashi zarur. Xususan, “Case-study” metodi amaliy yo‘naltirilgan metod hisoblanib, metodni qo‘llash davomida foydalaniladigan o‘quv materiallarida aniq hayotiy voqelik, vaziyat muammoli tarzda bayon etiladi. Bunday o‘quv materiallari foydalanish mobaynida o‘quvchilar vaziyatni tahlil qiladi, muammoning mohiyatini ko‘rib chiqib, yechim sifatida variantlarni taklif etish bilan birga ulardan eng maqbulini tanlaydi. Ammo aytish lozimki taqdim etilayotgan hayotiy muammoli vaziyatlarga pedagogik “ishlov” beriladi.

“Case-study” metodi hayotiy vaziyatlarga asoslangan imitatsion faol o‘qitish metodlari qatoriga kiradi. Ya’ni, ta’lim oluvchilar tomonidan individual va guruhning umumlashgan kuchi bilan taqdim etilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish, yechimlarini izlash, maqbul yechimni taqdim etishdan iborat. Tanlab olingan yechimning samaradorligini oldindan baholay olishdir. Dastlab keysdan 1870-yili Garvard universitetining huquq maktabi o‘quv jarayonida foydalangan, 1920-yildan e’tiboran Garvard biznes maktabi

(Harvard Business School)ga joriy qilingan. Hozirgi kungacha Garvard biznes maktabi keyslardan ta’lim sohasida foydalanish bo‘yicha yetakchi hisoblanadi va ularni muhokama qilishga o‘quv vaqtining 90 foizi ajratiladi [1, 7].

“Case-study” metodining asosiy maqsadi – turli vaziyatli, shu jumladan, pedagogik vaziyatli masalalarni hal qilish mobaynida o‘quvchilarning konseptual sxema va modellaridan amaliy foydalanish malakalarini, shuningdek, muammolarni guruh bilan tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ishlab chiqarish orqali bilimlarini mustahkamlashdan iboratdir [1, 5]. Aytish kerakki, o‘quv masalalarini hal etish (yechish) o‘quvchini aniq-amaliy masalalarni yechishning umumiy usullarini egallagashga yordam beradi. “Case-study” metodini ta’lim tizimi amaliyotiga joriy etish muammosi bugungi kunning juda dolzarb vazifalariga aylanishi ikkita g‘oya asosida yuzaga kelgan:

– ta’lim rivojlanishining umumiy yo‘nalganligidan kelib chiqadi, uning mo‘ljali aniq bilimlar berishgina emas, balki shaxsning kasbiy tayyorgarligiga layoqatliligini, aqliy faoliyat ko‘nikmasini, malakasini, qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, ularning orasida o‘qitish qobiliyatiga, fikrlash paradigmasining o‘zgarishiga, katta hajmdagi o‘quv materiallarini qayta ishlash ko‘nikmasiga alohida e'tibor qaratiladi;

– birinchi g‘oya talablarini qanoatlantirishdan tashqari, turli vaziyatlarda muqobil xulq qobiliyatiga ega bo‘lishi, inqirozli sharoitlarda harakatining tizimliligi va samaradorligi bilan ajralib turishi zarur bo‘lgan, mutaxassis sifatiga qo‘yiladigan talablarning o‘sishidan kelib chiqadi [2, 10-11].

“Case-study” metodining asosiy maqsadi – turli vaziyatli, shu jumladan, pedagogik vaziyatli masalalarni hal qilish mobaynida o‘quvchilarning konseptual sxema va modellaridan amaliy foydalanish malakalarini, shuningdek, muammolarni guruh bilan tahlil qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ishlab chiqarish orqali bilimlarini mustahkamlashdan iboratdir [1, 5]. Aytish kerakki, o‘quv masalalarini hal etish (yechish) o‘quvchini aniq-amaliy masalalarni yechishning umumiy usullarini egallagashga yordam beradi. “Case-study” metodini ta’lim tizimi amaliyotiga joriy etish muammosi bugungi kunning juda dolzarb vazifalariga aylanishi ikkita g‘oya asosida yuzaga kelgan:

– ta’lim rivojlanishining umumiy yo‘nalganligidan kelib chiqadi, uning mo‘ljali aniq bilimlar berishgina emas, balki shaxsning kasbiy tayyorgarligiga layoqatliligini, aqliy faoliyat ko‘nikmasi, malakasi, qobiliyatini rivojlantirish bo‘lib, ularning orasida o‘qitish qobiliyatiga, fikrlash paradigmasining o‘zgarishiga, katta hajmdagi o‘quv materiallarini qayta ishlash ko‘nikmasiga alohida e’tibor qaratiladi;

– birinchi g‘oya talablarini qanoatlantirishdan tashqari, turli vaziyatlarda muqobil xulq qobiliyatiga ega bo‘lishi, inqirozli sharoitlarda harakatining tizimliligi va samaradorligi bilan ajralib turishi zarur bo‘lgan, mutaxassis sifatiga qo‘yiladigan talablarning o‘sishidan kelib chiqadi [2, 10-11].

Boshlang‘ich sinflarda keyslardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida keyslarda matnlardan tashqari tasvirlardan ham keng foydalanilanish maqsadga muvofiq. Bu o‘quvchilarning axborotlarning turli ko‘rinishlaridan foydalanish bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinflarda keyslarni taqdim qilish imkoniyatlari juda keng, ularni matnlar, tasvirlar, videoroliklar, bundan tashqari, maxsus ijro etilgan sahnalashtirilgan rollar orqali ham taqdim qilish mumkin. Keyslarni yaratishni quyidagi bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Keysning didaktik maqsadlari asosida vazifalarni shakllantirish; o‘quvchining “javobgarlik zonasini” aniqlash.

2. Keys materialining dasturiy xaritasini ishlab chiqish.

3. Keysning dasturiy xarita materiallariga bevosita aloqador qo‘shimcha axborot manbalari va axborotlarni izlash.

4. O‘quvchilarning o‘quv va hayotiy faoliyatlarini aks ettiradigan vaziyatlarning modelini tanlash yoki “pedagogik ishlov” berish orqali yaratish.

5. Keys materialini tayyorlash va to‘g‘riligi va samaradorligi tashxislash.

6. Metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

7. Keys materialining oxirgi variantini tayyorlash va amaliyotga joriy etish.

Keys materiallariga qo‘yilgan muhim talablar:

- o‘quvchilarning o‘quv-biluv motivlarni rivojlantirishi. Motivlarni nafaqat insonni o‘qishga, balki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig‘indisi, o‘quvchining ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq faoliyatga moyil [3, 81] ekanligini hisobga olib, keys materiallarini hayotiy vaziyatlar modellari sifatida aytish mumkinki, hayotiy vaziyatlar o‘quvchilarning o‘quv-biluv motivlari bilan bir qatorda hayotiy faoliyat davomida muayyan harakatlar uchun motivlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun keys materiallari o‘quvchilarning o‘quv-biluv motivlarini rivojlantirishga xizmat qilishi zarur.

- o‘quvchilar fiziologik va psixologik rivojlanishi darajalari bilan mutanosibligi;

- g‘oyalarini yetkazib bera oladigan hamda vaziyat rivojlanadigan doirani tushunishga imkoniyat beradigan zaruriy va yetarli axborotlar miqdorini o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak.

- keysda keltirilgan va qo‘shimcha axborotlar manbaining ko‘rsatilishi.

Keys materiallarida qo‘llaniladigan o‘quv materiallariga qo‘yiladigan talablar: materiallar juda ko‘p qo‘shimcha axborotni izlashni talab etmasligi, nazariy qismi o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilganligi, axborotlarning vaziyatni to‘liq ko‘rsatib bera olishi, maqsadni aniq bayon qilinganligi, dolzarb muammolarning mazmuniga singdirilganligi, nazariy ma’lumotlarning ishonchliligi, muammoni yechishga turtki beradigan savollar to‘plamining mavjudligi.

1-rasm. “Case-study” metodidan foydalanishning metodik tizimi

Muhokamalar va natijalar. “Case-study” metodini darslarda qo‘llash orqali:

1. Fan bo‘yicha o‘quv materiallarini o‘zlashtirish, muammoli vaziyat (qo‘yilgan savol) yuzasidan bir qancha javob mavjud bo‘lgan holda ularning yechimini izlashga o‘rgatadi.

2. Ta’lim jarayonida, ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda, odatda, tayyor axborotlardan foydalaniladi. Ammo axborotlarni o‘zlashtirishning usullari (yangi usullarni o‘ylab topish), ularning manbalariga, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustaqil qo‘llay olish (o‘rganilgan qoidalarni boshqa misollarda ham qo‘llab ko‘rish)ga e’tibor qaratilmaydi. [4, 125]. Darslarda “Case-study” metodini qo‘llash orqali tayyor o‘quv materiallarini o‘zlashtirish emas, balki o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning usullari (yangi usullarni o‘ylab topish), ularning manbalariga, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustaqil qo‘llay olish (o‘rganilgan qoidalarni boshqa misollarda ham qo‘llab ko‘rish)ga o‘rgatiladi.

3. “Case-study” metodining qo‘llash natijasi sifatida nafaqat o‘quv faoliyati, balki o‘zlashtirilgan o‘quv materiallarini amaliyotga tatbiq etish orqali hayotiy faoliyat davomida qo‘llay olishi lozim bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtirish, malakalarini egallash ko‘zda tutiladi.

4. Metodni qo‘llash jarayonida fan yuzasidan o‘quv-biluv motivasiyani shakllantirish orqali o‘quvchilarni ta’lim jarayonida faol ishtirokchiga aylantiradi.

“Case-study” metodidan foydalanishning qiyidagi metodik tizimi ishlab chiqildi (1-rasm).

Metodning samaradorligini oshirish uchun kichik guruhlarda ishlarni tashkil etish, kichik guruhlardagi qarorlarning taqdimotlarini tashkil etish, umumiy munozarani tashkil etish mumkin. Keysni yechish davomida o‘quvchi:

- faol ishtirok etishi;
- o‘z fikrini aniq tushuntirishi;
- vaqt resurslarini muqobil boshqarishi;
- jamoada ishlay olish lozim (2-jadval).

1-jadval. Keys yechimlarini topishda o‘qituvchi va o‘quvchi ish faoliyatini taqsimlash

Ish fazalari	Tayyorgarlik ishi	Keysni yechish jarayonida
O‘qituvchi	1. Keys tanlaydi. 2. Zarur materiallarni aniqlaydi. 3. Mashg‘ulotning ssenariysini ishlab chiqadi. 4. Guruhlar ishini tashkil etishi.	1. Shartlarning tahlilini kuzatadi. 2. Vazifalarni taqsimlaydi. 3. Vaqtni nazorat qiladi. 4. Yechimlarning yo‘nalishini aniqlaydi. 5. Natijalarning to‘g‘riligini aniqlaydi.
O‘quvchi	1. Mashg’ulotga tayyorgarlik ko‘radi.	1. Shartlarni tahlil qilish. 2. Yakka va guruhda vazifalarni bajarish. 3. Yechimlarni tekshirish. 4. Natijalarni taqdim etish.

Xulosa. Keys metodidan dars jarayonining ixtiyoriy bosqichida qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, metod yangi bilim beruvchi, mustahkamlovchi, aralash, nazorat dars turlarida qo‘llanilishi mumkin. Bundan tashqari mustaqil ishlarni tashkil etishda foydalanish imkoniyatlari mavjud. Boshlang‘ich sinflarda, asoson, keyslar qisqa muddatli, dars davomida muhokama etishga mo‘ljallangan va qisman darsda beriladigan nazariy materiallarni amaliy jihatdan o‘rganish, sinab ko‘rish, ko‘rgazma sifatida taqdim etishda qo‘llaniladi.

Adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A. “Case-study” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo”, 2019. – 130 b.

2. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. “Case-study” uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. – Toshkent: “Tafakkur qanoti”, 2012. – 134 b.

3. Djurayev R.X., Tolipov O‘.Q., Safarov R.G‘., To‘raqulov X.O., Inoyatov I.O., Divanova M.S. Pedagogik atamalar lug‘ati. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2008. – 81 b.

4. Ruzikulova N.Sh. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot tushunchasini shakllantirish jarayoni. // “Boshlang‘ich ta’lim va jismoniy madaniyat yo‘nalishida sifat va samaradorlikni oshirish muammo va yechimlari” Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2018. – B. 223-224.

5. Yuldoshev I.A. Tarmoq texnologiyasi asosida “Informatika va axborot texnoloigyalari” fanini o‘qitish samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirish. Ped. fanl. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 47 b.

Gulnora JUMAYEVA
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION FAOLIYAT

Maqolada o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini shakllantirishda innovatsion faoliyatning o‘rni va ahamiyati bayon qilingan. Innovatsion faoliyatning asosiy funksiyalari izohlangan.

Kalit so‘zlar: *o‘qituvchi, pedagogik mahorat, innovatsiya, innovatsion faoliyat, funksiya, kasbiy faoliyat, pedagogik faoliyat.*

В статье раскрывается роль и значение инновационной деятельности в формировании педагогического мастерства учителей. Разъяснены основные функции инновационной деятельности.

Ключевые слова: *педагог, педагогическое мастерство, инновация, инновационная деятельность, функция, профессиональная деятельность, педагогическая деятельность.*

The article describes the role and importance of innovative activities in the formation of pedagogical skills of teachers. The main functions of innovative activity are explained.

Key words: *teacher, pedagogical skills, innovation, innovative activity, function, professional activity, pedagogical activity.*

Kirish. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarimiz tashkil etadi. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iborat.

Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o‘rin egallashini ta’minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”. Ushbu fikrlar, o‘z navbatida, o‘qituvchi-tarbiyachilarning yuksak kasbiy va shaxsiy fazilatlar egasi bo‘lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi oldiga qo‘yilgan vazifalar o‘ta murakkab, mas’uliyatli va ayni paytda sharaflidir.

Asosiy qism. Rivojlangan davlatlar safidan o‘rin olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan O‘zbekistonimiz, xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari kabi ta’lim sohasida ham ilg’or texnologiyalarni joriy etish va shu orqali ta’lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishga harakat qilmoqda. Shunday ekan, bu borada o‘qituvchining innovatsion faoliyati asosiy va muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish – innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. “Innovatsion pedagogika” termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar amalga oshirildi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog’liq. Unga o‘qituvchining tayinli muloqoti, aks fikrlarga nisbatan beg’araz munosabat, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida o‘qituvchi o‘z bilim va ilmiy faoliyatini ta’minlaydigan keng qamrovli motivga ega bo‘ladi.

O‘qituvchi faoliyatida o‘z-o‘zini faollashtirish, o‘z ijodkorligi, o‘z-o‘zini bilishi va yaratuvchiligi kabi motivlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘qituvchi shaxsining kreativligini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini tug’dirishdir. Muloqotning yangi vaziyati - bu o‘qituvchining o‘z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fanga, o‘ziga bo‘lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir. O‘qituvchi o‘z nuqtayi nazarlariga o‘ralashib qolmaydi, u pedagogik tajribalarning boy shakllari orqali ochilib, mukammallashib boradi. Bunday vaziyatlarda o‘qituvchining fikrlash usullari, aqliy madaniyati o‘zgarib boradi, hissiy tuyg’ulari rivojlanadi.

Keyingi sharti - bu o‘qituvchining madaniyat va muloqotga shayligi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o‘zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir. O‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot namunasining o‘zgarishi, innovatsion faoliyat shartlaridan biridir.

Yangi munosabatlar, an’analarda bo‘lganidek, qistovlar, hukmga bo‘ysunish kabi unsurlardan holi bo‘lishi lozim. Ular tenglarning hamkorligi, o‘zaro boshqarilishi, o‘zaro yordam shaklida qurilgan bo‘lishi darkor.

Ular munosabatlaridagi eng muhim xususiyat bu o‘qituvchi va talabaning ijoddagi hamkorligidir.

Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi:

- kasbiy faoliyatning ongli tahlili;
- me’yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv;
- kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik;
- dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo‘lish;
- o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassam qilish.

Demak, o‘qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ’ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi jamiyat, madaniyat va ta’lim taraqqiyoti sharoitida o‘qituvchi innovatsiya faoliyatiga bo‘lgan zaruriyat quyidagilar bilan o‘lchanadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish ta’lim tizimi, metodologiya va o‘quv jarayoni texnologiyasining tubdan yangilashni talab qiladi;
- bunday sharoitda o‘qituvchining innovatsiya faoliyati pedagogik yangiliklarni yaratish, o‘zlashtirish va foydalanishdan iborat bo‘ladi;
- mazmunini insonparvarlashtirish, doimo o‘qitishning yangi tashkiliy shakllarini, texnologiyalarini qidirishni taqozo qiladi;
- pedagogik yangilikni o‘zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o‘qituvchining munosabati xarakteri o‘zgarishi.

O‘qituvchining innovatsion faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me’yorlardan foydalanishni talab qiladi. Bunday me’yorlarga - yangilik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsiyani ijodiy qo‘llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik pedagogik yangilik me’yori sifatida o‘zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi.

Pedagog olimlar yangilikning qo‘llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko‘ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subyektiv darajalarini farqlaydilar.

Inson o‘zining xatti-harakatlariga, fikrlariga nisbatan kuzatuvchi, tadqiq qiluvchi bo‘lib qolmasligi, balki boshqa personajlar, ularning xatti-harakatlarini o‘rganuvchi mavqeini egallashi ham kerak.

Innovatsion faoliyat tuzilmasi haqidagi muhim tizimli tasavvurlar, ularning vazifalarini asoslash, ularning shakllanganlik me’yorlari va sathlari ularni oliy maktab amaliyotiga tatbiq etishning zarur omili hisoblanadi.

Innovatsionlik pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat uning didaktik qurilmasiga, balki o‘qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.

Innovatsionlik ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati turli xildagi qarashlarning to‘qnashuvi va o‘zaro boyitilishi dinamikasida amalga oshishini ko‘zda tutadi. Shunday ekan o‘qituvchining innovatsion faoliyati ta’lim sifati va samaradorlikka erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘qituvchi kasbiy mahoratida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan va insoniy fazilat xushmuomalalikni o‘zida shakllantirish uchun muntazam ish olib borishi zarur. O‘qituvchi pedagogik faoliyatiga oid shaxsiy o‘z-o‘zini tarbiyalashning o‘zaro fikr almashish va aloqadorlikka doir quyidagi tizimlarini tavsiya etish mumkin.

1. Kasbiy faoliyat jihatidan o‘z-o‘zini anglashni (muomalada o‘zaro fikr almashishga doir sifatlarni, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o‘zaro fikr almashish orqali o‘z-o‘zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish.

2. O‘z kasbiy faoliyatiga quyidagi yo‘nalishlarda baho berish maqsadga muvofiq: kishilar bilan bo‘lgan muomaladan so‘ng olingan taassurotlarni tahlil qilish, o‘quvchilar bilan muomalaning so‘nggi holatlarini o‘rganib, muomala haqida o‘zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, muomaladagi imkoniyatlaringizni atrofdagilar (o‘qituvchilar jamoasi, ota-onalar, o‘quvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarga ega bo‘lish.

3. O‘zida insonparvarlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan o‘z-o‘ziga ta’sir o‘tkazuvchi “autogen” mashqlar asosida ishlash.

4. O‘quvchilar va ota-onalar bilan turli jamoat ishlarini olib borish, bundan o‘zaro fikr almashish faoliyatida ko‘nikma va malakalar (ma’ruzalar, suhbatlar, yoshlar uyushmalari) hosil bo‘ladi.

5. So‘z bilan og’zaki ta’sir o‘tkazishda salbiy kayfiyatlarni yengish tajribasini shakllantiradigan va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.

6. Xushmuomalalikka milliy an’ana va urf-odatlarimiz, o‘zbekona muomala madaniyati, milliy ma’naviyatimiz nuqtayi nazaridan yondashish.

7. O‘z ona tilida puxta, lo‘nda va jarangdor so‘zlar tuza olish va uni nutqiy mahorat bilan ifodalash ta’lim muassasalarida o‘rganilayotgan har bir fan o‘qituvchisi uchun eng zarur kommunikativ qobiliyatlardan biridir.

Taklif etilgan ushbu tizim asosida pedagogik faoliyat olib borish o‘qituvchi kasbiga oid shaxsiy fazilatlardan biri bo‘lgan insonparvarlik va xushmuomalalikni shakllantiradi. O‘qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi so‘z qudratini takomillashtirib boradi. U o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so‘z boyligini go‘zal, ravon, ifodali, ta’sirchan bo‘lishiga intiladi. Zero, go‘zal va ta’sirchan so‘zlay bilish ham san’at. Bu san’atdan bebahra bo‘lgan o‘qituvchining kasbiy mahorati shakllanmaydi. Qaysi fanni o‘qitishdan qat’iy nazar, o‘qituvchining asosiy quroli so‘z boyligidir, u so‘z qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi.

Inson tarbiyasi har qachon ham murakkab vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Hatto jamiyat me’yordagi stabil rivojlanish bosqichida turgan vaqtda ham o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida turli muammolar paydo bo‘ladi.

Ma’lumki, ta’lim–tarbiya deb atalgan murakkab jarayon subyektlaridan biri – bu o‘qituvchi. Xo‘sh, bugungi kun o‘qituvchisi qanday bo‘lishi kerak? Uning faoliyati maqsadi va vazifalari nimalardan iborat? Uning bilim saviyasi, salohiyati, mahorati va qobiliyatini o‘stirish nimalarga bog’liq?

Eng avvalo o‘qituvchi shuni chuqur anglashi lozimki, u jamiyatning ishonchli vakili, zero, jamiyat unga o‘zining eng qimmatli boyligi, umidi, ishonchi va kelajagi bo‘lgan bolalarini topshiradi. Bu oliyjanob va murakkab kasb unga hayotini bag’ishlagan har bir kishidan doimiy ijod, izlanish, ulkan saxovatli qalb, bolalarga muhabbat, o‘z kasbiga cheksiz sadoqatni talab etadi. Binobarin, Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “*Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakkam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi”*.

Bunday mas’uliyatli vazifani faqatgina dialektik fikrlash qobiliyatiga, yorqin shahsiy sifatlarga ega bo‘lgan, o‘z–o‘zini uzluksiz rivojlantirish va tarbiyalashga tayyor bo‘lgan o‘qituvchi bajara oladi. Zero, o‘qituvchi shahsi pedagogik jarayon muvaffaqiyatining asosiy sharti va vositasidir.

O‘qituvchining shaxsiy sifatlari doim tayyor qilib qo‘yilgan aҳborotlardan iborat emas, balki u jonli mushohada yurita olish, doimiy o‘z–o‘zini rivojlantira olish qobiliyati bilan belgilanadi. Olov olov bilan yoqiladi, shaxs shaxs orqali shakllantiriladi. O‘zida bo‘lmagan narsani birovga berib bo‘lmaydi.

Har qanday o‘qituvchi ham mahoratli o‘qituvchi bo‘la oladimi, degan savolga tajribali pedagoglarimiz shunday javob beradilar: “Ha! Lekin faqat o‘z ustida tinimsiz ish olib borish sharti bilan”.

Mahorat faoliyat jarayonida yuzaga chiqadi. Pedagogikada mahoratni aynan shunday tushunish qabul qilingan. U o‘qituvchi belgilangan vaqt ichida erishishi mumkin bo‘lgan optimal natijaga olib keladigan pedagogik faoliyatning oliy darajasi sanaladi.

Pedagogik faoliyat obyekti – bu inson, shakllanayotgan shaxs ruhiy olamining nozik qirralari – aql, hissiyot, idora, ishonch, o‘z-o‘zini anglash demakdir. Pedagogik faoliyat obyektining o‘ziga xosligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Inson tabiatning jonsiz bir bo‘lagi emas, balki o‘zining takrorlanmas shaxsiy xususiyatlariga ega bo‘lgan, atroflardagi voqea–hodisalarga nisbatan o‘z tushunchalari va munosabatiga ega bo‘lgan (jonli) aqlli mavjudot. U pedagogik jarayonning ishtirokchisi, uning o‘z maqsadi, motivlari, o‘ziga xos xulq–atvori bor. Binobarin, pedagogik faoliyat obyekti uning subyekti hamdir. Chunki u pedagogik ta’sirga nisbatan har xil munosabat bilidirishi mumkin. Zero, bu ta’sirni u o‘z ichki dunyosi orqali qabul qiladi.

2. O‘qituvchi muntazam o‘zgarib, o‘sib borayotgan inson bilan ishlaydi. Unga nisbatan qolipga solingan, stereotip xatti–harakatlarni qo‘llab bo‘lmaydi. Bu juda murakkab jarayon bo‘lib, o‘qituvchidan doimiy izlanishni talab etadi.

3. O‘quvchiga faqat pedagoglargina emas, balki uni o‘rab turgan muhit ham turli yo‘nalishlarda bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun pedagogik faoliyat shu ta’sirlarni korreksiyalashni, ya’ni tarbiyalash, qayta tarbiyalash hamda shaxsning o‘z–o‘zini tarbiyalashini tashkil etishni ham ko‘zda tutadi.

Subyekt – bu tarbiyalanuvchiga ta’sir etuvchilar, ya’ni pedagog, ota–onalar, jamoa. O‘quvchiga ta’sir o‘tkazuvchi asosiy vosita bu o‘qituvchi, uning bilimi va qobiliyati. Agar o‘quvchilar o‘qituvchi shaxsini tushunmasa, uning bilimi va xulq–atvoriga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lishsa, uning xatti–

harakatlariga qarshilik koʻrsatadilar. Haqiqiy tarbiyachi oʻquvchi shaxsiga ijobiy axloqiy ta'sir koʻrsatadi. Bu esa oʻqituvchidan oʻzini axloqiy jihatdan muntazam takomillashtirib borishni talab etadi.

Pedagogik mahoratni biz oʻqituvchida boʻlishi lozim boʻlgan bir qancha shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida tushunamiz. Bu shaxsiy sifatlar kasbiy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishga imkon beradi. Shunday muhim sifatlarga – oʻqituvchi faoliyatining insonparvarligi; uning kasbiy bilimi; pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasini kiritish mumkin.

Shu oʻrinda quyidagi holatlarni ta'kidlash joiz: birinchidan, pedagogik mahorat shaxs ruhiyatidagi oʻz–oʻzini tashkil etuvchi tizim boʻlib, insonparvar yoʻnalganlik bu tizimning asosiy omili boʻlib xizmat qiladi; ikkinchidan kasbiy mahoratni rivojlantirish zaminida (asosida) oʻqituvchi xatti–haraktalarining asl mohiyati asoslanganligi, ongliligini belgilaydigan kasbiy bilim yotadi. Yoʻnalganlik va kasbiy bilim professional yuqori darajadagi faoliyatning "skelet"i sanalanadi, u oʻz–oʻzini tashkil etuvchi tizimning yaxlitligini ta'minlaydi; uchinchidan, pedagogik qobiliyatlar mahoratning shakllanishini tezlashtiradigan xamirturush boʻlib hisoblanadi; toʻrtinchidan, bilim va qobiliyatga tayanadigan pedagogik texnika, u barcha ta'sir vositalarini maqsad bilan bog'lashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagogik faoliyat strukturasini muvofiqlashtiradi. Shunday qilib, pedagogik mahorat tizimining toʻrt tarkibiy qismi ham oʻzaro bog'liq. Ularning oʻsishida faqat tashqi ta'sirning oʻzigina kifoya emas, ular oʻz–oʻzini rivojlantirishni ham talab etadi. Oʻz–oʻzini rivojlantirish maxsus bilim va koʻnikmalarga asoslanadi. Muvaffaqiyatning asosiy sharti – bu qobiliyatlar, vositasi esa pedagogik texnikadir. Endi pedagogik mahoratning toʻrt elementi toʻg'risida batafsil toʻxtalamiz.

1. Oʻqituvchi shaxsining insonparvarligi. Fikrlar toʻqnashuvi va oʻz pozitsiyasi uchun kurashni drama deb hisoblasak, tarbiyachining butun, faoliyati dramalardan iborat. Binobarin, mahorat darajasi qancha yuqori boʻlsa, ziddiyatlar ham shunchalik aniq boʻladi. Chunki ijodkor oʻqituvchi tomonidan taklif etilgan tizimning yangiligi, odatda, eskirgan qarashlarning qarshiligiga uchraydi.

"Shaxs yoʻnalganligi nimalardan iborat?", - degan savolga psixologiya fani ideallar, qiziqishlar, qadriyatlar deb javob beradi.

Koʻraylikchi, bu dramaning boshalanishi emasmi? Oʻqituvchi qanday oʻy–hayol bilan maktabga keladi?

"Qoidadon" oʻqituvchi "dars oʻtish", dasturni bajarish hayoli bilan maktabga kelyapti. Uning qiziqishi 45 daqiqa mobaynida oʻzlashtirishi lozim boʻlagan materiallarga qaratilgan.

Yangi yetakchi maktabga yorqin bayralar, marosimlar orzusida kelyapti. Endigina ish boshlagan yosh oʻqituvchi ham darsga kelyapti. Uning fikr-u hayoli oʻzining oʻqituvchilik mavqeini saqlab qolishda. U, avvalo, yoshlari orasida uncha katta farq boʻlmasa–da oʻquvchilar uni oʻqituvchi sifatida qabul qilishlari toʻg'risida qayg'uradi.

Donetsklik oʻqituvchi V.F.Shatalov ham darsga kelyapti. Uning maqsadi oʻz oʻquvchilariga zafarli bilim olishlari uchun koʻmaklashish.

Ularning hammasi maktabga, bolalar oldiga kelishyapti, lekin ular shaxsiy yoʻnalganligi asosining oʻziyoq drama(tik). Lekin ularning bu tarzdagi shaxsiy taraddudi tarbiyaning asosiy maqsadi – barkamol insonni shakllantirish vazifasiga qanchalik mutanosib. Masalaning muhimligi ana shunda.

Har bir oʻqituvchi shaxsining yoʻnalganligi turli xil boʻlib, ularning eng asosiysi, qimmatlilari quyidagilardir: 1) oʻziga nisbatan yoʻnalganlik, ya'ni oʻz–oʻziga ishonch, "menda bilimli, talabchan, haqiqiy oʻqituvchini koʻrishsin", - degan istakning mavjudligi; 2) pedagogik ta'sir vositalariga yoʻlnalaganlik; 4) pedagogik faoliyat maqsadiga yoʻnalganlik – insonparvar strategiya, faoliyat obyekti va vositalariga nisbatan ijodiy yondashish.

Pedagog uchun korreksiyalangan barcha turdagi yoʻnalishlar bilan yoʻg'rilgan, maqsadga olib boruvchi asosiy yoʻnalish, ya'ni faoliyatni insonparvarlashtirish muhimroqdir. Lekin faqat kelajak oldidagi mas'uliyatni his etish, ongli tirishqoqlik, bolalarga nisbatan cheksiz muhabbat orqaligina oʻqituvchining kasbiy mahorati shakllanadi: "Agar oʻqituvchi ham ishiga, ham bolalarga nisbatan muhabbatni oʻzida mujasamlashtira olsa", - degan edi L.N.Tolstoy.

Insonparvarlik yoʻnalishi yuqori topshiriq sifatida uning kundalik ishidagi muayyan vazifalarni belgilab beradi. Ikki xil vaziyatni taqqoslab koʻramiz. Birinchi kurs talabasi ta'lim markazi muzeyiga sayohat olib borayotib, nima uchun aynan shu muzey haqida bolalarga gapirib berishi kerakligini tushuntirishga qiynaladi. Mahoratli usta pedagog esa sayohatdan koʻzlangan bir necha vazifalar hamohangligini koʻra oladi, ya'ni oʻz–oʻzini anglashga yetaklash, pedagoglik kasbini egallashlaga targ'ib etish, oʻqituvchi mehnatining ichki tomonlarini koʻrsatish va shu orqali bu mashaqqatli kasb egalariga nisabatan cheksiz hurmat hissini uyg'otish va pirovard natijada oʻquvchining ijtimoiy rivojlanishning yanada yuqoriroq pillapoyasida tura olishiga koʻmaklashish.

Kasbiy bilimning kompleksligi, umumlashganligi bilan birga uning shaxsiy bo‘yoqdorligi ham muhim ahamiyatga ega. IX sinfda adabiyot darsi boryapti. Yusuf xos Hojibning ”Qutadg’u bilig” asari xususidagi o‘z fikrlari, uning tarjimalari undagi qahramonlar haqida ko‘p gapirildi. O‘quvchilar ham o‘z fikrlarini bayon qildilar. Bu suhbatni olib borayotgan o‘qituvchi esa biror marta ham “Menimcha”, “Men o‘ylaymanki...” degan so‘zlarni aytmadi. Fan, madaniyatning butun zaxirasi to‘g’risidagi bilim o‘qituvchining o‘z qiziqishlari va ideallari bilan boyitilsa, uning o‘z pozitsiyasi sifatida qabul qilinadi. O‘qituvchining mahorati bilimlarni insoniylashtirishda, unga ruh bag’ishlashda namoyon bo‘ladi. Zero, bilimlar shunchaki kitoblardan olingan ma’lumotday emas, balki o‘zining olamga munosabati tarzida yetkazilishi lozim.

Pedagogning kasbiy bilimi asosida pedagog tafakkuri – prinsip va qoidalar shakllanadi. Ular o‘qituvchi xatti–haraktlari, xulq-atvorida namoyon bo‘ladi. Bu prinsip, qoidalarni har bir o‘qituvchi tajribasiga tayangan holda quradi. Lekin faqat kasbiy bilim orqaligina uni anglash va uning qonuniyatlarini ko‘ra olish mumkin. “Abadiy doskaga chiqarilgan” – o‘qituvchi haqida shunday deyiladi. Shuni ham hisobga olish kerakki, o‘qituvchini tayyorlash, kasbga layoqatli bo‘lishini ta’minlash juda murakkab jarayon. Chunki kasbiy bilim bir varakayiga barcha darajalarda teng shakllantirilashi kerak: metodologik (rivojlanishning umumfalsafiy qonuniyatlarni, tarbiya maqsadi, shart-sharoitlarini bilish), nazariy (pedagogika va psixologiyaning qonun–qoidalari, prinsiplari, faoliyatning asosiy shakllari va b.), metodik (o‘quv–tarbiya jarayonini ko‘ra olish darajasi), texnologik (muayyan sharoitda ta’lim-tarbiyaning amaliy topshiriqlarini hal etish darajasi). Bu ma’lum darajada rivojlangan kasbiy tafakkurni, ya’ni pedagogik maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bilimlarni tanlash, tahlil qilish va qayta ishlashni talab etadi.

Adabiyotlar

1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. - T.: “O‘zbekiston”, 2016.

3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: “O‘zbekiston”, 2017.

4. Turg‘unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. - T., 2015.

5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - T., 2016.

6.Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.

7. Sayidahmedov N., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. - T.: RTM, 1999.

O‘g’iloy SHUKUROVA
Guliston davlat universiteti
pedagogika va psixologiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi

TALABA-YOSHLARNI INNOVATSION FAOLIYATGA YO‘NALTIRISHNING UZLUKSIZLIGINI TA’MINLASH TEXNOLOGIYASI

Maqolada talaba-yoshlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirishning uzluksizligini ta’minlash maqsadida an’anaviy, innovatsion va ilmiy–ijodiy yondashuvlar asosida ta’lim jarayonida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar, muammoli savol va muammoli vaziyatlar atrofida fikr yuritiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quv jarayonini loyihalash texnologiyasining amalga oshirilishi tahlil qilingan. Oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uzluksiz ravishda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi samarali natija berishi ko‘rib chiqilgan. Ta’lim-tarbiya jarayoniga oid an’anaviy va innovatsion yondashuvlar qiyoslab o‘rganilgan. Shuningdek, talaba-yoshlarni ijodiy faoliyatga jalb etish masalasida pedagogik prinsiplar batafsil bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *muammoli savol, muammoli vaziyatlar, zamonaviy innovatsion texnologiya, texnologik yondashuv, aqliy kamolot, kafolatlangan natija, “subyekt - subyekt” , “o‘qituvchi - talaba”, “talaba - talaba”, an’anaviy, tizimli, texnologik, funksional, kompleks yondashuv, faoliyatli yondashuv.*

В целях обеспечения беспрерывности ориентации студентов и молодежи на инновационную деятельность в статье акцентируется внимание на недостатках, проблемных вопросах и проблемных ситуациях в образовательном процессе на основе традиционного, инновационного и научно-творческого подходов. Проанализирована реализация технологии проектирования образовательного процесса на основе использования инновационных педагогических технологий в образовательном процессе.В системе высшего образования считается, что непрерывное внедрение инновационных технологий в образовательный процесс даст эффективный результат. Сравнительно изучены традиционные и инновационные подходы к образовательному процессу. Также подробно рассматривается вопрос вовлечения студентов и молодежи в творческую деятельность.

Ключевые фразы: *проблемный вопрос, проблемные ситуации, современная инновационная технология, технологический подход, рациональное совершенствование, гарантированный результат, “Субъект - субъект”, “преподаватель - студент”, “студент - студент”, традиционный, системный, технологический, функциональный, комплексный подход, активный подход.*

In order to ensure the continuous orientation of students and young people to innovative activities, the article focuses on the shortcomings, problematic issues and problematic situations in the educational process on the basis of traditional, innovative and scientific-creative approaches. The article analyzes the implementation of the technology of designing the educational process based on the use of innovative pedagogical technologies in the educational process. In the higher education system, it is believed that the continuous introduction of innovative technologies in the educational process will give an effective result. Traditional and innovative approaches to the educational process are comparatively studied. The issue of involving students and young people in creative activities is also discussed in detail.

Key words: *problem question, problem situations, modern innovative technology, technological approach, rational improvement, guaranteed result, “Subject – subject”, “teacher – student”, “student – student”, traditional, system, technological, functional, integrated approach, active approach.*

Kirish. Jahonda fan va ta’limning ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuv jarayoni jadal kechayotgan bir davrda “tajriba asosida ta’lim olish” (Experimential learning) g‘oyasi jahon hamjamiyati axborot-ta’lim muhitida ustuvorligi jihatidan e’tirof etilmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarda innovatsiyalarni o‘zlashtirishni, buning uchun esa ularda individual sifatlarni shakllantirishni taqoza etadi.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida dunyoda, shu jumladan, bizning mamlakatimizda, kechayotgan ijtimoiy-madaniy transformatsiya ishlab chiqarish amaliyoti uchun kadrlarni tayyorlash masalasiga, uzliksiz ta’limda “umr davomida ta’lim olish” (Lifelong learning) konsepsiyasiga amal qilishni talab etmoqda. Fan va texnika yutuqlarining ishlab chiqarish amaliyotiga tadbiq etilishi, iste’molchilar

talablarining ortib borishi, ta'limning axborotlashuvi, insonlar hayoti sifatining oshishi soha mutaxassislaridan kasbiy faoliyatiga innovatsiyaviy tarzda yondashishni taqozo etmoqda [7].

Asosiy qism. Innovatsiyalarning (lot. innovatio, ingl. Innovation - yangilik kiritish) tarixi, maqsadi shundan dalolat bermoqdaki, yangi sifat natijasiga erishishdan iborat. Bu sifat natijasi ta'lim-tarbiyada, ishlab chiqarishda namoyon bo'lib, mutaxassisga davr muddaosidan kelib chiqqan holda, iste'molchi va ishlab chiqaruvchilarning talab hamda takliflarini inobatga olib, umummadaniy, umumkasbiy kompetensiyalarni egallab, raqobatbardoshlikni saqlab qolishdan iborat. V.A.Slastenin, L.S.Podimova va T.N.Dubininalarning ko'rsatib o'tishicha, talabalar va o'qituvchilar tomonidan innovatsiyalarni o'zlashtirish jarayoni stixiyaviy tarzda kechib, afsuski, to'liq refleksiyalashmayapti [8]. Jamiyat hayoti turli sohalarining taraqqiy etishini ta'minlash, bevosita innovatsiyalarning vujudga kelishi bilan, turli kasb sohalarida innovatsiyaviy texnologiyalarni o'zlashtirish va tadbiq etishi bilan bog'liqdir.

Innovatsiyaviy faoliyat, kogitologik (lot. Cogitio - tafakkur, logos – ta'limot) yondashuvni taqozo etadi. Bu mutaxassis kasbiy faoliyatga doir bo'lgan turli bilim va tajribalarni o'zlashtirib, o'zining faoliyati doirasida ularning sara jihatlarini tatbiq etishni anglatadi. Innovatsiyalarni o'zlashtirish shaxsdan ma'lum sifatlarga ega bo'lishni talab etadiki, aynan shaxsiy sifatlar innovatsiyaviy jarayonlarga subyektning ishtirokini ta'minlaydi. Shu tariqa talabalarni innovatsiyaviy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik asoslarini nazariy jihatdan o'rganish dolzarblashadi.

Innovatsiyaviy faoliyat bilan shug'ullanish uchun shaxsda ma'lum bir sifatlar, jumladan: ochiqlik, munosabatlar plyuralizmiga tayyor turish, hamkorlikka intilish, ta'limiy mobillik, kommunikativlik, psixologik kompetentlik kabilar mujassamlashgan bo'lishi lozim. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda psixologiya fanining yutuqlaridan maqsadli foydalanish davr talabiga aylanmoqda.

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash esa, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos kadrlarni tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihati hisoblanadi. Innovatsiya va innovatsion madaniyat masalasi psixolog, pedagog va faylasuf olimlarning ishlarida o'rganilgan. Jumladan, A.S.Waterman, J.Turner, S.Stryker, J.Edmondson, M.Bingham, T.S.Bochkareva, E.V.Galajinskiy, V.I.Dolgova, E.F.Zeer, V.E.Klochko, S.A.Novoselov, L.S.Podimov, A.I.Prigojin, V.A.Slastenin, V.A.Fedorov, F.T.Xamatnurov, A.V.Xutorskiy, E.E.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, B.R.Qodirov, R.S.Samarov, D.G.Muxamedova, B.Umarov, N.K.Chapayev, Z.T.Nishonovalar vitagen tajribani faoliyatdagi o'rnini tadqiq etgan. Innovatsiyaviy faoliyatni egallash uchun asos bo'ladigan shaxs sifatlarini o'rganishga doir V.A.Gerasimova, A.Inkeles, R.M.Lobaskaya, M.Rokeach, C.R.Rogers, J.R.Nuttin, G.Hofstede, E.A.Lutoxina, C.B. Mokichevlarning ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Xorijiy manbalarda shaxsning fenomenologik nazariyasi doirasida (K.Rodjers, A.Maslou) dolzarblashuv hamda krizis (E.Erikson) masalasi ham tadqiq etilganki, talabalarni innovatsiyaviy faoliyatga tayyorlash uchun ta'lim jarayonida ularda bir qator muhim shaxsiy-kasbiy sifatlarni shakllantirishda nazariy asos bo'la oladi.

Shu o'rinda, nazariy yondashuvlarda mavjud bo'lgan bir qator ziddiyatli nuqtayi nazarlarning yechimini topish lozim bo'ladi. Bular:

- ijtimoiy-psixologik darajada: sotsium tomonidan mutaxassisni kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablari, ishlab chiqaruvchilarning innovatsiyalarni qabul qilishga tayyorgarligi, innovatsiyalarni yaratuvchilarning ishlab chiqarishning sifat ta'minotiga e'tibor qaratgani, innovatsiyalar uchun resurslarning mavjudligi va ulardan foydalana bilish talabalarda innovatsion tajribalarni o'zlashtiruvchi va tashuvchisi sifatida munosabat emas, balki istiqbolda innovatsiyalarni yaratuvchi subyektlar tarzida munosabatda bo'lishi konseptual asoslarining yaratilmaganligi;

- ilmiy psixologik-pedagogik darajada: talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash uchun zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlari imkoniyatlaridan keng foydalanib, talabalar shaxsida muhim shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirish uchun kompetensiyaviy modelning yaratilmaganligi tashkiliy, uslubiy va nazariy muammolarni vujudga keltirmoqda. Bunda pedagogik tizim doirasida mezonlarni belgilash, tayyorgarlik darajasini kasbiy va psixologik jihatdan baholash, shaxsiy sifatlarning diagnostikasini amalga oshirish va psixologik prognozini bajarish, egallagan sifatlarni istiqbolda namoyon etish ko'nikmasini shakllantirish texnologiyasining milliy muhitda yaratilmaganligi, kasbiy ongni shakllantirish masalasining chuqur o'rganilmaganligi;

- ilmiy-metodik darajada: ta'lim muassasalarida talaba shaxsini innovatsion faoliyat bilan shug'ullanish uchun tayyorlashga salohiyatining yetarlicha emasligi, standartlashtirilgan psixologik metodikalarning yaratilmaganligi, talabalarni egallayotgan ixtisosligiga doir bilim va ko'nikmalarni egallashini motivlashtirishni ibratli (namunaviy) tajribasining yaratilmaganligi, ta'lim muassasalarida

innovatsiya va innovatsion faoliyatga doir mavjud munosabatlarda yagona ilmiy asoslangan munosabatlarning yaratilmaganligi kabi holatlarni aytib o‘tishimiz mumkin.

Ko‘rsatib o‘tilgan ziddiyatli munosabatlar o‘z yechimini topsa innovatsiyalarning ijtimoiy va shaxsiy yo‘naltirilganligini mamlakat taraqqiyotini ta’minlashda foydalanish tartibini ijtimoiy psixologik jihatdan asoslab beradi. Buning uchun metodologik darajada, shaxsni fenomenologik nazariyasi asosida, ya’ni subyektni qobiliyatlari dolzarblashuv va o‘zini o‘zi dolzarblashuvi asosida kechishini inobatga olib, talabalarda innovatsiya haqida tasavvurlarni shakllantirib, innovatsiyalarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Muhokamalar va natijalar. Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida ham zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Oliy ta’lim tizimida dars jarayonlarida uzluksiz ravishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalar uchun darslarda qatnashishga yanada qiziqish uyg‘otib, buning natijasida talaba an’anaviy, innovatsion va ilmiy–ijodiy yondashuvlar dinamikasida o‘zini egallayotgan kasbiga bo‘lgan munosabatini tafakkur tahlilidan o‘tkazib, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar, muammoli savol va muammoli vaziyatlar tevaragida fikr yurita boshlaydi.

Yangi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda darsni tashkil etish uchun oliy ta’lim tizimidagi professor-o‘qituvchilar yangicha ta’lim usullarini yaxshi bilishlari kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining barcha komponentlari; ta’lim qonun-qoidalari, mazmuni, metodlari, vositalar va shakllarining o‘quvchi va o‘qituvchi aqliy salohiyatini kuchaytirishga yo‘naltirilgan aniq maqsadlar qo‘yilishi hamda ularning to‘la bajarilishiga kafolatli olib boradigan, o‘ta mukammal ishlab chiqilgan texnologik tizimdir.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga bir necha xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, shulardan: an’anaviy, tizimli, texnologik, tadqiqiy, funksional, kompleks va faoliyatli yondashuvlar farq qilinadi. Jumladan, texnologik yondashuv mohiyatan ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar tatbiqini anglatadi.

Oliy ta’lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishdan asosiy maqsad ko‘nikma va malakalar asosida talabaning bilish va shaxsiy qobiliyati bilan birgalikda aqliy kamolotini, kelajakda mehnat faoliyatiga bo‘lgan munosabatini hamda dunyoqarashini yangicha innovatsion takomillashtirishdan iborat.

Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish deganda o‘quv jarayonini loyihalash texnologiyasini tushunamiz va shu asosda vujudga kelgan interfaol metodlardan foydalanib ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilamiz.

Bu jarayon “subyekt-subyekt” munosabatlariga muvofiq, o‘qituvchi-talaba”, yoki “talaba-talaba”, teng huquqli faol va do‘stona munosabatlarga kirishgan holda ta’lim-tarbiyaviy muammolar yechimi topiladi. Bu jarayonda asosiy e’tibor talabaning mustaqil fikr rivojiga, ijodiy izlanishiga va shu asosda ilg‘or fikr, ya’ni g‘oyalarni ilgari surishiga tayaniladi. Ta’lim-tarbiya jarayonining subyekti talaba hisoblanib, o‘qituvchi yo‘nalish beruvchi va yakuniy xulosa chiqaruvchi hamda birgalikda tavsiya ishlab chiqaruvchi vazifasini o‘taydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, innovatsion texnologiyalardan foydalanish darsda va darsdan tashqari vaqtlarda talabalarning o‘qituvchilar bilan shaxsiy munosabatlarini ijobiy shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan qiziqib foydalangan talaba o‘qituvchining og‘zaki ko‘rsatmasisiz yangi vazifalarni aniqlab, o‘zining aqliy izlanishi tufayli turli yo‘l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda muammolarni hal qiladilar.

O‘tkazayotgan tajribalarimizdan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, o‘qituvchi va talaba munosabatlarini ijobiy shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamkorligi tashkil etilsa ijobiy natija hosil bo‘ladi. Innovatsion texnologiyalardan o‘quv jarayonida mustaqil foydalangan talaba o‘z shaxsiga nisbatan mustaqil tanqidiy ko‘z bilan qarab, o‘z xatolarini ko‘ra olsa va bajargan ishlarini tahlil qilsa, buning natijasida o‘ziga yetarlicha baho bera oladi. Oliy ta’lim tizimida o‘tkazilayotgan har bir dars, mavzu, o‘quv predmetining o‘ziga xos texnologiyasi bor, ya’ni o‘quv jarayonidagi innovatsion texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan jarayondir. Bu jarayonni bevosita o‘qituvchi boshqaradi. Oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uzluksiz ravishda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning birinchi bosqichida kadrlar tayyorlash milliy modeli o‘quv predmeti bo‘yicha davlat ta’lim standartlari, ulardan kelib chiqadigan xulosalar, yosh avlodning har tomonlama rivojlanishiga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunini tanlash holatlari, tegishli mashg‘ulotlarni umumiy aniq maqsadga erishishi uchun ta’limning tashkiliy shaklini tanlash hisobga olinadi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ikkinchi bosqichida ta’lim konsepsiyalari, ta’lim tizimi bosqichlari nazarda tutilgan asosiy g‘oyalar ifodalangan xulosa hisobga olinadi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning uchinchi bosqichida oliy ta’lim tizimida uzoq muddatga mo‘ljallangan alohida o‘quv predmetlarining istiqboldagi maqsadi, shuningdek, alohida olingan o‘quv predmeti hisobga olinadi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning to‘rtinchi bosqichida o‘qituvchi tomonidan o‘quv predmetlari mazmunini tanlash tamoyillari va mezonlari hamda usullari aniqlanadi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning beshinchi bosqichida talabalarning vazifalari, shuningdek, talabalarning o‘quv faoliyatini bajarishlariga yo‘naltirilgan ta’lim turi namoyon bo‘ladi. Bu jarayonning pedagogik texnologiyada o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro munosabatlarida demokratik usullar, tashkiliy shakllar va ta’lim vositalarini tanlashda alohida o‘rin beriladi.

O‘qituvchi va talabalarning munosabatlarini ijobiy shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayoni o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlari va vositalarini, talabalarning ijobiy irodaviy sifatlarini rivojlantirish maqsadiga erishishni yakuniy natijalarda mujassamlashtiradi. Oliy ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llay olgan har bir o‘qituvchi quyidagi natijalarni qo‘lga kiritadi:

- har bir talabaning fikrlash qobiliyati faollashadi;
- har bir talaba bahs, munozaraga yo‘naltiriladi;
- har bir talaba mustaqil fikrlay boshlaydi;
- o‘qituvchi vaqtdan unumli foydalanadi;
- talabada o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ijobiy motivlarni shakllantiradi.

Xulosa. Mazkur imkoniyatlarni anglay olish pedagogik faoliyatga nisbatan bir oz ijodiy texnologik yondashish mashg‘ulotlarning qiziqarli bo‘lishini ta’minlash bilan birga, talabalar tomonidan har bir mavzu bo‘yicha bilimlarni puxta egallashi uchun zamin yaratadi. Darhaqiqat, o‘quv mashg‘ulotlari uning doimiy ravishda bir xilda takrorlanishi talabalarda loqaydlik, bilim olishga nisbatan mas’uliyatsizlik kayfiyatini hosil qiladi. Tashqi (globallashuv, ijtimoiy-madaniy transformatsiya, kommunikatsion borliqning axborotlashuvi, jamiyatni demokratlashtirish va gumanizasiyalashtirish, sotsium, davlat, ta’lim oluvchilar va ishlab chiqaruvchilarning ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablarini o‘zgarib borilayotganligi va boshqalar) va ichki (jamiyat va shaxs madaniyatining aloqadorligi, ta’lim muassasasining pedagogik salohiyati, kadrlar tayyorlashga oid kompetensiyaviy yondashuvning tatbiq etilishi, shaxsiy sifatlarning dinamik mazmun kasb etishi, ta’lim muassasasining korparativ madaniyati, talabalarning oliy ma’lumotli bo‘lishga ehtiyoji, motivi kabilar) omillarning majmuasi asosida innovatsiyaviy faoliyat modeli yaratiladi.

Innovatsion faoliyat bilan muvaffaqiyatli tarzda shug‘ullanish uchun talabalarga kerak bo‘lgan innovatsiyalarga ochiqlik, idrok madaniyati, kreativlik, assertivlik, tolerantlik, refleksivlik, o‘zini dolzarblashtirish, mas’uliyat kabi qadriyatli-mazmunli shaxsiy xossalar majmuasining funksional va strukturaviy jihatlarining ijtimoiy psixologik jihatlari psixologik testlar vositasida emperik tarzda o‘rganilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

3. Колосей Н.С. Исползование облачних технологий в образовательном процессе-условие для совместной работи педагогов и учашихся. Режим доступа: http://academy.edu.by/files/do%20ikspres/Kolosey.pdf.

4. Ткаченко В. Облачние вичисления (Cloud computing). –Режим доступа: https://www.lessons-tva.info/archive/nov031.html.

5. Ishmuhammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.

6. Королева А.С. Инновационние технологий современного офиса (Облачние вичисления): учеб. пособие. -Санкт-Петербург: “Висшая школа экономики”, 2012. - С-88.

7. Зеер Э.Ф. Психология личностно ориентированного образования.-Екатеринбург, 2000. -257с.

Мехринисо КОЙИЛОВА
учительница Бухарского филиала специализированного
республиканского центра повышения квалификации
сотрудников средно медицинского и фармацевтики

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ЗДОРОВЬЕСОЗИДАЮЩЕЙ ФУНКЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

В статье рассматриваются педагогическое основы здоровьесозидающие функции образование и их содержательно-функциональные принципы.

Ключевые слова: *компетентны, здоровый образ жизни, здоровье, здоровьесозидающей функции.*

Maqolada ta'limda sog'liqni saqlaash funksiyalarining pedagogikk asoslari va uning mazmuniy-funksional tamoyillari qaralgan.

Kalit so'zlar: *kompetentlik, sog'lom turmush tarzi, salomatlashtirish, mazmuniy-funksional tamoyillar.*

The article discusses the pedagogical basis of health education functions education and their content-functional principles.

Key words: *competent, healthy lifestyle, health, healthy functions.*

В настоящее время в отечественной системе образования идет процесс модернизации, переход от знаниевого подхода к компетентностному, в контексте которого образование должно быть ориентировано на результат.

С позиции компетентностного подхода здоровье есть способность к самосохранению, саморазвитию и самосовершенствованию. Ценность такого подхода, прежде всего, в том, что здоровье выступает не как результат влияния внешних условий и сопротивления им, а как проявление внутренней созидательной активности, творчества в процессе жизнедеятельности. Следовательно, здоровье можно рассматривать как целевой ресурс личности, которым можно управлять. У здоровья, как ресурса, должен быть определенный базис. В его роли выступает здоровьесозидающий потенциал.

В этой связи одна из главных задач современной школы – помочь детям осознать ценность здоровья и значение здорового образа жизни (ЗОЖ) для современного человека, сформировать ответственное отношение к собственному здоровью[1, 4]. Для этого учащиеся должны осознать и, главное, принять для себя основные принципы ЗОЖ, а это возможно только в результате целенаправленной совместной работы педагогов, родителей и самого ребёнка. В контексте модернизации образования одной из центральных выступает идея здоровьесозидания, которая ориентирует учащихся на конструирование собственного здоровья на основе механизмов личностной самоактуализации и самореализации.

Основными идеями педагогической основы здоровьесозидающей функции образования являются [3]:

1) здоровьесозидающая функция образования интегрирует здоровьесберегающую, здоровьеформирующую, здоровьеразвивающую интенциональность образования;

2) в качестве теоретико-методологической основы моделирования индивидуальной программы здорового образа жизни учащихся выступают принципы здоровьесозидающего образования и тип валеологической установки, характер которой определяет базовые стратегии личности в отношении своего здоровья (конструктивные – здоровьесберегающие, здоровьесозидающие и деструктивные, направленные на разрушение своего здоровья);

3) зависимость между типом доминирующего мотива и типом валеологической установки в отношении индивидуального опыта здоровьесбережения, здоровьесозидания, здоровьеформирования и здоровьеразвития определяется следующим: в основе построения индивидуальной программы здорового образа жизни лежит доминирующий мотив, с которым связан уровень активности личности в отношении своего здоровья и уровень индивидуальной системы ценностей, обеспечивающих актуализацию ресурсов личности в ходе построения индивидуальных программ оздоровления;

4) реализация здоровьесозидающей функции образования возможна через проектирование векторно-контекстуальной модели развития здоровьесозидающего потенциала личности, которая учитывает особенности актуализации ее ресурсного потенциала в направлении трех базовых компонентов-векторов: метакогнитивные способности, аффективная атрибуция и валеологическая

установка, а также основные динамические свойства здоровьесозидающего потенциала в различные периоды онтогенеза и контекст, в котором формируется здоровьесозидающая личностная позиция;

5) в качестве основных показателей сформированности культуры здоровья у учащихся выступают:

а) уровень духовно-нравственного развития;

б) уровень развития когнитивной сферы;

в) уровень развития саногенного мышления;

г) оценка здоровьесберегающей деятельности и поведения;

д) уровень эстетического развития;

е) уровень развития способности к оздоравливающему общению;

ж) уровень развития способности к трансляции лучших традиций здоровья;

з) уровень творческого развития;

6) эффективность реализации здоровьесозидающей функции образования оценивается на основе сформированности показателей культуры здоровья и выявления степени выраженности у учащихся такого интегрального показателя, как здоровьесозидающая личностная позиция;

В педагогической науке принято выделять следующие функции образования: нормативная, развивающая, регулирующая, воспитывающая, социализирующая и др.

Здоровьесозидающая функция характеризуется таким способом реализации всех компонентов обучения, воспитания и развития в их единстве, которая обусловливает здоровьесозидающую деятельность субъектов образовательного процесса, целенаправленно обеспечивающую достижение планируемого уровня здоровья педагогов и учащихся и формирование у них здоровьесозидающей личностной позиции.

Таким образом, здоровьесозидающая функция образования заключается в формировании у субъектов образовательного процесса опыта здоровьесозидающей деятельности и мотивации к активному поиску оптимальных стратегий, направленных на актуализацию своего здоровьесозидающего потенциала и организацию собственного здорового образа жизни.

Следует отметить, что негативные результаты образования можно преодолеть путем формирования у ребенка ответственного отношения к самому себе: к своему телу, душе и разуму на уровне готовности к здоровьесозидающей деятельности. Эта готовность должна складываться из потребности (хочу) быть здоровым; из способности (могу) строить отношения с самим собой и окружающим миром; и решимости (буду) жить по природосообразным законам. Целесообразно переосмыслить учебно-воспитательный процесс с позиции здоровьесозидания. Для этого все педагоги должны владеть технологиями формирования у школьников опыта сохранения, укрепления и приращения здоровья, стать учителями здоровья.

Таким образом, стратегию реализации здоровьесозидающей функции современного образования можно сформулировать следующим образом: от овладения основными навыками образовательной деятельности, через самопознание, смыслотворчество и самосовершенствование – к самоопределению в отношении к здоровью, выработке здоровьесозидающей личностной позиции и освоению индивидуальных технологий оздоровления.

Для понимания семантики категории «здоровье» важно проанализировать различные подходы к феноменологии здоровья человека:

1) понятие «здоровье», как область человеческой культуры, включает в себя в единстве три составляющие:

тело, душу и разум, следовательно, здоровье – это совокупность культуры физической (способности управлять своими движениями, своим телом);

культуры физиологической (способности управлять физиологическими процессами в организме и наращивать их резервную мощность); культуры психической (способности управлять своими ощущениями, чувствами, эмоциями);

культуры интеллектуальной (способности управлять своими мыслями); культуры духовной (способности управлять своей ценностно-смысловой сферой и реализовать жизненные устремления, связанные с духовным самосовершенствованием);

2) здоровье человека – это результат его собственной деятельности;

3) уровень здоровья определяется запасом, объемом жизненных сил человека, путь здоровья – это путь накопления, сохранения и усиления жизненных сил;

4) здоровье – это уровень адаптивных возможностей организма, его способности адекватно реагировать на внешние воздействия и приспосабливаться к возникающим условиям проживания, это

степень устойчивости жизненных сил человека в изменяющихся условиях (экологических, социальных и др.);

5) здоровье каждого человека находится в зависимости от здоровья окружающих его людей;

6) система массового образования является одним из механизмов здоровьетворения ребенка и в целом человечества, ибо почти каждый человек связан с ней всю свою жизнь: когда учится сам, когда учатся его дети и когда учатся его внуки;

7) здоровье есть результат воспитания, а не только лечения, и основным средством научения здоровому образу жизни является образовательная деятельность.

На основе анализа указанных выше подходов выявлена сущностная характеристика здоровья как педагогического феномена, представляющего собой многомерное интегральное личностное образование, в котором отражается уровень культуры отношения личности к окружающему миру во всем многообразии его проявлений, которое детерминируется степенью усилий человека в наращивании своих жизненных сил и обеспечивает формирование устойчивых моделей здоровьесозидающего поведения и деятельности, направленных на гармонизацию его отношений с самим собой, и рассматривается как определяющее условие в формировании готовности субъектов образовательного процесса к здоровьесозидающей деятельности.

Термин «творение» употребляем в значении *«созидание»* и трактуем как *деятельное, процессуальное явление, сопряженное с самоактуализацией и формированием здоровьесозидающей личностной позиции.*

Важными компонентами здоровьесозидающей деятельности являются: саморефлексия (состояния тела, духа и интеллекта); самоцелеполагание (обнаружение нового «Я» самого себя); самопрограммирование (разработка последовательности своих действий по осуществлению себя и поиск ресурсов в себе); самореализация (осуществление процесса выхода на новый образ «Я»).

Учитель может оказать существенное влияние на здоровье учащихся, если в его функции будет входить задача стимулировать детей к здоровью, т.е. умение помогать детям его сохранять, поддерживать, укреплять и наращивать в доступных для них пределах, что является актом человеческой культуры.

В результате поиска эффективных способов преодоления негативного воздействия образовательной деятельности на здоровье учащихся и учителей мы пришли к выводу, что одним из современных средств, обеспечивающим улучшение здоровья учащихся и учителей, является изменение системы взаимоотношений, в которые они вступают в процессе педагогического взаимодействия.

В этой связи при реализации здоровьесозидающей функции образования уделили большее внимание *содержательно-функциональным принципам*, в которых общие и частные методологические принципы конкретизируются в соответствии с его содержательной и функциональной спецификой[3]:

- принцип холистического подхода к здоровью, требующий учета всех его составляющих (физического, психического, духовного, социального здоровья), а также всего многообразия факторов, оказывающих на него влияние, при разработке содержания образования;
- принцип аксиологической направленности, обеспечивающий формирование в процессе образования ценностного отношения к здоровью, т.е. осознание его как индивидуальной, личностной и социальной ценности, и на основе этого – ответственного отношения к нему, которое выражается в признании, что здоровье человека – это его долг перед собой и обществом;
- принцип акцентуализации деятельностного здоровьесозидания, обусловливающий необходимость формирования в процессе образования систематизированных представлений о практических способах здоровьесозидания и готовности к их регулярному использованию в целях формирования здоровьесозидающей личностной позиции;
- принцип единства образования и самодиагностики здоровья, в соответствии с которым образование ориентирует обучающегося на саморегуляцию здоровьесозидательной деятельности;
- принцип резонансного подхода к организации здоровьесозидающей образовательной деятельности, ориентированный на то, что стимулы, релевантные потребностям или ценностям личности, воспринимаются правильнее и быстрее, чем не соответствующие им;
- принципы здоровьесозидающего мышления, определяющие конструктивно-позитивное отношение человека к миру, обеспечение здоровьесозидающей личностной позиции (принцип самодеятельности; принцип последовательности; принцип взаимозависимости; принцип автономности; принцип взаимообусловленности; принцип постепенности и систематичности);

• принципы здоровьесозидающего поведения, дающие возможность человеку чувствовать себя комфортно в реальности, живя в гармонии и согласии с разными людьми и миром в целом (принцип взаимообозрения; принцип одобрения; принцип согласия; принцип позитивной речевой установки; принцип личностного обращения; принцип взаиморазвития; принцип безусловной любви).

Здоровьесозидающий потенциал – это совокупность условий для поддержания и укрепления личностью, человеком как субъектом собственного целостного здоровья. К *внутренним условиям* здоровьесозидающего потенциала можно отнести:

а) физические (физиологические) факторы, такие как наследственность и существующий уровень эффективности функционирования организма;

б) психологические компоненты – знания, мотивация и стремления, установки субъекта в области здоровья.

Внешние условия включают в себя социокультурные факторы, которые также можно разделить на две подгруппы:

а) факторы материальной среды (воздействия или условия для укрепления здоровья: спортивные сооружения и пр.);

б) общественная идеология, ориентированная здоровьесозидательно, нейтрально или даже негативно по отношению к здоровью.

В соответствии здоровьесозидающей функции образования, в основе которой лежат принципы здоровьетворящего образования, можно констатировать, что установка на здоровье не появляется у человека сама собой, а формируется в результате определенного педагогического воздействия, поэтому в структуре здоровьесозидающего обеспечения жизнедеятельности особое значение приобретает воспитательный компонент, сущность которого состоит в «обучении здоровью с самого раннего возраста». В этой связи вести детей по пути здоровья должен тот, кто, *во-первых,* понимает, что такое здоровье; *во-вторых,* сам, на собственном примере демонстрирует деятельность, имеющую здоровьесозидающую направленность; *в-третьих,* сможет помочь ребенку строить свою собственную, соответствующую его индивидуальности, траекторию здорового образа жизни. Такой личностью, способной взять на себя ответственность за формирование у детей готовности к здоровьесозидающей деятельности, может стать педагог, при условии организации необходимого профессионального совершенствования.

Необходимость формирования у учителей здоровьесозидающей личностной позиции обусловливается также низким уровнем их собственного здоровья. Поэтому ведущей целью профессионально-педагогической подготовки студентов, а также аналогичной переподготовки работающих учителей является формирование у них культуры здоровья, которая может выступать в качестве инструмента управления их собственным здоровьем и здоровьем своих воспитанников.

Достижение данной цели обеспечивается в процессе решения трех фундаментальных задач:

1) овладения культурным наследием человечества в области здоровья;

2) распредмечивания этого опыта как условия укрепления собственного здоровья;

3) практического овладения способами организации здоровьетворящего образования в современной школе как условия сохранения, поддержания, укрепления и приращения здоровья учащихся.

Названная функция образования предусматривает максимально возможную в современных условиях организацию здоровьесозидающего педагогического процесса в школе, содержанием которой является, *во-первых,* введение в учебный план всех ступеней школы элективного курса “Здоровье человека”, направленного на реализацию здоровьесозидающей функции образования, то есть на формирование у школьников культуры отношения к своему здоровью как условию их полноценной самореализации в жизнедеятельности, и, *во-вторых,* реализация системы мер, способствующих актуализации здоровьесозидающего потенциала у детей и учителей на каждом уроке и обеспечивающих здоровьесозидающий характер их деятельности.

2. Реализация здоровьесозидающей функции образования возможна при построении системы здоровьетворящего образования, в условиях современной общеобразовательной школы организация здоровьетворящего образования должна осуществляется на основе:

1) принятия всеми субъектами образовательного процесса (учителями, учащимися, а также родителями учащихся) здоровья как приоритетной ценности человеческой жизни;

2) формирования у учащихся и учителей компетентности в вопросах формирования здоровьесозидающей личностной позиции;

3) включения учащихся и учителей в активную здоровьесозидающую деятельность в учебное и внеучебное время;

4) развития здоровьесозидающего потенциала у учащихся и учителей;

5) внедрения в образовательный процесс педагогических технологий, обеспечивающих сохранение, укрепление, формирование и приращение здоровья его субъектов;

6) организации образовательного процесса на основе реализации принципов здоровьетворящего образования;

7) включения субъектов образовательного процесса в рефлексивную деятельность, обеспечивающую возможность управления здоровьем как личностным ресурсом.

На основании изучения проблемы можно сделать следующие выводы:

1. Сущность здоровьесозидающей функции образования заключается в следующем:

– в разработке содержательно-процессуальных основ формирования здоровьесозидающей личностной позиции субъектов образовательного процесса;

– в выявлении психолого-педагогических детерминант, оказывающих влияние на мотивационно-ценностное отношение к здоровью у субъектов педагогического процесса;

– в определении показателей сформированности культуры здоровья субъектов педагогического процесса, их готовности к здоровьесозидающей деятельности и выраженности у них здоровьесозидающей личностной позиции.

Литература

1. Маджуга *А.Г.* Здоровьетворящее образование. – Уфа: РИО РУМНЦ, 2008. – 389 с.

2. Исабаева М.М. Теоретические основы формирования навыков здорового образа жизни у учащихся //Современные инновации Международная научно-практическая конференция “Современные инновации в эпоху глобализации:теория, методология, практика”. -Москва, 2016. №9. С.16-20.

3. Николаева И.С. Формирование здорового образа жизни на уроках биологии. https://nsportal.ru/shkola/biologiya/library/2013/06/13.

4. Чумаков Б. Н. Основы здорового образа жизни. –Москва: “Педагогическое общество России”, 2004 г.

Bog'dagul QARSHIYEVA
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

TURLI MAMLAKATLARDA BILINGUAL TA'LIM BERISH VA ULAR O'RTASIDAGI FARQLAR (O'ZBEKISTON, ROSSIYA, GERMANIYA MISOLIDA)

Ushbu maqolada turli davlatlarda (O'zbekiston, Rossiya, Germaniya davlatlari misolida) bilingual, ya'ni ikki tilli ta'lim muhokama qilingan. Ko'rib chiqilgan davlatlarda bilingual ta'limning turlari, kamchiliklari tahlil qilingan. Maqolada yetakchi davlatlarning ilg'or tajribasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: *ikki tilli ta'lim, immigrant oilalar, madaniy va lingvistik ma'lumotlar, metasubjective natija.*

В данной статье обсуждалось двуязычное, то есть двуязычное образование в разных странах (на примере Узбекистана, России, Германии). Проанализированы виды, недостатки двуязычного образования в рассматриваемых государствах. В статье изучен передовой опыт ведущих стран.

Ключевые слова: *двуязычное образование, семьи иммигрантов, культурно-лингвистическая информация, метасубъективный результат.*

This article discusses bilingual, that is, bilingual education in different countries (on the example of the countries of Uzbekistan, Russia, Germany). The types, disadvantages of bilingual education in the reviewed states were analyzed. The article examines the advanced experience of the leading countries.

Key words: *bilingual education, immigrant families, cultural and linguistic data, metasubjective outcome.*

Kirish. XXI asrga kelib butun dunyodagi odamlarning 70% dan ortig'i ikki yoki undan ortiq tilni bilishadi. Ushbu hodisalar bizning jamiyatimizda odatiy holga aylandi. Bugungi jamiyatda ommaviy axborot vositalari yaxshi rivojlangan, deyarli har bir kishi internet-resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega va turli tillarda ma'lumot olishlari mumkin. Ikki tilli bolalar bog'chalarida va turli mamlakatlardagi maktablarda juda kichik bolalar uchun ham ikkinchi tilni o'rganishning ko'plab usullari mavjud. Ushbu maqola ikki tilli ta'lim to'g'risida bayon qilishga harakat qilingan. Bizning mamlakatimizda ikki tilli tillarni o'qitish usullari har xil, ammo maqsadi bitta - bolalar ko'nikmalarini rivojlantirish va ikkinchi tilda fikrlash qobiliyatini o'stirish, bolaning ona tilini qo'llab-quvvatlash. O'zbekiston ta'lim tashkilotlari o'quvchilari kamida bitta chet tilini o'rganadilar, ammo ikki tilli maktablar va bolalar bog'chalarida bolalar bir vaqtning o'zida yangi lingvistik va ijtimoiy-madaniy muhitga moslashishlari uchun barcha o'quv jarayoni ikkala tilda olib boriladi.

Asosiy qism. Ta'lim tashkilotlarimizda o'quvchilar, odatda, ikkita chet tilini o'rganadilar va o'quv jarayoni faqat o'zbek tilida olib boriladi. Ikki tilli maktablar sonining ko'payishi, boshqa madaniy va lingvistik ma'lumotlarga ega bo'lgan muhojir oilalar farzandlari sonining ko'payishi bilan ham bog'liq va davlat bunday oilalarning farzandlariga ikki tilli maktabda o'qish imkoniyatini beradi. Darslar ikki tilda – o'zbek va ularning ona tillarida olib boriladi.

Ikki tilli ta'lim - bu o'quvchining yoki o'quvchilar guruhining bir qismida yoki butun o'quv jarayonida ikki tildan foydalanishdir. Ikki tilli ta'limning har xil turlari mavjud. Ulardan biri bitta fanni ikkala tilda takroriy o'qitishni talab qiladi: masalan, ertalab rus tilida tarix, tushdan keyin esa ona tilida tarix. Boshqa bir turi barcha fanlarni bir kun tilda, keyingi kun boshqa tilda o'qitishni talab qiladi. Uchinchi tur, sinxron tarjima, agar o'quvchilar materialni tushunishda muammolarga duch kelsa, bitta mavzuni ikkala tilda o'qitishni, xatboshiga yoki so'zma-so'z tarjima qilishni talab qiladi. Shuningdek, ayrim fanlarni bir tilda, boshqasini boshqa tilda o'qitish kerak degan fikr mavjud [1].

Ko'pgina olimlarning ta'kidlashicha, tillar alohida ishlatilishi kerak, aks holda bolalar tillardagi so'z birikmalarini chalkashtirib, ularni bexosdan aralashtirib yuborishadi [2].

Odatda bu muhojir oilalarida ota-onalar o'z farzandlari bilan birgalikda yangi tilni o'rganishda, masalan, nemis tilida gapirishga harakat qilishadi, ammo uni yetarlicha yaxshi bilishmaydi va o'z ona tillaridan so'zlarni qo'shishadi. Bolalarga ikki tilni ajratib olish qiyin bo'lishi mumkin va ular ota-onalari singari ularni aralashtirib yuborishlari mumkin. Shunday qilib, menimcha, bunday oilalardagi ota-onalar ikki tilli bolani qanday tarbiyalashni va ikki tilli ta'limning asosiy xususiyatlari va "qoidalari" nima ekanligini bilishlari kerak. Ikkinchisini o'rganishdan oldin bolaning birinchi tili yaxshi shakllangan bo'lsa, bu ham yaxshi bo'ladi, chunki majburiy erta o'rganish holatida bolalar og'zaki tilda turli xil xatolarga yo'l qo'yishadi [3].

Til ta'limi va ikki tilli ta'lim o'rtasidagi farqlar nimada? Avvalo, ular turli maqsadlarga ega. Til ta'limining maqsadi tilni ma'lum darajada o'zlashtirishdir va ikki tilli ta'lim maqsadi ma'lum etnolingvistik madaniyat doirasida o'zini namoyon qilishdir. Til ta'limining asosiy vazifalari - bu tilni o'rganish va boshqa

madaniyat bilan tanishish, ikki tilli ta'limning vazifalari - ikki madaniyatning o‘zaro aloqasi bilan ikki tilda o‘rganish va o‘zini anglash. Til ta'limidagi til - bu shunchaki o‘rganish mavzusi, ikki tilli tilda esa bu ta'lim va o‘zini namoyon qilish vositasidir. Ikki tilli ta'lim sharoitida bola har ikki tilning o‘zaro bog'liqligi orqali predmetli bilimlarni oladi [4].

S.Gudschinskiy ikki tilli o‘quvchiga ta'lim berishning pedagogik, ijtimoiy va psixologik sabablarini keltiradi. Pedagogik sabablarga o‘quvchining o‘qish va yozish ko‘nikmalarini ikkinchi tilga o‘tkazishini kutib, o‘rganishda birinchi tilda ravonlikdan foydalanish, qanday yozish va o‘qish kerakligi kiradi.

Psixologik va ijtimoiy sabablar orasida o‘quvchilar uchun madaniyat zarbasini minimallashtirish (chet tili va turli madaniyat qadriyatlari bilan tanish bo‘lmagan maktab muhiti), shaxsiy qadr-qimmatini barqarorlashtirish va muvaffaqiyatga erishish odatini shakllantirish kiradi [5].

Til – bu ijtimoiy hodisa. O‘zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan har bir xalqning ona tili uning milliy o‘ziga xosligi va ma'naviy madaniyatining yorqin ko‘rsatkichidir.

Ko‘p yillik amaliyot shuni ko‘rsatdiki, bolalikda bilingvizm (ikki tillilik) bola hayotida har bir tilning tutgan o‘rniga, uning ikki tillilikdan qaysi vaziyatlarda va qay darajada foydalanishiga bog‘liq holda shakllanadi. Maktabgacha yoshda ikki tillilik shakllanishining quyidagi o‘ziga xos holatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- bola tug‘ilgan paytidan boshlab ikki tilli oilada bir tildan o‘zga tilga o‘tib muomala qilish sharoitida tarbiyalanadi;
- bola oilada ona tilida so‘zlashadi, undan tashqarida esa (qo‘shnilar, qarindoshlar va boshqa shaxslar bilan) o‘zga tilni o‘zlashtiradi;
- bola o‘zga tilni aniq maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarda va ulardan tashqari vaqtlarda maktabgacha ta'lim muassasasida egallaydi.

Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar ko‘p millatli bo‘lib, ular asosan: o‘zbek, rus, tojik, koreys, tatar, arman va boshqa millatlarga mansub.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zga tilni (o‘zbek, rus va boshq.) egallab olishlari va shu bilan birga ona tilini ham unutmasliklari uchun sharoit yaratishga ommaviy intilish pedagogik jarayonni oqilona tashkil etish bilan uyg‘unlikda olib borilishi lozim.

Psixolingvistik adabiyotlarda yozilishicha, haqiqiy ikki tillilik faqat odam hech bo‘lmaganda bitta tilda har qanday fikrni mos tarzda ifodalashga qodir bo‘lgan taqdirdagina rivojlanadi. Agarda nutq bironta tilda ham to‘laqonli shakllanmagan bo‘lsa, bu holda fikr tuzilmasi buzilib ketadi va o‘z fikrini ifodalashga bo‘lgan intilish muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, bu esa nafaqat psixologik ezilishlarga, balki muloqot sifatidagi chuqur yo‘qotishlarga va inson shaxsiga ziyon yetishiga olib keladi. Yarim tillilik deb ataladigan bunday hodisa, umuman olganda, jamiyat uchun ham ancha xavflidir, chunki bunda uning a'zolarining muayyan qismi hissiyotlarini boshqara olmaydi hamda o‘z hissiyotlari, ehtiyojlari, istak-xohishlarini tegishli tarzda so‘z shakliga keltira olmaydi. Agarda inson xohlagan narsasini ayta olmasa, u boshqalar bilan teng ravishda raqobatlashishga, kommunikatsiyaning odatdagi shakllaridan foydalanishga qodir bo‘lmay qoladi hamda u o‘z-o‘zini boshqarishning qandaydir boshqa shakllariga murojaat qilishga, ba'zan esa zo‘ravonlik qilish, kuch ishlatishga majbur bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda, ilk yoshdan boshlab individning nutqiy rivojlanishini tuzatishni to‘g‘ri tashkil etish zarurdir. “Ilk start” ona tilini qabul qilishga va keyinchalik har qanday boshqa tilni o‘zlashtirib olishga ham ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. “Til qanchalik oldin egallab olinsa, bilimlar ham shunchalik oson va to‘liqroq o‘zlashtiriladi” [6].

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Qarori qabul qilingandan so‘ng, chet tillarini o‘rganish va o‘rgatish tizimida yangi davr boshlandi desak mubolag'a bo‘lmaydi. Chunki, qarorga ko‘ra:

- xorijiy tillar (ingliz, nemis, fransuz) o‘rgatishning yagona tizimi ishlab chiqildi;
- chet tillarni 1-sinfdan o‘qitish yo‘lga qo‘yildi;
- til o‘qitish borasidagi muqobil darsliklar chiqarilishi yo‘lga qo‘yildi;
- adabiyotlar tarjimasi faoliyati yanada takomillashtirilmoqda;
- respublikamizning barcha chet tili o‘qituvchilarining malakasi oshirilishi tashkillandi.

Bularning barchasi dunyoga yuz tutayotgan O‘zbekistonning farzandlari yanada bilimli va dunyoqarashi keng bo‘lishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Birinchi Prezidentimiz nutqlaridan birida shunday deydi: “Hozirgi kunda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir.”

Shuningdek, bu borada respublikamizda yana ko‘plab ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi hamda Britaniya Kengasi bilan hamkorlikda “Chet tillarni egallashning umumyevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish va baholash” (CEFR) shartlariga tayangan holda ishlab chiqilib, unda ta’limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablar belgilandi. Shuningdek, angliyalik ekspert Rod Balayto boshchiligidagi mutaxassislar tomonidan to‘liq ekspertizadan o‘tkazilib, takomillashtirildi hamda 2013-yil 8-mayda “Uzluksiz ta’lim tizimining chet tillar bo‘yicha davlat ta’lim standartini tasdiqlash to‘g’risida”gi 124-sonli Qarori bilan tasdiqlandi.

O‘zbekistonda xorijiy til sifatida ingliz tilining o‘qitlishini kuzatadigan bo‘lsak, ingliz tili darslarida o‘qituvchi oldiga 3 ta: ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni qo‘yganligini ko‘ramiz. Agar mavzu: “My motherland” deb olsak, ta’limiy jihati, olmoshlar ya’ni pronouns va ularning turlari, ishlatilishini, atoqli otlar va ular haqida ma’lumot berishimiz, tarbiyaviy tamoni o‘quvchilarda vatanparvarlik hissini shakllantirishimiz, rivojlantiruvchi yurtimiz tarixi, allomalari, madaniyati haqida hikoyalar qilib berishimiz mumkin. O‘quvchilar barcha ma’lumotlarni ingliz tilida gapira olish ko‘nikmasi yoki grammatika saboqlaridan tashqari milliy ruhiyatni ham o‘zlarida his etadilar [7].

Mamlakatimizdagi bo‘lgani kabi chet tili faqat dars doirasi bilan cheklangan tizimlarda til muhitida muloqot qilish imkoniyatining vaqti va til qanchalik sur’atda o‘qitilayotgani jiddiy ahamiyatga ega. Tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish va so‘z boyligini egallash bilimlarini olish uchun va ushbu barcha ko‘nikma-malakalarni chet tilida akademik nuqtayi nazardan to‘g‘ri va benuqson qo‘llay bilish uchun 5-7 yil mobaynida darslar muntazam va samarali o‘tkazilishini nazarda tutadigan o‘quv dasturi bo‘lishi lozim. Bunday nuqtayi nazardan fikrlaydigan bo‘lsak, 2, 3 va 4-sinflarda bir haftada o‘tiladigan chet tillari darslari yetarli emas. Tabiiy jihatdan ham yozma, ham og‘zaki muloqot vositasi bo‘lgan til o‘qitish davomiylikni taqozo qiladi. 7-8 yoshli boshlang‘ich sinf o‘quvchisining haftasiga atigi 4-5 soat muloqot qilish imkoni bo‘lgan va o‘z atrof muhitida qo‘llashning imkoni bo‘lmagan begona til tizimini o‘zlashtira olishi mumkin emas.

Muhokamalar va natijalar. Chet tillarni o‘rganishning dastlabki bosqichlarida o‘quvchilarning ona tillarining xususiyatlari ta’siri kuzatilishi mumkin. Shuningdek, til o‘rganishda ko‘plab tilning ko‘p jihatlari sekin rivojlanadi. Tilda ba’zi xossa va jihatlar ertaroq, ba’zilari esa keyinroq o‘rganiladi. Ba’zan tillar orasidagi farqlardan kelib chiqqanligi uchun sodda ko‘ringan ko‘p jihatlarni o‘zlashtirishga uzoq vaqt sarflanadi. Agar o‘quvchida tilning qo‘llanilishini eshitish va o‘zi qo‘llash uchun imkoniyat topa olmasa, uning til o‘rganishida ijobiy rivojlanishga erishib bo‘lmaydi va qisqa vaqt ichida allaqachon o‘rgangan narsalarini yoddan chiqarib yuboradi.

Yevropa Ittifoqi o‘z tillarini o‘qitish sohasida ko‘p tillilikni asosiy maqsad qilib qo‘ydi: har bir Yevropa fuqarosi kamida ikkita chet tilini bilishi kerak, ulardan bittasida u ravon so‘zlashi kerak.

Germaniyadagi migrant bolalar uchun ikki tilli maktablarda nemis tili amaliy kursining maqsadi ularni maktab mikromuhitiga, so‘ngra nemis tilida so‘zlashadigan madaniy muhitga kiritishdir, chunki tilni o‘qitishda biz madaniyatni ham o‘rgatamiz.

Nemis ikki tilli maktablarida dars beradigan o‘qituvchilar ona tilini o‘rganishda ona tilini bilishga tayanish yaxshiroq va ikki tilni taqqoslash qimmatli va foydalidir, deb hisoblashadi, chunki ko‘plab faktlar yaxshi qabul qilinadi va o‘zlashtiriladi. Ona tilini bilishni hisobga olgan holda ona tilini o‘rganish chet tili qonunlari va uning milliy o‘ziga xosligini tezroq tushunishga yordam beradi. Ko‘pgina nemis ikki tilli maktablari o‘z o‘quvchilariga shunday yo‘l berishadi [8].

Ikki tilli ta’limdagi ona tili va chet tillarining nisbati o‘qituvchi, o‘quvchi va sharoitga qarab o‘zgarishi mumkin. Shunga qaramay, ba’zi hollarda u tartibga solinadi. Masalan, Xitoy Ta’lim departamenti reglamentiga binoan ikki tilli ta’lim chet ellik haqiqiy darsliklardan foydalangan holda olib borilishi va o‘quv yuklamasining 50% dan ortig’i chet tilida bajarilishi kerak.

Rus tilidagi ikki tilli maktablarning barcha modellarida fanlar rus tilida yoki ona tilida o‘qitiladi. Ba’zi maktablarda mintaqadagi o‘qitish an’analariga qarab ona tilidan rus tiliga sinxron tarjima usuli qo‘llaniladi. Bu, asosan ikkala tilni biladigan o‘qituvchilar bor yoki yo‘qligiga bog’liq [9].

Rossiya Federatsiyasida bir necha turdagi milliy ikki tilli maktablar mavjud. Ular:

1. Darslar ona tilida 1-sinfdan 11-sinfgacha o‘tkaziladi (masalan, Tatariston Respublikasi, Boshqirdiston, Saxa (Yakutiya), Qrim).

2. Darslar 9-sinfgacha ona tilida, yuqori sinflarda - rus tilida olib boriladi (masalan, Buryatiya, Chuvashiya, Xakasiya Respublikalaridagi qishloq maktablari).

3. Sinflar 5-sinfgacha ona tilida, so‘ngra rus tilida (masalan, Adigeya Respublikasi, Udmurtiya, Shimoliy Osetiya-Alaniya, Mari El) o‘tkaziladi.

4. 1-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan sinflarda ta’lim rus tilida, lekin ona tili darslari mavjud (masalan, Dog’iston Respublikasi, Chechenistоn Respublikasi).

5. Ta’lim jarayoni etnik an’analarga asoslangan (masalan, Yamalo - Nenets, Xanti - Mansiysk tumanlari, Kamchatka viloyati) [10].

Germaniyada 16 federal okrugda ham farqlar mavjud, ularning har biri o‘z maktab tizimiga ega:

1. Meklenburg-Vorpommern: ikki tilli tizimda umuman qatnashmaydi (hozirgacha).

2. Bremenlar: umumiy o‘quv dasturidagi fanlar ikki tilli darslar uchun yetarli vaqtni ta’minlash uchun qisqartiriladi (moliyaviy holatga bog’liq holda).

3. Quyi Saksoniya: ko‘proq darslar o‘tkazish imkoniyati mavjud.

Rus tilidagi ikki tilli ta’limda “metasubjective” yondashuvni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega, bu til materialini anglash va o‘quvchilarning bilim qobiliyatini rivojlantirish uchun mas’uldir. Ikki tilli bolaning rus tili darslarida egallashi kerak bo‘lgan asosiy fazilatlar - bu asosiy fikrni ifoda etish, olingan ma’lumotlarni qisqacha yoki keng ifoda etish, o‘xshashlik va farqlarni topish qobiliyatidir. Shuning uchun, ikki tilli bolalar diagnostikasi “funksional” rus tilini o‘rganishi kerak [11].

Ta’lim natijalari uchta yo‘nalishda baholanadi: subyektiv, metasubyektiv va shaxsiy. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ikki tilli odamlar uchun eng muhimi metasubjective natijalaridir. Ta’lim jarayoni o‘tkaziladigan til (masalan, rus tili) metasubject hisoblanadi. Ikki tilli bolani o‘rganishning dastlabki bosqichida nafaqat rus tili, matematika va boshqa mavzular bo‘yicha bilimlarni, balki og’zaki va kommunikativ metasubjective harakatlarni ham o‘zlashtirishi kerak.

Shaxsiy natijalarga erishish bu ikki til va ikki madaniyatni rivojlantirishdir. Buning uchun ikki tilli bolalarda madaniy va madaniyatlararo (lingvokulturallik asosida) kompetensiyani shakllantirish zarur [12].

E. Xamrayeva ta’limning kognitiv va rivojlantiruvchi vazifalarini hal qilishga hissa qo‘shadigan chet tili sifatida rus tilini o‘qitishda quyidagi asosiy umumiy didaktik va uslubiy prinsiplarni aniqlaydi:

- og’zaki faoliyat prinsipi (barcha nutq materiallari kommunikativ ahamiyatga ega bo‘lishi kerak, ona tilida so‘zlashuvchilar muloqotda faol foydalanishi kerak);
- individualizatsiya prinsipi (masofaviy o‘qitishda ishlatiladigan tilni o‘rganish motivatsiyasini yaratish vositasi);
- funksionallik prinsipi (nutq faoliyatining barcha turlari (gapirish, o‘qish, tinglash, yozish) aloqa vositasi sifatida ishlatiladi, o‘quv maqsadlari sifatida nutq funksiyalarining to‘liq ro‘yxati mavjud);
- situatsionlik prinsipi (vaziyat chet tilida muloqot qilishni o‘rganish jarayonini tashkil etishning asosiy elementi);
- yangilik prinsipi (chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni saqlab qolish, avtomatik uzatishga qodir nutq qobiliyatlarini shakllantirish, fikrlashning kommunikativ funksiyasini rivojlantirish).

Bunday ta’lim natijalariga ko‘p madaniyatli ta’lim, shakllangan madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya va vaziyatga qarab uni qo‘llash qobiliyati kiradi.

Ikki va ko‘p madaniyatli ta’limda quyidagi maqsadlar mavjud:

- o‘quvchi millati madaniyatini puxta o‘rganish (keyinchalik boshqa madaniyatlar bilan tanishish);
- bolaning madaniy farqlarga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish;
- turli madaniyat vakillari bilan o‘zaro aloqalar ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- boshqa madaniyatlarni o‘rganish uchun sharoit yaratish.

Xorijiy til o‘rganishning tabiiy va sun’iy holatlari mavjud bo‘lib, birinchi holatda til o‘rganuvchi tili o‘rganilayotgan mamlakatda shu tilda so‘zlashuvchilar bilan muloqotga kirishgan holatda ko‘nikma hosil qilish orqali chet tilini o‘rgansa, ikkinchi holatda sun’iy yaratilgan sferada ya’ni chet tili darsida o‘rganishi mumkin. Tabiiyki, ayni sotsiolingvistik muammolar ikkinchi holatda ko‘proq yuzaga kelishi kuzatiladi. Chunki chet el va chet tilini tanishtiruvchi sifatida faqat xorijiy til o‘qituvchisi turadi, bu esa chegaralangan va bir tizimdagi nutqni hosil qiladi. Dars mobaynida standart til materiallaridan foydalaniladi, buning natijasida esa, o‘quvchi yoki o‘quvchida monotalaffuz va leksika paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham ular nutqiga ta’sirlar ko‘p uchraydi. Chet el filmlari yoki qo‘shiqlaridagi ba’zi bir iboralar yoki slenglar, global tizimdagi yangicha ko‘rinishdagi so‘zlashish uslublari ular uchun notanish bo‘lsada, qiziqarli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Aynan o‘smir o‘quvchilardagi dunyoni anglashga bo‘lgan intilish va qiziqish bunga sabab bo‘ladi. Tabiiyki, o‘zlari ko‘nikma hosil qilmagan so‘zlashuv uslubi yoki so‘z, iboralardan foydalanishda yoki leksik, yoki fonetik xatoliklarga yo‘l qo‘yishlari mumkin. Buning oldini olish uchun esa, o‘quvchilar nutqiga bo‘lgan ta’sirlarni o‘rganib chiqish va ularni to‘g’ri yo‘naltirish kerak.

Nemis ikki tilli bolalar bog’chalari faoliyatining asosiy prinsipi - bolalarning o‘z ona tili va o‘zlashtirilgan tillarida bir vaqtning o‘zida va teng huquqliligi, shuningdek, ikkita madaniyatda tarbiya va ta’lim olish. Bola til bilan birga boshqa millatdagi tengdoshlari tug’ilgan mamlakatning yangi madaniyatini tushunadi. Bunday maktabgacha tarbiya muassasalari guruhida ikkita tarbiyachi bor, ularning har biri o‘z

tilida so‘zlashadigan, ikkinchi tilni yaxshi biladigan kadrlar bo‘ladi. Bir vaqtning o‘zida ikkita o‘qituvchi bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan bola, kattalar va boshqa tilda gaplashadigan bolalar bilan kommunikativ jarayonga tabiiy ravishda qo‘shiladi.

Xalqaro amaliyotlar va almashinuvlar o‘quvchilarni ikki tilli ta’limga undashga xizmat qiladi. Kerakli holat - bu guruhlardagi o‘quvchilarning kamligi va o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘quv dasturlarining moslashuvchanligi. Imtihon bahosini qo‘yishda choraklikdagi ishni hisobga olish kerak, bu imtihondan o‘tish muammosining keskinligini yo‘q qiladi. Ikki tilli ta’lim sifatini obyektiv baholash tizimi ishlab chiqilishi kerak. Fikr-mulohazalar o‘quvchilarning doimiy so‘rovnomalari orqali ta’minlanishi kerak.

Ko‘rib chiqilgan ishlar natijasida, turli rivojlangan mamlakatlarda ikki tilli ta’lim dasturlarini amalga oshirish tajribasini umumlashtirib, biz quyidagicha **asosiy tashkiliy va pedagogik shartlarni** sarhisob qilamiz. Bunga quyidagilar kiradi:

1) o‘quvchilarni ikki tilli ta’limga turtki bo‘lishi;

2) chet tilini bilish darajasiga ko‘ra guruhlarning bir xilligi;

3) ikki tilli ta’limni o‘quv dasturlariga izchil kiritish;

4) o‘quv-uslubiy majmualarning, shu jumladan, mahalliy maktablarda o‘qituvchilari tomonidan yaratilgan ikki tilli o‘quv materiallari va haqiqiy xorijiy til materiallari, shu jumladan multimedia tashuvchilarda mavjudligi;

5) kasbiy sohada chet tili kommunikativ kompetensiyasining tarkibiy qismlarini shakllantirish darajasini ko‘p darajali nazorat qilish va baholashni amalga oshirish.

Xulosa. Shunday qilib, Rossiyada ham, Germaniyada ham O‘zbekistonga nisbatan ko‘plab millatlar mavjud va madaniyatlararo aloqa uchun O‘zbekistonda hamma uchun o‘zbek tilini, Rossiyada hamma uchun rus tilini va Germaniyada esa hamma uchun nemis tilini bilish juda muhim. Hali ham ruslar o‘sha yerda yashovchilarning ona tili bo‘lmagan hududlar mavjud. Bu odamlar milliy-ruscha ikki tilli vakillarni anglatadi va ular uchun sifatli ikki tilli ta’lim berish muhimdir. Va agar biron bir mamlakat ozchiliklarning tillariga ega bo‘lganlarga o‘z tillarida yozishni, o‘qishni va gapirishni o‘rgatmasa, ular o‘zlarining til qobiliyatlarini yo‘qotadilar va hatto bu holda butun bir til yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Rossiya Federatsiyasida rus tili davlat tili bo‘lsa-da va o‘quv jarayoni butun mamlakat bo‘ylab davlat tilida olib borilsa-da, Rossiyadagi boshqa tillarni ham unutmaslik kerak. Germaniyada nemis tilini davlat tili sifatida saqlab qolish va immigrant oilalar farzandlariga nemis tilini o‘rganish va shu bilan birga o‘z ona tili va madaniyatini unutmasliklari uchun ikki tilli ta’lim berish muhimdir. Shu sababli, ko‘p millatli ushbu yirik davlatlarda ikki tilli ta’lim juda muhimdir.

Ta’lim jarayonini tashkil etishda quyidagi didaktik prinsiplardan foydalangan holda qayd etilgan ba’zi qiyinchiliklarni bartaraf etish mumkin: ikki tilli ta’limni o‘quv dasturlariga izchil kiritish - sodda fanlardan murakkab murakkab fanlarga; tillarni bilish darajasi bo‘yicha o‘quv guruhlarining bir xilligi; til materialining haqiqiyligi; o‘quv vazifalarining kasbiy manfaatlarga muvofiqligi; o‘quvchilarning matnlar va mashg’ulotlarga qiziqishini ta’minlash; munozaralar, jamoaviy tadbirlar va prezentatsiyalar yaratish orqali muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish. Har qanday davlatda bo‘lishidan qat’iy nazar, ikki tilli ta’lim sifatini obyektiv baholash tizimi ishlab chiqilishi kerak.

Adabiyotlar

1. Ulrike Halsband Bilingual and multilingual language processing. // Journal of Physiology Paris - Paris 99 (2006) 355–369
2. Hamraeva E. Ikki tilli bolalarga rus tilini o‘qitishning ontinguistika jihati. –Moskva, 2016.
3. Aldoshina M. Ko‘p madaniyatli ta’lim asoslari. – “Direct-Media” nashriyoti, 2014.
4. Batens Beardsmore, H. Bilingual ta’limning Yevropa modellari. -Angliya: “Klivdon”, 1993.
5. Beyker, C. Ikki tilli va bilingual ta’limning asosiy masalalari. -Angliya: “Klivdon”, 1949.
6. Жинкин Н.И. Язык - речь - творчество. Избранные труды. -М.: “Лабиринт”, 1998. - 365 с.
7. G’ulomova R.R. Akademik litsey talabalarining ingliz tili darslarida sotsiolingvistik kompetensiyalarini shakllantirish metodlari. Magistr akademik ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.
8. Blyagoz Z. Bilingualizm nazariya va amaliyotda. –Maykop: “Agu”, 2014.
9. Zur V. Methodik des Unterrichts ikki tilli Tsvaygen. Zeitschrift fuer Fremdsprahforschung, 1992. 3 1/92, 8-30
10. Christ I. Bilingualitaet in der Schule. Notwendigkeit im Europa der Zukunft? Grensoverschrijdend talenoderwijs, № 1, Gyote-Institut, 1992.

11. D. Koen, A. Ikki tilli ta’limning sotsiolingvistik yondashuvi. -Rouli, Mass: “Newbury House”, 1975.

12. Derbisheva Z. Qirg’izistondagi til holati sharoitida ikki tilli va ko‘p tilli ta’lim. -Bishkek. Vestnik RUDN, bir qator ta’lim masalalari: tillar va mutaxassislik, № 5, 2015-yil.

13. Gudschinsky S. Yozilmagan tilni qanday o‘rganish kerak. Nyu-York: “Xolt, Raynxart va Uinston”, 2012.

14. Hamidullina I. (2016) Rossiya va chet eldagi maktablarda ikki tilli ta’lim. -Qozon Federal universiteti.

15. Hamrayeva E. (2017) Rus tili ikki tilli bolalarni o‘qitish nazariyasi va metodikasi. –Peterburg: Gertsen nomli RGPU nashriyoti.

16. Kudryavtseva E. Ko‘p madaniyatli va hayot davomida ikki tilli ta’lim asoslari. –Moskva, 2016.

17. Ostapova Z. Komi respublikasi bolalar bog’chalarida tilga cho‘mish texnologiyasidan foydalanish tajribasi. –Syktyvkar, 2016.

18. Schukin A. Chet til sifatida rus tilini o‘qitish metodikasi. –Moskva, 2003.

19. Wode H., Burmeister P. Erfahrungen aus der Praxis bilingualen Unterrichts. Heft 2. -Universitet Kiel, 1991.

Bahodirjon SHERMUXAMMEDOV
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
kasb ta'limi kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari doktori

YOSHLARGA G'OYAVIY TARBIYA BERISHNING MOHIYATI VA VAZIFALARI

Maqola uzluksiz ta'lim tizimida, mahallalar, korxonalar, shuningdek, uyushmagan yoshlarning faoliyatlarida yoshlarga g'oyaviy tarbiya berishning mohiyati va vazifalariga bag'ishlangan dolzarb masalalarni qamrab oladi. Muallif g'oyaviy tarbiya jarayonini tashkil etish bo'yicha o'z taklif va mulohazalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar: *g'oya, ma'naviyat, e'tiqod, dunyoqarash, dahldorlik, ilm, bilim, ijtimoiy faollik.*

В статье освещаются актуальные вопросы, связанные с сущностью и задачами идеологического воспитания молодежи в системе непрерывного образования, сообществ, предприятий, а также с деятельностью неорганизованной молодежи. Автор дает свои предложения и комментарии по процессу идеологического воспитания.

Ключевые слова: *идея, духовность, вера, мировоззрение, вовлеченность, наука, знания, образование, воспитание, социальная активность.*

The article covers topical issues related to the essence and tasks of ideological education of young people in the system of continuing education, communities, enterprises, as well as the activities of unorganized youth. The author gives his suggestions and comments on the process of ideological education.

Key words: *idea, spirituality, belief, worldview, involvement, science, knowledge, education, upbringing, social activism.*

Kirish: Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmuni yangi jamiyat barpo etish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun bilimli, keng dunyoqarashga ega, vatanparvar yoshlar "suv va havodek" zarur. Zero, Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yoshlar forumida so'zlagan nutqida "Dunyoda globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi vaziyatda barcha sohalarda yuksak bilimli kadrlarni tayyorlamasak, taraqqiyotdan ortda qolib ketishimiz mumkin", deb ta'kidladi. Davlat rahbari yosh avlod vakillariga qilgan murojaatda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, ularning kamol topishiga doir masalalarni isloh qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Shu jihatdan sog'lom e'tiqodga ega bo'lgan avlodni voyaga yetkazish masalasiga barcha soha rahbarlarining mas'ul ekanligi qayd edi. Amalga oshirilayotgan tub islohotlarning negizida g'oyaviy yetuk yoshlarni tarbiyalash zaruriyati asosiy vazifa sifatida belgilandi.

Asosiy qism: Mamlakatimizda olib borilayotgan yangilanish jarayoni keskin ichki va tashqi mafkuraviy tahdidlar, murakkab va jiddiylashgan ma'naviy kurash sharoitida amalga oshirilmoqda. Shu sababli davlat va mamlakatimiz hukumati farzandlarimizning g'oyaviy tarbiyasiga ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor berib kelmoqda.

Mazkur masala xususida Prezident o'zining qat'iy fikrlarini bayon etar ekan "biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak", deb ta'kidladi. Ta'kidlash zarurki yoshlarni tarbiyalash jarayonida g'oyaviy tarbiya juda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida uyg'unlashgan ravishda g'oyaviy tarbiyani yo'lga qo'yish, yoshlarning g'oyaviy qarashlarini shakllantirish, sog'lom e'tiqod, siyosiy ong, tarixiy xotirani singdirishga qaratilgan yaxlit tarbiyaviy jarayoni yo'lga qo'yish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda.

Biroq shu bilan birgalikda yoshlarga g'oyaviy tarbiya berishning mohiyatini doimiy ravishda takomillashtirib borish talab etiladi. Qayd etish zarurki, yosh avlodga g'oyaviy tarbiya berish jarayonida ular yashaydigan muhit, yaratilgan shart-sharoit va ijtimoiy munosabatlar jarayonini hisobga olishni taqozo etadi. G'oyaviy tarbiya umumbashariy va milliy an'analar tamoyili asosiga quriladi-ki, bu tamoyil yoshlarda ijtimoiy-siyosiy hayotda ro'y berayotgan voqea va hodislarga xolis baho bera olishga qaratilgan mustahkam g'oyaviy qarashni shakllantirishni taqazo qiladi. G'oyaviy tarbiyaning yana bir muhim jihati dahldorlik tamoyili bo'lib, u voqea va hodisalarga butun xalq manfaatlari nuqtayi nazaridan baho berishni aks ettiradi.

Ma'lumki, g'oyaviy tarbiya bugun jamiyat talab etayotgan ma'naviy tarbiyaning asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. G'oyaviy tarbiyani tashkil etish fidoiylik fazilatining yaxlit ko'rinishini aks ettirib, vatanparvarlikni o'zida namoyon etadigan jihat ekanligini doimo yodda saqlash zarur. G'oyaviy tarbiya asosida qaror topgan kuchli e'tiqodni oddiy ta'sir vositalari bilan chalg'itib yuborish mumkin emas. Zero, g'oyaviy e'tiqod shaxsning ichki his-tuyg'ulariga aylangan bilimlar tizimidir. Yoshlarda tarkib topgan

g’oyaviy e’tiqod ularning faoliyatlarini to‘g’ri o‘zanga yo‘naltirib turadi. Ijtimoiy hayotdagi (ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda ro‘y berayotgan) hodisalarga baho berishda kuchli mafkuraviy qalqon vazifasini bajaradi.

G’oyaviy e’tiqod shaxsning yurish-turishiva faoliyatini boshqarib, inson xatti-harakatlari va faoliyatining motivi sifatida namoyon bo‘ladi. Qat’iy g’oyaviy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilar har qanday murakkab vaziyatda, har qanday sharoitda to‘g’ri yo‘l topa oladilar, o‘z bilim va e’tiqodlariga tayangan holda ijtimoiy munosabatlarning keskin jarayonida undan mohirona foydalana oladilar. G’oyaviy e’tiqodni shakllantirish yoshlarning ilm va bilimni ongli ravishda o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi.

Mazkur masalaning mohiyati xususida Prezident Shavkat Mirziyoyev yoshlarga murojaatida “O‘z tajribamdan kelib chiqib, sizlarga aytadigan maslahatim shu: ilmni qadrlang! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o‘tmasin! Yoshlik – umrning bebaho davri. Ilm va bilim – o‘tda yonmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini unutmang!”, deb ta’kidladi. Demak, yoshlarni avvalo aniq, ilmiy asoslangan bilimlar bilan qurollantirish talab etiladi. Albatta, yoshlarga yaratilgan keng imkoniyatdan to‘g’ri foydalangan holda bilim va ilm olishga sobitqadamlik bilan intilishlari zarur. Ular olgan bilimlarni chuqur o‘zlashtirishlari,haqqoniy va astoydil egallashlari hamda har qanday vaziyatda qat’iy turib intilishni kuchaytirishlari kerak. Agar yoshlarning bilimlari sayoz, mavhum yoki xato bo‘lsa, bu holat ularning xulosa chiqarishlariga, yuz berayotgan voqea va hodislarga xolisona baho berishlariga to‘sqinlik qiladi.

Shu tarzda, bilim olishga asoslangan g’oyaviy tarbiya yosh avlodda mustahkam g’oyaviy e’tiqod, sog’lom dunyoqarash, ilmga intilish, yuksak ma’naviy fazilatlar, ijtimoiy faollikni tarkib toptirib, mafkuraviy tahdidlarning har qanday ko‘rinishiga nisbatan murosasizlikni shakllantiradi.

Muhokamalar va natijalar. G’oyaviy tarbiyaning yana bir muhim jihati - yosh avlodning jamiyatimiz hayotida ro‘y berayotgan yangilanish jarayonlarini tahlil eta olishi, islohotlar mohiyatini chuqur anglashi hamda mustaqillik mohiyatini tushuna olish kabi ko‘nikmalarni tarbiyalashdan iboratdir.

Yoshlarning g’oyaviy tarbiyasi jamiyat talablaridan kelib chiqib, oldimizda paydo bo‘layotgan bir qator vazifalarni hal etish orqali amalga oshiriladi. Jumladan:

xalqimizning shonli tarixi, milliy qadriyatlar va umurboqiy an’analarimizga sadoqat ruhini shakillantirish;

yangi jamiyat barpo etish, mustaqillik davri tarixi, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar mohiyati kabi ilmiy bilim asoslari bilan qurollantirish;

yoshlarga xalqaro hayotda ro‘y berayotgan siyosiyjarayonlar va mamlakatimiz davlatining mazkur voqealarga mafkuraviy-siyosiy pozitsiyalardan baho berish malakasini tarbiyalash;

jamiyatimiz hayotida ro‘y berayotgan ichki siyosatni tahlil eta olish masalalariga qiziqishni, ijtimoiy faoliyatga barqaror ehtiyojni shakllantirish;

g’oyaviy jihatdan yetuk, vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo‘lida fidoiylik ko‘rsatish yo‘lida vatanparvarlik tuyg’ulari va fazilatlarini tarbiyalash.

Yoshlarni jonli hayotiy munosabatlar uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Yosh avlodni g’oyaviy jihatdan tarbiyalash ongni shakllantirish orqali ijtimoiy faoliyatni tarkib toptirish jarayoni bilan uyg’unlashgan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Mamlakatimiz hamda jahon maydonida ro‘y berayotgan voqealarni yoshlarga tushuntirish, ularni jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy va madaniy hayotida bevosita jalb etishni taqozo etadi.

Yoshlarning g’oyaviy tarbiyasi mazmunini belgilashda tarbiyaning quyidagi tamoyillariga: mafkuraviy sobitqadamlik va g’oyaviy e’tiqod, tarbiyani hayot bilan, yangilanish, bunyodkorlik jarayoni bilan bog’lash hamda, eng muhimi, yoshlarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish talabini keltirib chiqaradi.

Yoshlarning jismoniy, ma’naviy rivojlanishlarida bir qadar umumiylik bo‘lsada, biroq ularning xislat, xarakter, mijoz, irodaviy sifat, qiziqishlari turlicha bo‘ladi. Yoshlarning voqea va hodisalarga bo‘lgan munosabatlari, orzu umidlari, dunyoqarashlari va e’tiqodlari ham bir xil bo‘lmaydi. Muayyan bir yosh davrida qo‘llaniladigan tarbiya metodlarini boshqa bir yoshdagi talabalarni tarbiyalashda qo‘llash kutilgan samarani bermasligi mumkin. Shuning uchun g’oyaviy tarbiya jarayonida har bir yoshning xarakter xususiyatlarini o‘rganish lozim.

Bu holat ularning qiziqish va qobiliyatlari, g’oyaviy e’tiqodining zaif va kuchli tomonlarini baholashga imkon beradi.

Yoshlik davrining yana bir muhim xususiyati ijtimoiy foydali mehnatga intilishda namoyon bo‘ladi. Shu xususiyatdan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishga asoslangan faoliyatni yo‘lga qo‘yish ularning mehnatga bo‘lgan mehr-muhabbatlarini orttiradi. O‘z mehnatini qadrlash, boqimandalik illatidan qutulishga yordam beradi. Mehnat jarayonida yoshlar o‘zlarini tarbiyalaydilar, o‘z ustilarida mustaqil ishlaydilar, muayyan sifat va fazilatlarni egallaydilar, irodalarini mustahkamlaydilar.

G’oyaviy tarbiyani shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda quyidagi vositalardan – xalq e’tiqodi, ezgu fikr, shaxsiy fikr, ijtimoiy fikr, g’oyaviy so‘z, texnik imkoniyatlar, ommaviy axborot vositalari, namuna ko‘rsatish, ijtimoiy reklama, ko‘rgazmali qurollar, mafkuraviy munosabatlar jarayoni, intellektual (aqliy) va emosional (hissiy) ta’sir foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa. G’oyaviy tarbiyani tashkil etishning yaxlit tizimini takomillashtirib borish, jarayonning pedagogik asoslari hamda ularning psixologik xususiyatlarini ifodalaydigan o‘quv qo‘llanmalar va metodik tavsiyanomalarni amalda qo‘llash; “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ulug’vor g’oyani singdirish bo‘yicha o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalar mazmunida yoshlar g’oyaviy qarashlarini shakllantirishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish; g’oyaviy tarbiyani tashkil etishda mahallalar, korxonalar, umumiy ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, uyushmagan yoshlarning faoliyatlarida uzluksizlikka rioya etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. -Xalq so‘zi. 2020-yil 30-dekabr, №276-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqi. 2020-yil 26-dekabr, №273-son.

3. Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas’uliyati. -T.: “O‘zbekiston”, 2018. -346 b.

4. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. –T.: “Movarounnahr”, 2016. -672 b.

Dilmurod UMURZOQOV
Navoiy davlat pedagogika instituti
katta o‘qituvchisi

Nafisa JO‘RAYEVA
Navoiy davlat pedagogika
instituti magistranti

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA RAHBARLIK VA BOSHQARUV MUAMMOLARINING TALQINI

Maqolada Sharq mutafakkirlari ilmiy merosida rahbarlik va boshqaruv masalalarining yoritilganligi bayon qilingan. Ularning asarlaridan bir qancha fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Sharq mutafakkirlari, boshqaruvchanlik, rahbarlik, asar, ruhiy-ma’naviy kamolot, insoniylik xislatlari.*

В статье освещены вопросы лидерства и управления в научном наследии восточных мыслителей. Вот несколько идей из их работ.

Ключевые слова: *восточные мыслители, управляемость, лидерство, творчество, духовно-нравственное совершенство, человеческие качества.*

The article covers the issues of leadership and management in the scientific heritage of Eastern thinkers. A number of ideas are presented from their works.

Key words: *Eastern thinkers, stewardship, leadership, work, spiritual-spiritual perfection, human qualities.*

Kirish. Odamlar jamoasi boshqaruvni talab qiluvchi ijtimoiy voqelikdir. Ushbu talab rahbarlik va boshqaruvning uslubi hamda samarali vositalarini tadqiq qilish zaruratini vujudga keltiradi. Insoniyat taraqqiyotining har bir davri, har qanday jamiyatda o‘zining ichki mohiyati va maqsadidan kelib chiqqan holda ana shu zaruratni u yoki bu holda qondirish bilan xarakterlanadi. Ushbu ma’noda Sharq mutafakkirlarining asarlari, nasihat va maslahatlari bundan mustasno emas. Biz buyuk ajdodlarimiz Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ahmad Donish kabilarning asarlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Asosiy qism. Sharq mutafakkirlaridan biri Abu Ali ibn Sino shunday yozadi: “Oliyjanoblik qilish shunday bir ajoyib fazilat va shon-sharafni oshiradigan xislatki, hatto bunga erishgan odam undan ham yuqori darajadagi shon-shuhrat maromiga erishishga intiladi, bunday intilish undaylarda cheklanmagan bo‘ladi. Inson toki o‘zini maydakashlik, kek saqlash, gina saqlash, janjal, jinoyat, norozilik oh-vohlardan ozod qilmaguncha, u iflos va tubanlik tabiatidan ozod bula olmaydi” [6].

Abu Nasr Forobiy shahar aholisining stratometrik turlanishini ishlab chiqadi. Bunda jamiyat a’zolarining o‘zlarini boshqarishlari jamiyatning o‘zini o‘zi boshqarishiga olib kelishi lozim, lekin bu bilan bir vaqtning o‘zida har bir a’zoning ruhiy-ma’naviy kamoloti usul hamda yo‘nalishiga ko‘ra individual holda mavjud bo‘ladi. “Shularning hammasini, - deb yozadi Forobiy, - ikki yo‘l bilan olish mumkin. Birinchidan, yuqoridagi hodisalar aslida qanday mavjud bo‘lsa, inson qalbiga, ko‘ngliga o‘shanday o‘rnashib qolsa, boshqalarning ko‘nglida bu bilimlar qiyosiy yoxud taqlid asosida vujudga keladi. Ba’zi odamlar o‘sha narsalarni o‘zlari his etishlari tufayli ko‘ngillarida shu bilimlar vujudga keladi” [5].

Ikkinchidan, ushbu sifatlarga ega bo‘lmagan odamlar birikmasi esa adashgan shaharning va jaholatdagi aholisini tashkil qiladi. Fikrlashlari g‘azab, hasad, nafratga asoslangan bunday shahar aholisi doimo bir-birlariga qarshi kurashib, bir-birlariga dushmanlik qiladilar.

O‘rta asrlarning yana bir buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ham boshqaruvchi va boshqaruv xususida o‘zining qator mulohazalarini yozib qoldirgan. Beruniy “Har bir odamning bahosi o‘z ishini ajoyib bajarishidadir”, − deb shaxsning sifat va xislatlarining baholash mezonini ko‘rsatadi [1]. Shuningdek, o‘zining “Hindiston” asarida quyidagi fikrlarni ilgari suradi. “Tabiati jihatdan boshqarish va siyosat ishlariga qiziquvchi, boshliq bo‘lishga fazilat va kuchi bilan haqli, fikr va maqsadda sabotli, davlatni o‘zidan keyingilarga qoldirib, ularning o‘z ota-bobolariga qarshi bo‘lmasliklarini maqsad qilib olgan kishi tomonidan berilgan har bir buyruq, buyurilgan kishi oldida turg‘un tog‘lar singari mustahkam bo‘lib, bunday buyruqqa keyingilar ham ko‘p va uzoq zamonlar o‘rtasida buysunadilar” [2]. Amir Temur davlatni boshqarish vositalari haqida to‘xtalib shunday yozadi − “Saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilish lozim: 1. Kengash. 2. Mashvaratu - maslahat. 3. Qat’iy qaror, tadbirkorlik, hushyorlik. 4. Ehtiyotkorlik”. “Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat’iy, tadbirkor va xushyor bir kishi ming − minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir” [4]. Bundan tashqari, Amir Temurning birovni lavozimga ko‘tarishdan oldin uni sinab ko‘rish lozim, ya’ni o‘rganish lozim, degan g‘oyalari bugungi kunda ham juda dolzarbdir. Uning o‘git va nasihatlari hokimlarga qaratilgan bo‘lib, boshqaruvchi, rahbar tevaragida tabiatan yaxshi niyatli,

yuksak axloq sohibi bo‘lgan kishilar bo‘lgandagina, u to‘g‘ri ishlar qilishi, to‘g‘ri farmonlar chiqarishi mumkin, shundagina mamlakat farovon bo‘lib ravnaq topadi.

Ahmad Yassaviy (1041-1166) o‘zining “Devoni hikmat” asarida jamiyatni boshqarishning to‘g‘ri yo‘llari, hamda boshqaruvchining odobi, xulqi, halolligi, madaniyatiga tegishli bo‘lgan qator o‘git-nasihatlarni bayon qilgan” [7].

O‘zbek klassik adabiyotining yirik namoyondasi mutafakkir davlat arbobi Alisher Navoiy (1441-1501) vazirlik lavozimida adolat yo‘lida sabot va matonat, xalq bilan hamdam va hamnafas bo‘lish, xalqchillik, halollik va poklik vatan dardi bilan yashash, xalq osoyishtaligi uchun fidoiylik kabi sifatlar mujassamlanishi zarur, deb hisoblanadi. Shuningdek, “Saddi Iskandariy” dostonidagi Iskandar obrazida komil insonga xos xususiyatlar tasvirlanadi u dili, niyati pok xayr-saxovatli, kamtarin va muloyim shaxs, dono podshoh va dunyo sirlarini bilishga qiziquvchi aql zakovat egasi. Bu bilan Alisher Navoiy o‘zining ezgu maqsadi - jamiyat hikmat, adolat va insonparvarlik asosida boshqarilishi kerak degan fikrni ilgari suradi.

A.Donish (1827-1897) fikricha, davlatni boshqaruvchi odil va donishmand bo‘lsa, xalqni qashshoqlikdan qutqarish mumkin. A.Donish davlat bir kishiga xos bo‘lmay, balki xalq manfaatlariga xizmat qilishi kerak degan g‘oyani ilgari suradi. Buning uchun hukmdor bilimdon, odil, donishmand bo‘lmog‘i shart. O‘z fuqarolariga oid masalalarni hal qilishda o‘zini ular o‘rnida, ularni esa o‘z o‘rnida tasavvur qilishi kerak, mamlakatni idora qilishda hukmdor muhim davlat arboblari bilan maslahatlashishi lozim. Hukmdor ularning maslahatlari bilan hisoblashishi kerak, chunki ko‘pchilikning aqli bir kishining aqliga qaraganda ko‘proqdir. Uningcha, bu xislatlar davlat boshlig‘igagina emas, uning atrofidagi barcha davlat amaldorlariga ham xos bulmog‘i shart [3].

Xulosa. Buyuk allomalarimizning rahbarlik va rahbar uchun zarur bo‘lgan fazilatlar borasidagi hamda davlatni idora qilish uslubi, el bilan go‘zal muomalada bo‘lish va xilma-xil muloqot vositalaridan foydalanish rahbarlik odobi talablari kabi masalalar yuzasidan bildirgan fikrlari juda katta pedagogik va psixologik ahamiyatga ega bo‘lib, ularni o‘qish va ularga rioya qilish faoliyatimizning ravnaqi va istiqboliga ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Беруний А. Определение границ расстояний между населенными пунктами (геодезия). Исслед. пер.с. араб.и примеч. Н.Г.Булгакова. Изб. Произв.1996. С-3.
2. Beruniy A. Tanlangan asarlar. 2-jild. -Toshkent, 1995. 8-25 bet.
3. Donish A. Navodir-ul vaqoyi. (Nodir voqealar). - T., 1994. 8-165 b.
4. Temur tuzuklari. –Toshkent: “G‘ofur G‘ulom”, 1991.
5. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri (Tanlangan asarlar). -Toshkent “Abdulla Qodiriy” nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. -7 b.
6. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1995. -136 b.
7. Yassaviy A. Devoni hikmat. –Toshkent: “G‘ofur G‘ulom”, 1992.

Gullola KURBANOVA
Guliston davlat universiteti
pedagogika va psixologiya kafedrasi
katta o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARI IQTIDORLI TALABALARINING TADQIQOTCHILIK SALOHIYATI AHAMIYATI

Respublikmizda iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish muhim masalalardan biridir. Iqtidorli o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishda davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligini ta’minlashning me’yoriy asoslari yaratildi. Iqtidorli talabalarni tarbiyalash va rivojlantirish samaradorligini oshirish bo‘yicha fanlarni chuqurlashtirib o‘tish uchun Prezident maktablari tashkil etildi. Ularning moddiy texnika bazasi ta’minlandi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishda Harakatlar strategiyasida “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, Oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish” vazifasi ustuvor etib belgilandi. Natijada iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni fan olamiga olib kirish, ularda tadqiqotchilik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Kalit so‘zlar: *innovatsion yondashuv, tadqiqotchilik kompetentligi, ta’lim muhiti, iqtidorli talabalar, ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar, fan, intellektual rivojlangan avlod.*

Выявление талантливых студентов в нашей республике разработка социально-педагогических технологий их обучения. Созданы нормативные основы обеспечения государственного и негосударственного сотрудничества в области образования и развития талантливых студентов. Президентские школы были созданы с целью углубления дисциплин, повышения эффективности обучения и развития старшеклассников. Была обеспечена их материально-техническая база. В стратегии дальнейшего развития Республики Узбекистан в качестве приоритетной была определена задача "воспитать поколение высокообразованных и интеллектуально развитых людей, создать резерв научно-педагогических кадров с компетенциями в высших учебных заведениях". В результате выявление талантливых студентов позволит вывести их в мир науки, используя широкий спектр технологий для повышения компетентности исследователей на основе инновационных подходов.

Ключевые слова: *инновационный подход, исследовательская компетентность, образовательная среда, одарённые студнты, социально-педагогические технологии, наука, интеллектуально развитое поколение.*

Identification of talented students in our republic and development of social and pedagogical technologies of their trainings. The regulatory framework for ensuring State and non-state cooperation in the field of education and the development of talented students has been created. The Presidential schools were created with the aim of deepening the disciplines, improving the effectiveness of teaching and developing high school students. Their material and technical base was provided. In the strategy of further development of the Republic of Uzbekistan, the priority task was defined as "to raise a generation of highly educated and intellectually developed people, to create a reserve of scientific and pedagogical personnel with competencies in higher educational institutions". As a result, the identification of talented students will allow them to enter the world of science, using a wide range of technologies to improve the competence of researchers based on innovative approaches.

Key words: *innovative approach, research competence, educational environment, talented students, social and pedagogical technologies, science, intellectually developed generation.*

Kirish. Barcha darajadagi zamonaviy ta’lim amalda bitta asosiy maqsadga ega: insonga o‘zlari va atroflaridagi dunyo haqida bilim berish, bu bilimlardan o‘zlari va jamiyat manfaati uchun foydalanib yashashga o‘rgatish, tanlagan kasblarida shaxsiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishga hissa qo‘shish. Shunga asoslanib, ta’lim olish maqsad emas, balki hayotda muhimroq, strategik maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan vositadir.

Oliy ta’lim zamonaviy jamiyatda muhim rol o‘ynaydi. Har qanday davlatning intellektual salohiyati uning ta’lim tizimi tomonidan yaratilgan bo‘lib, u davlatning barqaror va progressiv rivojlanishining asosiy va ajralmas omili hisoblanadi. Fuqarolarning ta’lim sifati iqtisodiy rivojlanish imkoniyati va jamiyat turmush darajasini belgilaydi, texnologiyalar va zamonaviy bozor esa oliy ta’limni taqozo etadi.

O‘z navbatida, oliy ta’lim mexanizmlaridagi dinamik o‘zgarishlar mamlakatimiz hayotida amalga oshirilayotgan islohotlar va jamoatchilik faoliyatining barcha jabhalariga qo‘yiladigan yangi talablar samarasidir. Bu esa, o‘z navbatida, mutaxassislarni tayyorlashga tizimli, integrallashgan yondashuv asosida o‘quv faoliyatini tashkil etish muammosini keskin ko‘taradi. Bu maqsadga erishishning murakkabligi o‘quv materialini nafaqat reproduktiv o‘zlashtirishni, balki o‘quvchi tomonidan ham, o‘qituvchilar tomonidan ham kreativ yondashishni talab etadi. Shu sababli bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni zamonaviy bilimga ega bo‘lganlar sifatida tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida ularning kreativ salohiyatini shakllantirishga katta ahamiyat berish zarur.

Asosiy qism. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda “kreativlik” atamasi odamlar ongida inson shaxsining barcha qimmatli kreativ va intellektual komponentlarini mujassamlashtirgan, uni ijodkor deb atashga imkon beradigan yagona ilmiy ta’rif va talqinga ega emas. Mavjud ustuvorliklarga muvofiq, ayrim mualliflar kreativ salohiyatni maqsadga muvofiq rivojlantirish mumkinligini hisobga olib, bu atamaga ko‘proq amaliy ma’no beradi. Gumanistik psixologiyaning asoschisi Abroham Maslou ijodni inson tabiatining asosiy xususiyati, har bir insonga tug‘ilishdan berilgan salohiyat, shuningdek, dunyoni idrok etish yoki haqiqat bilan o‘zaro ta’sir qilishning maxsus usuli sifatida belgilaydi. Bu ta’rif asosida ijodni atrofdagi narsa va hodisalarni yangi, o‘zgacha istiqbolda ko‘rish va idrok etish qobiliyati yoki mahorati sifatida ta’riflash mumkin.

Y.M. Asadov fikriga ko‘ra, kreativ salohiyatning eng qimmatli xususiyati uning innovatsiyalar sohasidagi yuksak rolidir. Innovatsiya, asosan, inson aql-zakovatining mahsuli bo‘lgan intellektual qator sifatida, kreativ salohiyatdan foydalanishning eng tizimli va ko‘rinadigan natijasidir. Shunga ko‘ra ilmiy va texnologik taraqqiyotning rivojlanishiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi yangilikdir.

R.B. Abdurahmonov va boshqalar kreativ salohiyatni kasbiy yoki ijodiy faoliyat doirasida o‘zaro bog‘langan va shaxsning tashqi muhitdan kelayotgan bilimlari va axborotlari asosida yangi g‘oya va tushunchalarni ishlab chiqish qobiliyati bilan tavsiflanadigan aqliy va kreativ vositalar majmuasi sifatida tushunadi. Shu bilan birga, “kreativ salohiyat” atamasining mohiyatini belgilab, ilmiy adabiyotlarda “kreativ” tushunchasi “ijod” tushunchasi bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaymiz. Ikkala tushuncha ham bir-biriga mos keladi va ko‘pincha sinonim sifatida ishlatiladi. Bunga sabab “kreativ” atamasining kelib chiqishidir (lot.dan. Creatio - yaratish, ingliz tilida Creativity – ijodiy salohiyat, ijodiy qobiliyat). Ko‘rib turganimizdek, termin talqinida ijod unsuri mavjud. Shuning uchun ham “ijod” tushunchasi talqin qilinishidan oldin uning tarkibiy qismlari “ijod” tushunchasining tarkibiy qismlari sifatida o‘rganilgan. O‘z navbatida ijod muammolari uzoq vaqt davomida o‘qituvchilar, psixologlar, faylasuflar va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Faylasuflar ijodni sifat jihatidan yangi moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yaratuvchi inson faoliyati jarayoni sifatida talqin etadilar. Ijod turlari ijodiy faoliyat xususiyati bilan belgilanadi:

- ixtirochilik;
- boshqaruvchilik;
- ilmiy;
- badiiy va hokazo.

Psixologik adabiyotlarda ijodni aniqlash va talqin qilishga turlicha yondashuvlar mavjud. Ijod inson faoliyati va mustaqilligining mahsuldor shakli sifatida yangi, noma’lum kashfiyotning yaratilishi sifatida qaraladi. G. Altshullerning fikriga ko‘ra, ijodkorlik mavjud tajribani qayta tashkil etish va yangi bilimlar birikmalarini shakllantirishga asoslangan yangi bilimlarni hosil qiluvchi faoliyatdir. U ikki darajada namoyon bo‘ladi. Ijodning bir darajasi mavjud bilimlardan foydalanib, ikkinchisida uning qo‘llanish doirasini kengaytirish bilan tavsiflanadi - obyekt yoki bilim sohasining odatiy ko‘rinishini o‘zgartiradigan mutlaqo yangi yondashuv yaratiladi. Psixologik xususiyat sifatida ijodkorlikning mohiyati intellektual faoliyat va faoliyat mahsulotlariga nisbatan sezgirlikdan iborat. Tadqiqotimiz aspektida katta ahamiyatga ega bo‘lgan G.Altshullerning asosiy g‘oyasi ijodkorlikni o‘rnatish, shuningdek, har qanday faoliyatni o‘rganish mumkin, bundan tashqari, barcha ijodiy faoliyatni o‘rgatish kerak. Bu fikr I.Lerner tomonidan ham qo‘llab-quvvatlangan. I.Lerner ishonadiki, ijod uch yo‘nalishlari quyidagi tomonidan o‘qitilishi mumkin:

- aqliy operatsiyalarda o‘qitish;
- ijodiy faoliyat tartiblarida o‘qitish;
- ijodga qadriyat munosabatini shakllantirish.

Y.A.Ponomarev fikriga ko‘ra shaxs o‘ziga xosligi, tashabbuskorligi, yuksak o‘z-o‘zini tashkil etishi va salmoqli ishlashi bilan ajralib turadi. O‘z navbatida, I.A.Zimnyaya fikrlarning chuqurligi, g‘ayrioddiy savollar va yechimlar, intellektual tashabbus kabi xususiyatlarga e’tibor qaratdi. D.Bogoyavlenskaya tadqiqotida ijodkorlik tadqiqotining birligi “intellektual tashabbus”ni ko‘rib chiqishni taklif qiladi va muallifning fikriga ko‘ra, ijodiy faoliyatning barcha turlari “intellektual faoliyat” kabi shaxsning qobiliyati

bilan birlashtirilgan. P.Torrans ijodiy shaxslarning bunday umumiy xususiyatini rivojlanish, doimiy o‘sish zarurati sifatida aniqladi.

Pedagogikada ijodkorlik ta’lim jarayoni bilan bog‘liq ravishda tahlil qilinadi va haqiqatni o‘rganish va o‘zgartirishga, yangi o‘ziga xos mavzularni yaratishga ongli, faol inson faoliyati sifatida aniqlanadi va o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashning eng samarali usullarini izlashda, darsliklar yaratishda, bilimlarni doimo yangilab, eskirgan pedagogik qarashlar, qarorlarni qaytadan ko‘rib chiqilishiga qaratilgan.

A.Dunayev fikrigaga ko‘ra, o‘qituvchining ijodkorligi ular o‘rtasidagi psixologik-pedagogik munosabatlarning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan va talaba shaxsini shakllantirish va o‘qituvchining ijodiy pedagogik faoliyati darajasini oshirishga qaratilgan ta’lim jarayoni (o‘qituvchi va talaba) subyektlarining shaxsiy yo‘naltirilgan o‘zaro ta’sirini ta’minlaydi. Muallifning fikricha, o‘qituvchi ijodining asosiy mezoni o‘quvchi shaxsini shakllantirishning ijobiy dinamikasini ta’minlash va o‘qituvchining o‘z faoliyati samaradorligini oshirishdir.

N.A. Alekseyev o‘qituvchining ijodiy shaxsini ilmiy va pedagogik fikrlash va ijodiy tasavvurlarning kombinatsiyasida namoyon bo‘ladigan ijodkorlik, intellektual faoliyatga e’tibor qaratadigan kasbiy ishda ijodkorlikni anglash bilan ajralib turadigan shaxs sifatida belgilaydi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “ijod” atamasi so‘nggi paytlarda ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilib, faol qo‘llanilayotgan “ijodiy qobiliyatlar” iborasining o‘rinni deyarli egallagan. Bu tushunchalar sinonim sifatida qabul qilinadi, shuning uchun yangi atamani joriy etishning maqsadga muvofiqligi haqida shubha bor. Biroq obyektiv ravishda, ijodkorlikni muayyan ijodiy qobiliyat yoki to‘plam sifatida emas, balki yaratish qobiliyati sifatida aniqlash tavsiya etiladi. Bu tushunchalar, garchi juda yaqin bo‘lsa-da, ayrim mualliflarga ko‘ra bir xil emas.

Ijodni o‘rganish asoschisi D.Gilford muammoni hal qilishning samaradorligi intellektual testlar bilan o‘lchanadigan mavjud bilim va ko‘nikmalarga emas, ammo muammoni hal qilish uchun taqdim etilgan ma’lumotlardan turli yo‘llar bilan va tez sur’atlarda foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishga bog‘liqligini isbotladi. Bu xususiyat kreativlilik deb atalgan.

D.Gilford va Y.Torrans belgilangan ijodiy fikrlash tavsiflovchi 16 intellektual qobiliyatni ajratib ko‘rsatdi. Ular orasida:

- tezlik (ma’lum vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladigan g‘oyalar soni);
- moslashuvchanlik (bir g‘oyadan ikkinchi g‘oyaga o‘tish qobiliyati);
-o‘ziga xoslik (umumiy qabul qilinganlaridan farq qiladigan g‘oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati);
- qiziquvchanlik (boshqalarga qiziqish uyg‘otmaydigan muammolarga sezgirlikning ortishi);
- motivatsiyadan reaksiyaning mantiqiy mustaqilligi. Bundan tashqari, D.Gilford bu qobiliyatlarni “divergent fikrlash”, ya’ni turli yo‘nalishlarda yuzaga keladigan va muammoni hal qilish yo‘llarini o‘zgartirishga imkon beradigan, kutilmagan xulosalar va natijalarga olib keladigan fikrlash turi konsepsiyasida birlashtirdi. Konvergent fikrlash muammolarni hal qilishning barcha mavjud yo‘llarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ulardan faqat bittasini to‘g‘ri tanlashga qaratilgan. Konvergent fikrlash muammoning oldindan ma’lum bo‘lgan yechimiga qaratiladi, divergent fikrlash muammo hali aniqlanmagan bo‘lsa, uni hal qilish uchun oldindan taklif qilingan, belgilangan yo‘l bo‘lmasa, namoyon bo‘ladi. Konvergent fikrlash aqlni, divergent fikrlash kreativlikni aniqlaydi.

Tadqiqotchi A.Bulda aql-zakovat va kreativlikni muhim rolga ega bo‘lgan inson qobiliyati sifatida ko‘rib chiqyapti va ushbu pozitsiyadan kelib chiqib, kreativlikni aql-zakovatga nisbatan reduktiv holat ko‘rsatuvchisi deb hisoblaydi. Ushbu holatda ijodkorlik aql-zakovatdan kelib chiqadigan hodisadir, ammo yagona qobiliyat emas. Shuning uchun yuksak aql-zakovat yuksak ijodkor qobiliyatlarni yuzaga kelitradi, darajasi past aql-zakovat bilan esa ijodkor namoyon qilish qiyin bo‘ladi. L.Ermolayeva fikriga ko‘ra, kreativlikni alohida maxsus qobiliyat sifatida ajratishning hech zarurati yo‘q. Faoliyatning har qanday qobiliyati (ilmiy, ijodiy) birinchi navbatda umumiy aql-zakovatning baland darajasi yordamida yuzaga keladi.

D.Bogoyavlenskaya, shuningdek, aql va ijodkorlikni ikki xil umumiy qobiliyat sifatida talqin qildi, u ularning mavjudligini axborotni qayta ishlash jarayonlari bilan bog‘ladi. Ijodkorlik inson uchun mavjud bo‘lgan axborotni o‘zgartirish va dunyoning cheksiz ko‘p yangi modellarini yaratish uchun mas’uldir. Aql-zakovat esa bu ma’lumotlarni real amaliyotda qo‘llash va atrofimizdagi dunyoga moslashtirish uchun xizmat qiladi.

T.Lubard, K.Mushiru, S.Torjan, F.Zenasni tomonidan ijodkorlik va aqlni mukammal o‘rganish o‘tkazildi, ular murakkab ruhiy muammolarni hal qilish natijasi ijodkorlik bilan bog‘liqligini va yechimning to‘g‘riligi umumiy aql darajasi bilan ijobiy bog‘liqligini aniqladi. Shuning uchun ijodkorlik va umumiy aql-idrok aqliy muammoni hal qilish jarayonini belgilaydigan qobiliyatdir, lekin ular turli bosqichlarda har xil vazifalarni bajaradi.

Muhokamalar va natijalar. Oliy ta’limning muvaffaqiyatini bashorat qilishda ko‘pgina tadqiqotchilar aql va ijoddan mustaqil ravishda o‘rganish uchun umumiy qobiliyat sifatida o‘rganish qobiliyati mavjud degan xulosaga kelishdi. Ma’lumki, ijod va universitet o‘zlashtirishining o‘zaro bog‘liqligi juda kichik bo‘lib, emperik tadqiqotlarga ko‘ra “ideal a’lochi talaba” va “ijodkor shaxs”ning shaxsiy sifatlari har xil deb atalgan. Umumiy aql-zakovat va universitet muvaffaqiyati darajasi o‘rtasidagi korrelyasiyalar katta tafovutga ega va aql-zakovat tanlangan namunaning xususiyatlari va boshqalarni tashxislash metodologiyasiga bog‘liq. Shunday qilib, tadqiqotlarda olingan ijodkorlik va aqlning korrelyasion qiymatlari diagnostik jarayoniga bog‘liq.

Demak, ijod tashxisi vaqtida uning mezonlari ko‘rinishlaridan xabardor bo‘lish lozim: test jarayonida kretivlikni namoyon etish individ shaxsning kreativliligini ko‘rsatadi, ammo teskarisi noto‘g‘ri. Diagnostika jarayonida inson xulq-atvorini tartibga solish darajasi bo‘yicha testlarni joylashtirsak, qarama-qarshi qutblarda turadigan bir tomondan, yuqori tezlikdagi intellekt testlari, ikkinchi tomondan esa kreativlik uchun o‘yin usullari.

Biroq, psixologlarning fikricha, ijod inson aqlining kuchi bo‘lib, yangi bog‘lanishlarni o‘zgartirish va yaratish orqali yangi mazmun yaratadi va uni fikrlash jarayonida g‘oyalarning umumiy qabul qilingan, odatiy tartibini yo‘q qilish qobiliyati deb belgilagan. Y.Torrans ijodkorlik umumiy aql, shaxsiy xususiyatlar va samarali fikrlash qobiliyatiga asoslangan maxsus emas, balki umumiy qobiliyatdir.

Hozirgi kunda ko‘pgina tadqiqotchilar ijodkorlikni quyidagi asosiy jihatlarda ko‘rib chiqmoqdalar:

- jarayon sifatida;
- mahsulot sifatida;
- shaxs sifatida (aslida shaxsning ijodiy qobiliyatlari);
- muhit sifatida (soha, tuzilma, ijtimoiy kontekst, ijod mahsuliga qo‘yiladigan talablarni shakllantirish);
- hal qilinadigan muammo sifatida.

Psixologlar ijod mohiyati haqida quyidagi umumlashmalarni amalga oshirganlar:

- ijodkorlik - bu yangi yondashuvlar va yangi mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojga mos ravishda javob berish qobiliyati va jarayonning o‘zi ongli va ongsiz bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, mavjud bo‘lgan yangi narsalardan xabardor bo‘lish imkonini beradi;
- yangi ijodiy mahsulot yaratish, avvalo, ijodkor shaxsi va uning ichki motivasiyasi kuchiga bog‘liq;
- ijodiy jarayon, mahsulot va shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari ularning o‘ziga xosligi, mustaqilligi, haqiqiyligi, vazifaga yetarliligi va zarur deb atash mumkin bo‘lgan boshqa estetik, ekologik, optimal shakli, hozirgi vaqtda to‘g‘ri va original bo‘lgan xususiyat;
- ijodiy mahsulotlar tabiatda juda ko‘p turli xil bo‘lishi mumkin: matematikada masalaning yangi yechimi, kimyoviy jarayonning kashf etilishi, musiqa, rasm yoki she’rlar yaratish, ijtimoiy muammolarning noyob yechimi va boshqalar.

Akmeologiya nuqtayi nazaridan, ijodkorlik ko‘plab shaxslarga xos bo‘lgan jarayon va shaxsning intellektual va shaxsiy xususiyatlari majmuasi sifatida tavsiflanadi, bu muammolarni mustaqil targ‘ib qilish, ko‘plab original g‘oyalarni yaratish va ularni noan’anaviy hal qilishga yordam beradi.

A.Golovanova ijodni o‘rganishga bo‘lgan turli yondashuvlarni tahlil qilgach, ijodni ikki asosiy jihat - prosessual va shaxsiy jihatdan o‘rganilishini umumlashtirdi. Ijodkorlikni prosessual aspektda o‘rganish subyektning ijod predmetini, umuman obyektiv voqelikni o‘zgartirish xususiyatlari hamda bunday o‘zgarish bosqichlari va natijalarini o‘z ichiga oladi.

O‘z navbatida, aksariyat mualliflarning fikriga ko‘ra, pedagogik jarayon sharoitida ijodkorlik oliy o‘quv yurtlarining innovatsion faoliyati bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u o‘quv jarayoni va iqtisodiyotni modernizasiyalash, uning moddiy-texnik salohiyatini tizimli yangilash va universitet samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion faoliyat bugungi kunda asosiy faoliyat turlaridan birining maqomini oladi (o‘quv va ilmiy bilan birga) va universitet rivojlanishining zaruriy sharti hisoblanadi. Innovatsion faoliyat, avvalo, shaxs o‘z-o‘zini rivojlantirishning sifat bosqichi bo‘lib, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini aks ettirish natijasida vujudga kelgan o‘quv jarayoni subyektlarining o‘z-o‘zini dolzarblashtirish jarayonidir. Shuning uchun ta’lim-tarbiya muhitida o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlari ayniqsa innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi ta’lim muassasalariga xos va bu barqaror tuzilmalar (ijodiy guruhlar, uyushmalar)ning paydo bo‘lishi va avvalgi ijtimoiy tajribadan qat’iy nazar “shaxsiy-yangi” yaratishga qodir bo‘lgan ijodkor shaxslarning paydo bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga ta’limni axborotlashtirish ta’lim muassasalari innovatsion jarayonlarining ajralmas qismidir. Uning negizida axborotlashtirish bu holda axborot mahsulotlari, vositalari va texnologiyalarini o‘qitish va ta’limga joriy etish asosida pedagogik jarayonlarni o‘zgartirishning chora-tadbirlari majmuidir. Ta’limni axborotlashtirishning nazariy asoslari,

avvalo, informatika, so‘ngra kibernetika, tizimlar nazariyasi va didaktikadir. Ta’limni axborotlashtirish didaktik jarayonning muhim tomonlarining o‘zgarishiga olib keladi va pedagogik faoliyat sifati o‘zgaradi. O‘qiyotganlar ko‘p miqdorda turli axborotlar bilan ishlashi, uni integrallashi, qayta ishlash, model jarayonlarini avtomatlashtirish va muammolarni hal qilish, o‘quv faoliyatida mustaqil bo‘lishi va yana ko‘p imkoniyatlarga ega bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi ham muntazam operatsiyalardan ozod bo‘lib, o‘qiyotganlarga tashxis qo‘yish, treninglar va ularning rivojlanish dinamikasini kuzatish imkoniyatini oladi. Shu bilan birga, ko‘p sonli tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayrim o‘qituvchilar ta’limning an’anaviy shaklidan ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanishga o‘tishga tayyor yemaslar. Elektron texnologiya hali ham asosan ta’limning yordamchi vositasi sifatida ishlatiladi.

Xulosa. Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kreativlik mohiyati va tushunchasining ta’rifida noaniqlik yo‘q. Turli fikrlarga qaramasdan, deyarli barcha ta’riflarda ijodkorlik yangi narsalarni yaratish bilan bog‘liq (shaxs va jamiyat uchun). Aksariyat mualliflar kreativlikni insonning ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi, original mahsulot yaratish uchun optimal imkoniyatlardan foydalanib, muammoni idrok etish qobiliyati deb tushunadilar. O‘z navbatida ijod atamasi voqelikning muayyan hodisalarini qayta yaratish va o‘zgartirishga qaratilgan ongli faol inson faoliyati sifatida talqin etiladi. Biroq, asosiy psixologik yondashuvlarga ko‘ra, kreativlik va ijodkorlik ajratilmasligi kerak. Y.Ilin fikrigaga ko‘ra, bu ilmiy yondashuvlarda chalkashlik va noaniq ta’riflarni yaratadi va ularga, albatta, yo‘l qo‘ymaslik kerak. Shuning uchun ham hayotda ijod va kreativlik ajralib chiqishi mumkinligiga qaramay, fanda bu tushunchalar bir xil bo‘lishi kerak.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947− sonli Farmoni. − T., 2017-yil 7-fevral.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. –T., 2019-yil 8-oktabr.

3. Колосей Н.С. Использование облачных технологий в образовательном процессе-условие для совместной работы педагогов и учащихся / Н.С.Колосей–Режим доступа: http://academy.edu.by/files/do%20ikspres/Kolosey.pdf%20.

4. Ткаченко В. Облачные вычисления (Cloudcomputing). Режим доступа:www.lessons-tva.info/archive/nov031.html.

5. Королева А.С. Инновационные технологий современного офиса (Облачные вычисления): учеб. пособие. -Санкт-Петербург: “Высшая школа экономики”, 2012. -88с.

6. Ваганова О.И., Дворникова Е.И., Кутепов М.М., Лунева Ю.Б., Трутанова А.В. Возможности облачных технологий в электронном обучении// Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. – 2017. – № 6-2. – С. 183-187.

7. Дуккардт А.Н., Саенко Д.С., Е.А.Слепцова Е.А. Облачнқе технологии в образовантии // Журнал “Открытое образование” 2014. - №3 – С. 28-36.

8. Азизхаджаева Н.Н. Проблемное обучение высшей школе. - Т.6 РУМЦ.1994.-34

9. Азизхаджаева Н.Н. Вопросы подготовки учителя в системе непрерывного педагогического оброзования.- 1995.-64 с.

10. Azlarov. Y. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T., 2003.-174 s.

11. Azizxodjayeva N.N. Oila pedagogikasi. -T.: “O‘qituvchi”, 1998. -272 b.

12. Айзенк Г.Ю. Проверьте свои способности. Перевод с англ.- М.: “Педагогика – Пресс”, 1992. -176 с .

13. Акбаров А.А. Формирование социальной активносnти будущего учителя через студенчискоесамоупавление.: Автореф. Дисс .канд. пед.наук. -Т., 1991. -22 с.

Ismatulla TO‘XTAROV
Farg‘ona politexnika instituti dotsenti,
falsafa fanlari nomzodi

O‘ZBEK FALSAFASI: TARIXIMIZ KABI QADIM, MA’NAVIYATIMIZ KABI TERAN

Maqolada o‘zbek falsafasi rivoji bilan birgalikda uning bugungi kundagi muammolari to‘g‘risida fikr yuritilgan hamda o‘zbek falsafasi jahon falsafasining bir tarkibiy qismi sifatida rivojlanganligiga ham e’tibor qaratilgan. Unda muallif o‘zbek milliy falsafasi fani boshdan kechirayotgan ayrim muammoli masalalar va ularni hal etishning yangicha yondashuvlari xususidagi o‘z mulohazalarini o‘rtoqlashgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek falsafasi, yunon falsafasi, ingliz falsafasi, Samarqand falsafa maktabi, Buxoro falsafa maktabi, Kant falsafasi, Gegel falsafasi, Forobiy falsafasi, Beruniy falsafasi.*

В статье изложены особенности формирования и развития узбекской национальной философии как составной и неотделимой части всей мировой философии. В ней автор обращает особое внимание на некоторые проблемы современного состояния национальной философии и разделяет со своими рассуждениями решения этих проблем.

Ключевые слова: *узбекская философия, древнегреческая философия, английская философия, самаркандская философская школа, бухарская философская школа, философия Канта, философия Гегеля, философия Фараби, философия Беруни.*

The article describes the features of the formation and development of the Uzbek national philosophy as an integral and inseparable part of the entire world philosophy. In it, the author pays special attention to some problems of the current state of national philosophy and shares with his reasoning the solutions to these problems.

Key words: *Uzbek philosophy, ancient Greek philosophy, English philosophy, Samarkand philosophical school, Bukhara philosophical school, Kant’s philosophy, Hegel’s philosophy, Farabi’s philosophy, Beruni’s philosophy.*

Kirish. Butun insoniyat taraqqiyoti har bir xalqning o‘z tarixi, tili, an’ana va qadriyatlari bo‘lgani singari uning o‘ziga xos falsafasi va ma’naviyati ham mavjudligidan dalolat beradi. Bir-biri bilan uzviy va chambarchas bog‘liq bo‘lganligi bois ularni ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Falsafa, garchi universal qonun va kategoriyalarni o‘rganuvchi umuminsoniy fan hisoblansa ham, ayni paytda, butun bashariyat hayotiga xos muammolar bilan birga muayyan xalq turmushi va taraqqiyotiga oid qonunlarni, maqsad-muddaolarini ifoda etishi bilan boshqa fanlar orasida alohida ajralib turadi. Mustaqillik tufayli bugun yurtimizni butun dunyo tanigan va tan olgan bir davrda “o‘zbek falsafasi” tushunchasining keng miqyosda ilmiy iste'molga kirib kelayotganligi, shubhasiz, juda quvonarli holdir. Zero, shukrlar bo‘lsinki, falsafiy fikr va tafakkur taraqqiyotida juda uzoq va boy an’analarga ega bo‘lishimizga qaramasdan bir necha o‘n yilliklar mobaynida ayrim yot kuchlar tomonidan xalqimizning ilmiy merosi e’tirof etilish o‘rniga, unga nisbatan otilgan ta’na toshlaridan milliy falsafamiz nufuzi zavol ko‘rmadi. Aksincha, g‘animlarimiz har qancha urinishmasin, Yevropaning ma’naviyat sohasida shu kungacha qo‘lga kiritgan yutuqlari o‘tmishda Sharq ma’naviyati ko‘tarilgan kamolot cho‘qqilariga nisbatan go‘dak bolaning “chug‘ur-chug‘uri” darajasidan yuqoriga ko‘tarila olmaganligi (Oldenburg) haqiqatga yaqinroqdir, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Asosiy qism. Fan tarixi bilan chuqurroq tanishuv shundan dalolat beradiki, unda Sharq fani ko‘plab g‘arblik tadqiqotchilar tomonidan “ko‘chirmakashlik”, “ilmiy yangilikning yo‘qligi”, “umuminsoniy qadriyatlar darajasida emas”ligi singari nohaq sifatlar bilan ayblanib kelindi. Bu borada sobiq Ittifoq davrida ahvol yanada yomonlashdi. Chunki bu davrga kelib barcha sohalar singari falsafa fani taraqqiyoti ham siyosiy tamoyillar mezoni yordamida o‘lchanganligi bois milliy fanimizning nufuzi rus og‘alarimiz nafsoniyatiga tegmaydigan darajada rivojlanishi uchun ruxsat berildi, xolos. Natijada, garchi, dunyodagi barcha tibbiyot muassasalarida darslik sifatida keng foydalanilayotganligiga qaramasdan, aytaylik, Ibn Sinoning “Tib qonunlari” yurtimizda M. Gorkiyning “Ona” romanining adadidan ortiqroq nusxada chop etilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Oqibat shu bo‘ldiki, sovet davrida milliy falsafamiz aksar hollarda rivojlanish o‘rniga hukmron mafkura qobiqlari doirasida kun ko‘rishga majbur bo‘ldi.

Yuzaki qaraganda ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar ham bir maromda amalga oshirilgandek tuyulsa ham, aslida “sotsialistik turmush tarzi”, “ateistik dunyoqarashni shakllantirish” kabi mavzular sun’iy ravishda dolzarblashtirilib, qator-qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Pirovard oqibatda esa bunday tadqiqotlardan o‘zbek falsafasi hech qanday naf ko‘rmadi, balki uning obro‘-e’tibori tushib, tadqiqotlar samaradorligi oshishi o‘rniga dissertatsiyabozlik avj oldi, ilmiy unvonlarni tezroq qo‘lga

kiritish asosiy maqsadga aylandi. Avlod-ajdodlarimizdan qolgan diniy merosni puxta o‘rganishga esa mustamlakachilik yillarida avjiga chiqqan ta’qibu-tazyiqlar ta’sirida hech kimning yuragi betlamadi.

Xuddi shu ma’noda o‘tgan asrning 90-yillari boshida ro‘y bergan sobiq sovet tuzumining inqirozi natijasidagi intihosi o‘zbek falsafasining qayta rivojlanishi uchun ibtido bo‘lib xizmat qildi. Buni juda teran anglagan Respublikamiz Birinchi Prezidenti I.Karimov “zamon va makon bilan bog‘liq murakkab fan” bo‘lgan falsafa fanini yangi davr talablariga mos ravishda rivojlantirish vazifalarini faylasuflarimiz oldiga ko‘ndalang qilib qo‘yishgan edi: “Falsafa barcha fanlarning otasi. Falsafani bilmaydigan odam – medisina yoki ta’lim, san’at yoki madaniyat sohasi vakili bo‘ladimi, bundan qat’iy nazar – hayotning, o‘z kasbining ma’no-mazmunini yaxshi tushunmaydi. Misol uchun, tarixni tahlil qilish uchun har bir voqea va jarayonga falsafiy qarash, ularni umumlashtirgan holda zarur xulosalar chiqara olish kerak. Shu bois tarixchi bo‘lish uchun falsafiy tafakkur qobiliyatiga ega bo‘lish darkor” [1, 117]. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotini yanada tezlashtirish, uning dunyoga yuz tutishi va jahon hamjamiyatidan o‘zining munosib o‘rnini egallashi maqsadida yurtimizning boy falsafiy ilmi va ma’naviy merosidan butun jahon ahlini voqif qilish zarurligi masalasiga doimiy e’tibor qaratib kelishmoqda [1].

Agar jahon falsafasiga nazar tashlansa, uning hamisha zamon va makon bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligiga va o‘zining milliy falsafasi va taraqqiyot modelini yaratgan xalqlar ko‘p emasligiga to‘liq ishonch hosil qilish mumkin. Bugungi kunda “yunon falsafasi”, “hind falsafasi”, “xitoy falsafasi”, “ingliz falsafasi”, “fransuz falsafasi”, “nemis falsafasi” yoki “rus falsafasi” kabi atamalar muloqot jarayonida keng qo‘llanilayotganligi yuqoridagi fikrimizga yaqqol dalil bo‘la oladi. Bu falsafiy maktablarning har biri borliq, hayot va voqelikka o‘ziga xos yondashuvi natijasida o‘z xalqining betakror qiyofasini ham o‘zida mujassamlashtirgan. Ularning har birida xalqiga xos bo‘lgan muayyan mentalitet va ma’naviyat, dunyoqarash va tafakkur tarzi o‘z aksini topgan. Natijada dunyoviy fanlar rivoji hali “yo‘rgak”da bo‘lgan bir paytda shakllangan qadimgi yunon, hind, xitoy falsafiy maktablariga xos bo‘lgan umumiylik olam va borliq binosining asoslarini aniqlash, uning mavjudligi va rivojlanishining qonuniyligini fahmlashdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, fransuz falsafasi bu yorug‘ dunyoda ma’rifat ahkomlari bilan qurollangan holdagina jangovarroq turmush kechirish ma’qulligini targ‘ib qilganligi bilan ajralib turadi. Nemislar esa, aksincha, “aqlga muvofiq narsalarning hammasi voqeiy, voqeiy narsalarning hammasi aqlga muvofiq” (Gegel) ekanligini shior qilgan holda murosasozlik yo‘lidan borish tarafdori bo‘lganlar. Shuningdek, falsafaning asosiy mazmuni va mohiyati hayotning ma’nosini anglashdan iboratligini yoki faqat foyda ketidan quvishni o‘rganishgina hayot falsafasining mazmunini tashkil qilishini da’vo qiluvchi falsafiy maktablar ham insoniyat tafakkuri tarixidan munosib joy egallaganliklari bugungi kunda barchaga kundek ravshan.

Milliy davlatchilik rivoji va yuksalishi ham ko‘p hollarda falsafiy qarashlar va ta’limotlar taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Zotan, kuchli davlatchilik kuchli falsafaga doimo ehtiyoj sezgan. Bunga Qadimgi Afina va Rim, bobomiz Amir Temur asos solgan ulkan saltanatlar misolida insoniyat tarixida ko‘plab davlatlarning gullab-yashnagan davrida falsafa fani rivojiga ham katta e’tibor qaratilganligiga oid dalillarni keltirish mumkin. Xususan, Temur davlatining dovrug‘i yetti iqlimga yoyilishida sohibqironning harbiy kuch-qudratidan tashqari o‘z atrofiga oqilu-fozil insonlarni to‘plab, saltanat ishida har bir masalada ularning fikrlarini puxta o‘rganib, faylasufona qarorga kelish uchun harakat qilganligi juda muhim rol o‘ynagan. Bu haqida “Temur tuzuklari”da qayd etilgan “...tajribamdan o‘tmishkim, garchi ishning yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashiringan bo‘lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengash tadbir istab, fikrlarini bilmoq lozimdir”, degan so‘zlari xuddi shundan dalolat beradi. [3, 15]

Biroq biz uchun e’tiborga molik jihati shundaki, yuqorida qayd etilgan falsafa maktablari orasida yurtimiz va xalqimiz tarixiga bevosita daxldor bo‘lgan atamalar bilan nomlangan “Samarqand falsafa maktabi”, “Buxoro falsafa maktabi”, “Movarounnahr falsafa maktabi”, “Turkiston falsafa maktabi” kabilar ham mashhur bo‘lgan. Ularning o‘ziga xos betakror tomoni mazkur maktablar nomlari turlicha bo‘lsa-da, yagona o‘zbek xalqining falsafiy tafakkur taraqqiyotiga tegishli bo‘lgan umumiy jihatlarni o‘zida mujassamlashtirganligidir. Bu esa, o‘z navbatida, milliy falsafamizni tariximiz kabi qadim, ma’naviyatimiz kabi teran, deya ta’riflash uchun asos bo‘la oladi. Zero, aynan mustaqillik xalqimizga mustamlakachilik zulmi ostida judo bo‘layotgan milliy davlatchiligimiz, ma’naviyatimiz qadriyatlar, falsafiy ta’limotlarimiz, madaniyatimiz va tilimiz kabi qadriyatlarni qaytarib berdi, uning egilgan, biroq bukilmagan qaddini rostlash, asl haqiqatlarini qayta tiklash imkonini yaratib berdi. Ayniqsa, mustaqillik davrida “taraqqiyotning o‘zbek modeli” deb atalgan konsepsiyaning yaratilishi milliy falsafamiz taraqqiyotiga qo‘shilgan katta yutuq bo‘ldi.

Vaholanki, falsafaning azaliy qonunlariga ko‘ra, inson ongi va tafakkurining o‘zgarishi, odamzot dunyoqarashining yangilanishi osonlikcha yuz beradigan hodisa emas. Ayniqsa, muayyan davrdagi tub burilish va o‘zgarishlar bu jarayonning davomli va murakkab kechishiga olib keladi. Ana shunday damda unga sifat jihatidan yangicha turtki beradigan milliy falsafaning mavjud bo‘lishi beqiyos ahamiyatga ega. Xuddi shu nuqtayi nazardan ham taraqqiyotimizning o‘zimizga xos va mos modeli to‘g‘risidagi ta’limotning

tushuncha va tamoyillari bugungi o‘zbek falsafasining o‘ziga xos xususiyat va yo‘nalishlarini belgilab berdi hamda milliy tafakkur yangilanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Muhokamalar va natijalar. Bugungi kunga kelib o‘zbek falsafasining sarchashmalari bo‘lgan xalqimizning boy o‘tmishi, ilmiy merosi, avlod-ajdodlarimizning tafakkur ziyosi bilan yaratilgan durdona asarlarini o‘rganish borasida juda katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. Ular jahon fani va madaniyati rivojiga shu qadar katta ijobiy ta’sir ko‘rsatganki, buni mashhur ingliz olimasi Xilda Xukxem xonimning “Amir Temurning beshigini tebratgan zaminda, X-XI asrlardayoq falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, geografiya, nazm va tarixnavislik borasida jahonshumul asarlar yaratilgan. Bu beqiyos ilmiy-ma’rifiy taraqqiyot Yevropa Uyg‘onish davriga turtki berdi va Yevropa ilm-fani kamol topishiga mustahkam asos bo‘lib xizmat qildi”, degan samimiy e’tirofidan ham ko‘rishimiz mumkin.

Biroq shunga qaramasdan moziyning turli davrlarida umrguzaronlik qilgan muqaddas zaminimiz farzandlarining dunyoviy va diniy ilm sohalari bo‘yicha qoldirgan intellektual mulki butun bo‘y-basti bilan o‘rganilgan, deb ayta olmaymiz. Ba’zi mutaxassislarning hisob-kitobiga ko‘ra, O‘zbekistonda hozirgi kunga qadar o‘rganilmagan nodir qo‘lyozmalar 80 mingdan ortiqni tashkil qiladi. Ularni batafsil o‘rganish va xalqimizga taqdim etish bugungi o‘zbek falsafasining kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalaridan biridir. Zero, qariyb uch ming yillik davlatchilik tarixiga ega bo‘lgan xalqimiz dunyoqarashining shakllanishi va takomillashuv bosqichlarini har tomonlama chuqur va puxta o‘rganish turli jarayonlardan to‘g‘ri xulosa chiqara olish, xilma-xil voqea-hodisalarning ro‘y berish sabablari, muayyan ta’limotlarning xalqlar rivoji yoki tanazzuli tomon yetaklash muddaolari to‘g‘risidagi haqiqatlarni bilish bilan birga millatning o‘zligini anglashida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, uni o‘rganish ham qandaydir “evropasentrizm”, “osiyosentrizm” singari milliy mahdudlik yoki etnik tarafkashlik da’volari asosida emas, balki xalqimiz yaratgan bebaho meros, odamzot tafakkurining o‘lmas mahsuli va tarkibiy qismi sifatida xolisona o‘rganilishi har bir avlod vakillari tomonidan tarixdan to‘g‘ri xulosalar chiqara olishi uchun o‘ta muhimdir. Buning o‘rniga, bizningcha, ushbu munosabatlarda G‘arb ham, Sharq ham hech qachon mutlaq yetakchilik da’vosini qilolmasligini, aksincha, bunda har ikki sivilizatsiyaning bir-biriga o‘zaro katta ta’siri bo‘lganligini ta’kidlash adolatliroq. Boshqacha qilib aytganda, Sharq olimlari yunon fani va falsafasidan qancha bahramand bo‘lgan bo‘lsa, ming yil jaholat zulmatiga botgan G’arb fani Sharqda ko‘tarilgan ilm-fan quyoshi nurlari ta’sirida ko‘z ochib, “uyg‘ondi”. Sharq fani va falsafasiga ancha bepisandlik bilan munosabatda bo‘lgan buyuk nemis faylasufi G. Gegelning o‘zi ham bu to‘g‘rida “Nur - Sharqdan” iborasini qo‘llaganligi esa Sharq fani va falsafasi salohiyatining jahonda tan olinganligiga yaqqol ishoradir va bu hodisaning aforistik ifodasi bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda “o‘zbek falsafasi”ning tub ildizlari, nazariy-metodologik manbalari, rivojlanish xususiyatlari batafsil bayon qilib berilgan fundamental tadqiqotlar, kitoblar, o‘quv-yordamchi adabiyotlarni yetarli deb bo‘lmaydi. Binobarin, buning uchun salohiyatli intellektual kuchlarni saralash va ushbu vazifalar ijrosini ta’minlashga jalb etish choralari ko‘rilishi lozim.

Respublikamizdagi barcha oliy ta’lim dargohlarida o‘zbek falsafasi kafedralari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va shu nomdagi o‘quv fani bo‘yicha darsliklarini tayyorlashga kirishish maqsadga muvofiqdir. Vaholanki, inglizlarda “Ingliz falsafasi” bilan birga “Bekon falsafasi”, “Parsons falsafasi”, nemislarda esa “Nemis falsafasi” bilan birga “Kant falsafasi”, “Gegel falsafasi” nomlari bilan ataladigan maxsus falsafiy kurslar o‘rganiladi. Fransuz va ispanlarda ham, greklar va italyanlarda ham shunday. Har bir millat o‘z falsafasini, birinchi navbatda, o‘zi chuqur bilishi, hurmat qilishi, undan faxrlanishi va dunyoqarashining ajralmas qismi va asosiga aylantirishi, so‘ngra esa, zarurat bo‘lsa, boshqalarga ham tavsiya etishi va targ‘ib qilishining asosiy yo‘li ham aslida ana shunday bo‘lgani ma’qul. Milliy falsafamizda esa, yuqoridagi millatlarni hech bir kamsitmagan holda aytish mumkinki, o‘rganishga arziydigan “Farg‘oniy falsafasi”, “Forobiy falsafasi”, “Beruniy falsafasi”, “Ibn Sino falsafasi”, “Ulug‘bek falsafasi” singari maxsus falsafiy kurslarni ulardan ko‘ra ko‘proq tashkil etish imkoni bor.

Ayni paytda shuni ham alohida ta’kidlash zarurki, milliy falsafamizni yanada yuksakroq bosqichga ko‘tarish uchun, avvalo, jahon falsafasini chuqur o‘rganish, dunyoning o‘zga hududlarida yashab o‘tgan faylasuflarning qarashlari va ta’limotlari bilan yaqindan tanishish, ularni qiyosiy tahlil qilish, zamonaviy falsafiy qarashlar rivojiga xos bo‘lgan umumiy va juz’iy tendensiya va yondashuvlardan tegishli xulosalar chiqarish, dunyo allomalarining mumtoz asarlarini ona tilimizga tarjima qilish kabilar ham bugungi kun falsafiy tafakkur jarayonining dolzarb talablaridandir.

Fikrimizcha, bugungi kunda butun jahon falsafasi oldida turgan muhim vazifalardan yana biri hozirgi dunyoning ilmiy-falsafiy manzarasini, muayyan g‘oyalar va yondashuvlarning zamonaviy taraqqiyotga ta’sirining o‘rni va ahamiyatini teran tasavvur qilishdan ham iboratdir. Aytish lozimki, ushbu vazifa milliy o‘zbek falsafasi uchun ham yot emas.

Xulosa. Gap falsafa fani to‘g‘risida borarkan, hozirda uning davrdan orqada qolayotgani, ba’zi “olim”larning zamon bilan hamnafas holda faoliyat ko‘rsata olmayotganligi, davlat va jamiyat, qolaversa, davr talablariga javob bera olmay qolayotganligi to‘g‘risidagi mulohazalarda jon borligini ham tan olmaslikning iloji yo‘q. Falsafa fani bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalarini yaratishda muqobillik asosidagi raqobat muhiti hali-hanuz yaratilmagan, mualliflar mehnatini munosib rag‘batlantirish tamoyillari ham mukammal emas. Bu borada sohadagi ahvol ijobiy tomonga o‘zgarmasa va jarayon shunday davom etaversa, falsafa o‘zining asl mohiyati va qiyofasini, xalqimizning dunyoqarashi va tafakkurini shakllantiradigan, yoshlarni qanday yashash, mazmunli hayot kechirish va umrni samarali o‘tkazishga o‘rgatadigan fan sifatidagi qadri va ahamiyatini, binobarin, hayotdagi va ta’lim tizimidagi o‘rnini butunlay yo‘qotib qo‘yishi mumkin, degan xavotirlar tashvish uyg‘otmasligi mumkin emas. Shunday ekan, bu borada zudlik bilan tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, ilmiy paradigmalarni yangilash, mutaxassislarning fanga va uning jamiyatdagi o‘rniga nisbatan munosabati va yondashuvi, tadqiqotchilarning mas’uliyati bilan bog‘liq qarashlarni o‘zgartirish davrimizning dolzarb talabiga aylanganligini har qachongidan ko‘ra chuqurroq his etish lozim.

Shuningdek, bugungi kun voqeiligi falsafiy adabiyotlarning xalqchilligini ta’minlash, darslik va qo‘llanmalarning tili hamda ifoda usullarini milliy ruhimizga yaqinlashtirish masalasiga nisbatan ham e’tibor kuchaytirilishi lozimligini ko‘rsatmoqda. Holbuki, jahon tajribasida bu borada falsafa mavzularini qanday yoritish, qay tariqa asoslash va tushuntirib berishni o‘rganishimiz uchun nihoyatda muhim manba bo‘la oladigan namunalar bor. Ularda eng murakkab, serqirra falsafiy kategoriya va tushunchalarning ta’riflari va izohlarini ham sodda va ravon tilda, yuksak mahorat bilan ifoda etishning maqsadga muvofiq bo‘lgan yondashuvlari mavjud. O‘zbek falsafasining evolyusiyasi va dinamikasi, umumiy qonuniyatlari va o‘ziga xos xususiyatlari har tomonlama keng va chuqur ifodalangan asarlar yaratish, ularda zamonaviy falsafaning tushuncha va tamoyillari yaxlit tizimga keltirish, uning rivojlanish yo‘llari va imkoniyatlarini atroflicha ko‘rsatib berish bugungi kundagi zamondosh faylasuflarimiz oldida turgan dolzarb vazifalardir.

Modomiki shunday ekan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mohiyati va ahamiyatini anglash, ildizlari ming yilliklar qa’ridan kuch oladigan milliy falsafamiz rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, uni zamonaviylashtirishga qaratilgan sa’y-harakatlarda samarali ishtirok etish uchun, avvalo, har birimiz zimmamizdagi mas’uliyatni yanada chuqurroq his etishimiz lozim.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug‘ xalqning – ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi– T.: “O‘zbekiston”, 2020.

2. Karimov I.A. Yoshlarga ishonch bildirish, ularning tashabbus va salohiyatini ro‘yobga chiqarish – bugungi kunning ustuvor vazifasidir. // Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. – T.: “O‘zbekiston”, 2006.

3. Temur tuzuklari. - T., 1991.

Ulfat MAHKAMOV
Toshent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti professori, pedagogik fanlari doktori

Dilafruz ISMOILOVA
Toshent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Munisa MALIKOVA
Toshent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti pedagogika-psixologiya yo`nalisshi 2-kurs talabasi

BO’LAJAK O’QITUVCHILARNI TARBIYAVIY ISHLARGA TAYYORLASH

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy ishlarga tayyorlashning mohiyati, tizimi, mahorati, kasbiy faoliyatiga oid masalalar ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlari: *o‘qituvchi, tarbiya, ta’lim, o‘quvchi, ilm, malaka, aql, muomala, maktab, oila, talaba, shaxs.*

В статье научно и педагогические обоснованно сущность, система, навыки, профессиональная деятельность подготовки будущих учителей к воспитательной работе.

Ключевые слова: *учитель, воспитание, образование, ученик, наука, опыт, обшаться, школа, семья, студент, личность.*

This article is scientifically and pedagogically based on the essence, system, skills, professional activites of preparing future teachers for educational work.

Key words*: teacher, upbringing, pupil, science, qualification, intellect, treatment, school, family, student, person*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida mamlakatimiz yoshlari, ta’lim xodimlari uchun unutilmas tarixiy sanaga aylandi. Chunki ushbu Murojaatnomada prezidentimiz yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim tizimi islohotlarini yanada chuqurlashtirish, o‘qituvchilarining obro‘sini yuksaltirish, “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida o‘z malakalarini uzluksiz oshirib borish masalalariga alohida e’tibor qaratdilar. Prezidentimiz “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” deb ta’kidalagan edi. Bu gap jamiyatimiz taraqqiyotining ayni bosqichi uchun juda topib aytilgan. Unda ilmga berilgan baho, tarbiyaga berilgan ijobiy sifat va bilimsizlikka nisbatan munosabat mavjud. Biz ayni paytda ilm-ma’rifatni rivojlantirmasdan taraqqiyotning keyingi bosqichiga chiqa olmaymiz. Buning uchun esa tizimdagi muammolarni bartaraf qilish, ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani to‘g’ri yo‘lga qo‘yish lozim. Bu yorug’ dunyoni quyoshsiz, yer-u osmonsiz tasavvur etib bo‘lmaganidek, hayotimiz mazmun-mohiyatini mehribon o‘qituvchilarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki o‘qituvchi bitmas-tuganmas mehr va kuch-g’ayrati bilan qanchadan-qancha shogirdlarni kamol topishida fidoiylik, mehribonlik ko‘rsatadi.

Asosiy qism. O‘qituvchi ustozlik faoliyatida millionlab farzandlarga ta’lim va tarbiya beradi. Shu jihatdan ham O‘zbekistonda o‘qituvchi obro‘-e’tibori tobora ortib bormoqda. Qudrati va salohiyati rivojlanmoqda. O‘qituvchi - mahalla va xonadongacha kirib borishi bilan birga, yoshlarni kasb-hunarga o‘qitishda, tadbirkorlik sohasidagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashda fidoiylik bilan mehnat qilmoqda. Mamlakatimizda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar, shubhasiz, ta’lim sohasini ham qamrab olmoqda. ta’lim tizimining keyingi chorak asrdagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim turlari o‘rtasidagi aloqa va uzviylik takomillashtirilmoqda. “Bugungi kunda Chirchiq davlat pedagogika institutining katta ilmiy jamoasi bajarayotgan keng ko‘lamli ilmiy-amaliy va tarbiyaviy ishlar, xususan, oliy ta’lim muassasasining o‘ziga xos “tashrif qog’ozi”ga aylanayotgan pedagogik innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish ustida olib borilayotgan tadqiqotlar viloyatda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan. Izlanish va tajriba-sinov ishlarining dastlabki natijalari pedagogik ta’limda o‘z ijobiy samarasini bermoqda” [3].

Institutda bo‘lajak o‘qituvchilarni talabalik yillaridanoq ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ta’lim-tarbiyaga doir islohotlarni mazmun-mohiyati va ahamiyatini chuqur o‘rganish va ularni keng targ’ib qilish, ularning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda har tomonlama ko‘maklashishi, bilimlarini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g’ri yo‘naltirish, ular o‘rtasida sog’lom turmush tarzini ta’minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirishda tizimli chora- tadbirlarni amalga oshirish ta’lim-tarbiya masalalarini chuqur tahlil qilish, ilg’or tajribalar asosida mavjud muammolarini hal qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan holda maktabda o‘quv-tarbiya faoliyatini mustahlamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘quvchi tarbiyasidagi rolini oshirish, tadbirlarni muvofiqlashtirish, davlat va jamoat tashkilotlari bilan samarali hamkorlikni ta’minlash,

ularga uslubiy-amaliy ko‘maklashish kabilar amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bu o‘rinda bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiya jarayonida turli tashkilotlar tomonidan o‘quvchi-yoshlarning muammolarini o‘z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda farzand tarbiyasi muammolari , ehtiyojlari va qiziqishlarini uyma-uy yurish orqali o‘rganish ishlarini tashkil etishda mahalla raislari va oqsoqollari ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosarlarning faoliyatini samarali tashkil etishda yordam berish tajribasiga ega bo‘lish, oilalarning ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti, tarbiya muammolarini aniqlash va hal qilish bo‘yicha mas’ul idora va rahbarlarning faoliyati bilan hamkorlikda muvofiqlashtirishda tashkilotchilik qobiliyati ega bo‘lishlari muhim o‘rin tutadi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilar tarbiya masalalariga oid muammolarini hal etish bo‘yicha “yo‘l xaritalarini” ishlab chiqib, amalga oshirish va maktab pedagogik kengashlarida har oyda hisobot berish ta’lim muassasalarida o‘quvchilar sog’lig’ini tiklash ishlarini tashkil etish mahoratiga ega bo‘lishlari, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni egallashi bilan bog’liq tadbirlarni amalga oshirishlari muhim hisoblanadi.

Yuqoridagi masalalar yuzasidan muntazam ravishda seminar mashg’ulotlarida, pedagogik amaliyot jarayonida munozaralar, savol-javoblar, tadbirlar o‘tkazish, referatlar tayyorlash kabilar talabalarni tarbiyaviy ishlarga tayyorlash malakalarini oshiradi.

Hozirgi kunda uzluksiz ta’limda qator dolzarb muammolar mavjud. Pedagog kadrlarga bo‘lgan talab, malakali o‘qituvchilarga ehtiyoj, ta’lim turlari o‘rtasida uzviylik va integratsiya, ta’lim-tarbiya sifatini oshirish, o‘qitishga nisbatan tizimli yondashuv yangi mexanizmni yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Unda ta’lim turlari o‘rtasida o‘zaro nazorat ham, raqobat ham, manfaatlar ham ta’minlanishi zarur. Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti ana shu muammoning ilmiy-nazariy va amaliy yechimini topish asoslarini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish vazifalari belgilangan. Institut faoliyatida zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilish masalalari ta’lim-tarbiya jarayonlaridan chuqur o‘rin egallagan.

Muhokamalar va natijalar. Bugungi kunda institutda ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, pedagogik kadrlar tayyorlashga oid o‘ttizga yaqin ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmoqda. Ularda xalq ta’limi tizimidagi muammolar yechimi bo‘yicha loyihalar tajriba-sinovdan o‘tkazilyapti. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy ishlarga tayyorlash bo‘yicha institutda tomonidan yigirma ikkita maktabda “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchasi va “Modulli maktabgacha ta’lim laboratoriya”lari tashkil etilgan. Ushbu tajriba-sinov maydonchalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy ishlarga tayyorlash masalasi amalga oshirilmoqda.

“Maktab- laboratoriya”lar tarbiya jarayoni yadrosini tashkil etish bilan birga talabalarga ilmiy-pedagogik va innovatsion loyihalarni yaratish hamda tajriba-sinovdan o‘tkazish bilan bog’liq vazifalarni ilmiy, uslubiy jihatdan amaliyotga tatbiq etishda o‘z samarasini berishda bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy ishlarga tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, kelajakda zamon talablariga javob beradigan pedagog kadrlar bo‘lishini ta’minlash maqsadida “Kelajak o‘qituvchisi konsepsiyasi” ishlab chiqilgan.

Ta’lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg’unligiga erishish, talabalarda tarbiyaviy ishlar metodikasi ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ularni maktab o‘quvchilarning hayotiy vaziyat va sharoitlarini o‘rganish maqsadida institutda “Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy ishlarga tayyorlash” markazi tashkil etilgan. Markazda “Xalq pedagogikasi va tarbiya”, “Markaziy Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi g’oyalari”, “Tarbiya jarayonida o‘qituvchi mahorot”, “Tarbiya usullari”, “Shaxs kamolotida tarbiya”, “O‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajalari” kabi mashg’ulotlar amalga oshiriladi.

Institutning asosiy vazifalari xalqaro ta’lim standartlariga mos ravishda yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash, bakalavriat va magistraturaning tegishli yo‘nalishlarida yangi o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalarini yaratish orqali o‘quv-uslubiy ishlar sifati va saviyasini oshirish, ilmiy-pedagogik salohiyatni rivojlantirish, pedagogik texnologiyalarni va o‘qitish uslublarini faol takomillashtirish, ilmiy izlanishlar olib borish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish orqali ta’lim sifatini va dasturlarini yaxshilashga, ayniqsa, yoshlar uchun ilmiy tadqiqot salohiyatini kengaytirishga qaratilgan o‘qituvchi inson hayoti rivojida ustoz vazifasini bajaradi.

Albatta, ushbu ishlarini amalga oshirishda o‘qituvchilarning o‘z fanini chuqur bilishi, pedagogik mahorati va psixologik tayyorgarligi, tafakkuri o‘quv-tarbiya faoliyatining asosini tashkil etadi.

Shu jihatdan ham bo‘lajak o‘qituvchilar tarbiya jarayonida o‘quvchilarga insonlar hayotiga bo‘lgan qiziqish, undan ibrat olish kabilarni singdirishi ularni nimagadir o‘rgatishda ota-onalarining axloqini namuna qilib ko‘rsatishi o‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi, ular o‘rtasidagi munosabatlarini ma’naviy fikrlashining shakllanishini vujudga keltiradi. Chunki ota-onalarning hayoti va faoliyati o‘quvchilarni

jamiyat va tabiat hodisalarini tushunishida va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda va hayotda o‘z o‘rnini topishda ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchi yoshlarning sog’lom turmush tarzi, madaniyatini shakllantirish, qizlarni onalikka tayyorlash, ijtimoiy-siyosiy statusini mustahkamlash kabi dolzarb masalalarini amalga oshirishda oila va mahallalarning o‘zaro hamkorligi asosida tarbiyaviy ishlarni tashkil etadi. Yoshlarda sog’lom turmush madaniyatining shakllanishida ota-onalarning hayotiy tajribasi katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda ota-onalar bilan suhbatlar qurish pedagogik targ’ibotini olib borishni taqozo etadi.

Tarbiya - bu o‘smirning ijtimoiy shakllanishi va rivojlanish jarayonini ta’minlovchi faoliyat sifatida qo‘yilgan maqsadga erishish usullari va vositalarining majmui hisoblanadi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy shakllanishi, ichki olamining ifodalanishi, ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun sharoit yaratishga imkon beruvchi tarbiya turlaridan keng foydalanishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilishi ularda mustaqil izlanish, ijodiy yondashish, o‘quvchi shaxsiga ta’sir ko‘rsatish, bolalarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga zamin yaratish, ularning foydali ish bilan shug’ullanishi, hayotda o‘z yo‘lini topishiga imkoniyat yaratish kabilarni amalga oshirishda tarbiya metodlari va texnologiyalarini rivojlantirish muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar

1. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi 1059-son 31.12.2019.

2. Ismoilova Z. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. - T.: “Istiqlol”, 2003.

3. Muxammedov G’. Pedagogik ta’limda Chirchiq tajribasi. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2021-yil 7-mart. 48- son.

Manzura YULDASHEVA
Buxoro davlat tibbiyot instituti
o‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi o‘qituvchisi

AJDODLAR MEROSIDA OILAVIY MUNOSABATLAR TALQINI

Mazkur maqolada ajdodlarimiz zardushtiylar ta’limoti va ularning muqaddas kitobi “Avesto” matnlarida yoritilgan oilaviy munosabatlar tizimi hamda farzandlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *ajdodlar merosi, tarbiya, ma'naviyat, ezgulik, oila, farzand, salomatlik, barkamollik.*

В статье раскрыто содержание семейных традиций и духовно-нравственного воспитания детей в семье, которое отражено в учении наших предков зороастрийцев и их священной книге “Авесто”.

Ключевые слова: *родовое наследие, воспитание, духовность, доброта, семья, дети, здоровье, совершенство.*

This article describes the content of the spiritual and moral upbringing of children in the family, which is reflected in the teachings of our ancestors Zoroastrians and their holy book “Avesto”.

Key words: *ancestral heritage, upbringing, spirituality, kindness, family, children, health, perfection.*

Kirish. Har qanday jamiyatning asosini, o‘zagini oila tashkil etadi. Xalqimizning azaliy qadriyatlari, an’analari hisoblanmish: halollik, or-nomus, mehr-oqibat, sadoqat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlar, eng avallo, oilada shakllanadi. Ayniqsa, o‘zbek oilalarining mustahkamligi, muqimligi va manguligi ana shu ma’naviy an’analarga tayanganligi bilan bog‘liqdir. Shularni hisobga olgan holda “o‘zbek oilalarining ma’naviy asoslarini tadqiq qilish” [7] muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Zardushtiylarning hayot tarzi, ularning tabiat va olam haqidagi tassavurlari, axloqiy-ijtimoiy qarashlari, shuningdek, “Avesto”ni o‘rganishga qaratilgan tom ma’nodagi yirik tadqiqotlar XVIII asr boshlarida G‘arb olimlari va tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirila boshlandi. J.Bauje, F.Vol'f, G.Pommel, Jem Darmsteter, En Rasko, G.Ritter, A.Bryunuf, X.Bartolome, M.Myuller, A.Dyuperon, I.Maymers, M.Boys, R.Fraylar zardushtiylik dini, tarixi, falsafasi, zardushtiylarda dunyoviylik, hayotiylik, turmush madaniyati, urf-odatlar, an’analar, shuningdek “Avesto” va boshqa pandnomalarning badiiy-ma’rifiy qimmati, tili va ko‘pgina boshqa jihatlari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borib, keyingi davr ilmiy xodimlari uchun mustahkam poydevor yaratdilar. Mustaqillik sharofati bilan Zardushtiylarning tarixi va “Avesto”ni o‘rganishga bo‘lgan talab va ehtiyoj bir qator taniqli tarixchi, adabiyotshunos, etnograf, musiqashunos, huquqshunos, geograf, ekolog olimlarning ushbu sohaga murojaat qilib, tadqiqot ishlarini amalga oshirishlariga imkoniyat yaratdi. Olima Fozila Sulaymonovaning “Sharq va G‘arb”, H.Homidiyning “Avesto fayzlari”, “Avesto va tibbiyot”, “Avestodan Shohnomaga”, S.Nishonovaning “Komil inson tarbiyasi”, T.Mahmudovning “Avesto haqida”, H.Boboev, S.Hasanovlarning “Avesto ma’naviyatimiz sarchashmasi”, “Avesto Sharq xalqlarining bebaho yodgorligi”, M.Umarzodaning “Ovisto sirlari”, M.Ishoqovning “Avesto”da ezgulik va yovuzlik, N.Mahmudovaning “Avestoda ta’limiy-axloqiy qarashlar”, A.Ashirovning “Avesto”dan meros marosimlar”, Q.F.Abdullayevning “Zardushtiylarning ta’lim tizimi” kabi bir qator tadqiqotlarida Zardushtiylik ta’limotining nazariy asoslari, zardushtiylarning udumlari, odatlari, oilaviy munosabatlar tizimi, “Avesto”ning yaratilishi, vatani, ilmiy-ma’rifiy jihatlari, axloqiy, ekologik, huquqiy tarbiya masalalari singari ko‘p jihatlari muayyan tarzda o‘rganilib yangi ilmiy xulosalarga kelingan.

Qadim zamonlardan boshlab, Turonzaminda xalq og‘zaki ijodi namunalari, Qur’oni Karim va hadislarda, buyuk qomusiy olimlarimizning betakror, o‘lmas asarlarida oila masalalari, oilaviy munosobatlar tizimi talqin etilgan , maxsus tavsif etilgan.

Ana shunday ma’naviyatimizning ko‘hna sarchashmalaridan biri bo‘lgan, qadimgi Turon va Eronzamin xalqlarining mushtarak ma'naviy qadriyati hisoblanmish “Avesto”da ham insoniyat va uning taraqqiyoti bilan bog‘liq tasavvurlar, ma’naviy-ruhiy va axloqiy mezonlar, olamni, tabiatni bilishga bo‘lgan ehtiyoj va intilish, insondagi eng oliyjanob, pok fazilatlar kuylanishi bilan bir qatorda, oila asoslari, tuzilishi, tarkibi, oila ma’naviyati, ota-onalarning oiladagi mavqelari, oilada ayol erki, burchi va huquqlari yuksak ma’naviy va axloqiy chizgilar asosida tavsiflanganligi diqqatga sazavordir.

“Avesto”da patriarxal oila jamiyatning eng quyi bo‘g‘inini tashkil etilishi aytilib, u o‘z ichiga 4 avlod va 9 guruhni olganligi ta’kidlanadi. Oila markazida oila boshlig‘i - kadxudo turgan. Xo‘jalikni er va xotin boshqarib, oila davrasiga: ota-ona , er-xotin, farzand va nevaralar kirishgan. Shuningdek oila tarkibiga: otaning aka-ukalari va opa-singillari, aka-ukalari hamda ularning bolalari va nevaralari ham mansub

bo‘lishgan. Lekin ona tomon qarindoshlar va ota tomondan opa-singillarning bolalari oila tarkibiga kiritilmagan. Chunki ular o‘z xonadonlarining oila a’zolari hisoblanishgan. Istisno tariqasida ota tomon aka-ukalarning qizi oilaning to‘la huquqli a’zosiga aylangan [3, 90]. Zardushtiylarning oila ta’limoti asosini hayotning davomiyligi, naslning aslligini ta’minlash va, avvalo, oila qanday negizga qurilganligi masalasi tashkil etadi. Oilani tashkil etish esa, dastavval, nikoh bilan bog‘liqdir. “Avesto”ning Vendidod qismida oila butunligini saqlash, nikoh tuzish tartiblari, nikohning bekor qilinishi sabablari va shartlari ancha batafsil bayon qilingan: “- ikki kishi, xoh dindosh, xoh birodar, xoh do‘st bir-birovi bilan nima xususda paymon bog‘lasalar - biri ikkinchisining xonadonidan o‘ziga xotin tanlasa, so‘zsiz uning talabi qondirilishi lozim” [1, 44] yoki: “men bu so‘zlarim bilan kuyov tanlamoqchi bo‘lgan bolig‘a qizlarga va siz ikki tanga ham nasihat qilaman. Mening o‘gitlarimga quloq solinglar va uni haqiqatda xotirangizga jo qiling va o‘z dinlaringizni topinglar-da, uni amalda joriy etinglar” [1, 32]. Bunga ko‘ra nikoh zurriyod qoldirish uchun irodasi mushtarak ikki tanni qovushtiradi. U yigit va qizning bir-birini chuqur hurmat qilishiga asoslangan birligidir.

Qadimgi ajdodlarimizda balog‘at yoshi 15 yosh hisoblanib, oila qurishga imkoniyati va qobiliyati bo‘lgan har bir yigit oila qurish va o‘zidan zurriyod qoldirishga majbur bo‘lgan. Imkoniyati bo‘la turib, uylanmay yurgan yigit badnom qilinib, temir kamar bog‘lab yursa, balog‘atga yetgan qiz bola umuman turmushga chiqishni istamasa qopga solinib yigima besh darra kaltaklanish bilan jazolangan va darmongoh huzuridagi dori tayyorlash korxonasiga ishga jalb etilgan. “Kimning xotini bo‘lsa, u xotinsiz va dunyodan farzandsiz o‘tayotgan kimsadan yaxshiroqdir” [1, 47].

Lekin oila masalasida yoshlar erki paymol qilinmagan. Qiz bolani turmushga berish ota-ona izmida bo‘lsa ham, nikoh oldidan uning roziligi so‘ralgan. Shuningdek, “Kadxudo (er), kadbonu (xotin) mashvaratisiz, roziligisiz, qizini erga berish huquqiga ega bo‘lmagan” [5, 59]. Bu o‘rinda oila ahilligi, yaqinlar o‘rtasidagi iliq munosobatlar, o‘zaro hurmat, xususan, ayollarga ehtirom va ular erkini himoya qilish zarurligi yuksak axloqiy tamoyil sifatida e’zozlangan :

“- Qo‘y, nikohga intiq bo‘lgan g‘ayratli qizlar,
So‘rasinlar zor-intizor kutgan kunlarin
Xonadonin bir bahodir sohibini ham” [1, 177].

Nikohga va oila qurishga tayyorgarlik jarayonida qiz bola tarbiyasiga alohida e’tibor berilgan. Qiz balog‘atga yetguncha o‘z davrining barcha hunarlarini bilishi, chorva mollariga qarash, parvarishlash, uy ro‘zg‘or yumushlarini mukammal tarzda ado etishi, pokiza, ozoda yurishi shart bo‘lgan. Bu yo‘nalishda qiz bolaning ham ma’naviy, ham jismoniy sog‘lom , barkamol bo‘lishi, birinchidan oilaning mustahkam, xonadonning farovon bo‘lishini ta’minlasa, ikinchi tomondan sog‘lom farzandlarning dunyoga kelishiga zamin yaratgan bo‘ladi. Zardushtning o‘z qiziga qarata “Ey Puruchista, .. Ey Zardushtning bolig‘a qizi! Mazda Ezgu niyat va Ashah haqiqatga inongan zotni senga tiriklikning yo‘ldoshi aylaydi. Shunday ekan, o‘z aqling va idrokingdan savol ayla, .. Hushyorligingni ziyoda qil!” deya xitob qilishi barcha qizlarga o‘rnak qilib ko‘rsatiladi.

Zardusht qizining ismi Puruchista deb atalashi bejiz emas. Chista – pahlaviyda “farzang”. Ma’nosi - bilim, donish, ogohlik, farzonalik. Ilmu donish ilohasi. O‘n oltinchi yasht “Din yasht”da Chistaga keng ta’rif berilgan, uning sha’niga olqish va madhiyalar o‘qilgan. “Din yasht”da ilm-fan, bilim va donishmandlik ilohasi Chistaning madh etilishi shuni ko‘rsatadiki, zardushtiylik dini rahnamolari va peshvolari qiz bolalar tarbiyasida ilm-fan va dinning uyg‘unligi va bir butunligini ta’kidlaganlar. Mehr yashtda Chista “oq libosli” sifati bilan tavsiflanadi. Shu o‘rinda zardushtiylik dini ustoz va murabbiylari dastur va ma’budlarining ham doimo oq libos kiyib yurishlari Chistaga, ilm-fanga bo‘lgan hurmat va ehtirom ramzi sifatida izohlanadi.

Prof. H.Homidov “Avesto”da turmushga chiqish va uy bekasi bo‘lishning 5 turi: 1) podshoh xotin; 2) ayuqxotin; 3) chokar xotin; 4) o‘zboshimcha xotin; 6) sita xotinlar ko‘rsatilganligini aytib o‘tib, ularning har biriga qisqacha izoh beradi. Bu izohlarda nikoh tuzish va oila qurishdagi huquqiy holatlar, oila tuzilishi va shakllari tavsiflanganligi diqqatga sazavordir. Shuningdek, nikohni bekor qilish tartiblariga to‘xtalib o‘tib, arzimas bahonalar bilan nikohni buzish, bekor qilish jamiyat tartibining susayishiga olib kelinishini alohida qayd qiladi.

Muhokamalar va natijalar. “Avesto”da zurriyodning pokizaligi, naslning sog‘lomligi xususida qayg‘urilib, bunga erishish yo‘li sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish, jamoat, oila, shaxsiy ozodalik, gigiyenaga rioya qilish, shuningdek, oila qurish jarayonida har jihatdan benuqson, sog‘lom kelinlar tanlash uqtiriladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarning asosini “har tomonlama yetuk, barkamol, sog‘lom shaxsni tarbiyalash” masalasi tashkil etar ekan, ajdodlarimizning 3 ming yil ilgari, bu a’molga yetishning yo‘llari, qoidalarini ishlab chiqib, davlat va jamiyatning poydevori hisoblanmish oila negiziga qo‘yganlari yuksak tahsinga sazavordir: “Menga barkamol va dinogoh, vatansevar va anjumanoro, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag‘ishla” [1, 90].

Qadimda yaratilib, asrlar osha sayqal topgan bu o‘gitlar keyingi zamonlarda yangicha ta’limot ta’sirida muayyan o‘zgarishlarga uchrab, ularning mazmunan yaqin variantlari paydo bo‘lganini ko‘rish mumkin. Jumladan, Kaykovus “Qobusnoma”da: “xotin olsang ulug‘ salog‘lig‘ xonadondin xotin talab qilg‘il... Xotin kamolg‘a yetg‘on, oqila bo‘lg‘on...bo‘lsin” [4, 82] desa buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temur o‘z “Tuzuklar”ida: “O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim” deya ibratli mulohazalarini bayon etgan. Ko‘rinib turibdiki, barcha zamonlarda ham ajdodlarimiz xalq va millatning sog‘lom, jisman va ma’nan barkamolligi xususida qayg‘urishgan. Qadimgi ajdodlarimiz nasl sog‘lomligining irsiy jihatlarini ham yaxshi bilgan ko‘rinadilar. Shu maqsadda ular yaqin qarindosh-urug‘lar, ya’ni aka-uka, opa-singillar farzandlarining o‘zaro nikohga kirishiga aslo yo‘q qo‘ymaganlar. Bunday nikoh naslning, qonning buzilishiga, nuqsonli bolalarning tug‘ilishiga olib keladi degan aqidaga qat’iy amal qilganlar. “Vendidod”da bu holatlarga maxsus fargardlar bag‘ishlangan.

“Avesto”da qattiq qish kelib, barcha tirik jonzotlarning qirilib ketish xavfi tug‘ilganda shoh Jamshid tangri buyrug‘iga ko‘ra, yer ostiga shahar-varlar qurganligi va bu manzilgohlarga “Axriman nafasi tekkan”, deb har xil kasalliklarga chalingan, nuqsonli kishilar va jonzotlarni kiritmaganligi tasvirlanadi: “… zinhor u yerga bukrilar, pushtsizlar, g‘o‘llar, duyasana (haromzoda bolalarning ota-onasi), dayvak, kasvish, vizborish (tanasi va badanida illati bor kishilar), so‘yloq tishli, umuman Axriman o‘z dog‘ini qoldirgan biror bir kimsani kirita ko‘rma!” [1, 110].

Shuningdek, “Avesto”da oilaning mustahkamligini ta’minlaydigan asosiy aqoidlardan biri bu sadoqat va o‘zaro ishonch ekanligi ta’kidlanib, er-xotinning bir-biriga xiyonati qattiq la’natlangan, begona erkak bilan juftlashgan ayol badnom qilinib, jazolangan va nikohdagi eri uchun “harom” hisoblangan: “ey jodugar xotin, yo‘qol! Ey badkor xotin-kaxovariza, yo‘qol!”

“Avesto”da keltirilgan dalillar shuni ko‘rsatadiki, qadimgi ajdodlarimiz bolalarning nafaqat benuqson tug‘ilishi va hatto chaqaloqligidan jismoniy tarbiyasiga jiddiy e’tibor beribgina qolmasdan, balki ilmu-hikmat va hunarlarni o‘rganishi, ma’naviy sofligi, yaxshilik va ezgulik xislatlarini egallashlari to‘g‘risida ham bevosita g‘amxo‘rlik qilishgan. Zeroki, bolalarda axloqiy, aqliy, jismoniy, jinsiy, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, vatanparvarlik tarbiyasini berish qatorida rostgo‘ylik, saxovatlilik, insonparvarlik kabi fazilatlarni tarbiyalashga jiddiy e’tibor berilgan [6].

Xulosa. Ko‘rinib turibdiki, zardushtiylar hayotida ma’lum qoida va ahkomlarga aylangan oilaviy munosobatlar tizimi hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Xususan, oila mustahkamligiga e’tibor berish barcha zamonlar uchun muhimdir. Ajdodlarimizning boy ma’naviy-madaniy merosi oila va turmushning turli qirralarida, yosh avlodni oila va nikohga tayyorlashda, ularni ma’naviy, axloqiy xislatlarini shakllantirish va takomillashtirishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Mahkam A. Avesto. -T.: “Sharq”, 2001.
2. Абдуллаев К.Ф. Особенности воспитания и образования у зороастрийцев. *GISAP. Educational sciences* 3 (2014). 47-50.
3. Маковельский О. Авеста. –Баку, 1961.
4. Kaykovus. Qobusnoma. -T.: “O‘qituvchi”, 1988.
5. Homidov H. Avesto fayzlari”. T. 2001. 59-bet
6. Yuldasheva M. M. Qadimgi pandnomalar yosh avlod ma'naviy kamoloti sarchashmasi sifatida. // “Tibbiyotda yangi kun”. 2-son 2020, 27 -29 –betlar.
7. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma’naviyati. -T.: “Ma’naviyat”, 1998. 4-b.

Mavjuda GULAMOVA
Buxoro davlat tibbiyot instituti dosenti, kimyo fanlari nomzodi

Ilhomjon SHUKUROV
Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti, biologiya fanlari nomzodi

Chori XAYRULLAYEV
Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti, texnika fanlari nomzodi

Brel Anatoliy KUZMICH
Volgagrad davlat tibbiyot unversiteti professori, kimyo fanlari doktori

O‘ZBEKISTONDA AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR, IMKONIYATLAR VA SHAROITLAR

Ushbu maqola mamlakatimizda sog’liqni saqlash tizimini takomillashtirishni ochib beradi. Onalik va bolalikni ijtimoiy himoya qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Muallif jahon hamjamiyatining sog’lom turmush tarzi sohasida davlatimizning erishgan yutuqlarini tan olishini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: *sog’lom saqlash, islohotlar, tibbiy yordam, barkamol avlod.*

В данной статье раскрывается совершенствование системы здравохранения в нашей стране. Уделяется особое внимание насоциальной защите материнства и детства. Автор анализирует признание мирового сообщества достижения нашего государства в сфере здравохранения.

Ключевые слова: *здравохранение, реформа, медицинское обслуживание, гармонично развитое поколение.*

In this article described improvement of health care system in our country. Essential attention is given to social protection of motherhood and children. The author analyses admitting of achievement of our governmentin the sphere of health care by the world society.

Key words: *health care, reform, medical service, harmoniously developed generation*

Kirish. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimovning “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlarida O‘zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy ahvoli chuqur tahlil etilib, boshqa o‘tkir masalalar singari sog’liqni saqlash kabi muhim muammoga ham alohida e’tibor qaratilgan. Unda quyidagi fikrlar mavjud: “E’tiborni ijtimoiy masalalarga qaratish haqida gapirar ekanmiz, sog’liqni saqlashni yaxshilash birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlash zarur. Bu tarmoq moddiy bazasining nihoyatda qashshoq ekanligi, ustiga, bizda bu soha yaxshi tashkil etilmagan va samarali foydalanilmayotir. Millatning zurriyod fondini, hech mubolag’asiz aytish mumkinki, halokatdan saqlab qolish uchun keng ko‘lamli tadbirlarning katta kompleksini amalga oshirish kerak bo‘ladi” deya ta’kidlanadi. Bu boradagi sa’y-harakatlarda mustaqillikning ilk davrida davlatimizning Birinchi Prezidenti tomonidan belgilab berilgan beshta muhim tamoyildan biri – kuchli ijtimoiy siyosat tamoyilining debochasi sifatida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi sog’liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to‘g’risida”gi Farmon mustahkam poydevor, asosiy tayanch vazifasini o‘tab keldi.

Asosiy qism. Har bir ota-ona o‘z farzandini nikoh yoshiga yetganda emas, balki ancha avvalroq, sog’lig’iga e’tibor berishi lozimligi muhim masalalardan biri hisoblanadi. 1998-yil O‘zbekiston Respublikasi “Oila kodeksi” [1]ning 17-moddasida nikohlanuvchi shaxslarning nikohlari qayd qilinmasdan avval tibbiy ko‘rikdan o‘tish kerakligi belgilab qo‘yilgan edi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgust qarori [2]ga binoan, nikohlanuvchi shaxslarning nikohi qayd qilinmasdan avval chuqurlashtirilgan, sifatli tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladigan bo‘ldi. Mazkur qarorga ko‘ra, nikohlanuvchi shaxslar endi tibbiy ko‘rikdan avvalgiday umumiy tartibda tekshiruvdan o‘tmasdan, besh xil kasallik: ruhiy, narkologik, zahm, sil, SPIDlar bo‘yicha o‘zlari ro‘yxatda turgan poliklinikada mukammal tibbiy ko‘rikdan o‘tishadi. Yigit-qizlarda belgilangan kasallik qayd etilsa, turmush qurish-qurmasligi o‘zlarining ixtiyoriga tashlanadi. Nikohdan oldin tibbiy tekshiruvdan o‘tish ko‘p davlatlarda majburiy ekan. Demak, inson salomatligi, jamiyat pokligini o‘ylab qilingan zaruriyatni inson erkiga daxl qilish deb tushunish to‘g’ri bo‘lmaydi. O‘zbekistonda tibbiy tekshiruv bepul etib belgilangan. Respublikamizda bir yilda 160 000 (320 000 yigit-qiz) ro‘yxatga olinadi.

Mustaqillik yillarida tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, qishloq vrachlik punktlari faoliyatini takomillashtirish orqali u yerda istiqomat qilayotgan aholiga tibbiy xizmat yordamini yaqinlashtirish, tibbiyotning 10 ta muhim yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazlarni tashkil etish kabi talaygina samarali faoliyatlar amalga oshirildi. Birinchi Prezidentimizning 2011-yil 28 noyabrdagi “Sog’liqni saqlash tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish chora tadbirlari to‘g’risida”gi PQ-1652-sonli Qarori [3] asosida, respublikamizning eng chekka rayonlarida yana 102 ta qishloq vrachlik punkti tashkil etilib, ularning moliyaviy texnik bazasi rivojlantirildi. Mamlakatimizda xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan “Sog’lom ona – sog’lom bola” dasturi doirasidagi chora-tadbirlar yillar davomida yangi bosqichga

ko‘tarildi. Ayniqsa, BMT, YUNISEF va boshqa xalqaro jamg’armalar bilan hamkorlikda “Salomatlik-3” loyihasi doirasida tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, zamonaviy texnik vositalar yordamida malakali tashxis qo‘yish, kasalliklarni ilk bosqichda davolash ishlari aniq reja asosida olib borildi, profilaktik tadbirlarda aholining barcha qatlamlarini qamrab olishga alohida e’tibor qaratildi. Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha poytaxtimiz va viloyatlarimizda zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlangan diagnostika, skrining va perinatal markazlari, yangi tug’ruq majmualari barpo etildi. Birgina “Ona va bola skriningi” Davlat dasturi doirasida barcha viloyatlarda yangi skrining markazlari tashkil etildi. Aholi salomatligi, xususan, onalar va bolalar sog’ligini muhofaza qilish borasida mamlakatimizda erishilgan yutuqlar 2011-yili Toshkent shahrida o‘tkazilgan “O‘zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: “Sog’lom ona – sog’lom bola” mavzusidagi xalqaro simpoziumga qator xalqaro tashkilotlar, jumladan, Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti, YUNISEF tomonidan yuksak baholandi.

2007-yilda O‘zbekiston “Salomatlik hamda bolalar va o‘smirlarning rivojlanishi” nomli Yevropa strategik dasturini amalga oshirish uchun Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti tomonidan belgilab berilgan 53 ta davlatdan 4 tasi qatoriga kiritildi va hukumatimizning sog’lom avlodni tarbiyalash, shuningdek, mazkur g’oyani amalga oshirishga tayyor ekanligi tanlovda g’olib bo‘lishning asosiy mezoniga aylandi. 2010-yilda Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti tomonidan o‘zbek tibbiyot modeli boshqa mamlakatlarga namuna sifatida tavsiya etildi. Buyuk Britaniyaning “Save the children” (Bolalarni asraylik) tashkiloti tomonidan 2011-yilda O‘zbekiston – 161 ta davlat orasida bolalar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha 10 ta yetakchi davlat sifatida o‘rin egalladi. Mamlakatimizda epidemiologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida qator yillar davomida aholi o‘rtasida poliomielit, bo‘g’ma, qoqshol kasalliklari ro‘yxatga olinmadi. 2002-yilda O‘zbekiston poliomielit virusidan xoli hududligi to‘g’risida Jahon sog’liqni saqlash tashkilotining sertifikatiga ega bo‘ldi. Amalga oshirilayotgan profilaktik va epidemiyaga qarshi samarali tadbirlar natijasida o‘lat, vabo, sariq isitma, kuydirgi, parranda grippi kabi karantin va o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar, shuningdek, yangi A (HINI) grippining yurtimiz hududiga chetdan kirib kelishi va aholi o‘rtasida tarqalib ketishiga yo‘l qo‘yilmadi.

Muhokamalar va natijalar. Yillar solnomasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1999-yil - “Ayollar yili”, 2000-yil - “Sog’lom avlod yili”, 2001-yil - “Onalar va bolalar yili”, 2008-yil - “Yoshlar yili”, 2010-yil - “Barkamol avlod yili”, 2012-yil - “Mustahkam oila yili”, 2014-yil - “Sog’lom bola yili”, 2016-yil - “Sog’lom ona va bola yili” deb e’lon qilindi. 2017-yilning 7-fevralida Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “O‘zbekistonni 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi” [4] tasdiqlandi. Mazkur yillarda qabul qilingan Davlat dasturlari hamda unga binoan, amalga oshirilgan ishlar mamlakatimizda har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekistonda bu boradagi qo‘lga kiritilgan yutuqlar xorijlik mutaxassislar tomonidan ham tan olindi. Masalan, Latviya sog’liqni saqlash vaziri Ingrida Sirsene shunday dedi: “O‘zbekiston sog’liqni saqlash sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi va bu tahsinga loyiqdir. ... bu boradagi ishlar Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti standartlari va ustuvor vazifalarga muvofiq amalga oshirilmoqda. Statistika ham O‘zbekistonda aholi, jumladan, xotin-qizlar va bolalar salomatligini muhofaza qilish tizimidagi ijobiy o‘zgarishlardan yaqqol dalolat beradi”. Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti Yevropa mintaqaviy byurosining reproduktiv salomatlik bo‘yicha maslahatchisi Gunte Lazdane ham bu masalaga o‘z munosabatini bildirib shunday yozadi: “O‘zbekistonda ona va bola salomatligini asrash masalasi umummilliy harakat darajasiga ko‘tarilgan. Ayollar va bolalar manfaatini himoyalashga qaratilayotgan bunday doimiy e’tibor va g’amxo‘rlik o‘z samaralarini bermoqda”.

Mamlakatimizda insonlar salomatligini muhofaza qilish borasida amalga oshirib kelinayotgan keng ko‘lamli islohotlar butun jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e’tirof etilmoqda. Bularni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga BMTning yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo‘yicha idoralararo ishchi guruhi (YUNIATF) mukofoti topshirildi.

“Yuksalish” umummilliy harakati xabariga ko‘ra, YUNIATFning 11-yig’ilishida (2018-yil 8-9-noyabr, Jeneva) yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish va nazorat qilishda o‘zining salmoqli hissasini qo‘shayotgan shaxslar yutuqlarini tan olish va ommalashtirish maqsadida har yili maxsus mukofot ta’sis etishga qaror qilindi. 2019-yil 20-may kuni Jenevada Jahon sog’liqni saqlash assambleyasi (JSSA)ning 72-sessiyasida JSSAning JSST Yevropa mintaqasi bo‘yicha vitse-prezidenti etib O‘zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash vaziri Alisher Shodmonov saylandi.

O‘zbekiston dunyoning oz sonli mamlakatlari qatorida o‘z hududida bezgakni to‘liq yo‘q qilishga erishganini e’tirof etgani katta yutuqdir. Davlatimiz rahbarining 2018-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi sog’liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g’risida”gi Farmoni [5] bilan tasdiqlangan 2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sog’liqni saqlash

tizimini rivojlantirish konsepsiyasi yaratishda JSST ekspertlarining ulkan yordamini alohida ta-kidlash lozim. Xalqaro ekspertlarning ko‘magi tufayli sog’liqni saqlashni moliyalashtirishni yaxshilash, majburiy tibbiy sug’urta va elektron sog’liqni saqlash tizimini joriy etish, sog’lom turmush tarzi va sog’lom ovqatlanishni targ’ib qilish, yuqumli va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar, salomatlik uchun zararli bo‘lgan odatlarga karshi kurash kabi qator vazifalar bo‘yicha samarali choralar ko‘rilmoqda.

Ma’lumki, bugun koronavirus pandemiyasi butun dunyo bo‘ylab keng tarqaldi va O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi. Ayni kunlarda barcha kuch va vositalar, mablag’ va resurslar koronavirus epidemiyasining keng tarqalishining oldini olish, virus bilan kasallanganlarni talofatsiz sog’aytirish, butun mamlakatning sanitariya-epidemiologiya holatini barqarorlashtirishga yo‘naltirilgan.

Fuqarolarning hayoti va sog’lig’ini muhofaza qilish maqsadida 2020-yil 23-mart kuni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori [6] qabul qilindi. Unda quyidagi qo‘shimcha vazifalar ham ko‘rsatib o‘tildi: koronavirus infeksiyasi aholi o‘rtasida tarqalishini oldini olishga qaratilgan zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta’minlash; huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlarining faoliyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtirish; birinchi navbatdagi dori vositalari, niqob va tibbiy buyumlarning (dezinfeksiya vositalari va boshqalar) aholiga qat’iy belgilangan narxlarda uzluksiz yetkazib berilishini nazorat qilish; respublikada koronavirus infeksiyasi tarqalishi bilan bog’liq vaziyatni muntazam tahlil qilish va boshqalar. Virusga qarshi kurash va insonlar hayotini saqlab qolish mas’uliyati esa, tabiiyki, shifokorlar gardaniga tushgan. Pandemiya shifokorlik qanchalik muhim kasb egalari va ularning jamiyatda o‘z o‘rniga ega ekanini ko‘rsatib berdi. Shunday sharafli vazifani o‘z qasamyodiga sodiq qolgan holda bajarib kelayotgan tibbiyot xodimlarining har bir kuni qahramonlikdir.

Ayni paytda yurtimizda koronavirusning kirib kelishi va tarqalishining oldini olish yuzasidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta’minlash, epidemiyaga qarshi kurashish va karantin qoidalariga rioya etilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatildi.

Respublika hududida koronavirusga qarshi kompleks chora-tadbirlar va, eng asosiysi, mas’uliyatni chuqur his qilgan aholi tomonidan o‘zini yakkalash hayot tarziga o‘tganligi va “ijtimoiy masofalanish” tamoyiliga amal qilishi aniq samara bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 27 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali yig’ilishda Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek, “Biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o‘tkazmaylik, agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yetarli bo‘lmasa, kutilgan natijalarga erishish mushkul bo‘ladi”[8].

Xulosa. O‘zbekistonda bugun erkin fikrlaydigan, mamlakat taraqqiyotiga o‘ziga xos munosib hissa qo‘shayotgan barkamol yosh avlod vakillarining ijtimoiy hayotga kirib kelishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda yorug’ kelajagimiz bo‘lgan bolalarga ishonch va hurmat-e’tibor bilan qaralib, ularning sog’lom va baquvvat bo‘lib voyaga yetishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar butun dunyo jamoatchiligi tomonidan tan olinayotganligi bejiz emas, albatta.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Oila kodeksi” (1998-yil).
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 2003.09. 25. Qarori. https://lex.uz/ru/docs/-245890
3. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2011-yil 28-noyabrdagi “Sog’liqni saqlash tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish chora tadbirlari to‘g’risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/-2356266
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g’risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-3107036
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-dekabrdagi “O‘zbekiston respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-4096197
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi 2020-yil 23-mart Qarori. https://lex.uz/docs/-4772484
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zR Konstitusiyasi qabul qilinganligining 27 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali yig’ilishda “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir” ma’ruzasi. //Xalq so‘zi, 2019-yil 9-dekabr.

Ikromjon TOSHOV
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi tinglovchisi,
Buxoro viloyat sudi sudyasi

YAPONIYADA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINING HUJJATLARI USTIDAN SUD NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maqolada Yaponiyada mahalliy davlat hokimiyat organlarining hujjatlari ustidan sud nazoratini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari va O‘zbekiston bilan qiyosiy tahlili o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *Yaponiya, Konstitutsiya, Oliy sud, Ma’muriy sud, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ma’muriy akt, yuridik shaxs, arizachi.*

В статье рассмотрены особенности осуществления судебного контроля над документами органов государственной власти на местах в Японии и их сравнительный анализ с Узбекистаном.

Ключевые слова: *Япония, Конституция, Верховный суд, административный суд, органы местного самоуправления, административный акт, юридическое лицо, заявитель.*

In the article, the peculiarities of the implementation of judicial control over the documents of local government authorities in Japan and comparative analysis with Uzbekistan are described.

Key words: *Japan, Constitution, Supreme Court, Administrative Court, Local Government bodies, administrative act, legal entity, applicant.*

Kirish. Yaponiya Konstitutsiyasining 44-moddasiga ko‘ra, butun sud hokimiyati Oliy sudga va qonunda belgilangan hollarda quyi sudlarga berilgan. Nobuyoshi Ashibening yozishicha, sud hokimiyatining vazifasi qonunni sharhlash va qo‘llash, keyin aniq ishlarni hal qilishdir [1]. Konstitutsiyaning 81-moddasida sud nazorati belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, Oliy sud har qanday qonun, buyruq, qoidalar yoki rasmiy aktning, jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlari hujjatlari ustidan sud nazoratini amalga oshirishi mumkin [2]. Mahalliy davlat hokimiyat organlari hujjatlari ustidan sud nazorati ma’muriy sud ish yurituvi qonunchiligi bilan bog‘liq.

Yaponiyada ma’muriy sud amaliyotining paydo bo‘lishi 1948-yilgi “Xirano ishi” bilan bog‘liq. Mazkur ishdan so‘ng ma’muriy sud ish yurituvi amaliyoti keskin o‘zgarib ketdi. Ma’muriy akt asosida ishdan bo‘shatilgan deputat Xirano sudga ishga tiklash bo‘yicha shikoyat bilan chiqdi. Tokio sudi shikoyat arizasini qanoatlantirdi. Aynan ushbu sud qarori qabul qilinganidan keyin Amerika ishg‘ol kuchlari Bosh shtabi fuqarolik protsessidan farq qiladigan ma’muriy sud ish yurituvini maxsus qonuniy tartibga solish zarurligini tan oldi. Natijada, 1948-yilda “Ma’muriy ishlarni ko‘rib chiqishning maxsus qoidalari to‘g‘rsidagi” Qonun qabul qilindi.

Bugungi kunda Yaponiyada ma’muriy sudlov sohadasigi munosabatlarni tartibga soluvchi turli xil qonunlar mavjud:

1) 1962-yil 15-sentyabrdagi “Ma’muriy shikoyatlarni ko‘rib chiqish to‘g‘risida”gi Qonun;

2) 1962-yil 1-oktyabrdagi “Ma’muriy sud ish yurituvi to‘g‘risida”gi Qonun.

“Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risida”gi Qonun ma’muriy sud ish yurituvini asosiy qonuni hisoblanadi. U 5 ta bo‘lim, shu jumladan 46 ta moddani o‘z ichiga oladi. Ushbu qonun katta hajmga ega emas, asosan ma’muriy sud ish yurituviga tegishli maxsus qoidalarni o‘rnatilgan, qolgan masalalar esa Yaponiya Fuqarolik protsessual kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. Shuning uchun ham Yaponiya ma’muriy huquqi sud ish yurituvini faqatgina ma’muriy sud ish yurituvi bilan bog‘liq masalalarga urg‘u beradi.

Sudga shikoyat qilishning eng muhim usuli da’vo qilish hisoblanadi. Bu huquqi buzilgan shaxs tomonidan amalga oshiraladi.

Qonun Kikoshu-sosho vaziyatida odatdagi 4 ko‘rinishdagi da’vo turlari borligini nazarda tutadi.

1. Ma’muriy aktni bekor qilishni nazarda tutuvchi da’vo. Bunda ma’muriy akt dastlabki yoki asosiy ma’muriy qarorni anglatadi.

2. Dastlabki ma’muriy akt ustidan berilgan ma’muriy shikoyatni ko‘rib chiqishda sud tomonidan muayyan holatlar yuzasidan kiritilgan aniqliklar (ta’riflar) yoki amalga oshirilgan sudlov jarayonini bekor qilishni nazarda tutuvchi da’vo.

3. Ma’muriy aktni yuridik kuchga ega emas deb topishni nazarda tutuvchi da’vo.

4. Ma’muriy organning harakatsizligini noqonuniy deb topish so‘ralgan da’vo.

Yaponiyada ma’muriy sud ishlarini yuritish shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin: 1) dastlabki ko‘rib chiqish; 2) ishni mohiyatan ko‘rib chiqish (hal qilish). Ma’muriy huquq sohasidagi olimlar birinchi bosqichda muammolarni hal qilish bilan bog‘liq masalalarga urg‘u beradilar. Ishni dastlabki ko‘rib chiqish jarayonida ishni sudga taalluqliligiga oid talablar tekshiriladi, masalan: a) da’vogarning sudga shikoyat qilish huquqi bor yoki yo‘qmi; b) ishda ma’muriy akt (qaror) mavjudmi; g) da’vogar ma’muriy akt bo‘yicha e’tiroz bildirish huquqiga egami; d) ish ma’muriy ishlar bo‘yicha sud muhokamasida yoki fuqarolik protsessida ko‘rib chiqiladimi.

Da’vo qonunchilikda belgilangan talablarga javob bersa, keyingi ish yurituvga qabul qilinadi. Agarda belgilangan talablarga javob bermasa, u rad etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksning 108-moddasiga ko‘ra, sud quyidagi hollarda ish yuritishni tugatadi, agar:

1) ish ma’muriy sudga taalluqli bo‘lmasa;

2) sudning ayni bir shaxslar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo‘lsa;

3) arizachi bo‘lgan yuridik shaxs tugatilgan bo‘lsa;

4) ishda taraf hisoblangan fuqaroning vafot etganidan so‘ng nizoli huquqiy munosabat huquqiy vorislikka yo‘l qo‘ymasa;

5) arizachi talabidan voz kechgan va sud uni qabul qilgan bo‘lsa;

6) davlat ro‘yxatidan o‘tishni rad etish yoki bundan bo‘yin tovlash to‘g‘risidagi arizani (shikoyatni) ko‘rilayotganda huquq to‘g‘risida nizo kelib chiqqan bo‘lsa;

7) to‘plangan materiallarning yo‘qotilgan sud ishini yoki ijro ishini yuritishni tiklash uchun yetarli emasligi.

Ish yuritishni tugatish to‘g‘risida sud ajrim chiqaradi. Sud ajrimda ish yuritishni tugatish asoslarini ko‘rsatadi, shuningdek, sud xarajatlarini taraflar o‘rtasida taqsimlash va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda davlat bojini byudjetdan qaytarish to‘g‘risidagi masalalarni hal qiladi. Ajrimning ko‘chirma nusxasi ishda ishtirok etuvchi shaxslarga yuboriladi. Ish yuritishni tugatish to‘g‘risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Ish yuritish tugatilgan taqdirda, ayni bir shaxslar o‘rtasidagi, ayni bir predmet to‘g‘risidagi va ayni bir asoslar bo‘yicha nizo yuzasidan sudga takroran murojaat qilishga yo‘l qo‘yilmaydi [3].

Mahalliy davlat hokimiyat organlari hujjatini sud tomonidan bekor qilish bo‘yicha da’vo qilish uchun ma’muriy hujjat qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim? Yaponiya Oliy sudining 1964-yil 29-oktyabrdagi qaroriga ko‘ra, ma’muriy hujjatlar (a) ommaviy-hokimiyat va (b) bevosita (individual) huquqiy munosabatni tartibga solishi lozim. Ushbu masala bo‘yicha Yaponiya Oliy sudi amaliyotidan bir nechta ishlar keltirib o‘tsak. Masalan, Yaponiya Oliy sudi 2006-yil 14-yanvarda suv narxini oshirish to‘g‘risidagi mahalliy qarorni bekor qilish to‘g‘risidagi da'voni rad etdi. Oliy sud suv ehtiyojlarini qondirish uchun narxlarni oshirish ma’lum bir doiraga tegishli bo‘lgan harakat emas deb baholadi. Binobarin, ushbu akt ma’muriy akt emas va sud tartibida shikoyat qilinishi mumkin emas [4]. 1966-yil 23-fevralda Oliy sud arxitektura rejasining noqonuniyligiga qarshi da’vo arizasini ham rad etdi, chunki bu hujjat ham ma'muriy akt emas. Biroq, Yaponiya Oliy sudi 2008-yil 10-sentyabrdagi qarorida oldingisiga o‘xshash boshqa holatda o‘z pozitsiyasini o‘zgartirdi. Sud o‘z pozitsiyasini o‘zgartirishda jamoat manfaatlarini ustunligini ta’minlash asosiy rol o‘ynadi.

Ma’muriy aktni bekor qilish bo‘yicha sud protsessida eng qiyin masala sud ish yurituvining ishtirokchisi bo‘lgan da’vogarning o‘zidir. Bu yerdagi asosiy muammo da’vogarni aniqlashdir. Masalan, Yaponiya Oliy sudi 1978-yil 14-martdagi qarorda ma’muriy aktni bekor qilish to‘g‘risidagi da’vo arizasini qondirmadi. Biznesda adolatni ta’minlash uchun ayollar iste]molchilar huquqlarini himoya qilish idorasi ustidan shikoyat qilishgan. Ushbu agentlik shikoyatni rad etdi, chunki tashkilot aslida huquqlarni buzgan tomon emas edi. Bundan norozi bo‘lib, ayollar ushbu organ qarorini bekor qilishni talab qilib sudga murojaat qilishdi. Agarda qonunda ma’lum bir shaxslarning huquqlari himoya qilinsa, sud tomonidan ularning huquqlariga monelik qila olmaydi. Lekin, ma’lum shaxslar toifasi uchun imtiyozlar berilishi mumkin emas.

Sud nazorati ilmiy jihatdan ancha munozarali tushunchadir. Sud nazorati obyekti bu normativ aktlar, shuningdek davlat organlar va mansabdor shaxslarning muayyan huquqiy oqibatlarga olib keladigan harakatlari (harakati va harakatsizligi) kiritish mumkin. Shu munosabat bilan, sud nazorati konsepsiyasida sud hokimiyati va sud boshqaruvi sohasidagi mansabdor shaxslarning yurisdiksiyaga bog‘liq bo‘lmagan funksiyalarini kiritish mumkin.

Sud nazoratining uchta funksiyasi bor. Birinchidan, bu quyi sudlarning noto‘g‘ri qarorlarini bekor qilish orqali adolatni ta’minlaydi. Ikkinchidan, apellyatsiya sudlari quyi sudlarning ishini nazorat qiladi. Uchinchidan, ijro hokimiyat organlari hujjatlarining qonuniyligini nazorat qiladi [5].

K.Bretsshnayderning ta’kidlashicha, sud nazoratining maqsadi xalqning demokratik jarayonlardagi ishtirokini saqlab qolishdir. Sud nazorati fuqarolarga o‘z huquqlarini himoya qilishda hukumatga qarshi turishda muhim rol o‘ynaydi [6].

Sudning nazorat faoliyati ma’lum protsessual doirada amalga oshiriladi, uning tartiboti protsessual qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Sud nazorati odil sudlov shaklida, konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma’muriy yoki jinoiy sud ishlarini yuritish, shuningdek, boshqa yurisdiksiya shakllarida ko‘rib chiqish va hal qilish yo‘li bilan amalga oshirilishi mumkin.

V.A. Rjevskiy va N.M. Chepurnovalar yuqoridagi fiklarga qarshi chiqadilar. Jumladan, ular sud nazorati va odil sudlov kabi sud faoliyatining turlarini (shakllarini) qat’iy ravishda bir-biridan keskin farqlaydilar, chunki sudning nazorat qilish faoliyati odil sudlov doirasidan tashqariga chiqadi [7].

Yuqoridagi fikrga qisman qo‘shilish mumkin. Lekin sud ish yurituvi ma’lum ma’noda sud nazorati bilan bog‘liqdir. Misol uchun, ma’muriy hujjatni haqiqiy emas deb topish faoliyatini aytish mumkin.

Shuning uchun ham ba’zi olimlar tomonidan sud nazoratini sud funksiyani amalga oshiruvchi yordamchi tizim bilan bog‘lashadi [8].

Biroq, bir qator olimlarning fikricha, sud nazorati sud tizimining alohida funksiyasi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin emas. S.K. Zagainovaning ta’kidlashicha, sud hokimiyati normativ huquqiy-hujjatlarni ko‘rib chiqish va hal qilishda nazoratni amalga oshiradi. Shuning uchun sud konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish vazifa emas, balki odil sudlov oldida turgan vazifalardan biridir [9].

Ushbu firkga qo‘shilish mumkin. Sud nazorati sud ish yurituvining muhim qismi hisoblanadi. Misol, uchun idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni haqiqiy emas deb topish maxsus protsessual tartibda amalga oshiriladi.

S.V.Nikitinning ta’kidlashicha, odil sudlovni amalga oshirish sud hokimiyatining asosiy faoliyat yo‘nalishidir. Sud nazorati va odil sudlov funksional nuqtayi nazardan o‘zaro bog‘liq, ammo sud tizimi faoliyatining turli tomonlarini (jihatlarini) tavsiflovchi turli xil yuridik kategoriyalardir [10].

Buyuk Britaniyalik huquqshunos A.Strit tomonidan sud nazorati tushunchasi shaxsning konstitutsiyaviy huquqi bilan bog‘lanadi. Ya’ni shaxs o‘zining Konstitutsiyaviya va qonunlarda belgilangan huquqlarini hukumatning noqonuniy qonunosti hujjatlaridan sud nazorati orqali himoya qila olishi kerak [11]. Shu munosabat bilan shuni ta’kidlash kerakki, yuqori sud instansiyalari tomonidan sud hujjatlarining qonuniyligi va haqiqiyligini tekshirish nazorat xarakteriga ega. Biroq, belgilangan aniq protsessual faoliyatni sud nazorati konsepsiyasiga kiritish maqsadga muvofiq emas, chunki davlat hokimiyatining mustaqil tarmog‘i sifatida sud hokimiyatining nazorat funksiyalari birinchi navbatda boshqa kuch tuzilmalarining harakatlarining qonuniyligini nazorat qilishga qaratilgan. Ushbu tashqi nazorat funksiyalari bir qator umumiy tamoyil, qonun, xususiyat va boshqalarga ega bo‘lib, ularni sud nazorati yagona konsepsiyasi bilan birlashtirishga asos beradi. Shu ma’noda, sud nazorati adliya doirasida amalga oshiriladigan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslarning harakatlari (harakatsizligi) ustidan tashqi nazoratdir.

Ayrim tadqiqotchilar tomonidan sud nazorati tushunchasini konstitutsiyaviy nazorat asosida tahlil qilinganligini kuzatish mumkin. Ya’ni nazoratni tushunishda asosiy e’tibor nizoli normativ-huquqiy hujjatning normativ tartibga muvofiqligini tekshirishga qaratilgan bo‘ladi. Bu borada N.V. Vitrukning ta’kidlashicha, konstitutsiyaviy nazorat bu yuridik shaxslarning xatti-harakatlari, qarorlari va harakatlarining konstitutsiyaviyligini tekshirishdir [12].

Mazkur fikrga qisman qo‘shilish mumkin. Sud nazorati faqatgina konstitutsiyaviylikni ta’minlashga xizmat qilmaslik kerak, boshqa qonunlarda belgilangan huquq va erkinliklar ham himoya qilishini lozim.

T.V. Parshinaning fikriga ko‘ra, sud nazorati huquqiy hujjatlarning qonuniyligi ustidan sud nazorati hisoblanib, bu sudlarda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladigan, qonun hujjatlarining talablarga muvofiqligini tekshirish bo‘yicha sud faoliyatidir [13]. Mazkur ta’rifda ayrim jihatlar ochib berilmagan. Jumladan, murojaat qiluvchi subyektlar, qonun hujjatlari doirasi va maxsus protsessual tartibot kabi masalalar aks etmagan.

Shu nuqtayi nazardan, sud nazorati tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta’rifi berish mumkin: “Sud nazorati bu jismoniy va yuridik shaxslarning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatarini himoya qilish maqsadida konstitutsiyaviy va ma’muriy sud ish yurituv tartibida amalga oshiriladigan sud faoliyatidir”.

Sud nazorati sud tomonidan ma’muriy hujjat va normativ-huquqiy hujjatlarni ko‘rib chiqish va hal qilish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar nuqtayi nazaridan tavsiflanishi mumkin, chunki bu huquqiy munosabatlar sud ishlarining alohida toifasini tashkil etadi. Biroq, ushbu qarashlar bizga sud normativ nazoratining o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq aks ettirishga imkon bermaydi, chunki sudning odil

sudlov (sud jarayoni) doirasida amalga oshiriladigan har qanday nazorat faoliyati sud protsesslari doirasida amalga oshiriladi.

Muhokamalar va natijalar. O‘zbekiston qonunchiligi asosida sud nazoratining quyidagi xususiyatlari ajratib qo‘rsatish mumkin:

Birinchidan, sud nazorati qonun ijodkorligi sohasida sud hokimiyatining mustaqil funksiyasidir. Normativ-huquqiy hujjatlarni tekshirish bo‘yicha sud vakolatlarining aniq darajada amalga oshirilishi sud hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlaydi va butun huquqiy tizim balansini saqlashning eng muhim vositasi hisoblanadi. Shu munosabat bilan sud nazoratini sud tizimining mustaqil funksiyasi deb aytish mumkin. O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida sud O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda e’lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini sud yo‘li bilan himoya qilishga da’vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta’minlashga qaratilgandir [14]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonunning 2-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi sud hokimiyati organidir [15].

Ikkinchidan, sud nazorati bu sudlarning ma’muriy hujjat va normativ-huquqiy hujjatlarni tekshirish bo‘yicha harakatlaridir. Normativ-huquqiy hujjatlar ustidan sud nazorati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy va Oliy sudi tomonidan amalga oshiriladi. Sud tomonidan normativ-huquqiy hujjatni tekshirish uning qonuniyligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Sud me’yoriy-huquqiy hujjatni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va yuqori yuridik kuchga ega ekanligini tekshiradi. Normativ-huquqiy hujjatni tekshirish natijasida sud uning qonuniyligini tasdiqlaydi yoki noqonuniy deb tan oladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksiga ko‘ra, sud idoraviy normativ-huquqiy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlangan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzgan deb hisoblasa, ushbu idoraviy me’yoriy-huquqiy hujjatni to‘liq yoki qisman haqiqiy emas deb topish mumkin.

Uchinchidan, sud nazorati sud hal qiluv qarorlari va me’yoriy -huquqiy hujjatlarning o‘zaro ta’sirining shakllaridan biridir.

Yuridik adabiyotlarda me’yoriy-huquqiy hujjatlarning o‘zaro ta’siri masalasi chuqur o‘rganilmagan. “Normativ-huquqiy hujjatlarning o‘zaro ta’siri” tushunchasi tahlil qilinmagan va uning ilmiy ta’rifi ishlab chiqilmagan.

Sud hal qiluv qarorlari va me’yoriy-huquqiy hujjatlarning o‘zaro ta’siri masalalarining chuqurligi, murakkabligi va ko‘p qirraliligini hisobga olib, biz faqat sud qarorlarining me’yoriy-huquqiy hujjatlarga ta'sir qilish asosiy shakllarining xususiyatlariga to‘xtalamiz.

Me’yoriy-huquqiy hujjatning yuridik kuchdan mahrum qilinishi uning haqiqiy emas deb e’tirof etilishini va shunga mos ravishda to‘liq qonuniy diskvalifikatsiyasini va tartibga soluvchi tizimdan chiqarilishini anglatadi [16].

Sud hal qiluv qarorining normativ-huquqiy hujjatning tartibga solish xususiyatlariga ta’siri uni haqiqiy emas deb tan olinishi bilan ifodalanadi. Natijada uni qo‘llamaslikka erishiladi.

Sud hal qarori nafaqat sud nazorati obyekti bo‘lgan me’yoriy-huquqiy hujjatga, balki noqonuniy me’yoriy-huquqiy hujjatga asoslangan qoidalarni o‘z ichiga olgan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarga ham ta’sir qilishi mumkin. Lekin, mazkur tartibot milliy qonunchiligimizda mavjud emas. Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, sud norma nazorati obyekti bo‘lgan hujjat jismoniy va yuridik shaxsning huquq va erkinliklarini buzayotgan hujjat hisoblanadi. Sud faqatgina ushbu hujjatni tekshirishi mumkin.

Sud hal qarori me’yoriy-huquqiy hujjatning tartibga soluvchi ta’sirini to‘g‘irlash vositasi sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Agar me’yoriy-huquqiy hujjatdagi qoidalar cheklangan tarzda bayon qilingan bo‘lsa, sud unga sharh berishi mumkin.

Demak, sud nazorati sud qarorining qonuniy kuchga ega bo‘lmagan hujjatni bekor qilish, hujjatning tartibga solish ta’sirini to‘xtatib turish, shuningdek, sud tomonidan noqonuniy deb tan olingan qoidalarni normativ ravishda takrorlashga ta’qiq orqali me’yoriy -huquqiy hujjatga ta’sir ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, sud nazorati bu Konstitutsiyaviy sud va ma’muriy sudlarning protsessual faoliyatidir. Idoraviy me’yoriy-huquqiy hujjatning qonuniyligini tekshirish ma’muriy protsessual qonunchiligida belgilangan qoidalarga muvofiq odil sudlov doirasida amalga oshiriladi. Me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qonuniyligini sud muhokamasi doirasidan tashqarida tekshirish bo‘yicha sud faoliyatiga yo‘l qo‘yilmaydi va bunday tekshirish natijalari yuridik ahamiyatga ega bo‘lmasligi mumkin.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, Yaponiyada ma’muriy nizolarni sud tartibida ko‘rib chiqish tartibini belgilaydigan maxsus ma’muriy protsessual qonun hujjatlari orqali tartibga solinishi mamlakatning huquqiy davlatchiligi an’anaviy yo‘ldan ketganligini anglatadi. Mazkur mamlakat qonunchiligining muhim jihatlaridan biri ma’muriy hujjatni bekor qilish bo‘yicha davo qilinganda ishning dastlabki ko‘rib chiqish tartiboti mavjud bo‘lib, mazkur tartibotni milliy qonunchiligimizda joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Nobuyoshi Ashibe, Kenpo [Constitution] 326, 329 (Iwanami Shoten 2011).
2. https://japan.kantei.go.jp/constitution_and_government_of_japan/constitution_e.html
3. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 02/18/MPK/0627-son, 12.10.2018-y., 03/18/496/2043-son.
4. Сова Тошифуми, Ямада Хироши, Ватари Тадасу. Введение в административное право. Юхикаку, 2011. С. 213 (曽和俊文、 山田洋、 亘理格『現代行政法入門』 (有斐閣、 2011年).
5. Judicial Review - The Functions Of Judicial Review - Court, Appeal, Trial, and Error - JRank Articles https://law.jrank.org/pages/22738/Judicial-Review-Functions-Judicial-Review.html#ixzz6VwmqD08m.
6. Corey Brettschneider, Democratic Rights and the Substance of Self-Government, Princeton University Press, 2007. P.38.
7. Ржевский В.А., Чепурнова Н.М. Судебная власть: конституционные основы организации и деятельности. — М.: “Юристь”, 1998. С. 96-98.
8. Богданов Е.В. Правосудие как форма осуществления судебной власти: Автореф. дисс. канд. юрид. наук. -Минск, 2003. С. 4.
9. Загайнова С.К. Судебные акты в механизме реализации судебной власти в гражданском и арбитражном процессе. — М., 2007. С. 34.
10. С.В. Никитин. Судебный нормоконтроль в гражданском процессе и арбитражном процессе: вопросы теории. Дисс... док.. юрид. наук. - М., 2001.с.26.
11. Amy Street. Judicial review and the rule of law // https://www.consoc.org.uk/wp-content/uploads/2013 /12/J1446_Constitution _Society_Judicial_Review_WEB-22.pdf.
12. Витрук Н.В. Конституционное правосудие в России (1991-2001 гг.): Очерки теории и практики. — М., 2001. С. 72.
13. Паршина Т.В. Понятие и виды судебного контроля за законностью правовых актов: Лекция. - Нижний Новгород: “Нижегородская академия МВД России”, 2004. С.24.
14. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019 й., 03/19/536/3114-сон, 05.09.2019-y. 03/19/564/3690-son, 11.09.2019-y., 03/19/566/3734-son; 11.03.2020 й., 03/20/607/0279-son.
15. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 18.03.2020-y., 03/20/612/0326-son.
16. Сивицкий В.А. Оспаривание нормативных и ненормативных правовых актов // Юридический мир. 1999. № 1. С. 8-9.

Madina KARIMOVA
Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti
o‘qituvchisi

TALABALAR O‘QUV FAOLIYATIDA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISHNING SHAXS XUSUSIYATLARIGA BOG‘LIQLIGI

Ushbu maqolada o‘spirinlik davrining o‘ziga xos xususiyatlari va talabalik davrida axloqiy hislarning rivojlanish omillari hamda talabalarda axloqiy fazilatlarni aniqlash metodikasi tahlili ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *axloq, his, o‘spirinlik davri, axloqiy fazilat, insoniy munosabatlar, Kettell metodikasi, ishonuvchanlik shkalasi, tobelik, mustaqillik shkalasi.*

В статье представлен анализ особенностей подросткового возраста и факторов развития нравственных, моральных качеств студентов, а также методика определения моральных качеств у студентов.

Ключевые слова: *нравственность, чувство, подростковый возраст, нравственная добродетель. человеческие отношения, методика Кеттелла, шкала доверчивости, тобелика, шкала независимости.*

The article presents an analysis of the characteristics of adolescence and factors in the development of moral moral qualities in students, as well as a methodology for determining the moral qualities of students.

Key words: *morality, feeling, the era of obsession, moral virtue. human relations, Kettell methodology, scale of trust, subordination, scale of independence.*

Kirish. Munosabat murakkab ko‘rinishga ega bo‘lib, unda shaxs xususiyatlari asosiy o‘rin egallaydi. Shaxs – ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining asosiy sababi, uning doimo insonlar davrasida hamda ular bilan o‘zaro ta’sir doirasida bo‘lishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi. Har bir inson o‘zgalarni tinglashga, o‘z fikrini birovlarga yetkazishga, ya’ni fikr bildirishi, ba’zan yozma tarzda bayon etishga tug‘ma qobiliyatliday o‘zini tasavvur qiladi. Lekin ana shu birovlarni tushunish va o‘z fikrlarimiz, o‘ylarimizni birovlarga yetkaza olish qobiliyati aslida bizning insoniy munosabatlar tizimida ekanligimizni, har birimiz o‘zimizga o‘xshash inson jamiyatisiz mavjud bo‘la olmasligimizni bildiradi.

Asosiy qism. Insoniy munosabatlar shunday o‘zaro ta’sir jarayonlariki, unda shaxslararo munosabatlar shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o‘rtasida ro‘y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-u quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo‘lishgani, ular orasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o‘rtasida umumiylik, o‘xshashlik va uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘ladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki “yarimta jumladan” ham fikr ayon bo‘ladigan bo‘lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig‘izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi.

Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki inson shaxsining eng nufuzli va yetakchi faoliyatlaridan biri bo‘lgan muloqot va u orqali o‘zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylik, o‘xshashlik, uyg‘unlik kabi sifatlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Ayniqsa, oila muhitida shaxslararo munosabatlarning, chunonchi, ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o‘ziga xos tomonlari shaxsning hayoti, faoliyatining samarasi va mazmuniga bevosita ta’sir etadi. Shunday ekan, insonlar orasida amalga oshadigan shaxslararo munosabatlar va uning shaxs xususiyatlariga ta’sirini o‘rganish hozirgi kunda psixologiya fanida muhim va dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Sinaluvchilar guruhida Kettell metodikasi o‘tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilingan. Miqdoriy natijalar jadvalda aks etgan.

Mazkur metodika ikki qutbli bo‘lib, har bir sifat o‘ziga xoslikka ega bo‘lib, unda insonlardagi shaxs sifatlarini ijobiy va salbiy doirada aniqlash imkonini beradi. Shunga muvofiq, keltirilgan sifatlardagi yuqori ko‘rsatkich shaxsning ijobiy tomonini past ko‘rsatkich esa salbiy jihatini aks ettiradi. Natijalarni sifat jihatdan tahlil qilish asosida 1-kurs talabalarida 60% o‘rtadan yuqori darajani tashkil qilib, bu ulardagi muloqotning yoshga bog‘liq rivojlanganligi hamda ularda xavotirlanish, qo‘rquv va nutqiy malakaning to‘la rivojlanmaganligi bilan izohlash mumkin.

1-jadval. Kettell metodikasi bo‘yicha natijalarning jadval ko‘rinishi

№	Sifatlar	1-kurs	3-kurs
1.	Mulloqotgaa moyillik	60%	70%
2.	Emotsional barqarorlik	55%	44%
3.	Hukmronlikka intilish	54%	52%
4.	Onglilik, ongsizlik	62%	74%
5.	Ijtimoiy mardlik	46%	65%
6.	Ishonuvchanlik	54%	60%
7.	Ishonch, ishonchsizlik	64%	71%
8.	Tobelik, mustaqillik	36%	46%
9.	O‘zini–o‘zi nazorat qilish	53%	67%
10.	Qo‘zg’aluvchanlik va zo‘riqish	34%	53%

Shuningdek, ular sovuqqon, yolg‘izlikda ishlashni yoqtiradi, qaysarlik, qahri qattiq boshqalarga yaxshilikni ravo ko‘rmaydigan ko‘rinishga egaligi bilan izohlansa, yuqori ko‘rsatkich ochiq ko‘ngil, o‘zini erkin tutadi, tez va yengil qaror qabul qilishi, odamlarga nisbatan rahmdilligi bilan ajralib turadi. 3-kurs talabalarida esa, muloqot ko‘nikmalari birmuncha rivojlanganligi, ayniqsa, o‘zlaridan kattalar bilan muloqot malakalari to‘laqonli shakllanganligini ko‘rishimiz mumkin. Aytib o‘tish joizki, bu ulardagi yetakchi faoliyatlarining xususiyatlari bilan ham belgilanishi mumkin.

Muhokamalar va natijalar. Emotsional barqarorlik shkalasi bo‘yicha 55% va 44% darajani tashkil qilib, ular uchun o‘zgaruvchan, haddan tashqari egiluvchan, asabiy charchoq hayajonlanishning xosligini bildiradi. Talabalarda esa yuqori ko‘rsatkich, ya’ni emotsional yetuklik, kayfiyatning barqarorligi, kuchli iroda, saramjon, hissiy kechinmalar bo‘lishiga qaramay vaziyatga moslasha oladi. Shu bilan birga, ularda agressivlik, tajovuzkorlik xususiyatlari bu davr uchun xosligini nazarda tutadigan bo‘lsak, emotsionallik darajasining yuqori bo‘lishi tabiiydir.

Hukmronlikka intilish shkalasi bo‘yicha talabalarda 54% va 52% ni tashkil qilib, bu esa, o‘z navbatida, yuqori darajani tashkil qiladi. Bu ulardagi insonlar ustidan boshqaruvni qo‘lga kiritish bilan belgilanadi va aytib o‘tish kerakki, mazkur yosh davri kattalik hissining yuzaga kelishi, shaxs sifatida o‘zining o‘rniga, ma’lum bir mavqeni qo‘lga kiritishi bilan belgilanadi.

Onglilik va ongsizlik shkalasi bo‘yicha sinaluvchilarda 62% va 72% ida ahamiyatli darajani tashkil qiladi. Bu ko‘proq vaqtdan unumli foydalangan holda o‘ziga xos yondashuvni yuzaga keltiradi. Aytib o‘tish kerakki, ularning aksariyatida o‘z oldilariga maqsad qo‘yib, unga erishishga yo‘l, imkoniyat, va usul, vositalarni izlab topish bilan belgilanadi. Shu bilan birga, vaziyatga nisbatan ongli munosabat bildirishi hamda maqsadlarining o‘zgaruvchanligi bilan izohlansa, yuqori daraja esa vijdonli, o‘ziga ishonchning ortishi bilan ham izohlash mumkin.

Ijtimoiy mardlik shkalasi o‘ziga ishonmaydigan, ko‘proq o‘zidan ko‘ngli to‘lmaslik, shuningdek, mard, ijtimoiy botir munosabatga nisbatan kuchli ehtiyoj bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra, sinaluvchilardan 46% va 65% ni tashkil qiladi. Natijalar tahlilidan shuni aytish mumkinki, 1-kurs talabalariga nisbatan 3-kurs talabalarida yuqori ko‘rsatkichni tashkil qiladi. Bu, o‘z navbatida, talabaning hayotiy, o‘quv faoliyatidagi qiyinchiliklarini yengib o‘tishidan o‘zida kuch topa olishi, mustaqil fikr, mustahkam e’tiqodning shakllanganligi hamda ijtimoiy javobgarlikni his qila olishi bilan izohlash mumkin.

Ishonuvchanlik shkalasi 54% va 60% ni tashkil qilib, bu bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich shubhalanish, past darajasi ishonuvchanlik bilan xarakterlanadi. Ishonch va ishonchsizlik shkalasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich o‘ziga ishonmaslik, kayfiyatning yomonligi, noxush hislarning vujudga kelish ustunligi bilan belgilanadi. Ishonch shkalasi, ya’ni yuqori ko‘rsatkich o‘ziga qat’iy ishonishi, xotirjamligi, ishiga va o‘ziga bo‘lgan ishonch kuchliligi bilan izohlanadi.

Tobelik, mustaqillik shkalasi bo‘yicha natijalar talaba 36% va 46% ni tashkil qiladi. Shunga ko‘ra, past ko‘rsatkich yetakchi turi tarkibiga kirgan guruhga tobe uning orqasidan ergashadi. Ijtimoiy ma’qullanishni, zavqlanishni va ularga tobe bo‘lishni yaxshi ko‘radi. Mustaqillik, ya’ni yuqori darajasi mustaqil bo‘lib, o‘zining shaxsiy qarorlarini tavsiya qiladi, tadbirkor, uddaburon, o‘zining shaxsiy qarorlarini qabul qilishiga moyilliligi bilan belgilanadi.

O‘zini o‘zi nazorat qilish shkalasi 53% va 67% ni tashkil qilib, olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarda yuqori, chunki pedagog shaxsi ma’lum tarbiya darajasining boshqaruvchisi, uyushtiruvchisi hisoblandi. Shuning uchun ularda o‘zini o‘zi boshqarishning shakllanganligi bilan izohlanadi. Aytish kerakki, talaba shaxsida o‘zini o‘zi nazorat qilish aksariyat hollarda anglanmagan, ongsiz tarzda yuzaga kelishi, shuningdek, ko‘p hollarda hissiy-rodaviy sohalar bilan bog‘liq bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Qo‘zg‘aluvchanlik va zo‘riqish shkalasi bo‘yicha natijalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sinaluvchilarda 34% va 53% ni tashkil qiladi. Unga ko‘ra past ko‘rsatkich, ya'ni bo‘shligi qoniqish hissi bilan bog‘liq, zo‘riqish, murakkab maqsadlardan o‘zini olib qoladi. Shuning uchun kamroq xatoga yo‘l qo‘yish uchun o‘z oldiga kichik–kichik maqsadlarni qo‘yadi. Yuqori ko‘rsatkich 3-kurs talabachilarida ustunlikka ega bo‘lib, zo‘riqqan, qo‘zg‘alish kuchli, me’yordan ortiq, faol, sabrsizlikka moyil. U ko‘pincha toliqqan. Guruhdagi birlik yetakchilik darajasini noto‘g‘ri baholaydi. Uning hayajonlanib kuyinishi ko‘proq maqsadlarni amalga oshirilmay qolib ketishga olib keladi. Shuningdek, bu jihat uning yosh davr xususiyatlari bilan ham belgilanishi mumkin.

Talabaning ijtimoiy voqelikdagi o‘zini o‘zi qidirish, shaxsiy xususiyatlarini aniqlash jarayoni ko‘p hollarda ichki nizolarni keltirib chiqaradi. Bolaligi ketgan-u, hali katta bo‘lmagan inson uchun o‘zining yangi “Meni” obrazini qidirish ancha og‘riqli va davomiy kechadi. Ularga e’tibor bermaslikka urinishi talabaning atrofdagilar bilan munosabatlarining buzilishiga olib keladi.

Xulosa. Keltirilgan metodika natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, talaba shaxsida shaxs sifatlarining shakllanishi o‘zini o‘zi boshqarish xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.
2. Inomova M. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi. -T., 1999.
3. Karimova M. Yosh avlodni tarbiyalashning ma’naviy-axloqiy jihatlari. Ayol-ma’naviyat gulshani IIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2015 yil. 311-313-b.
4. Karimova M. Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarida axloqiy hislarni rivojlantirish omillari. -GulDU Universitet axborotnomasi, 2016 /4, 71-75-b.
5. Karimova M. O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishdagi pedagogik va psixologik muammolar. Barkamol shaxsni shakllantirish muammolari. 2016, 142-144-b.
6. Nishonova Z.T. Bolalarga ma’naviyat va axloq asoslarini o‘rgatishning psixologik muammolari. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1999.
7. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. -T., 2010.

Olimjon XOLOV
Termiz davlat universiteti
pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

O‘QUVCHI-YOSHLARDA AKSIOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISHNING TARIXIY ASOSLARI

Maqolada o‘quvchi-yoshlarda aksiologik ongni shakllantirish, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlarning ahamiyati, aksiologik ongni shakllantirishning tarixiy asoslari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *aksiologiya, ma’naviyat, axloq,, Dukchi Eshon, qadriyat, umuminsoniy qadriyat.*

В статье излагаются вопросы формирования аксиологического сознания у школьников-молодежи, значение общечеловеческих ценностей в их духовно-нравственном воспитании, исторические основы формирования аксиологического сознания.

Ключевые слова: *аксиология, духовность, мораль, высший эшелон, ценность, общечеловеческая ценность.*

The article describes the formation of axiological consciousness in the reader-youth, the importance of universal values in educating them morally and morally, the historical basis of the formation of axiological consciousness.

Keywords: *axiology, spirituality, morality, Ducchi Eshon, value, universal value.*

Kirish. Yer yuzida istiqomat qilib kelayotgan insonlarning insonparvarligi, avvalo, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat va e’tibori ming yillardan buyon yer yuzini obob qilib, uni asrab avaylashida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shunday ekan, axborot kommunikatsion texnologiyalarining taraqqiy etgan davrimizda o‘quvchilarda aksiologik ongni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Qadriyatlar mavzusining tarixiy ildizlari va insoniyatga xos qadrlash tamoyillari shakllanishi uzoq o‘tmishga ega. G’arb olimlari bu borada, asosan, Yevropa madaniy merosi va g’oyalariga tayanadilar, ko‘plab allomalarning nomlarini tilga oladilar. G’arbda qadriyatlar bilan shug’ullanadigan falsafiy soha - Aksiologiya (aksio - qadriyat, logos – ta’limot) fanining shakllangani ham ularning bunday qarashlari uchun muayyan asos bo‘ladi.

Shu o‘rinda qadriyat tushunchasiga ta’rif beradigan bo‘lsak, qadriyat - voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo‘lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta’rif berishga intilishgan. Qadriyat kategoriyasi faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qimmatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo‘lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi. Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlari o‘zgarib boradi. Tarixiy zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi. Misol tariqasida shuni aytish mumkinki, yurtni yov bosganida - ozodlik, mustabitlikda - istiqlol, urush davrida - tinchlik, tutqunlikda - erkinlik, bemorlikda - salomatlikning qadri oshib ketadi. Qadriyatlar ijtimoiy tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o‘z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega. Qadriyatlar mehnat, ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar uchun foyda keltiradigan narsalar, hodisalar, xatti-harakatlar majmuasi sifatida yuzaga kelib, ayrim kishilar, ijtimoiy guruhlar faoliyati, xatti-harakatini ma’lum yo‘nalishga buradigan, tegishli me’yorga soladigan ma’naviy hodisaga aylanadi.

Qadriyatlar umumbashariy, milliy, shaxsiy bo‘lishi mumkin. Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun-qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan, abadiy qadriyatlardir. Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma’naviyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir. Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi, umr ma’nosi, odobi, go‘zalligi bilan bog‘liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir. Qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish barkamol avlodni voyaga yetkazishda, komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Qadriyatlarning tarixiy ildizlariga nigoh tashlaydigan bo‘lsak uning o‘tmishi uzoq davrlarga borib taqaladi. Qadriyatlar borasida Sokrat, Platon, Dinarx, Giperid, Gorgiy, Isokrat, Isey, Esxil, Demosfen, Sitseron, Kvintilian kabi namoyondalar katta e’tibor berganlar, darhaqiqat, G’arb falsafasida o‘z tarixiga ega ekanligiga shubha qilmaymiz. Ammo ushbu mavzu ko‘hna va navqiron Sharq, xususan, O‘zbekiston uchun

begona emas! Uning eng teran jihatlarini faqat G'arbda emas, balki Sharqda ham alohida e'tibor qaratilgan. Dunyo taraqqiyoti yo'lida ulkan hissa qo'shgan Xorazmiy, Forobiy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Beruniy, Ibn Sino, Najmiddin Kubro, Yassaviy, Naqshband, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Mashrab, Bedil, Behbudiy, Avloniy, Fitrat, Shakuriy, Is'hoqxon Ibrat, So'fizoda, Cho'lpon kabi ko'plab olimlarimiz qadriyatlar borasida o'z fikrlarini aytib o'tishgan.

Avlod va ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqllar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Spitamen, Muqanna va Jaloliddin Manguberdi to'g'risidagi asarlarda, Alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan. Ma'naviy merosimizning yorqin namunasi – "Avesto" zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o'sha davrdagi milliy g'oyalar yorqin ifodalangan.

Qadrlash to'g'risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda arab istilosi amalga oshirilgan, islom hukmron dinga aylangan edi. E'tirof etish kerakki, Qur'on va Hadislarda ta'riflab berilgan ilohiy qadriyat va qadrlash masalalari xalqimiz tarixi va madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, arab istilosi davrida ko'pgina milliy qadriyatlarimizning yo'qotib yuborilganligini ham qayd qilmoq kerak. Bu to'g'rida Beruniy "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida afsus bilan yozib qoldirgan.

Davlatchiligimizning eng yuksak davrlaridan Sharq uyg'onish davrining ikkinchi bosqichi ham yuritiluvchi Temuriylar davrida milliy jihatlarimiz yanada keng quloch ochdi va rivojlandi. Ammo afsus bilan aytish kerakki, qadrlash mezonlarini yaratgan o'rta asrlardagi ko'tarilish davri Temuriylar saltanatidan so'ng asta-sekin tanazzulga yuz tutdi. Markazlashgan davlat parchalanib ketdi, avval, Xiva xonligi va Buxoro amirligi, so'ngra Qo'qon xonligi vujudga keldi. Uch yuz yildan ortiqroq davrni o'z ichiga olgan bu jarayon xonlik, amirlik, turli sulolalar, urug'lar o'rtasid urushlar, tinimsiz ziddiyatlar orqali kechdi, yaxlit hamjihatligini ta'minlaydigan umumiy qadriyatlar tizimi darz ketdi, qadrlash mezonlari ham bir qadar o'zgara boshladi.

XIX asrning o'rtalariga kelib yuqoridagidanda afsuslanarli davr boshlandi, amirlik va xonliklarga bo'lingan Turkiston, chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi, yurtimiz imperiyaning mustamlakasi bo'lib qoldi. Mustamlakachilarning qadriyatlari va qadrlash mezonlari xalqimiz orasiga zo'rlik bilan singdirila boshlandi. XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida yurtimizda "jadidlar" oqimi vujudga keldi. Behbudiy, So'fizoda, Avloniy, Cho'lpon, Fitrat va boshqa jadidlar merosiga diqqat qilinsa, o'sha davrda yurtimizda ma'naviy tushunchalarning ko'lami qanchalik keng bo'lganligini, falsafiy tilning naqadar boyligini, uning adabiyot bilan qanchalik uyg'unligini yaqqol ko'rish mumkin. Ularning asarlarida gohida biz allaqachon esimizdan, tilimizdan va balki dilimizdan ham chiqarib yuborgan qadriyatlar, tushunchalarga duch kelamiz. Jadidlarning merosi xalqimiz madaniyatiga yanada kattaroq ta'sir ko'rsatishi mumkin edi. Afsuski, bolsheviklar boshlagan siyosiy jarayonlar bu avlodning boy merosini o'z domiga tortdi, uning taqdiri ayanchli kechdi, ta'qiqlab qo'yildi. O'tmish avlodlar ardoqlagan va buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan sharqona qadrlash mezonlar sarobga aylantirildi.

Muhokamalar va natijalar. Ma'lumki mustamlaka davrida milliy an'ana, urf-odat, marosim, maraka, qadriyatlarga munosabat o'sha davr ma'muriyatining jiddiy qarshiligiga uchragan edi. Chor mustamlakasining olib borgan siyosati, istibdodi, bedodliklari ruslashtirish, xristianlashtirish, milliy madaniyat, turmush tarzimiz, urf-odat, marosim, an'ana va qadriyatlarimizni kamsitish, yerga urish, xo'rlash, yo'q qilib yuborish, mahv etish siyosatiga qaramay xalqimiz o'z milliy an'analari, qadriyatlari, urf-odat, marosim, turmush tarzi uchun qattiq, murosasiz kurash olib borgan edi. Shunday tahlikali davrda ham xalqimizning mard, qo'rqmas o'g'lonlari yoshlarimizni ma'rifatli va qadriyatlarni asrash haqida xalqqa ko'plab murojaatlar qilib, milliy manfaatimiz uchun kurashlar olib borganlar. Bunday kurashlarning yorqin sahifalariga oid ko'plab ma'lumotlar mustaqillik yillarida e'lon qilindi. Ana shular orasida Turkiston milliy ozodligi, milliy davlatchilik uchun kurash rahnamosi, yo'lboshchisi mashhur Dukchi Eshon - Muhammad Ali Sobir Xalfa o'g'lining xalqqa murojaat qilganini yodga olishimiz mumkin. Shu o'rinda Dukchi Eshonning xalqqa murojaatida shunday so'zlar bor edi. *"Ey, muhtaram musulmonlar! Ey, birodarlar! Hammangizga ma'lumki, yurtimiz musulmon yurti, el musulmon, xalq musulmon, xon musulmon, shariatning hukmi joriy, amri nofiz edi. Hukumatni Alloh taolo o'zi biladur, kofirlarni musallat qildi, yurtimizga o'rus keldi. Xudoyorxon o'rniga Kaufman, Umarxon taxtiga Chernayuf o'ltirdi. Farg'ona xonligi yerida Moskov xonligi - oq podsho hukmron bo'ldi. O'rus Vatanimizga istilo etdi. So'ngra tilimizga istilo qildi. Sekin-asta dinimizga istilo qilmoqqa boshladi, bilasizlarki, musulmonlarning axloqi buzildi. O'risning kelg'onig'a o'ttiz yil to'lmay musulmonlar riboga odatlandi, halol-haromni farq qilmas bo'ldi. Xulosa (shulki), shariatimiz xor, musulmonchilik g'arib bo'ldi. Hurriyatimiz g'oyib bo'ldi, istiqlolimiz mahv bo'ldi, o'zimiz o'tmas, so'zimiz kesmas bo'ldik"[5, 6]*. Dukchi Eshon ilgari surgan yuqoridagi achchiq zaharxanda e'tiroflari,

xulosalari, ayblovlari aslida mohiyatan Chor mustamlaka istibdod tuzumi milliy davlatchiligimiz, milliy o‘zligimiz, an’ana, urf-odat, marosim, qadriyatlarimizni toptalishi, millatga, nohaqliklari aks etgandi.

Mustamlaka davrida mustamlakachilar xalqimiz uchun qadrlashning umuminsoniy tamoyillarini barqaror qilish u yoqda tursin, haqiqiy qadriyatshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqotlar olib borishga ham izn berilmas edi. Faqat asrimizning 60-yillariga kelib, qadriyatlar muammosi ba’zi mutaxassislar tomonidan tahlil qilina boshlagan bo‘lsa-da, u haqda erkinlik chegaralangan edi. Shu o‘rinda aytish kerakki, milliy qadriyatlarimiz 1990-yillargacha falsafa darsliklarida alohida mavzu sifatida yaqqol ko‘zga tashlanmadi va o‘z o‘rniga ega bo‘lmadi. O‘sha davrda yoshlarimizga xalqimizga taalluqli bo‘lgan aksiologik bilimlar hech bir ta’lim muassasasida berilmas edi. Xalqimiz shunday qarshiliklarga uchrashiga qaramasdan o‘sha davrda mard va jasur shoirlarimiz millatimizni uning tarixini aks ettiruvchi so‘zlarini o‘z qalamlarida bayon etishdan hech cho‘chimadilar. Afuski, ularning ko‘plari otilgan bo‘lsa, ba’zilari surgun qilindi. Ammo shuni alohida ta’kidlab o‘tishimish kerakki, davlatimiz hali mustaqillikka erishmay turib 1989-yilda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, 1990-yil Navro‘z bayramini umumxalq milliy bayram sifatida e’lon qilinishi va ushbu bayramlarni keng nishonlashi yuqorida qayd etilgan mardliklarning bir nishonasi edi.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach qadriyatlar to‘g’risidagi qarashlarimiz shitob bilan o‘zgardi. Sobiq Ittifoqning ilgari ulug’langan partiyaviy-sinfiy qadriyatlari tanazzulga yuz tutdi. Mustaqillikning ilk kunlaridan O‘zbekistonda qadriyatlarga e’tibor kuchayib, uning turli qirralari ko‘plab olim va mutaxassislar tomonidan aksiologiyaning ko‘pdan-ko‘p qirralari ilmiy izlanishlar xalqimiz va yoshlarimizni aksiologik ongini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi va bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini davomiyligini turli qirralarini ochishda ayni vaqtda ham olimlarimiz jonbozlik bilan bu sohani tadqiq etmoqda.

Mustaqilligimiz sharofati bilan milliy qadriyatlarimizga alohida e’tiborni kuchaytirib barcha milliy qadriyatlarimizni tiklashga keng imkoniyalar ochib berildi. Hozirgi kunda bizning xalqimiz barcha Sharq xalqlari singari o‘z milliy urf-odatimiz Navro‘z - Yangi yil bayramimizni bor malohati, bo‘y-basti bilan ko‘z-ko‘z qilib o‘tkazyapmiz. Navro‘zning nav - yangi, ro‘z - kun, ya’ni yangi kun deb atalishi ham bejiz emas. Bu qadimiy, an’anaviy Yangi yil bayramimiz haqida ulug‘ bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida, Mahmud Qoshg‘ariy esa “Devonu lug‘otit turk” asarida juda qiziqarli ma’lumotlar yozib qoldirganlar. Umar Hayyom olim, faylasuf sifatida bu bayram haqida “Navro‘znoma” nomli maxsus kitob yozgan. Navoiyning ustozi - turkigo‘y shoirlarning malikul kalomi Lutfiy domla “Gul va Navro‘z” o‘lmas dostonini yaratganki, bu asar hamon sahnalarimizni bezab berishni davom etib kelayotir. Qurbon hayiti-iyd-al-adha, ramazon hayiti-iyd-al-fitr, me’roj-rajab oyi bayrami, shuningdek, taqdir kechasi-layla-tul-qadr, iftorlik “og‘iz ochish” marosimlari keng miqyosda nishonlamoqdamiz. Shunday qilib, o‘quvchi-yoshlarni xalq og‘zaki ijodi milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda davlatimiz tamonidan keng e’tibor qaratilib yoshlarga uning mohiyatini yorqin ochib berish, chuqur bilim berish orqali ularda asl milliy qadriyatlarimizga sodiqlik ruhida tarbiyalash, yoshlar ongini amaliy ko‘nikma va malaka asoslarini mustaqillik yaratib berdi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tamonidan 1992-yilda yozgan “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari sifatida:

1) umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

2) xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

3) insonning o‘z imkoniyatlarin erkin namoyon qilish;

4) vatanparvarlikni ko‘rsatib bergan edi.

1994-yil 23-aprelda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risi-da”gi Farmoni, 1996-yil 9-sentabrda esa “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Farmonlarida quyidagi qadriyatlar haqida gapirilagandi:

1. Vatan - eng oliy makon, u menikidir.

2. Eng oliy qadriyat - inson.

3. Mulkning eng oliy shakli - intellektual mulk va inson faoliyatining eng oliy turi - intellektual mehnat.

4. Vaqt eng oliy boylik.

5. Umuminsoniy qadriyatlar.

6. Moddiy qadriyatlar.

7. Milliy qadriyatlar.

8. Tabiiy qadriyatlar.

9. Iqtisodiy qadriyatlar.

10. Ijtimoiy - siyosiy qadriyatlar.

11. Ma’naviy qadriyatlar.
12. Axloqiy qadriyatlar.
13. Diniy qadriyatlar.
14. Oilaviy qadriyatlar.
15. Demokratik qadriyatlar va h.k.

Ayni damda barcha sohalarda shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatimiz tomonidan xalq og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlarga bo‘lgan e’tibor yanada oshirilib borilmoqda.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘zining 2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida milliy-ma’naviy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish borasida davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan olamshumul harakatlar haqida yig‘ilish qatnashchilariga quyidagilarni bayon qilgan edi: Ma’naviy hayotimizda muhim voqea bo‘lgan ana shunday loyihalar haqida gapirganda, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy nomlaridagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Islom akademiyasi kabi ilmiy-ma’rifiy muassasalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish ishlari boshlanganini alohida qayd etish zarur. Shular qatorida buyuk allomalarimizning yodgorlik majmualari qoshida hadisshunoslik, islom huquqshunosligi, tasavvuf, kalom va aqida ilmi kabi diniy-ma’rifiy yo‘nalishlarni o‘rganish bo‘yicha maxsus maktablar tashkil etildi. Albatta, bizning bu ishlarimiz chuqur ilmiy va amaliy asoslarga ega.

Ma’lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lgan yurtimiz zaminidan o‘rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning ma’naviy mulki hisoblanadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo‘lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to‘liq o‘rganilmagan, ular olimlar va o‘z o‘quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o‘rtaga qo‘yayotgan juda ko‘p dolzarb muammolarga javob topish mumkin. Xususan, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib beradigan, barcha odamlarni ezgulik, mehr-oqibat va hamjihatlik yo‘lida birlashishga da’vat etadigan teran ma’noli fikr va g‘oyalar bugun ham o‘z qimmati va ahamiyatini yo‘qotgan emas. Lekin biz ana shunday noyob meros vorislari, shunday boylik egalari bo‘laturib, ularni har tomonlama o‘qish-o‘rganish, xalqimiz, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizga, jahon hamjamiyatiga yetkazish bo‘yicha, yetarli ish qilmaganimizni ham ochiq tan olish kerak. Biz diniy jaholatga, zararli oqimlarga qarshi ma’rifat bilan kurashish kerakligi haqida ko‘p gapiramiz. Bu to‘g‘ri, albatta. Lekin ma’rifat, ma’rifiy bilimlar qayerda – avvalo ota-bobolarimiz bizga qoldirib ketgan mana shunday mo‘’tabar kitoblarda emasmi? [1] degan edilar. Xalqimiz tamonidan avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan xalq og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va uni rivojlantirish bo‘yicha mamlakatimizda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki milliy qadriyatlar va xalq og‘zaki ijodi faqat o‘z xalqi qadriyatini ardoqlash, ko‘z-ko‘z qilish va boshqalar orasiga yoyish uchun intilishga asoslanmaydi, balki har bir xalq, elat, urug‘ qadriyatlarini hurmat qilish qanday holatda bo‘lsa, shundayligicha qabul qilib, ularga ehtirom ko‘rsatish, umuman olganda, umuminsoniylikni tarannum etishi lozim. Yurtimizda xalq og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlarga oid olib borilayotgan ishlarining barchasi dunyo ahliga manzur bo‘lib, davlatimiz tamonidan olib borilayotgan bu kabi islohatlarga havas bilan qarashmoqda. Shu o‘rinda milliy qadriyatlarni tarannum etuvchi xalqaro festivallarda qatnashish uchun yurtimizga oshiqmoqdalar. Shunday ekan, biz ham yurtimizdagi ushbu islohotlarni targ’ib qilishimiz va yoshlarimizni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatishimiz lozim.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -T., 22.12.2017.

2. Karimov I.A. O‘zbekiston SSSR, mahalliy sovetlarning xalq deputatlari va jamoatchilik vakillari ishtirokida bo‘lib o‘tgan kengashda so‘zlagan ma’ruzasi. -T., 1990-yil 24-fevral.

3. Abu Rayxon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari. T., 1993.

4. Suvonqulov I. Ma’naviyat ildizlari. Qo‘llanma. –T., 2000.

5. Dukchi Eshon voqeasi. - T. “Co‘lpon”. 1992. 49-bet.

6. Toxirov Sh. Yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashning metodologik asoslari. (Bitiruv malakaviy ish). –Guliston, 2018.

Najmiddin BAKAYEV
Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi

Shahobiddin SHODIYEV
Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi

BOSHLANG’ICH BOSQICH TALABA SHAXSINING IJTIMOIY–RUHIY XUSUSIYATLARI

Maqolada oliy o‘quv yurti o‘quvchi–talabalardagi ijobiy va salbiy ijtimoiy-ruhiy xususiyatlar o‘rganilib, salbiy xususiyatlarning bartaraf etish imkoniyatlari har tomonlama batafsil ilmiy-ruhiy metodik nuqtayi nazaridan tahliliy o‘rganishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: *ruhiy-metodik, ijimoiy-ruhiy, innovatsion texnologiya, talaba, atama, kasbiy faoliyat.*

В статье изучены положительные и отрицательные социально–психические особенности учащихся и студентов высших учебных заведений, предпринята попытка всестороннего детального научно-психологического анализа возможностей преодоления негативных особенностей.

Ключевые слова: *психолого-методический, идейно-духовный, инновационная технология, студент, курсовая, профессиональная деятельность.*

In the article, the positive and negative socio–psychological characteristics of the students of the higher educational institution were studied, and the possibilities of eliminating negative features were tried to study in every detail from the point of view of scientific-psychological methodological point of view.

Key words: *spiritual-methodical, spiritual-spiritual, innovative technology, student, term, professional activity.*

Kirish. Ma’lumki, jahon mamlakatlarida ham o‘qitish mazmuni, ta’lim tizimi ijtimoiy taraqqiyot bilan o‘zaro muvofiqlikda rivojlanib kelgan. Ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarning barchasi muayyan darajada ta’lim-tarbiya mazmunida o‘z aksini topadi. Buni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni ta’lim-tarbiya jarayonlariga tatbiqi misolida ko‘rish mumkin. Bugungi kunda professor-o‘qituvchilar ta’lim muassasalarida asrlar davomida insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan ilmiy, ilmiy metodik hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalar yangiliklaridan yosh avlodni tanishtirib, o‘rgatib borish maqsadida tizimli, izchil, uzluksiz va, albatta, maqsadga muvofiq ravishda pedagogik faoliyat olib boradi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarda nazariy va amaliy bilimlarni amaliyotga bevosita, qiynalmasdan samarali tadbiq eta olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoj kundan-kunga o‘z samarasini bermoqda. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning o‘quv va tanlagan kasblariga ega bo‘lishlari hamda yuqorida qayd etilgan ehtiyojni qondirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Oliy o‘quv yurtlaridagi, jumladan, tibbiyot oliygohlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlari samarali amalga oshirish uchun o‘quvchi-talabalar bilan o‘qituvchilar o‘rtasida uzluksiz ta’sir o‘tkazish hukm surishi muqarrar. Bu munosabatlar umumta’lim maktabi o‘quvchisi va o‘qituvchisi o‘rtasidagi, yoki litsey va kollej o‘qituvchisi va o‘quvchilari o‘rtasidagi munosabatlardan keskin farq qiladi, bu bir tomondan ular o‘rtasidagi yosh xususiyatlariga, ijtimoiy-huquqiy mavqelariga bog’liq bo‘lsa, auditoriyada “ustoz-muallim” va “shogird-tinglovchi”, tarzida, auditoriyadan tashqarida do‘stona, aka-uka, hatto “ota-bola” munosabatlariga yaqin do‘stona, dilkash bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Lekin shu vaqtgacha oliy maktab psixologiyasi, undagi talaba va professor–o‘qituvchilar o‘rtasidagi hozirgi kungacha ruhiy muhit ilmiy tahlil qilinmagan.

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlariga ilk bor qabul qilingan talabalik baxtiga musharraf bo‘lganliklaridan g’oyat xursandliklarining poyoni yo‘q endi. Ammo ularni tinimsiz mehnat sharofati bilan kelajakda yetuk shifokor bo‘lib yetishishlariga hech shubha yo‘q. Tanlagan oliygohlaridagi ta’lim-tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari o‘quvchi-talabalarning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan muloqotga kirishish uchun barcha imkoniyat yaratiladi. Talabalik davrining asosiy xususiyatlaridan biri – ijtimoiy yetuklikning jadal sur’atlar bilan ro‘yobga chiqarishdir.

Talabalik davri o‘spirinlikning ikkinchi bosqichidan iborat bo‘lib, 17–21 (25 va kattaroq) yoshni o‘z ichiga oladi va o‘zining ijtimoiy-ruhiy xususiyatlariga ega.

Mazkur pallada o‘spirin xohlaydimi yo xohlamaydimi o‘ziga ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi, kattalarning turli rollarini bajarishga urinib ko‘radi, talabalik turmush tarzining yangi jihatlariga ko‘nika boshlaydi.

Bugungi tez rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o‘sib bormoqda. Fan-texnikaning rivoji bir tomondan uzluksiz axborotlar, ma’lumotlar olishni ko‘paytirsa, osonlashtirsa, ikkinchi

tomondan yoshlarda tanlagan mutaxassislikka intilish, kasbiy bilimlarga barqaror intilish-qiziqishning pasayishiga, hatto yo‘qolishiga olib kelmoqda, chunki qat’iylik, ijodiy izlanish, irodaviy zo‘r berish o‘rnini loqaydlik, faoliyatsizlik, firibgarlik va dangasalik egallaydi.

Boshqacha aytganda, ular “tayyor axborotlarning quli”ga aylanib ham qolmoqdalar. Turmushda kompyuter, display, telefon, kalkulatorlar inson aqliy mehnatini yengillashtiradi, ularni aqliy zo‘r berishdan xalos qiladi. Lekin bu yordamchi vositalarning to‘g’ri, aniq ishlayotganiga kim kafolat beradi, ularni kim qanday tekshirishi kerak. Albatta, buni bugungi o‘quvchi- talaba qilishi kerak-ku!

Oliygohda tahsil olayotgan talabaning umumta’lim maktab o‘quvchisidan muhim farqi shundaki, u faqat tinglovchi-o‘quvchigina emas, mustaqil o‘qiyotgan, ilm olayotgan, kasb-hunar egallovchi hamdir. Chunki talaba (student) - lotincha “mustaqil shug’ullanuvchi” degan ma’noni anglatadi.

Talabalarga mustaqil yashash, bilim olish, o‘z hayotini, faoliyatini o‘zi tashkil qilishi, o‘z-o‘zini boshqarish, to‘plagan bilimlari evaziga yangi g’oyalarni ilgari surish va shularga o‘xshagan ko‘pgina yaxshi, foydali fazilatlarni tarkib toptirish hamda o‘rgatishdan iboratdir. Bu vazifalarni amalga oshirishning yagona, asosiy omili **birinchidan,** monologik ma’ruzadan diologik ma’ruzaga ya’ni muloqot–ma’ruzaga o‘tish bo‘lsa, **ikkinchdan,** amaliy o‘tiladigan fanlarni, jumladan, bo‘lg’usi shifokorlik kasb tili (lotin tili)ning imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish uchun hozirgi zamon pedagogik texnologiyalardan ko‘proq foydalanish, ayniqsa, o‘quv o‘yinlaridan samarali foydalanish maqsadga yaqinroqdir.

Ruhshunoslarning ilmiy, ilmiy-amaliy tadqiqotlari shaxs hayot tajribasini egallashda unda o‘zligini anglash vujudga keladi, jumladan, shaxsiy hayotining mazmunini anglashi, aniq turmush rejalarini tuzishi, kelajak hayot yo‘lini belgilashi va hokazolar amalga oshishini ko‘rsatadi. O‘quvchi-talaba asta-sekin mikroguruhning notanish sharoitlariga moslashib, ko‘nikib boradi, o‘zining haq-huquqlari va majburiyatlarini tushuna boshlaydi.

O‘quvchi-talaba 17-19 yoshda ham o‘z xulqi va bilish faoliyatini ongli boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi va shunga ko‘ra xulq motivlarining asoslanmagani, uzoqni ko‘ra olmaslik, ehtiyotsizlik kabi holatlar ro‘y beradi. Bu yoshda ba’zan ayrim salbiy xatti-harakatlar ko‘zga tashlanadi.

Talabalik yillarida yoshlarning hayoti, hayot yo‘li va faoliyatida o‘zini o‘zi kamolotga yetkazish jarayoni muhim rol o‘ynaydi. Ideal “men”ni real “men” bilan taqqoslash orqali o‘zini o‘zi boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ifodaga ega bo‘ladi. O‘quvchi-talaba nuqtayi nazaricha, ideal “men” ham muayyan mezon asosida yetarli darajada haligach ilmiy tekshirib ko‘rilmagan, shuning uchun ular goh tasodifiy, g’ayritabiiy his etilishi muqarrar, binobarin, real “men” ham shaxsni haqiqiy baholashdan ancha yiroqdir. O‘quv yili boshida talabada ko‘tarinki kayfiyat, oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirganidan zavq-shavq tuyg’usi kuzatilsa, muayyan qonun va qoidalar bilan yaqindan tanishish natijasida uning ruhiyatida keskin burulish ro‘y berishi ham mumkin. Bizningcha, oliy o‘quv yurtida tarbiya ishlarini rejalashtirishda, ta’lim jarayonida talabaga o‘ziga xos munosabatda bo‘lish mazkur davrning muhim shartlaridan biridir.

Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalardan qat’iy nazar o‘spirin yigit va qizlarni oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirishi ularda o‘qishi, qobiliyati, aql-zakovatlari, ichki imkoniyatlari va irodalariga qat’iy ishonch paydo bo‘ladi, ana shu ishonch, o‘z navbatida, to‘laqonli hayot va faoliyatni uyg’unlashtirishga umid tuyg’usini yuzaga chiqaradi. Bu mulohazalarni psixolog olimlarning olib borgan ilmiy eksperimental tadqiqot natijalari ham tasdiqlaydi.

O‘quvchi-talabalar o‘qishdagi yaxshi natijalarining muhim sharti oliygohdagi ta’lim-tarbiya jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, discomfort (noqulay, noxush) tuyg’usini bartaraf qilish, mikromuhitda yuz beradigan ziddiyatlarning oldini olishdan iboratdir.

Muhokamalar va natijalar. Odatda, boshlang’ich bosqich o‘quvchi-talabalari o‘qishdagi faoliyatlarini imkon qadar har tomonlama to‘liq tasavvur etishga harakat qiladilar, ammo uni boshqarish to‘g’risida, shifokorlik kasbiga tegishli atamalarni har tomonlama puxta o‘rgangan holda ularni chuqur yozma og’zaki o‘zlashtirilishi kerakligi to‘g’risida hali yetarlicha ma’lumotga ega bo‘lmaydilar. Ularning tasavvurida o‘quv faoliyatini boshqarish deganda o‘quv materiallarini o‘zlashtirilishini rejalashtirish, nazorat qilish, baholash va kasbga doir atamalarni shunchaki o‘rganish kerak deb tushunadilar. O‘quvchi-talabalarga tarqatilgan varaqa savollariga bergan javoblaridan ma’lum bo‘lishicha, ularda o‘quv faoliyati tizimini tasavvur etishdan tashqari, tanlagan kasblariga tegishli atamalarni ham o‘rganish kerakligini tushunganlar. O‘rganish uchun olib borilgan sinov - tekshiruv (250 nafar talaba) savollariga berilgan javoblardan ayon bo‘ldiki, kamchilik (13%) talaba shaxsiy faoliyatni boshqarish deganda o‘rganilayotgan o‘quv materiallarini bir necha marta takrorlash jarayonini tushunadilar, uning asosiy maqsadi shunchaki kasb tilidagi atamalarni yozma-og’zaki o‘rganishdan tashqari, ularning ma’no va tuzulishini ham har tomonlama chuqur o‘zlashtirish kerakligini hali batamom tushunmaganliklari ayon bo‘ldi.

Ayrim talabalar o‘z javoblarida biror xususiyatga ega bo‘lgan materiallarni o‘zlashtirishning metodlarini ham yozishga harakat qilganlar. Boshlang’ich bosqich talabalaridan birining javobida shunday

yozilgan: “Men o‘quv material bilan tanishib chiqaman, ularni o‘qib chiqaman, so‘zlab berishga tayyorlayman, atamalarni og’zaki aytib berishga tayyorlayman”. Bu javob maqsadga muvofiq emas.

Ammo aksariyat o‘quvchi-talabalar o‘quv faoliyatini boshqarishning umumlashgan metodlarini yaxshilash, ma’qullash, faoliyatni qanday amalga oshirishni ko‘z oldlariga keltira olmaydilar. Shuningdek, ayrim noo‘rin fikr-mulohazalar ham uchraydi, rejalashtirish, konspektlashtirish, o‘quv metodlardan foydalanishga qo‘yiladigan umumiy talablarni aniq ayta olmaydilar, qiynaladilar.

O‘tkazilgan yozma so‘rov nazorat ishining tahliliga ko‘ra, o‘quvchi-talabalar faoliyatidagi qiyinchiliklarni uch guruhga bo‘ldik:

I. Bilishdagi qiyinchiliklar:

1. O‘quv materiallarining mazmuni va ko‘lami jihatdan farqlanishi.
2. O‘qitishning shakl va turlari (ma’ruza, amaliy mashg’ulot, kollokvium, sinov, mustaqil ta’lim va boshqalar)ga nisbatan e’tiborsizlik qat’iyatning yetishmasligi.
3. Amaliy mashg’ulot va ma’ruza materiallarining murakkabligi.
4. Material olish manbalarining xilma-xilligi.
5. Mustaqil o‘qib-o‘rganish malakalarining yetishmasligi.

II. Ijtimoiy-ruhiy qiyinchiliklar:

1. Turmush, hayot tarzini o‘zgarishi, atrof muhit va yakkalanish.
2. Yashash va faoliyatning turli sohalarida mustaqil harakatga o‘tish.
3. Irodaga zo‘r berish, qobiliyat, e’tibor, aqliy imkoniyatlar bo‘yicha qat’iyatsizlik (sessiyalarda, o‘qishdan haydalishdan qo‘rqish, xavfsirash).

III. Kasbiy qiyinchiliklar:

1. Oila, maktab va oliy o‘quv yurtini to‘g’ri chog’ishtirma tasavvur qilmaslik, bu layoqatsizlik.
2. Oliy o‘quv yurti shat-sharoitlariga moslashishdagi e’tiborsizlik, ta’lim-tarbiya.
3. Mutaxassislik kasbini to‘liq tasavvur qila olmaslik.
4. Tanlagan kasb mohiyatini tushunmaslik.
5. Kasbiy talablarga javob beradigan fazilatlarga ega emaslik.

Oliy o‘quv yurti shart-sharoitlariga imkon qadar moslashishda o‘quvchi-talabalarning o‘ziga xos yosh xususiyatlari, o‘qish va hayotga nisbatan aqliy munosalatlari, axloqiy fazilat ko‘rsatkichlari muhim o‘rin egallaydi. Oliygohda ta’lim-tarbiya olayotgan o‘quvchi-talabalarning aksariyati o‘quv materiallarini o‘qib o‘zlashtirishda tasodifiy boshqarishga harakat qiladilar. Bu esa irodaviy zo‘r berish natijasida qisman materiallar eslab qolinsa-da, qolganlari mutloq e’tibordan chetda qoladi. Bunday yondashuv o‘rganilayotgan materialning bir qismini tashkil etsa, uning mazmun-mohiyatini zo‘rg’a aniqlab olishga erishadilar, uni chala tushunib, mazmunini batafsil yozma bayon etolmaydilar. O‘quv yili davomidagi bu harakatlar talabani og’ir sinovlarga olib keladi, alqissa sessiya natijalari qoniqarli bo‘lmasligi mumkin. Bunday noxush holatlardan xalos bo‘lishning yagona yo‘li talabani o‘quv materialni asosiy manbalar bilan o‘qib o‘rganishga, faoliyatini mustaqil tashkil qilishga, o‘zini o‘zi boshqara olish imkonlari bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Yuqorida qayt etilgan fikr-mulohazalar o‘quv materialni nazariy va amaliy o‘rganishga qaratilayotganidan kelib chiqib, o‘quvchi-talabalarga o‘qib o‘rganish bilan bog’liq qoidalarga rioya qilib hal etilishi kutilayotgan muammolar ilgari suriladi:

1. Auditoriyaning ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarga tayyorligi.
2. Talabalar ma’ruza va amaliy mashg’ulot davrida diqqat - e’tiborlari, aql-irodalari materialni to‘liq o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lishi shart.
3. O‘tilgan o‘quv materiallarni mustahkamlash uchun mustaqil faoliyatning umumlashgan yo‘l-yo‘riqlaridan samarali foydalanish.
4. Talabalarning kollokvium, og’zaki sinovlar, yozma nazorat ishlariga tayyorgarlik saviyalarini nazorat qilib borish.

Oliygohlarda olib borilayotgan darslar nazariy (ma’ruza) va amaliy mashg’ulotlarga bo‘linadi. Bu mashg’ulotlar bir-birini to‘ldirib, rivojlanib, nihoyat o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirish jarayonida talabalardagi salbiy ijtimoyiy–ruhiy xususiyatlar bartaraf etib boriladi.

Adabiyotlar

1. Vigotskiy L.S. Mishleniye I rech. -M., 2001.
2. G’oziyev E. Oliy maktab psixologiyasi. -T., 1997.
3. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. -T., 2015.
4. Белоручев Миньяр. Методика обучения французскому языку. -М., 1990.

5. Bakayev N., Hafizova M.N. Xorijiy til dars samaradorligini oshirish omillari. “pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o‘rgatish jarayonlari integratsiyasi” mavzusidagi respuublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. -Buxoro, 2018. 193-195 b.

6. Bakayev.N. Lotin tili amaliy mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. –BuxDU, 3-son 2020-yil, iyun

7. Shahob Sharofitdinovich Shodiev. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal “Interpretation of philosophical terms and concepts as an essential subject for linguistic researches of XIX-XX centuries, held in russia and Europe” 590-98 10.5958/2249-7137.2020.01171.4

8. Shahobiddin Sharofiddinovich Shodiev. Bakaev Najmiddin Bakaevich. expressions.. (2020). The role of the Latin language in the history of world statehood. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 367-372. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-05-85-71 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS Scopus ASCC: 1203. The role of the latin language in the history of world statehood

9. Shahobiddin Sharofiddinivich Shodiev Islam in the evolution of social and political views of the Uzbek Jadids, their role in the formation of the idea of National Independence // Central asian journal of social sciences and history. - Feb. 2021. - №VOLUME: 02 ISSUE: 02. - p. 45-50.

Nargiza BAXRIEVA
Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HISSIY RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Bolalarni emotsional rivojlantirish muammosi keyingi yillarda yangi o‘qitish talablari va standartlari kiritilishi bilan yanada dolzarblik kasb etmoqda. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda hissiyotlarning namoyon bo‘lishi, ularni rivojlantirish hamda ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan tadqiqotning dastlabki natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *emotsional rivojlantirish, hissiyotlarning barqarorligi, bilishga qaratilgan hissiyotlar, simpatiya, xavotirlanish hissi.*

Проблема эмоционального развития детей становится все более актуальной в последующие годы с введением новых требований и стандартов обучения. В статье представлены проявления эмоций у детей дошкольного возраста, их развитие, а также предварительные результаты исследований, проведенных в данном направлении.

Ключевые слова: *эмоциональное развитие, устойчивость эмоций, ориентация на познание эмоций, сочувствие, чувство тревоги.*

The problem of emotional development of children is becoming more relevant in the following years with the introduction of new educational requirements and standards. The article presents the manifestation of emotions in preschool children, their development and the preliminary results of the research carried out in this direction.

Key words: *emotional development, stability of emotions, feelings aimed at cognition, sympathy, a sense of anxiety.*

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli tub islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi bo‘lib hisoblanadi. Bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimining dastlabki bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim yaxlit ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlaydigan muhim bosqichga aylandi.

Bolalarni axloqiy-ma’naviy tarbiyalashni aynan ularni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishdan boshlash zarur. Zero, agar muloqot ishtirokchilari, birinchidan, suhbatdoshlarining hissiy holatini anglamasa, ikkinchidan, o‘zlarining hissiyotlarini samarali boshqarishni bilmasa, hech qanday muloqot, hech qanday o‘zaro ta’sir ijobiy natija bermasligi mumkin. O‘zining emotsiya va hissiyotlarini tushunish, anglash o‘sib kelayotgan shaxsning shakllanishida muhim bosqich bo‘lib hisoblanadi. Maqolada ushbu psixologik xususiyatlar atroflicha tahlil etilgan.

Asosiy qism. Tarixiy-pedagogik tahlillarning ko‘rsatishicha, emotsional rivojlanish, inson hayotida emotsiyalarning roli, ularning bola xulq-atvori va shaxs sifatida shakllanishiga ta’siri masalasi qadimdan tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Jumladan, Demokrit va Platon hissiyotlarning inson faoliyatida yo‘naltiruvchi roliga e’tibor qaratishdi, Arastu esa affektlar nazariyasini va undan ogohlantirish usullarini ishlab chiqdi.

Bolalarni emotsional rivojlantirish muammosi keyingi yillarda yangi o‘qitish talablari va standartlari kiritilishi bilan yanada dolzarblik kasb etmoqda. Bundan tashqari, bolalarni kichik yoshda emotsional rivojlantirishning murakkabligi masalaning yanada muhimligini ta’kidlaydi. Bu borada olimlar va amaliyotchilar V.V.Davidov, N.S.Ejkova, A.B.Zaporojes, Ya.Z.Neverovich, O.L.Knyazeva, I.O.Karelina, A.D.Kosheleva, N.S.Leytes, V.G.Rajnikov, L.P.Strelkova, N.S.Ulyanova va boshqalar o‘z tadqiqotlarida uqtirib o‘tishgan.

Emotsiyalar real borliqni obyektiv aks ettirish va unda to‘g‘ri mo‘ljal olish uchun bolalar hayotida muhim rol o‘ynaydi. Shu bois kattalar, ya’ni, ota-ona va tarbiyachilar bolalar bilan izchil va iliq emotsional munosabatlarni o‘rnatishga harakat qilishlari zarur. Zero, boshqa insonlar bilan o‘zaro muloqot va munosabatlar, ularning xatti-harakatlari maktabgacha yoshdagi bolalar hissiyotlari shakllanishi uchun muhim manba hisoblanadi.

Emotsiyalar subyekt faoliyatini aniqlashtiradi, tashkillashtiradi, ruhlantiradi va baholaydi. Emotsiyalarni rivojlantirish muammosi, ularning motiv sifatida paydo bo‘lishi hamda yo‘naltiruvchi roli pedagogika va psixologiyaning dolzarb muammolaridan sanaladi. Binobarin, ular nafaqat bolalar psixikasi va uning alohida qirralari rivojlanishining umumiy qonuniyatlari borasida, balki, maktabgacha yoshdagi bolaning shaxs sifatida shakllanishi xususiyatlari borasida ham yetarlicha tasavvurlar beradi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi o‘zida emotsiyalar rivojlanishi bilan bog‘liq chuqur, yaxlit jarayonni aks ettiradi. Emotsiyalar bolaning umumiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Emotsiyalar bolaning o‘qishidagi samaradorlikni aniqlashtiradi, bolaning ijodiy, mehnat, o‘quv faoliyati va tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlarini tashkil etishida ishtirok etadi.

Maktabgacha yosh davrida bolalar o‘zining emotsiyalarini yetarli darajada boshqara olmaydi, shu bois kattalarning vazifasi bolani o‘z emotsiyalari va faoliyatini boshqarishga o‘rgatish, uning natijasini oldindan ko‘ra olish va bajarilishini nazorat qilishdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti amaliyotida turli yoshga mansub bolalar guruhlari imkoniyatlaridan, ya’ni, turli rollarni bajarish, hamdardlik ko‘rsatish, ko‘maklashish, insonlarni bor-budicha, ular qanday bo‘lsa shunday qabul qilish imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmaydi. Bolalar bilan ijtimoiy faol ish shakllari, masalan, loyihalash faoliyati, ijtimoiy vaziyatlarni o‘ynash kabilardan keng foydalanmaydilar yoki bu ish usullarini bilmaydilar yoki eskicha ish usullarini qo‘llaydilar.

Bolalarni emotsional rivojlantirishning dolzarbligi shundaki, maktabgacha yosh davri bola shaxsi shakllanishi va rivojlanishining eng nozik, sezuvchan davri hisoblanadi. Yaxlit holda, maktabgacha yosh davri bolaning psixik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, aynan bu davrda faoliyat va xulq-atvorning yangi psixologik mexanizmlari shakllana boshlaydi. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning emotsional sohasini rivojlantirish masalasi muhim va chuqur o‘rganishni talab etadigan ilmiy yo‘nalishlardan biridir.

Bolaning emotsional sohasi butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Ilk va katta maktabgacha yosh davri – bolada ancha muhim davr hisoblanadi. Bu davrda bolaning emotsiyalari bola hayotidagi barcha sohalardan ustun holatda bo‘ladi, ya’ni, bola go‘yoki o‘z hissiyotlarining asiri holatiga tushishi mumkin.

Maktabgacha yosh davrida hissiyotlarning barqarorligi kuchayadi, ular ancha chuqur, anglangan va umumlashgan xarakter kasb eta boshlaydi. Bolada o‘zining emotsional reaksiyalarini nazorat qilish malakalari shakllanib boradi. Yangi, oliy, ya’ni axloqiy, estetik, bilishga qaratilgan hissiyotlar paydo bo‘ladi. Bu davrda bola nafaqat o‘zining simpatiyasini (antipatiya), balki elementar hamdardligini, bag‘rikenglik va nazokatini, yaqinlariga nisbatan muhabbatini, g‘urur va uyat kabi hissiy holatlarini ham ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bola nima bilan g‘ururlanadi, nimadan uyaladi – bu atrofdagilar va birinchi navbatda, ota-onasiga, tarbiyachilarga, ularning bolaga nisbatan mavjud munosabatiga, uning muvaffaqiyatlarini baholashi darajasiga bog‘liqdir. Bola, albatta go‘zallikka va xunuklikka befarq emas, u musiqadan, tasviriy san’at asaridan, she’riyatdan, tabiatdagi go‘zalliklardan hissiy ta’sirlanadi, yumor hissini o‘zida namoyon etishi mumkin. Maktabgacha yosh davrida bilish hissiyotlari ham rivojlanadi, bola nafaqat kuchli qiziqishni namoyon etadi, balki, haqiqatni bilishga nisbatan intilishni ham namoyon etadi [1, 91].

Dastlab bolaning emotsional sohasi amaliy faoliyat jarayonida, insonlar, predmetli olam bilan o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadi va o‘zgarib boradi. Keyinchalik, shu asosda o‘ziga xos psixik faoliyat – emotsional hayol paydo bo‘ladi. U o‘zida affektiv va kognitiv jarayonlar yaxlitligini, ya’ni, affekt va intellekt birligini namoyon etadi, ya’ni L.S.Vigotskiy insondagi maxsus oliy hissiyotlar uchun xarakterli ekanligini ta’kidlagan edi.

Hissiyotlar maktabgacha yosh davrining oxirida bolaning xulq-atvori va xatti-harakatlari motiviga aylanadi. Bosqichma-bosqich bola hissiyotlarining intellektuallashishi kuzatiladi. Emotsional ta’sirlanish qobiliyati rivojlanadi, hissiyotlarni ifodalashning shakllari o‘zgarib boradi [2, 64].

Yaxlitlik, umumiylik, ko‘p yo‘nalishlilik, harakatchanlik kabi xususiyatlar bola emotsional sohasini o‘rganishda ma’lum murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu bois, bilish jarayonlarini va bola shaxsi xulq-atvorini tadqiq etishda uni aynan faoliyatda va faoliyat orqali o‘rganish tavsiya etiladi [3, 421].

3,5-4 yoshdagi bolalar o‘z yaqinlari va tanishlariga atalgan hissiyotlarini ertaklar personajlariga ko‘chirishadi, ular faol tarzda hamdardlik ko‘rsatishga harakat qilishadi, yordamga muhtojlarga esa yordam qo‘lini cho‘zishga intilishadi. Omadsizlik sharoitida bolalar kattalarga murojaat qilishadi, kattalarning qo‘llab-quvvatlashi esa bolalar qiziqishlari motivasiyasi bo‘lib xizmat qiladi.

4-5 yoshli bolalar o‘z tengdoshlariga bog‘lanib qolishadi. Bu yoshda yumor hissini anglash, komik holatni tushunish paydo bo‘ladi. Bolalar hazilni anglay boshlaydi va o‘zi ham hazil qilishni yoqtirishadi. Bu yoshda bolalarda o‘z emotsiyalarini zarur hollarda jilovlay olish, shuningdek, mimika va pantomimika yordamida emotsiyalarning tashqi belgilarini namoyon etish imkoniyatlari shakllanib boradi. Biroq, bolalardagi emotsiyalar o‘z impulsivligini saqlab qoladi, bu esa ular fiziologiyasidagi qo‘zg‘alishning tormozlanishdan ustunligi bilan izohlanadi.

5-6 yoshda bolalar maktab davri yaqinlashib kelayotganligini turlicha qabul qilishadi. Bolalarning ba’zilarida bu xavotirlanish hissini uyg‘otsa, boshqalarida quvonch hissini uyg‘otadi, ya’ni, ular maktab jihozlariga qiziqishadi, o‘qituvchi savoliga javob berishga taqlid qilishadi [4, 89].

6-7 yoshda amaliy ko‘nikmalarning to‘planishi, idrok, xotira, tasavvur va hayol, tafakkur rivojlanishining yetarli darajasiga erishilishi bolalarda o‘z kuchiga ishonchni oshiradi. Bu yanada rang-barang va murakkab vazifalarning qo‘yilishi orqali xatti-harakatlarda irodaviy boshqaruvga erishishga olib keladi. 6-7 yoshdagi bola nisbatan uzoq vaqt davomida irodaviy zo‘riqishni his qilib bo‘lsada, uzoqdagi yoki tasavvuridagi maqsadga intilishni boshlaydi.

“Bu yoshda motivatsion sohada o‘zgarishlar kuzatiladi: bolaning xatti-harakatlariga umumiy yo‘nalish berib, o‘zaro bo‘ysundirilgan motivlar sistemasi shakllanadi” [5, 83].

Zamonaviy pedagogika va pedagogik psixologiyada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishini tadqiq etish bo‘yicha ko‘plab diagnostik metodikalar ishlab chiqilgan va ular pedagogik-psixologik tadqiqotlarda samarali qo‘llanilib kelinmoqda hamda asosli ilmiy natijalarni qo‘lga kiritishda muhim omil bo‘lmoqda.

Emotsiyalarning xossalari va yosh bilan bog‘liq xususiyatlari uni diagnostika qilishning murakkabligini ko‘rsatadi. Ma’lum ko‘rsatkichlarga tayangan holda diagnostik vazifalarni yechish yengil kechadi:

1. Shaxsdagi emotsional qo‘zg‘aluvchanlik (yoki teskarisi) deganda, qaysi darajadagi eng kuchsiz qo‘zg‘atuvchi unda kuchli emotsional reaksiyalarni uyg‘otadi.
2. Shaxsdagi emotsional beqarorlik (barqarorlik) kayfiyat va kechinmalarning tezda o‘zgarishi bilan namoyon bo‘ladi.
3. Ikkilanish, behalovatlik, qo‘rquvda namoyon bo‘luvchi shaxsdagi xavotirlanish.
4. Frustratsiya sharoitida xatti-harakatlarning o‘ziga, boshqalarga, predmetlarga va vaziyatga yo‘naltirilganligi.
5. Kechinmalarning chuqurligi.

Tadqiqot ishimizda R.Temml, M.Dorki va V.Amenning “Xavotirlanishni o‘rganish” testidan foydalandik. “Xavotirlanishni o‘rganish” testi maktabgacha yoshdagi bolalarda xavotirlanish darajasini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, proektiv shaklda, bolalarning ularga taqdim etilgan rasmlardagi bolalar emotsional holatini tavsiflashiga asoslangan. Boshqalarning emotsional holatini anglash va shunga ko‘ra muloqotni tashkil etish emotsional intellektning muhim belgisi sifatida ahamiyatli bo‘lib, ijtimoiy-hissiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval. Aniqlovchi eksperimentlarda xavotirlanish darajasining (emotsional negativ tanlashlar) namoyon etilishi dinamikasi
(R.Temml, M.Dorki va V.Amenning “Xavotirlanishni o‘rganish” testi asosida) (nazorat guruhi)

Respondentlar	Mezonlar			Jami
	Yuqori xavotirlanish darajasi (50% dan yuqori)	**O‘rta xavotirlanish darajasi** (20 dan 50% gacha)	**Past xavotirlanish darajasi** (0 dan 20%gacha)	
n-124	49	38	37	124
%	39,5	30,7	29,8	100

Aniqlangan dastlabki eksperimental natijalarga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalarning xavotirlanish darajasi ancha past bo‘lib, asosan ularning ma’lum faoliyatga nisbatan shakllangan tasavvurlari doirasida namoyon bo‘ldi. Jumladan, respondentlarning 39,5 foizi “Xavotirlanishning yuqori darajasi”ga, 30,7% sinaluvchilar esa “Xavotirlanishning o‘rta darajasi”ga ega. Faqatgina 29,8% respondentlar “Xavotirlanishning past darajasi”ni namoyon etishdi.

2-jadval. Aniqlovchi eksperimentlarda xavotirlanish darajasining (emotsional negativ tanlashlar) namoyon etilishi dinamikasi
(R.Temml, M.Dorki va V.Amenning “Xavotirlanishni o‘rganish” testi asosida: eksperimental guruh)

Respondentlar	Mezonlar			Jami
	Yuqori xavotirlanish darajasi (50%дан юқори)	**O‘rta xavotirlanish darajasi** (20 дан 50% гача)	**Past xavotirlanish darajasi** (0 дан 20%гача)	
n-102	42	32	28	102
%	41,2	31,4	27,4	100

Erishilgan natijalarga ko‘ra, nazorat guruhida aniqlovchi eksperiment natijalari quyidagicha bo‘ldi. Jumladan, respondentlarning 39,5 foizi “Xavotirlanishning yuqori darajasi”ni, 30,7 foizi “Xavotirlanishning o‘rta darajasi”ni namoyon etishdi. Faqatgina 29,8 foiz respondentlar “Xavotirlanishning past darajasi”ga xos natijalarni ifodalashdi. Ushbu natijalar nazorat guruhida “Xavotirlanishning yuqori darajasi” bo‘yicha 41,2%

(farqi 1,7%), “Xavotirlanishning o‘rta darajasi” bo‘yicha 31,4% (farqi 0,7%) va “Xavotirlanishning past darajasi” bo‘yicha 27,4% (farqi 2,4%) bo‘ldi va nazorat guruhi natijalari bilan deyarli bir xil bo‘ldi.

Umuman, dastlabki bosqichda amalga oshirilgan aniqlovchi eksperiment natijalariga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalarning aksariyat qismi (62,4%) ijtimoiy-hissiy rivojlanishning past darajasini ko‘rsatganligi (ijobiy ko‘rsatkichlar faqatgina - 37,6% bo‘ldi, xolos) bu muammoning dolzarbligini hamda tadqiqotda ilgari surilgan gipotezaning to‘g‘riligini yana bir bor ifodaladi.

Xulosa. Bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish bo‘yicha mavjud holatni eksperimental o‘rganish yakunida asosiy e’tibor qaratish zarur bo‘lgan barcha metodik jihatlarni aniqlashtirishga erishdik. Bular:

- bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish bo‘yicha mavjud dastur va metodik materiallar hozirgi kunda yanada takomillashtirishni taqozo etadi;
- uyda va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiradigan barcha faoliyatlarida bolalar ko‘pincha o‘zlarining quvonch, ma'yuslik, hayrat, aybdorlik kabi emotsiyalarini to‘g‘ri ko‘rsata olmaydi, shu bilan bir qatorda, boshqa bolalarning emotsiyalarini ham to‘g‘ri baholashda qiynalishadi. Bu esa ko‘p hollarda bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishib, munosabat o‘rnatishlarini to‘g‘ri tashkil eta olmasliklariga sabab bo‘layotir;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda barcha faoliyatlar, asosan, o‘yin orqali amalga oshirilishini nazarda tutganda, rolli va syujetli o‘yinlar ijtimoiy-hissiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin;
- hozirgi kunda bolalarning televizor, kompyuter, internet va mobil aloqa vositalari olamiga qiziqib kirishib ketishi natijasida kattalar va tengdoshlari bilan nisbatan oz munosabatda bo‘lishi kuzatilmoqda. Bu esa bolalarning boshqalar hissiy holatiga nisbatan past darajada, befarq munosabat bildirishi holatlariga olib kelmoqda;
- ota-onalar farzandlariga ko‘proq vaqt ajratishlari lozim, chunki, ilk bolalik davrida ijtimoiy hayotga olib kirishda oilaning ta'siri beqiyos, bola o‘ziga nisbatan mehrni va taassurotlar rang-barangligini to‘liq his etishiga intilishi zarur;
- kuylangan yoki tinglangan qo‘shiq, o‘qib berilgan ertak, she’r va hikoyalar asosida bolalar bilan birgalikda faol muloqotga kirishga qaratilgan inssenirovkalar yaratish ijobiy ahamiyatga ega;
- maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarini ijtimoiy-hissiy rivojlantirishni yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan dastur asosida pedagogik ishni tashkil etish ijobiy natijalarga erishishda muhim omil bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Сергиенко Е.А. Социально-эмоциональное развитие детей. Теоретические основы / Е.А.Сергиенко, Т.Д.Марцинковская, Е.И.Изотова и др. - М.: “Дрофа”, 2019. - 248 с. ISBN 978-5-358-23199-3.

2. Данилина Т.А., Зедгенидзе В.Я., Степина Н.М. В мире детских эмоций: пособие для практических работников ДОУ. -М.: “Айри”, 2016. - 160 с.

3. Урунтаева Г.А. Дошкольная психология: Учеб. пособие для студ. сред. спец. учеб. заведений. – 4-е изд. – М.: “Академия”, 1999. – 873 с.

4. Аккозина Н.М. Интерактивный метод - интерактивный тренажер “Радуга эмоций”. Электрон манзил: http://pedsovet.su/load/316-1-038809 (Мурожаат қилиш вақти: 25.05.2017).

5. Рогов Е.И. Настольная книга практического психолога: Учеб. пособие: В 2 кн. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр “ВЛАДОС”, 1999. - Кн. 1: Система работы психолога с детьми разного возраста. - 384 с.

Dilnoza QODIROVA
Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

KICHIK MAKTAB YOSHI O‘QUVCHILARIDA AXLOQIY-MADANIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS PSIXOLOGIK JIHATLARI

Ushbu maqolada kichik maktab yoshi o‘quvchilarida axloqiy-madaniy sifatlarni shakllantirish va bu orqali ularning bilim darajasini takomillashtirishning psixologik aspektlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *axloq, madaniy sifatlar, ma’naviyat, e’tiqod, xulq, motiv, individul tuzilish, bilish jarayonlari, iroda, konstruktiv xulq-atvor.*

В этой статье дано о психологических аспектах формирования нравственных и культурных качеств у учащихся младшего школьного возраста и через это о повышении их уровня знаний.

Ключевые слова: *нравственность, культурные атрибуты, духовность, поведение, мотивация, структура личности, процессы познания, воля, конструктивное поведение.*

In this article, we will talk about the psychological aspects of the formation of moral and cultural qualities in junior school age students and through this, the improvement of their level of knowledge.

Key words: *morality, cultural attributes, spirituality, behavior, motivation, individual structure, cognition processes, will, constructive behavior.*

Kirish. Shaxsning ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga qo‘yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Bu muammoni falsafa, etnografiya, etika, estetika fanlari tadqiq etadi.

Madaniyat shaxs kamolotiga moddiy (texnika, ishlab chiqarish tajribasi, moddiy boyliklar) va ma’naviy (fan, adabiyot, san'at, maorif, din, umuminsoniy va milliy ma’naviy-ruhiy qadriyatlar) jihatdan ta’sir etadi. Moddiy va ma’naviy madaniyatni uning ma’naviy madaniyati ta’sirisiz, inson ongi va faoliyatidan tashqari yaratilmaydi.

Asosiy qism. Moddiy va ma’naviy madaniyatning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’siri natijasida aqlan yetuk, axloqan yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi. Inson biror moddiy boylik yaratar ekan, avvalo, uning qurilishi, ishlab chiqarish jarayoni va ta’lim-tarbiyaviy natijasini o‘z ongida tasavvur etadi, amaliy ahamiyatini oldindan ko‘ra biladi.

Shaxs tashqi olam, voqea va hodisalarni aql, idrok ruhiy holat, ichki kayfiyatlar orqali qabul qilib olishi jarayonida ma'naviy madaniyat tashkil topadi. Yuksak ma’naviy madaniyatli insonda vatanga muhabbat, samimiy do‘stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mustahkam e’tiqod, iymon, nafosat, axloqiy madaniyat singari fazilatlar mujassamlashadi. Uning sifat darajasi kishilarning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga xalqning ma’naviy merosiga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy-axloqiy madaniyatning negizi hisoblangan umuminsoniy va milliy qadriyatlar shaxsning ijtimoiy tuzumiga munosabati, turli ma’rifiy-madaniy g‘oyalar, tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar tizimining mahsulidir. Ma’naviy-axloqiy madaniyatning mohiyatini namoyon etuvchi obyekt shaxs hisoblanadi. Shaxs sifatida shakllanadigan o‘quvchining ma’naviy kamolotida axloqiy madaniyatning ahamiyati benihoya katta.

Bugungi yoshlarda zamonamizning eng mashhur (ijobiy ma’noda) kishilariga o‘xshashlik xohishini tug‘diradigan ijobiy namunaning tarbiyaviy kuchi o‘quvchilarning (bolalarning) taqlid qilishga moyilligiga asoslangandir. Yoshlar, ko‘pincha, ota-onalariga, ma’lum bir ijobiy yutuqlarga erishgan qarindoshlariga, o‘qituvchilariga va mashhur qahramonlarga taqlid qiladilar. Turli yoshdagi bolalarga taqlid qilishga moyillik turlicha bo‘ladi. Masalan, kichik yoshdagi bolalar ijobiy namunaga ham, salbiy namunaga ham babaravar taqlid qilaveradi. Buning sababi ularning turmush tajribasining juda kamligi, iroda kuchining nihoyatda zaifligi, hissiyotlarining aql-idrokidan ustun turishidadir. Ularda tahlil qilish va harakatlarga tanqidiy ko‘z bilan qarab baho berish xislatlari hali shakllanmagan bo‘ladi. Bolalar ulg‘ayib borgan sari o‘z tevarak-atrofidagi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlariga tobora tanqidiy nazar bilan qaraydigan bo‘ladilar. Shu yoshdagi bolalar o‘z nuqtayi nazarlaridan taqlid qilishga arzigulik deb bilgan kishilarnigina o‘zlari uchun namuna deb biladilar va ularga e’tiqod qo‘yadilar.

O‘quvchilarda tarkib toptiriladigan ma’naviy-axloqiy sifatlar axloqiy ong bilan xatti-harakat o‘rtasida birlik bo‘lishini taqozo qiladi. Buning ma'nosi shuki, haqqoniyligi o‘quvchilarga kunma-kun uqtirib borilgan axloqiy-ma’naviy tushunchalar ularning xatti-harakatlarida ham, ular qatnashgan jamoadagi o‘zaro munosabatlarda ham qaror topmog‘i lozim. O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tushunchalari faqat dars jarayonidagina emas, balki kundalik turmushda ham sinovlardan o‘tib shakllana boradi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida shunday sharoit yaratmoq kerakki, o‘quvchilar sabot-matonat, qunt,

tashabbuskorlik, chidam koʻrsata oladigan, qiladigan ishlarning jamiyat va vatan uchun zarurligini qalbdan tushunadigan boʻlsinlar. Oʻquvchilarga beriladigan bilimlar majmui, shubhasiz, juda katta tarbiyaviy kuchga egadir. Oʻquvchilarda chinakam ilmiy dunyoqarash asoslarini yaratishda, toʻgʻri hukm yuritish qobiliyatini tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy sifatlarga tayanib ish koʻriladi.

Muhokamalar va natijalar. Jamiyatda yuz berayotgan jiddiy va chuqur oʻzgarishlar oʻquvchilar shaxsiyatida ham aks etadi. Endi uning ehtiyojlari bilim olish bilangina cheklanmaydi. Turli axborot tizimlari, jumladan, internetning shiddat bilan rivojlanishi boshqa manbalardan koʻplab axborotlarni olish imkonini bermoqda. Bu manbalardan olinayotgan axborotlar har doim ham oʻquvchi ma'naviyatiga ijobiy ta'sir qilavermaydi. Ular orasida yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir oʻtkazadigan, buzgʻunchi va vayronkor gʻoyalarni tashuvchilari ham anchagina. Shuni hisobga olinsa, oʻquvchini ma'naviy jihatdan yuksaltirish eng muhim vazifalardan biriga aylanayotgani ayon boʻladi. Bayon qilingan mana shu holatlar oʻquvchining ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga qaratilgan dastur ishlab chiqish zaruratini tugʻdiradi. Mazkur dasturni ishlab chiqish oʻquvchilarning ma'naviy-axloqiy jihatdan takomillashtirishni oʻquv jarayonining maqsad va vositalarini oʻquvchi va oʻqituvchilarning ongini oʻzgartirmay turib amalga oshirish mumkin emas, degan fikrga asoslanadi.

Dastur oʻquvchilarning ma'naviy-axloqiy oʻsishi uchun eng samarali usullarni, vosita, maqsad va vazifalarni bosqichma-boskich anglash va amalga oshirishga asoslangan. Dasturning maqsadi oʻquvchilarda har qanday ijtimoiy vaziyatni tahlil qilish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida qaror qabul qilish koʻnikmalarini rivojlantirish, shuningdek, oʻzi qabul qilgan qaror asosida oʻzini namoyon qilish qobiliyatini takomillashtirishdan iborat.

Oʻquv faoliyati jarayonida ma'naviy-axloqiy rivojlanish dasturi

Maqsadlar	Vazifalar	Usullar	Vositalar
1-bosqich			
Ma'naviy-axloqiy qadrityalar toʻgʻrisidagi tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirish	Nutqni rivojlantirish; Harakatlar rejasini tuzish koʻnikmasini shakllantirish va rivojlantirish. Tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish.	Ritorik mashqlar. Tayanch sxemalarni tuzish. Ilmiy tushunchalarni shakllantirish va tahlil qilish.	Pretmet boʻyicha oʻquv materiallari.
2-bosqich			
Man'aviy-axloqiy qadriyatlar asosida xulq-atvorning konstruktiv motivasiyasini rivojlantirish.	Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shaxsiy xulosa qilish koʻnikmasini shakllantirish. Shaxsiy fikrini dalillash koʻnikmasini rivojlantirish. Ma'naviy-axloqiy xulq-atvorning konstruktiv motivlarini shakllantirish.	Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish. Suhbat, munozara, disputlar.	Nazariy mashg'ulotlar.
3-bosqich			
Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida oʻzligini namoyon qilish qobiyaliyatini rivojlantirish.	-xulq-atvorning ma'anaviy-axloqiy motivlarini roʻyobga chiqarish koʻnikmasini shakllantirish; - konstruktiv xulq-atvorni shakllantirish boʻyicha mashqlar. - ma'naviy-axloqiy rivojlanish jarayoni refleksiyasi; - iroda sifatlarini rivojlantirish zaruratini anglash.	- shaxsiy oʻsishning inidividual dasturini tuzish; - xizmat oʻyinlari, trening elementlari; - oʻzini-oʻzi tahlil qilish boʻyicha kundalik yuritish (amaldagi xulq-atvorni ma'naviy-axloqiy rivojlanish maqsadlari, vazifalariga qiyoslab tahlil qilish.)	Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlar

Mazkur dasturning dastlabki bosqichida oʻquvchilardagi man'aviy-axloqiy qadriyatlar toʻgʻrisidagi tasavvurlarning shakllanishi va rivojlanishi uchun maksimal darajada koʻmaklashadigan sharoit yaratish zarur. Oʻsmirlik davrida kognitiv jarayonlar, eng avvalo, tafakkurning shakllanishi yakunlanadi. Shu davrda

tafakkur nutq bilan uzil-kesil birikadi, buning natijasida tafakkur va boshqa bilish jarayonlarini tashkil qilishda asosiy vosita bo‘lgan ichki nutq shakllanishi yakunlanadi. Shu jarayonda to‘laqonli nazariy tafakkur shakllanadi. Shu bilan birga shaxs ilmiy dunyoqarashining asosi bo‘lgan ilmiy tushunchalarning shakllanishi faol davom etadi. Shu davrda mulohaza mantiqiga asoslangan tushunchalar bilan qilinadigan operatsiyalar va aqliy harakatlar shakllari uzil-kesil tugallanadi. Bu jarayonlarning barchasini uch yo‘nalish bo‘yicha tezlatish mukmin: tafakkurning tushunchalar tarkibi, nutq intellekti va harakatning ichki rejasi. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish va kengaytirish bo‘yicha vazifalar nutq intellekti, harakatning ichki rejasi va tushunchalar apparatini rivojlantirishga qaratilgan.

Xulosa. Bir so‘z bilan aytganda, ma’naviyat tarbiyasi barkamol shaxsni tarbiyalashdagi asosiy omillardan biri bo‘lib, shaxsni har tomonlama garmonik tarbiyalashga zamin yaratadi. Biroq, insonni kamolga yetkazishda har bir shaxsga o‘ziga xos munosabatda bo‘lish ta’lim-tarbiyaning asosiy tamoyillari ekanligini unutmasligimiz lozim.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016. – B. 14.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

3. Ананьев Б.Г. О психологических аспектах социализации. – Минск: Изд-во “Университетское”, 2001.-321 с.

4. Бесова А.К. Духовно-нравственное воспитание лич¬ности в процессе литературного образования учащихся: Дис. ...канд. психол. наук. - М., 2000. - 176 с.

Shoxrux SALIXOV
Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Timur SALIXOV
Buxoro davlat universiteti
jismoniy madaniyat uslubiyoti va
nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi

TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILAR BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mazkur maqolada ta’lim jarayonida bilish faoliyatini tashkil etish, ushbu jarayonda amalga oshiriladigan ishlar hamda bu ishlarning psixologik xususiyatlari bayon etilgan. Xususan, ta’lim jarayonidagi psixologik vaziyatlar sifat va samaradorlikka nechog’lik ta’sir ko‘rsatishi, jarayonning sifatli tashkil etilishidagi o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *psixologik, shaxs, uzviylik, izchillik, ta’lim, jarayon, bilish, subyekt, motiv, muloqot, axloqiy motiv, bilish motivi, hissiy bilish.*

В статье описывается организация учебной деятельности в учебном процессе, проделанная в этом процессе работа, а также психологические особенности этой работы. В частности, степень, в которой психологические условия в образовательном процессе влияют на эффективность качества, роль качества в организации процесса.

Ключевые слова: *психологический, личность, принадлежность, последовательность, обучение, процесс, познание, предмет, мотив, общение, моральный мотив, познавательный мотив, эмоциональное познание.*

This article describes the organization of learning activities in the educational process, the work done in this process, as well as the psychological features of this work. In particular, the extent to which psychological conditions in the educational process affect the effectiveness of quality, the role of quality in the organization of the process.

Keywords: *psychological, personality, membership, consistency, learning, process, cognition, subject, motive, communication, moral motive, cognitive motive, emotional cognition.*

Kirish. O‘zbekiston hozirgi davrda ta’limda, shu jumladan, psixologiya fanida ham chuqur islohotlarni boshdan amalga oshirmoqda. Bunday sharoitda mustaqil fikrlovchi, islohotlarda faol ishtirok etuvchi, kasbiy tayyorgarligi talab darajasida bo‘lgan shaxsni shakllantirish, ushbu jarayon samaradorligini ta’minlash ham yoshlarning tarbiyasi va umumiy kasbiy tayyorgarligiga, ularning ta’lim jarayonida mutaxassislik fanlarini chuqur o‘rganish holatiga bog’liqdir. Bu holatda, birinchi navbatda, yoshlarning kasbiy tayyorgarligini yuksaltirishda ma’naviy, axloqiy, psixologik ta’sir vositalarining ahamiyati kattadir. Shaxs kasbiy kamolotini ta’minlovchi ma’naviy-ma’rifiy, psixologik yo‘nalishdagi tadbirlarni amalga oshirish, ularni modernizatsiyalashayotgan jamiyatda yuqori malakali shaxs sifatida tayyorlash, insoniylik, bag’rikenglik kabi xislatlarni, yangi demokratik qadriyatlarning mazmunini yoshlarga tushintirish zaruriyati bilan ham izohlanadi.

Asosiy qism. Ta’lim sohalarning modernizatsiyalashuvi uzluksiz ta’lim taraqqiyoti va shaxsning kasbiy faoliyati yetukligi, axloqiy barkamolligi, kasbiy psixologik xususiyatlarining shakllanishi masalalari bilan chambarchas bog’liqdir. Ushbu jarayonda shaxs kasbiy kamolotining mavjud imkoniyatlardan, ma’naviy ma’rifiy, axloqiy, psixologik yo‘nalishdagi tadbirlardan samarali foydalanish, kasbiy kamolot sari intilishining psixologik jihatlarini yanada takomillashtirish masalasi nazariy, amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarning ta’lim jarayonida rivojlanishi to‘g’risida to‘xtalar ekan, amerikalik psixolog Dj.Bruner shunday yozadi: “Biz fanlarni dunyoga kichik jonli kutubxonalarni keltirish uchun emas, balki o‘quvchining o‘zini matematik fikrlash, muammolarni tarixchi misoli o‘rganish, bilim olishda ishtirok etishga o‘rgatish uchun o‘qitamiz. Bilish – bu jarayon, mahsul emas”.

Bilamizki, bilish faoliyatining subyekti o‘quvchi hisoblanadi. Shuning uchun ijtimoiy-pedagogik asoslarga ega bo‘lgan ta’lim markazida uning shaxsi, ongi, ham o‘rganilayotgan olamga, ham bilish faoliyatidagi hamkorlariga, o‘quvchilar va uning ta’lim olishini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi o‘qituvchilarga munosabati yotadi. Bu masala barcha davrlarda birdek ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, uyg’onish davri Sharq mutafakkirlari ta’lim jarayoni, o‘qitish, ta’lim berishda o‘qituvchi hamda o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabat masalasiga alohida e’tibor qaratishgan. Jumladan, Ibn Sino ta’lim jarayoni haqida gapirar ekan, ta’limda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor berish zarurligini ta’kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;
- ta’limda yengildan og’irga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi;
- o‘qitishda jamoa bo‘lib maktabda o‘qitishga e’tibor berish;

- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘shib olib borish;
- o‘quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o‘rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko‘rgazmali bayon etish kerakligini uqtiradi.

Ushbu fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, ta’lim jarayoni o‘qituvchining o‘rgatuvchilik faoliyatini va o‘quvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o‘z ichiga oladi. Ta’limda o‘qituvchining boshqaruvchilik roli o‘z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarning boy tajribasini, insoniyatni asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonidagi yutuqlarga erishish shart hisoblanadi. Ushbu fikrlar o‘qituvchining ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirishda o‘z aksini topmog’i lozim. O‘qituvchining faoliyati o‘quvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishda katta imkoniyatlar yaratadi. Aniqrog’i, butun o‘quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda o‘quvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi, o‘quvchilarga qiyinchiliklarni yengib o‘tishga yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tahlil qiladi.

O‘z navbatida o‘quvchilarning faoliyati o‘quv jarayonida o‘rganishga, bilim, malaka hamda ko‘nikmalarni egallashga, o‘zini jamiyatda foydali faoliyatga tayyorlashga yo‘naltiriladi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda katta yordam beradi.

Muhokamalar va natijalar. Ta’limda o‘quvchilarning faoliyati haqida so‘z yuritilganda, o‘quvchining bilish faolligi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchining bilish faolligi uning bilish jarayonidagi intellektual mulohazasida, umumiy va alohida topshiriqlarni bajarishda namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatlar o‘quvchining faqatgina yuqori darajadagi bilim olishini kafolatlabgina qolmay, balki uning hayotiy faoliyati, ya’ni o‘quvchi shaxsining shakllanishi, uning amaliyotga, hayotga bo‘lgan faol munosabati uchun xarakterlidir. Shu sababli bilish faolligini oshirish insonning faol hayotiy qarashlarini shakllantirish deb bemalol aytish mumkin.

O‘quvchi bilmaslikdan bilishga, to‘la va mukammal bo‘lmagan bilimdan to‘la va mukammal bilimga o‘tishi lozim.

O‘qitish jarayoni to‘rtta asosiy bo‘g’inlardan tashkil topgan:

- o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan ma’lumotni idrok qilish;
- uni fahmlab olish, tushunchalarning hosil bo‘lishi;
- bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko‘nikma va malakalarning hosil bo‘lishi;
- hosil qilingan ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llash. Bu bo‘g’inlar o‘quvchilarning ma’lum bir yo‘nalishdagi bilish faoliyati bilan bog’langan bo‘lib, u o‘qituvchining boshqaruvchilik qobiliyatini taqozo etadi.

O‘rganilayotgan ma’lumotni idrok etish. Bu bo‘g’inning vazifasi – o‘rganilayotgan obyekt haqida tasavvur hosil qilish. Tasavvurning hosil bo‘lishi esa bilish vazifasining to‘g’ri qo‘yilishini talab qiladi. Ya’ni, o‘quvchi: nimani bilishi, nima uchun bilishi, qay tariqa bilib olishi lozim. Bilish vazifalarini qo‘yish bilan bir vaqtda o‘quvchida bilishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj hosil qilinadi. Bilishga qiziqish o‘qishning eng muhim va eng qimmatli motivi sifatida bolaning maktabga, dars jarayonlariga, o‘z bilish faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatiga yordamlashadi.

Axloqiy motivlar – juda muhim guruh. Ularda shaxs shakllanishining jiddiy jihatlari – uning, avvalo, odamlarga, faoliyatga, o‘zining jamiyatdagi va jamoadagi o‘rniga nisbatan axloqiy munosabatlari ifodasini topadi.

Muloqot motivlari – yana bir guruh. O‘quvchilarni o‘qishga real undaydi, umuman maktabga ijobiy munosabat zamirida yotadi.

O‘quv motivlari – sof shaxsiy tuzilma, biroq ular predmetlar dunyosidan boshlanadi (A.N.Leontev), shunchaki hosil bo‘lmaydi.

Bilish motivlari – tobora xarakterli guruh, zero u bilish – o‘quv predmetiga bevosita munosabatni ifodalaydi. Bunda tobora ahamiyatlisi bilishga qiziqish va ehtiyojlar sanaladi. O‘quvchiga “yangi narsani bilish”, “o‘zini bilimda ilgarilashini ko‘rish”, “ilmga sho‘ng’ish” o‘zi qiziqqan fanning nazariy asoslarini tushunish juda qiziq. Bilishga qiziqish o‘quvchining faolligi, ta’limda mustaqilligi asosida yotadi, maktabga muhabbatni shakllantiradi. Bilishga qiziqish rivojlanishning yanada yuqori bosqichida shaxsning barqaror qirrasi, sifati bo‘lib, ko‘pincha bilash faoliyatiga izchil intilish bilan xarakterlanadi. Bunda, ayniqsa, o‘quv materiali mazmunidan kelib chiqadigan rag’batlash va barqarorlik alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘quv materiali yangiligining qiziqishga ta’siri hammaga ma’lum. O‘quvchi uchun hali o‘zi ko‘rib yoki eshitib bilmagan har qanday narsa va hodisa yangi hisoblanadi. O‘zi bilmagan yangi faktlar, hodisalar bilan tanishib, yangi ma’lumot olib, o‘quvchi tabiiyki hayratlanish, quvonish hissini tuyadi.

Odatda, ta’lim jarayonida o‘qishga qiziqishga katta ahamiyat beriladi. O‘quv materiali mazmunining obyektiv imkoniyatlari roli qanchalik katta bo‘lmasin, baribir o‘quvchining bevosita faolligi uning bilishga qiziqishini kuchliroq rag’batlaydi.

Biroq bir tomondan, fan, texnika, madaniyatning tezkor taraqqiyoti, ikkinchi tomondan, axborotlarning tabora globallashib borishi, boshqa tomondan, bugungi o‘sib kelayotgan avlodning har jihatdan erta rivojlanishi – akseleratsiya o‘quv jarayoniga shunday yondashishni talab etmoqdaki, bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning yangi materialni mustaqil o‘zlashtirish istagi kabi imkoniyatlarni rivojlantirishga qaratiladi.

Rag’batlashning bu turiga o‘quvchilar mustaqil ishlarining xilma-xil shaklini, ularning bilish faoliyatining yangi usullarini egallash, ta’limda muammolilik, fan metodlariga jalb etishni o‘z ichiga tadqiqotchilik elementlari, turli ijodiy va amaliy ishlarni kiritamiz. Mustaqil ishlarning xilma-xilligi va shakllari almashib turishi o‘quvchilar faolligini rag’batlashi isbotlab berilgan. Biroq o‘quv materiali mazmuni malaka va ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida mustaqil ishning qandaydir bitta shakli uzoq muddat qo‘llanishini talab qilgani bois bu stimuldan hamma vaqt ham foydalanib bo‘lmaydi. Ko‘pincha, masala yechish (fizika, kimyo, matematika) jarayonida o‘quvchilar yechish algoritmini o‘zlashtiradilar. Yechish usullarini o‘rganish, shubhasiz, zarur. Biroq bu holda harakatlar takrorlanuvchanligi bilishga qiziqishni mustahkamlash yo‘lida g’ov bo‘lishi mumkin. Bunday bo‘lmasligi uchun esa harakat vaziyati, o‘qituvchi bilish vazifasi va uni hal etish jarayoniga munosabati, yaratgan holat bilan bog’liq stimullar muhim.

O‘quvchilarning bilish faolligini oshirishda darsda o‘quvchilar va o‘qituvchilar munosabatlaridan kelib chiqadigan rag’batlash ham alohida ahamiyatga ega. Gnoseologik va ijtimoiy nuqtayi nazardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, ta’lim o‘quvchilarning bilishga qiziqishiga bevosita ta’sir etadigan munosabatlar bilan bog’liq.

O‘qituvchining pedagogik ishontira bilish qobiliyati bilishga qiziqish rivojiga kuchli turtki beradi. O‘quvchiga, uning bilish imkoniyatlariga ishonish psixologiyada ham, maktab amaliyotida ham isbotlanganiday, nafaqat o‘quvchining bilishga qiziqishi, balki uning ma’naviy rivojlanishi uchun ham rag’batdir.

O‘qituvchi ishlarining o‘quvchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, ularning o‘qituvchi tomon harakati ham bilishga qiziqishga ta’sirini o‘tkazadi, ta’lim va o‘qish samaradorligiga ko‘maklashadi. O‘qituvchi ishonchi doimo o‘quvchilarning o‘sha tomon intilishini keltirib chiqaradi.

Har qanday fan sohasi o‘ziga xos obyektga va predmetiga va ularga mos keladigan tadqiqot yoki amaliy o‘rganish metodlariga, o‘z tamoyillariga egadir. Psixologik-pedagogik diagnostikada qo‘llaniladigan metodlar va tamoyillar hozirgi zamon psixologiya fani va pedagogika fanida orttirilgan ilmiy, amaliy tajribalar, shakllangan tamoyillar asosida shakllanmoqda. Shu bilan birga, o‘z xususiyatlariga ega hamdir. Buning sababi psixologik-pedagogik diagnostik qo‘llaniladigan metodlar va tamoyillar fanda biror yangilik ochishdan ko‘ra ko‘proq mavjud bilimlar, metodlar, tamoyillarning amalda samarali qo‘llanilishiga xizmat qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, psixologik-pedagogik diagnostikaning quyidagi tamoyillarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- diagnostika nazariyasi va metodikalarining ilmiy asolanganligi. Diagnostika obyektini yaxlit ravishda genetik va tizimli tahlil qilish, ularni modellashtirish, qo‘llaniladigan, olingan natijalar va ularning interpretatsiyasining ishnochliligi, aniqligini, validligini puxta ishlab chiqilgan metodologik asoslarda ta’minlash. Ilmiy asoslanganlik tamoyili qo‘llanilayotgan metodikalarning etnik, ijtimoiy muhitga, shu jumladan, diagnostika o‘tkazilayotgan o‘quv yurt va o‘quv guruhga mosligini talab qiladi. Bu tamoyilga amal qilish pedagogik –diagnostikalarni turli xil yengil, “ko‘ziga yaxshi ko‘ringan” yoki “qo‘liga tushib qolgan” metodikalarni bilib-bilmay qo‘llashda saqlaydi.
- diagnostikaning izchilligi va aniq yo‘nalganligi. Psixologik – pedagogik diagnostika boshqa psixodiagnostika, pedagogik diagnostikadan farqli ravishda aniq yo‘nalishga, aniq obyektga va maqsadga qaratilgan. Shu sababli diagnostika faoliyati (jarayonining) natijalari umumiy xulosalar, abstrakt mulohazalardan emas, balki aniq shaxsga (masalan, o‘quvchi), aniq guruhga tegishli bo‘lish, diagnostika natijasida aniq xulosa chiqarib, kamchiliklarni bartaraf qilish, yordam berishning aniq yo‘llarini ko‘rsatib berishi lozim.
- diagnostika shakl va metodlarining optimalliligi. Qo‘llanilayotgan metodikalar, o‘quvchiga yondashish usullarining amaliyotchi psixolog, pedagog yoki pedagog-diagnostga kam kuch va vaqt sarflab, u haqida muhim, sifatli, katta amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlar yig’ishga imkon beradi.
- o‘rganish obyekti haqida faktlarni yig’ish, bayon qilish va to‘g’ri yo‘lga solishning birligi. O‘rganilayotgan obyekti haqida ma’lumotlar yig’ish, ularni pedagoglarga ko‘rsatish va diagnostika jarayonida o‘rganilayotgan o‘quvchiga yoki o‘quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishda, kamchiliklarni bartaraf qilishda o‘quv yurti rahbarlariga, pedagoglarga ma’lum psixologik yordamlar berish, to‘g’ri yo‘lga solish, qo‘llab-quvvatlash funksiyalarning birgalikda olib borilishi.

- diagnostikaning ketma-ketliligi va uzluksizligi - diagnostikaning bosqichma-bosqich amalga oshira borib, o‘quv jarayoniga, o‘quvchining o‘zlashtirishiga halaqit berayotgan sabablarini ochish, olingan natijalardan keyingi bosqichlarda, o‘quv-tarbiya jarayonida uzluksiz foydalanishda yuzaga chiqadi.
- diagnostika metodlari va jarayonlarining qulayligi va ommobopligi. Diagnostika metodlarining oddiyligi, pedagoglar, amaliy psixologlar, o‘quv yurti rahbarlari, tekshiriluvchi uchun qulayligi, ularda diagnostikaga nisbatan qiziqish, intilish uyg’otishga xizmat qilishini ta’minlovchi tamoyil.
- diagnostikaning har tomonlamaligi (komplekslиligi). Bu tamoyil o‘quvchi shaxsini, uning individual-psixologik xususiyatlarini, ruhiy jarayonlarning rivojlanganlik darajasini, o‘quv faoliyatining boshqa xususiyatlarini o‘rganish uchun tanlangan metodlar va metodikalar uni bir butun holda, har tomonlama o‘rganish, ta’riflash, yondashish imkonini berishda yuzaga chiqadi. Diagnostik metodikalar bir-biri bilan bog’liq bo‘lishi, bir-birini to‘ldirish-bu tamoyilning asosiy talabalardan biridir.

Xulosa. Diagnostika o‘quvchi rivojlanishining kelajagini, oqibatlarini oldindan ko‘ra olish (prognoz qilish) imkoniyatini bera olishi. Har qanday psixologik-pedagogik diagnostika o‘quvchining kechagi yoki bugungi kundagi rivojlanish darajsini, o‘quv jarayonining tashkil qilinganlik darajasini ko‘rsatib berish bilan cheklanib qolmasligi lozim. Diagnostik jarayonda o‘rganilayotgan obyektning “kelajagi”, ertangi kuni ham, taraqqiyot tendensiyalari ham ma’lum omillar ta’sirining oqibatlari ochib berilishi kerak. Shu holdagina, prognoz mohiyatidan xatolar, o‘quvchi taraqqiyotidagi ko‘zga tashlangan kamchiliklarni bartaraf qilish, to‘g’ri yo‘lga solish imkoniga ega bo‘lamiz. Shu sababli psixologik-pedagogik diagnostika metodlarining prognostik bo‘lishi eng muhim talablardan biridir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quv jarayoni yaxlit va, hatto, har bir dars o‘quvchilarning bilishga, turli sinf va fanlarda namoyon bo‘lish xarakteriga ko‘ra rag’batlar turli xil bo‘ladi. Rag’batlarning bir xil tuzilishga egaligi, o‘zaro bog’liqligi bilishga qiziqishni mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat etadi, shaxsning bilish kuchlari, uning fikrlash, irodaviy, hissiy-bilish jarayonlari faollashini ta’minlaydi.

Har bir darsda bilishga qiziqish o‘zining avj nuqtasi, o‘zining ko‘rsatkichiga ega, o‘qituvchi buni ko‘rishi, diqqat bilan tahlil qilishi muhim, zero bu umumiy ma’noda darsning samaradorligi ko‘rsatkichidir.

O‘quvchilarning bilishga qiziqishlarini tobora istiqbolli yo‘nalishi qiziqishning dars boshidan to oxirigacha izchil o‘sib borishidir, bunda o‘quvchilar ishga berilib qo‘ng’iroqni eshitmaydi va darsdan o‘quv jarayonida qilib ulgurmaganini davom ettirish istagi bilan ketadilar.

Dars jarayonida bilishga qiziqishning asta-sekin susayib borishi uni rag’batlantirmaydi, balki so‘ndiradi va har safar qiziqtirishni boshidan boshlash lozim bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. G’oziyev E.O‘. Oliy maktab psixologiyasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1997.
2. Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. -T., 2003.- 231 b.
3. Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. –Jizzax, 2005. -154 b.
4. Adizova T. Psixologik korreksion ishlar. -T., 2000. -126 b.
5. G’affarov A.Z., Yugay A.X. Pedagogika amaliyoti. -T. 2002. -214 b.
6. Davletshin M.G., To‘ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya. -T., 2002. -231 b.
7. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiyasi. –T., 1998.-321 b.
8. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Qarshi: “Nasaf”, 2000. -80 b.
9. Ochilov M. Ochilova N.M. O‘qituvchi odobi. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1997. -136 b.
10. Quronov M. Yoshlarni milliy mafkuraviy tarbiyalash – texnologik masala . Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar va echimlar. T.: 1999, 32-37 b.
11. Jobir ogli, Yarashov Mardon; ,THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL TECHNOLOGY IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS EDUCATION,ACADEMICIA,1,11,5,2021,ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal
12. Косимов Ф. М., Ярашов М. Ж. ТВОРЧЕСКИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНЫЕ РАБОТЫ НА УРОКАХ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ //ИННОВАЦИОННЫЙ ПОТЕНЦИАЛ РАЗВИТИЯ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. – 2020. – С. 178-181.
13. YARASHOV M. BOSHLANG ‘ICH SINF MATEMATIKA TA’LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHDA TA’LIM TAMOYILLARINING O ‘RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ. – 2020. – Т. 1. – №. 1.
14. G’oziyev E. Yosh davrlari psixologiyasi. Ped institutlari va universitetlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: “O‘qituvchi”, 1994. -124 b.
15. G’afforova T. va boshqalar. Ta’limning ilg’or texnologiyalari. -Qarshi: “Nasaf”, 2003.

Shahlola ULUG‘OVA
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
Psixologiya fanlari nomzodi

Rayima NEMATOVA
Buxoro davlat universiteti
katta o‘qituvchisi

TADBIRKOR AYOLLARNING BOZOR MUNOSABATLARIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVCHANLIGINING O‘ZIGA XOSLIGI

Maqolada tadbirkor ayollarning bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvchanligining o‘ziga xosligi to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik, moslashuv, bozor munosabatlari, ikkilamchi kasbiy faoliyat, motivlar.*

В статье речь пойдет об особенностях социально-психологической адаптации женщин-предпринимателей к рыночным отношениям.

Ключевые слова: *предпринимательство, адаптация, рыночные отношения, вторичная профессиональная деятельность, мотивы*

The article talks about the peculiarity of socio-psychological predisposition of entrepreneurial women to market relations.

Key words: *entrepreneurship, adaptation, market relationship, secondary professional activity, motivations*

Kirish. Tadbirkor ayollarda bozor munosabatlari, iqtisodiy hayot qadriyatlari, muvaffaqiyatlari, ularga erishish yo‘llari, usullari va zarur bo‘lganda ikkilamchi kasbiy faoliyat haqidagi real tafakkurni shakllantirish hamda iqtisodiy erkin shaxsni tarbiyalashda ijtimoiy-iqtisodiy fanlar alohida o‘rin tutadi. Chunki shaxsda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish bozor islohotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy kafolatidir. bozor iqtisodiyotiga yo‘l tutgan davrdan boshlab, tobora ko‘proq kishilar, xususan, xotin-qizlar foydali tadbirkorlik sohasida tashabbus, omilkorlik va mahorat ko‘rsatmoqdalar. Bunday sharoitda o‘z-o‘zidan aniqki, xotin-qizlar orasida erkin va ijodiy mehnatda yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy bilimlarga va iqtisodiy manfaatli faoliyatning barcha sohalarida ikkilamchi kasbiy faoliyatni egallab olishga intilish kuchayadi.

Asosiy qism. Rossiyalik mutaxassis A.V. Karpovning yozishicha, xotin-qizlarning bozor sharoitiga moslashuvi jarayoni muammosi, mohiyatan, ishlab chiqarishdagi psixologik va tadbirkorlik boshqaruvi masalalarini o‘z ichiga qamrab oladi.

Muallifning fikricha, ijtimoiy-psixologik moslashuv bilan bog‘liq muammolar, tadbirkorlik faoliyatini tanlagan har qanday ayolning ruhiy holati, kechinmalari, tashqi omil ta’sirini qay darajada hazm qila olishi va bularning tadbirkor ayol ish faoliyati hamda natijasiga ta’sir qilish darajasida tushuniladi.

Xotin-qizlarning bozor iqtisodiyoti sharoitiga, xususan, tadbirkorlik faoliyatiga moslashuv jarayoni psixologik bosqichlari aniqlanishini tahlil qilar ekanmiz, o‘z navbatida, mutaxassislarning quyidagi fikr-mulohazalarining guvohi bo‘lamiz.

A.L. Juravlev, Ye.V. Shoroxova, V.A. Xashenko va boshqalar iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida ijtimoiy-psixologik dinamikani tadqiq etishar ekanlar, hukumat rahbarlari va mahalliy arboblar fuqarolarni yangi tuzumning mehnat sharoitiga moslashishiga ko‘mak ko‘rsatishida, moslashuv jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iboratligini nazarda tutishi lozim, deb hisoblashadi.

1-bosqich. Bozor munosabatlari sharoitida yangi mehnat egasining tayyorgarlik darajasini aniqlash deganda quyidagilarni tushunish mumkin, ya’ni aniqlangan daraja mehnat egasi manfaati yo‘lida keyingi amalga oshirish lozim bo‘lgan tadbirlarni rejalashtirish, zarur resurslarni qo‘llash, tadbirkorlik faoliyatini tanlagan xotin-qizlarning tajriba sohasidan kelib chiqqan holda ularning qobiliyatlari va malakasi darajasidagi vazifalarni aniqlab olish imkonini beradi. Professional sohadan tashqari tadbirkor ayol (mehnat egasi)ning muloqotga moyilligi darajasini bilish jamiyatning kommunikasiya tarmog‘iga tezroq kirishib ketishini ta’minlash uchun asos bo‘ladi.

2-bosqich. Orientasiya. O‘zgarishlar jarayonida, xususan, tanlangan yangi faoliyat doirasida xotin-qizlarni ular bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar, majburiyatlar bilan tanishtirish. Bu bosqichda amalga oshiriladigan tadbirlarni, o‘z navbatida, quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

Kompaniya asoslari – tashkilot tarixi va hozirgi holati haqidagi asosiy ma’lumot, strategik rejalar, xodimlar va rahbariyat munosabatlari qoidalari, kasaba uyushmasi faoliyati, mehnat sharoitlari va ish tartibi, ish haqqi belgilash tizimi, korxonadagi ijtimoiy ta’minot, maishiy xizmat va imtiyozlar.

Mahsulot – korxona mahsulotlari tarkibi bilan tanishtirish, ishlab chiqarish tizimi va texnologiyasi, asosiy mahsulot iste’molchilari va narxi, raqobatdosh mahsulotlar orasida tutgan o‘rni.

Ishlab chiqarish – ishlab chiqarishga oid qarorlar qabul qilish tartibi va xususiyati, tashkilot rejalari va

loyihalar bilan tanishtirish, ishlab chiqarish jarayonining asosiy tamoyillarini o‘rganish, bo‘limning asosiy vazifalari va mas’uliyat darajasi, hisobot berish asoslari, mahsulotga yo‘nalgan boshqaruv uslubini o‘rganish va xarajatlarni hisoblash, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik asoslari.

Sotuvlar – tashkilotning bozordagi ulushi va reklama jarayoni, raqobatdosh tashkilotlarning imkoniyatlari, sotuv agentlarining faoliyati, sotuv uslublari.

Asosiy mehnat ko‘nikmalari – aloqa vositalari va texnika jihozlaridan foydalanish bo‘yicha mashqlar, muomalada bo‘lish xususiyatlari, ish joyining xususiyatlari va talablarini o‘zlashtirish, notiqlik san’ati, marketing va moliyaga taalluqli asosiy bilimlar, kasb talabidan kelib chiquvchi qo‘shimcha malakalarni shakllantirish mashqlari.

Ushbu matndan ko‘rinib turibdiki, xorijiy davlatlardagi ilg‘or tashkilotlar tomonidan xodimlarni kasb (zaruriy hollarda ikkilamchi kasb)ga moslashuvini har tomonlama amalga oshirish ta'minlanadi. Ma’lumot, ko‘nikma va malaka jihatlarni bunday qamrab olish yangi xodimning tashkilot hayotiga kirib borishini ta’minlaydi va barcha kuch-g‘ayratini tashkilot maqsadi yo‘lida safarbar etish imkonini beradi.

3-bosqich. Moslashuvni amalga oshirish. Bu o‘zgarishlar jarayonida, bozor munosabatlariga o‘tishda xotin-qizlarni yangi faoliyatga va jamoada mavjud shaxslararo munosabatlar tizimiga moslashtirish jarayonidir. Bu bosqich doirasida xotin-qizlarning faol harakat qilishi, o‘zlarini turli (ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, savdo) jabhalarda sinab ko‘rishiga imkoniyat yaratish lozim. Tegishli tashkilotlar (masalan, tadbirkor ayollar assosiasiyasi) tomonidan jamiyatning ilg‘or xotin-qizlari erishayotgan muvaffaqiyatlari haqida ma’lumot yig‘ib boriladi va faoliyati yuzasidan unga zarur tavsiyalar beriladi.

4-bosqich. Faoliyat ko‘rsatish. Shu bosqichda moslashish jarayoni tugaydi va xotin-qizlar hukumat tomonidan berilgan imtiyozlardan to‘liq foydalanishgan holda mustaqil ravishda o‘z faoliyatlarini davom ettiraverishadi. Bunda xotin-qizlar o‘zlarining tadbirkorlik (mehnat) faoliyati yunalishida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni o‘zlari yengib o‘tish kuchiga ega bo‘lishadi. Odatda, xotin-qizlarning bozor talab va muhitiga qo‘pol moslashuvi 1,5–5 yillar atrofida amalga oshadi.

Muhokamalar va natijalar. Moslashuv jarayoniga ko‘mak ko‘rsatish (hukumatning tezkor qo‘llab-quvvatlashi) sharoitida esa bu jarayon bir necha oylarda muvaffaqiyatli o‘tishi mumkin. Moslashuv jarayonini bu tarzda qisqartirish rivojlanish yo‘lidan borayotgan va bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tayotgan davlat uchun moddiy jihatdan ham ma’lum darajada foyda beradi. B.A. Rayzberg tadqiqotlari natijasiga tayanib, bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos rivojlanish mexanizmi bor va u iqtisodiy-psixologik stimullarga, ya’ni jamiyat a’zolarini to‘q va xotirjam yashash, obro‘ga ega bo‘lish, hayotda o‘z o‘rnini topish kabi manfaatlarini yuzaga chiqarishga asoslanadi hamda uning negizini shaxs ijtimoiylashuvi jarayoni belgilab beradi, degan umumiy xulosaga keladi.

Asosiy bosqichda respondentlar tomonidan “Psixologik moslashuvda o‘zini-o‘zi baholash” metodikasi orqali olingan natijalardan ma'lum bo‘lishicha, tadbirkor ayollarning yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)ga ijtimoiy-psixologik moslashuvini besh xil: quyi, o‘rtachadan past, o‘rta, o‘rtachadan yuqori, yuqori darajalarga bo‘lish mumkin.

Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik darajasini aniqlashning o‘zini o‘zi baholash strategiyasiga asoslanganligi (n=295)

№	Oraliq ballar ko‘rsatkichi	Ijtimoiy-psixologik moslashuv darajalari	XK-$SS_{x/q}$	$K_{x/q}$	TR_a	T_q
			n=36	*n=124*	*n=58*	*n=77*
1.	1 balldan 2 ballgacha	quyi daraja	5	9	3	27
2.	3 balldan 4 ballgacha	o‘rtachadan past darja	9	14	3	18
3.	5 ball	o‘rta daraja	15	69	19	26
4.	6 balldan 7 ballgacha	o‘rtachadan yuqori darja	3	19	23	4
5.	8 balldan 10 ballgacha	yuqori daraja	4	13	10	2

Fikrimizcha, yuqorida ajratilgan darajalar bozor munosabatlari sharoitida tadbirkor ayollarning:

a) o‘zaro munosabatlarga kirishidagi holati;

b) mehnat faoliyati davomida uzoq muddatli tashqi va ichki konfliktlarga bormasligi;

v) sotsiogen ehtiyojlardan qoniqishi;

g) jamiyat (ba’zan referent bo‘lmagan guruh) tomonidan taqdim etilishi mumkin bo‘lgan rolli kutilmalarga tayyor bo‘lishi;

d) ijodiy qobiliyatlarini mustaqil va o‘ziga ishongan holda namoyon qila olishini aniqlashda qo‘l keladi hamda ijtimoiy-psixologik moslashuv ko‘lamini belgilab beradi.

Tadqiqotdan aniqlanishicha, “TR_a” guruhiga mansub respondentlardan 39,6%i bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvning o‘rtachadan yuqori darajasini namoyon etishib, ularning mulohaza

yuritishicha, muvaffaqiyatli ijtimoiylashuv moslashuv va individuallashuv o‘rtasida muvozanat saqlangandagina amalga oshishi mumkin. “XK-$SS_{x/q}$” va “$K_{x/q}$” ijtimoiy guruhlariga mansub sinaluvchilarda ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlikning o‘rta darajasi kuzatilib, mos ravishda bu ko‘rsatkich 41,7%, 55,6%ni tashkil etdi. Ularning nazarida bozor munosabatlari sharoitida yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)ni tanlashga turtki beruvchi omillar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrida iqtisodiy sosializasiyaga va jamiyatni sanoatlashtirishga bo‘lgan xatti-harakatlarni kuchaytirib, xotin-qizlarni bozor iqtisodiyoti sharoitiga ijtimoiy-psixologik moslashuvining o‘ziga xosligini belgilab beradi. “Tq” guruhiga mansub sinaluvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlikning quyi darajasini (35,1%) namoyon etishi, o‘z navbatida, boshqa guruh a’zolariga nisbatan anchagina yosh, ikkilamchi kasbiy faoliyat sohasida ularga nisbatan kamroq tajribaga ega va mehnatdan tashqari o‘qish faoliyati bilan ham shug‘ullanadilar. O‘qish faoliyati esa o‘z navbatida shaxslararo munosabatlar zichligini va ahamiyatliligi (moslashish)ni e’tirof etadi. Natijalarning umumlashgan tahlili shuni ko‘rsatyaptiki, mazkur guruh vakillari jamoada, o‘z hamkasabalari va yaqinlari nigohida hurmatli va ardoqli bo‘lish istagi bilan yashaydilar.

Ikkilamchi kasbiy faoliyatni tanlanilishiga sabab bo‘luvchi motivlar va o‘zgaruvchan muhitda shaxs moslashuviga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, xususan, inson tabiiy sharoitni o‘zgartira olmasa-da, ammo texnikani mukammallashtirish, faoliyatni strategik loyihalashtirish, mehnat jamoasida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish orqali noqulay sharoitda ham xotin-qizlarning bozor munosabatlariga ijtimoiy-psixologik moslashuvini oshirish mumkin.

O‘zgaruvchan olamda ikkilamchi kasbiy faoliyat (yangi mehnat)ga bo‘lgan moslashuv – bu subyektning mehnat jarayonida yangi faoliyat turining o‘ziga xos xususiyatlariga moslashishidir, degan ta’rifga sabab bo‘ladi va mohiyatiga ko‘ra:

a) moslashuvning tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq jihati xotin-qizlardan bajariladigan ishga qo‘yiladigan talablarni o‘zlashtirishni taqozo qiladi;

b) bu xil moslashuvda obyektiv va subyektiv omillar mavjud bo‘lib, kasbiy moslashuvning ob'ektiv omillari sifatida xotin-qizlarning ma’lumoti, malakasi va tajribasi e’tirof etiladi;

d) subyektiv omillar qatoriga esa xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyati (kasb)ga bo‘lgan munosabati, yangi ish joyidan kutayotgan daromadi va foydasi kiritiladi.

Xulosa. Bozor munosabatlariga moslashish va turli xil holatiy modellar tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda egiluvchan yondashuvni qo‘llash zarur ekanligini ko‘rsatadi. Tadbirkor ayollarning yangi mehnat yoki ikkilamchi kasbiy faoliyat(i)ga ijtimoiy-psixologik moslashuvini besh xil: quyi, o‘rtachadan past, o‘rta, o‘rtachadan yuqori, yuqori darajalarga bo‘lish mumkin va bu darajalar:

a) o‘zaro munosabatlarga kirishidagi holati;

b) mehnat faoliyati davomida uzoq muddatli tashqi va ichki konfliktlarga bormasligi;

v) sotsiogen ehtiyojlardan qoniqishi;

g) jamiyat (ba’zan referent bo‘lmagan guruh) tomonidan taqdim etilishi mumkin bo‘lgan rolli kutilmalarga tayyor bo‘lishi;

d) ijodiy qobiliyatlarini mustaqil va o‘ziga ishongan holda namoyon qila olishini aniqlashda qo‘l keladi hamda ijtimoiy-psixologik moslashuv ko‘lamini belgilab beradi.

Adabiyotlar

1. Суворова Г.А. Психология деятельности: Учеб. пособие для студентов психологических и педагогических вузов. – М.: “ПЕРСЭ”, 2003.

2. Налчаджян А.А. Социально-психологическая адаптация личности. – Ереван, 1988.

3. Китов А.И. Экономическая психология. –М.: “Экономика”, 1987.

4. Социально-психологическая динамика в условиях экономических измененей/РАН, Ин-т психологии; Отв. ред. А.Л. Журавлев, Е.В. Шорохова, В.А. Хащенко и др. – М.: “ИП РАН”, 1998.

5. Ulugova Sh.M., Akramov A.A. “Tadbirkorlik shaxsi faoliyatida iqtisodiy jarayonlar”. “Innovative activity in the education system – guarantee of quality and effectiveness”. Collection of Papers from II International Scientific Conference. Uzbekistan. 2018.B - 156-160.

6. Улугова Ш.М., Нематова Р.Р. Воздействие ценностей на приспособление женщин к рыночным отношениям. -Мысль: “Наука” электронный периодический журнал. №6– 1 за 2016.

Gulnora BO'RONOVA
Buxoro davlat universiteti
axborot texnologiyalari
kafedrasi o'qituvchisi

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABNING BOSHLANG'ICH SINFLARIDA "ROBOTOTEXNIKA" TO'GARAKLARINI VIRTUAL DIDAKTIK VOSITALAR YORDAMIDA TASHKIL ETISHNING UNIVERSAL METODLARI

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kelajak uchun eng muhim omil sifatida qaralmoqda. Bunda ishlab chiqarishda robotlardan foydalanish juda yuqori moliyaviy natijadorlikka va rivojlanishning bir necha baravar tezlashishiga olib keladi. Bu borada robototexnika elementlarini o'rgatishni umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari bo'g'inidan boshlash juda muhim.

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabning boshlang'ich sinflarida "Robototexnika" to'garaklarini tashkil etishda virtual didaktik vositalardan foydalanish samarali natijalar berishi batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *robototexnika, didaktik vosita, virtual didaktik vosita, vitual reallik, dasturiy vosita, virtuallik, robot, innovatsion idrok, virtual model, virtual loyiha.*

Развитие цифровой экономики сегодня рассматривается как важнейший фактор будущего. При этом использование роботов в производстве приводит к очень высокой финансовой эффективности и многократному ускорению развития. В связи с этим очень важно начинать обучение элементам робототехники со звена начальных классов общеобразовательных школ. В данной статье подробно описано, что использование виртуальных дидактических средств при организации кружков "Робототехника" в начальных классах общеобразовательной школы дает эффективные результаты.

Ключевые слова: *робототехника, дидактический инструмент, виртуальный дидактический инструмент, виртуальная реальность, программный инструмент, виртуальность, робот, инновационное восприятие, виртуальная модель, виртуальный проект.*

Today, the development of the digital economy is considered as the most important factor for the future. The use of robots in the production of Bunda leads to very high financial efficiency and several times the acceleration of development. In this regard, it is very important to start the teaching of the elements of robotics from the elementary classes of general secondary schools. In this article, it is explained in detail that the use of virtual didactic tools in the organization of "Robototechnics" circles in the primary classes of the general secondary school will give effective results.

Key words: *robototechnics, didactic tool, virtual didactic tool, Vitual reality, software tool, power, robot, innovation perception, virtual model, virtual project.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasidagi shiddatli o'zgarishlar ta'lim tizimiga ham jahon miqyosida keng yo'l ochib bermoqda, zamonaviy informatsion texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, global telekommunikasion texnologiyalarning takomillashib borishi elektron ta'lim muhitida insonni ishga bo'lgan munosabatini kreativ yondashuvini talab etmoqda. Zamonaviy dunyoning innovatsiyalariga moslashish, doimiy yangilanuvchi jamiyat hayotiga yosh avlodni tayyorlash va uni zamon talablariga muvofiq takomillashtirish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish umumiy o'rta ta'lim muassasasi pedagogining muhim kasbiy vazifasi hisoblanadi.

Bugungi zamonaviy maktablarda robototexnikani o'rganishga ko'proq e'tibor berishimiz kerak. Buning sababi shundaki, kelajakda o'rta maktab bitiruvchilari o'zlarini texnologiya bilan to'la ish muhitida topadilar va robotlar ushbu muhitning ajralmas qismi bo'ladi. Bolalar kodlash va robototexnika bilan bog'liq bo'lmagan kasbni tanlagan taqdirda ham, ushbu fanlarni maktabda o'rganish ularga analitik fikrlash, dasturlash, jamoada ishlash, jamoaviy fikrlash, innovatsion idrok va boshqa ko'plab muhim ko'nikmalarni beradi. Bugungi kunda dunyodagi aksariyat ilg'or maktablar o'z o'quvchilari uchun STEAMni o'rganish strategiyasini tanlaydilar. Robototexnika robotlarni loyihalash, yig'ish va boshqarish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'quv jarayonida bolalar robotlar va mexanik tizimlar bilan o'zaro aloqada bo'lishadi, notanish tuzilmalardan qo'rqishmaydi, balki ularni boshqarishni o'rganishadi. Mamlakatimizning iqtisodiy

va ijtimoiy ahvolini yuksaltirishga qaratilgan talaygina yangilanishlar kundan-kun hayotimizga tadbiq etilmoqda. Barcha sohalarga zamonaviy texnologiyalar joriy qilinayapti. Xususan ishlab chiqarish korxonalarida komp'yuter dasturlari bilan boshqariladigan dastgohlar keng miqyosda foydalanilmoqda. Inson hayoti uchun xavfli yoki og‘ir bo‘lgan sohalarda ham komp'yuterga asoslangan robotlardan foydalaniladi. Atom elektrostansiyalari yoki kimyoviy korxonalarda ham ularni uchratish mumkin.

Jahon tadqiqotlariga ko‘ra shaxsiy kompyuterlar birinchi paydo bo‘lgan 1970- va 1980-yillarning oxirlarida barcha uchun bolalarga qanday qilib dasturlashni o‘rgatish muammosi paydo bo‘lgan. Minglab maktablar millionlab o‘quvchilarga LOGO yoki BASICda oddiy dasturlar yozishni o‘rgatish orqali ishni boshlashdi. Bu borada bolaning matematik va mantiqiy fikrlash darajasi asosida ishni boshlash kerak. Hozirgi kunda yangi O‘zbekiston kelajagi bo‘lgan bolalarni dasturlashga o‘rgatishni boshlang‘ich sinfdan boshlash juda muhim. O‘qituvchi dasturlashni bolalarga o‘rgatishda ko‘plab muammolarga duch keladi. Bu muammolarda asosiy omil sifatida bolalar dasturlash sintaksisini o‘zlashtira olmasligidir. Biz taklif qilayotgan robototexnika to‘garak dasturiga muvofiq bolalar dasturlashni virtual dasturlar vositasida o‘rganishadi. Bunda virtual didaktik vositalardan keng foydalaniladi.

Virtual reallik bu kontekstda kompyuter vositasi yordamida sun’iy ravishda yaratilgan, siz unga kira oladigan, uni ichki tomondan o‘zgartiradigan, o‘zgarishlarni kuzatadigan va haqiqiy sezgilarni boshdan kechiradigan muhit sifatida ta’riflanadi. Ushbu yangi turdagi audiovizual voqelikda siz nafaqat boshqa odamlar bilan, balki sun’iy belgilar bilan ham aloqa o‘rnatishingiz mumkin. Ushbu tushuncha bilan virtual reallik o‘tgan asrning oltmishinchi yillarida uch o‘lchovli komp’yuter grafikasi va inson-mashina interfeysi sohasidagi tadqiqotlar chorrahasida paydo bo‘lgan texnologiya [5].

Hozirgi bosqichda virtual reallik texnologiyalaridan ta'limda tobora ko‘proq foydalanilmoqda. O‘qitish uchun mo‘ljallangan virtual tizimlari o‘quv maqsadidagi dasturiy-pedagogik vositalar rivojlanishida bir bosqichdir. Ular yigirmanchi asr oxirida ta’lim muassasalarida keng qo‘llanila boshlagan o‘quv dasturlardan kompyuterda videoma’lumotni uch o‘lchovli sintezli aksi, sezilarli darajada yuqori dasturiy va algoritmik ta’minot, mukammalroq bo‘lgan hisoblash texnikasi va bir qator yangi quyi tizimlarning (taktil sezgi quyi tizimlari, nutq munosabati va boshqalar) qo‘llanilishi bilan farqlanadi.

Asosiy qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari asoslarini joriy etish tajribasiga asoslanib, shuni ta’kidlash mumkinki, robototexnika o‘quv mazmunining, birinchi navbatda, informatika fanining yangi va juda muhim elementiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga, robototexnikani joriy etish ikki jihatdan amalga oshiriladi: o‘rganish predmeti va o‘qitish vositasi sifatida. Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida sinfdan tashqari ta'limni joriy etish muhimligini inobatga olgan holda “Robototexnika” to‘garaklari faoliyatini tashkillashtirish zamonaviy ta’limning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda robototexnika elementlari “Informatika va axborot texnologiyalari” va “Texnologiya” umumta’lim fanlarida o‘rganilmoqda. O‘qitish vositasi sifatida robototexnika imkoniyatlari hali to‘liq ko‘rib chiqilmagan. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali robototexnikani o‘rganish bu muammoni hal qilishga yordam beradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yangi Davlat ta’lim standartlarida ta’lim muassasalari faoliyatiga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, u sinf-dars tizimidan “chiqib ketishni”, sinfdan tashqari ishlarning rolini oshirishni taklif qiladi, bu bolaning o‘z-o‘zini anglashi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi va har bir o‘quvchining ijodiy rivojlanishini, innovatsion idrok etishini, turli yangi loyihalarni tafakkur qila olishini ta’minlashga qaratilgan. Davlat ta’lim standartining konsepsiyasiga binoan, sinfdan tashqari ishlar, majburiy fanlar doirasidagi ta’lim faoliyati bilan birgalikda o‘quvchilarda DTSda bayon qilingan ta’lim natijalariga erishishga yordam beradi.

“Robototexnika” to‘garaklarini tashkil qilishda virtual didaktik vositalardan foydalanish yuqori samara beradi. Virtual didaktik muhitning potensialini, fikrimizcha, uni erkin va faol shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish uchun ijodiy muhit deb ta’riflash bilan cheklanib bo‘lmaydi. Virtual didaktik muhitda interfaol mustaqil ta’lim olishning didaktik tizimi doirasida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya samaradorligi va tabiatning muvofiqligi nuqtayi nazaridan ta’riflash biz uchun juda muhimdir, shuningdek, didaktikaning asosiy tamoyiliga rioya qilish: “rivojlanish va ta’lim hech kimga berilmaydi yoki yetkazilmaydi. Biror narsani o‘rganishni istagan har bir kishi bunga o‘z faoliyati, o‘z kuchi va o‘ziga xos yuklanishi orqali erishishi kerak. Shuning uchun mustaqillik ta'lim vositasi va shu bilan birga natijasi hamdir”. Virtual didaktik ta’limda interfaol mustaqil ta'lim olishning yuqori darajasini ta’minlaydigan eng muhim didaktik shartlar quyidagilardir:

- o‘quv materiallarini taqdim etishda o‘zgaruvchan yondashuvni amalga oshirish;
- o‘quv ma’lumotlarini hissiy qabul qilish darajasini oshirish;
- har xil mustaqil ishlarni bajarish orqali o‘rganish uchun motivatsiya darajasini oshirish;

- o‘quvchilarni interfaol tajriba va bilim almashinuv jarayoniga jalb qilish orqali bilim faolligini rag‘batlantirish;

- to‘liq taqdim etilgan ma’lumotlarni tahlil qilish va o‘rganish;

- o‘quvchini qiziqtiradigan mavzularni tanlash qobiliyati .

Ushbu tadqiqotning maqsadlari kontekstida taklif etilgan to‘rtta ta’lim modelini tahlil qilish asosida virtual didaktik ta’limning didaktik xususiyatlarini aniqlash, shubhasiz, qiziqish uyg‘otadi:

-avtoritar ta’lim;

-dialogik mustaqil ta’lim;

-interfaol mustaqil ta’lim, mustaqil o‘qish.

Ushbu modellarning qisqacha tavsifi quyidagicha:

Agar o‘qitishda ustuvor rol o‘rgatish predmetiga tegishli bo‘lsa, unda bu usul avtoritar ta’lim deb tasniflangan: “avtoritar ta’lim - o‘qitish usuli, unda asosiy, yetakchi - o‘quv predmetining shakllantiruvchi faoliyati, yo‘naltirilgan, passiv - subyektning o‘ziga xos o‘quv faoliyati (fanlar) ta’limoti”dir [4]. Interfaol o‘z-o‘zini tarbiyalash “uzluksiz o‘zaro munosabatlarga, o‘quv predmeti va o‘qitiladigan fanlar o‘rtasidagi doimiy aloqaga, tabiatga muvofiqlikka, shaxsga yo‘naltirilgan o‘z-o‘zini tarbiyalash natijalarini kuzatib borishga asoslangan o‘z-o‘zini tarbiyalash metodi va modeli” sifatida tushuniladi.

Mustaqil ta’lim quyidagicha tasvirlangan: “mustaqil ta’lim – hech kim, subyektning o‘zidan tashqari, ta’lim olishi boshqarilmaydigan, nazorat qilinmaydigan va hech narsa bilan tartibga solinmaydigan o‘qishning metodi va modelidir”. Bunda qoida tariqasida, maqsadlarni belgilash, mashqlar tarkibi va hajmini tanlash, mashqning trayektoriyasi va vaqt doirasini aniqlash bo‘yicha tahliliy va bashoratlash hamda loyihalash ishlari pedagog tomonidan amalga oshiriladi. Yuqorida ta'kidlab o‘tilganidek, virtual ta'lim muhitining didaktik potensialini tabiatga muvofiqlik asosida o‘qitish tamoyilini amaliy ravishda tadbiq etish uchun paydo bo‘layotgan imkoniyatlar prizmasi orqali aniqlash, ushbu muhitda ta'lim samaradorligi muammosini muhokama qilish bilan to‘ldirilishi kerak. Shu munosabat bilan, avvalambor shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy didaktikaga ko‘ra, ta'lim samaradorligi nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyatlari, ko‘nikmalari va faoliyat usullari, balki shaxsiy fazilatlarining rivojlanishi bilan ham belgilanadi. Ta’kidlash joizki, umumiy ilmiy ma’noda “samaradorlik” “samarali, ta’sirchan, kerakli natijaga olib keladigan” deb tushuniladi. Ta’lim samaradorligi muammosi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Treningning samaradorligi muallif tomonidan o‘qitishning ijtimoiy ahamiyatli sifati belgilanadi, bu orqali faoliyat natijalari shaxsni tarbiyalashning umumlashtirilgan g‘oyasiga mos keladigan ijtimoiy maqsadga yaqinlik darajasiga qarab baholanadi [6]. Ta’lim samaradorligi tushunchasi, ta’lim sifati tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u insonning ta’lim ehtiyojlarini qondirishga hissa qo‘shadigan va jamiyat manfaatlariga mos keladigan, barcha darajadagi ta'lim subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi hukumat hujjatlarida aks ettirilgan xususiyatlar (va ularning namoyon bo‘lishi) kombinasiyasi bilan tavsiflanadi. An’anaga ko‘ra, o‘quv jarayoni sifatining mezonlari quyidagilardan iborat: ta'lim mazmuni va o‘qitish usullariga mo‘ljallangan elementlarining to‘liqligi, o‘qitishning individuallashtirilishi va tabaqalashtirilishi, turli tashkiliy shakllardan foydalanish, ta’limning ta’lim funksiyasini amalga oshirish. Ularga muvofiq ta'lim samaradorligining quyidagi mezonlarini ajratish mumkin: “olingan bilimlarning aniqligi va tizimliligi, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, qadriyatlar tizimi, axloqiy, mehnat tarbiyasi, bilim va ko‘nikmalarni ijodiy qo‘llash darajasi [6]. Ta’lim samaradorligining yuqorida ko‘rsatilgan mezonlarini shaxsiy yondashish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish mantiqiydir. Ma’lumki, shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim deganda “o‘quv jarayoni subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil etish ularning individual xususiyatlariga (qadriyatlar, munosabatlar, aql-idrok, qobiliyat va boshqalar) maksimal darajada qaratilgan bo‘lib, dunyoni bilishga qaratilgan shaxsni modellashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari” tushuniladi [5, 57]. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi o‘quvchining o‘zini o‘zi tashkil etish va o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish mexanizmini doimiy ravishda shakllantirishni, uning bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi [6]. Ta’lim tizimini bilim olishga asoslangan ta’limni tashkil etishdan o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini yetakchi maqsadlar, o‘quv natijalari sifatida belgilaydigan, shaxsga yo‘naltirilgan, shaxsning asosiy kuchlari, qobiliyatlari va iste’dodlarini rivojlantirish hamda o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘tish ta'limning asosiy maqsadi - zamonaviy ta'lim jarayonidagi yetakchi yo‘nalishi hisoblanadi. Virtual didatik muhitda shaxsga yo‘naltirilgan ta'lim g‘oyalarini amalga oshirish uning samaradorligini baholash yondashuvlarni o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi, bunda o‘quvchining boshlang‘ich bilim darajasi qo‘shimcha mezon sifatida hisobga olinishi kerak (boshlang‘ich bilim darajasi boshlang‘ich tayyorgarlik darajasiga kiradi). Virtual didaktik muhitda o‘rganish mavzusiga bir qator talablar aniq, ularsiz ta’lim samarali bo‘lmaydi. Bularga quyidagilar kiradi:

- tez qaror qabul qilish, to‘g‘ri ma’lumotni tanlash, g‘oyalarni ishlab chiqish, o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilari bilan osonlikcha aloqa o‘rnatish qobiliyati;

- foydalanuvchi darajasida shaxsiy komp'yuterni bilish, bu dastur bilan ishlash qobiliyatini nazarda tutadi (masalan, Microsoft Windows (so‘nggi versiyasigacha, Microsoft Office va boshqalar);

- internetning asosiy ko‘nikmalariga ega bo‘lish (elektron pochta, chat, forum va boshqalar bilan);

- o‘z fikrini yozma ravishda qisqa va aniq ifoda etish, shuningdek, bir vaqtning o‘zida bir nechta mavzularni muhokama qilish qobiliyati;

- o‘rganish sur’ati va traektoriyasini mustaqil ravishda boshqarish qobiliyati.

Ehtimol, yana bir mezon - o‘quvchining intellektual rivojlanish darajasi bilan ajralib turishi kerakdir.

An’anaviy jamoaviy ta’lim berish doirasida pedagog o‘quvchilar bilan real vaqt rejimida muloqot qilib, o‘quv jarayonining markazida bo‘ladi. Virtual didaktik muhitda mashg‘ulotlarni Internetning ma'lumot va ta’lim resurslaridan foydalangan holda va, asosan, o‘quvchilar tomonidan o‘quv jarayonida individual foydalanishga qaratilgan zamonaviy dasturiy platformalar asosida tashkil etishda pedagog o‘quvchilarga moslashish imkoniyatiga ega. Aslida, an’anaviy ta’lim jarayonida pedagog bunday imkoniyatga ega emas. Virtual didaktik muhitning didaktik potensialini muhokama qilish nuqtayi nazaridan, guruhda o‘rgatish hamkorlikda o‘qitishdan orqada ekanligini tushunish juda muhim. Hamkorlikda o‘qitish deganda kichik bir guruh o‘quvchilar ma’lum bir tadqiqot vazifasi ustida ish olib boradigan, faol yechimi tarmoq ichidagi aloqa doirasida qidiriladigan ta’lim metodi tushuniladi. Bunday hamkorlik o‘quvchilarning o‘quv motivasiyasini oshirishga yordam beradi va shu bilan o‘z maqsadlariga erishishning yuqori darajasini ta’minlaydi. Jumladan, jamoada ishlash va ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish ko‘nikmalari rivojlanadi. Boshqacha qilib aytganda, virtual didaktik muhitda o‘quv jarayoni ko‘payib boruvchi rolni o‘z zimmasiga oladi, uning faoliyati subyektiv qiyinchilik yoki muammoning mavjudligini nazarda tutadi, uni bartaraf etish uning ichki rivojlanishini belgilaydi. Virtual didaktik muhitda mutlaqo majburiy ravishda individual ta'limga yo‘naltirilganlik o‘quv jarayonini o‘qituvchiga aylantiradi, bu unga o‘quv materialini o‘zi uchun qulay vaqtda o‘rganishni boshlashiga imkon beradi, agar xohlasa darsni to‘xtatib qo‘yadi, shuningdek, akademik intizomni uning intellektual qobiliyatiga mos keladigan tezlikda o‘rganishga imkon beradi [5]. Agar mustaqil individual ta’lim virtual didaktik muhitda ustunlik qilishi mumkinligini va o‘qitishning standart usullari mutlaqo mavjud emasligini hisobga olsak, o‘quvchi pedagogga moslashishi juda kam uchraydi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bizning xulosalarimiz natijasida virtual didaktik muhitni tavsiflashda “erkinlik” shkalasi bo‘yicha boshqa nuqta qo‘yish mumkin degan xulosaga kelish mumkin. Ta’lim muhitida qanday ta’lim shakli ustunlik qiladi?

a) individual;

b) guruhli.

Muhokamalar va natijalar. Virtual didaktik muhitda, o‘quv jarayonini tashkil etishga ikkita yondashuv bo‘lishi mumkin. Birinchi yondashuv sinxron aloqada, ya'ni real vaqt rejimida “pedagog-o‘quvchilar” tizimida amalga oshiriladigan aloqaga asoslangan bo‘lib, uning diqqat markazida guruhli mashg‘ulotlarni tashkil etilishi bo‘ladi. Asinxron aloqa shaxsiy tarmoqni o‘rganish amalga oshirilishini ta'minlashga qodir: “Asinxron o‘rganish - bu har bir o‘quv predmeti o‘quv materiallari bilan tanishganda yoki hamma bilan ishlamasa, lekin u uchun qulay vaqtda ta'lim telekommunikasiyalarining bir shakli” [5]. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, virtual didaktik muhitni tashkil qilish faqat ushbu yondashuvlarni organik ravishda almashtirish bilan amalga oshiriladi: bundan tashqari, individual ta’limga qaratilgan yondashuv doimo ustuvor bo‘lishi kerak, chunki virtual o‘rganish dastlab pedagog bilan minimal aloqada mustaqil ishni o‘z ichiga oladi. Virtual didaktik muhitda individual o‘qitish metodikasi asosiy modullardan iborat bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, o‘qitishning murakkab individual usullarini yaratishning bir nechta variantlari mavjud.

Birinchi variant. Yangi boshlanuvchi sinovdan o‘tkaziladi, buning natijasida uning shaxsiy turi aniqlanadi, shuningdek, uning psixologik xususiyatlarining eng munosib kombinatsiyasi aniqlanadi. Har bir shaxs turi uchun o‘ziga xos virtual o‘rganish metodologiyasi ishlab chiqiladi. Sinov natijalariga qarab, ma’lum bir insonni o‘qitishda ma’lum bir texnikadan foydalaniladi.

Ikkinchi variant. O‘quv jarayonida o‘quvchiga turli xil vazifalar taqdim etiladi. Qaysi vazifalarni tezroq o‘rganishlariga qarab, o‘quv metodikasi o‘zgartiriladi. Bu doimiy aloqani ta'minlaydi. Har qanday o‘quv jarayonidagi kabi virtual didaktik muhitda, interfaollik asosiy tushunchadir. Virtual didaktik muhitda amalga oshiriladigan fikr-mulohazalarni shartli ravishda “birlamchi” va “ikkilamchi”ga bo‘lish mumkin. Virtual o‘rganish jarayonida o‘quvchiga axborot ta'lim resursi tomonidan “birlamchi” aloqa xabarlari “keladi”, masalan, topshiriq yoki testni bajarish. Bunday aloqa o‘quvchining ta'lim faoliyatini to‘g‘ri yo‘nalishga yo‘naltiradi, unga o‘z muvaffaqiyatlari va kamchiliklarini baholash imkoniyatini beradi. Bu aks ettirishni kuchaytiruvchi, kelgusidagi harakatlarni rag‘batlantiruvchi va ta'lim faoliyati samaradorligini munosib baholashga yordam beradigan omildir. “Ikkilamchi” qaytma aloqa virtual o‘qitishni olib boradigan pedagogga o‘quv jarayonini tahlil qilish va to‘g‘rilash, shuningdek, o‘qitish usullarini o‘zgartirish uchun

materiallar bilan ta’minlaydi. Shunday qilib, biz pedagogda individual ta’lim turining muqarrar keng tarqalishini ta’kidlashimiz mumkin, biz uni mustaqil o‘quvchining erkin rivojlanishi uchun qo‘shimcha imkoniyat mavjudligi sifatida izohlaymiz. “Erkinlik” shkalasi bo‘yicha yana bir nuqta berish unchalik qiyin emas [6].

O‘quv muhitining o‘n ikki turidan biriga to‘g‘ri keladigan elementar hisob-kitoblar asosida tuzilgan vektor virtual o‘quv muhitini “odatiy ijodiy muhit” sifatida tavsiflashga imkon beradi. Bu muhit ijobiy, optimistik kayfiyat fonida, hissiy ko‘tarilishda amalga oshiriladigan o‘quv va kognitiv faoliyat uchun yuqori ichki motivasiyaga ega bo‘lgan o‘rganish predmeti mavjudligini taxmin qiladi. “Uning kuchi aqlning qat’iyligida emas, balki intilishda, turtki bilan, harakatda. Buni kutmasdan o‘zingiz bajaring. Hech qanday buyruq yo‘q - yaxshi iroda bor. Hech qanday dogma yo‘q muammolar mavjud. Ehtiyotkorlik yo‘q - ruhning intilishi, ishtiyoq bor. Bu yerda bag‘rikenglik - bu e'tiqodning yarmi emas, balki insonning fikriga bo‘lgan hurmatdir. Ijodiy muhitda dunyoning rivojlanishi va o‘zgarishi, o‘zini o‘zi yuqori anglash, ochiqlik, shuningdek fikr erkinligi bilan ajralib turadigan shaxs shakllanadi. Ijodiy muhit erkin va faol shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirish jarayoni bilan ajralib turadi. Aytilganlarni xulosa qilar ekanmiz, shuni ta’kidlaymizki, ko‘pgina tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, pedagog, birinchi navbatda, ma’murlar va rasmiylar tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy buyurtma bo‘yicha emas, balki ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga yo‘naltirilganligini ta’kidlaymiz. U standart o‘qitish usullarining mutlaqo o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. O‘quvchini pedagogga moslashtiradigan holatlar juda kam uchraydi [5].

Robototexnika - bu keng qamrovli ta’lim imkoniyatlariga ega bo‘lgan tarkibning nisbatan yangi elementi, boshqa tomondan, u texnologik sohadagi zamonaviy tendensiyalarni, xususan, konvergent texnologiyalarning paydo bo‘lishini aks ettiradi.

Ta’lim tizimiga robototexnika kiritilishi, ko‘p jihatdan, o‘tgan asrning 80-yillarida ta’limni axborotlashtirish boshlangan davrga o‘xshaydi. So‘ngra yangi tashkil etilgan informatika va axborot texnologiyalari umumta’lim faniga o‘quv predmeti va o‘qitish vositasi sifatida qaraladigan axborot texnologiyalari kiritildi (1985-yildan yurtimizda “Informatika va hisoblash texnikasi asoslari” fani o‘qitila boshlangan) [9].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bugungi kunga qadar robototexnikani rivojlantirishda ma’lum bir tajriba to‘plangan, shu bilan birga, eng muhim vazifalardan biri robototexnikani informatika va axborot texnologiyalari o‘quv fanlari tarkibiga kiritishdir. Bugungi kunga qadar robototexnika bo‘yicha darsdan tashqari mashg‘ulotlar uchun ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilari va “Barkamol avlod” Respublika bolalar texnik ijodiyot markazi to‘garak rahbarilari tomonidan ishlab chiqilgan ko‘plab dasturlar mavjud. Tahlillar davomida biz ulardan A.Xodjiboyevning “Robototexnika va elektron o‘yinchoqlar” to‘garagi dasturi, asosan, yuqori sinf o‘quvchilariga mo‘jallanganligini bilib oldik. Biz taklif etayotgan dasturga muvofiq “Robototexnika” to‘garagini kichik maktab yoshidan boshlab o‘rgatish kelajakda yuqori samaradorlikka erishishga sabab bo‘ladi. Chunki bolada yoshligidan kashfiyotchilikka, dasturlashga, konstruktorlikka bo‘lgan qiziqishlari juda yuqori bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda “Robototexnika” to‘garagi dasturiga muvofiq bola Lego Digital Designer, Ldraw, SAPR, Virtual Robotics Toolkit, TRIK Studio dasturlari yordamida interaktiv rejimda immitatsion modelllardan foydalanib robototexnika elementlarini o‘rganishadi. Bunda bolalarga ota-onasi ham yordam berib, bolaning yangi g‘oyalarining virtual modelini yaratishga ko‘maklashish orqali mantiqiy, analitik, innovatsion g‘oyalarini rivojlanishiga katta yordam berishadi.

Quyida “Robototexnika” to‘garagi dasturiga muvofiq robototexnikani virtual o‘rgatadigan dastur oynalarini ko‘rib chiqamiz:

1-rasm. Lego Digital Designer dasturi oynasi

Bu dastur 8-10 yoshdagi bolalarda boshlang‘ich robototexnika bo‘yicha tushunchalarini shakllantirib, turli konstruksiyalarni qurish va g‘oyalarini virtual modelini yaratishga yordam beradi.



2-расм. SnapCAD дастури ойнаси

SnapCAD dasturining VEX detallari yordamida bola tasavvuridagi obyektlarini 3D modelini hosil qilishi mumkin.



3-расм. Open Roberta дастури ойнаси



4-rasm. Scratch 3.0 dasturi oynasi

Scratch – bu, asosan, kodni o‘rganishda yordam beradigan 8-16 yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan blokli vizual dasturlash tili va veb-sayti. Sayt foydalanuvchilari Internetda blokka o‘xshash interfeys yordamida loyihalar yaratishlari mumkin. Xizmat MIT Media Lab tomonidan ishlab chiqilgan, 70 dan ortiq tillarga tarjima qilingan va dunyoning aksariyat qismlarida qo‘llaniladi. Scratch maktabdan keyingi to‘garaklarda, maktablarda va ijodiyot markazlarida, shuningdek, boshqa maktabdan tashqari o‘quv muassasalarida o‘qitiladi va qo‘llaniladi.

Scratch qiziqarli va dasturlashni o‘rganish oson bo‘lishi uchun yaratilgan. Unda bloklarga asoslangan dasturlash yordamida interaktiv hikoyalar, o‘yinlar, badiiy, simulyasiya va boshqalarni yaratish uchun vositalar mavjud. Scratchda o‘zining bo‘yoq muharriri va ovoz muharriri o‘rnatilgan. Foydalanuvchilar Scratchda bloklar palitrasidan bloklarni sudrab olib, boshqotirmalar kabi jumboq singari dasturlash orqali dasturlashadi. Bir nechta bloklarning tuzilmalari skript deb nomlanadi. Ushbu dasturlash usuli (bloklar bilan qurilish kodi) “sudrab oib tashlash orqali dasturlash” deb nomlanadi [7].

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. //O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 3-son, 79-modda, 710-modda.

3. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari risola. -T., 2017. B.70-71.

4. Дидактика средней школы / Под ред. М.Н.Скаткина. - М., 1982. - 359 с.

5. Дулов В. Виртуальная реальность и виртуальное общество / В. Дулов // http://chij.km.ru/view/a8A449E63B25A43F9B9C14C985D3C9525.htm.

6. Катыс П.Г. Виртуальная реальность в компьютерном обучении / П.Г. Катыс // http://www.mesi.ru/joe/stl59.html. 76.

7. Scratch: Computer Programming for 21st Century Learners Lamb, Johnson, Larry Teacher Librarian; Apr 2011; 38, 4; ProQuest Central pg. 64

8. Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yilgan davlat talablarining takomillashtirilgan loyihasini tajriba-sinovdan o‘tkazish bo‘yicha hujjatlar to‘plami. –Toshkent, 2011-y.

9. Попов Е.П., Письменный Г.В. Основы робототехники. -Москва “Высшая школа”, 2000 (z-lib.org).

10. Mo‘minov B.B., Bo‘ronova G.Yo., Norova Z.Sh.. Umumiy o‘rta ta'lim maktablarida robototexnika to‘garaklar faoliyatini interfaol usullar yordamida rivojlantirish.“Amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari” xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2021-yil, 15-aprel. -607-bet.

11. Mo‘minov B.B., Bo‘ronova G.Yo., Muxammedov A.A. Virtual dasturlar vositasida umumiy o‘rta ta'lim maktablarida robototexnika to‘garaklari faoliyatini rivojlantirishning universal o‘quv metodlari. “Amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari” xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2021 yil, 15-aprel. -609-bet.

Internet manbalari:

1. https://www.lego.com/en-us/ldd
2. 7https://www.virtualroboticstoolkit.com/
3. http://www.robotvirtualworlds.com/download/
4. https://lab.open-roberta.org

Ozoda TURSUNOVA
Abu Ali ibn Sino nomidagi
Buxoro davlat tibbiyot instituti
o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
o‘qituvchisi

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARINING ONA TILI DARSLARIDA O‘QUV LUG’ATLARIDAN FOYDALANISH

Ushbu maqolada umumiy o‘rta maktabning ona tili darslarida o‘quv lug’atlarining o‘rni, ulardan foydalanish usullari va imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *DTS, ijodiylik, mustaqil fikrlash, so‘z boyligi, lug’at, o‘quv lug’ati, darslik, til boyligi, ko‘p ma’noli, zid ma’noli, sinonim, ko‘nikma va malaka.*

В данной статье проанализирована роль, методы и возможности использования учебной лексики на уроках родного языка средней общеобразовательной школы.

Ключевые слова: *ДТС, креативность, самостоятельное мышление, словарный запас, словарный запас, учебная лексика, учебник, богатство языка, многозначность, многозначность, синонимичность, навыки и квалификация.*

This article analyzes the role, methods and possibilities of using educational vocabulary in the lessons of the native language of secondary school.

Key words: *SSE, creativity, independent thinking, vocabulary, vocabulary, educational vocabulary, textbook, language richness, polysemy, synonymy, skills and qualifications.*

Kirish. Umumiy o‘rta ta’limda o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, ularga milliy o‘zligini tanitish, ongida ma’naviy-ma’rifiy inqilob hosil qilish, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang-barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turida o‘zbek tilidan bemalol, erkin, samarali, to‘g’ri foydalana olishi, uning cheksiz imkoniyatidan bahramand bo‘lishi, nutq odobi va nutqiy taktika sirlarini egallash bilan bog’liq zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirish vazifasi ona tili ta’limi zimmasidadir. Zero, ona tili ta’limining bosh maqsadi ijodiy tafakkur sohiblarini yetishtirish, har bir maktab bitiruvchisining o‘z ona tilida tafakkur mahsulini yozma va og’zaki usullarda, nutq sharoitiga mos ravishda to‘g’ri va ravon ifodalash, o‘zgalar fikrini to‘g’ri qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, malakalarini hosil qilishdan iboratdir [1].

“Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari”da “Ona tili” o‘quv predmeti ta’limning maqsadi ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish bilan bog’liq ravishda quyidagicha belgilandi: **“Ona tili ta’limi oldida quyidagi bosh maqsad turadi: ona tili mashg’ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr maxsulini nutq sharoitiga mos ravishda og’zaki, yozma shakllarda to‘g’ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim” [2].** Demak, ona tili ta’limining bosh maqsadida asosiy e’tibor o‘quvchining tafakkuriga, ijodiylik, mustaqil fikrlash urug’ini sepa olish va ijodiy fikrlash mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og’zaki, yozma shakllarda to‘g’ri, ravon ifodalashni uddalay olishga o‘rgatish masalasi qo‘yilar ekan, demak, mazkur muddaoning uch tomoniga asosiy e’tiborni qaratishimiz lozim:

1) o‘quvchini ijodiylik, mustaqil fikrlashga o‘rgatish;
2) o‘quvchini to‘g’ri, ravon, asosli, mantiqli so‘zlay olishga o‘rgatish;
3) o‘quvchini to‘g’ri, ravon, asosli, mantiqli yoza olishga o‘rgatish.

Ona tili ta’limining bosh maqsadini amalga oshirish uchun “Ona tili” dasturida “5-sinf o‘quvchilari o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan zaruriy bilimlar” silsilasi quyidagicha belgilangan:

Tilning kishilik jamiyati hayotidagi ahamiyati. O‘zbek tilshunosligi, o‘zbek adabiy tili, o‘zbek xalq shevalari, turkiy tillar oilasiga mansubligi, til va yozuv, tilning paydo bo‘lishi, tillar o‘rtasidagi munosabatlar, dunyo tillari, yozma adabiy nutq, og’zaki adabiy nutq. O‘zbek tilshunosligi: asosiy bo‘limlar.

“Davlat tili haqida”gi Qonunning tarixiy va ijtimoiy ahamiyati.

Sintaksis. So‘z birikmasi, gap, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari (darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, his-hayajon gap) gap bo‘lagi. Gapning bosh bo‘laklari: ega, kesim.

Sodda gap, yig'iq sodda gap, yoyiq sodda gap. Gapning ikkinchi darajali bo‘laklari: to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol. Tinish belgilari, ko‘chirma gap.

Uyushiq bo‘lakli gaplar. Undalma.

Fonetika. To‘g'ri talaffuz (orfeopiya). Grafika, imlo. Nutq a'zolari. Nutq tovushlari va harflar, harf birikmalari. Unli va undosh tovushlar. Jarangli va jarangsiz undoshlar. So‘zda tovushlarning almashinishi. Unli va undosh tovushlar imlosi.

Ochiq va yopiq bo‘g'in. Bo‘g'in ko‘chirish qoidalari. So‘zni bo‘g'inlarga ajratish. So‘z urg'usi va mantiqiy urg'u.

Grafik: alfavit, so‘z oxiri, bosh harf, tutuq belgisi, ko‘chirish belgisi, harflar birikmasi, qator kelgan bir xil kelgan undosh harflar, o‘zbek tili imlosining asosiy tamoyillari, imlo qoidalari.

O‘zbek tilining so‘z boyligi. Lug'atning asosiy boyish manbalari. So‘z ma'nosi, lug'aviy ma'no, bir ma'noli so‘zlar. So‘zning bosh ma'nosi. So‘zning o‘z va ko‘chma ma'nosi. So‘zning o‘z va ma'noda qo‘llanishi - borliqni aniq va ramziy ifodalash vositasi sifatida. Sinonim (ma'nodosh), uyadosh so‘zlar, antonim (zid ma'noli), omonim (shakldosh) va paronimlar. Iboralar, ularning lug'aviy ma'nosi, uslubiy o‘rni va nutqdagi vazifasi.

Izohli lug'at, imlo lug'ati, sinonimlar lug'ati.

Lug'at va lug'atlarning turlari.

O‘zbek tilining imlo lug'ati. O‘zbek tilining izohli lug'ati. O‘zbek tilining sinonimlar lug'ati. O‘zbek tilining anonimlar lug'ati. O‘zbek tilidagi iboralar.

Morfologiya. So‘z tarkibi. O‘zak. So‘z yasalishi. Yasovchi asos. So‘zning o‘zak qismlari. O‘zakdosh so‘zlar. Qo‘shimchalarning turlari: so‘z yasovchi, so‘z shaklini hosil qiluvchi, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar.

So‘zlarning turkumlarga bo‘linish mezonlari.

Mustaqil so‘z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish).

Yordamchi so‘z turkumlari (bog'lovchi, ko‘makchi, yuklama, undovlar, modal so‘zlar, taqlid so‘zlar).

Ot, uning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Otning ma'no turlari. Atoqli otlarning uslubiy qo‘llanishi. Otlarda son shakllari. Ko‘plik qo‘shimchasi. Turlanish. Kelishiklar. Egalik qo‘shimchalari. Otlarning tuzilish jihatdan turlari (sodda, juft, qo‘shma va qisqartma otlar).

Fe'l, uning lug'aviy ma'nosi, morfologik belgilari va sintaktik vazifasi. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe'l. Fe'lning tuslanishi. Fe'l zamonlari. O‘tgan zamon, hozirgi zamon, hozirgi-kelasi zamon, kelasi zamon fe'llari. Ko‘makchi fe'llar.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, 5-sinf o‘quvchilariga bolalar o‘rta umumta'limda o‘rganishi zarur bo‘lgan kompleks bilimlarning ibtido ko‘rinishi beriladi. Ammo, bu o‘quvchilar xotirasini nazariy bilimlar bilan to‘ldirish degani emas. Zero, bu borada DTS talablari quyidagicha:

5-sinf o‘quvchilarining egallashi zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar: so‘z va so‘z shakllarini imlo qoidalari asosida to‘g'ri yoza olish.

Til birliklari, uning muhim belgilarini, ma'nosi va qo‘llanishini izohlay olish.

Nutq tovushlari bilan harfni, unli va undosh tovushlarni, jarangli va jarangsiz undoshlarni, umumxalq so‘zlari bilan qo‘llanish doirasi cheklangan so‘zlarni, so‘zlashuv leksikasi bilan kitobiy leksikani, so‘zlarning turlanishi va tuslanishi bilan so‘zlarning egalik qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi, so‘zning lug'aviy va grammatik ma'nolarini, tub so‘zlar bilan yasama so‘zlarni: sodda, qo‘shma va juft so‘zlarni, so‘z turkumlarini, mustaqil so‘z bilan yordamchi so‘zni, so‘z bilan so‘z birikmasini, sodda gaplarning turlarini, gap bo‘laklarini, sodda gap bilan qo‘shma gapni o‘zaro farqlay olish.

Fonetik, lug'aviy, leksik, morfologik jihatdan qisman sintaktik tahlil qila olish.

Grammatik atamaga asoslanib grammatik vositani va qoidani, grammatik vositaga asoslanib grammatik atama va qoidani eslay olish.

Matn yaratish darajasida gap tuza olish, mustaqil gaplarni o‘zaro bog'lay bilish, gapda so‘z tarkibini to‘g'ri belgilay olish.

Tinish belgilaridan (undalmali gaplarda) uyushiq bo‘laklarda, ajratilgan izoh bo‘laklarda, undalmalarda va qo‘shma gap qismlarini bog'lashda, ko‘chirma gapda, dialogda to‘g'ri foydalana olish.

Grammatik atama va tushunchalardan, qoida va ta'riflardan matn yaratish jarayonida foydalana olish. Turli xil lug'atlardan foydalana olish. O‘rganilgan gap qurilishlariga mos keladigan matn yaratish.

Darak, so‘roq, buyruq gaplarni, uyushiq bo‘lakli, ajratilgan izoh bo‘lakli, qo‘shma va ko‘chirma gaplarni ifodali o‘qiy olish.

Unli va undosh tovushlarni orfoepiya qoidalariga muvofiq to‘g'ri talaffuz qilish.

Nutqda sinonim, omonim, antonim va uyadosh so‘zlardan o‘rinli, uslub talabiga ko‘ra to‘g'ri foydalanish.

Imlo lug'atidan va ikki tilli lug'atlardan, izohli va boshqa lug'atlardan foydalanish.

Uyadosh so'zlarga misollar keltira olish.

Atamalar va so'zlarni uslubiga xos so'zlarni ajrata olish, ular orasidagi ma'noviy farqlarni aytib bera olish [3].

DTS talablaridan ko'rinib turibdiki, 5-sinf o'quvchisi "turli xil lug'atlardan", ya'ni "imlo lug'atidan va ikki tilli lug'atlardan, izohli va boshqa lug'atlardan foydalanish" qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Buning uchun o'rta umumta'lim maktablarining har bir ona tili mashg'ulotida o'qituvchi o'quvchida o'quv lug'atlaridan o'rinli va samarali foydalanish malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishi, rivojlantirib borishi, bu ona tili ta'limi maqsadining ro'yobini ta'minlashda poydevor vazifasini o'taydi.

Xo'sh, o'quv lug'atlaridan 5-sinf ona tili mashg'ulotlarida qanday foydalanish mumkin?

Odatda, o'qituvchilarimiz ona tili mashg'ulotlarida, asosan, darslikdan foydalanadilar. O'quv dasturi asosida tuzilgan darslik ta'lim mazmunini aks ettiruvchi o'quv materiali, uning o'quvchi tomonidan o'zlashtirish usullari, o'quvchi uchun zarur hisoblangan tahlil, umumlashtirish uchun material, o'quv materiallari mazmunini uyg'unlashtiruvchi qonuniyatlarni o'z ichiga oladi. Darslik – ta'lim oluvchi uchun ma'lum miqdordagi bilimlarni, malaka, ko'nikma, odatlarni o'ziga singdirishga mo'ljallangan manba. Ammo, faqat darslik bilan ishlash tom ma'nodagi ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga to'sqinlik qiladi [4].

Muhokamalar va natijalar. Darslikda beriladigan o'quv topshiriqlari o'quvchining mustaqil izlanishi uchun yo'llanmalar berganda, ularning axborot banklariga doimiy ehtiyojini qondirganda, ijodiy faoliyatga undagandagina ta'lim maqsadiga muvofiq kelishi mumkin. Shuning uchun darslik bilan dasr davomida o'quvchi bajarishi nazarda tutilgan topshiriqlar tizimi va zaruriy o'quv materialini aralashtirmaslik lozim. Biz darslik deganda, mavzu talqini, o'quv materiali, o'quvchi bajarishi lozim bo'lgan mashq, masala, topshiriqlar tizimi o'z ichiga olgan majmuani tushunamiz. Haqiqiy ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish va rivojlantirishga mo'ljallangan darslik bugungi kunda mavjud bo'lgan darsliklardan farq qilishi lozim. Demak, ta'limning yangi maqsadiga erishish uchun yangi tipdagi darsliklar zarur. Ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish uchun o'quv materiali darslik materiallaridan ancha keng bo'lishi talab etiladi.

Jumladan, ona tilidan darsliklar o'quvchilarga xilma-xil lug'atlar (axborot banklaridan), qomuslar, ma'lumotnoma (spravochnik)lardan, maktabda o'qitiladigan boshqa o'quv predmetlari bo'yicha olgan bilimlari va ma'lumotlaridan, tajribali kishilar (o'quvchilarning yaqinlari)dan qo'shimcha material olishga, bu – darslikda berilmagan material ustida ijodiy ishlar tizimini loyihalashtirgan taqdirdagina ko'zlagan maqsadiga erisha oladi.

O'qituvchi darslikda berilmagan materiallar hisobidan har bir darsda o'tiladigan o'quv materiallarini kengaytirgan holda o'quv-biluv jarayonini loyihalashtirishi kerak. Ta'limning yangi maqsadiga erishish yangi tipdagi darsliklarni taqozo qiladi. Bunday darsliklar yordamida tadbirkor, axborot manbalarini chuqur biladigan, undan o'ziga kerakli ma'lumotlarni tez topa oladigan, bulardan o'zi yashab turgan muayyan sharoit uchun eng qulay va serunumidan foydalana oladigan faol shaxsni yetishtirish imkonini beradi. Shuning uchun yangi darsliklar mashq, masala, qoida yoki aksiomalar majmuasidan emas, balki o'quv topshiriqlari tizimidan iborat bo'lmog'i kerak [5]. Masalan, 5-sinf "Ona tili" dasturida "Ma'nodosh so'zlar"ning o'qitilishiga 3 soat vaqt ajratilgan. Darslikda "Eslab qoling" rukni ostida 3 ta qoida, 14 ta mashq (505-518-mashqlar) hamda 3 ta topshiriq berilgan [6]. Qoidalarda ma'nodosh so'z deb nimaga aytiladi, ma'nodosh so'zlar qatorida bosh so'z (dominant) nima, uslubiy ma'nodoshlarda ijobiy hamda salbiy bo'yoq nimaligi to'la yoritib berilgan. Berilgan mashqlar qoidadagi misol-namunalarni takrorlashdan iborat bo'lib qolgan.

Bizningcha, darslikda mavzu quyidagi algoritmda berilishi muhim:

1-namuna

Ma'nodosh so'zlar (sinonimlar).

1. Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) deganda nimani tushunasiz? Misollar ayting.

2. Berilgan parchadan sinonimlarni toping va har bir so'zning o'ziga xosligi nimada ekanligini aytishga urining.

3. Parchadagi so'zlarning har birini sinonimlari bilan almashtirishga harakat qiling. Ma'noda farq bo'ladimi?

4. So'zning sinonimlarini toping, ularni qo'llab gaplar tuzing, ma'no nozikliklarini ayting.

5. Ko'p ma'noli so'zlarning sinonimlari qanday bo'ladi?

Tarqatma material namunasi.

Qadim shahardagi eski ko'chaning ko'hna hovlisida yashab o'tdi u,

Davron majruh qilgan tilning yo'liga umridan poyandoz to'shab o'tdi u.

Tarqatma material namunasi

Har qanday baland minora ham yerdan, birinchi g'ishtdan boshlanadi.

Tarqatma material namunasi

Mustaqillik maydonida bunyod etilgan Mustaqillik va Ezgulik monumenti har bir bayramlarimiz va tantanali marosimlarimizga guvohdir.

Maydon maftun etdi ko'plarni g'oyat,
Bu joyda aytildi qancha rivoyat,
Bir kuni ona-bola kirib keldi-yu
Bu maydon egasini topdi nihoyat. (A.Oripov)

Tarqatma material namunasi

Bir go'sha suv bo'lsa, bir go'sha qirlar,
Qancha yurtni ko'rdim, qancha taqdirlar,
Qayga borsam suyab, boshni tik tut deb,
Tog'laring izimdan ergashib yurar. (Muhammad Yusuf)

Tarqatma material namunasi

Sen bilan o'tgan har kun bayram-bazm,
Sensiz bir on qolsam rahmim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta'zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi. (Muhammad Yusuf)

Darslarni bunday holatda tashkil etish uchun, albatta, bolaning oldida maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan Qomus [7], izohli lug'at hamda sinonimlar lug'ati [8] bo'lishi talab etiladi.

Tasavvur qiling, agar sinfda 25-30 o'quvchi yig'ilgan bo'lsa, har bir o'quvchi mustaqil lug'at ma'lumotnoma-yu qomuslar bilan ishlasa, mavzu mohiyatini ochishga uzog'i bilan 20 daqiqa mobaynida kamida 20 o'quvchi tayyor bo'ladi va bolalar bir-birining talaffuzini boyitadi, kengaytiradi.

2-namuna

Zid ma'noli so'zlar (antonimlar)

1. Antonimlar (zid ma'noli so'zlar) deganda nimani tushunasiz? Misollar ayting.
2. Berilgan parchada antonimik juftiga ega so'zlarni toping va har bir antonimik juftlikning o'ziga xosligi nimada ekanligini aytishga urining.
3. Parchadagi so'zlarning har birining antonimlarini toping. Antonimlarni oddiy inkorlardan farqini izohlang.
4. So'zning antonimlarini toping, ularni qo'llab gaplar tuzing, ma'no nozikliklarini ayting.
5. Ko'p ma'noli so'zlarning antonimlari qanday bo'ladi?

Tarqatma material namunasi

Sen gulsen-u men faqir bulbuldurmen,
Shu'lasen-u shu'lag'a men quldurmen.
Nisbat yo'qdir deb ijtinob aylamakim,
Shohmen elg'a, vale seng'a quldurmen. (Z.M. Bobur)

Tarqatma material namunasi

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz ganch ila. (Alisher Navoiy)

Tarqatma material namunasi

Yashash soatining oltin kapgiri
Har borib kelishi bir olam, zamon.
Koinot shu damda o'z kurrasidan
Yasab chiqa olur yangidan jahon. (G'. G'ulom)

O'quvchi "Zid ma'noli so'zlar" o'quv lug'atidan quyidagi siralarni topadi:

1. Faqir – boy, badavlat, davlati, davlatmand (12-bet).
2. Shu'la so'zi "Zid ma'noli so'zlar" o'quv lug'atida berilmagan, bu o'rinda o'quvchiga "O'TIL" yordamga keladi: shu'la so'zining ma'nodoshlari - yorug'lik, nur, oydinlik kabilarni topadi va "Zid ma'noli so'zlar" o'quv lug'atidan ulardan birini izlaydi: yorug'lik - qorong'ilik (33- bet).
3. Qul - podsho, podshoh, shoh, hoqon, elig.
4. Yo'q - bor, mavjud va b.

O'qituvchi tarqatma materialni har bir o'quvchi alohida tayyorlaydi yoki sinf o'quvchilarini kichik guruhchalarga bajartirishi ham mumkin. Bunda o'quvchi jamoa bo'lib, hamkorlikda ishlashga odatlanadi [9]. Tabiiyki, bolalarning oldida maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan Qomus, izohli lug'at hamda antonimlar lug'ati [10] bo'lishi talab etiladi.

Asosiysi, bola mustaqil ishlash, o‘zi izlab topish, saralash, o‘xshash va farqli jihatlarni ajratish, amalda qo‘llay olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yoki shu sinfda “Fonetika. Grafika” sathini o‘qitishda ham o‘quv lug’atlaridan foydalanish o‘rinli va foydalidir.

3-namuna

Unlilar talaffuzi va imlosi. Sinf o‘quvchilari oltita kichik guruhga bo‘linadi va har bir kichik guruhga o‘quv topshirig’i alohida beriladi. Ya’ni,

1-guruhgacha -/i/ unlisi ustida ish (bu toush talaffuzini boshqa tovushlar bilan qiyoslash, turli qurshovlarda kelishi va bu qurshovda talaffuz xususiyatlar, /u/ sifatida talaffuz etilib /i/ yoziladigan so‘zlarga misollar topish, birinchi bo‘g’inda /o‘/, ikkinchi bo‘g’inda /i/ tovushli so‘zlar talaffuzi va imlosi. /i/-/e/, /i/-/u/, /i/-/a/ bilan farqlanuvchi so‘zlar topish v.h.),

2-guruhgacha -/e/ unlisi ustida,

3-guruhgacha -/a/ unlisi ustida,

4-guruhgacha -/u/ unlisi ustida,

5-guruhgacha -/o‘/ unlisi ustida,

6-guruhgacha -/o/ unlisi ustida ishlash topshirig’i beriladi. Bunda sinf o‘quvchilari imlo o‘quv lug’atidan foydalanadilar. O‘quvchilarga topshiriqni bajarishlari uchun darsning 7-8 daqiqasini ajratgan ma’qul.

O‘quvchilar berilgan topshiriqni bajarish asnosida o‘zlariga tushgan unli bilan boshlanuvchi so‘zlarning deyarli barchasini imlo o‘quv lug’atidan topadilar, talaffuz qilib ko‘radilar. Ular qaysiki, so‘zlar sirasida alifbo tartibida ular izlayotgan nutq tovushining harfiy ifodasini topsalar, albatta, ularni talaffuz etib ko‘radilar va imlosi hamda talaffuzi boshqa so‘zlarni ajratishga erishadilar.

Xulosa. O‘quv lug’atlariga bo‘lgan talabning oshayotgani ma’lum. Turmush tarzi, hayot sur’atlarining o‘zgarishi birinchi navbatda tilda aks etadi. Bugun yangi tushunchalar, nomlar paydo bo‘ldi, ichki va tashqi imkoniyatlar asosida tilimiz leksikasi keskin boyidi. Ko‘pgina tushunchalar iqtisodiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy jihatdan eskirdi, talaygina so‘zlar iste’moldan chiqib bugungi avlod uchun izohtalab bo‘lib qoldi. Bundan 15-20 yil avval maktab darsliklarida lug’at deyarli ilova qilinmas edi. Endilikda har bir maktab, litsey, kasb-hunar kolleji uchun yaratilgan darsliklarning so‘ngida, hatto ba’zan har bir bo‘lim oxirida lug’atlarga ko‘zimiz tushadi. Bu lug’atlarning tabiiy ravishda ta’limning tarkibiy qismiga aylanib bo‘lganligidan dalolat bermoqda.

Adabiyotlar

1. Tursunova O.F. Paronimlarning izohli lug’atini tuzish xususida //Til va adabiyot ta’limi. –2021. –№1.B- 44.
2. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili. –T., “Sharq”, 1999. -304 bet.
3. Ona tilidan takomillashtirilgan davlat ta’lim standarti // Til va adabiyot ta’limi. 2005.-№4.-B, 6-7
4. Kurbanova G.N. The role of ancestral heritage in the development of professional thinking of future professionals International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2 308-4944 Published: 30.01.2020 http://T-Science.org.
5. Yo‘ldosheva D. Ona tili ta’limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2013. – 214 b.
6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo‘raboyeva Z. Ona tili. Umumiy ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik, 3-nashri. -T.: “Ma’naviyat”, 2011.-224 b.
7. Mengliyev B., Xoliyorov O‘. Ona tili .Qomus (maktab o‘quvchilari uchun). -T., 2009, -275 b.
8. Shukurov O., Boymatova B. Ona tilining ma’nodosh so‘zlari o‘quv lug’ati (maktab o‘quvchilari uchun). -T.: “Yangi asr avlodi”, 2007, -52b.
9. Tursunova O. F. High human feelings in Rudaki's work International Scientific Journal Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2 308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Published: 30.04.2020 http://T-Science.org
10. To‘rayeva U., Shodmonova D. O‘zbek tilining zid ma’noli so‘zlar o‘quv lug’ati (maktab o‘quvchilari uchun). -T.: “Yangi asr avlodi”, 2007, -42 b.

Дилноза НАЗАРОВА
базовый докторант
Бухарского государственного
университета

АССИМИЛИРОВАННЫЕ СЛОВА УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ИХ ВЫРАЖЕНИЕ В СЛОВАРЯХ

Мы знаем, что язык постоянно развивается. Он живет по своим законам, развивается, сортирует по образцу потребления, "архивит ненужное". Когда приходит время, он принимает новые альтернативы определенным юнитам или строит другие юниты на основе собственных внутренних возможностей. На наш взгляд, сила языка, который иногда подавляет человеческий разум, и тот факт, что он характеризуется общностью, сущностью, возможностью и разумом, здесь еще более очевиден. Естественно, что изменения в общественной жизни, нововведения в обществе, прежде всего, отражаются на языке.

После обретения узбекским обществом национальной независимости радикальные изменения во всех сферах общественной жизни, включая образование, медицину, экономику, привели к введению новых лексических единиц в лексику узбекского языка. Поэтому некоторые лексические единицы начали перемещаться из активного слоя лексики узбекского языка в неактивный, а ряд слов и фиксированных соединений, которые до недавнего времени были неактивными, переместились в активный слой. Насколько узбекская лексикография смогла охватить эти процессы? Неужели эти процессы не только увеличивают словарный запас узбекского языка, но и отрицательно сказываются на количестве общетюркских слов, составляющих основу национального языка?

В статье рассматривается решение этих проблем с точки зрения развития лексики узбекского языка за годы независимости.

***Ключевые слова**: язык, речь, общество, восприятие общественной жизни, общетюркский слой, ассимилированный слой, языковое развитие и лексикография, лексикографические проблемы.*

Bilamizki, til doimo rivojlanib boradi. U o'z qonunlari bilan yashaydi, rivojlanadi, iste'mol modeliga ko'ra tartiblaydi, "keraksiz arxiv". Vaqt kelganda, u muayyan birliklarga yangi muqobillarni oladi yoki o'z ichki imkoniyatlariga asoslangan boshqa birliklarni yaratadi. Bizning fikrimizcha, ba'zan inson ongini bostiradigan tilning kuchi va uning umumiylik, mohiyat, imkoniyat va aql bilan ifodalanganligi bu yerda yanada Ravshan. Tabiiyki, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, jamiyatdagi yangiliklar, birinchi navbatda, tilda aks ettiriladi.

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida, jumladan, ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyot sohalarida tub o'zgarishlar o'zbek tilining so'z birikmalariga yangi leksik birliklar kiritilishiga olib keldi. Shu sababli, ba'zi leksik birliklar o'zbek tilining so'z birikmalarining faol qatlamidan faol bo'lmagan joyga ko'chib o'tishga kirishdilar va yaqin vaqtgacha faol bo'lmagan bir qator so'zlar va sobit birikmalar faol qatlamga ko'chirildi. O'zbek leksikografiyasi bu jarayonlarni qanchalik qamrab olishi mumkin edi? Bu jarayonlar o'zbek tilining so'z boyligini oshirish bilan birga, milliy til asosini tashkil etuvchi umumturk so'zlari soniga ham salbiy ta'sir ko'rsatmaydimi?

Maqolada ushbu muammolarni mustaqillik yillarida o'zbek tilining so'z birikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan hal etish ko'zda tutilgan.

***Kalit so'zlar:** til, nutq, jamiyat, ijtimoiy hayot tushunchasi, umumiy turk qatlami, assimilyatsiya qatlami, tilni rivojlantirish va leksikografiya, leksikografik muammolar.*

We know that the language is constantly evolving. It lives according to its own laws, develops, sorts according to the pattern of consumption, "saves unnecessary things". When the time comes, it accepts new alternatives to certain units or builds other units based on its own internal capabilities. In our view, the power of language, which sometimes overwhelms the human mind, and the fact that it is characterized by generality, essence, possibility, and reason, is even more evident here. Naturally, changes in public life, innovations in society, first of all, are reflected in the language.

After Uzbek society gained national independence, radical changes in all spheres of public life, including education, medicine, and the economy, led to the introduction of new lexical units in the vocabulary of the Uzbek language. Therefore, some lexical units began to move from the active vocabulary layer of the Uzbek language to the inactive one, and a number of words and fixed compounds that were inactive until recently moved to the active layer. To what extent has Uzbek lexicography been able to cover

these processes? Do these processes not only increase the vocabulary of the Uzbek language, but also negatively affect the number of common Turkic words that form the basis of the national language? The article considers the solution of these problems from the point of view of the development of the vocabulary of the Uzbek language over the years of independence.

Key words: *language, speech, society, perception of public life, common Turkic layer, assimilated layer, language development and lexicography, lexicographic problems.*

Одним из основных факторов, определяющих историческое развитие любой нации, народа или страны на планете, является вопрос языка нации. Потому что основные принципы государственного суверенитета всегда связаны с уровнем владения национальным языком и его письменностью. Из мирового опыта известно, что отношение к национальному языку варьируется в разные периоды в зависимости от господствующей в стране идеологии. В любом случае очень важно сохранить национальный характер национального языка.

Национальная независимость открыла новую страницу в истории узбекского народа. Узбекистан был признан мировым сообществом как развивающаяся страна за исторически короткий период времени; интерес мира к его культуре, артефактам, истории, обычаям и, конечно же, его языку также растет. В связи с этим с приобретением статуса официального языка узбекский язык расширил сферу его потребления. Естественно, это возлагало большую ответственность на узбекское языкознание, сравнительное языкознание и образование узбекского языка.

К третьему десятилетию XXI века, как и в остальном мире, в Узбекистане ускорились темпы развития, расширился интеллектуальный потенциал людей того времени, мир мышления. Сегодня трудно найти человека, который мог бы полагаться только на информацию теле- или радиовещания. Действительно, беспрецедентный рост технического прогресса заставляет колесо прогресса вращаться быстрее, чем когда-либо прежде. В эпоху глобализации, в век технологий сохранить самобытность национальных языков непросто. Источники информации сегодня настолько многочисленны, разнообразны и сложны, что это удобство, эта современность “вторгаются” не только в нашу социальную жизнь, но и в наш национальный язык.

Это означает, что любые изменения в обществе отражаются и будут отражаться, прежде всего, в языке. Абдурауф Фитрат в своей книге “Правила литературы” писал о развитии словарного запаса узбекского языка: “Мир меняется. Жизнь обновляется день ото дня. Есть много событий и вещей, о которых наши предки сто лет назад даже не мечтали. Мы либо воссоздаем их имя существительное (например, *учгич, уюшма, бошқарма*), либо берем их с других языков (например, *электрик, телефон, поезд*), либо оживляем наши забытые старые слова (например, *курултой* (конгресс). Если мы не согласимся с введением новых слов этими тремя способами, мы перестанем обогащать наш язык” [2].

Нельзя отрицать, что изменение и развитие языка, которое является одним из самых чистых социальных явлений, напрямую связано с развитием общества, шаг за шагом, дыхание за дыханием. Видно, что глобальные изменения в жизни узбекского народа существенно влияют на лексику его языка.

По мнению экспертов, развитие любого языка изначально основывается на двух факторах – лингвистическом и неязыковом [13].

К языковым факторам относятся внутренние возможности языка, модели и способы словообразования, семантическое развитие, грамматическая структура, фонетическая система и их особенности. Изменения в структуре любого языка в первую очередь основаны на этих факторах.

К экстралингвистическим факторам относятся различные неязыковые системы и структуры – социальная система, сознание, мышление, наука, технологии, традиции, экономика, производство, изменения в таких областях, влияние других языков на структуру конкретного языка. как [3].

В результате лингвистических и нелингвистических факторов, определяющих развитие языка, с одной стороны, он обеспечивает появление новых слов и терминов в лексике, с другой стороны, он ослабляет потребление определенной активной лексики в языке. Например,

даллоллик (даллол) – брокерлик (брокер)

Даллоллик *лафзи, кўпинча, ким ошди савдосида ишлатилади. Машойиҳлардан бири Абяний “Даллолик масалалари” сарлавҳаси остида кўп гапларни айтган. Шунингдек, баъзи фуқаролар ким ошди савдосини* ***даллоллик савдоси*** *деб ҳам номлашган. “Лисонул араб” номли луғат китобида даллоллик* (السِّمْسَار) *аслида форсча сўз бўлиб, кейинчалик арабийлашиб кетганлиги айтилади.* ***Даллол*** *деб даладан келган одамнинг молини сотиб беришга вакил бўлган ўтроқ кишига айтилади. У даладан келган кишининг фойдаси учун савдо қилиб беради*. (https://islom.uz)

*Фиқҳ китобларимизда "самсара" (**даллоллик**), "симсор" (**даллол**) лафзлари истеъмол қилинади. **Даллол** деб кимнингдир сотишига, кимнингдир сотиб олишига ёрдам берувчи, сотувчи ва олувчининг ўртасини боғловчи кишига айтилади. **Даллол** гоҳида сотувчи тарафидан, гоҳида олувчи тарафидан, гоҳида эса иккиси тарафидан ҳам вакил бўлади.*

*Ҳозирги кунда **даллол** деганда **брокер, маклер, агент, воситачи** кабилар ҳам тушунилади.*

***Брокер** (ўртада туриб воситачилик қилувчи, **даллол, маклер**) товар, валюта, савдо биржаларида олди-сотди битимлари тузишда воситачилик (**даллоллик**) қиладиган айрим шахс ёки корхонадир.*

***Даллол** – савдо-сотиқда олувчи билан сотувчи ўртасида воситачилик қилувчи, молга нарх қўйиб, уларни келиштирувчи киши ("Ўзбек тилининг изоҳли луғати"дан).* (https://fiqh.uz)

Қўшилган қиймат солиғини ҳисоблаб чиқариш ва тўлашнинг соддалаштирилган тартибида 15 фоизли ставканинг қўлланилиши **брокерлик** хизматида қандай бўлади? Шу ҳақида батафсил маълумот берсангиз. (http://splus.uz/)

*Товарнинг божхона қиймати божхона қиймати декларациясини тўлдирган ҳолда товарларни декларациялашда декларант ёки божхона **брокер**и томонидан божхона органига маълум қилинади.* (ttps://www.customs.uz)

Если посмотреть на примеры, то использование таких единиц в узбекском языке, как ***брокер, брокерлик, маклер, маклерлик, агент, агентлик, воситачи, воситачилик*** ограничило сферу использования лексем ***даллол, даллоллик***.

Реформы в государственном образовании, здравоохранении или переход узбекского общества к рыночной экономике также привели к значительным изменениям в лексике узбекского языка. Уместна двусторонняя оценка влияния лексики, входящей в узбекский язык. Это –

1) в период с 1920 по 1990 год лексические единицы узбекской лексики были заменены лексическими единицами, ассимилировавшимися под влиянием русского языка (фактически, в их ассимиляции не было необходимости) (это обычно положительная ситуация):

мавзу (тема), ***режа*** (план), ***матн*** (текст), ***хат боши*** (абзац), ***мавҳум*** (абстракт), ***фаол*** (авангард), ***дастхат*** (автограф), ***манзил*** (адрес), ***иқтибос*** (цитата), ***далил*** (факт), ***жавон*** (шкаф), ***юк*** (багаж), ***микроб*** (бактерия), ***базм*** (бал), ***бекат*** (остановка), ***белбоғ*** (бандаж), ***мола*** (борона), ***кумуш*** (бронза), ***гулдаста*** (букет), ***шўрва*** (бульон, суп), ***нарса*** (предмет), ***вазир*** (министр), ***фахрий*** (ветеран), ***ривожланиш*** (вегетация), ***мита*** (вилт), ***дармондори*** (витамин), ***мадҳия*** (гимн), ***уқалаш*** (массаж), ***зобит*** (офицер), ***аскар*** (солдат), ***қазилма*** (руда) и д.

2) лексические единицы (обычно не достойные положительной оценки), усвоившие узбекский лексикон с 1991 года по настоящее время под влиянием европейских языков (на самом деле, в языке есть альтернатива и вытесняет эту альтернативу): Например,

брокер (даллол), ***офис*** (идора), ***маркер*** (қалам), ***бизнес*** (савдо), ***глобал*** (умумий), ***наркоман*** (банги), ***маркет*** (дўкон), ***корзинка*** (қулай дўкон), ***бартер*** (айрибошлаш), ***бизнесмен*** (савдогар), ***менеджер*** (ишбошқарувчи), ***корпорация*** (уюшма), ***налог*** (солиқ), ***офлайн*** (анъанавий), ***форум*** (тадбир), ***виртуал*** (ғойибона), ***инфо*** (хабар), ***интер*** (ўзаро), ***виставка*** (кўргазма), ***имидж*** (кўриниш), ***стилист*** (услубчи), ***фотошоп*** (сохта расм), ***компетенция*** (уқув), ***компетент*** (лаёқат), ***профессионал*** (тажрибали), ***сет*** (тармоқ), ***анимация*** (ҳаракатли), ***навигация*** (янгилик), ***титр*** (фильм ёзуви), ***рекорд*** (юқори натижа) и д.

Например, *Ислоҳотлар натижасида бугунги кунда вилоятимизда 27 та янги бошланғич **профессионал** таълим тизимида кадрлар тайёрлайдиган касб-ҳунар мактаби, 17 та ўрта **профессионал** таълим тизимидаги коллеж, 19 та ўрта махсус **профессионал** таълим тизимидаги техникум ташкил этилди.* (http://www.namhaqiqat.uz/)

*Жаҳонда глобаллашув жараёнлари чуқурлашаётган шароитда таржимоннинг касбий **компетенция**сини лингвистик ҳамда экстралингвистик **компетенция**лар орқали шакллантириш ва ривожлантиришга бўлган эҳтиёжни янада кучайтирди*. (https://samdchti.uz)

Алишер Усмоновнинг биргина глобал коронавирус пандемияси ва мамлакат тарихидаги энг йирик техноген ҳалокат фонида Ўзбекистонга берган кўмагининг ўзи бир неча ўн миллион долларга етади. (https://kun.uz)

Фактически, когда альтернативная лексическая единица из другого языка используется бок о бок с существующей формой в языке, это считается увеличением словарного богатства этого языка. Но использование альтернативы из другого языка вместо оригинала приводит к подавлению единства самого языка. В наше время инициативу в этой ситуации берут на себя СМИ, особенно интернет.

Сегодня в узбекской речи используется много иностранных слов: *аншлаг, атрибут, аура, аквадаг, агрофон, адекват; волонтёр, вилла, виски, валюта, викинг, википедия; гидромодуль, донор,*

диатез, дисплей, модератор, интерфейс, интергол, субтитр, субтропик, субарктика, субординация, онлайн, дидлайн, клипмейкер, харт, хакер, хоппер, фолловер, блогер, коммент. В самом деле, зачем использовать эти слова в узбекском?

Например, *Косон туманида 1-**сектор штаб** биносининг очилиш маросими бўлиб ўтди. Янги бинода **сектор** раҳбари, **сектор** котиби ва **штаб** аъзолари, тиббиёт, она ва бола, ошхона, дам олиш хоналари мавжуд.* (https://kun.uz)

*Тошкент кўргазмасида қурилиш ва пардозлаш материаллари, уларни ишлаб чиқариш технологиялари, «MebelExpo Uzbekistan»да хонадон ва **офис** мебеллари, **интерьер**лар, иситиш ва совутиш, сунъий иқлим ҳосил қилиш, ҳавони тозалаш техникаси, сантехника ва сув ҳавзалари ускуналари тақдим қилинаётир*. (https://www.standart.uz)

“Ўзбекконцерт” давлат муассасаси қошида бадиий кенгаш тузилган. Эндиликда лицензия олмоқчи бўлган ижодкорлар таниқли **клипмейкер**, режиссёр, шоир, сайқалчи ва бастакорлардан иборат кенгашга жонли ижрода куйлаб беришлари керак бўлади. (https://translate.google.com)

***Субординация** сақланмаган жойда иш фаолияти меъёрлари бузилади.*

***Волонтёрлик** фаолияти якка тартибда, **волонтёр**лар гуруҳи таркибида ҳамда **волонтёрлик** ташкилоти орқали амалга оширилиши мумкин*. (https://qoraqalpoq.adliya.uz)

Иногда бывает, что лингвист не может понять текст, написанный на его родном языке (например, узбекском) без словаря. Например, чтобы понять значение *волонтерства,* которое может осуществляться индивидуально, в составе группы *волонтеров* или через *волонтерскую организацию*, необходимо следующее объяснение, означает. Волонтерское движение сегодня – одна из самых популярных индустрий в мире. При этом бесплатные услуги предоставляются людям, нуждающимся в помощи, которые сталкиваются с различными проблемами в обществе с определенной благородной целью, направленной на улучшение их жизни во всех отношениях. (Следовательно, смысл предложения следующий: *Служение благодарности может осуществляться индивидуально, в группе или через такую организацию*.)

Правда, со временем сам язык сохраняет то, что ему нужно, отказываясь от того, что не считает нужным. Это займет некоторое время (иногда больше). Но современному человеку необходимо помочь специалистам в этой области узнать, какую из ассимиляций использовать и есть ли у них узбекские альтернативы.

Важен еще один аспект приобретения слов. Коренные изменения, происходящие в нашей общественной жизни, стремление к развитому мировому сообществу, развитие рыночной экономики, научно-технический прогресс приносят новые структуры, отрасли или сектора в узбекское общество. В таких обстоятельствах, конечно, реальность, которой у нас еще нет, обязательно войдет в нашу жизнь от своего имени, и нам придется принять ее. Например, в результате появления ступеней высшего образования в высшем образовании, таких как бакалавр и магистр, в узбекской лексике появились новые слова, такие как *бакалавр, бакалавриат, магистр, магистрант, магистратура*.

Кроме того, в нашу общественную жизнь вошли компьютерные технологии или Интернет, с помощью которых были освоены и осваиваются сотни и тысячи новых лексических единиц узбекского языка. Подобные обновления происходят в узбекском обществе впервые (потому что наши предки не пользовались компьютером или Интернетом): *компьютер, интернет, кейс, монитор, экран, корпус, принтер, клавиатура, консоль, курсор, сканер, процессор, мегабайт, килобайт, гигабайт, винчестер, диск, дискета, сервер, провайдер, хостинг, портал* и д.

Что касается лексического богатства источников, то арабский язык с более чем тремя с половиной миллионами лексических единиц и английский язык с более чем двумя с половиной миллионами слов находятся на переднем крае списков. По мнению узбекских экспертов, если мы научимся у британцев не “скупать” в выборе слов для нашего литературного языка (местные диалектные слова почти полностью включены в английские словари), узбекских слов и фраз (диалектный и литературный язык, профессиональные слова и т. д.). термины, устарели). и вновь появляющиеся слова) могут быть скомпилированы в словарь большего размера, чем большинство словарей в мире, если время собирается без ограничений по объему.

Существуют уникальные пути развития узбекского языка, не попадающие в другие языковые образцы, что обеспечивает его ежедневное (иногда ежечасное и минутное) обогащение [7, 9].

Например, если новый (скажем, импортный) товар выходит на полку или на прилавок на рынке днем или ночью (конечно, название товара входит в наш язык), вскоре люди смогут назвать новый продукт или концепция, создает новые слова в языке и использует их в речи:

глобал (ассимилированное слово) – *глобаллашган, глобаллашув* (узбекское слово);

сканер (ассимилированное слово) – *сканерли (хона), сканерсиз (нусхалаш), сканерламоқ, бесканер (ишламоқ), сканер қилмоқ* (узбекское слово);

кардиган (женская верхняя одежда без рукавов; ассимилированное слово) – *кардиганли, кардигансиз, бекардиган, кардиганбоп, кардиганфуруш, кардигандўз, кардиганнамо* (узбекское слово);

интернет (ассимилированное слово) – *интернетли, интернетсиз, интернетбоп (видео), интернетчи, интернетсоз* (узбекское слово);

хотдог (ассимилированное слово) – *хотдогчи, хотдогфуруш, хотдогпаз, хотдогли (дастурхон), хотдогсиз (тушлик), хотдогхўр* (узбекское слово) и т.

Итак, насколько узбекские словари охватывают те части узбекского языка, которые осваиваются или уже освоены, и которые воссоздаются на основе внутренних возможностей языка? На этот вопрос, к сожалению, сложно ответить утвердительно.

Действительно, глобализация породила подход к языку в мировой лингвистике как ключевой особенности национального культурного феномена. Это повысило потребность владельцев языков в развитии навыков практического использования родного языка. “В сегодняшнюю эпоху глобализации естественно, что каждая нация, каждое независимое государство должно уделять первоочередное внимание обеспечению своих национальных интересов, в этом плане, прежде всего, сохранению и развитию своей культуры, древних ценностей, родного языка” [1, 4].

К началу прошлого века во многих развитых странах мира словари были признаны не только как средство изучения языка, но и как важное средство воспитания человека с интеллектуальным потенциалом, высокой духовностью, верностью национальным и общечеловеческим ценностям. Перед лингвистикой стоит важная социально-политическая задача – повысить эффективность практического использования родного языка и создать учебники, которые послужат ускоренному обучению иностранным языкам.

Однако, учитывая, что самое большое издание узбекского словаря, 5-томный Толковый словарь узбекского языка, был создан в период с 2002 по 2008 год, нетрудно представить, что этот словарь (до того, как он стал доступен потребителям), устарел на следующий день после этого. публикация. Это потому, что в узбекском, как и в других языках, словарный запас, так сказать, меняется каждый день. Чтобы охватить эти изменения, узбекскому обществу необходимо использовать различные лексические словари, такие как аннотированные, синонимические, антонимические, омонимические, этимологические, вариантные, ассимиляционные, ассоциативные, энциклопедические словари, регулярно обновляемые и пополняемые тезаурусы электронного обучения, корпус , онлайн и офлайн необходимы целевые компьютерные словари [5, 6].

После обретения независимости лексикография в нашей стране активизировалась; политически, духовно, социально устаревшие словари пополнялись, очищались, переиздавались. Однако эти «дополненные издания» и «репринты» не отвечают потребностям полноценного человека, живущего и работающего в узбекском обществе. Простой пример: бесчисленные словари нового поколения на английском, русском, французском, испанском, немецком, арабском, китайском, корейском, украинском, японском, татарском, казахском языках, если вам дается задача поиска учебника для школьников в поиске в Интернете. двигатель выходит. Для школьников и дошкольников существует несколько устаревших словарей на узбекском языке.

Есть еще один аспект вопроса. Самое главное - приучить владельцев языков к постоянному использованию словарей. Потому что тем, кто в этом нуждается, нужно знать, как правильно и надлежащим образом использовать продукты, соответствующие их потребностям. Лучше начинать решать эту проблему в школе – в начальной школе. В то время как сегодняшние чрезвычайно интенсивные и бесчисленные типы источников информации развиваются на беспрецедентном уровне, современные словари, предназначенные для быстрого и легкого поиска необходимой информации, должны обеспечивать образовательную и методическую поддержку уроков родного языка, проводимых в начальных и средних школах.

Делается вывод, что, прежде всего, важно, чтобы новые единицы, осваивающие лексику узбекского языка, всегда находились в фокусе внимания специалистов и добивались сохранения национальной культуры в структуре языкового словаря. Результат этой деятельности отражен в тезаурусе, корпусе электронного обучения, компьютерных словарях для работы онлайн и офлайн. Во-вторых, государство поставило важную социальную задачу по обучению родному языку: развить человека, который может самостоятельно и творчески мыслить на узбекском, правильно и свободно выражать себя в устной и письменной форме, понимать мнение других, развивать культуру. общения и чтения. Растет потребность в учебниках для родного языка, таких как учебники, информационные

банки и лексические минимумы. Лингвистам нашего времени необходимо уделять больше внимания учебной лексикографии, то есть создавать учебные пособия, отражающие языковой ландшафт мира в сознании учащихся, принадлежащих к определенной системе образования и служащие для формирования компетенции в практическом использовании язык.

Литература

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони // www.lex.uz.

2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2000.

3. Yo‘ldoshev B. O‘zbek lingvodidaktikasi taraqqiyotida o‘quv leksikografiyasining o‘rni masalasiga doir // Navoiy DPI axborotnomasi, 2015, 1-son. – B. 66-72.

4. Mengliev B.R., Bahriddinova B.M. O‘quv lug'atchiligi: talab va ehtiyoj/ Ayyub G’ulom va o‘zbek tilshunosligi masalalari. Ilmiy to‘plam. – Toshkent, 2009. – B.34-41.

5. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida ta’lim maqsadini belgilashning didaktik asoslari: pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2007.–124 b.

6. Dilorom Nematovna Yuldasheva. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020 https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/

7. Юлдашева Д. Н. Сукут нутқий мулоқотнинг таркибий қисми сифатида //Сўз санъати халқаро журнали. – 2020. – Т. 3. – №. 3. www.tadqiqot.uz

8. Tueva Zulfiya Nozimovna, Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. Statement and about its types. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021. – Pag.72-77. https://elibrary.ru/item.asp?id=44644256

9. YULDASHEVA DILOROM NIGMATOVNA. Silence-is a nonverbal unit of speech communication. Impact Factor (SJIF 20 20= 6.156) “American Journal of Research”, 2020, 11-12 issue of the Journal.– Pag.87-95. https://journalofresearch.us/wp-content/uploads/2020/12/2020_11_12-AJR_11.pdf

10. R.K.Ashurbaeva. Ways of effective Implementation of Integration. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag.45-51. https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/308

11. Ашурбаева Рукия Каххоровна. Интеграционый подход в системе образовани. Colloquium-journal (ISSN 2520-6990 ISSN 2520-2480). (Warszawa, Polska).– №12 (64), 2020 Część 3 (DOI: 10.24411/2520-6990-2020-11799). https://cyberleninka.ru

12. G.T.Chullieva. Intonema and its Types. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag. 91-95. https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/314

13. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Germaniya: “Globe Edit international Publishing Group” ISBN: 978-620-0-61410-0. – 2020.–555 b.

14. DY Yusupova. Poetess Khalim Khudoyberdieva and his skill in use of the word. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021.–Pag.238-241. https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44644284

15. Dildora Yunus kizi Yusupova. About Polisemanic Words (on the example of the poems of the Uzbek poetess Khalima Khudoyberdiyeva). Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN ISSN 2694-9970. Pag.384-389. https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/367

Nargiza G‘ULOMOVA
Navoiy viloyat xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish hududiy markazi
tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

ALISHER NAVOIY IJODINI O‘RGANISHDA MUALLIFLIK KORPUSINI TUZISHNING AFZALLIKLARI

Maqolada Navoiyning mualliflik elektron korpusini tuzishning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida yozilgan. Mutafakkir ijodida qo‘llanilib, bugunda tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlarni qiyosiy - tahlil etish, ularning semantik teglari bazasini yaratishning ilmiy va amaliy ahamiyati haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *intellektual, texnologiya, korpus lingvistikasi, matn, milliy korpus.*

В статье написано об особенностях создания авторского электронного корпуса Навои. Применительно к творчеству мыслителя были сделаны рассуждения о научном и практическом значении сравнительного анализа слов, трудных для понимания по слогам, создания базы их смысловых обозначений.

Ключевые слова: *интеллектуал, технология, корпусная лингвистика, текст, национальный корпус.*

The article describes the features of creating the author’s electronic case of Navoi. In relation to the work of the thinker, arguments were made about the scientific and practical significance of the comparative analysis of words that are difficult to understand by syllables, and the creation of a base for their semantic designations.

Key words: *intellectual, technology, corpus linguistics, text, national corpus.*

Kirish. Mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish orqali yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar etib voyaga yetkazish bosh vazifa sifatida qo‘yilmoqda. Ta’limning maqsadi, eng avvalo, inson ongini rivojlantirishdir. Chunki har qanday mamlakatning kelajagi, ertangi kuni uning tabiiy boyliklariga emas, balki kelajak avlodlarining saviyasiga bog‘liqdir. O‘zgarishlar davrida ta’lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta’lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo‘lgan yangi avlod shakllantirilganligi bois ham ta’lim sohasi mamlakat taraqqiyotining muhim strategik yo‘nalishi hisoblanadi. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishiga erishishda ilg‘or kommunikatsion texnologiyalar, shuningdek zamonaviy soha hisoblangan komputer lingvistikasi sohasi ham muhim hisoblanadi.

Asosiy qism. Kompyuter lingvistikasi tilshunosligining mustaqil bo‘limi – korpus lingvistikasi zamonaviy amaliy tilshunoslikning asosiy va bugungi kun ilmi uchun muhim istiqbolli yo‘nalish ekanligi jahon tajribasidan ma’lum. O‘zbek tili milliy korpusini yaratish fan oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta’kidlangan. Tilni o‘rgatishda lug‘at boyligining kattaligini ko‘rsata olish, so‘zning qo‘llanish imkoniyatini u yoki bu grammatik konstruksiya orqali tushuntirish uchun misollar massivini ko‘rsatishda korpus juda qo‘l keladi. Til ta’limi uchun muhim bo‘lgan misolning doimiy yangilanib borishi, buni aks ettirib turish xususiyati hamda imkoniyati faqat korpusda mavjud. O‘qituvchi yangi, ishonarli, cheksiz hamda xilma-xil misollarni shu yerdan topa oladi hamda topshiriq, mashqlarni belgilashda qiynalmaydi va bir necha daqiqada mavzu bo‘yicha yangi-yangi misollardan iborat topshiriqlarni tayyorlay oladi. Korpusda mavjud matnlarni saralash imkoni bor, misolni barcha matnlardan emas, balki tadqiqotchi uchun kerakli bo‘lganini ajratish mumkin. Zero, korpus matnlarini belgilangan davr (hatto aniq yiligacha), matnning aniq bir turini tanlab olish imkoniyati mavjud. Turli mavzu va janrdagi matnlar bilan korpusning doimiy boyitilishi korpusning asosiy xususiyatidan biri hisoblanib, u yo‘naltirilgan ta’lim imkoniyatlarini kengroq ochadi.

Aslida, juda katta imkoniyatni boy beryapmiz. Korpus juda katta hajmdagi matnlar yig‘indisi, ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, Navoiy korpusini yaratish ayni muddao va hatto o‘ta dolzarb hisoblanadi. Sababi millatimiz o‘zligini anglashi, o‘z ma’naviyatiga, madaniyatiga ega bo‘lishi uchun Navoiyni anglashi, qolaversa, Navoiydan ibrat olishi muhim hisoblanadi. Navoiyni anglash o‘zlikni anglash demakdir. Sababi Navoiy - butun umrini turkiy til mavqeyini ko‘tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag‘ishlagan bobokalonimizdir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, inson qalbining quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan

shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz.

Navoiy o‘z ijodida 26 035 dan ortiq so‘zni ishlatganligi bizga ma’lum. Bunday katta hajmdagi ma’naviy xazina korpusga jamlansa, nazmiy asarlarda bugungi zamon g‘azalxoni uchun tushinish qiyin bo‘lgan so‘zlarga osonlik bilan javob topiladi. Bu esa mumtoz adabiyotimizga aholining juda keng qatlamini tushunishi va qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Navoiy she’riyatining asosiy qismini g‘azallar tashkil qiladi. G‘azalchilikdagi bu davr o‘zbek adabiyotining haqiqiy boshlang‘ich davri, ko‘tarilish davri edi. Navoiy g‘azallarida Sharq adabiyoti an’analaridan ijodiy foydalanadi, o‘zi ham g‘azalchilikda yangicha o‘zgarish kashf etadi. Navoiy lirikasi u yashab ijod etgan tarixiy davr va sharoit bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan ham aniq aytishimiz mumkinki, Navoiyning ijodiy merosidagi so‘z gavharlarini mazmunan anglash juda ham muhim masaladir.

Alisher Navoiyning “Badoy’e ul-vasat” devonida uchraydigan izohtalab so‘zlar korpusga jamlanishi milliy tilshunosligimizning yanada rivojlanishida muhim vosita bo‘ladi. Devondagi so‘zlarni tahlil qilish jarayonida bir so‘zning o‘nlab ma’nolarda kelishiga guvoh bo‘lamiz, bunday noyob hodisa Navoiyning so‘z mulkining sultoni ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan so‘z imkoniyatlarimizning naqadar keng ko‘lamli ekanligini belgilaydi. Devonda uchraydigan *ahl, dahr, mehr, la’l, lutf, quyosh, jins, jism, jola, jom, jon, bahra, mavzun, majma’, mazbut, mamlu, mezon, misol, nazar, nasm, na’l, naql, no‘sh, naqsh, nesh, nigor, ovuch, odat, ozoda, ozor, oy, oyin, savod, sarv, safo, safha, saqat, siym, sin, sipah, sifat, timsol, tig‘* kabi so‘zlarning o‘nlab ma’nolari mavjudki, g‘azallar ma’nosini tahlil qilishda mazkur so‘zlarning asl ma’nolarini topish uchun Alisher Navoiy asarlari tilining 4 jildlik izohli lug‘atidan izlab topish ancha vaqtni egallaydi. Masalan, ***la’l*** so‘zining tahlilini o‘rganadigan bo‘lsak quyidagi jadvalda berilgani kabi qator ma’nolarni anglashiga muayassar bo‘lamiz.

Muhomalar va natijalar. Navoiy g‘azallarida *“la’l”* so‘zi tez-tez uchraydi, biroq bu qaytariqlar bizga noxush tuyilmaydi, aksincha, kuchli zavq uyg‘otadi, shoirning zakovati, topqirligiga qoyil qolamiz, qarshimizda o‘ziga xos bir o‘zakli, talaffuzi, shakli o‘xshash, ammo ma’nolari xilma-xil so‘zlar vositasida barpo bo‘lgan hayratomuz san’at namunasi. Go‘yo usta zargar bir bo‘lak javohirdan turfa tarovatli marvarid donalarini suftalab, ipak ipga tizib chiqqanday.

So‘z (shakl)	**Izohi ma’nodoshi**	**Misra (shakl)**
la’l	qizil lab	La’lingg‘a yetib xora agarchi ushatibdur
la’l	qizil rangli qimmatbaho tosh	Chun anda yetib la’l bo‘lub qadrda xoro
la’li shirin	shirinso‘z	Kaloming labi la’li shirin aro
la’l	o‘tli	Labing hajrida jismim konidin bir pora la’ledur
la’li	qip-qizil lab	Joni xunxorimg‘a ham ul la’li ruhafzo balo
la’li xandon	tabassumli lab	Dardi hajrimg‘a ul ikki la’li xandondur davo
la’l	nodir lab	La’ling g‘amidin suda gul yafrog‘i kelgandek
la’li	sevgilining labi	Topmasa jonbaxsh la’ling nuktasidin jon sabo
la’lgun	qonga bo‘yalgan	Kim, bo‘lubtur la’lgun atlasda soyir oftob
la’l	qizil rangli may	Mayi la’ling ne ajab bodaki, kayfiyatidin
la’l	qizil lab	Vah, ne muhlik hol erur jonimg‘a la’ling hajrida
la’l	qizil rangli may	Mayi la’lingg‘a ne kayfiyat erdikim, nasimidin
la’l	haroratli lab	Ko‘ngulda otashin la’ling g‘ami, ayb etma kuysamkim
la’li shakarxanda	shirinso‘z	Xasta jonim za’fig‘a la’li shakarxanding iloj
la’lrang	qizil rangli	Bu la’lrang boda, ul sog‘ari zarandud
la’l	sevgilining qizil labi	Bir parivash la’lidin may, husnidin gulzori bor
la’l	olovdek yashnab turgan lab	Yuzinda partavu ul partav ichra la’lini ko‘rkim
la’l	o‘tli lab	Bu ishda otashin la’ling ayon qilgan tabassumdek
la’lgun	qizil rangli	Soqiyo, gar la’lgun may tutsa bo‘lmas yorg‘a

Bugungi kunda talaffuzimizda ishlatilmayotgan *“no‘sh”* so‘zida ham shakldoshlik xususiyti mavjud, quyidagi jadvalda no‘sh so‘zining misralarda qanday ma’no ifodalab kelayotganligiga guvoh bo‘lamiz.

So‘z (shakl)	Izoh, ma’nodoshi	Misra (shakl)
no‘sh	shirin	No‘shi visoling yetmasa, Iso anga topmas davo
no‘sh aylamoq	ichmoq	No‘shi jon har bodakim ahbob ila no‘sh aylading
no‘shi la’l	lab suvi	No‘shi la’lingdin agar jon istadim
no‘sh	so‘zlar	La’li no‘shi birla yuz yillig‘ o‘lukka ruh baxsh
no‘sh etmoq	ichmoq	No‘sh etib jomi fano, qo‘ysam riyo, ayb etmakim
no‘sh	bahra	Soqiyo, jomi visoling no‘shidin tirguz meni
no‘sh	yoqimli	Siz cheking no‘shi visol, ey ahli ayshu nozkim
no‘shi la’l	lab suvi	No‘shi la’lingdin manga chun zahri hajr o‘ldi nasib
no‘sh	bahra	Hajridin o‘lmay visoli no‘shidin topsam umid

G‘azallarda juda ko‘p uchraydigan “**sarv”** so‘zi badiiy tasvir vositasi sifatida qo‘llanilib, bir qarashda bir xil ma’noda kelayotgandek ko‘rinsa-da, shakldoshlik xususiyatiga ega hisoblanadi. Biz shunday so‘zlardagi o‘ta nozik ma’no farqlarini anglagan holda, o‘quvchiga ham anglata, tushuntira olsak, o‘ylaymanki, turkiy tilimiz imkoniyatlarini yanada kengroq o‘rgatish imkoniyatga ega bo‘lamiz.

So‘z (shakl)	Izoh, ma’nodoshi	Misra (shakl)
Sarv	tik o‘suvchi daraxt	Telbalik ko‘rkim, qucharmen bog‘ aro har sarvni
Sarv	qomati kelishgan go‘zal ma’shuqa	Birisi ul sarv qaddi siymbar bo‘lg‘aymu deb
Sarv	xushqad go‘zal	Dema sarvu gul bila bir lahza ko‘nglungni ovut
Sarv	qomati kelishgan go‘zal	Chamanda qilg‘usi gulgasht go‘yiyo ul sarv
Sarv	tik o‘suvchi, xushqomat daraxt	Qomatingg‘a sarv taqlid aylabon topti shikast
Sarv	kelishgan qomatli mahbuba	Ki, ra’no sarvig‘a gulbargdin xil’at yaroshibdur
Sarv	qomati kelishgan go‘zal	Kimki olam bog‘ida bir sarvi gulruxsori bor
Sarv	tik o‘suvchi, xushqomat daraxt	Ohim samumi sarvu sanovbarni kuydurur

Hech mubolag‘asiz aytishimiz mumkinki, “Badoy’e ul-vasatda” devonida jamlangan nazmiy asarlarda bugungi zamon g‘azalxoni uchun tushinish qiyin bo‘lgan so‘zlar juda ko‘p uchraydi. Bu esa g‘azal mazmunini to‘la tushunmaslikka olib keladi. Masalan, devondan o‘rin oldan “Anga” radifli g‘azalda juda ko‘plab izohi talab etiladigan, bugungi kunda talaffuzimizdan chiqqan so‘zlar uchrashi ko‘rishimiz mumkin. Quyida mazkur g‘azalning 8-baytidagi so‘zlarning izohi bilan berilgan. G‘azalda shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni anglasak, uni yod olish ham, xotirada saqlab yod olish ham, ifodali aytish ham mumkin bo‘ladi.

So‘z	Izohi	Janri	Janr nomi (satr)
sargashta	sarson, ovora	g‘azal	Meni sargashtada hijron o‘qidin ming paykon
paykon	o‘q	g‘azal	Meni sargashtada hijron o‘qidin ming paykon
charx	taqdir	g‘azal	Charxi gardong‘a mushobih ko‘runur hay’at anga
gardon	aylanadigan	g‘azal	Charxi gardong‘a mushobih ko‘runur hay’at anga
mushobih	o‘xshash	g‘azal	Charxi gardong‘a mushobih ko‘runur hay’at anga
hay’at	ko‘rinish	g‘azal	Charxi gardong‘a mushobih ko‘runur hay’at anga
charx	taqdir	g‘azal	Charxi gardong‘a mushobih ko‘runur hay’at anga

Darhaqiqat, har qanday ulug‘ san’atkorning she’rida so‘z uning o‘zi aks ettirishni istagan fikr va tuyg‘udan bir necha hissa ortiq ma’nolarni ifodalaydi. Shunung uchun haqiqiy she’rning g‘oyaviy-badiiy tarkibida hamisha nimalardir sir bo‘lib, allaqanday ma’no gavhari yashirinligicha qolaveradi. Birdaniga bir necha ramziy mazmunlarni tarkibiga birlashtira olgan she’r chinakam she’rdir. “Badoy’e ul-vasatda” devonidan o‘rin olgan 15-g‘azalda ham bir nechta bugungi kun iste’moldan chiqarilgan notanish so‘zlar uchraydi. Quyida g‘azalning maqta’si izohi bilan tanishamiz.

So‘z	Izohi	Janri	Janr nomi (satr)
Voiz	va’z aytuvchi	g‘azal	Ey Navoiy, voizu firdavsi a’lo zikrikim
firdavs	jannat	g‘azal	Ey Navoiy, voizu firdavsi a’lo zikrikim
Xuld	jannat	g‘azal	Bog‘i xuld ul huri paykar ostonidur manga.
Hur	go‘zal	g‘azal	Bog‘i xuld ul huri paykar ostonidur manga.
paykar	jamol	g‘azal	Bog‘i xuld ul huri paykar ostonidur manga.
ostoni	ostona	g‘azal	Bog‘i xuld ul huri paykar ostonidur manga

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘z kelajagini o‘ylagan har bir davlat jamiyat hayotidagi shaxsga taalluqli barcha ijtimoiy ta’sirlarni insonning rivojlanishi uchun, uning o‘zligini anglashi va namoyon qila olishi uchun maqsadli ravishda yo‘naltira olgan bo‘lishi kerak. Navoiy asarlarida yuksak badiyat bilan kuylangan umuminsoniy fazilatlar bugungi kunda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ulug‘ mutafakkir asarlari nafaqat zamondoshlarimizga, balki bizdan keyin keladigan avlodlarimizga ham hayotdan, yashash ilmidan, umuminsoniy qadriyartlardan saboq beradi. Navoiy asarlari bugungi kunda yoshlarni milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga, ularda vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, burchga sadoqat, mehr-muhabbat tuyg‘ularini kamol toptirishga, yosh avlod qalbida Vatanga bo‘lgan muhabbat hissini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda “Tilga e’tibor - ma’naviyatga e’tibor” ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarildi. Shu boisdan ona tilimizni asrab-avaylash, boyitish, undan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga, o‘zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish kechiktirib bo‘lmaydigan, dolzarb vazifaga aylandi. Korpus lingvistikasi istiqbolli ilmiy yo‘nalishi sifatida o‘zbek tili milliy korpusini yaratish, mualliflik korpusi tuzishning lingvistik asoslarini ishlab chiqish, lingvistik modellarni tuzish singari masalalarni zamonaviy ilmiy tamoyillar asosida tadqiq etish fanimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug’atayn. -T.: “Akademnashr”, 2017. -128 b.

2. Alisher Navoiy. Badoe’ ul-vasat. O‘n besh tomlik. 3-tom. -T.: “O‘zbekiston badiiy adabiyoti nashriyoti”, 1968-yil. - 411 b.

3. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 tomlik. -T.: “Fan” nashriyoti, 1983-yil.

4. Madayev O. Navoiy suhbatlari. -T.: “O‘qituvchi”, 2018. - 248 b.

5. Xamroyeva Sh.M. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari monografiyasi. – Toshkent, 2020. – 260 b.

6. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. -T.: “Toshkent”, 2015. - 432 b.

7. Xoksor. M. R. Alisher Navoiy asarlari lug‘ati. -T.: “Akademnashr”, 2017.- 416 b.

8. Alisher Navoiy. Hikmatlar. -T.: “O‘zbekiston”, 2011. - 408 b.

9. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy: to‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. -T.: “G‘afur G‘ulom”, 2013. - 764 b.

10. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o‘rganishning metodologik asoslari haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. -Tosheknt, 2001. 2-son.

Bahodir QO‘CHQOROV
Namangan davlat universiteti
boshlang’ich ta’limda ijtimoiy fanlarni
o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

“DEVONU LUG’OTIT TURK” ASARIDA BOLALAR O‘YINILARI

Bolalar o‘yinlarining jismoniy jihatdan bergan ozuqasidan tashqari uning ma’naviy ozuqaliligi ham mavjud bo‘lib, bular bolalarning eng yosh paytlaridan e’tiboran bolalarda mustaqillik, o‘ziga bo‘lgan ishonchni, mustaqil fikrlashni va o‘z kuchiga, o‘ziga ishonchning ortib borishiga ko‘maklashgan. Ana shular ichida, ta’sirida o‘sgan bolalarda kuch-quvvat, bardamlik, salomatlik ancha yuqori bo‘lganligi barchaga ayon. Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asarida ana shu bolalar o‘yinlari xususida gap boradi.

Kalit so‘zlar: *bolalar o‘yinlari, ma’naviy ozuqa, jismoniy ozuqa, mustaqillik, ishonch, mustaqil fikrlash, birdamlik, salomatlik, uslub, ashyolar.*

Помимо физического питания детских игр, существует также его духовное питание, которое с раннего возраста помогает детям развивать независимость, уверенность в себе, независимое мышление и самоэффективность. Помогает повысить уверенность в себе. Как известно, дети, вырастающие под его влиянием, обладают высокой силой, выносливостью и здоровьем. Об этих детских играх рассказывает “Девону луготит турк” Махмуда Кашгари.

Ключевые слова: *детские игры, духовное питание, физическое питание, самостоятельность, уверенность, самостоятельное мышление, солидарность, здоровье, стиль, предметы.*

In addition to the physical nourishment of children's games, there is also its spiritual nourishment, which from an early age helps children to develop independence, self-confidence, independent thinking and self-efficacy. helped to increase self-confidence. It is well-known that children who grow up under the influence of it have a high level of strength, endurance and health. Mahmud Kashgari's Devonu lug'otit turk talks about these children's games.

Key words: *children’s games, spiritual nourishment, physical nourishment, independence, confidence, independent thinking, solidarity, health, style, objects.*

Kirish. Har bir inson umri o‘tib borgan sari bolaligini qumsar ekan, ko‘z oldiga bolalik davrida mashhur bo‘lgan o‘yinlarni keltiradi. “Bo‘ladigan bola boshidan ma’lum” deganlaridek, kelgusida ulug’lik darajasiga erishgan buyuk zotlarning aksariyati bolalik davridagi o‘yinlardayoq o‘zining iste’dodi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turgan. Ko‘p hollarda ular tengdoshlari orasida barcha o‘yinlarga bosh-qosh bo‘lganlar. Bunday paytlarda o‘yinlar ularni aqliy va jismoniy jihatdan yetuk bo‘lib ulg’ayishlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu haqda Mahmud Sattor shunday yozadi : “O‘zingizga ma’lumki, bolalarni kattalar, yerga ursa ko‘kka sapchiydigan koptokka o‘xshatishadi. Chunki siz biror daqiqa ham harakatsiz, jim o‘tirolmaysiz. O‘yin ishqibozi, o‘yinqaroqsizlar. Hayotingizni ko‘chasiz, o‘yinlarsiz tasavvur qilolmaysiz. Aslida bolalikning eng aziz, o‘ziga xos tomonlari ham shunda-da!

Asosiy qism. Jamiyatga, odamlarga foydasi tegadigan, dunyoga mashhur olim-u yozuvchilarning, shoirlarning bolalikda yerga ursa ko‘kka sapchiydigan o‘yinqaroq bo‘lganliklari bejiz emas. Bu hol ularda ijodiy tafakkurning o‘sishi uchun benihoya katta ahamiyatga ega” [9, 23-24].

Darhaqiqat, bolalar o‘yinlarining jismoniy jihatdan bergan ozuqasidan tashqari uning ma’naviy ozuqligi ham mavjud bo‘lib, bular o‘zbek bolalarining eng yosh paytlaridan e’tiboran bolalarda mustaqillik, o‘ziga bo‘lgan ishonchni, mustaqil fikrlashni va o‘z kuchiga, uquviga ishonchning ortib borishiga ko‘maklashgan. Ana shular ichida, ta’sirida o‘sgan bolalarda kuch-quvvat, bardamlik, salomatlik ancha yuqori bo‘lganligi barchaga ayon [5, 66].

Bolalar o‘yinlari qaysi shakl, mavzu, yo‘nalishga ega bo‘lmasin, loy-tuproq bilanmi, yog’och-u kaltakmi, ip-u arqon bilanmi, qaysisini bo‘lsa ham bolani turmush ikir-chikirlari, umuman, katta hayotga tayyorlashda o‘ziga xos hunar maktabi rolini o‘ynagan [6, 249]. Chunki, bolalar ham o‘z ota-onalari qatorida turib, ijtimoiy-mayishiy hayotda, xususan, ishlab chiqarishning talay jabhalarida o‘z imkoniyatlari va iqtidorlari doirasida qadim zamonlardan beri qatnashib keladilar. Kattalar imorat qursa, ular g’isht, loy yetkazib turganlar, kattalar xirmon yanchsa, ular ho‘p haydaganlar. Xullas, kattalar uyushtirgan turli-tuman marosimda qatnashganlar, ular qo‘shiq kuylasa, jo‘r bo‘lganlar, birgalikda raqs tushganlar. Bunday aralashuv bolalarning hayot voqealariga o‘z munosabatlarini ifodalash yo‘sinini ham ola boshlagan. Bu jarayon bolalar uchun goh o‘yin tarzida ketsa, goh majburiy mehnat shaklida kechgan: o‘yin tarzida kechganida bolalar ehtiroslarga to‘lib-toshib, o‘z zavqlarini jo‘shqin va samimiy ohanglarda kuylaganlar, majburiy mehnat

tarzida kechganda esa, og'ir mehnat tufayli horg'in va alamli tuyg'ularini g'amgin shaklada ifoda etganlar [7, 273].

Abu Nasr Farobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur, Zayniddin Vasofiy, Kaykovus singari ulug' allomalar asarlarida ham bolalar hamda folklor o'yinlarga doir juda ko'p ma'lumotlar uchraydi [5, 249].

X-XII asrlarga taalluqli bolalar o'yinlari qanday bo'lganligini bilish uchun biz shu davrga yaqin zamonda yashab o'tgan Mahmud Qoshg'ariy asarida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanishni lozim ko'rdik. Zero , ular yashagan davrlari borsa bir asrgina farq qilgan holda bolalar o'yinlari ham bir-biridan deyarli farq qilmagan bo'lsa kerak. Chunonchi, turkiy xalqlardagi bolalar o'yinlariga doir tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, asrlar o'tsa-da, o'yinlarning ayrimlari deyarli o'zgarishga uchramay saqlaninb qolgan [5, 106].

Folklorshunos olim G'.Jahongirov ta'kidlashicha, "Devonu lug'otit turk" asarida150 ga yaqin milliy o'yinlar haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib 20 dan ortiq bolalar o'yini tavsif qilingan [8].

Muhokamalar va natijalar. Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan bolalar o'yinini ijro uslubi, vaqti undagi o'yin ashyolarining turiga k o'ra quyidagicha tasniflash mumkin.

1. Yog'och bilan bog'liq o'yinlar. *Bandal* - bosh qismi cho'moqdan yog'och. Uning uchini yondirib, kechasi bolalar bir-birlariga o'qtalib o'ynaydilar. Buni "ot bandal" deydilar. Cholgan o'yinida o'ynaladi.

2. Koptok bilan bog'liq o'yinlar. Maxmud Qoshg'ariyga ko'ra, pishitilgan ip koptogi arg'uchada tushrum deb atalgan [1, 447]. Koptok bilan bog'liq o'yin to'risida u shunday yozadi: "*Tuldi-urdi*, o'ynadi. *Er tobiqni azri bilan tuldi* - Er koptokni ayri bilan urdi. Bu turklarga xos o'yinning bir turi bo'lib, o'yinchilar oldin o'zdan boshlashini istasa, u koptokni shunday ayri bilan uradi. Koptokni kim qattiq ursa, o'yin o'sha kishidan boshlanadi.

3. Yong'oq va tosh bilan bog'liq o'yinlar. Maxmud Qoshg'ariyga ko'ra, turkiy xalqlarda yong'oq va tosh bilan bilan bog'liq bolalar o'yini keng tarqalgan bo'lib, u bu haqida shunday yozadi: "*Kochurma oiun*" - o'n to'r degan o'yindir". Yerga qo'rg'onga o'xshatib to'rt chiziq chizib, unga o'nta eshik qilinadi-da, yumaloq tosh, yong'oq tashlab o'ynaladi". Unga ko'ra, bolalar yong'oq o'ynaydigan chuqur joy - atich deb atalgan [2, 31].

4. Kech tushganda o'ynaladigan o'yin. Bolalar o'yinlari orasida kunduzgidan tashqari kechasi o'ynaladigan o'yinlar ham bo'lganligini Mahmud Qoshg'ariy quyidagicha izohlaydi: "*Qaranguni*– bolalarnig kechasi o'ynaydigan bir xil o'yinning nomi" [1, 452].

5. Suyak bilan bog'liq o'yinlar. Mahmud Qoshg'ariyga ko'ra, bolalar o'yinlari orasida suyak bilan bog'liq o'yinlar keng tarqalgan. Bu o'rinda to'piq o'yini haqida yozar ekan: "U men bilan otishda bahslashdi", degan misolni keltiradi. Bunday to'piq o'yini keyingi davrlarda ham bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, to'piq o'ynalganda suyak berkituvchi kishi to'piqni hamma vaqt yonida olib yurishi shart bo'lib, bir necha oydan keyin bo'lsa ham, hammomga o'xshash nozik joyda bo'lsa ham so'ralgan hamon mana deb ko'rsatib berishi lozim bo'lgan. Shuning uchun to'pq osib yurish odat bo'lgan bo'lishi mumkin [3, 261]. To'piq o'yini xususida o'zbek tilining izohli lug'atida - so'ralganda, darhol ko'rsatish sharti bilan, berib o'ynaladigan pisandali o'yin. To'piq o'ynab bitta o'tirishga tushdim" [1, 198].

Shuningdek Mahmud Qoshg'ariy odatda qo'y oshig'i vositasida o'ynaladigan oshiq otish o'yini haqida ham ma'lumot keltiradi: "Po'k - o'yinda oshiqning orqasi bilan tutishi. Buni chik-po'k deyiladi" [10, 251]. Qizig'i shundaki, Mahmud Qoshg'ariy davridagi mazkur so'z ham va oshiq otish ham o'zgarishga uchramagan. O'zbek tilining izohli lug'atida bu haqida quyidagicha izoh berilgan: "Chikka - oshiqning ichi chuqur tomoni sirtiga qaragan vaziyati; pukkaning aksi. Oshiq dumalaydi pukkami, chikka. S. Akbariy" [3. 144].

Umumiy olganda, Markaziy Osiyo xalqlarida qadimdan oshiq bilan bog'liq o'yinlar keng tarqalganligi ilmiy adabiyotlarda ham ko'p bor ta'kidlab o'tilgan [11].

Farg'ona vodiysining qadimgi poytaxt shaharlaridan biri bo'lgan Qubo (Quva) shahristonida 1996-2008-yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar chog'ida IX-XII asrga mansub madaniy qatlamlarda turli xil sopol buyumlar bilan bir qatorda qo'y suyaklaridan o'ynash uchun ishlangan oshiqlar ham ko'p topilgan edi. Albatta, bunday topilmalar sopollardek tarixiy ahamiyatga ega bo'lmasada, biroq elshunoslik nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, o'sha davrlarda bolalar o'yinlari orasida oshiq bilan bog'liq o'yinlarni keng tarqalganligini ko'rsatadi.

7. Suv bilan bog'liq o'yinlar. "*Monuz- monuz*" – "Mo'nguz-mo'nguz" deyilgan bolalar o'yini. Bu o'yin quyidagicha: bolalar tiz cho'kib, dengiz labida (suv bo'yida) o'tiradilar. Sonlari orasiga ho'l qum solib to'ldiradilar. So'ng qo'llari bilan qumni uradilar. Ulardan biri (onaboshisi): "*Monuz- monuz*", deydi. Qolganlari "*Na monuz?* " (Nimaning mo'nguzi (shoxi)?), deb so'raydilar. U birin- ketin shoxli hayvonlarni sanab ketadi. Uning ketidan ular ham takrorlaydilar. So'ng onaboshi shu nomlar orasiga tuya, eshak kabi

shoxi yo‘q ismini aytib chalg’itadi. Bolalardan birontasi uning ketidan shoxsiz hayvon nomini aytib yuborsa, u suvga itarib yuboriladi [12]. Mahmud Qoshg’ariyga ko‘ra, suv bilan bog’liq “Mo‘nguz-mo‘nguz” o‘yinidan tashqari suvga sho‘ng’ishda bahslashish ham bo‘lgan [3, 375].

Folklorshunos G.Jahongirov “Mo‘nguz-mo‘nguz” o‘yini shu kunlarga qadar saqlanib qolgan “Qushim boshi” o‘yiniga qiyoslanadi [2, 241]. Shuningdek, u Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asarida tilga olingan “O‘tush-o‘tush” o‘yinini hozirgi “Musht ketti” o‘yiniga o‘xshash ekanligini ta’kidlaydi [8].

8. G’ildirak bilan bog’liq o‘yinlar. Mahmud Qoshg’ariy bu o‘yinni quyidagicha izohlaydi: “Tebuk-qo‘rg’oshin eritilib g’ildirak, g’altak shakliga keltiriladi, so‘ng unga bolalar ip shaklidagi echki yungini aylantirib bog’lab tepib o‘ynaydi”.

9. Qiz bolalar o‘yinlari. Mahmud Qoshg’ariyga ko‘ra o‘yinlari orasida qizlarga xos o‘yinlar ham bo‘lgan. Shu o‘rinda u qiz bolalarning sevimli qo‘g’irchoq o‘yinlari haqida quyidagilarni keltiradi: “Quzurchuq- qo‘g’irchoq. Qiz bolalarning odamga o‘xshatib yasatib o‘ynaydigan o‘yinchoqlari” [13].

Mahmud Qoshg’ariy qiz bolalar o‘yinlari xususida ma’lumot berar ekan, hozircha dunyo xalqlarida keng tarqalgan arg’imchoq o‘yini haqida to‘xtalib o‘tadi: “ Jalnu- joriyalar o‘ynaydigan bir xil o‘yin nomi. Shundayki, arqonning ikki uchi bir daraxtga yoki ustunga bog’lanadi, so‘ng ularning biri arqonning o‘rtasiga o‘ltiradi oyoqlarini sakratib, ba’zan yuqori, ba’zan quyi tushib uchadi (arg’imchoq)” [1, 367].

Mahmud Qoshg’ariy qizlar bilan bog’liq o‘yinlar haqida ma’lumot keltirar ekan, turkiy xalqlar orasida qizlarning har sohada yigitlardan qolishmas ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Chunonchi bu haqida quyidagi misollarni keltiradi:

“Qiz bilan o‘ynashma, chunki ular kuchli va seni yengadi, yosh qisir biyalar bilan poyga qilishma, u ayg’irdan kuchlidir, u ham sening ustingdan g’alaba qiladi. Bu maqol Xoqoniya qizlaridan biri Sulton Ma’sudning nikoh kechasi o‘z erini oyog’i bilan chalib yiqitganidan keyin xoqoniylarda yuzaga kelgandir” [3, 390].

U men bilan marvarid tizishda va she’r tuzishda bahslashdi.

Qizlar ud sozini chalishda bir-biri bilan bahslashdi.

Ular ikkovi sut sog’ishda bahslashdi [1, 439].

E’tibor bergan bo‘lsangiz bundan ming yil muqaddam qizlar tarbiyasida ular o‘rtasidagi she’r tuzish, ud cholish bo‘yicha bahsli bellashuvlar alohida o‘rin tutgan. Ular bunday bahslar orqali o‘z iste’dodlarini namoyon etishga qodir bo‘lganlar. Qoraxoniylar davridagi o‘yinlar bolalarni jismoniy va aqliy kuchini hamda uning tafakkurini takomillashtirib, irodasini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan ko‘rinadi.

Xulosa. Biz X-XII asrlardagi Movorounnahrda mavjud bolalar o‘yinlari xuxusida bejiz so‘z ochmadik. Chunki o‘quvchilarimizni Qoraxoniylar davri madaniyati va tarixi bilan yaqindan tanishtirishda, o‘quvchilarning tafakkurini boyitishda ushbu ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, M.Mahmudov ta’kidlaganidek: “Bolalarimiz - go‘zal ertamizdir. Ertaga ular bizning o‘rnimizni egallaydilar. Bolalarimiz qadimgi tarix, qadim madaniyatga ega bo‘lgan xalqimizning munosib avlodlari bo‘lib yetishishlari kerak. Zero, millat shunchaki soniga qarab emas, yetuk farzandlarining ko‘pligiga qadrlanadi. O‘z millatini, o‘z yurtini sevgan har bir o‘g’il-qiz bu yo‘lda butun kuch-g’ayrati bilan kurashmog’i zarur. Millat qancha ma’naviy boy bo‘lsa, u shuncha ulug’ qudratli bo‘ladi” [2, 256].

Adabiyotlar

1. Mahmud Qoshg’ariy. Devonu lug’otit turk I tom.
2. Mahmud Qoshg’ariy. Devonu lug’otit turk II tom.
3. Mahmud Qoshg’ariy. Devonu lug’otit turk III tom.
4. Isxoqov. B.B. Bolalar o‘yinlarining etnografik xususiyatlari.
5. Ismoilov H. O‘zbek to‘ylari. –T.: “O‘zbekiston”. 1992.
6. Isxoqov. B.B. Bolalar o‘yinlarining etnografik xususiyatlari// O‘zbekiston etnologiyasining dolzarb muammolari. –Toshkent: “Namangan”, 2007.
7. Safarov O, Jahongirov G’. Bolalar folklori // O‘zbek folklorlari ocherklari. -T.: “Fan”, 1988.
8. Джахангиров Г. Узбекский детский фолклор. -С 393.
9. Mahmud Sattor. O‘zbek udumlari. –T.: “Fan”. 1993. 23-24-b.
10. O‘zbek tilining izohli lug’ati. II tom. M. “Rus tili nashriyoti”, 1981. -251 b.
11. O‘zbek tilining izohli lug’ati. I tom. M. “Rus tili nashriyoti”, 1981. – 361 b.
12. Шаниязов.К.Ш. Узбеки-карлуки. Историо етнографической очерк. -Т., 1964.
13. Jahingirov G’. O‘zbek bolalar folklori. -T.: “O‘qituvchi”, 1978.

Sulaymon HALIMOV
Samarqand davlat universiteti
tadqiqotchisi

G'ARIBIY IJODINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ushbu maqolada temuriylar davri adabiy muhiti namoyondalaridan biri shoir Shohg'arib Mirzo-(G'aribiy)ning ijodiy faoliyatini o'rganishga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi temuriylar davri adabiy muhiti namoyondalaridan birining ijodini o'rganar ekan, G'aribiy ijodida tasavvufiy g'oyalar, haqiqiy va majoziy ishq, vasl va hijron, umidvorlik va umidsizlik, muhabbat va shikoyat, do'st va raqib, ishonch va rashk, yorga iltijo, sog'inch, vafo va jafo, yorga sadoqat, ko'ngil, iyd, may kabi tushunchalar asosiy mavzular hisoblanadi.

Shoh G'arib Mirzo G'aribiy ruhiyat musavviri ekanligi, uning ijodida insoniy munosabatlar, ko'ngil deb atalgan ruhiy olam va unda hukmronlik qiluvchi insoniy tuyg'ular o'ziga xos tarzda yuzaga chiqadi. G'aribiy g'azallarida bundan tashqari dunyo, insoniy munosabatlarga shoirning munosabati o'zgacha qiyofada namoyon bo'ladi, shunga bog'liq holda yor, boda, ishq kabi ko'plab so'zlar keng ma'noda, ya'ni bir o'rinda o'z ma'nosida, boshqa o'rinda esa majoziy ma'noda qo'llanilganligi, uning g'azallaridagi timsollar ma'nosini anglash uchun masalaga o'sha davr nuqtayi nazaridan yondashish lozim bo'ladi. Bundan tashqari, Shoh G'arib Mirzo G'arbiyning ijodiy mahsuli bo'lgan g'azallarning tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqotchi mazkur maqola orqali yana bir temuriy shahzoda va shoirning ijodi namunalarini keng o'rganishimizga imkoniyat yaratmoqda.

Kalit so'zlar: *Shoh G'arib Mirzo, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, tasavvufiy g'oyalar, haqiqiy va majoziy ishq, vasl va hijron, umidvorlik, ko'ngil timsoli.*

Статья посвящена исследованию творчества поэта Шахгариба Мирзо (Гарибия), одного из представителей литературной среды тимуридского периода. Исследователь изучает творчество одного из представителей литературной среды периода Тимуридов, главными темами могут быть такие понятия, как мольба, тоска, верность и страдание, преданность йорге, сердцу, иду.

Тот факт, что Шах Гариб Мирза Гариби является художником психики, в своей работе, человеческих взаимоотношений, духовного мира, называемого душой, и человеческих эмоций, которые в нем правят, уникален. В его странных стихотворениях, кроме того, особым образом выражено отношение поэта к миру и человеческим отношениям, в связи с чем многие слова, такие как йор, бода, ишк, в широком смысле, т.е. вопрос с точки зрения того периода, чтобы понять значение символов в его стихотворениях, которые использовались в его собственном смысле и в другом месте в переносном смысле. Кроме того, особое внимание уделяется анализу газелей, которые являются творением шаха Гариба Мирзы Гарби. С помощью этой статьи исследователь позволяет нам изучить творчество другого тимуридского князя и поэта.

Ключевые слова: *Шах Гариб Мирзо, Алишер Навои, Хусейн Бойкаро, мистические идеи, настоящая и образная любовь, васл и хиджран, надежда, символ сердца.*

This article focuses on the study of the creative work of the poet Shahgarib Mirzo (Gharibi), one of the representatives of the literary environment of the Timurid period. The researcher examines the work of one of the representatives of the literary environment of the Timurid period. concepts such as supplication, longing, fidelity and suffering, devotion to the yorga, heart, iyd, may are the main themes.

The fact that Shah Gharib Mirza Gharibi is an artist of the psyche, in his work, human relationships, the spiritual world called the soul and the human emotions that rule in it, is unique. In his strange poems, in addition, the poet's attitude to the world and human relations is expressed in a special way, in connection with which many words, such as yor, boda, ishq, in a broad sense, i.e. It is necessary to approach the issue from the point of view of that period in order to understand the meaning of the symbols in his poems, which were used in his own sense and in another place in a figurative sense. In addition, special attention is paid to the analysis of ghazals, which are the creative work of Shah Gharib Mirza Gharbi. Through this article, the researcher allows us to study the works of another Timurid prince and poet.

Key words: Shah Gharib Mirzo, Alisher Navoi, Hussein Boykaro, mystical ideas, real and figurative love, vasl and hijran, hope, symbol of the heart.

Kirish. Temuriy shahzodalar orasida Shoh G'arib Mirzo G'aribiy, avvalo, lirik shoir sifatida muhim o'rin tutadi. Uning ijodida tasavvufiy g'oyalar, haqiqiy va majoziy ishq, vasl va hijron, umidvorlik va umidsizlik, muhabbat va shikoyat, do'st va raqib, ishonch va rashk, yorga iltijo, sog'inch, vafo va jafo, yorga sadoqat, ko'ngil, iyd, may kabi tushunchalar asosiy mavzular hisoblanadi. Shoh G'arib Mirzo G'aribiy

ruhiyat musavviri. Uning ijodida insoniy munosabatlar, ko‘ngil deb atalgan ruhiy olam va unda hukmronlik qiluvchi insoniy tuyg’ular o‘ziga xos tarzda yuzaga chiqadi. Shoir ijodining o‘ziga xosligi shundaki, unda Sharq adabiyotiga xos an’analar, shoirlar ijodida asrlar davomida yetakchilik qilib kelgan tasvirlar butunlay yangicha qiyofada namoyon bo‘ladi va poetik ta’sirchanligi, o‘ziga xos tarzda talqin qilinishi bilan kitobxonni o‘ziga jalb etadi.

Asosiy qism. G’aribiy o‘z ijodi bilan zamondoshlari tomonidan e’tirof etilgan bo‘lsa-da, mumtoz adabiyotning faqatgina g’azal janrida ijod qilgan. Uning o‘zbek va forsiy tilda yozgan ijodida besh parcha muxammas va bir parcha qit’adan tashqari, qolgan barchasi g’azal janrida yozilgan. Bu holat nafaqat G’aribiy ijodida, balki unga zamondosh bo‘lgan Bobur kabi ijodkorlar ijodida ham ko‘zga tashlanadi. Buni G’aribiyning ijodda asosan otasi Sulton Husayn Mirzo ijodidan ilhomlangani bilan izohlash mumkin. Sulton Husayn Mirzo G’aribiyga ota bo‘lish barobarida o‘zi ham ijod bilan shug’ullangan, dilbar g’azallar yozgan. Bu esa, tabiiyki, badiiy ijodga moyil bo‘lgan nozikta’b G’aribiy g’azallarida ham o‘z aksini topgan. G’aribiy ijodida sharqona odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya qilinganligi quyidagi g’azalda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

G’azalning dastlabki baytlari yor tasviriga, uning go‘zalligini ta’riflashga bag’ishlangan:

Qaysi bir gulchehra ul gulbargi xandonimcha bor?
Qaysi bir shamshodqad sarvi xiromonimcha bor?
Qaysi bir xurshidsiymoni anga monand etay?
Qaysi mahvash orazi sham’i shabistonimcha bor?

Keyingi misralarda shoirning ruhiy holati, sevgi tufayli chekkan iztiroblari tasvirlangan. Bunda balo seli oshiq ko‘zidan oqqan yoshga teng kelmasligi, ko‘ngilda yuzlab choklar mavjudligi, bulbul ham oshiqdek nola qila olmasligi holatlar o‘z badiiy tasviriga ega bo‘lgan:

Qaysi bir damkim ko‘zum hijronidin qon yig’lamas?
Qaysi bir seli balo bu chashmi giryonimcha bor?
Qaysi bir gul ko‘nglaki ko‘ksum kibi yuz chok erur?
Qaysi bulbul nolasi faryodu afg’onimcha bor?

G’azalda shu tarzda tasvir kuchayib boraveradi. Shoir ko‘ngliga ozor bergan go‘zal o‘z g’amzalari bilan hatto kofirdan ham o‘zib ketadi. Oshiq ko‘nglidan chiqqan fig’onlar do‘zax o‘tidan ham kuchli tarzda namoyon bo‘ladi:

Qaysidurkim men kibi ul g’amzadin majruh emas?
Qaysi kofir, qon qilurda nomusulmonimcha bor?
Qaysi bir anduh o‘tikim o‘rtamas onsiz meni?
Qaysi do‘zax o‘ti, yorab, so‘zi hijronimcha bor?

G’azal oxirida esa nochor ahvolga tushib qolgan oshiq o‘z nazmiga isloh berish uchun davoni shohi suxandonida ko‘radi:

Gar parishon nazminga islohdin zeb istasang
Ey G’aribiy, qaysi bir, shohi suxandonimcha bor?

Ana shu o‘rinda G’aribiyning “shohi suxandonim” deyish bilan kimga ishora qilayotganligi, ya’ni shohu shoir bo‘lgan otasi Husayn Boyqaroni nazarda tutganligi oydinlashadi. Bu esa biz yuqorida G’aribiyning Husayn Boyqaro ijodidan ta’sirlanganligi to‘g’risidagi fikrlarimizni yana bir karra dalillaydi.

G’aribiy o‘z davrining boshqa ijodkorlari kabi zullisonayn shoirdir. U yoshligidan Alisher Navoiy va Jomiy ijodini qiziqib o‘rgandi, ulardan ilhomlandi va bu ta’sir uning g’azallarida ham o‘z aksini topdi. G’aribiy g’azallari soddaligi, xalq tiliga yaqinligi, balandparvoz, jimjimador jumlalardan xoliligi bilan ajralib turadi. Bu uning shaxsiyatidagi kamtarinlik, soddalik kabi xususiyatlaridan dalolat berib turibdi. Shu bois Alisher Navoiy ham o‘zining soqiynomasida G’aribiyning shaxsiyatidagi e’tiborli tomonlarni, uning odamiylik xususiyatlari beqiyos ekanligini alohida uqtirib, quyidagicha ta’riflaydi:

Soqiyo, boday mastona ketur,
Dayrdin bodaparastona ketur.
O‘yla maykim chu ko‘rub bodaparast,
Ichkuchi atridin o‘lg’ay sarmast.
Nash’a baxsh, o‘ylaki ohangi Iroq,
Talx ul nav’ki xunobi firoq.
Mutribo, sen dog’i ohange tuz,
Rangida lahri Husayniy ko‘rguz.
Ham Husayniy so‘zidin rangi g’arib,
Ham G’aribiy damidin bayti ajib.
Soz aylab, meni ham shod aylang,

Bir nafas qayg'udin ozod aylang.
Shoxlap nodiri, atvor ichra,
Nuktayu diqqati ash'or ichra.
Qildi chun tangri muloyim oni,
Asragay hifzida doim oni.
Ruxparvar so'zi bo'lsun o'zidek,
Ruhgustar o'zi bo'lsun so'zidek .

Uning o'zbekcha va forsiy tilda yozilgan g'azallari o'ziga xos ravon ifoda uslubi, lafziy va ma'naviy qusurlardan xoliligi, badiiy vositalarga boyligi, poetik ohangdorligi bilan ajralib turadi.

Shu o'rinda yana bir holatni qayd etib o'tish lozim. G'aribiy ijodida ko'ngul timsoli muhim o'rin tutadi. Shoir devonida ko'ngilga murojaat tarzida yozilgan beshta g'azal mavjud. Bu g'azallarning deyarli barchasi ahli zamondan ozor ko'rgan, vafo istagan shoirning iztiroblari aks etgan misralar bilaan boshlangan:

Bir zamonliq hajr, holing qildi darham, ey ko'ngul,
Hajr ko'proq bo'lsa vah, netkungdur ul dam, ey ko'ngul.

Shoirning fikricha, odam avlodiga jon berish bilan undan vafo talab qilib bo'lmaydi. Odam nasli baribir vafo qilmaydi.Ul pariruxsor sening hamdamligingni istamasa ham unga hamdam bo'lishga intilishingdan ma'ni qani, biror zamon shod-xurram ko'rmadim deb ko'ngilga tanbeh beradi:

Odam avlodig'a jon berma tama' aylab vafo,
Kim vafo qilmaskishiga nasli odam, ey ko'ngul.
Ul pariruxsorachun hamdamlig'ingni istamas,
Istamak ne sudo'zingni anga hamdam, ey ko'ngul.
Go'yi g'am chekmakuchun maxluk, o'lubsenkim seni,
Ko'rmadim har zamone shodu xurram, ey ko'ngul.

G'azalning keyingi baytlarida shoir ul go'zalning begonaga aylanganligi, buning uchun g'am yemaslikni, zero, dahr aro husn ahli ko'pligini, sanam qanchalik zulm o'tkazmasin, uni tark etmaganligini ta'kidlaydi:

Tarki mehr aylabagar begona bo'ldi ul pari,
Husn axli dahr aro ko'ptur, yema g'am, ey ko'ngul.
Har necha zulm ayladi ul sho'x, tarkin tutmading,
Ishq atvori sengabordur musallam, ey ko'ngul.
Tinmading ishq ichra birdam to G'aribiydek meni,
Qilmading ushshoq, aro rasvoi olam, ey ko'ngul.

Shoirning ko'ngil timsoli aks etgan boshqa g'azallari ham mavzu ko'lami, fikr ifodalash uslubiga ko'ra bir-biridan deyarli farq qilmaydi.Shoirning "Forig' erdi bir necha kun ishqidin shaydo ko'ngul,Qaydin etti sen pari savdosini paydo, ko'ngul?" matla'li g'azalida ham ko'ngilga murojaat qilish bilan oshiq ichki kechinmalari, ruhiy holati hamda buing sababchisi bo'lgan yor tasviri aks etgan:

Bedilu devona bo'lsam do'stlar, ne aybkim,
Oldi mendin bir paripaykar malaksiymo, ko'ngul.
Xo'blarg'a boqmayu bermay ko'ngulkim, ishq apo,
Muncha kelturgan balo boshimg'a ko'zdur, yo ko'ngul.

Keyingi misralarda o'z ahvolini, ishq tufayli shu ahvolga tushib qolganligini tavsiflagan shoir o'quvchiga murojaat qiladi, o'zini ibrat qilib ko'rsatish bilan kitobxonni bu holga tushib qolishdan ehtiyot bo'lishga chaqiradi:

Desangizkim bo'lmag'aysiz men kibi rasvoi xalk,
Har vafosiz dilrabog'a bermangiz aslo ko'ngul.
Mushk ila teng etmangiz zulfinki hargiz qilmag'ay,
Ikki olamg'a aning bir torini savdo, ko'ngul.
Mehnatingdin qong'a evrulgay teshilib, la'ldin,
Gar meni bedilg'a bo'lsa, filmasal, xoro, ko'ngul.

G'azalning oxirgi baytida shoir o'ziga murojaat qiladi, hayotida qanchalik balolarga duch kelgan bo'lsa, ularning barchasi ko'ngil amriga quloq tutganligi tufayli sodir bo'lganligini, ishq yo'lida biror oshiqni ko'ngil o'zichalik rasvo qilmaganligini ta'kidlaydi:

Ey G'aribiy, ne balolarkim ko'nguldin ko'rmading?
Hech oshiqni bu yanglig' qilmadi rasvo, ko'ngul.

Muhokamalar va natijalar. Umuman olganda, Sharq mumtoz adabiyotini ko'ngil timsolisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Alisher Navoiy o'zining "Hayratul abror" dostonining "Ko'ngul ta'rifida" deb nomlagan 17-

bobida faqatgina Allohning yodi bilan yashaydigan insondagina haqiqiy ko‘ngul bo‘lishini va ugina “ahli dil” sanalishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Ko‘ngul timsoli mumtoz she’riyatimizda keng qamrovli, katta tadqiqotlarga manba bo‘lgulik mavzudir.

G’aribiy g’azallarida bundan tashqari dunyo, insoniy munosabatlarga shoirning munosabati o‘zgacha qiyofada namoyon bo‘ladi, shunga bog’liq holda yor, boda, ishq kabi ko‘plab so‘zlar keng ma’noda, ya’ni bir o‘rinda o‘z ma’nosida, boshqa o‘rinda esa majoziy ma’noda qo‘llanilgan. G’aribiy g’azallaridagi timsollar ma’nosini anglash uchun masalaga o‘sha davr nuqtayi nazaridan yondashish lozim bo‘ladi. Ma’lumki, Shoh G’arib Mirzo shoir bo‘lish barobarida islom dini qonun-qoidalari, tasavvuf ta’limotiga doir ilmiy-nazariy manbalardan yaxshi xabardor bo‘lgan. Jumladan, G’aribiyning

Bodadin parhez, ey sarvi gulandom aylama,
Bazm aro hardam meni xunoba oshom aylama,

– bayti bilan boshlanuvchi g’azalida shoirning voqelikni qay darajada idrok qilishi, badiiy tafakkuri, o‘ziga xos falsafiy dunyoqarashi, olamga va o‘zi sevgan yorga munosabati, yor va may timsollarining asl mohiyati aniq o‘z aksini topgan:

Lolaruxsorim, kel, oltun jomdin gulgun may ich,
Bu sarig’ ruxsor uza ashkimni gulfom aylama.
Senki kofir ko‘z bila toroj qilding aqlu din,
Boda ichmon deb, o‘zungni ahli islom aylama.
Tavba maydin ayla deb, har necha desa ahli zuhd,
Aylama zinhor, ey sarvi gulandom, aylama.
Juz g’amu anduh hosil yo‘qturur davron aro,
Kelu ichkil jomu yodi davri ayyom aylama.
Necha desam, boda ichmas vah netay yorab bu nav',
Ishq ahlin zoru husn ahlini xudkom aylama.
Ey G’aribiy jahd qilkim bo‘lg’ay ul oy bodano‘sh,
Yo‘q esa sen dog’i fikri bodayu jom aylama.

Devon adabiyotida “may”, “sharob”, “boda”, “jom”, “qadah”, “kosa”, “yor” , “lab” kabi so‘zlarning ÿz irfoniy lug’ati, o‘z ko‘chma ma’nolari bor. Shuning uchun hazrat Navoiy: “Sen gumon qilg’ondin o‘zga jomu may mavjud erur” deydi. Yana:

Jahon g’amiyu uzum bodasi gumon qilmang,
Ki zohir ahliga bu ma'ni etti bo‘yla zuhur.

Va lek ahli haqiqatqa may erur vahdat”, deydi. Ya’ni, haqiqat ahliga may Haq taoloning yakkayu yagonaligi fikri, ishqi va shavqidir. Ma’lumki, may mumtoz she’riyatda hayot zavqi va muhabbat ramzi bo‘lib keladi. Agar g’azalda ifodalangan fikrlarni o‘z ma’nosida tushuniladigan bo‘lsa, go‘yo mantiqsizdek bo‘lib qoladi. Chunki Shoh G’arib Mirzo o‘zi taqvodor bo‘lgani holda islom dini gullagan davrda yashab ijod qildi, shunday ekan uning o‘z sevgilisiga Lolaruxsorim, kel, oltun jomdin gulgun may ich, Bu sarig’ ruxsor uza ashkimni gulfom aylama.

Senki kofir ko‘z bila toroj qilding aqlu din, Boda ichmon deb, o‘zungni ahli islom aylama” deb murojaat qilishi o‘sha davr mezonlariga, diniy cheklovlarga ham to‘g’ri kelmasligi tabiiy edi. Shuning uchun g’azal talqiniga tasavvufiy nuqtayi nazardan yondashilsa, uning mohiyatini orisha boradi. Tasavvufda qadah-ko‘ngil, yor-olloh, may-ilohiy ishq sifatida tushuniladi. Ushbu izohlar vositasidagina g’azaldagi baytlar mohiyatini anglash mumkin bo‘ladi. Quyidagi g’azalda esa ishq ta’rifi, uning oshiq ko‘ngliga ozor berishi go‘zal tarzda ifodalanganligi ko‘zga tashlanadi:

Qayda, ey badxo‘, vafo xurdig’a mendek topilur,
Kim jafo ko‘p chekkan el, ko‘proq vafo qadrin bilur.
Xalq bori ayb etarlar bevafodur deb seni,
Qaysi bir majlisdakim husn ahlidin so‘z aytilur.

Shoirning fikricha, ishq yo‘liga kirgan oshiq qanchalik jafo ko‘rsa, shunchalik vafo qadrini anglay boradi. Go‘zallik egalari esa majlislarda mavzu sababi, bevafo degan tavsifga loyiq. Shoir ko‘nglidagi ohu fig’onlar qachonki yor yuziga ko‘z tushgandagina ozodlikka chiqadi. Yor esa ishq yo‘lida uning bandini qabul ham qilmaydi, yoki undan ayrilmaydi va ko‘ngulni telbalik darajasiga yetkazadi:

Parda olg’ach orazingdin chiqti ko‘nglum nolasi,
Bulbul afg’oni ne tong, har qaydakim, gul ochilur.
Jong’a yetgim telba ko‘nglum ilkidinkim ishq aro,
Ne mening bandim qabul aylar, na mendin ayrilur.
Ne ko‘ngul xushluq bila gasht aylayin bog’ ichrakim,

Ko‘ngluma bir gul firoqidin tikonlar sanchilur.

Shoirning ta’rifida ul yomon fe’lli yorning oshiqqa qiynoqlarni kamaytirish o‘rniga tobora oshirganligi, natijada oshiq ko‘z yoshlaridan har yoqqa muhabbat urug’lari sochilganligi o‘z badiiy ifodasini topgan:

Hech bilmasmen netay ul sho‘xi badxo‘ birlakim,
Har necha desam jafo oz qil, menga ko‘proq qilur.
Juz giyohi g’ussa ko‘yidin G’aribiy butmagay,
Garchi ashkingdin muhabbat tuxmi har yon sochilur.

Xulosa, qilib aytganda, mumtoz adabiyotimiz tarixida temuriy ijodkorlar orasida Shoh G’arib Mirzo G’aribiy ijodining o‘ziga xos o‘rganilmagan xususiyatlari bor ekanligi muhim ahamitga egadir.

Adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 6-tom. -Toshkent, 1990. 475-bet.
2. Adizova I. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). -Toshkent: “Fan”, 2009. -B.31.
3. Kulliyot [Matn] / B.Mashrab. - Toshkent: “Muharrir nashriyoti”, 2017. -B.14.
4. Ochilov E. Barhayot siymolar. -T.: “O‘zbekiston”, 2012. -B.20.

Nozgul SIDIQOVA
Buxoro muhandislik – texnologiya
instituti o‘qituvchisi

TILSHUNOSLIKDA PEREYONIMLARNING SHAKLLANISH ASOSLARI

Ushbu maqola pereyonimlar quruqlikda yurishga, suvda suzishga, havoda uchishga moslab yaratilgan harakatlanuvchi transport vositalarining atoqli nomlariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: *pereyonimlar, transport vositalari, leksik tizimi, lingvokulturologik, etimologiya, onomastik, leksik-semantik, morfologik.*

Статья посвящена всем известным названиям мобильных транспортных средств, которые предназначены для ходьбы по суше, плавания в воде, полета в воздухе.

Ключевые слова*: переонимы, носители, лексическая система, лингвокультурологический, этимологический, ономастический, лексико-семантический, морфологический.*

This article is devoted to the well-known names of mobile vehicles, which are designed for walking on land, swimming in water, flying in the air.

Key words*: pereonyms, carriers, lexical system, linguoculturological, etymological, onomastic, lexical-semantic, morphological.*

Kirish. Dunyo tilshunosligida turli tizimdagi tillarning leksikoni, onamastikasini qiyosiy aspektda o‘rganishga bag‘ishlanayotgan tadqiqotlar salmog‘i ortib bormoqda. Turli onomastik birliklar qatorida pereyonimlarning tilda leksik-semantik, milliy-madaniy, badiiy matnda esa lingvostilistik, poetonimlik xususiyatlarini, bir tildan boshqa bir tizimdagi tilga o‘zlashish omillarini, tarjimada o‘z asliyatini saqlab qolish sabablarini aniqlash hozirgi tilshunoslik ilmi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

O‘zbekiston milliy yuksalish yo‘lida dadil qadamlar bilan oldinlab borayotgan “Bugungi globallashuv davrida har bir mustaqil davlat o‘z milliy manfaatini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiy” [1] ekani tufayli mamlakatimizda til siyosati bilan bog‘liq keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o‘zbek tilshunosligi va chog‘ishtirma tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ham yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi, tilni antroposentrik nuqtayi shazardan o‘rganish zururiyati kuchaydi. Oldimizga qator vazifalar bilan birga o‘zbek tilida paydo bo‘layotgan o‘zlashma so‘zlar tarkibida pereyonimlarni ham aniqlash vazifasini qo‘ydi. O‘zbek tilshunosligida ayni paytgacha pereyonimlarning leksik-semantik, lingvokulturologik xususiyatlari, etimologiyasi monografik tadqiq obyekti bo‘lmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi, 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli, 2017-yil 17-fevraldagi “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-son Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi 984-sonli “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqidagi”, 2020-yil 29-yanvardagi 40-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari ma’lum darajada xizmat qiladi.

Asosiy qism. Turli onomastik birliklar qatorida pereyonimlarning tilda leksik-semantik, milliy-madaniy, badiiy matnda esa lingvostilistik, poetonimlik xususiyatlarini, bir tildan boshqa bir tizimdagi tilga o‘zlashish omillarini, tarjimada o‘z asliyatini saqlab qolish sabablarini aniqlash hozirgi tilshunoslik ilmi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Jahon xalqlarining til tizimida pereyonimlar quruqlikda yurishga, suvda suzishga, havoda uchishga moslab yaratilgan harakatlanuvchi transport vositalarining atoqli nomlari sifatida alohida leksik tizimni tashkil qiladi. Ularning til va nutqdagi o‘rni, lingvokulturologik asosi, etimologiyasi, tarixiy va zamonaviy qatlami, yasalish xususiyatlari hamda badiiy matnlarda qo‘llanib kelishi bilan bog‘liq leksik-semantik, uslubiy xosliklarini aniqlash til tarixini o‘rganishda, uning ijtimoiy maqomini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oxirgi yillarda o‘zbek tilining onomastik ko‘lamini monografik tarzda tadqiq etgan tilshunoslardan biri Y.I.Avlakulovdir. U pereyonimlarning turlarini o‘zining izlanishlarida ko‘rsatib o‘tadi [2].

Pereyonimlar – yunoncha – “periov” so‘zidan olingan bo‘lib, “harakatlanish vositasi” degan ma’noni bildiradi. Onomastik birliklarning ushbu turiga har qanday transport vositalarining alohida donasiga berilgan atoqli otlar kiradi.

Transport (lot. transporto — tashiyman) — ijtimoiy moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i, yuklarni va yo‘lovchilarni bir joydan ikkinchi joyga eltishni, mamlakat viloyat va tumanlari, korxonalari, xalq xo‘jalik tarmoqlari o‘rtasida, shuningdek, mamlakat ichida ayirboshlash va aloqani ta’minlaydi.

Quyidagi transportlar mavjud: yer usti transporti (temir yo‘l, avtomobil, quvur yo‘llari), suv transporti (dengiz va daryo), havo transporti (aviasiya). Vazifasiga ko‘ra ichki ishlab chiqarish (sanoat) transportiga va umumiy foydalaniladigan transportga bo‘linadi. Bu transport turlari bilan bir qatorda shaxsiy foydalaniladigan avtotransportlar ham mavjud. Vazifasi xususiyatiga ko‘ra yo‘lovchilar va yuk tashuvchi transportiga bo‘linadi. Ichki ishlab chiqarish transporti bevosita moddiy ne’matlar ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qiladi va korxona ishlab chiqarish vositalarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Umumiy foydalaniladigan transport (yer usti, suv va havo) ijtimoiy ishlab chiqarishda muhim sohani tashkil etadi. Umumiy foydalaniladigan transportining moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i sifatida paydo bo‘lishi sanoat to‘ntarishi bilan bog‘liq.

Mamlakatlar o‘rtasida tashqi savdoning o‘sishi dengiz kemachiligining rivojlanishiga turtki berdi. Avtotransport 19-asrning oxirida paydo bo‘ldi, 20-asrning 20-yillarida qisqa masofaga yuk va yo‘lovchilar tashishni amalga oshirib, temiryo‘l va daryo transport bilan raqobat qila boshladi. Fuqaro havo transporti 20-asrning 1-choragida vujudga keldi.

Muhokamalar va natijalar. Transport vositalari havoda yuruvchi, yer ustida, yer ostida, rels ustida yoki suv ustida, suv tagida harakatlanishi bilan farqlanar ekan shunga ko‘ra, pereyonimlarni quyidagi uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Yer ustida va ostida harakatlanuvchi (quruqlikda yuradigan) transport vositalari nomi: “Mersedens-Bens”, “Damas”, “Tiko”, “Neksiya”, “Matiz”, “Lasetti”, “Volga”, “Jiguli”, “Maserati”, “Tayota-Prado”, “Maybach”, “Ferrari”, “Ford”, “Chevrolat Kaptiva” (engil avtomobillar), “Toshkent metrosi”.

2. Suvda suzuvchi transport vositalari nomi. Bu turdagi atoqli otlar onomastikada “nautonim”lar deb yuritiladi (yunoncha “nautuxos” – flot, “onoma” – atoqli ot). “Brig”, “Karavella”, “Shlyupka”, “Frechat” kabi transport kemalari, harbiy kemalar nomi shu guruh birliklariga kiradi. Suvda suzuvchi transport vositalari tovarlarni, yo‘lovchilarni ma’lum suv havzasida harakatlantirish uchun mo‘ljallangan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri maqsadiga, tizimli xususiyatlariga, shuningdek, texnik imkoniyatlariga qarab suv transporti o‘ziga xos kichik tip va sinflarga ega.

Yo‘lovchi suv transporti - bu odamlar guruhlarini bir marshrutdan ikkinchisiga suv yo‘li orqali olib boradigan sayyohlik yoki marshrut kemasi. Bortida yuklangan kemalar tashish imkoniyatiga va mahsulot turiga qarab o‘z turlariga ega.

Suvda suzuvchi transport vositalari maxsus vakillari bu ixtisoslashgan turistik obyektlar: yaxtalar, laynerlar, kruiz kemalari, qayiqlar. Ular uzoq vaqt ochiq dengizda bo‘lishga qodir va bortdagi yo‘lovchilarni kerakli narsalar bilan ta’minlaydilar. Shuningdek, suv transportining alohida klassik strategik vazifalarni bajaradigan va odamlar va maxsus texnikalarning mutlaqo ixtisoslashgan tashuvchilari bo‘lgan harbiy super va dengiz osti kemalari deb nomlanishi kerak.

Suvda suzuvchi transport vositalari - suv yo‘llari orqali yuk va yo‘lovchilar tashishda foydalaniladigan transport turi. Ular tabiiy (daryo, ko‘l, dengiz va okeanlar) yoki sun’iy (kanal, suv omborlari) suv yo‘llari bo‘lishi mumkin. Kema asosiy transport hisoblanadi.

Suvda suzuvchi transport vositalari tarixi Qadimgi Misrdan boshlanadi. Qit’alararo temir yo‘llar yaratilgan 19-asrning ikkinchi yarmigacha transportning eng muhim turi suv (ham daryo, ham dengiz) bo‘lgan. Va bugungi kunda ushbu transport turi muhim rol o‘ynaydi: dunyodagi yuk aylanmasining 60 dan 67 foizigacha daryo va dengiz kemalariga to‘g‘ri keladi.

3. Havo transportini nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham havo transportini o‘zgartirish imkonini berdi. Shuni ta’kidlash kerakki, har doim insonning harakatlanish vositasi alohida dinamik tizim bo‘lgan. U ilmiy sohada turli kashfiyotlar va yutuqlarning birinchi iste'molchisiga xizmat qildi. Ko‘p holatlarda, u ilg‘or ishlanmalarning mijozlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Transport vositasisiz turli tadqiqot sohalarini rivojlantirish qiyin. Ularning taraqqiyoti uchun jismoniy va termodinamik o‘zgarishlar natijalari qo‘llaniladi. Transportni rivojlantirishda fizik va matematiklar sezilarli ishtirok etishadi Mexanik, kimyogar, astronom, geolog, biolog va boshqa ko‘plab tadqiqotchilar muammoni hal qilishda o‘z loyihalarini taqdim etishadi.

Transportning rivojlanishi, shu jumladan havo, mashinasozlik va metallurgiya, qurilish mexanikasi va avtomatlashtirish, kosmonavtik va elektronika sohasida amalga oshiriladigan amaliy tadqiqot natijalariga

hissa qo‘shadi. Aviatsiya turli mintaqalar o‘rtasidagi aloqalarini amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan eng yosh va tezyurar yo‘nalish hisoblanadi. Shu bilan birga, bu eng qimmat sanoat.

Havo transporti Rossiya mamlakatning milliy iqtisodiyotining muhim qismidir. U bilan dori-darmonlar va pochta, sanoat va oziq-ovqat mahsulotlari eng qiyin burchaklarda yetkazib beriladi.

Aviatsiya aviakompaniyaning eng mukammal rejimi ekanligini aytishga arziydi. Aviatsiya tufayli insoniyat turli makonlarga kirishga muvaffaq bo‘ldi.

Havo transporti, shubhasizki, bir qator afzalliklarga ega. Birinchidan, u yuqori tezlikka ega. Shu bilan birga, yo‘lovchilarni tashishda muhim manevrorliklarga erishiladi. Bundan tashqari, zamonaviy aviakompaniyalar ancha uzoq masofalarda to‘xtovsiz parvozlarni ta’minlaydi. Havoda harakatlanuvchi transport vositalari (samolyot, vertolyot, havo sharlari va h.z.) nomlari: “A – 310 samolyoti”, “Il – z86 samolyoti”, “Il – 76 samolyoti” kabilar.

Pereyonimlar turiga shartli ravishda, qishloq xo‘jaligi, qurilish texnikasiga berilgan atoqli otlarni ham kiritish mumkin: “Keys”, “Belorus'”, “Altay” kabi.

Aytib o‘tish joizki, pereyonimlar jahon tilshunosligida ham, o‘zbek tilshunosligida ham kam tadqiq qilingan mavzulardan hisoblanadi.

Ingliz, rus va o‘zbek pereyonimlarining leksik tizimi, etimologiyasi, nominatsion-motivatsion, lingvomadaniy, semantik-grammatik, yasalish va tarjima xususiyatlari aniqlangan. Pereyonimlarning til birligi sifatida nutqda qo‘llanish xususiyatlari jahon tilshunosligining eng so‘nggi yutuqlari asosida dalillangan.

Ingliz, rus va o‘zbek pereyonimlari bo‘yicha to‘plangan materiallar, umumlashma va xulosalar hozirgi qiyosiy tilshunosligimiz uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi, “Leksikologiya”, “Matn lingvistikasi”, “Hozirgi o‘zbek tili”, “Qiyosiy tilshunoslik” kabi fanlardan yaratilajak yangi darslik va qo‘llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan.

Ingliz, rus va o‘zbek tilidagi pereyonimlarga xos leksik-semantik va dingvokulturologik xususiyatlari, yasalish turlari, o‘zlashish omillarining aniqlanganligi turli tizimdagi tillarga aloqador boshqa onomastik birliklarni ham qiyosiy-tipologik, lingvomadaniy aspektda o‘rganish imkonini berishi bilan belgilanadi.

Oliy va o‘rta maxsus, umumta’lim tizimida onomastik birliklar tizimining til va nutqdagi o‘rnini anglash bo‘yicha maxsus kurs va seminarlar o‘tish, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Ingliz tili”, “Rus tili” fanlarining onomastika, leksikologiya qismlari va “Qiyosiy tilshunoslik” fanlaridan darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida xorijiy tillarni o‘rganishga tashviqni kuchaytirish uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Xulosa. Keltirilgan fikrlar va tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, pereyonimlar masalasi tilshunoslikda zamonaviy onomastikaning yo‘nalishi sifatida til va nutq sathini belgilab beradi. Qolaversa, pereyonimlar tadqiqi nafaqat tilshunoslikning, balki, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir. Kelajakda pereyonimlarga oid izlanishlarning soni ortishi onomastikaning rivojlanishi bilan bir qatorda jamiyat iqtisodiyotida tilning o‘rnini belgilab beradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // www.lex.uz
2. Avlakulov Y.I. (2017). Onomastic degree of Uzbek language. –Tashkent: “Science and Technology”. –p. 138.
3. Бегматов Э. Антропономика узбекского языка: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 27 с.
4. Begmatov E. Kishi nomlari imlosi. – Toshkent: “Fan”, 1970. – 116 b.
5. Begmatov E., Do‘simov Z., Nafasov Z., Qoraev S. O‘zbek nomshunosligi: tadqiq yo‘shnalishi va usullari. – Xiva,1991. – № 1, 12 b.
6. Сидиқова H.H. Study of pereonyms in the Uzbek language. –India, 2021. –1196 p.
7. Begmatov E., Uluqov N.M. O‘zbek onomastikasi terminlari izohli lug‘ati. – Namangan, 2006. – 88 b.
8. Begmatov E., Kenjaeva S. O‘zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent: “Fan”, 2007. – 95 b.
9. Суперaснкая А.Б. Обшая теория имени собственного. – Москва: “Наука”, 1973. -п. 159.
10. Сизранова Г.Ю. Ономастика. – Толятти: ТГУ, 2013. – п. 248.

Sitorabegim MUXAMEDJANOVA
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi

TALABALARDA KASBIY FAOLIYATGA OID INGLIZ TILINI O‘QITISH JARAYONIDA KOMMUNIKATIV MADANIYATNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Ushbu maqola bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirishda kasbiy faoliyatiga oid ingliz tiliga tayyorlashda tavsiya etilayotgan interfaol metodlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *kommunikativ madaniyat, interaktivlik, bo‘lajak mutaxassislar, nofilologik oliy ta’lim muassasalar, interfaol metodlar.*

В данной статье описаны рекомендуемые интерактивные методы подготовки английского языка к профессиональной деятельности в развитии коммуникативной культуры будущих специалистов высшего образования.

Ключевые слова: *коммуникативная культура, интерактивность, будущие специалисты, нефилологические вузы, интерактивные методы.*

This article describes the recommended interactive methods of preparing the English language for professional activity in the development of the communicative culture of future specialists in higher education.

Key words: *communicative culture, interactivity, future specialists, non-philological universities, interactive methods.*

Kirish. Barcha zamonlarda til bilish muhim bo‘lib hisoblangan. Ayniqsa, hozirgi, ilm-ma’rifat, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, axborot va innovatsion texnologiyalar asrida uning ahamiyati yanada oshib bormoqda. Ilm-u fan yutuqlaridan boxabar bo‘lish, turli sohalarda qo‘llaniladigan zamonaviy texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirish, xorijiy hamkor tashkilotlar bilan o‘zaro tajriba almashish, davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasidan kelib chiqib, turli soha mutaxassislarining xorijiy tillarda o‘z kasbiy sohalarida erkin muloqot yurita olishlari kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. Mamlakatimizda kechayotgan globallashuv sharoitida ilg‘or pedagogikani rivojlantirish, OTMning nofilologik yo‘nalishlarida xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, fan-texnika va uning ishlash texnologiyasini mukammal egallagan mutaxassislarni tayyorlash masalalari alohida o‘rin egallaydi. “Kelgusi yilda fizika va chet tillarini o‘rganishning ustuvor yo‘nalish etib belgilanishi, shu maqsadda kelgusi yilda ta’limning barcha bo‘g‘inlarida ushbu fanlarni o‘qitish sifatini tubdan oshirish lozimligi” bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy va madaniy aspektda kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modelini interaktivlik, lisoniy tafakkur va kommunikativlik mezonlari integrallashuvi asosida takomillashtirish kabi muhim vazifalarni belgilaydi.

Ta’lim tizimida olib borilgan islohotlar natijasida uzluksiz ta’limda chet tillarni samarali o‘qitish tizimi joriy etildi. Amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda bugungi kunda ingliz tilini samarali va tizimli o‘qitish sifatini oshirish zarurati mavjud. Binobarin, xalqaro ta’limiy dasturlar qamrovining jadallik bilan ortib borishi ham zamonaviy sharoitda talabadan ingliz tilini nafaqat kasbiy nuqtayi nazardan, balki muloqotning akademik sohasi sifatida foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishni talab etadi.

Nofilologik yo‘nalishlarda ishlashning amaliy tajribasi bizni yuqoridagi fikrlarni hisobga olishga va lingvodidaktika masalalarini ko‘rib chiqishga undaydi. Ma’lumki, lingvodidaktika til o‘rganishning umumiy nazariyasidir [5, 118]. U didaktik maqsadlar, vazifalar va o‘rganilayotgan materialning xususiyatiga qarab tillarni o‘qitishning umumiy qonuniyatlarini, ma’lum bir tilni o‘qitishning mazmuni, uslubi va vositalarini o‘rganadi. D.V.Bulatovaning fikriga ko‘ra, didaktika chet tillarini o‘qitish nazariyasining metodologik asosi sifatida namoyon bo‘ladi [4, 48]. Shundan kelib chiqib, talablar asosida, kasbiy ehtiyojlar va ijtimoiy ta’limni hisobga olgan holda chet tillarni o‘qitish metodikamizni takomillashtirishimiz kerak.

Muhokamalar va natijalar. Bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirishda ingliz tili darslarining imkoniyatlari juda keng hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tili darslarida, bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassis kadrlarning kasbiy faoliyatiga oid ingliz tilidagi kommunikativ madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlardan foydalanish yuqori natija beradi. Quyida ana shunday interfaol metodlardan ingliz tili darslarida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berilgan [8, 66].

Darsning texnologik xaritasi oldindan loyihalashtirilgan bo‘lib, darsning turli bosqichlarida har xil interfaol metodlardan foydalanish yo‘riqnomasi shakllantiriladi.

Interfaollik asosida darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham talaba chetda qolmaydi, ya’ni ular ko‘rgan, bilgan, o‘ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Talabalar hamkorlikda ishlashda, mavzu mazmunini bilish, o‘zlashtirishda o‘zlarining shaxsiy hissasini qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [6, 109]. O‘zaro bilimlar, g‘oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo‘ladi. Bunday holatlar o‘zaro samimiylikni ta’minlaydi, yangi bilimlar olish, o‘zlashtirishga havas ortadi,

shu jarayonda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlash, o‘zaro do‘stona munosabatlar vujudga keladi [7, 8-12]. Buning tarbiyaviy ahamiyati katta. Demak, interfaol darslarni tashkil qilishda o‘quv jarayonida yakka tartibda va juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o‘yinlar, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalanish mumkin.

Ingliz tili fanini o‘qitish jarayonida talabalarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. **Developing of communicative culture technology (DCCT)** – kommunikativ madaniyat texnologiyasini rivojlantirish. Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli bo‘lib, mumkin qadar muammoli mavzularni qisqa vaqtda sifatli va tizimli o‘zlashtirishga qaratilgan. Metodni qo‘llash texnologiyasining mohiyati shundan iboratki, bunda bo‘lajak oliy ma’lumotli, mutaxassis kadrlarning, kasbiy faoliyatiga oid ingliz tilidagi kommunikativ madaniyatini rivojlantirishning turli tarmoqlari bo‘yicha innovatsin axborotga ega bo‘ladi. Ayni paytda ularning alohida elementlari muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari belgilanib, guruhning jamoaviy muzokara mobaynidagi fikrlar asosida qaror qabul qilinadi. Bu esa bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassis kadrlarning kasbiy faoliyatiga oid ingliz tilidagi kommunikativ madaniyatini rivojlantirishga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

2. **Portfolio of pedagogical ideas of professional development (PPIPD)** – mutaxassislarni rivojlantirishning pedagogik fikrlar portfoliosi. Bunda, fikrlash jarayonida ma’lumotni oliy ma’lumotli mutaxassis kadrlar idrok qilish uchun qulay shaklda – mantiqiy va assosiativ sxemalarda aks ettirishning grafik usuli bo‘lib, murakkab mavzularni maksimal o‘zlashtirish va tushunish, loyihalar yaratish va o‘quv nazoratlarga a’lo darajada tayyorlanishga yordam beradi. Ushbu metod mutaxassislarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirish jarayonida mustaqil fikrlashiga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishga, hamda ularda kasbiy faoliyatiga oid ingliz tilidagi kommunikativ madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, odatda, bunday metodlar, o‘quv mashg‘ulotlarda bo‘lajak mutaxassislarni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘tkaziladi.

3. **Developing language skills strategy (DLSS)** – tilni bilish strategiyasini rivojlantirish. Ushbu metod, tilni bilish strategiyasini rivojlantirish, og‘zaki bayon qilishning interfaol metodi bo‘lib, bo‘lajak oliy ma’lumotli, mutaxassis kadrlarning kasbiy faoliyatiga oid, ingliz tilidagi kommunikativ madaniyatini rivojlantirishdan kelib chiqqan holda bilimlarni asta-sekin o‘zaro fikrlashib o‘zlashtirishlariga olib keluvchi puxta o‘ylangan savollar tizimidir. Takrorlash, mustahkamlash va yangi bilimlarni bayon qilishda qo‘llaniladi. Bu savollarni qo‘llash jarayonida pedagogning bitta savoliga talabalar bitta aniq to‘g‘ri javob berishlari kerakligi nazarda tutiladi [9, 1416-1421].

Xulosa. Fikrimizni yakunlar ekanmiz, bo‘lajak oliy ma’lumotli mutaxassislarning kommunikativ madaniyatini rivojlantirishda kasbiy faoliyatiga oid ingliz tiliga tayyorlashda, yuqorida tavsiya etiltgan interfaol metodlardan foydalanish o‘qitishning zamonaviy texnologiyalaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 32 (792) son, 2017. 167-169-b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori. https://lex.uz/docs/3765586

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Elektron resurs:http://www.uza.uz/oz/…prezidentimiz majlisga-navbatdagi-murojaatnomasi-29 dekabr. Murojaat sanasi: 03.01.2021-yil.

4. Булатова Д. В. Теоретические основы курса обучения иностранному языку в неязыковом вузе. Автореф. дисс.д.пед.наук. – М., 1999. –48 стр. https://www.science-ducation.ru/ru/article/view?id

5. Жданько О.И Методика формирования профессионально ориентированной лексической компетенции обучающихся в техническом вузе: дис. … кан. пед. наук. -Нижний Новгород, 2016. –118 стр.

6. Мухамеджанова С.Дж. Технологии развития коммуникативности у будуших спесиалистов неязикових вузов на основе обучения английского язика. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. -Buxoro, 2016. 2-son. 107-110-b.

7. Muxamedjanova S.Dj. Texnika Oliy o‘quv yurtlarida chet tilini o‘qitish jarayonida talabalarda kommunikativ madaniyatni shakllantirish. Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘. Ilmiy-metodikaliq jurnal №2. Nekis, 2019. 8-12 b.

8. Muxamedjanova S.Dj. Talabalarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning psixologik omillari. Psixologiya. Ilmiy jurnal. Buxoro, 2019-yil. 4-son. 62-67-b.

9. Mukhamedjanova Sitorabegim. Development of communicative culture of ESP students in the process of teaching english language. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 2020. Vol. 10 (11). -P. 1413-1418.

Xolboy IBRAGIMOV
Z.K.SALIMOV

SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ SHAHRI UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA INTENSIV METODLARNI QO‘LLASH

Maqolada umumiy o‘rta ta'lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishning intensiv metodlarini qo‘llashning mazmun-mohiyati to‘g‘risidagi tushunchalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *maktab, noan’anaviy o‘qitish, innovatsiya, strategiya, o‘qitish, o‘quvchi, ilm-fan, ta'lim, tarbiya, bilim, tizim, sifat, samaradorlik.*

В статье освещены понятия содержания и сущности использования интенсивных методов преподавания английского языка в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: *школа, нетрадиционное обучение, инновация, стратегия, обучение, учащихся, наука, образование, воспитание, знания, система, качество, эффективность.*

The article highlights the concepts of the content and essence of the use of intensive methods of teaching English in general secondary schools.

Key words: *school, non-traditional, teaching, innovation, strategy, learning, student, scie nce, education, upbringing, knowledge, system, quality, efficeiency.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi – bu ta’lim va tarbiya berishning yagona maqsadga muvofiq jarayonidir. Shuningdek, olingan bilim, ko‘nikma, qadriyat, funksiyalar, topish va amalga oshirishga qaratilgan tajriba va malakalar o‘zgaruvchanlik, hamda individualizasiyasidir. Agar biz pedagogik lug‘atga murojaat qilsak, quyidagi ta’rifni topamiz: “Ta’lim jamiyatning ajralmas qismi va shu bilan birga ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir”. Bu shuni anglatadiki, ta’lim doimo jadal rivojlanib boradi va har doim jamiyat shakllantiradigan maqsad va vazifalarga javob berishi kerak.

Asosiy qism. Yaqin o‘tmishda ingliz tilini o‘qitishda asosan grammatikaga e’tibor berilardi. O‘qish va matnlar tarjimasiga, ba’zan esa bir xillikni biroz bo‘lsada jonlashtirish uchun “topik”larni yod olish hamda diktant yozishga juda ko‘p vaqt ajratilardi va mazkur jarayon mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Bugun til bozorida asosiy taklif iste'molchining talabiga qarab shakllantirilmoqda. Lingvistika va xorij tillarini o‘qitish metodikasi bo‘yicha yetuk mutaxassis S.G.Ter-Minasovaning fikricha, “Bugungi kunda tilni o‘qitish funksionnallashib, integratsiya jarayonlarining kuchayishi natijasida xorij tillari, xususan, ingliz tilini o‘rganish yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Ammo zamonaviy til o‘rganuvchilarni tilning tarixi yoki uning nazariyasi qiziqtirmaydi. Ingliz tili ular uchun hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lib qoldi” [1].

Ta’lim muassasasi o‘quv jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsni didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqdir [2].

Barkamol avlodga ta’lim–tarbiya berish va malakali kadrlarni tayyorlash ko‘p jihatdan o‘qituvchi-pedagogga bog‘liq. Malakali pedagog yuksak kasbiy mahorat, bilim–ko‘nikmalar, axborot kommunikasion texnologiyalardan foydalana oladigan, ta'lim texnologiyalarini o‘quv mashg‘ulotlarida maqsadli qo‘llaydigan, o‘quv mashg‘ulotining mazmuniga, sifatiga javob beradigan ma'sul shaxsdir. Ta’lim oluvchilarni faollashtiradigan metodlar bilan o‘quv mashg‘ulotlarni boyitish ularni o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayonining oqilona tashkil qilinishini, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchining qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonidagi faolligini muttasil rag‘batlantirib borish talab qilinadi [3].

Muallif o‘z ishida, zamonaviy darsda o‘qituvchi – hukmron, axborot beruvchi yagona manba emas, balki K.Rojeres (AQSh) ta’kidlaganidek fasilitator, ya’ni talabalarni mustaqil o‘qib-o‘rganishlarini osonlashtiruvchi, ularga qulay sharoit yaratuvchi shart bo‘lishi lozim deb ta’kidlagan [4].

Muallif, ingliz tilining Britaniya va AQSh variantlaridagi grammatik farq fonetik, leksik va boshqa jihatdan qaralganda juda oz va sezilarsiz darajada ekanligini o‘rgangan. Britaniya tadqiqotchilari 400 yil avval “Yangi dunyolarga ingliz tili” deb nomlanuvchi kulguli tilni olib kirganidan so‘ng ko‘p narsa o‘zgarib ketdi. Odamni chalg‘ituvchi qism lug‘at boyligi bo‘lib, ayni inglizcha so‘zlar AQShda o‘zgacha ma’noni anglatadi [5].

Ushbu adabiyotda respublikamiz oliy o‘quv yurtlari, nodavlat o‘quv muassasalarida bugungi kunda keng qo‘llanilayotgan ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy metodlari aniqlanib, fundamental, lingvososiomadaniy, kommunikativ metodlar qiyosiy tahlil etilgan, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rsatilgan [6].

Muhokamalar va natijalar. Umumta'lim maktablarida olib borilgan tadqiqot ishimizning birinchi bosqichida tizimli dastur materiallarini o'rganish davrida o'quvchilarning ingliz tili faniga qiziqishlarini orttirish samarali natijalar berishi aniqlandi.

2010-2020-o'quv yillari davomida pedagogik tajriba–sinov bosqichlari va uning yakunlovchi turi o'tkazildi. O'tkazilgan pedagogik tajriba–sinovlar Termiz shaxridagi 11- hamda 13 - sonli umumta'lim maktablarida 5 "A", 6 "A", 7 "A" sinflari tajriba, 5 "B", 6 "B", 7 "B" sinflari nazorat sinflari qilib tanlandi.

Tajribali o'qitish olib borilgan umumta'lim maktablarining tayanch tajriba (5 "A", 6 "A", 7 "A" sinflari tajriba, 5 "B", 6 "B", 7 "B" sinflari nazorat) sinflaridagi natijalar, nazorat sinflardan olingan natijalar bilan solishtirilib borildi.

Tajriba-sinov ishlarida 366 nafar o'quvchi ishtirok etdi: shundan tajriba sinflarida 180 nafar va nazorat sinflarida 186 nafar o'quvchi.

Mashg'ulotlar dissertatsiyaning metodik ishlanmalari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarining ingliz tili fani o'qituvchilari tomonidan olib borildi.

Tajriba va nazorat sinfi o'quvchilarining faoliyatini yakuniy darajasini o'rganish uchun asoslovchi va yakunlovchi bosqich natijalari qiyosiy tahlil etildi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari va olingan natijalar asosida quyidagicha xulosaga keldik:

1. Ingliz tili fanini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan model biz ilgari surgan farazni to'liq tasdiqlaydi.

2. Ishlab chiqilgan model va didaktik shart-sharoitlarga muvofiq ingliz tili fanini rivojlantirishning samaradorlik mezonlari belgilandi.

3. O'tkazilgan shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari asosida mezonlar bo'yicha quyidagi natijalar qayd etildi:

a) kognitiv mezon – ingliz tili bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasi quyidagi: tajriba sinflarida: sifat ko'rsatgichi – 28,75 % dan 36,45% gacha;

o'zlashtirish ko'rsatgichi - 70,84% dan 100% gacha; o'rtacha ball – 3,2 dan 4,05 gacha o'sdi; nazorat sinflarida: sifat ko'rsatgichi – 24,55 % dan 30,28% gacha; o'zlashtirish ko'rsatgichi – 69,25% dan 98% gacha; o'rtacha ball – 3,00 dan 3,95 gacha o'sdi (1-jadval).

1-jadval. Tajriba va nazorat sinflarida ingliz tili fani bo'yicha bilimlarning rivojlanganlik darajasi

O'quv yili	Тажриба синфи			Nazorat sinfi		
	Sifat ko'rsatkichi, %	O'zlashtirish ko'rsatkichi, %	O'rtacha ball	Sifat ko'rsatkichi, %	O'zlashtirish ko'rsatkichi, %	O'rtacha ball
2019-2020	28,75	70,84	3,2	24,55	69,9	3,0
2020-2021	36,45	100	4,05	30,28	98	3,95

b) ehtiyoj-motivatsion mezon – o'quvchilarda qadriyatli yo'nalganlikning rivojlanganlik darajasi quyidagi tarzda taqsimlandi:

2-jadval. Tajriba va nazorat sinflarida ingliz tili faniga bo'lgan qiziquvchanlikning rivojlanganlik darajasi

O'quv yili	Tajriba sinfi			Nazorat sinfi		
	Yuqori, %	O'rta, %	Past, %	Yuqori, %	O'rta, %	Past, %
2019-2020	17,7	69,6	12,7	13,5	69,3	17,1
2020-2021	21,6	71,9	6,6	17,1	68,5	14,3

Tajriba sinfida: yuqori daraja 17,7% dan 21,6% gacha (3,9% ga) oshdi; o'rta daraja 69,6% dan 71,9% gacha (2,3% ga) oshdi; past daraja 12,7% dan 6,6 gacha (6,1% ga) kamaydi; nazorat sinfida: yuqori daraja 13,5% dan 17,1% gacha (3,6% ga) oshdi; o'rta daraja 69,3% dan 68,5% gacha (0,8% ga) pasaydi; past daraja 17,1% dan 14,3 gacha (2,8%ga) pasaydi (2-jadval).

d) operasion-amaliy mezon – asoslovchi tajriba-sinov ishlari natijalari bilan taqqoslaganda kasbiy-ahamiyatli sifatlar rivojlanish darajasi tajriba sinfi o'quvchilarida 3,33 balldan 4,65 ballgacha (1,32 ballga), nazorat sinfi o'quvchilarida 3,27 balldan 3,51 ballgacha (0,24 ballga) o'sdi (3-jadval).

3-jadval. Tajriba va nazorat sinflarida kasbiy-ahamiyatli sifatlarning rivojlanish darajasining qiyosiy natijasi

O'quv yili	Tajriba sinfi	Nazorat sinfi
2019-2020	3,33	3,27
2020-2021	4,65	3,51

Shunday qilib, nazorat sinfi bilan taqqoslaganda tajriba sinfi natijalarida sezilarli o‘sish qayd etildi.

Bilim, ko‘nikma va malakalar sifati tahlili baholash mezonlaridan foydalangan holda amalga oshirildi: o‘zlashtirish, avtomatlashgan holga o‘tish, ilmiylik va tushunchalarni o‘zlashtirishning to‘liqligi sifati.

Yuqoridagi mezonlar samaradorlik koeffisienti yordamida asoslangan bo‘lib, ularning mohiyati ko‘rib chiqilayotgan vaziyatda birdan oshib ketgan, bu esa joriy etilayotgan o‘quv yo‘nalishlarining zamonaviylariga nisbatan samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O‘qitishni maqbullashtirishning ishlab chiqilgan yo‘nalishlari samaradorligi Styudent t-mezonidan foydalangan holda baholanib, olib borilgan tadqiqot natijalari statistik ahamiyatga ega va tasodifiy emasligini ko‘rsatdi.

Termiz shaxrining 11-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘tkazilgan tajriba sinov va nazorat sinflarida o‘zlashtirganlik darajasi nazorat sinflarida 67 %ni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba sinov sinflarida bu ko‘rsatgich 90 %ni tashkil etdi (4-jadval).

4-jadval. Termiz shahar 11-maktab o‘quvchilari tajriba-sinov va nazorat sinflarida ingliz tilini o‘zlashtirganlik darajasi

Sinflar	Tajriba-sinov sinfi (A sinf)					Nazorat sinfi (B sinf)				
	O‘quvchi soni	Yaxshi baho	O‘rta baho	Past baho	O‘zlash-tirish, %	O‘quvchi soni	Yaxshi baho	O‘rta baho	Past baho	O‘zlash-tirish, %
5	33	26	3	4	84	28	9	8	11	60,7
6	27	20	5	2	92,5	29	10	9	10	65,5
7	25	19	4	2	92,0	31	13	10	8	74,1
Jami	85	65	12	8	90,0	88	32	27	29	67,0



Termiz shahrining 13-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida o‘tkazilgan tajriba-sinov va nazorat sinflarida o‘zlashtirganlik darajasi nazorat sinflarida 64,2 %ni tashkil etgan bo‘lsa, tajriba sinov sinflarida bu ko‘rsatgich 89,4 %ni tashkil etdi (5-jad).

5-jadval. Termiz shahar 13-maktab o‘quvchilari tajriba-sinov va nazorat sinflarida ingliz tilini o‘zlashtirganlik darajasi

Sinflar	Tajriba-sinov sinfi (A sinf)					Nazorat sinfi (B sinf)				
	O‘quvchi soni	Yaxshi baho	O‘rta baho	Past baho	O‘zlash-tirish, %	O‘quvchi soni	Yaxshi baho	O‘rta baho	Past baho	O‘zlash-tirish, %
5	33	26	4	3	90,9	35	10	11	14	60,0
6	32	22	8	2	93,7	32	7	14	11	65,6
7	30	23	4	3	90,0	31	8	13	10	67,7
Jami	95	69	16	8	89,4	98	25	38	35	64,2

Tajriba sinfi o‘zlashtirish ko‘rsatgichi	Nazorat sinfi o‘zlashtirish ko‘rsatgichi

Xulosa. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘qitishda intensiv metodlarni qo‘llash tizimini takomillashtirilib, o‘tkazilgan tajriba sinov va nazorat sinflarida o‘zlashtirganlik darajasi yuqori ekanligi aniqlandi hamda past baho olganlar soni sezirarli darajada kamaydi.

Adabiyotlar

1. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: Учеб. пособие для студентов, аспирантов и соискателей по спец. –М.: “Лингвистика и межкультурная коммуникация”, 2000. -262 с.

2. Avliyakulova N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma.-T.: 2001. -68b.3. Нишоналиев У.Н. Модульные педагогические технологии.-Профессиональное образование. –М., 2002.-№ 14. –С. 10-12.

4. Педагогическая технология /Под.ред.Кукушкина В.С.-Серия “Педагогическое образование”. – Ростов: Издательский центр. Март, 2002. 103 с.

5. Atakulova Sh.Sh. Britaniya ingliz tilisi va amerika ingliz tilisi o‘rtasidagi farqlar/“ Fan va ta’limni rivojlantirishda yoshlarning o‘rni”. 23-noyabr 2018. UzFAN 75 yilligiga bag'ishlangan ilmiy amaliy konferentsiya. 1 qism. 187-188 betlar.

6. Irina Panferova. Ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy metodlari: o‘xshashlik va farqli jihatlar / Ilmiy-metodik elektron jurnal. -Toshkent. № 1(5)/2015. 100-105 betlar.

Hilola SUYUNOVA
Navoiy davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti

O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI

Ushbu maqolada o‘quvchilar nutqini o‘stirishning integrativ yondashuvlari nazariy va amaliy jihatdan asoslangan. Ingliz tili va ona tili darslarida integrativ yondashuvli o‘qitishdan maqsad - o‘quvchilarga o‘z fikrini ingliz tilida erkin ifodalay bilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bunday ko‘nikmalarni shakllantirishda asosan tinglab tushunish mashqlari, matnlar, xalq og’zaki ijodi namunalaridan - maqol, ertaklar, topishmoqlar ustida ishlash orqali erishiladi degan fikrlar asosli ochib berilgan. Qolaversa, muallif o‘quvchilar nutqini o‘stirishning integrative yondashuvlaridan yana biri, darslarda kichik hajmli ertaklardan foydalanishdir. Bunda o‘qituvchi o‘quvchi yoshiga qarab darslik mavzusida berilgan topshiriqlarga qo‘shimcha tarzda ertak tanlaydi. Tanlangan ertak mazmuni tushunarli, o‘qib o‘rganish uchun ko‘p vaqt talab qilmaydigan, qahramonlar obrazlari qiziqarli bo‘lishi talab etiladi degan fikrlarni ilgari surgan.

Kalit so‘zlar: *integratsiya, tinglab tushunish, gapirish, o‘qib tushunish, maqol, ertak, xalq og’zaki ijodi, topishmoqlar.*

В данной статье теоретически и практически обоснованы интегративные подходы к развитию речи учащихся. Цель обучения с интегративным подходом на уроках английского языка и родного языка - формирование у учащихся умения свободно выражать свои мысли на английском языке. Обоснованно раскрывается мысль о том, что формирование таких умений достигается в основном упражнениями на понимание на слух, работой над текстами, образцами устного народного творчества - пословицами, сказками, загадками. Кроме того, еще одним из интегративных подходов автора к развитию речи учащихся является использование на уроках небольших по объему сказок. При этом учитель выбирает сказку в дополнение к заданиям по теме учебника в зависимости от возраста ученика. Он выдвинул идею, что выбранная сказка должна быть понятной по содержанию, не требующей много времени для прочтения и изучения, а образы героев-интересными.

Ключевые слова: *интеграция, понимание на слух, говорение, понимание на чтение, пословицы, сказки, фольклор, загадки.*

In this paper, the integrated approaches of students speech cultivation are based on theoretical and practical. The purpose of integrated approach teaching in English and native language lessons is to formulate the skills of students to freely express their opinion in English. In the formation of such skills are fundamentally revealed ideas that are mainly achieved by listening, understanding exercises, working on texts, examples of folk oral creativity - Proverbs, fairy tales, riddles. It remains only to say that the author is another of the integrative approaches to the cultivation of students ' speech, the use of small-volume fairy tales in lessons. In this, the teacher chooses a fairy tale in addition to the assignments given on the topic of the textbook, depending on the age of the pupil. The contents of the chosen fairy tale are understandable, do not take much time to learn to read, put forward thoughts that the images of heroes are required to be interesting.

Key words: *integration, listening comprehension, speaking, reading comprehension, proverbs, fairy tales, folklore, riddles.*

Kirish. Biz bilamizki, nutq ravonligi jamiyatda kishining faol faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Ta’lim oluvchi uchun esa nutqning ravonligi maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir. Til o‘rganishga bo‘lgan talab yoshlar o‘rtasida tobora rivojlanib borayotgan bir paytda, har bir til o‘rgatuvchi o‘z ishiga puxta tayyorgarlik ko‘rishi lozim. Qiziqarli o‘quv materiali, didaktik o‘yinlar, fanlararo bog’lanishli muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilish, munozaralar jarayonida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi namoyon bo‘lishi, o‘qish ma’suliyati javobgarligini his qilishi, puxta bilim olish uning vatanparvarlik burchi ekanligini anglashi darsda integrativ yondashuvning vositalari hisoblanadi. Demak, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-9-sinf ingliz tili va ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqini o‘stirish imkoniytalarining kengligi o‘qituvchining darsni qanday tashkil qilish uslubiga ko‘proq borib taqaladi.

Asosiy qism. Dars jarayonini integrativ tashkil etishdan maqsad, o‘quvchilarga o‘z fikrini ingliz tilida erkin ifodalay bilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bunday ko‘nikmalarni shakllantirishda asosan

tinglab tushunish mashqlari, matnlar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan - maqol, ertak, topishmoqlar ustida ishlash orqali erishiladi. Buning uchun darsda o‘quvchi yoshiga mos maxsus mashq va topshiriqlar berilishi lozim. Jumladan, ingliz tili va ona tili darslarida qo‘llaniladigan ertak, masal, she'r va topishmoqlar, shu jumladan, kichik matnlar o‘quvchilarni dars jarayonida zeriktirishdan saqlaydi, ularning mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatishlarini ta'minlaydi. Topshiriqlarni bajartirishdan oldin, o‘quvchilar ongiga o‘rganiladigan mavzu yuzasidan tushuncha berib uning nutq o‘stirishdagi rollari haqida tushuntirilishi lozim. Bularga qisqa hajmli matn, maqol, topishmoqlarni misol qilib olishimiz mumkin. Vazifani o‘quvchi yaxshi anglab yetishi uchun, avvalo, berilgan matnni to‘g'ri o‘qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash kerak. Mashq va topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich berilishi lozim.

O‘qituvchi darsga tayyorlanayotganda darsning maqsadiga muvofiq keladigan matnlarni tanlashi lozimligini unutmasligi kerak. Darsga tayyorlanishda o‘qituvchi matnning hajmini, unga sarflanadigan vaqtni ham aniq belgilab olishi lozim. Ustma-ust matnlar bilan o‘quvchilarni band qilib qo‘yish ta'lim samaradorligiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Matn ustida ishlashda ortiqcha vaqt sarflash ham o‘quvchilar faoliyatini faollashtirishga putur yetkazadi. Matnlarning sharti o‘quvchilarning yosh xususiyati va o‘quv imkoniyatlariga to‘la muvofiq kelishi lozim. Beriladigan topshiriqlar o‘quvchilarning og'zaki va yozma nutq faoliyatini rivojlantirish tushuncha va tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladigan materiallardan iborat bo‘lishi kerak. Darsda ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘qituvchidan diqqat bilan ishlashni, darslarni qiziqarli va samarali yo‘sinda tashkil qilib, vaqtdan unumli foydalanishni talab qiladi. O‘quvchilar xotirasida matn mazmuni uzoq saqlanib qolishi uchun ularni interfaol usullar yordamida o‘qitish juda katta yordam beradi. Ushbu maqolada o‘z tajribamdan kelib chiqqan holda ingliz tili darslarida o‘quvchilar nutqini rivojlantirishning samarali usul va vosiyalaridan bir nechtasi haqida so‘z yuritmoqchiman. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarga tushunarli bo‘lgan va ularning yoshiga mos bo‘lgan bir mavzu tanlaydi va shu mavzu asosida o‘quvchilarga tarqatma vositalar yordamida matn tarqatiladi. Biz quyida 6-sinf ingliz tili darsligining (Unit 11) 11-bo‘limida berilgan "Save energy" matnini birgalikda ko‘rib chiqamiz:

When we make tea and coffee we use energy: gas, electricity and coal. Global warming comes from energy we use. So each time we make a cup of tea we make a problem for our world. People drink 229 million cups of tea and coffee every day. We should save the energy we use to make tea and coffee. If we want three cups of tea, we should put three cups of water in the kettle. But often we put in five or six cups of water. We use 90 seconds more for a kettle with three cups than for a kettle with one cup. So each time we use a kettle we should save energy and water. We should think: how many cups do I want? [5] O‘quvchilar matn mazmuni bilan tanishganlaridan so‘ng ularga matn mazmuni haqida o‘z fikrlarini bildirish aytiladi. O‘quvchilarning nutqini o‘stirishda yana bir integrativ yondashuvlardan biri bu o‘qib tushunish bo‘lib, bunda o‘quvchiga quyidagicha topshiriq beriladi: "Add the words" (so‘zlarni qo‘sh) metodida o‘qituvchi gapning bosh qismini aytadi, o‘quvchi matndan esida qolgan so‘zlarni qo‘sib gapni davom ettiradi:

T: Each time we make a cup of coffee…

S: …we make a problem for our world.

Xuddi shu tarzda davom etish orqali o‘quvchida bir paytning o‘zida fikrlash qobiliyati kengayadi, xotira, nutq, tinglab tushunish (listening), gapirish(speaking) ko‘nikma va malakalari shakllantiriladi.

Yuqoridagi vazifani bajarganlaridan so‘ng o‘qituvchi qaysi guruh vazifani tez va xatosiz bajarganligini aniqlaydi va g'olib guruh rag'batlantiriladi.

Muhokamalar va natijalar. O‘quvchilarning diqqatini bir joyga jamlash va fikrlash qobiliyatlarini ostirish maqsadida nutqni rivojlantirishning yana bir usuli xalq og'zaki ijodi namunalaridan, ya'ni maqollardan foydalanish namunalarini misol tariqasida keltiramiz. Maqollarni darslarda tushuntirish davomida o‘quvchilarga har bir maqolning xususiyatlari haqida ma'lumot berilib, unini ifodali o‘qish, ma'nosini tez topish malakalarini oshirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ziyraklikka o‘rgatish, nutqini o‘stirish maqsad qilib olinadi. Quyida darslarda o‘qitiladigan maqollardan namunalar keltiramiz. Biz namuna sifatida keltiradigan maqollar inglizlar maqollari hisoblanadi, bunda biz bu maqollarni o‘zbek maqollari bilan taqqoslagan holda o‘quvchilar ongiga singdiramiz. Ana shunda o‘quvchi ularning ma'nosini oson va qiyinchiliklarsiz o‘zlashtiradi.

- **Better late than never** - Hechdan ko‘ra kech;
- **An apple a day keeps the doctor away** - Sog' tanda sog'lom aql;
- **Charity begins at home** - G'ozallik va tarbiya uydan boshlanadi;
- **A friend in need is a friend indeed** - Do‘st kulfatda bilinar;
- **Money doesn't grow on trees** - Mehnatsiz daromad bo‘lmas;
- **No pain, no gain** – Mehnat - mehnatning tagi rohat;
- **Nothing hurts like the truth** - Haqiqat egiladi, lekin sinmaydi;
- **A picture is worth a thousand words** - Ming bora eshitgandan ko‘ra bir ko‘rgan afzal;

- There's no place like home - O‘z uying o‘lan to‘shaging.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan maqollarni o‘quvchi ona tili va ingliz tilida solishtirgan holatda o‘rganib, o‘zining dunyoqarashini kengaytiradi. Darslar davomida, darsni mustahkamlash qismlarida biz ushbu maqollardan oz-ozdan o‘quvchilarga o‘rgatib borsak, ularning tilni o‘zlashtirishlarini bir muncha yengillashtirgan hisoblanamiz. Shuning bilan birga, ularning tilni o‘rganishga bo‘lgan intilishlarini rivojlantiramiz. Maqollar qiyoslab o‘rgatilganda o‘quvchi ongiga tezroq yetib boradi va uning qalbida mustahkam o‘rnashadi. Maqollarni o‘rgatishning samarali usullaridan biri o‘quvchilarni guruhga ajratib o‘rgatishdir. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarni ikki guruhga ajratadi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishning integrativ yondashuvlaridan yana biri, darslarda kichik hajmli ertaklardan foydalanishdir. Bunda o‘qituvchi o‘quvchi yoshiga qarab darslik mavzusida berilgan topshiriqlarga qo‘shimcha tarzda ertak tanlaydi. Tanlangan ertak mazmuni tushunarli, o‘qib o‘rganish uchun ko‘p vaqt talab qilmaydigan, qahramonlar obrazlari qiziqarli bo‘lishi talab etiladi. Til o‘rganuvchida bir vaqtning o‘zida ertakni o‘qish bilan birga bir qancha qobiliyatlar rivojlantiriladi. Ya’ni, ingliz tilida o‘qib tushunish (reading), gapirish (speaking). Toshiriqlarning bu turidan darsning mustahkamlash qismlarida, dam olish daqiqalarida foydalanishimiz mumkin. Quyida namuna sifatida keltiradigan ertagimiz ingliz xalq ertagi bo‘lib, o‘qituvchi bu ertak qahramonlarini obrazlarga bo‘lib beradi, ertak dialog tarzida o‘qiladi. Jonli kichik sahna ko‘rinishi namoyish etilsa, ertak mazmuni yanada o‘quvchilar ongiga yetib tez boradi. Ularda tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi.

MOUSE AND MOUSER

THE MOUSE went to visit the Cat, and found her sitting behind the hall door, spinning.

MOUSE. What are you doing, my lady, my lady, What are you doing, my lady?

CAT (sharply). I’m spinning old breeches, good body, good body I’m spinning old breeches, good body.

MOUSE. Long may you wear them, my lady, my lady, Long may you wear them, my lady.

CAT (gruffly). I’ll wear’ em and tear ‘em, good body, good body. I’ll wear ‘em and tear ‘em, good body.

MOUSE. I was sweeping my room, my lady, my lady, I was sweeping my room, my lady.

CAT. The cleaner you’d be, good body, good body, The cleaner you’d be, good body.

MOUSE. I found a silver sixpence, my lady, my lady, I found a silver sixpence, my lady.

CAT. The richer you were, good body, good body, The richer you were, good body.

MOUSE. I went to the market, my lady, my lady, I went to the market, my lady.

CAT. The further you went, good body, good body The further you went, good body.

MOUSE. I bought me a pudding, my lady, my lady, I bought me a pudding, my lady.

CAT (snarling). The more meat you had, good body, good body, The more meat you had, good body.

CAT. (sharply). The faster you’d eat it, good body, good body, The faster you’d eat it, good body.

MOUSE (timidly). The cat came and ate it, my lady, my lady, The cat came and ate it, my lady.

CAT (pouncingly). And I’ll eat you, good body, good body, And I’ll eat you, good body.

(Springs upon the mouse and kills it.)

Xulosa shuki, o‘qituvchi darsga tayyorlanayotganda darsning maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlarni tanlashi lozimligini unutmasligi kerak. Darsga tayyorlanishda o‘qituvchi maqol va ertaklar miqdorini, unga sarflanadigan vaqtni ham aniq belgilab olishi lozim. Ustma-ust topshiriqlar bilan o‘quvchilarni band qilib qo‘yish ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun tanlanadigan topshiriqlar o‘quvchilarning yosh xususiyati va o‘quv imkoniyatlariga to‘la muvofiq kelishi lozim.

Adabiyotlar

1. Brumfit, Christopher (1984). Communicative Methodology in Language Teaching. -Cambridge: “Cambridge University Press”.

2. Common Proverbs in English by Alex © LearnVid Education, 2015 www. eng Vid. com.

3. ENGLISH FAIRY TALES COLLECTED BY JOSEPH JACOBS.Cover Design: Jim Manis.

4. Copyright © 2005 The Pennsylvania State University.

5.Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. –Toshkent: “O‘zbekiston” Nashriyot-Matbaa ijodiy uyi, 2018.

6. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1993.

Rahima BERDIYOROVA
Qarshi davlat universiteti
fakultetlararo chet tili
kafedrasi o‘qituvchi

OKKAZIONALIZMLARNI HOSIL QILISH USULLARI

Ushbu maqolada biz okkazionalizmlar deganda so‘z yasash qonunlariga zid ravishda mualliflar tomonidan yaratilgan so‘zlar tushuniladi. Ularni hosil qilishda andazaning stilistikasi buzilishi ro‘y beradi. Okkazionalizmlarni hosil qilishning mashhur usullariga: affiksal usul, so‘z qo‘shish, qisqartirish (abbreviatsiya), konversiya, teleskopik so‘zlarni hosil qilish, boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirishni kiritishadi.

Kalit so‘zlar: *okkazional birliklar, komponentlar, so‘z qo‘shish, kommunikativ akt, kontaminatsiya, antroponim, ikki komponentli so‘z yasash andazalar, neologizmlar, so‘z birikmalari.*

В статье мы под окказионализмами понимаются такие слова, которые были созданы автором в противоречии с законами словообразования. При их образовании имеет место нарушение стилистики модели. К известным способам образования окказионализмов относят: аффиксальный способ, словосложение, сокращение (аббревиация), конверсию, образование телескопных слов, заимствование из других языков.

Ключевые слова: *окказиональных единиц, компоненты, словосложение, коммуникативный акт, контаминация, антропоним, словообразовательных моделей двухкомпоненты, неологизмы словосочетаний.*

In the article, we mean by occasional words such words that were created by the author in contradiction with the laws of word formation. When they are formed, there is a violation of the style of the model. The known methods of formation of occasional words include: affixal method, word composition, abbreviation, conversion, formation of telescope words, borrowing from other languages.

Keywords: *occasional units, components, word composition, communicative act, contamination, anthroponym, word-forming models, two-components, neologisms of word combinations.*

Kirish. Hozirgi tilshunoslikda okkazionalizmlarni, ularni hosil qilish, turli janrlardagi matnlarda ishlashining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning so‘z hosil qiluvchi va stilistik xarakteristikalarini o‘rganishga va qarab chiqishga ko‘p sonli ilmiy tadqiqotlar va ishlar ajratilgan.

Olimlarning mualliflik so‘z ijod qilish sabablarining kelib chiqishiga e’tibori shu bilan izohlanadiki, zamonaviy tilda uning leksik zahirasining faol to‘lishi yuz bermoqda. Hozirgi leksikada ko‘rish mumkin bo‘lgan eng xarakterli va ayni paytda eng farq qiluvchi jarayon unga yangi birliklarning qo‘shilish jarayonidir [Shanskiy 1969]. Ushbu jarayonga zaruriyat jamiyat ehtiyojlari bilan aniqlanadi, ular bu so‘zning eng keng ma’nosida talqin qilinadi. Okkazional so‘zlar keng tarqalgan va butun konkret jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan faqat yangi reallikni, hodisani, fenomenni nomlash uchungina emas, balki individual kechinmalarning, kayfiyatlarning nozik konnotasiyalarini aks ettirish, o‘rab turgan borliqning ayrim hodisalariga baho berish uchun ham paydo bo‘ladi [Gabinskaya 1981: 61].

Asosiy qism. Okkazional birliklarni hosil qilish, ularning strukturasi ularni yaratgan muallifning til ijodi bilan belgilanadi. Ingliz tilidagi badiiy asarlarning tahlili okkazionalizmlarni yaratish uchun yozuvchilar boradigan asosiy yo‘llarni ajratib ko‘rsatish imkonini berdi:

So‘z qo‘shish. Hozirgi tilshunoslikda murakkab so‘zlarni tasniflashga xilma-xil yondashuvlar ifoda qilingan. Murakkab so‘zlarning adabiyotdagi mavjud tasniflarini tahlil qilish tadqiqotchilar tomonidan murakkab so‘zlarning alohida guruhlarini ajratish negiziga qo‘yilgan asosiy prinsiplarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

I.V. Arnold inglizcha murakkab so‘zlarni quyidagi mezonlar bo‘yicha boshqalardan farqlashni taklif qiladi [11]:

1) so‘z turkumi bo‘yicha:
a) murakkab otlar: housekeeper, housewife;
b) murakkab sifatlar: long-legged;
d) murakkab fe’llar: to day-dream;
e) murakkab ravishlar: open-heartedly;
2) semantik belgilari bo‘yicha:
a) asoslangan murakkab so‘zlar: factory-made, hand-made;
b) idiomatik so‘zlar: earth-fed [11, 71-72].

Hozirgi tilshunoslikda [1] inglizcha murakkab so‘zlarni ularga kiruvchi komponentlarning strukturasi mezoni asosida tasniflash keng tarqalgan. Murakkab so‘zlarni tashkil qiluvchi elementlar strukturasi nuqtayi nazaridan murakkab so‘zlarning ikkita guruhini ajratib ko‘rsatishadi:

– sintetik murakkab so‘zlar (synthetic compounds);

– murakkab so‘zlar (compounds) [12, 249].

Shu bilan birga sintetik murakkab so‘zlar deganda shunday so‘zlar tushuniladiki, ulardagi komponentlarning biri qandaydir so‘z yasash belgisi bilan xarakterlanadi (ya’ni hosila asos hisoblanadi): gatecrasher, housekeeping. Murakkab so‘zlar komponentlarining strukturasi nuqtayi nazaridan I.V. Arnold, shuningdek, murakkab so‘zlarning quyidagi guruhlarini ajratib ko‘rsatadi:

– murakkab so‘zlar, ularda komponentlardan biri qisqartma bo‘ladi (murakkab qisqartma so‘zlar): math-mistress;

– murakkab so‘zlar, ularda komponentlardan biri murakkab so‘z bo‘ladi: waste-paper-basket [11, 71-72].

A. M. Vinokurov bunday [8] so‘zlarni “struktur-murakkablashtirilgan kompozitlar” deb atab, “uchta yoki to‘rtta asosning birikmasi” deb tushunadi, ularda “birinchi yoki ikkinchi komponent murakkab so‘z bilan berilgan” [8, 28]: money-centre bank, city technology college. Bunday murakkab leksik hosilalarning birinchi elementi antroponim bilan (Anderson-Fabry disease) yoki toponim bilan (Lake Webegon effect) berilishi mumkin. Tadqiqotchi ingliz tilining hozirgi taraqqiyoti bosqichida struktur-murakkablashtirilgan kompozitlarning yuqori mahsuldorligini ta’kidlaydi. Murakkab so‘zlar komponentlari strukturasi nuqtayi nazaridan bog‘lovchi unlili murakkab so‘zlar qiziqish kasb etadi. I.P. Ivanovaning qayd qilishicha, [5] “ingliz tilining morfologik strukturasiga bog‘lovchi unli xos emas; shunga qaramasdan, bunday otlar ingliz tili lug‘at tarkibida ma’lum o‘rin egallaydi” [5, 55]. Qarab chiqilayotgan otlarning strukturasi quyidagicha ekan: o‘zak + bog‘lovchi unli + o‘zak (bog‘lovchi unli ko‘pincha -o-, ba'zan -a-, -e-, -i-). Bog‘lovchi unlili so‘zlar guruhida ham ikki, ham uch komponentli hosilalar uchraydi: bibliomania, laryngoscope, voltaelectrometer.

N.G. Lavrenteva [4] qayd qilishicha, inglizcha so‘z qo‘shish [4] asosini ikkita komponentlardan hosil bo‘ladigan so‘zlar tashkil qiladi [4, 40]. Shu munosabat bilan inglizcha ikki komponetli so‘zlarning so‘z yasash andazalarini ularning komponentlarini u yoki bu so‘z turkumiga tegishliligini hisobga olib ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq tuyiladi. Inglizcha murakkab so‘zlar so‘z yasash andazalarining bunday tasnifi ko‘p mualliflarda bor. Fikrimizcha, ikki komponentli so‘z yasash andazalarining eng to‘liq turli-tumanligi O. D. Meshkov tomonidan ishlab chiqilgan, o‘z ichiga murakkab so‘zlar hosil qilishga qobiliyatli ikkita so‘z turkumidan 39 ta kombinasiyani olgan tasnifda ifodalab berilgan. Tadqiqotchi, xususan, murakkab so‘zlar hosil qilishning quyidagi andazalarini ajratib ko‘rsatadi:

1. Ikkinchi komponenti ot bilan ifodalangan murakkab so‘zlar. Bunday so‘zlarda ikkinchi komponent amalda har qanday so‘z turkumi (ot, sifat, fe’l, sifatdosh, ravish, son, olmosh, predlog, yuklama) bilan taqdim qilinishi mumkin: hot house, cut-throat, he-cat, first-rate, in-flight, onlooker.

2. Ikkinchi komponenti sifat bilan ifodalangan, uning oldida ot, sifat, fe’l, ravish yoki son bo‘lishi mumkin bo‘lgan murakkab so‘zlar: oil-rich, light-blue, speakeasy, ever-green, 10000-strong.

3. Ikkinchi komponenti fe’l bilan ifodalangan, uning oldida boshqa fe’l yoki ravish bo‘lishi mumkin bo‘lgan murakkab so‘zlar: make-believe, overdo.

4. Ikkinchi komponenti gerundiy bilan ifodalangan murakkab so‘zlar. Bunday murakkab hosilalarda odatda birinchi komponent sifatida ot keladi: handwriting.

5. Ikkinchi komponent sifatida sifatdosh I keladigan, uning oldida ot, sifat, olmosh yoki ravish bo‘lishi mumkin bo‘lgan murakkab so‘zlar: data-processing, hard-working, allaffecting, never-doing.

6. Ikkinchi komponenti sifatdosh II bilan ifodalangan murakkab so‘zlar. Bunday murakkab leksik hosilalarning birinchi komponentlari sifatida ot, sifat, olmosh yoki ravish kelishi mumkin: paper-made, soft-spoken, all-admired, well-done.

7. Ikkinchi komponenti olmosh bilan ifodalangan murakkab so‘zlar. Bunday murakkab so‘zlarning birinchi komponenti odatda fe’l yoki predlog bilan ifodalangan bo‘ladi: know-all, with-it.

8. Ravish ot, sifat, ravish, fe’l, olmosh yoki son bilan o‘zaro qo‘shilib ikkinchi komponent bo‘lib keladigan murakkab so‘zlar: whites-only, all-out, first-ever.

9. Ikkinchi komponent predlog [6] (poslelog), birinchisi esa fe’l bo‘lgan murakkab so‘zlar: drive-in, come-on [6, 213-240].

Muhokamalar va natijalar. Inglizcha so‘z qo‘shish muammolari bilan shug‘ullanayotgan tadqiqotchilar “ot + ot” (N + N) so‘z yasash andazasining yuqori mahsuldorligini ko‘rsatib o‘tadilar: bedtime, horsefly, dragon-fly. Bu andazaning ustunligi shu bilan izohlanadiki, N + N andazasi bo‘yicha hosil qilingan inglizcha nominativ birliklarda eng rang-barang ma'noviy munosabatlarga yo‘l qo‘yiladi.

V.I. Shadrinning so‘zlariga ko‘ra, “N + N kompozit andazasi eng katta semantik diapazonga ega” [7, 13]. Inglizcha otlarning morfologik soddaligi ko‘rsatilgan so‘z qo‘shish andazasining mahsuldorligiga yordam beradi. Inglizcha murakkab so‘zlar hosil qilinadigan mahsuldor andazalar orasida tadqiqotchilar “ot + sifatdosh II” (N + P II) andazasini ham qayd qiladilar: man-hade, hand-made, state-financed, governmentimposed, paper-made.

“Ot + sifatdosh I” (N + P I) va “ot + sifat” (N + Adj) andazalari asosida yasalgan murakkab so‘zlar ham hozirgi ingliz tilida yetarli darajada reprezentativdir: pleasure-seeking, oil-rich, oxygen-rich. Ikki komponentli murakkab so‘zlardan tashqari [4], ingliz tilida yana tarkibiga ikkita va undan ortiq komponent kiradigan so‘zlar ham ifodalangan. A. M. Vinokurov bunday murakkab leksik hosilalarni [4] “so‘z-jumlalar, ular o‘z strukturasi bo‘yicha tashqi sintaksisning vositalarini, masalan, predloglarni va bog‘lovchilarni saqlab qolgan sintaktik hosilalarni eslatadigan: man-of-war, easy-to-use, mother-and-baby” deb ataydi [8, 27].

N.G. Lavrenteva qayd qilishicha, so‘z qo‘shish mahsuldorlik jihatidan ingliz tili taraqqiyoti tarixining butun davri davomida affiksasiyadan keyin ikkinchi o‘rinda qolmoqda [4, 21]. Ingliz tilida murakkab so‘zlarni hosil qilishning ikkita asosiy usulini ajratib ko‘rsatish qabul qilingan:

– ma’lum struktur andazalar bo‘yicha;

– so‘z birikmalari asosida;

– gaplar asosida.

Tadqiqotchi O.D. Meshkov murakkab so‘zlarning andazalar bo‘yicha yasalishining ikkita imkoniyatini tilga oladi:

– murakkab so‘zning hosil qilinishi hech narsa bilan tayyorlanmagan: earthquake;

– murakkab so‘z analogiya asosida tilda mavjud bo‘lgan [6] murakkab so‘zlarning komponentlarini almashtirish yo‘li bilan hosil qilinadi: starquake, frostquake, youthquake analogiya bo‘yicha o‘sha andaza earthquake kabi hosil qilinadi [6, 185-186].

Quyidagi juftlik misol bo‘lib xizmat qilishi mumkin: a black bird (har qanday qora qush) – a blackbird (qorayaloq). Okkazionalizmlarni ma'lum struktur andazalar asosida hosil qilishning misoli sifatida quyidagilar kelishi mumkin:

And surely coincidence will lead my forevermate to see the right television show, at the right time, it’ll show us how to meet (R. Bach, Bridge Across Forever). Keltirilgan misolda mualliflik okkazionalizmi forevermate forever + mate) bosh qahramonning orzusidagi qizni, hamma joydan qidirib, sira ham topa olmagan uning qadrdon qalbini ifodalash uchun ishlatilgan.

“Not yet,” she told it softly. “No dinner yet for the fluffalorium.” (R. Bach, Bridge Across Forever).

Qayd qilingan okkazionalizm hayvonni tasvirlovchi fluffy (baroq, yumshoq, mayin, momiqday) sifatidan hosil qilingan.

Quyida keltirilgan parchadagi mualliflik okkazionalizmi mashhur kishilarni umumlashtirishni ifodalash uchun ishlatiladi:

I thought if being a moviestar is so wonderful, why are there so many drunks and addicts and divorces and suicides in Celebrityville? (R. Bach, Bridge Across Forever).

Okkazional birliklarni hosil qilishning bu guruhiga shuningdek qisqartma o‘zaklarning kombinasiyasi ham kiradi: Down at street level another poster, torn at one corner, flapped fitfully in thewind, alternately covering and uncovering the single word INGSOC (G. Orwell, 1984).

Quyidagi neologizmlar so‘z birikmalari asosida hosil qilingan:

The perfect-woman-in-many-women design, she won the contest handsdown (R. Bach, Bridge Across Forever).

Had I already smashed in upside-down killed, I thought, then got myself dragged backwards two seconds in time by a mercy-chute and saved? (R. Bach, Bridge Across Forever).

In your heart you’ prefer to stick to Oldspeak, with all its vagueness and its useless shades of meaning (G. Orwell, 1984).

His sexual life, for example, was entirely regulated by the two Newspeak words sexcrime (sexual immorality) and goodsex (chastity) (G. Orwell, 1984).

Okkazionalizmlarni gaplar asosida (golofrazis) hosil qilishga quyidagilar misol bo‘la oladi: Not I-know-who-you-are-and-I-love-you did that kiss say, but let’s be lovers tonight and see what happens (R. Bach, Bridge Across Forever).

But could there be one alone in the midst of news stories and TV shows, lonely while surrounded by lovers and money, hired friends-become-staff and agents and lawyers and managers and accountants? (R. Bach, Bridge Across Forever).

- affiksasiya okkazionalizmlarni yasash usuli sifatida prefiksasiya, suffiksasiya, shuningdek prefiksasiya va suffiksasiyaning birikuvi tarzida taqdim qilinishi mumkin:

“Ungood”will do just as well —better, because it’ an exact opposite, which the other is not (G. Orwell, 1984).

Okkazional abbreviasiya (qisqartirish). Okkazional abbreviasiya hodisasi bo‘lib Harry Potterdan olingan misol kelishi mumkin: O.W.L. –Ordinary Wizarding Level

Kontaminasiya. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, ikkita odatiy o‘zaklarni qo‘shish natijasida okkazionalizm paydo bo‘ladi. Kontaminasiya yordamida hosil yaratilgan okkazionalizmlarga quyidagilar misol bo‘la oladi:

Dementor – ushbu okkazionalizm dement va tormentor so‘zlaridan hosil qilingan.

Wizengamot – ushbu so‘zda wizard va witenagemot so‘zlari birlashtirilgan.

To be splinched – bu okkazionalizm split va inch o‘zaklarini birlashtirish orqali hosil qilingan.

Xulosa. Shunday qilib, okkazionallik nazariyasi bo‘yicha adabiyotning lingvistik tahlili bizga quyidagi xulosalarni shakllantirishga ko‘maklashdi. Birinchidan, hozirgi tilshunoslikda okkazionalizm tushunchasini yagona tushunish mavjud emas, chunki lingvistik adabiyotda okkazional birliklar bilan bog‘liq ishlarning katta soni mavjud va ularni turli nuqtayi nazarlardan qarashadi. Okkazionalizmlar deganda so‘z yasash qonunlariga zid ravishda mualliflar tomonidan yaratilgan so‘zlar tushuniladi. Ularni hosil qilishda andazaning stilistikasi buzilishi ro‘y beradi. Demak, hozirgi ingliz tilida okkazionalizmlarni hosil qilishning ususiy usullari sifatida affiksasiya, so‘z qo‘shish, okkazional abbreviasiya va kontaminasiya keladi.

Adabiyotlar

1. Андреева Е.А. Окказионализмы русских поэтов XX в. в немецких переводах. Дисс... канд. фил. наук. – Казань, 1998. – 186 с.

2. Акуленко О.Л. Авторские неологизмы, афоризмы и контекстуально-преобразованные фразеологизмы как проблема перевода (на материале англоязычных переводов поэзии В. Маяковского): Дис... канд. фил. наук. – Львов, 1987.

3. Винокуров А.М. Новые сложные слова в английском языке // Подвижность языковых подсистем. – Тверь, 1994. – С.24-34.

4. Лаврентьева Н.Г. Вариативность акцентуации английских композитов (в парадигматике и синтагматике английской деловой речи): Дис… канд. филолог. наук. – Иваново, 2001. – 181 с.

5. Иванова И.П. О принципах анализа сложных слов в современном английском языке // Исследования по английской филологии: Сб. ст. – СПБ., 1998. – С. 50-65.

6. Мешков О.Д. Словообразование современного английского языка. – М.: “Высшая школа”, 1985. – 312 с.

7. Шадрин В.П. Ономасиология производного имени в английском языке: Дисс. .доктора филол. наук. – Санкт-Петербург, 1996. – 367 с.

8. Винокуров А.М. Новые сложные слова в английском языке // Подвижность языковых подсистем. – Тверь, 1994. – С.24-34.

9. Земская Е.А. Окказиональные и потенциальные слова в русском словообразовании// Актуальные проблемы русского словообразования. – Самарканд, 1972. Ч.1. – С. 19-28

10. Лопатин В.В. Рождение слова. Неологизмы и окказиональные образования. – М.: “Наука”, 1973. – 152 с

11. Arnold I.V. The English Word. – M.: “Высшая школа”, 1986. – 345 с.

12. Bloomfield W., Newmark L. The English Vocabulary and English Word Formation.-London, 1999.

13. Crystal D. Language Play. – Penguin Books, 1998. – 249.

Набия ТУРАЕВА
Доцент кафедры дифференциальные уравнения
Бухарского государственного университета

Жахонгир Тураев
Студент физико-математического факультета
Бухарского государственного университета

МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ОБУЧЕНИЮ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МАТЕМАТИКИ КОНСТРУИРОВАНИЮ И АНАЛИЗУ УРОКА

В статье рассматривается сущность школьного образования, о разработки и теоретическом обосновании и единого подхода к обучению студентов конструированию и анализу урока как процедурам, имеющим исследовательскую природу, и создании системы работы по обучению студентов этим профессионально значимым умениям на основе системного подхода.

Ключевые слова: *система общего среднего образования модернизация, конструирования урока, анализ урока, мышления, восприятия, моделирование.*

Maqolada maktab ta'limi mohiyati, o‘quvchilarga darsni loyihalashtirish va uni tahlil qilish usullarini tahlil qilishga o‘rgatish va o‘quvchilarga ushbu kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘rgatish uchun ish tizimini yaratish bo‘yicha nazariy asoslar va o‘quvchilarga yagona yondashuv ko‘rib chiqilgan. tizimli yondashuv bo‘yicha.

Kalit so‘zlar: *umumiy o‘rta ta’lim tizimi, modernizatsiya, darsni loyihalash, darsni tahlil qilish, fikrlash, idrok etish, modellashtirish.*

The article examines the essence of school education, the development and theoretical justification and a unified approach to teaching students how to design and analyze a lesson as procedures of a research nature, and to create a system of work to teach students these professionally significant skills based on a systematic approach.

Key words: *system of general secondary education, modernization, lesson design, lesson analysis, thinking, perception, modeling.*

Образование является сегодня одним из ключевых ресурсов, обеспечивающих экономический рост и процветание стран, при этом в будущем значение этого фактора, как свидетельствует мировой опыт, будет непрерывно возрастать. Именно поэтому во всех развитых странах проблемам функционирования и развития национальных системы общего среднего образования уделяется большое внимание. Вопросы реформирования и модернизации системы общего среднего образования являются актуальными и для Узбекистана. Также как и другие, экономически развитые страны Узбекистан испытывает на себе влияние новых существенных факторов внешнего и внутреннего развития. И она также, как и другие, экономически развитые страны ставит перед собой задачу подготовки национальных кадров, востребованных в обществе, и конкурентоспособных как на внутреннем, так и на внешнем рынках труда. Общеизвестно, что важнейшим фактором экономического развития любого государства является образование.

Процесс обучения студентов конструированию и анализу урока на основе системного подхода достаточно длительный и сложный; проведенная учёными работа и исследование в этом направлении позволяют сделать следующие методические рекомендации. Рекомендации касаются: 1) организации системы работы по обучению студентов конструированию и анализу урока в течение всего срока обучения студентов в вузе; 2) организации сотрудничества преподавателей психолого-педагогических дисциплин; 3) сотрудничества вуза и школ, где студенты проходят практику; 4) отбора содержания учебного материала для обучения студентов конструированию и анализу урока на основе системного подхода; 5) организации обучения студентов конструированию и анализу урока в условиях: а) аудиторной и б) внеаудиторной работы; 6) разработки критериев оценки успешности овладения студентами знаниями и умениями конструировать и анализировать урок; 7) разработки методики обучения умениям конструировать и анализировать урок.

Работа по обучению студентов конструированию и анализу урока на основе системного подхода должна начинаться с определения цели и задач предстоящей работы; задачи должны быть сформулированы поэтапно, чтобы обеспечить последовательное овладение необходимыми знаниями и умениями, лежащими в основе конструирования и анализа урока. Поэтапно в работе в данном направлении должна предусматривать образовательный, воспитательный и развивающий эффект обучения студентов, и её следует связать с содержанием психолого-педагогических и специальных знаний и умений, которыми студенты овладевают от 1 к 4 курсам.

Во время педагогической практики студентов следует целенаправленно готовить к пониманию ими роли цели в деятельности человека, следовательно, и роли цели в процессе обучения, цели урока. Для этого необходимо заранее составить для студентов небольшие по объёму задания, направленные на сбор ими материала о том, как учитель, готовясь к уроку, продумывает психологическую сторону урока, а эти задания использовать самому, как цель посещение урока, например: “Изучить, как учитель поддерживает внимание учащихся на уроке”, “Изучить, как учитель активизирует восприятие учащимися нового материала”, “Выделить приёмы активизации мышления учащихся на уроках математики”. В организации этой работы важно соблюдать два условия: систематичность работы и целостность содержания заданий.

Центральным моментом в изучении математики должно стать овладение студентами дидактического содержания понятий “конструирование урока” и “анализ урока” и осознание общего содержательно-теоретического ядра, необходимого для той и для другой деятельности. Эти знания о закономерностях и принципах обучения, процессе обучения, звеньях учебного процесса обучения, структуре урока и закономерных связях внутри него (между триединой дидактической целью, содержанием учебного материала методами обучения и формами организации познавательной деятельности учащихся, результатом урока.

Студенты должны уяснить, что конструирование и анализ урока-это два взаимосвязанных и противоположно направленных процесса: первый (конструирование) – это замысел о том, каким будет урок и каким образом он осуществится в системе взаимосвязанной деятельности учителя и учащихся (замысел о структуре урока, связях внутри дидактического пятиугольника-внешнем, управлении познавательной деятельностью учащихся, в результате чего происходит усвоение знаний внутреннем), то анализ урока-это обратный процесс, т.е. мысленный взгляд назад, на то, что было и состоялось, под определённым углом зрения-ответить надо на те же самые вопросы; конструирование-создание новой целостности из «частей»-этапов урока при наличии общего замысла об этой целостности. Анализ-мысленное расчленение этой (состоявшейся) целостности на составляющие её элементы-этапы урока. И в том, и в другом случае продумываются и выявляются одни и те же связи, функции, генезис-аспекты системного подхода.

Для эффективного обучения студентов конструированию и анализу урока на основе системного подхода необходима специальная работа, включающая разработку спецкурса или факультативного курса, его программы, содержания. Спецкурс должен включать специальное теоритическое просвещение студентов по основам системного подхода: методологии, теории, методике использования при конструировании и анализе урока. Особенностью спецкурса должна быть его высокая практическая направленность, потому содержание обучения необходимо насытить практической деятельностью студентов по конструированию и анализу урока на основе системного подхода. Перед чтением спецкурса и для усиления целенаправленности работы по формированию у студентов умений конструировать и анализировать урок и для организации индивидуального подхода необходимо провести диагностику учебных затруднений у студентов при конструировании и анализе урока. Практика играет особую роль в формировании у студентов умений конструировать и анализировать урок. Во время педпрактики следует использовать все имеющиеся для этого возможности закрепления и творческого применения знаний и умений конструировать и анализировать урок на основе системного подхода. Этому служит согласованная работа педагогов, методистов и учителей школ, где студенты проходят практику. Формы работы при этом: консультация, коррекция, беседа (индивидуальная, групповая); этому же служит анализ посещенных у студентов уроков, самоанализ уроков будущих учителей. Большой обучающей возможностью обладают зачетные уроки, когда организуется коллективное обсуждение уроков, их анализ.

Работа по обучению студентов конструированию и анализу урока будет неполной, если не использовать дидактические возможности таких форм внеаудиторной работы, как написание докладов, рефератов, курсовых работ, участие в педагогических кружках, участие в педагогических олимпиадах, где одним из заданий является задание, связанное с посещением и анализом урока.

В обучении студентов конструированию и анализу урока на основе системного подхода необходимо добиться единтва и сотрудничества психологов, педагогов, методистов в следующих вопросах: а) в определении реально достижимых целей, путей и этапов оптимального решения поставленных задач; б)в теоретических подходах к обучению (сущность, роль и место системного подхода; понимание процессов конструирования и анализа урока как взаимосвязанных; критерии оценки умений студентов конструировать и анализировать урок на основе системного подхода, исследовательская сущность деятельности учителя)

Сотрудничество вуза и школы-также необходимое условие успешности работы в обучении студентов конструированию и анализу урока на основе системного подхода. Это достигается:

а) проведением теоретической работы по педагогическому просвещению учителей школ (чтение лекций, проведение семинаров, деловых игр по вопросам спецкурса “Конструирование и анализ урока на основе системного подхода”; б) чтением лекций, ознакомление с диагностическими психологическими методиками, работа по повышению психологической культуры и грамотности учителей; в) сотрудничеством вуза, ИУУ и школ в вопросах повышения методической грамотности учителей; работой методистов вуза в методических объединениях школ, использованием научно-методических рекомендаций по тем или иным вопросам организации обучения студентов конструированию и анализу урока.

Большую помощь в разработке единого подхода к обучению студентов этим умениям оказывают совместные заседания методических кафедр и методических объединений учителей школ.

При отборе содержания обучения студентов конструированию и анализу урока не обходимо следующая работа:

а) формулирование принципов отбора содержания обучения названным умениям и ориентация на принципы научности обучения, теоретической и практической значимости отбираемых знаний и умений; учет затруднений в профессионально-педагогической деятельности учителей и студентов-в ходе обучения; формирование меж предметных связей и их оптимальное сочетание в преподавании математических дисциплин; по-прежнему большое значение в этой работе должно принадлежать систематичности и последовательности изучения учебного материала, учету индивидуальных интересов и особенностей студентов;

б) конструирование и отбор теоретического ядра обучения: сущности процесса обучения, его закономерностях и дидактических принципах, системном подходе к процессу обучения, уроку-его конструированию и анализу, исследовательской сущности деятельности учителя в этих процессах;

в) отбор содержания обучения студентов конструированию и анализу урока должен соотноситься с профессионально-педагогическими умениями учителя: конструктивными, дидактическими, гностическими, прогностическими-они составляют содержательную основу деятельности учителя при конструировании урока, эти же умения выявляются и при анализе учителем урока. В гамме профессиональных умений проявляется индивидуальное в учителе, неповторимое, но отчетливо выявляется и общее: теоретическая, дидактическая, методическая грамотность, а также особенности его работы-всё это проявляется при конструировании и анализе урока. По этому эти умения могут служить показателем профессионально-педагогических умений, что и используется при их диагностике и отборе содержания обучения.

Проблема конструирования и анализа урока всегда была связана с актуальными проблемами дидактики и методик обучения, посвященными различным сторонам совершенствования учебного процесса. Решение общих и частных дидактических и методических проблем, а также психолого-педагогических-в целом, как правило, отражалось на эффективности урока. Однако конкретные вопросы непосредственно связанные с конструированием и анализом урока, рассматривались, во-первых, практически независимо друг от друга или, во всяком случае, без обоснования их содержательной взаимосвязи; во-вторых, вопросам анализа урока всегда уделялось больше внимания, чем вопросам его конструирования, что не могло не привести к некоторой односторонности, как в теоретической, так и в практической подготовке студентов, учителей-в системе педагогического образования.

Литературы

1. Конституция Республики Узбекистан. –Т.: “Узбекистан”. 2014.
2. Ляшенко С. Е. Лабораторное и практические работы по методике преподавания математики. -М., “Просвещение”. 1998.
3. www.lex.uz

Dilorom BESHIMOVA
Buxoro davlat univeriteti
differensial tenglamalar
kafedrasi o‘qituvchisi

DIFFERENSIAL GEOMETRIYA VA TOPOLOGIYA KURSIDA TO‘PLAMNING URINISH, CHEGARAVIY, ICHKI NUQTALARINI O‘QITISHDA “AQLIY HUJUM” METODINING TATBIQI

Ushbu maqolada to‘plamlarning urinish nuqtalari kabi mavzularni o‘rganamiz. Mazkur ishimizda to‘plamning urinish nuqtalarini talabalarlarga osongina o‘rgatish maqsadida “Aqliy hujum” metodidan foydalanamiz.

Kalit so‘zlar*: to‘plam , to‘plamning urunish nuqtasi, ichki nuqta, yakkalangan nuqta, “Aqliy hujum”, chegaraviy nuqta, limit nuqta.*

В этой статье мы рассматриваем темы о точках касания множества. В этой работе мы будем использовать метод мозгового штурма, чтобы легко научить студентов теме о точках касания множества.

Ключевые слова: *множество, точка касания множества, внутренняя точка, изолированная точка, мозговой штурм, граничная точка, предельная точка.*

In this article, we cover topics about tangency points of a set. In this work, we will use a brainstorming method to easily teach students about the touch points of a set.

Key words: *set, point of tangency of the set, interior point, isolated point, brainstorming, boundary point, limit point.*

Kirish. Biz differensial geometriya va topologiya kursida to‘plamlarning urinish nuqtalari kabi mavzularni o‘rganamiz. Mazkur ishimizda to‘plamning urinish nuqtalarini talabalarlarga osongina o‘rgatish maqsadida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishishni lozim topdik. Biz avvalambor “Aqliy hujum” metodiga ta’rif beramiz.

Asosiy qism. “Aqliy hujum” biror muammoni yechishda guruh qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to‘g’ri va ijodiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi. “Aqliy hujum” yordamida turli xil muammolarni hal qilishning yo‘llari izlanadi. Bu usul guruhning har bir a’zosi fikrini tezda yig’ish va umumlashtirish imkonini beradi. “Aqliy hujum”ni, o‘quvchilar muammo haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmagan hollarda ham qo‘llash mumkin. Bu kutilmagan, oddiy shiroitda aqlga kelmaydigan antiqa yechimlar topish imkonini beradi.

“Aqliy hujum” usulidan foydalanilganda, odatda, mashg’ulot ikki bosqichdan iborat bo‘ladi: birinchi bosqich - taklif bosqichi (“Aqliy hujum”ning o‘zi) va ikkinchi bosqich - tahlil hamda yechimlarni saralash bosqichi. Bosqichlar o‘rtasida kichik tanaffus berilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Aqliy hujum”ning birinchi bosqichini o‘tkazishga oid tavsiyalar:

Muammoning aniq va ravshan qo‘yish lozim!

“Aqliy hujum” o‘tkazish uchun asos bo‘lgan muammoning qisqacha mohiyatini katta qog’ozga (yoki doskaga, o‘quv taxtasiga) katta harflar bilan yozib, hammaga yaxshi ko‘rinadigan joyga osib qo‘ygan ma’qul.

“Aqliy hujum” - bitta muammo - har bir “Aqliy hujum” faqatgina bitta muammoni hal etishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Shartlashuv – “Aqliy hujum”ni o‘tkazish tartibi va shartlari ishtirokchilarning har biri uchun aniq-ravshan, tushunarli bo‘lishi kerak. Shartlar asosida mashg’ulotni o‘tkazish tartib-qoidalari tuziladi va qisqa ifodalangan qoidalarni hammaga ko‘rinadigan joyga yozib qo‘yish lozim.

Demokratiya – “Aqliy hujum”ga hamma teng huquqli ishtirok etadi. “Aqliy hujum” vaqtida bemalol, erkin ravishda muloqot yuritishni ta’minlash uchun ishtirokchilarni davra shaklida joylashtirish tavsiya etiladi.

Bemalol, istalgan takliflarni taklif qilish va tanqid qilmaslik - “Aqliy hujum”ning birinchi bosqichida birorta ham taklif muhokama etilmaydi va tanqid qilinmaydi. Kutilmagan g’oyalarni taklif etish qo‘llab - quvvatlanadi. Bu usul yordamida muammo yechimiga oid yetarli darajada ma’lumot to‘planadi. Qancha ko‘p g’oya va fikrlar bildirilsa, shuncha yaxshi. Bildirilgan g’oya va fikrlarni to‘ldirish va yanada kengaytirishga imkoniyat beriladi.

Asoslamaslik - biror bir g'oyani taklif etgan kishi o'z yechimini asoslamasligi va o'zi ham o'zgalar fikrini muhokama qilmasligi lozim. Chunki bu holat boshqa g'oyalar tug'ilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Rasmiylashtirish - har bir fikr, taklif va g'oyalar yozib borilishi lozim. O'qituvchi birinchi bosqich davomida bildirilgan g'oyalarni yozib boruvchi kotibni belgilashi lozim. G'oyalarni doskaga yozib borish lozim. Vaqtni tejash hamda o'z fikrini bemalol bayon etish uchun ishtirokchilarga o'z g'oyalarini qog'ozga yozib, sinf doskasiga sketch yordamida yonishtirib qo'yishni ham tavsiya etish mumkin. Bunda quyidagi tartibga amal qilish lozim: bir varaq - bitta g'oya - bitta so'z (ibora).

Vaqtni chegaralab qo'yish – g'oyani ifodalash uchun juda qisqa vaqt ajratilashi zarur.

Nazorat qilish va tartibga solish - "Aqliy hujum"ning birinchi bosqichi, odatda, kuchli emotsional - ruhiy vaziyatda o'tkazilgani uchun, o'qituvchi mashg'ulotning borishini nazorat qilishi hamda o'quvchilarning bir-birlari bilan bahslashish, munozara qilish va bir-birining gapini bo'lishga yo'l qo'ymasligi kerak.

Ikkinchi boqichda, ya'ni g'oyalarni tahlil qilish bosqichida taklif etilgar yechimlar, qarorlar muhokama etiladi, guruhlarga ajratiladi. Takrorlangan fikrlar birlashtiriladi, eng asosiy 3 - 4 ta g'oyalar saralanadi (makrosaralash). So'ngra tanlab olingan asosiy g'oyalardan eng maqbullari yana saralanadi (mikrosaralash). Mikrosaralash davomida ajratib olingan qarorlarning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va cheklangan tomonlariga baho berib chiqish mumkin.

Endi biz to'plam tushunchasi, to'plamning birlashmasi, to'plamning kesishmasi, to'plamning ayirmasi tushunchasini kiritib olishimiz kerak. To'plam tushunchasi matematikaning boshlang'ich tushunchalaridan biridir. "Aqliy hujum" usulidan foydalangan holda talabalarga to'plam tushunchasi, to'plamning birlashmasi, to'plamning kesishmasi, to'plamning ayirmasi tushunchalari haqidagi savollarni tashlaymiz. Talabalar o'z fikrlari va mulohazalarini bayon qiladilar. Bu javoblar ichida no'to'g'ri javoblar ham bo'lishi mumkin. Biz aytilgan fikrlarni yig'ib, umumlashtiramiz.

To'plam tushunchasi matematikaning boshlang'ich (ta'riflanmaydigan) tushunchalaridan biridir. U chekli yoki cheksiz ko'p obyektlar (narsalar, buyumlar, shaxslar va h.k.)ni birgalikda bir butun deb qarash natijasida vujudga keladi.

Masalan, O'zbekistondagi viloyatlar to'plami, viloyatdagi akademik litseylar to'plami, sonlar to'plami, to'g'ri chiziq kesmasidagi nuqtalar to'plami, sinfdagi o'quvchilar to'plami va hokazo. To'plamni tashkil etgan obyektlar uning elementlari deyiladi.

A va B to'plamlarning ikkalasida ham mavjud bo'lgan x elementga shu to'plamlarning umumiy elementi deyiladi. A va B to'plamlarning kesishmasi (yoki ko'paytmasi) deb, ularning barcha umumiy elementlaridan tuzilgan to'plamga aytiladi. A va B to'plamlarning kesishmasi A va B to'plamlarning birlashmasi (yoki yig'indisi) deb, ularning kamida bittasida mavjud bo'lgan barcha elementlardan tuzilgan to'plamga aytiladi. A va B to'plamlarning birlashmasi deyiladi.

A va B to'plamlarning ayirmasi deb, A ning B da mavjud bo'lmagan barcha elementlaridan tuzilgan to'plamga aytiladi. A va B to'plamlarning ayirmasi A\B ko'rinishda `belgilanadi.

"Aqliy hujum" usulidan foydalangan holda talabalarni fikrlarini birlashtirib to'plam tushunchalarini o'rganib oldik. Endi asosiy mavzularni talabalarga havola etamiz.

To'plamning urinish, chegaraviy, ichki nuqtalarini o'rganish bugungi mavzuimiz.

"Aqliy hujum" usulidan foydalanib talabalarga shu savollarni beramiz. Talaba o'z fikr va mulohazalarini bildiradi.

1.Ta'rif. Agar x nuqtaning har bir Ox atrofi $M \subset X$ to'plamning kamida bitta nuqtasini o'z ichiga olsa, ya'ni $M \cap Ox \neq \varnothing$ bo'lsa, x nuqta M to'plamning urinish nuqtasi deyiladi. (X,τ) topologik fazodagi M to'plamning barcha urinish nuqtalari to'plami $[M]_X$ orqali yoki $[M]$ kabi belgilanadi.

Ta'rifdan ko'rinadiki, M to'plamning har bir nuqtasi shu to'plamning uchun urinish nuqtasi bo'ladi, ya'ni $M \subseteq [M]$.

1.**Tasdiq.** M to'plamning yopiq bo'lishi uchun $M = [M]$ shartning bajarilishi zarur va yetarlidir.

Isbot. Zarurligi. Aytaylik, M to'plam (X,τ) topologik fazodagi biror yopiq to'plam bo'lsin. U holda $X \setminus M = G$ to'plam (X,τ) topologik fazoda ochiq to'plam bo'ladi. Ixtiyoriy $x \in G$ nuqta ichki nuqta ekanligidan bu nuqtaning shunday Ox atrofi mavjudki, $Ox \subset G$ bo'ladi. Bu esa ixtiyoriy $x \in X \setminus M$ nuqtaning M to'plam uchun urinish nuqtasi emasligini bildiradi. Demak, $M = [M]$ ekan.

Yetarliligi. Faraz qilaylik, M - to'plam o'zining yopig'i bilan ustma-ust tushsin, ya'ni $M = [M]$ bo'lsin. Bu to'plamning yopiq ekanligini ko'rsatamiz. Buning uchun to'ldirma to'plamdan ixtiyoriy

$y \in X \setminus M = X \setminus [M]$ - nuqtani olamiz. Bu y - nuqta $X \setminus M$ to‘plamning urinish nuqtasi emasligidan, shunday Oy atrof mavjudki, $Oy \subset X \setminus M$ bo‘ladi. y nuqtaning ixtiyoriyligidan $X \setminus M$ to‘plamning ochiq ekanligi kelib chiqadi. Demak, M - yopiq to‘plam ekan. 2 tasdiq isbotlandi.

Aytaylik A va B to‘plamlar (X, τ) topologik fazoning qism to‘plamlari bo‘lib $A \subset B$ shart bajarilsin. U holda $[A] \subseteq [B]$ munosabat o‘rinli bo‘ladi.

Haqiqatan ham, $A \subset B$ ekanligidan A to‘plamning barcha urinish nuqtalari B to‘plamning ham urinish nuqtalari bo‘ladi. Demak, $[A] \subseteq [B]$ munosabat o‘rinli ekan.

2.**Tasdiq.** Ixtiyoriy (X, τ) topologik fazo va ixtiyoriy $A \subset X$ to‘plam berilgan bo‘lsin. U holda $A \subset X$ to‘plam uchun quyidagi shartlar teng kuchli:

1) x nuqta $[A]$ to‘plamga tegishli;

2) x nuqtadagi ixtiyoriy $B(x)$ baza va ixtiyoriy $U \in B(x)$ elementi uchun $U \cap A \neq \varnothing$ o‘rinli;

3) x nuqtada shunday $B(x)$ baza mavjudki, bu bazaning ixtiyoriy $U \in B(x)$ elementi uchun $U \cap A \neq \varnothing$ shart bajariladi.

Isboti. 1)$\Rightarrow$2). Teskarisidan faraz qilaylik, ya’ni x nuqtadagi $B(x)$ baza uchun shunday $U \in B(x)$ element topilib, $U \cap A = \varnothing$ bo‘lsin. U element x nuqtaning ochiq atrofi bo‘ladi. Bu esa x nuqta A to‘plamning urinish nuqtasi emasligi kelib chiqadi. Demak, $x \notin [A]$ ekan. Bu esa 1) shartga zid.

2)$\Rightarrow$3) ning isboti oddiy. 3)$\Rightarrow$1)ning isboti urinish nuqta ta’rifidan bevosita kelib chiqadi. 3 tasdiq isbotlandi.

1.Natija. Agar U - ochiq to‘plam va $U \cap A = \varnothing$ bo‘lsa, u holda $U \cap [A] = \varnothing$. Xususan, agar U va V o‘zaro kesishmaydigan ochiq to‘plamlar bo‘lsa, u holda $U \cap [V] = \varnothing = [U] \cap V$ bo‘ladi.

Isboti. 1) Teskarisini faraz qilamiz. Aytaylik, shunday x nuqta mavjud bo‘lsinki, $x \in U \cap [A]$ bo‘lsin. Bundan $x \in U$ va $x \in [A]$ ga ega bo‘lamiz. 3 tasdiqqa ko‘ra $U \cap A \neq \varnothing$ kelib chiqadi. Bu esa qilgan farazimizga zid.

2) bizga U va V o‘zaro kesishmaydigan ochiq to‘plamlar berilgan bo‘lsin. Faraz qilaylik $U \cap [V] \neq \varnothing$ kesishsin, u holda shunday x nuqta mavjud bo‘lsinki, $x \in U \cap [V]$ bo‘ladi. Bundan $x \in U$ va $x \in [V]$ ga ega bo‘lamiz. $x \in U$ dan x nuqtaning shunday $O_1 x$ atrofi mavjudki, $O_1 x \subset U$ bo‘ladi. $x \in [V]$ dan va x nuqtaning urinish nuqtaligidan $O_1 x \cap V \neq \varnothing$ kesishmaning bo‘sh emasligi kelib chiqadi. Bundan $U \cap V \neq \varnothing$ ekanligi kelib chiqadi. Bu esa natija shartiga zid. Natijaning qolgan qismi 2) kabi isbotlanadi. 1 natija isbotlandi.

2. Tasdiq. Yopilma operatori quyidagi xossalarga ega:

(SO1) $[\varnothing] = \varnothing$.

(SO2) $A \subset [A]$.

(SO3) $[A \cup B] = [A] \cup [B]$.

(SO4) $[[A]] = [A]$.

Isboti. (SO1) va (SO2) xossalar ta’rifdan bevosita kelib chiqadi.

(SO3) xossaning isbotini ko‘rsatamiz. Aytaylik, $x \in [A \cup B]$ bo‘lsin, u holda x nuqtaning ixtiriy $B(x)$ bazasi va ixtiyoriy $U \in B(x)$ ochiq atrofi uchun $U \cap (A \cup B) \neq \varnothing$ ga ega bqlamiz. Bundan yoki $U \cap A \neq \varnothing$, yoki $U \cap B \neq \varnothing$ ekanligi kelib chiqadi. Birinchi holda $x \in [A]$, ikkinchi holda esa $x \in [B]$ bo‘ladi. Bu ikki munosabatlardan $x \in [A \cup B]$ ni hosil qilamiz.

Aksincha, $x \in [A] \cup [B]$ bo‘lsin. U holda yoki $x \in [A]$, yoki $x \in [B]$ bo‘ladi. Birinchi yoki ikkinchi hollarda ixtiyoriy $U \in B(x)$ ochiq atrof uchun $U \cap (A \cup B) \neq \varnothing$ ga ega bo‘lamiz. Bundan $x \in [A \cup B]$ ekanligi kelib chiqadi.

(SO4) xossani ko‘rsatamiz. $A \subset [A]$ ekanligidan $[A] \subset [[A]]$ kelib chiqadi. Teskarisini ko‘rsatamiz. Aytaylik $x \in [[A]]$ bo‘lsin. U holda x nuqtaning ixtiyoriy Ox atrofi [A] to‘plam bilan kesishadi, ya’ni $Ox \cap [A] \neq \varnothing$ bo‘ladi. Ixtiyoriy $x_1 \in Ox \cap [A]$ nuqtani olamiz. Bu x nuqtaning atrofi sifatida Ox atrofni

olamiz. U holda $Ox \cap A \neq \varnothing$ bo‘ladi. Bundan $x \in [A]$ ekanligi kelib chiqadi. Demak, $[[A]] \subset [A]$. 4 tasdiq isbot bo‘ldi.

2.Ta’rif. Biror $x \in A$ nuqtaning shunday Ox atrofi mavjud bo‘lsaki, $Ox \subset A$ shart bajarilsa, u holda x nuqtaga A to‘plamning ichki nuqtasi deyiladi.

A to‘plamning barcha ichki nuqtalari to‘plami $IntA$ bilan belgilaniladi.

3. Tasdiq. $U \subset X$ to‘plam ochiq bo‘lishi uchun $U = IntU$ bo‘lishi zarur va yetarli.

Isboti. a) faraz qilaylik U to‘plam (X, τ) topologik fazoda ochiq bo‘lsin. 1.1. tasdiqqa ko‘ra ixtiyoriy $x \in U$ nuqta uchun shunday Ox atrof topilib, $Ox \subset U$ bo‘ladi. Demak $x \in IntU$ ekan.

b) aytaylik, $U = IntU$ bo‘lsin. U holda ixtiyoriy $y \in U = IntU$ nuqta uchun shunday Ox atrofga topilib, $Ox \subset U$ bo‘ladi. 1 tasdiqga ko‘ra U ochiq to‘plam. 5 tasdiq isbotlandi.

4**. Tasdiq.** x nuqta $IntA$ da yotishi uchun x ning shunday U atrofi topilib, $U \subset A$ shartning bajarilishi zarur va yetarlidir.

Isboti. a) x nuqta $IntA$ da yotsin. U holda ichki nuqta ta’rifiga ko‘ra shunday x nuqtaning shunday U topilib, $U \subset A$ shart bajariladi.

b) x nuqta shunday U atrofga ega bo‘lib, $U \subset A$ shart bajarilsin. Bu esa $x \in IntA$ bildiradi. 1.7. tasdiq isbotlandi.

5. Tasdiq. Ixtiyoriy $A \subset X$ to‘plam uchun quyidagi tenglik o‘rinli:

$$IntA = X \setminus [X \setminus A].$$

Isboti. a) ixtiyoriy $x \in IntA$ nuqtani olaylik, u holda x nuqtaning shunday Ox atrofi mavjudki, $Ox \subset A$ bo‘ladi. Bundan $x \notin [X \setminus A]$ ekanligi kelib chiqadi. O‘z navbatida $x \in X \setminus [X \setminus A]$ bo‘ladi.

b) aksincha, $y \in X \setminus [X \setminus A]$ bo‘lsin, u holda $y \notin [X \setminus A]$ bo‘ladi. Bundan y nuqtaning shunday Oy atrofi mavjudki, $Oy \cap (X \setminus A) = \varnothing$. Bundan esa $Oy \subset A$ ekanligi kelib chiqadi. Tasdiq 1.7.ga ko‘ra $y \in IntA$ ga egamiz. Shunday qilib 7 tasdiq isbot bo‘ldi.

6.Tasdiq. Int operatori quyidagi xossalarga ega:

(IO1) $IntX = X$.

(IO2) $IntA \subset A$.

(IO3) $Int(A \cap B) = IntA \cap IntB$.

(IO4) $Int(IntA) = IntA$.

Isboti. (IO1) xossa o‘rinliligini ko‘rsatamiz. (O1) ga ko‘ra $X \in \tau$, ya’ni X ochiq to‘plam. 5 tasdiqqa ko‘ra $X = IntX$.

(IO2) xossani isbot qilamiz. $x \in IntA$ bo‘lsin, u holda shunday Ox atrof mavjudki, $Ox \subset A$ bo‘ladi. Bundan $x \in A$ bo‘ladi. Natijada $IntA \subset A$ ekanligi kelib chiqdi.

(IO3) xossani tekshiramiz.

a) ixtiyoriy $x \in Int(A \cap B)$ nuqtani olamiz, u holda bu nuqtaning shunday Ox atrofi topiladiki, $Ox \subset (A \cap B)$ bo‘ladi. Bundan $Ox \subset A$ va $Ox \subset B$ ga ega bo‘lamiz. O‘z navbatida $x \in IntA$ va $x \in IntB$ ekanligi kelib chiqadi. Bundan $x \in IntA \cap IntB$.

b) ixtiyoriy $x \in IntA \cap IntB$ nuqtani olamiz. Bundan $x \in IntA$ va $x \in IntB$ bo‘ladi. U holda x nuqtaning shunday O_1x va O_2x atroflari topiladiki, $O_1x \subset A$ va $O_2x \subset B$ bo‘ladi. $Ox = O_1x \cap O_2x$ deb olamiz. U holda $Ox \subset A \cap B$. Bundan esa $x \in Int(A \cap B)$ ekanligi kelib chiqadi.

(IO4) xossani isbotlaymiz. 7 tasdiqga ko‘ra, ixtiyoriy $A \subset X$ to‘plam uchun $IntA = X \setminus [X \setminus A]$ ga egamiz. Bu esa ixtiyoriy $A \subset X$ to‘plam uchun $IntA$ ochiq to‘plam ekanligini bildiradi. 5 tasdiqga ko‘ra $Int(IntA) = IntA$. 8 tasdiq isbotlandi.

Misollar. 1) Aytaylik, $X_1 = (a,b)$ - to‘g‘ri chiziqdagi interval berilgan bo‘lsin. U holda 5 tasdiqga ko‘ra $IntX_1 = (a,b)$ bo‘ladi.

2) $X_2 = [a,b), X_3 = (a,b]$ - to‘g‘ri chiziqdagi yarim intervallar berilgan bo‘lsin. U holda $IntX_2 = (a,b)$ va $IntX_3 = (a,b)$ bo‘ladi.

3) Q - barcha ratsionallar to‘plami berilgan bo‘lsin. U holda $IntQ = \varnothing$ bo‘ladi.

4) $\Im$ - barcha irratsional sonlar to‘plami berilgan bo‘lsin. U holda $Int\Im = \varnothing$ bo‘ladi.

5) $Z = \{...,-2,\ -1,0,1,2,...\}$ - barcha butun sonlar to‘plami berilgan bo‘lsin. U holda $IntZ = \varnothing$ bo‘ladi.

6) $N = \{1,2,...,n,...\}$ - barcha natural sonlar to‘plami berilgan bo‘lsin. U holda $IntN = \varnothing$ bo‘ladi.

A - to‘plam (X,τ) topologik fazoning to‘plam ostisi bo‘lsin.

3.Ta’rif. x - nuqta A to‘plamning chegaraviy nuqtasi deyiladi, agar uning ixtiyoriy Ox atrofi A to‘plam va $X \setminus A$ to‘plam bilan kesishsa, ya’ni $Ox \cap A \neq \varnothing$ va $Ox \cap (X \setminus A) \neq \varnothing$ shartlar bajarilsa.

A to‘plamning chegarasini FrA ko‘rinishda belgilaniladi.

$FrA = [A] \cap [X \setminus A]$ tenglikning o‘rinligi 3- ta’rifdan kelib chiqadi.

Adabiyotlar

1. Armstrong M. A. Basic Topology. -Springer, 1998.

2. Narmanov A.Y. Differensial geometriya. -T.: “Turon-Iqbol”, 2016. -225 bet.

3. Narmanov A.Y., Sharipov A.S., Aslonov J.O. Differensial geometriya va topologiya kursidan masalalar to‘plami. -T.: “Universitet”, 2014.

4. Федорчук В.В. Введение в топологию. –Москва: изд. МГУ, 2014.

5. Энгелькинг Р. Общая топология. -Москва: “Мир”, 1986. – 752 с.

6. Narmanov A.Y., Sharipov A.S., Aslonov J.O. Differensial geometriya va topologiya kursidan masalalar to‘plami. –Toshkent: “Universitet” nashriyoti , 2014-yil.

7. Narmanov A.Y. Differensial geometriya. –Toshkent: “Universitet” nashriyoti, 2010-yil.

8. Jo‘rayev T.F. Topologiyaga kirish. -Toshkent, “Tafakkur-Bo‘stoni” nashriyoti, 2012-yil.

9. Mo‘minov Z.I. Differensial geometriya va topologiya fanidan o‘quv-uslubiy majmua. -Samarqand, 2010-yil.

10. Погарелов А.В. Геометрия. -Издательство “Наука”, 1984

Sagidat KANATBAYEV
Navoiy davlat pedagogika instituti
dotsenti

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA FIZIKADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISHNING HOLATI VA MUAMMOLARI

Ushbu maqolada hozirgi kunda umumta'lim maktablarida fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishning sinflar va yillar kesimidagi holati, bu jarayonda kuzatiladigan kamchiliklar va muammolar hamda ularning yechimi bo'yicha tahliliy mulohazalar bayon etiladi.

Tayanch so'zlar: *ko'nikma, fizika, kompetent, laboratoriya, maktab, ta'limi sifati, eksperiment, hodisa, ilmiy yondashuv.*

В статье описывается текущее состояние лабораторных занятий по физике в общеобразовательных школах по классам и годам, выявленные недостатки и проблемы, а также аналитические соображения по их решениям.

Ключевые слова: *навык, физика, компетентность, лаборатория, школа, качество обучения, эксперимент, мероприятие, научный подход.*

The article describes the current state of laboratory classes in physics in general education schools by grade and year, identified shortcomings and problems, as well as analytical considerations for their solutions.

Key words: *society, spirituality, education, people, intelligent person, personality*.

Kirish. Hozirgi kunda respublikamizda ta'lim tizimiga va uning rivojiga katta ahamiyat berilib, ta'limga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muhim masala hisoblanadi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning asarlarida, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida, Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalarida, ta'lim tizimini rivojlantirmasdan turib ilm-fan, ishlab chiqarish va turli xil sohalarda yangiliklarni hamda innovatsiyalarni amalga oshirishning iloji yo'qligini qayta-qayta ta'kidlanmoqda. Mustaqillikka erishgan yillardan to bugungi kunga qadar ta'lim sohasidagi erishgan yutuq va kamchiliklarni sarhisob qilinishi natijasida hamma sohalar kabi ta'lim tizimini rivojlantirishning qonuniy jihatlariga alohida e'tibor berilib, birqancha qonun va qonun osti hujjatlari, qarorlar va farmoyishlar chiqarildiki, maqsad ta'limga bo'lgan e'tibor, sohaning moddiy texnik bazasini mustahkamlash va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb qilish va ta'lim-tarbiya beruvchi o'qituvchilarning bilim va saviyasini kuchaytirish hamda jamiyatda muallimlarning roli nihoyatda katta ekanligini anglatishdan iborat. Jumladan, davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida: **"Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi",** degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz", shuningdek, "Agar tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyodagi deyarli barcha kashfiyot va texnologiyalarni yaratishda fizika fani fundamental asos bo'lganini ko'ramiz. Haqiqatan ham,fizika qonuniyatlarini chuqur egallamasdan turib, mashinasozlik, elektrotexnika, IT, suv va energiyani tejaydigan texnologiyalar kabi bugun zamon talab qilayotgan sohalarda natijaga erishib bo'lmaydi." [1] degan strategik g'oya kun tartibiga qo'yildi.

Ushbu maqolada hozirgi kunda umumta'lim maktablarida fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishning sinflar va yillar kesimidagi holati, bu jarayonda kuzatiladigan kamchiliklar va muammolar hamda ularning yechimi bo'yicha tahliliy mulohazalar bayon etiladi.

Asosiy qism. Fizika fani texnika va ko'plab ishlab chiqarish texnologiyalarining asosi bo'lib, fizika ta'limi samaradorligini oshirish turli yo'nalishlarda yetuk mutaxassislar tayyorlash jarayonining sifati va samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Fizika fanini o'qitish samaradorligini oshirishning asosiy bo'g'inlaridan biri nazariy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirib o'rganishga xizmat qiluvchi amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlaridir. Laboratoriya mashg'ulotlarida o'quvchilarning nazariy bilimlari mustahkamlanishi bilan birga amaliy bilim va ko'nikmalari shakllanadi. Shu jihatdan qaralganda fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish metodikasining to'g'ri tanlanishi, laboratoriya ishlarining soni va mazmunini takomillashtirish vazifasi hamda bu vazifani amalga oshiruvchi yuqori kompetentli – o'z kasbini makammal egallangan bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlash masalasi pedagogika oliy ta'lim muassasalari oldida turgan dolzarb masaladir. Bu masalani ham etish va amalga oshirish uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni umumlashgan holda quyidagi sxemada tasvirlash mumkin.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish va bu sohada rivojlangan davlatlar darajasiga ko'tarilish maqsadida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Davlat ta'lim standartlari" qayta ko'rib chiqildi. Shu

maqsadda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan masalalar va ular orasidagi uzviy bog’lanishlar 1-rasmdagi sxemada keltirilgan.

Umumta’lim maktablarida, o‘rta maxsus ta’lim tizimi va oliy ta’lim tizimlarida darslik va o‘quv qo‘llanmalarning yangi avlodini yaratish, umumta’lim maktablaridan tortib oliy ta’limga qadar ta’lim tizimida o‘qitiladigan fanlarning mavzularining bir-biri bilan takrorlanmasligi, aksincha turdiruvchi mavzularni o‘zida mujassam etgan bo‘lishligi kerakdir. Umumta’lim maktablarida aniq va tabiiy fanlarni ham o‘qitishda mana shularga ahamiyat qaratish lozimdir.



1-rasm. Fizika ta’limi sifatini va samaradorligini oshirish mexanizmida laboratoriya mashg’ulotlarining o‘rni

Jumladan, umumta’lim maktablarida fizika fan 6-11-sinflarda o‘qitilib, maktab 6-sinfda fizika faniga kirishish uchun mo‘ljallangan mavzular tanlab olingan bo‘lsa, 7-, 8-, 9-sinflarda umumiy fizika kursini mexanika, elektrostatika va molekulyar fizika hamda atom va yadro fizikasiga doir mavzular o‘qitiladi.

Ushbu umumta’lim maktablarida fizika fanini o‘qitishda fizika fanidan bajariladigan laboratoriya mashg‘ulotlari va ushbu laboratoriya ishlarini to‘g‘ri tanlab olish muhimdir. Shuni takidlash joizki, umumta’lim maktablari o‘quv dasturi asosida 6-11-sinflarga haftalik 2 soatlik dars mashg‘ulotlari olib boriladi. Bu bir necha yildirki saqlanib qolingan va yillar davomida o‘zgartirilmagan.

Maktab o‘quvchilarining fizikadan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishi orqali ularning nazariy va amaliy bilimlarining mustahkamlashishiga, ularda eksperimental ko‘nikmalarning takomillashishiga erishish mumkin bo‘ladi. Eksperimentning lug‘abiy ma’nosiga ahamiyat qaratadigan bo‘lsak – tajriba qilish va sinab ko‘rish, insonning obyektga moddiy ta’sir ko‘rsatishiga, voqelikni amaliy o‘zlashtirishiga, bilimlarni boyitish va rivojlantirishga yordam beradi. Tabiiy va texnika fanlarida eksperimentdan haqiqatni bilish va uni isbotlash vositasi sifatida foydalaniladi. Demak, maktab davridayoq o‘quvchilarning eksperimental ko‘nikmalarininng shakllanishi va takomillashib borishi shart va zarurdir. Bu esa, o‘z navbatida, maktabda bajariladigan laboratoriya mashg‘ulotlari uchun ajratilgan o‘quv mashg’ulotlari hajmi va bu mashg’ulotlarni o‘tkazilish sifati va darajasiga ham ko‘p jihatdan bog’liqdir.

So‘ngi o‘n yillir davomida umumta’lim maktablarida fizika fani dasturlarining tahliliy fizika fani bo‘yicha bajariladigan laboratoriya mashg‘ulotlariga ajratilgan soatlar hajmi yillar davomida deyarli o‘zgarmaganligini ko‘rsatadi. Quyidagi 1-grafikda 6-11-sinflarda fizika fanidan bajariladigan laboratoriya mashg‘ulotlarini yillar kesimidagi bajarilish holati keltirilgan. Keltirilgan grafikdagi ma’lumotlar hamda umumta’lim maktablarida fizika fanidan laboratoriya mashg’ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha ko‘p yillik tajribalarni taqqoslash asosida quyidagi tahliliy xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Umumta’lim maktablarida fizika fani bo‘yicha laboratoriya mashg’ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmi kamligi bu fanni mukammal o‘rganish uchun yetarli emas.

2. Fizika fani bo‘yicha laboratoriya mashg’ulotlarining hajmi va mazmuni yillar davomida o‘zgarmasdan qolgan.

3. Fizika fani bo‘yicha darsliklarda laboratoriya mashg’ulotlarini o‘tkazish tartibi va undan kelib chiqadigan xulosalar o‘zgarmagan va bir yoqlama tahlil etilgan.

4. Fizika fanidan laboratoriya mashg’ulotlarida ishlab chiqarish bilan bog’lanish amalga oshirilmagan.

5. Fizikadan laboratoriya mashg’ulotlarida ekologik ta’limga e’tibor berilmagan.

6. Fizikadan laboratoriya mashg’ulotlarida ilmiylikni hisobga olgan holda “ta’lim-ishlab chiqarish-fan” integratsiyasi hisobga olinmagan.

1-grafik. ***Umumta’lim maktablarida 2010-2019-yillarda fizika fanidan laboratoriya mashg’ulotlari o‘quv soatlarining o‘zgarishi***



Yuqorida keltirilgan kamchiliklar o‘z navbatida umumta’lim maktab o‘quvchilarining fizikadan eksperimental ko‘nikmalarini takomillashtirishda sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Muhokamalar va natijalar. Ma’lumki, fizika fani o‘rganadigan qonuniyatlar texnika va ko‘plab texnologik jarayonlarning asosini tashkil qiladi. Shu sababli ishlab chiqarish samaradorligini va shu orqali mamlakatning iqtisodiy potensialini orttirish masalasi barcha sohalar uchun yetuk va malakali kadrlar tayyorlash masalasi bilan bevosita bog’liqdir. Turli sohalar uchun malakali kadrlar tayyorlash masalasi esa umumta’lim tizmining samaradorligiga va, o‘z navbatida, shu tizimda faoliyat yuritadigan pedagog kadrlar kompetentligiga borib taqaladi. Shu nuqtayi-nazardan olib qaraganda fizika ta’limi samadorligini oshirish, avvalo, pedagogika oliy ta’lim muassasalarida fizika o‘qitish fanidan laboratoriya mashg’ulotlari mazmunining maktab fizika laboratoriyasi mashg’ulotlari mazmuni bilan moslashtirilishi maqsadga muvifiqdir.

Laboratoriya mashg’ulotlarini o‘tkazishda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omillari sifatida quyidagi vazifalarni keltirish mumkin:

1. Laboratoriya mashg’ulotlarida ishlab chiqarish bilan bog’lanishni amalga oshirish.

2. Laboratoriya mashg’ulotlarini bajarishda fanlararo bog’lanishdan samarali foydalanish.

3. Laboratoriya mashg’ulotlarida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish orqali ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

4. Laboratoriya mashg’ulotlarida o‘quvchilar ongida ekologik tushuncha va tassavvurlarni shakllantirish.

Albatta, bu vazifalarni amalga oshirish samaradorligi pirovard natijada pedagogik kadrlarning saviyasi, malaka va ko‘nikmalariga bog’liq bo‘ladi. Yuqori malakali pedagog har qanday darsning har bir mavzusida ixtiyoriy ishlab chiqarish jarayoni yoki ixtiyoriy fan bilan bog’lanishni amalga oshira oladi. Haqiqatdan ham, fizika fani bo‘yicha laboratoriya mashg’ulotlari ma’lim ma’noda ishlab chiqarish texnologik jarayoyining bir qismi deb qarash mumkin. Masalan, 7-sinf fizika dasturidagi “Tekis tezlanuvchan harakatda jism tezlanishini aniqlash” [5, 47], 10-sinf fizika dasturidagi “Qiya tekislikning F.I.K.ni aniqlash” [8, 51] mavzusidagi laboratoriya mashg’ulotlarini konchilik sanoatidagi karyerlardan rudani transportyorlar yordamida chiqarish jarayonlari bilan taqqoslash mumkin.

Shuningdek, fizika fanidan har bir laboratoriya ishi ma’lum bir fizik jarayonning qonuniyatini ilmiy eksperimental tadqiqoti ekanligini yodda tutish lozim. Haqiqatdan ham o‘rganilayotgan oddiy laboratoriya mashg’uloti dastlabki davrlarda yangi kashfiyot sifatida qabul qilingan, O‘quvchi yoki talaba bu kashfiyotni o‘zlashtirish orqali, uni yanada rivojlantirishi va yangi holatlarga tadbiq etishi rejalashtirilishi lozim. Bunday yondashuv orqali o‘quchilarda har bir fizik hodisani o‘rganishga ilmiy yondashuv shakllanadi. Shu o‘rinda

fizika tarixiga nazar solib, ko‘plab buyuk ilmiy kashfiyotlarning juda oddiy usullarda kashf qilinganligini esdan chiqarmaslik lozim.

Yuqorida keltirilgandek har bir nazariy mavzu yoki laboratoriya mashg’ulotini ekologik tasavvurlarni shakllantirishga ham yo‘naltirish mumkin. Masalan, elektroliz hodisasi bo‘yicha laboratoriya mashg’ulotlarida turli oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan, o‘simlik yo‘g’larini elektrokimyoviy rafinlash orqali ekologik toza mahsulot olish mumkinligini ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarda ekologik tasavvurlarni shakllanitishda elektr energiyasi olishning ekologik toza usullari bo‘yicha ma’lumotlar berish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy talablarni hisobga olgan holda maktab fizika kursida bajariladigan laboratoriya mashg‘ulotlarining hajmini ko‘paytirish va ularni sinflar kesimida tahlili orqali optimallashtirish, kerakli yangi turdagi laboratoriya mashg’ulotlarini fan dasturiga kiritish fizika fanini o‘qitishda sifat va samaradorlikni oshirishga hamda fizika fanining ustuvor yo‘nalish sifatida o‘qitilishidan ko‘zlangan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Toshkent, 29.12.2020-y.

2. Mirzaxmedov B.M., Mamadiyorov N.M. O‘rta maktabda fizika o‘qitish metodikasi. –Guliston, 1992-y.

3. Усова А.В., Бобров А.А. Формирование учебных умений и навыков учашихся на уроках физики. -М.: “Просвешение”, 1988. - 122 с.

4. Шахмаев Н.М., Шилов В.Ф. Физический эксперимент в средней школе: Механика. Молекулярная физика. Электродинамика. - М.: “Просвешение”, 1989. -255 с.

5. Habibullayev P.Q., Boydedayev A., Bahromov A.D. Fizika: umumiy o‘rta ta’lim maktablari 7-sinfi uchun darslik. - T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. - 176 b.

6. Habibullayev P.Q., Boydedayev A., Bahromov A.D., Usarov J., Suyarov K., Yuldasheva M. Fizika: umumiy o‘rta ta’lim maktablari 8-sinfi uchun darslik. - T.: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. - 176 b.

7. Habibullayev P.Q., Boydedayev A., Bahromov A.D., Usarov J., Suyarov K., Yuldasheva M. Fizika: umumiy o‘rta ta’lim maktablari 9-sinfi uchun darslik. - T.: “G’ofur G’ulom” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. - 176 b.

8. Turdiyev N. Sh., Tursunmetov K. A., G’aniyev A.G., Suyarov K.T., Usarov J.E., Avliyoqulov A. K. Fizika. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik. – T.: “Niso Poligraf” nashriyoti, 2017. – 176 b.

9. Turdiyev N. Sh., Tursunmetov K. A., G’aniyev A.G., Suyarov K.T., Usarov J.E., Avliyoqulov A. K. Fizika. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik. – T.: “Niso Poligraf” nashriyoti, 2018. – 192 b.

Мухаммад РАХМАТОВ
Бухарский инженерно технологический институт

Сарвар ИСКАНДАРОВ
Бухарский инженерно технологический институт

Нарзилло БИБУТОВ
Студенты специальности “ЕУТТ”

Азизжон ХОЖИЕВ
Студенты специальности “ЕУТТ”

ЛАБОРАТОРНЫЕ РАБОТЫ ПО ТЕХНИЧЕСКОЙ МЕХАНИКЕ

В статье приводятся материалы связанные с лаборатор-ными работами по технической механике. Излагается цель и задачи проведения экспериментальных исследований, установки и оборудования, а также теоретические материалы и технологическая карта некоторых лабораторных работ.

Ключевые слова: *техническая механика, лабораторные работы, анализ, опасное состояние, экспериментальное исследование, методические указание.*

Мақолада техник механикага оид лаборатория ишларига оид материаллар келтирилган. Эксперимент тадқиқотларнинг мақсади ва вазифалари, монтаж ва жиҳозлар, шунингдек назарий материаллар ва айрим лаборатория ишларининг технологик харитаси келтирилган.

Калит сўзлар: *техник механика, лаборатория иши, таҳлил, хавфли ҳолат, тажриба иши, услубий кўрсатмалар.*

The article presents materials related to laboratory work on technical mechanics. The purpose and objectives of experimental research, installation and equipment, as well as theoretical materials and technological map of some laboratory work are presented.

Key words: *technical mechanics, laboratory work, analysis, dangerous condition, experimental study, methodological instructions.*

Программой курса техническая механика для специальности “Пищевая технология” и “Химическая технология” на выполнение лабораторных работ предусмотрена 1⁄4 часов от общей аудиторных занятий, которые проводятся по всем разделам названного курса - теоретическая механика, теория механизмов и машин, сопротивление материалов и детали машин. Эти предметы тесно взаимно связаны между собой.

Техническая механика имеет отношение ко всем явлениям природы и творениям техники, ко всем естественным научным дисциплинам. По существу, ни одно явление природы не может быть в должной мере понято без уяснения его механической стороны, и ни одно творение техники нельзя создать, не принимая в расчет те или иные механические закономерности. любое явление в окружающем нас макромире связано с движением, следовательно, не может не иметь того или иного отношения к механике. В этом и заключается прикладной характер механики.

При эксплуатации механизмов и машин из-за внезапного увеличения нагрузки или не правильного расчета и выбора параметров наступает опасное состояние, при котором детали разрушаются (рис.1,а) или в точке контакта происходит притирание (рис.1,б). Опасным состоянием понима-ется разрушение или появление остаточной деформации Если не обеспечи-вается достаточный прочность, жесткость и устойчивость деталей и в целом механизмов и машин, то происходит потери их работоспособности. Например, из-за недостаточного расчета и выбора толщины стенки цистерны вагона, цистерна под действием собственного веса по длине деформируется (рис.1,в).

Для изучения появления опасного состояния материала деталей машин и механических передач, необходимо провести экспериментальные исследования. Только экспериментально можно установить опасное состояние материала и выбор допускаемого напряжения. Известно, что при заданной нагрузке и материала, если максимальное напряжение в опасном сечении не превышает допускаемого напряжения, то прочность деталей машин будет обеспечена. Выбор допускаемого напряжения производится на основании лабораторных исследований и анализа полученных результатов. Поэтому, целью лабораторных работ является ознакомить студентов методикой проведения экспериментов.

Проведение лабораторных работ – одна из форм занятия. Обычно занятие целиком посвящается выполнению и оформлению лабораторной работы, но целесообразно, часть времени потратить на проверку готовности студентов к выполнению лабораторной работы. Проведение лабораторной работы даёт ответ на вопросы возникающие на предыдущей лекции.

а)

б)

рисунок-1.а) разрушение зуба; б) притирание зуба; в) деформация цистерны вагона; г) деформация наружного кольца подшипника

в)

г)

Полное и подробное изложение всех вопросов, связанных с лабора-торными работами, требует довольно больших затрат времени. Их можно уменьшить, если не рассматривать на лекциях те вопросы, которые входят в содержание лабораторных работ. Кроме того, некоторые вопросы можно прорабатывать дома с выполнением конспекта, используя электронные пособия в виде видеофильма. Очень желательно иметь презентационные слайды-вертуальные материалы.

При проведении некоторых лабораторных работ целесообразно совмещать их с решением задач, результаты которых проверяются экспери-ментально. Например, определение и построение эпюры внутренних силовых факторов при изгибе (поперечная сила и изгибающий момент).

К таким лабораторным работам относится лабораторные работы связанные с аналитико-экспериментальнным определением перемещений при изгибе. При этом экспериментально определенный прогиб и угол поворота сечения балки проверяется аналитически с применением одну из следующих способов: метод начальных параметров, графоаналитический метод или применение интеграла Мора. Деформацию винтовой пружины определяем экспериментально и проверяется теоретически. Экспернимен-тальное изучение равновесия системы сил проверяется аналитически решая задачи. Скорость и ускорение точек звеньев механизмов определя-ются методом планов на основании построения схемы положений звеньев.

Лабораторные работы изучения механических передач связана разбор-кой и сборкой зубчатых и червячных редукторов, измерением основных их параметров и определением передаточных отношений, составлением эскизной схемы зубчатых колес и валов.

В условиях учебных лабораторных аудиторий изучаются вопросы связанные с силовым взаимодействием и кинематикой твердого тела (рычажные механизмы, передачи, детали машин), испытание материалов при различных простых и сложных деформаций (растяжение и сжатие, круче-ние, изгиб, косой изгиб, изгиб с растяжением и.т), определение деформации и напряжения тонкостенного цилиндра, испытание валов на усталость.

Эффективность проведения лабораторных работ в значительной степени зависит от подготовки студентов к этим работам. Необходимо за неделю до проведения очередной работы дать студентам на дом задания по подготовке к этой работе. Цель этого задания – ознакомиться с лабора-торными установками и испытательными машинами, измерительными приборами, методикой проведения работы, а также изучить основной теоретический материал, относящийся к данной работе.

Преподаватель должен распределить между студентами объязанности по выполнению данной лабораторной работы, а в процессе ее проведения следить за тем, чтобы по возможности студенты по очереди выполняли все объязанности побуждая их к самостоятеьному выполнению работы.

Внизу приводятся перечен, установки и оборудования используемые для проведения лабораторных работ. Лабораторные работы основы механи-ки и детали машин проводятся на стандартных устновках и на установках изготовленные на студенчесих кружках, а по предмету сопротивление материалов на испытательных машинах и установках производства Германской фирмы DiChTe GmbH (GUNT). Все испытательные машины работают совместно с компьютером

Перечень лабораторных работ по технической механике

№	Раздел технической механики, темы лабораторных работ	Лабораторная установка
	Основы механики	
1	Проверка аксиомы о параллелограмме сил	Установка модел
2	Проверка равновесия моментов сил	Установка модел

3	Опытное определение коэффициента трения	Установка модел	
4	Определение скорости равноускоренно движущегося тела	Установка модел	
5	Определение скорости и ускорения точек механизма	Установка модел	
6	Определение работы силы тяжести и силы упругости	**СМ-4**	
Сопротивление материалов			
7	Механическое испытание материалов на растяжение и сжатие	**WP 300**	Установки производства Германской Фирмы DiChTe GmbH (GUNT).
8	Испытание материалов на кручение. Деформация пружины.	**WP 500**	
9	Определение поперечной силы и изгибающего момента	**WP 960**	
10	Определение перемещений при изгибе	**WP 950**	
11	Определение деформации кривых стержней	**FL 170**	
12	Теория устойчивости Эйлера	**WP 121**	
13	Определение деформации и напряжений тонокостенного цилиндра	**FL130**	
14	Испытание валов на усталость	**WP 140**	
Детали машин			
15	Изучение устройства, геометрии, кинематики, компоновки одно или двух ступенчатых зубчатых и червячных редукторов	Редукторы	
16	Изучение устройства, геометрии ременных и цепных передач	Ременная и цепная передачи	
17	Изучение устройства и геометрию валов	Валы	
18	Изучение устройства и типа подшипников	Подшипники	
19	Изучение резьбовых и шпоночных соединений.	Соединения	

<table>
<tr>
<td colspan="2">
Проверка аксиомы сил и момента силы</td>
<td>
Кинематика</td>
<td> 
Коэффициент трения</td>
<td>
Работа сил</td>
<td>
Структура механизма</td>
</tr>
<tr>
<td> </td>
<td>
Испытание материалов на растяжение и на кручение</td>
<td>
Вал червячного колеса</td>
<td colspan="2"> 
Испытание на изгиб. Определение поперечной силы и изгибающего момента и перемещения</td>
<td> 
Испытание на устойчивость</td>
</tr>
<tr>
<td colspan="2"> 
Зубчатые передачи</td>
<td>
Подшипник</td>
<td>
Испытание цилиндра</td>
<td>
Червячная передача</td>
<td> 
Привод для конвейера</td>
</tr>
</table>

Технологическая карта лабораторного занятия



Одним из одних самостоятельно выполненных работ студентов специальности “Системы надземного транспорта” приводиться ниже.

Лабораторная проверка аксиомы о параллелограмме сил.



рис.2

Описание установки и экспериментальная часть Для проверки аксиомы о параллелограмме сил предлагается установка, собранная на жест-кой вертикальной пластине (рис 2). К пластине в точках А и В прикрепляются шарнирно два динамометра D_1 и D_2. Нижние концы динамомет-ров соединены подвижным шарниром, где и подвешивается груз Q. Вследствие действия груза

Q динамометры растягиваются с силами F_1 и F_2. Конструкция допускает изменение положения точки крепления второго динамометра (B_1,B_2,B_3,B_4). Каждую лабораторную работу делают при заданном положении точки В и разных подвешиваемых грузов Q. В каждом эксперименте определяются величины усилий F_1 и F_2 по показаниям динамометров, углы α_1 и α_2 между линиями действия сил F_1 и F_2 и вертикалью.

Теоретическая часть. Согласно аксиоме о параллелограмме сил должно выполняться равенство $Q = F_1 \cos\alpha_1 + F_2 \cos\alpha_2$ (1)

Используя экспериментальные данные, необходимо вычислить правую часть этого равенства и сопоставить ее с величиной Q. Из-за различного рода несовершенства эксперимента (собственный весь динамометров, трение в шарнирных соединениях и т.п.) равенство (1) может быть выполнено только приближенно. В связи с этим обстоятельством следует вычислить разность между левой и правой частями равенства (1).

$$\Delta F = Q - F_1 \cos\alpha_1 - F_2 \cos\alpha_2$$



Проверка равновесия момента силы



Порядок проведения работы. Лабора-торное приспособление изготовлен из металлического бруса, где на определен- ных расстояниях (точки B_1,B_2,B_3, B_4 …) установлены крюки для подвешивания груза Q. Меняя расстояний a и b, к брусу подвешиваются грузы одинаково- го или различного веса $Q_1, Q_2, Q_3 \ldots$

Моменты сил относительно центра момента О приравнивается

$$M_O(Q_1) = M_O(Q)$$

<table>
<tr><td rowspan="2">  </td><td colspan="5">Технологическая карта расчета червячного вала</td></tr>
<tr><td>реал объект</td><td colspan="4">червячная передача, деталь – червячный вал
назначение -передавать вращательное движе-ние вала электродвигателя червячному колесу</td></tr>
<tr><td colspan="6">Классификация</td></tr>
<tr><td colspan="2">по форме червяка</td><td>по коли-честву витка червяка $z_1 = 1,2,4$</td><td colspan="3">по расположению червяка относительно червячного колеса</td></tr>
<tr><td colspan="2">цилиндрическое  </td><td>глобоидная  </td><td>нижнее  </td><td>верхнее  </td><td>с боку  </td></tr>
<tr><td colspan="2" rowspan="2">материал –средне углеродис-тый сталь (Ст.45,50) или легированный сталь</td><td colspan="4">кинематика</td></tr>
<tr><td colspan="2">частота вращения $n_1 = n_{дв}$</td><td colspan="2">угловая скорость $\omega_1 = \frac{\pi \cdot n_1}{30}$</td></tr>
<tr><td>модуль зацепления</td><td>коэффициент диаметра червяка</td><td colspan="4">Геометрия - диаметры и высота витков червяка ($h_a = m$, $h_f = 1,2m$)</td></tr>
<tr><td rowspan="3">$m = \frac{(1,4...1,7)a_w}{z_2}$</td><td rowspan="3">$q_{\min} = 0,212 \cdot z_2$</td><td colspan="2">делительный окружность</td><td colspan="2">$d_1 = m \cdot q$</td></tr>
<tr><td colspan="2">вершин витков</td><td colspan="2">$d_{a1} = m\,(q+2)$</td></tr>
<tr><td colspan="2">впадин витков</td><td colspan="2">$d_{f1} = m\,(q-2,4)$</td></tr>
<tr><td colspan="3">Силы в зацепление</td><td colspan="2">Вращательные моменты</td></tr>
<tr><td>окружная</td><td>радиальная</td><td>продольная</td><td>на червяке</td><td>на вале колеса</td></tr>
</table>

$F_t = \frac{2M_1}{d_1}$	$F_r = F_a \cdot tg\alpha$	$F_a = \frac{2M_2}{d_2}$	$M_1 = \frac{N_1}{\omega_1}$	$M_2 = M_1 \cdot \eta \cdot i$
предвари-тельный расчет червячного вала	диаметр входного конца $d_{в1} = \sqrt[3]{\frac{M_1}{0{,}2[\tau]}}$	диаметр под подшипника $d_{п1}=d_{в1}+10$		
напряжения				
сжатия $\sigma_C = \frac{4F_a}{\pi \cdot d_{f_1}^2}$	изгиба $\sigma_F = \frac{M_Э}{0{,}1d_t^3}$	кручения $\tau_\delta = \frac{M_1}{0{,}2d_f^3}$		
Момент и напряжение опасного сечения $M_Э = 0{,}25\sqrt{(F_2 \cdot \ell + F_a d_1)^2 + (F_t \ell)^2}$ $\sigma_{Эж} = \sqrt{(\sigma_F + \sigma_C)^2 + 3\tau_\delta^2} \le [\sigma_{-1f}]$				

Некоторые соображения о технологической карте. Расчет червяч-ного вала тесно связан с взаимно последовательным изложением и основан на знание полученные при изучении теоретической механики, сопротив-ления материалов и детали машин.

1. Реальный объект – исходя из назначения червячного редуктора определяется назначение червячного вала, эти вопросы излагаются в курсе детали машин

2. На основание темы вращательное движение твердого тела вокруг неподвижной оси из курса теоретическая механика, определяется частота вращения и угловая скорость червячного вала.

3. С учетом особенности червячной передачи и теории зацепления изучается геометрия червячного вала, в точке зацепления возникает сила R которая располагается под углом $\gamma + \varphi$ к продольной оси вала.





рисунок-3 .Схема сил возникающие в зацепление и в точках опор червячной передачи

4. Используя тему проекция силы на оси координат из курса теорети-ческая механика, определяем составляющих силы зацепления R. При этом образуется система сил линии действия которых встречаются в точке зацепления: F_t-окружная сила , F_r радиальная сила, F_a продольная сила

5. Учитывая основные положения из курса сопротивление материалов можно делать следующие выводы:

- сила F_a направлен параллельно к продольной оси червячного вала, стремиться растягивать (сжимать) и тем самым червячного вала перемещать ее вдоль оси. Под действием силы F_a возникает $F_a \cdot 0{,}5d_1$ изгибающий момент.

- сила F_r направлен по радиусу перпендикулярно к продольной оси червячного вала. Поэтому сила F_r изгибает вала в вертикальной плоскости.

- сила F_t направлен в сторону вращения вала, создает вращательного момента $F_t \cdot 0{,}5d_1$, изгибает вала в вертикальной плоскости.

6. Расчетом червячного вала на кручение определяем диаметр входной части, для удобства монтажа и демонтажа деталей, а также на основание компоновки находим ее конструктивные размеры. Здесь необходимо исполь-зовать знания полученные по двум курсам – сопротивление материалов и детали машин. Полученными параметрами составляется эскизная схема червячного вала

7. Намечаются точки опор вала. Для проверки прочности червячного вала необходимо установить ее опасное сечение, для чего строим эпюры внутренних силовых факторов – крутящего и изгибающего моментов. Эти вопросы целиком изучает сопротивление материалов.

8. Для полной проверки прочности вала необходимо вести расчет ее на сложное сопротивление (растяжение, изгиб и кручение). С учетом плоского напряженного состояния главные напряжения не должны превышать $\left[\sigma_{-1f}\right]$ = 45...60 *мПа* .

9. Жесткость червячного вала зависит от расстояния между опорами. По конструктивным соображениям чем меньше это расстояние, тем больше жесткости вала. Эти вопросы относятся к курсам детали машин и сопротивление материалов.

Под действием сил зацепления вал испытывает деформацию изгиба и кручения. Упругие перемещения отрицательно влияют на детали связанные с валом. Прогиб вала создает концентрацию нагрузки по длине зуба зацепления. При высокой частоте вращения происходит заклинивание подшипника с валом или ухудшается качество зацепления. По этому прогиб вала не должен превышать допустимого предела, т.е. жесткость вала должен быть обеспечен. Например, для зубчатые передачи допустимый прогиб равен $|y| = 0{,}001 \cdot m, (мм)$ и угол поворота сечения вала $\theta \le 0{,}001 рад$, в местах установки конического подшипника $\theta \le 0{,}0016 рад$, роликовый подшипник $\theta \le 0{,}0025 рад$, однорядный и сферический подшипник $\theta \le 0{,}005 рад$. Эти выводы нужны молодым преподавателям, которые недавно начинали педагогическую деятельность.

Заключение. Лабораторные работы по технической механике разнообразны как по тематике, так и по принципу работы. Поэтому, для проведения этих лабора-торных работ требуется специфичный подход. Например, по разделу основы механики для проведения лабораторных работ, можно, исполь-зовать установки изготовленные на кружках по механике или преподава-телями, а по сопротивлению материалов используются испытательные машины зарубежного производства. По детали машин необходимы редукторы, передачи заводского изготовления. Лабораторное помещение должен быть оборудован этими установками и машинами.

Литература

1. Бибутов Н.С. Амалий механика. –Тошкент: “Янгийўл полиграф сервис”, 2008 йил. -557 бет.
2. Каримов Р., Солиев А. Амалий механика. –Т.: “Фан ва технологиялар”, 2005 йил. -270 бет.
3. Жўраев А. ва бошқалар. Амалий механика. –Т.: “Фан ва технологиялар”, 2007 йил. -397 бет.
4. Набиев А.Н. ва бошқалар. Техник механика. –Тошкент: “Шарқ”, 2010 йил. -330 бет.
5. Курбанов Г.А. Техник механика. –Тошкент: TTESI, 2010 йил. -195 бет.
6. Бибутов Н.С. Техник механикадан амалий машғулотлар. –Т.: “Илм–зиё”, 2006 йил. -190 бет.
7. Бибутов Н.С., Хожиев А.Х., Рузиев Х.Р., Хасанов С.М. Материаллар қаршилиги. Тажриба ишлари. –Тошкент: “Навруз”, 2019 йил. -320 бет.
8. Бибутов Н.С., Хожиев А.Х. Материаллар қаршилигини ўқитиш методикаси. –Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2017 йил. -604 бет.
9. Бибутов Н.С., Хожиев А.Х. Материаллар қаршилиги. –Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2016 йил. -440 бет.
10. Бибутов Н.С., Хожиев А.Х., Асраев З.Р. ва бошқалар. Электрон дарсликлар: № DGU 03273; № DGU- 03458; № DGU- 04187; № DGU- 04188; № DGU- 04266; № DGU- 04307; № DGU -04490; № DGU- 05010; № DGU- 05960; № DGU- 05961; № DGU- 05962.

Nozimbek ZARIPOV
Buxoro davlat universiteti
amaliy matematika va dasturlash
texnologiyalari kafedrasi
tayanch doktoranti

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA WEB-FREELANCE FAOLIYATI

Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan bir davrda umumta’lim maktab o‘quvchilarida dasturlash tillari hamda freelancerlik faoliyati bilan shug’ullanishlari uchun ularda to‘g’ri tasavvurni rivojlantirish, ularning qobiliyati va yoshini hisobga olgan holda topshiriqlarni tayinlash muhim vazifalardan hisoblanadi. Umumta’lim maktab o‘quvchilarida mustaqil dastur tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish, dasturlash muhitiga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni hayotda o‘z o‘rinini topishiga hamda mamlakat taraqqiyoti uchun muhim dasturlar ishlab chiqishiga zamin tayyorlaydi.

Kalit so‘zlar: *freelancer, dastur, dasturlash muhiti, SMM, SEO, IOS, CopyRighter, 3D.*

В настоящее время, когда современные информационные технологии широко развиваются, одна из наиболее актуальных проблем заключается в том, чтобы предложить особый подход к обучению языкам программирования для учащихся средних школ и обратить внимание на разработку упрощенных методов распределения заданий с учетом возраста учащихся. Эта статья развивает навыки самостоятельного программирования у учащихся средних школ, поможет развивать интерес к программированию и помочь им найти свое место в будущем, а также создавать лучшие программы для развития страны.

Ключевые слова: *freelancer, программное обеспечение, среда программирования, SMM, SEO, IOS, Copyrighter, 3D.*

Nowadays when modern information technologies are widely developed, one of the most actual problems is to issue a special approach for teaching programming languages to secondary school students and to pay attention to the development of simplified methods assigning tasks based on the age of students. This article develops self-programming skills among high school students, helps to develop an interest in programming and help them find their place in the future, as well as create better programs for the development of the country.

Key words: *freelancer, software, programming environment, SMM, SEO, IOS, Copyrighter, 3D.*

Kirish. Hozirgi kunda “freelance” atamasi tez-tez uchratish mumkin. Ayniqsa, internet orqali foyda olishni istagan kishi bu atamani bir necha bor uchratgan. Freelance (ing. free-erkin, lancer-nayza) – erkin va mustaqil ishchi bo‘lib, buyurtma asosida kelishilgan haq evaziga, belgilangan vaqtda ishni bajarib beruvchi shaxs hisoblanadi. Ko‘pchilik hollarda freelancerlar norasmiy tarzda ishlashadi, ya’ni buyurtmachilarni ham o‘zlari topishadi, ish haqi va muddatini ham o‘zlari belgilaydi.

Asosiy qism. Freelancerlik bilan shug’ullanishda, avvalo, aniq yo‘nalishni tanlab olish lozim. Masalan: 3D model (uch o‘lchovli raqamli tasvirlar), SEO (saytlar yaratish), CopyRighter (Reklamalarni yangicha ko‘rinishi), grafik dizayner, web-dizayner, onlayn dars, murabbiy, ijtimoiy media menejeri, dastur ilovalari yaratish, tarjimon, maslahatchi, virtual buxgalter, matnlar bilan ishlash bo‘yicha mutaxassis, tarmoq administratori, SMM marketingni yurituvchi mutaxassis, foto va video xizmatlar va boshqalar. Masalan: tarmoq administratoridan tarmoq muammolarini hal etish, axborot xavfsizligi, serverlarda bo‘ladigan nosozliklarni bartaraf qilish, turli xildagi reklamalar va spamlarni o‘chirish kabi vazifalarni bajarish talab etiladi. Dizaynerlik bilan faoliyatini olib borganda afishalar, vizitkalar, logotiplar yaratish, turli sohalarga doir infografika tayyorlash, grafik dasturlar bilan ishlay olishi, banner, kalendar, jurnal va kitob muqovalarini yuqori did bilan tayyorlab, belgilangan vaqtda buyurtmachilarga yetkazish talab etiladi. Dasturchi freelancerlar esa mobil ilovalar, o‘yin dasturlari, web-saytlar yaratish, ma’lumotlar bazasi bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi, dasturlash tillari (Python, Java, JavaScript, CSS kabi)da ishlay olishi lozim. Yuqorida keltirilgan yo‘nalishlar bilan faoliyat olib borishda dastavval har bir kishi o‘zi qiziqadigan yo‘nalishni tanlashi, xizmat turlari va narxini to‘g’ri belgilab olishi, telekommunikatsion vositalarga ega bo‘lishi lozim.

Freelancerlikning asosiy yutuqlari va afzalliklari:

- dunyoning istalgan nuqtasidagi loyihalarni ma’lum haq evaziga bajarish;
- ish beruvchiga buyurtmani bajaruvchi qayerda ish olib borishining ahamiyati yo‘q;
- ishdan bo‘sh vaqtda mustaqil tashkil etish;

- ish joyi va vaqtini belgilashda erkinlik;
- iqtisodiy tejamkorlik (ish uchun kiyim-kechak, transport, oziq-ovqat xarajatlari);
- muhitga yoki jamoaga moslashish shart emasligi;
- bir nechta sohalar bo‘yicha ishlab, ko‘p daromat olish;
- o‘qigan mutaxassisligi bo‘yicha hujjat muhim emasligi.

Yuqorida keltirilgan afzalliklar bilan bir qatorda ba’zi kamchiliklarni ham sanab o‘tish mumkin:

- har doim ham buyurtmalar bo‘lmasligi;
- doimiy ravishda vaqt sarflab buyurtmalar izlash;
- reklamalar uchun pul sarflash;
- doimo internetda bo‘lish;

Hozirgi vaqtda bir nechta web-freelance saytlari mavjud. Freelancerlik bu o‘z qobiliyati, bilimi va o‘zi qiziqqan faoliyat turi orqali pul topishning eng oson usuli. Freelancerlik juda ham ko‘p qamrovli soha bo‘lib, bunda hamma o‘zi qobiliyatidan kelib chiqib xizmat turini taklif qilishi mumkin. Masalan: siz kompyuter grafikasiga qiziqasiz va CorelDraw, Flash, PhotShop dasturlarida yaxshi ishlaysiz. Bemalol siz turli xil rasmlarni tayyorlash, chizish yoki animatsiyalar tayyorlash xizmatini taklif qilishingiz mumkin.

Freelancerlik bilan shug’ullanishda buyurtmalarni izlab topish va o‘z ishini taklif qilishda asosiy manba bu – freelance web saytlardir. Freelance web-saytlar mijozlarni oson topishga hamda ish beruvchi ishonchini qozonishga xizmat qiladi. Freelance web-saytlardan foydalanib taklif qilingan loyihalarni bajarib, o‘z qobiliyatini namoyish etib borishi orqali platforma kengayadi va buyurtmalar soni oshib boradi. Freelance web-saytlar freelancerlikni endigina boshlangan shaxslar uchun mo‘ljallangan xizmat turi hisoblanadi. Ushbu saytlarda har xil kasb egalari xizmat olib borishadi. Freelance web-saytlar qatoriga Freelance.ru, Freelancer.com, Weblancer.net, Freelancejob.ru, Upwork.com kabilarni kiritish mumkin. Hozirgi kundagi keng qamrovga ega web-sayti bu – freelancer.com sayti hisoblanadi. Ushbu sayt buyurtmachi va sotuvchilarni bir joyga to‘plash uchun mo‘ljallangan platformadir. Ushbu platforma orqali buxgalteriya, dasturiy ta’minot, muhandislik kabi loyihalarda ishtirok etish mumkin. Boshqacha aytganda, freelancer.com – bu butun dunyo bo‘ylab mijozlar va freelancerlar uchun o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish vositasini taqdim etadigan onlayn ish bozoridir. Avvalo foydalanuvchi mazkur saytdan ro‘yxatdan o‘tib, shaxsiy ma’lumot, elektron pochta manzilni tasdiqlaydi. Shundan so‘ng foydalanuvchi o‘z profilini yaratib oladi. Ushbu saytda qisqa yoki uzoq muddatli loyihalar joylashtiriladi. Freelancerlar joylashtirilgan loyihalar bilan tanishib, o‘zi tanlagan yo‘nalishga mos bajarilgan ishlarni mijozlarga taqdim etadilar. So‘ngra mijozlar e’lon qilingan takliflarni va ish namunalarini ko‘rib chiqib, eng malakali ishtirokchilarni aniqlaydilar hamda loyihani bir yoki bir nechta freelancerlarga beradilar. Mana shu orqali freelancerlik faoliyati rivojlanib boraveradi. Hozirgi kunda talab eng yuqori bo‘lgan freelancerlik yo‘nalishlariga matn bilan ishlash, tarjima bilan shug’ullanish, dizayner, grafika bilan ishlash, web-saytlarni yaratish, mobil ilovalar yaratish kabilarni sanash mumkin. Umuman olganda, barcha freelancerlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchisi, ish beruvchi va ishchilar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlaydigan tarmoqda, ya’ni internet orqali ishlovchi insonlar. Bunday kasb egalariga advokat, fotosuratchi, hisobchi, tarjimon, dars va maslahat beradigan o‘qituvchilarni misol keltirish mumkin. Ikkinchisi, ish sohasi aynan internet faoliyati bilan bog’liq bo‘lgan insonlar. Masalan: dasturchi, dizayner, kopirayter kabi kasblarni keltirish mumkin. So‘nggi vaqtlarda aksariyat firma va korxonalar masofadan ish olib boradigan xodimlar va freelancerlarning xizmatidan foydalanishni ma’qul topmoqda. Sababi, ortiqcha sarf-xarajatlarsiz ishni tashkil etish qulayroq ya’ni buyurtmachi freelancer uchun joy tashkil etishi, uni jihozlashi, elektr energiya sarfi uchun to‘lov to‘lashi, oziq-ovqat uchun xarajatlardan xoli bo‘ladi.

Freelancerlik faoliyati bilan shug’ullanishda yana bir muhim jihat bu chet tillarini mukammal bilishdir. Ayniqsa, internet orqali daromad qilishda ingliz tili muhim rol o‘ynaydi. Ingliz tili dunyo bo‘ylab keng tarqalgan til bo‘lib, ko‘pgina platformalar ishni bajarish uchun ingliz tilida ravon gaplashishni talab qiladi. Shuning uchun buyurtmachilar bilan muloqotga kirishishda buyurtmachi tilida gaplashish, ishni oson va samarali tugatishga sabab bo‘ladi. Freelancerlar ishlagan daromadlarini qabul qilib olishlari uchun albatta elektron hamyonga ega bo‘lishi lozim. Masofaviy ishlarni bajarishda daromad olish uchun bir kishida bitta yoki bir nechta elektron hamyon kerak bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunda eng qulay o‘tkazmalar Yandex money, WebMoney, QIWI, PayPal kabi tizimlardan foydalanish mumkin. Ushbu tizimlardan ro‘yxatdan o‘tish orqali foydalanish mumkin.

Muhokamalar va natijalar. Freelancerlik faoliyati sohalari juda ham keng. Bunda o‘quvchi va talabalar uchun ham imkoniyat mavjud. Masalan: onlayn repetitorlik faoliyati bilan shug’ullanishlari mumkin. Agar o‘quvchi ba’zi bir fanlarni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsa, video darslar tashkil etish orqali boshqa o‘quvchilarga ta’lim berish mumkin. Ushbu video darslarni YouTube yoki Instagram kabi

platformalarga joylashtirish mumkin. Bunda daromad videolardagi reklamalardan kelib tushadi, qancha obunachilar ko‘paygani sayin ko‘proq daromad olish imkoniyati paydo bo‘ladi. Freelancerlik orqali o‘tgan 2019-yilga nisbatan 2020-yilda freelancerlarning daromadlarining o‘sish sur’ati ancha oshgan. Buni quyida keltirilgan mamlakatlar kesimidagi diagrammada ko‘rish mumkin [3].



1-diagramma. Freelancerlarning daromadlarining o‘sish sur’ati (Top 10)

Hozirgi kunda mamlakatimizda ham freelancerlik sohasiga katta e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-11-sinf o‘quvchilari sinovdan o‘tkazilib, web-freelancer yo‘nalishlari bo‘yicha qiziqishi bo‘lgan o‘quvchilar saralab olinib, ular bilan muntazam ishlash yo‘lga qo‘yilgan. Bu ishlar, albatta, yoshlarning zamonaviy kasb egasi bo‘lishi uchun ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish, ularni yetuk malakali mutaxassislar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi. Eng muhimi yoshlarimiz internetda vaqtni bekor o‘tkazmasdan, o‘z ustida ishlashi va yaxshi natijalarga erishish uchun harakat qilish lozim.

Freelancerlikning yana bir afzalliklaridan biri bu – faoliyatni tashkil etishda dastlabki sarmoya shart emas, yana bir jihati freelance xizmat uchun har doimo ehtiyoj sezilishi ushbu faoliyatni internet orqali daromad keltiradigan turli sohalar ro‘yxatida oldingi o‘rinlarda ekanligini ko‘rsatadi. Freelancer hamma vaqt izlanishda va doimiy rivojlanishda bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, freelancer web-saytlar butun dunyo bo‘ylab freelancerlar va mijozlar o‘rtasida hamkorlik qilish uchun xavfsiz, sodda va arzon muhitni ta’minlashga intiladi. Freelancerlik orqali har bir inson bo‘sh vaqtini o‘zi yoqtirgan mashg’ulot bilan shug’ullanib daromad olish imkoniyati ega. Freelancerlik faoliyati butun dunyo hamjamiyati bilan aloqalarni yaxshilashga, har bir sohadagi muammolarni hal qilishga hamda ortiqcha sarf-xarajatlarsiz, vaqtdan unumli foydalanishga asos bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Carol Tice, Neil Tortorella “Freelance Business Bootcamp How to Launch, Earn, and Grow into a Well-Paid Freelancer” January 21, 2015. 29 p.
2. https://www.freelancer.com/
3. https://www.upwork.com
4. https://www.cnbc.com/

Ruslan BAYDULLAYEV
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
axborot texnologiyalarining dasturiy ta'minoti
kafedrasi assistenti

Zamira AXMEDOVA
Toshkent davlat transport universiteti
informatika va kompyuter grafikasi
kafedrasi assistenti

YUQORI ISHONCHLILIK TIZIMLARI UCHUN DASTURIY TA'MINOT ARXITEKTURASI

Maqolada juda ishonchli tizimlar uchun dasturiy ta'minotni yaratish muammosi ko'rib chiqiladi. Loyihalashtirilgan dasturiy ta'minot arxitekturasi samaradorligini baholashning asosiy mezonlari o'rganilgan. Qisqacha tavsif berilgan. Amalga oshiriladigan keng qamrovli vazifalarga ega dasturiy ta'minot modulli tarzda ishlab chiqilgan. Dastur funksional maqsadlariga muvofiq modullarga bo'linadi. Ishonchli tizimlarda dasturiy ta'minotning xatolarga chidamliligini oshirish uchun modulni alohida dasturga ajratish taklif etiladi. Dasturiy ta'minotni funksional maqsadi bo'yicha modullarga (dasturlarga) ajratish bilan taklif qilingan arxitekturani qurish misoli keltirilgan. Shu maqsadda vositachilik dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, uning yordamida odular ma'lumot almashishadi. Modullar va proksi-server o'rtasidagi aloqa turli texnologiyalar (TCP/IP, umumiy fayllar, umumiy xotira va boshqalar) yordamida amalga oshirilishi mumkin. Berilgan misolda o'zaro ta'sir TCP/IP tarmoq aloqa protokoli yordamida amalga oshirildi va monolitik ravishda qurilgan dastur va taklif qilingan arxitekturaga muvofiq tuzilgan dasturni taqqoslash bo'yicha tajriba o'tkazildi. Eksperiment doirasida ma'lumotlar manbasi taklif qilingan arxitektura asosida amalga oshirilgan dasturiy ta'minot orqali paketlarni uzatdi. Dasturiy ta'minotning ishonchliligi mezonlari sifatida yetkazib berilgan paketlar soni olinadi. Ushbu tajriba tavsiya etilgan arxitektura asosida yaratilgan dasturiy ta'minotning ishonchliligi ustunligini tasdiqladi.

***Kalit so'zlar**: dasturiy ta'minot arxitekturasi, dasturiy ta'minot moduli, dastur dekompozitsiyasi, juda ishonchli tizimlar.*

В статье рассматривается проблема построения программного обеспечения для высоконадежных систем. Исследуются основные критерии, позволяющие оценить эффективность спроектированной архитектуры программного обеспечения. Приводится их краткое описание. Программное обеспечение с большим спектром выполняемых задач разрабатывается по модульному типу. Программа делится на модули по их функциональному назначению. Предлагается выделить модуль в отдельную программу для повышения отказоустойчивости программного обеспечения в высоконадежных системах. Приводится пример построения предложенной архитектуры с разбиением программного обеспечения на модули (программы) по функциональному назначению. С этой целью разработана программа-посредник, при помощи которой модули обмениваются информацией. Взаимодействие между модулями и программой-посредником может происходить при помощи различных технологий (TCP/IP, общие файлы, разделяемая память и т. Д.).

***Ключевые слова:** архитектура программного обеспечения, программный модуль, программная декомпозиция, высоконадежные системы.*

The problem of building software for highly reliable systems is considered in the article. The criteria that allow us to evaluate the effectiveness of software architecture were considered first. The brief description of these criteria was given. Software with a wide range of tasks is built in a modular manner. The program is divided into modules for their functional purpose. It is proposed to allocate a separate module in the program to improve the software fault tolerance in highly reliable systems. An example is given of constructing the proposed architecture with a breakdown of the software into modules (programs) for a functional purpose. For this purpose, an intermediary program has been developed, through which the modules exchange information. The interaction between the modules and the mediation program can occur through various technologies (TCP/IP, shared files, shared memory, etc.). The interaction was realized using the network protocol TCP/IP in the example. To compare the monolithically constructed program and the program made on the proposed architecture, an experiment was conducted. The data source passed packets through the built-in software. The number of delivered packages was taken as a criterion for software reliability. The software was built according to the proposed architecture. The experiment demonstrated the advantage of the built-in software.

***Key words:** software architecture, software module, software decomposition, highly reliable systems.*

Kirish. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish bu to‘g’ri va ishonchli arxitekturani loyihalashtirish muhim rol o‘ynaydigan murakkab va ko‘p vaqt talab qiluvchi jarayondir. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish maqsadi xaridorning barcha talablariga javob beradigan modelni yaratish va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishdir. Dasturlarni yaratish bo‘yicha harakatlarni taqsimlash va muvofiqlashtirish ko‘pincha asosiy mas’uliyatli va qiyin qarorlar hisoblanadi, chunki ular asosiy natijaga ta’sir qiladi. Arxitektura loyihasining maqsadi dasturiy ta’minotning ichki xususiyatlarini aniqlash va uning tashqi xususiyatlarini mijoz tomonidan berilgan talablar asosida batafsil tahlil qilish. Arxitektura bosqichida to‘g’ri rejalashtirishsiz loyihalash, dasturiy ta’minot ishlab chiqarish vaqt va xarajat nuqtayi nazaridan juda samarasiz bo‘lishi mumkin.

Asosiy qism. Dasturiy ta’minot arxitektori aniq loyihani to‘liq loyihalashtirish va amalga oshirishni eng yaxshi qo‘llab-quvvatlaydigan ma’lum arxitekturani taklif qilish uchun javobgardir.

Dasturiy ta’minot arxitektorlari qanday loyiha alternativalari mavjudligini va qaysi biri funksional va funksional bo‘lmagan talablarga eng mos kelishini bilishlari kerak.

To‘g’ri dasturiy ta’minot arxitekturasini tanlash ishlab chiqish va texnik xizmat ko‘rsatish jarayonini odu va samaraliroq qilishga yordam beradi. Dasturiy ta’minot tizimlari miqyosi, murakkabligi va o‘sishda davom etar ekan, to‘g’ri arxitektura dasturiy ta’minot ishlab chiqarishda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Yaxshi ishlab chiqilgan dasturiy ta’minot arxitekturasi mezonlariga quyidagilar kiradi:

Dasturning samaradorligi. Dastlab dastur berilgan vazifalarni hal qilishi va o‘z vazifalarini yaxshi bajarishi kerak, shu bilan birga, u har xil sharoitda bajarilishi lozim. Bularga ishonchlilik, xavfsizlik, ishlash jarayonida yuqori nagruzkaga chidamli bo‘lishi, va boshqa shu kabi xususiyatlar kiradi [1].

Dasturning o‘zgaruvchanligi. Vaqt o‘tishi bilan har qanday dastur o‘zgarishi mumkin. Dasturni o‘zgartirish qanchalik tez va qulay bo‘lsa, shunchalik moslashuvchan va raqobatbardosh bo‘ladi [2]. Dasturning bitta modulini o‘zgartirish boshqa modullarga ta’sir qilmasligi kerak.

Dasturning kengayishi. Dasturga uning asosiy tuzilishini buzmasdan yangi funksionallikni qo‘shish qobiliyati. Loyihaning birinchi bosqichida dasturga faqat eng zarur funksiyalarni qo‘shish kerak, ammo arxitektura kerak bo‘lganda yangi funksiyalarni qo‘shishni osonlashtirishi kerak [3]. Dastur shunday tuzilishi kerakki, yangi funksiyalarni o‘zgartirish va qo‘shish mavjud kodni o‘zgartirmasdan yangi kod (kengaytma) yozish orqali amalga oshiriladi.

Rivojlanish jarayonining miqyosi. Yangi odamlarni jalb qilish orqali rivojlanish vaqtini qisqartirish qobiliyati. Arxitektura ko‘plab odamlar bir vaqtning o‘zida ishlashlari uchun rivojlanish jarayonini parallellashtirishga imkon berishi kerak [4].

Dasturning sinovdan o‘tkazilishi. Sinovni osonlashtiradigan kod kamroq xatolarni o‘z ichiga oladi va ishonchli ishlaydi [5].

Dastur qismlarini qayta ishlatish imkoniyati. Uning modullari boshqa loyihalarda qayta ishlatilishi uchun dasturni loyihalashtirish maqsadga muvofiqdir [6]. Loyiha yaxshi tuzilgan bo‘lishi kerak, dublikatlarni o‘z ichiga olmasligi kerak, yaxshi ishlab chiqilgan kodga va hujjatlarga ega bo‘lishi kerak.

Texnik xizmat ko‘rsatish. Dasturiy ta’minot arxitekturasi dasturni osongina va tez tushunishga imkon yaratishi kerak [7], va yaxshi ishlab chiqilgan kodga ega bo‘lishi kerak.

Har qanday dastur, uning qo‘llanilish sohasidan qat’iy nazar, uning rivojlanishi va qurilishini ta’minlaydigan umumiy arxitekturaga ega bo‘lishi kerak. Dasturiy mahsulot yoki dasturiy ta’minotning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning arxitekturasining muvaffaqiyatiga bog’liq.

Muhokamalar va natijalar. Katta tizimlarni loyihalashda asosiy muammo murakkablikni kamaytirish (parchalanish). Murakkab tizim oz sonli odu quyi tizimlardan (modullardan) qurilishi kerak, ularning har biri o‘z navbatida kichik o‘lchamdagi qismlardan va hokazolardan qurilishi kerak [8] (1-rasm).

Arxitektura qurilishi



1-rasm. Dekompozitsiya ko‘rinishi

To‘g’ri dekompozitsiya bilan dastur ma’lum qoidalarga muvofiq o‘zaro ta’sir qiluvchi odular to‘plamiga aylanadi. Birinchidan, dastur o‘z funksiyalarini umumiy ma’noda tavsiflovchi funksional modullarga bo‘linadi. Keyin olingan odular batafsilroq tahlil qilinadi va o‘z navbatida sub-modullarga yoki

obyektlarga bo‘linadi. Modullarni dekompozitsiya qilish eng yaxshi dastur tomonidan hal qilinadigan vazifalarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Asosiy dastur bir-biridan mustaqil ravishda ularga yuklangan vazifalarni bajaradigan modullarga bo‘linadi. Bundan tashqari, to‘g’ri dekompozitsiya bilan odular o‘z vazifalarini bajarishga va mustaqil ishlashga e’tibor qaratishlari mumkin [9]. Modul nafaqat uning bajaradigan funksiyalarini, balki ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar to‘plamini ham tavsiflaydi (2-rasm). To‘g’ri dekompozitsiya bilan modul o‘z funksiyalarini faqat kirish ma’lumotlari asosida bajarishi mumkin.



2-rasm. Modulni qurish sxemasi

Modulli konstruksiya ko‘pincha maxsus dasturiy ta’minotni tarkibiy har biri o‘z vazifalarini bajaradigan qismlarga (sinflarga, funksiyalarga va boshqalarga) bo‘linishni anglatadi. Juda ishonchli tizimlar uchun dastur ishlab chiqilgan taqdirda, bu bo‘linish usuli yetarli bo‘lmasligi mumkin. Sun’iy yo‘ldoshlardan navigatsiya ma’lumotlarini yig’ish, saqlash va tahlil qilish uchun o‘lchov kompleksi juda ishonchli tizimga misoldir.

Bitta modulning ishlamay qolishi barcha maxsus dasturlarning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan, juda ishonchli tizimlar uchun maxsus dasturiy ta’minotda alohida dasturlardan ularning vazifalari doirasi uchun mas’ul modul sifatida foydalanish taklif etiladi. Bundan tashqari, xabarlarni odular o‘rtasida uzatadigan vositachi dasturni yaratish kerak [10] (3-rasm).



3-rasm. Dekompazitsiya qurishga misol

Bunday holda, modullardan birining ishlamay qolishi butun tizimning ishdan chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi. Faqat qisman funksional yo‘qotish sodir bo‘ladi. Uni qayta tiklash uchun siz modulni qayta ishga tushirishingiz kerak bo‘ladi. Ma’lumotlarni dasturlar o‘rtasida uzatishni TCP/IP tarmoq protokoli, umumiy fayllar, umumiy xotira va boshqalar yordamida tashkil etish mumkin.

Ushbu texnologiyaning namunasi sifatida ochiq manbali dasturiy ta’minotni ko‘rib chiqamiz, uning funksiyalari xabarlarni manbadan iste’molchiga yetkazish va ma’lumotlar bazasida ushbu ma’lumotlarni saqlashdir. Keling, dasturning asosiy modullarini ta’kidlab o‘tamiz – bu ma’lumotlar manbai bilan aloqa qilish, ma’lumotlar bazasiga ma’lumotlarni yozish va iste’molchiga ma’lumotlarni yuborishdir. Keling, har bir modulni alohida dasturga olaylik, tuzilishga vositachilik dasturini qo‘shamiz, bu orqali odular ma’lumot almashadi (4-rasm).



4 – rasm. Dastur tuzish sxemasi

Diagrammadan koʻrinib turibdiki, modullarning bir qismi osib qoʻyilganda ma'lumotlar bazasi bilan oʻzaro aloqalar qolganlar hisobiga davom etadi va modul tiklanganda dastur normal ishlaydi.

Dasturiy ta'minot qurilishining monolitik arxitekturasini taklif qilingan bilan taqqoslash uchun hisoblash tajribasi natijasida quyidagilar aniqlandi. Tajriba davomida ma'lumotlar manbai 1000 ta ma'lumotlar paketini uzatdi. Shuningdek, tekshirilayotgan dasturning ishini g'ayritabiiy ravishda tugatadigan (monolitik qurilish holatida) yoki taklif qilingan arxitektura uchun modullardan birini bajaradigan agent dastur yaratildi. Tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Tajriba natijalari

Agent dasturining chastotasi	Oʻtkazib yuborilgan paketlar soni (monolitik dastur tuzilishi bilan), birlik	Oʻtkazib yuborilgan paketlar soni (dasturni qurish arxitekturasi bilan), birliklar.
45	17	0
30	26	3
10	87	12
5	154	22

Jadvaldan koʻrinib turibdiki. 1 ochiq manbali dasturiy ta'minotni qurish taklif etilayotgan arxitekturasi ishlab chiqilgan ochiq manbali dasturiy ta'minotning ishonchliligini oshirishga imkon beradi.

Xulosa. Dastur arxitekturasi qanchalik yaxshi ishlab chiqilganligini baholash uchun asosiy mezonlar koʻrib chiqildi. Dasturiy ta'minotni loyihalashda ishlab chiquvchi taklif qilingan mezonlarga amal qilishi kerak. Katta loyihani yaratishda dasturiy ta'minot loyihasini funksional maqsadiga muvofiq modullarga ajratishni oʻz ichiga olgan arxitekturadan foydalanish yaxshiroqdir. Dasturiy ta'minotni yaratishning ushbu usuli loyihani dasturlash va disk raskadrovka jarayonini soddalashtirishga imkon beradi. Juda ishonchli tizimlar uchun loyihaning har bir modulini alohida dasturga ajratishni taklif etiladi. Dasturlar orasidagi oʻzaro bog'liqlik uchun siz moduldan foydalanishingiz kerak (proksi-dastur). Ma'lumotlarni uzatish ushbu holat uchun qulay boʻlgan har qanday usulda amalga oshirilishi mumkin (masalan, TCP / IP, kanallar, umumiy fayllar). Ushbu arxitektura ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotning ishonchliligini oshirishi va juda ishonchli tizimlar uchun alohida ustuvorlikka ega ekanligi koʻrsatilgan.

Adabiyotlar

1. Басс Л., Клементс П., Кацман Р. Архитектура программного обеспечения на практике. -СПб.: “Питер”, 2006. 575 с.

2. Гагарина Л. Г., Кокорева Е. В., Виснадул Б. Д. Технология разработки программного обеспечения: учеб. пособие. М.: “Форум Инфра-М”, 2013. -400 с.

3. Круз Р. Л. Структуры данных и проектирование программ: пер. с англ. -М.: “БИНОМ.

Лаборатория знаний”, 2008. -765 с.

4. Мацяшек Л.А., Лионг Б.Л. Практическая программная инженерия на основе учебного примера: пер. с англ. -М.: “БИНОМ. Лаборатория знаний”, 2009. -956 с.

5. Фаулер М. Архитектура корпоративных программных приложений: пер. с англ. -М.: “Вильямс”, 2006. -544 с.

6. Назаров С. В. Архитектура и проектирование программных систем: монография. -М.: “Инфра-М”, 2016. -374 с.

7. Нильссон Дж. Применение DDD и шаблонов проектирования. Проблемно-ориентированное проектирование приложений с примерами на C# и .NET. М. : Вильямс, 2008. 560 с.

8. Фаулер М. Шаблоны корпоративных приложений. -М.: Издат. Дом “Вильямс”, 2011. -544 с.

9. Руководство Microsoft по проектированию архитектуры приложений [Электронный ресурс]. URL: http:// apparchguide.ms/Book (дата обращения: 12.03.2018).

10. Message Bus [Электронный ресурс]. URL:

11. http://msdn.microsoft.com/en-us/library/ms978579.aspx (дата обраще- ния: 15.03.2018).

Mansur ERGASHOV
Buxoro davlar universiteti
organik va fizkolloid kimyo
kafedrasi professori,
kimyo fanlari nomzodi

Aziz JO‘RAYEV
Buxoro davlat universiteti
kimyo mutaxassisligi
I bosqich magistranti

ORGANIK KIMYO FANI TA’LIMIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH ORQALI TALABALARDA INTERAKTIVLIKNI OSHIRISH

Maqolada talabalarning organik kimyo fanidan nazariy va amaliy bilimlarini yanada mustahkamlash, ularning interaktiv (jamoaviy) ruhdagi faoiliyatini oshiruvchi, fan asoslariga tayanuvchi mavzular mohiyatini tez va qulay ochib bera oladigan metodlar yordamida bo‘lajak mutaxassisni yetishtirish xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *organik kimyo, interaktiv metodlar, nosimmetrik, xatolik, reaktiv, Markovnikov qoidasi, muammoli ta’lim.*

В статье рассматриваются основы дальнейшего закрепления теоретических и практических знаний студентов в области органической химии, развития их деятельности в процессе обучения командном форме с использованием интерактивных методов.

Ключевые слова: *органическая химия, интерактивные методы, несимметричный, ошибка, реактивный, правило Марковникова, проблемное обучение.*

The article discusses the foundations for further consolidation of theoretical and practical knowledge of students in the field of organic chemistry, the development of their activities in the process of teaching a team form using interactive methods.

Key words: *organic chemistry, interactive methods, asymmetric error, reactive, Markovnikov's rule, problem learning.*

Kirish. Yuksak bilim va tafakkurga, intellektual salohiyat hamda ijodiy qobiliyatga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashning asosiy bosqishi ta’lim-tarbiya jarayoni hisoblanishini bilamiz. Istalgan jamiyatning taraqqiyoti, rivoj topishi o‘sha jamiyatdagi barcha kasb egalarining yuksak mahorati hamda vijdonan faoliyat yuritishiga bog‘liq. Har qanday soha vakili o‘z kasbining ustasi bo‘lishi, jamiyatning kerakli a’zosi sifatida faoliyat olib borishi uchun poydevor aynan ana shu – ta’lim-tarbiya olish jarayonida yaratiladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganidek: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1].

Asosiy qism. “5140500 – kimyo” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga mutaxassislik fani sifatida “organik kimyo” o‘qitiladi. ushbu fan ta’limi uni o‘zlashtirishda talabalardan yetarli poydevor bilim, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur bilan birgalikda kuchli diqqat-e’tiborni talab etadi. ta’lim-tarbiya jarayonida faollik ikki tomonlama bo‘lishini bilamiz. Demak, ayni paytda ta’lim beruvchining pedagogik mahoratga egaligi va izlanuvchanligi o‘quv jarayoni samaradorligining oshishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillardan sanaladi. shuning uchun ham izlanuvchidan har bir organik moddaning fizik va kimyoviy xossalari, reaksiyalar sodir bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlari, tajriba bajarishdan oldin fanning umumiy qonuniyatlari va tajribani bajarish uchun barcha ma’lumotlarni yetarli darajada egallashi talab qilinadi. chunki yo‘l qo‘yilgan har qanday noto‘g‘ri harakat talabani fan ta’limi jarayonida ko‘zlangan maqsaddan yiroqashtiradi, ya’ni istalgan (organik-sintez, polemerlanish, kondetsatlanish) jarayon natijalari biz uchun ijobiy bo‘lmasligi tabiiy. Nosimmetrik alkenlarni gidrogalogenlash reaksiyalari yuqori regioselektivlikga ega bo‘lib, reaksiya sharoitiga qarab ikki yo‘nalish bo‘yicha borishi mumkin:



Markovnikov qoidasiga (1869-yil) muvofiq borganda vodorod galogenidning vodorod atomi alkenning qo‘shbog‘ orqali bog‘langan vodorodga boy uglerod atomiga, galogen esa vodorodi kam uglerod atomiga birikadi:



2-YOD PROPAN



2-metil 2-yod propan

Nosimmetrik alkenlarga peroksidlar ishtirokida hbr ning birikishi v.v. markovnikov qoidasiga qarshi boradi (m. xarash, f. mayo, 1933-y)" [2].

mazkur fanni o‘qitish professor-o‘qituvchiga ham kuchli mas’ulyatni yuklaydi. mahorat va turli metodik usullarni bilish va ulardan o‘z o‘rnida foydalana olish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Muhokamalar va natijalar. organik kimyo oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan asosiy fanlardan biri bo‘lib, uning ta’limi ma’ruza, laboratoriya (tajriba), seminar va amaliy mashg’ulot shakllaridan iborat. tajribalar ta’lim jaroyonida bir necha interfaol metodlarni qo‘llash imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, “case-study”, “muammoli ta’lim”, “venn diagrammasi”, “baliq skleti”, “jadval – grafik organayzeri” va boshqa bir qancha metodlarni misol tariqasida keltirish mumkin. har bir metodning o‘ziga xos ustunligi, afvzalligi mavjud bo‘lib, uni o‘z o‘rnida qo‘llay bilish uslubchining mahoratiga bog‘liq.

Masalan, case-study usulini “trifenil karbinol sintezi” mavzusida qo‘llasak: tajribani boshlashimizdan oldin nazariy qism bilan tanishib chiqish davomida trifenil karbinolning umumiy formulasi asosiy va qo‘shimcha ravishda boradigan reaksiyalarni bilishimiz lozim bo‘ladi.



Oliy taa’lim muaassasalarida organik kimyodan laboratoriya mashg’ulotlarining aksariyati talabalarni 2 yoki 3 ta kichik guruhlarga bo‘lib olib borilishini taqozo etadi. Har bir kichik guruh tajribani bajarib bo‘lishgandan so‘ng hisobotlar mas’ul o‘qituvchilarga topshiriladi. Hisobotlarga nazar tashlansa, guruhlar miqyosida sintez natijalari turlichaligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. yuzaga kelgan xatoliklar case-study usuli bo‘yicha jamoaviy ketma-ketlikda quyidagi tartibda muhokamaga qo‘yiladi:



Jamoa bilan ishlash talabalar fikrlash doiralarini kengaytiradi, fikrlar xilma-xilligi asosida bilimlar yanada mustahkamlanadi.

Shu o‘rinda “muammoli ta’lim” metodiga ehtiyoj seziladi. muammoli ta’lim metodi asosida trifenil karbinol sinteziga oid mavzu doirasida quyidagi muammoli savol va topshiriqlar guruhlarga taqdim qilinadi:

1. Bir atomli spirtlar haqida nimalarni bilasiz?
2. Bir atomli spirtlarning olinish reaksiyalariga misollar keltiring.
3. Bir atomli spirtlarning fizik va kimyoviy xossalari haqida gapirib bering.
4. Organik-sintez reaksiyalari jarayonini boshlashdan oldin idishlarning kimyoviy jihatdan tozaligiga jiddiy e’tibor qaratish muhimmi? javobingizni asoslang.
5. Reaktiv sifatida nega aynan brom benzol tanlangan? boshqa turdagi galogenarenlardan ham foydalanish mumkinmi?
6. Nima uchun jarayon absolyut efir muhitida bajarilishi lozim?
7. Reaksiya davomida muz bo‘laklaridan foydalaniladi. nega?
8. Oraliq mahsulot difenilni qanday yo‘qotish mumkin?
9. Haydash jarayoniga izoh bering.
10. Trifenil karbinolning fizik xossalarini gapirib bering.
11. Trifenil karbinol uchun qanday sifatli reaksiya qo‘llaniladi?
12. Reaksiya unumini oshirish uchun qanday chora-tadbirlarni qo‘llash mumkin?

Xulosa qilib aytganda, talaba mavzuga oid tegishli ma’lumotlar (sintezda ishlatiladigan reaktivlarning fizik-kimyoviy xossalari, boradigan asosiy va qo‘shimcha reaksiya mexanizmlari, sintezni bajarish tartibi va hisobi, mahsulotning xossalari va hokazo)ga egaligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng o‘qituvchi ishni bajarish uchun talabalarga ruxsat beradi.

Organink kimyo oliy taa’lim muassasalarida o‘qitiladigan muhim va kelajakda ishlab chiqarish, tibbiyot, sanoat miqiyosida juda katta o‘ringa ega bo‘lgan fanlardan biri bo‘lib, talabalar fanga oid nazariy va amaliy ko‘nikmalarni to‘liq o‘zlashtirishlari lozim. bu esa o‘z navbatida professor-o‘qituvchilar zimmasiga yanada ko‘proq mas’uliyat yuklaydi. bugungi kunda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan o‘z o‘rnida, maqsadga muvofiq ravishda foydalanish ta’lim sifatini oshiradi, darslarning samaradorligini rivojlantirishga fundamental asos bo‘ib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. –56 б.

2. Shoymardonov R.A., Umarov B.B., Ergashov M.Y., Abduraxmonov S.F. Organik kimyo. - Toshkent: “Navro‘z”, 2015. -720 b.

2. Ergashov M.Y. Organik kimyodan laboratoriya mashg’ulotlar. – Toshkent: “Cho‘lpon”, 2019. – 140 b.

Laziz NIYAZOV
Buxoro davlat tibbiyot instituti tibbiy kimyo kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

Baxitjan KEDELBAYEV
M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston davlat universiteti biotexnologiya kafedrasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor

Javohir KARIMOV
Buxoro davlat tibbiyot instituti tibbiy kimyo kafedrasi o'qituvchisi

TIBBIY KIMYO FANINI O'QITISHDA MUAMMOLI VAZIYATLAR USULI

Maqolada tibbiy kimyo fanini o'qitishda muammoli vaziyatlarni tadbiq qilish masalalari o'rganilgan. Tibbiy kimyo fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari, ishlab chiqilgan muammoli vaziyatli masalalardan namunalar hamda ulardan dars jarayonida foydalanishning ahamiyati keltirilgan.

Kalit so'zlar: *muammoli vaziyat, tibbiy kimyo, masala, tibbiyot, ta'lim.*

В статье изучено применение проблемных ситуаций в обучении медицинской химии. Приведены особенности преподавания медицинской химии, примеры разработанных проблемных ситуаций и важность их применения на занятиях.

Ключевые слова: *проблемная ситуация, медицинская химия, задача, медицина, образование.*

The application of problem based learning in teaching medical chemistry have been studied in the article. The features of teaching medical chemistry, examples of developed problem situations and the importance of their use in the classroom are given.

Keywords: *problem situation, medical chemistry, task, medicine, education.*

Kirish. Ma'lumki, bugungi rivojlanayotgan dunyoda fan va texnologiyalar sohasida o'zgarishlar shiddat bilan yangilanib bormoqda. Talabalarga bugun berilayotgan bilimlar tez eskirmoqda, bu esa o'z navbatida bo'lajak mutaxassislardan bilim, ko'nikma va malakalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishlarini talab etmoqda. Bu esa yosh avloddan doimiy ravishda izlanishda bo'lishi, nafaqat bilimlarini rivojlantirishi, balki, ma'naviy va jismoniy jihatdan ham tarbiyalanishi zarurligini anglatadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida aytilgan fikrni keltirish mumkin "Avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib, xizmat qilishi lozim" [1].

Asosiy qism. Zamonaviy dunyoda innovatsion malaka deganda tanqidiy fikrlash, muomalaga tez kirishish qobiliyati, hamkorlik qila olish, kreativlik, butun umr davomida bilim olish (lifelong learning) va unumli ishlash bilan bog'liq harakatlar tushuniladi. "Soft skills" malakasiga esa axborot kommunikatsion texnologiyalarni bilish va ishlatish kabilarni aytish mumkin.

Talabalarda bunday malakalarni shakllantirish masalasi hozirgi oliy ta'lim muassalarida ishlab kelayotgan professor-o'qituvchilar yuzlashayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

1924-yilda "Kimyo ta'limi jurnali"ning birinchi sonida V.A.Patrik "Yaxshi o'qitish uchun qanday tadqiqotlar kerak?" maqolasida quyidagi so'zlarni yozgan: "Kimyo fani boshidan oxirigacha fakt va usullarni tushuntirishga asoslangan bo'lib, talabalar uchun ushbu faktlarni tirik va realga aylantiradi" [2].

Kimyo fanini o'qitish bo'yicha hozirgi kunda juda keng doiradagi ilmiy tadqiqotlar o'tkazilyotgan bo'lib, ularga talabalar kimyo fanini tushunishlari yoki tushunishga xalaqit berayotgan mexanizmlar; tushinish, munosabat va boshqa ko'rsatkichlarni o'lchaydigan instrumentlarni ishlab chiqish; yangi o'quv dasturlar ishlab chiqish va boshqalar kiradi [3].

Ayniqsa, malaka muhim ahamiyatga ega bo'lib, bo'lajak mutaxassisning kelajagini ta'minlab berishi shubhasizdir. Malakani quyidagi turlarga ajratish mumkin: hayotiy va kasbiy, innovatsion hamda raqamli savodxonlik (soft skills). Hayotiy va kasbiy malakalarga mehnat unumdorligining yuqoriligiga erishish, tez moslashuvchanlik, tadbirkorlik, maqsadni qo'ya bilish va unga intilish, ijtimoiy va madaniyatlararo hamkorlik, samaradorlik, mas'uliyatlilik va liderlik kiradi.

Bir qator olimlarning fikriga ko'ra [4, 6] aniq va tabiiy fanlarni o'qitishning asosiy maqsadiga fikrlashning rivojlanishi bilan ilmiy adabiyotlarni izlash, texnik ma'lumotlarni aniqlash, guruhda ishlash, ilmiy faraz, tushuncha va fenomenlarni ilgari surishga o'rgatish hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha kimyo fanini o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limda an'anaviy usullar bilan birgalikda "Muammoli vaziyatlar" yoki "Muammoli ta'lim" (Problem based learning) usulini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'limga kompetensiyaga asoslangan yondashuv nuqtayi nazaridan talabalarning o'quv jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo'llash maqsadlaridan biri talabalarning shaxsiyatini, uning o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatini, o'z taqdirini o'zi belgilashi, o'z-o'zini tarbiyalash va anglash qobiliyatini rivojlantirish, ya'ni asosiy kompetensiyalarni shakllantirishdir [7].

Olimlarning fikricha, laboratoriya mashg‘ulotlarida tadqiqotga asoslangan ta’lim talabalarning fikrlari va konsepsiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega [8, 9]. Muammoli vaziyatlar usulida talabalar hayotda uchraydigan voqealar, muammoli vaziyatlarni yechishiga qaratilgan tajriba ishlarini amalga oshiradi [10]. Bunda talabalar oddiy mustaqil ishlarini (referat, prezentatsiya va boshqalar) bajarishga qaraganda dars jarayonida olgan bilimlarini amalda qo‘llash, noan’anaviy sharoitda ishlash, qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularni qo‘shimcha ma’lumotlarni izlash va o‘rganishga undaydi. Vujudga keladigan savollar ilmiy izlanishga undaydigan vositalar hisoblanadi. Sababi, mustaqil ta’lim uchun beriladigan tajriba ishlarining yakuni mavhum hisoblanadi, ya’ni, natija noma’lumdir [11, 13].

So’nggi yillarda mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida ta’limni modernizatsiya qilish – o’quv dasturlarini qayta ishlash va zamon talablariga moslashtirish, yangi avlod o’quv adabiyotlarini yaratish, kredit-modul tizimini hamda qo’shma dasturlarni joriy qilish munosabati bilan yangi samarali o’qitish usullarini qidirish ishlari olib borilmoqda.

Oliy ta’lim amaliyotiga muammoli vaziyatlar usulini joriy etish muammosi hozirgi kunda juda dolzarb bo’lib, ikkita yo’nalishga bog’liq:

birinchisi ta’lim rivojlanishining umumiy yo’nalishi, uning kasbiy kompetensiya, ko’nikma va aqliy faoliyatni shakllantirish, shaxs qobiliyatlarini rivojlantirish bo’yicha aniq bilimlarni olishga yo’naltirilganligidan kelib chiqadi, ular orasida o’rganish, fikrlash paradigmasini va qayta ishlash qobiliyatiga alohida e’tibor beriladi. Ma’lumotlar massivlari;

ikkinchisi – mutaxassisning sifatiga qo’yiladigan talablarning ishlab chiqilishidan kelib chiqadi, u birinchi yo’nalish talablariga javob berish bilan bir qatorda, turli vaziyatlarda maqbul harakat qilish qobiliyatiga ega bo’lishi, inqiroz davrida tizimli va samarali bo’lishi kerak. Shu sababli talabalar “Muammoli vaziyatlar” usulida “Tadqiqotchi” sifatida faoliyat ko‘rsatadi, chunki, haqiqiy ilmiy ish bajarishdagi kabi tajribalarni bajarishda yagona uslubiy ko‘rsatma bo‘lmaydi va talaba tajribalarni bajarish uchun turli kimyo adabiyotlarini tahlil qilishi kerak bo‘ladi. Talabalar amaliy muammoni aniqlashi, ilmiy adabiyotlardan farazni shakllantirishi, eksperimentni ishlab chiqishi, natijalar olish va ularni tahlil qilish qobiliyatini ko‘rsatishi talab qilinadi. O‘qituvchi esa tadqiqotga rahbarlik qilib, ishni bajarish bo‘yicha maslahatlar, tushuntirishlar, savollarga javob berish orqali tegishli yo‘nalish beradi. Shu bilan birga talabalar bilan natijalarni muhokama qiladi. Og‘zaki va yozma hisobotlarni tayyorlashda ko‘maklashadi.

Muhokamalar va natijalar. Muammoli ta’limning mohiyati talabalar va o’qituvchining umumiy faoliyati jarayonida talabalar uchun muammoli vaziyatlarni yaratishdir.

Bunday mashg’ulotlar umumiy sxema bo’yicha amalga oshiriladi: o’qituvchi muammoli vaziyatni yaratadi, talabalar o’zlari uchun noma’lum bo’lgan narsalardan xabardor bo’lib, uni tahlil qiladilar va muammoni hal qilish yo’llarini izlaydilar. O’qituvchi o’quvchilarga ishlarini tartibga solish va muammoni hal qilish uchun zarur bo’lgan ma’lumotlarni taqdim etish orqali yordam beradi. Bu muammolilikning birinchi darajasi. Ikkinchi darajadagi muammolilik birinchi darajadan farq qiladi, chunki o’qituvchi talabalar bilan birgalikda vaziyatni tahlil qiladi va ularni muammoga keltiradi va ular o’z-o’zidan vazifani shakllantiradi va uni hal qiladi. Uchinchi daraja shundaki, muammoli vaziyat talabalarga yetkaziladi va ular uni tahlil qilish, muammoni aniqlash, muammolarni shakllantirish va optimal yechimni tanlashni amalga oshiradilar. Muammoli ta’lim natijasi – bu yangi bilim, ko’nikma va aqliy faoliyat usullari hisoblanadi. Chuqur bilimga ega mutaxassislarni tayyorlashning hozirgi holati talabalarga turli xil muqobillarni tanlashni, mumkin bo’lgan variantlarni tanlashni, tadqiq qilish qobiliyatiga ega bo’lgan u yoki bu yechim variantini tanlashning oqibatlarini oldindan aytib berishni talab qiladi, bu yerda interfaol o’qitish usullari muhim rol o’ynaydi.

Muammoli vaziyatlar usuli o’qitishning interfaol usuli bo’lib, talabalarning ijobiy munosabatini qozonmoqda. Bunda nazariy tamoyillarni o’rganishga imkon berib materialdan amaliy foydalanish ko’nikmasini o’zlashtirishini ta’minlaydi. Talabalarning kasbiy tayyorgarligiga ta’sir qiladi, ularning ulg’ayishiga ko’maklashadi, o’qishga bo’lgan qiziqish va ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. Shu bilan birga, bu usul o’qituvchining fikrlash usuli, uning boshqacha fikrlashi va harakat qilishi, ijodiy salohiyatini yangilashga imkon beradigan o’ziga xos paradigmasi kabi vazifasini bajaradi. Bunda beriladigan muammoli vaziyatda ma’lumotlarning ma’lum qismlari bo’lmasligi mumkin. Bu ma’lumotga bo’lgan talabni va bu ma’lumotni olish tinglovchilar vazifalarining asosiy qismi hisoblanadi.

1-Jadval. Muammoli vaziyatlar usuli turlari va talabalarning ta’lim darajasi bog’liqligi

Ta’lim turi	Tinglovchilar	
	Talabalar	Mutaxassislar
Boshlang’ich	Tasviriy (illyustrativ) o’quv	Muammoni shakllantirish bilan bog’liq bo’lgan o’quv jarayoni
Maxsus	Muammoni shakllantirish bilan bog’liq bo’lmagan o’quv jarayoni	Amaliy mashg’ulotlar

Muammoli vaziyatlar – hayotdan olingan misol, bu nafaqat voqealarning aniq tavsifi, balki, vaziyatni tushunishga imkon beradigan yagona axborot majmui hamdir. Muammoli vaziyatlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1) yaratilishning aniq belgilangan maqsadiga mos kelishi;
2) tegishli qiyinchilik darajasiga ega bo'lishi;
3) hayotning bir necha jihatlarini tasvirlashi;
4) tez eskirmasligi;
5) bugungi kunda dolzarbligi;
6) odatiy vaziyatlarni tasvirlashi;
7) analitik fikrlashni rivojlantirishi;
8) munozaraga olib kelishi;
9) bir necha yechimlarga ega bo'lishi.

Tibbiy kimyo fani barcha tibbiyot oliygohlarida birinchi kurslarida o'tildigan fundamental fan hisoblanadi va u kimyo fanini tibbiyotdagi ahamiyati bilan cheklanib qolmaydi. Fan nafaqat kimyoviy moddalarni inson organizmiga ta'siri, balki, organizmda kechadigan moddalarning o'zgarishlari, o'zgarishlar natijasida organizmda sodir bo'ladigan jarayonlarni ham o'rganadi. Misol tariqasida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan muammoli vaziyatga oid masasalalarni keltirish mumkin.

1. Bemorni tekshirishda qon plazmasining pH qiymati 7,2 ga teng ekanligi aniqlandi. pH qiymatining normadan chetga chiqishi qanday kasalliklarga olib kelishi va bu patologiyani qanday qilib davolash (oldini olish) mumkin?

2. Bemorni tekshirishda qon plazmasining pH qiymati 7,6 ga teng ekanligi aniqlandi. pH qiymatining normadan chetga chiqishi qaysi kasalliklarga olib kelishi mumkin va bu patologiyani qanday qilib davolash (oldini olish) mumkin?

3. Tish to'qimalarining anorganik asosini gidroksiapatit tashkil etadi: $Ca_{10}(PO_4)_6(OH)_2$. Ftorli tish pastalaridan profilaktik vosita sifatida foydalanish nimaga asoslangan?

4. Laboratoriyada yangi dori yaratildi. Ushbu preparatning optimal saqlash muddati T = 20 $^{\circ}C$ da uch yil bo'lishi kerak. Tibbiyot amaliyotiga preparatni tezkor ravishda kiritish uchun uning yaroqlilik muddatini belgilash uchun tezlashtirilgan saqlash usulidan foydalanishga qaror qilindi. Agar tezlik harorat koeffitsienti g = 2 bo'lsa, dorini saqlash muddati aniqlash uchun vaqt qay darajada qisqartadi?

a) tezlashtirilgan saqlash usuli nima?
b) Vant Goff qoidasi qanday matematik ifodaga ega?
c) preparat 30 $^{\circ}C$ haroratda qancha vaqt saqlanishi kerak?
d) preparatni 40 $^{\circ}C$ da qancha vaqt saqlash kerak?
e) preparatni 50 $^{\circ}C$ haroratda qancha vaqt saqlash kerak?

5. Bolalardagi gipoxromik anemiya uchun gemofer ($FeCl_2 \cdot 4H_2O$) ishlatiladi. Davolash paytida qon plazmasidagi Fe^{2+} ionlari miqdorini nazorat qilish kerak. Klinik laboratoriyada quyidagi titrant eritmalari mavjud: 0,1 mol/l HCl eritmasi, 10% H_2SO_4 eritmasi, 0,1 mol/l Trilon B eritmasi, 0,01 mol/l $KMnO_4$ eritmasi va indikatorlar: fenolftalein, lakmus, metilzarg'aldog'i. Qon plazmasidagi Fe^{2+} ionlarining miqdorini qanday aniqlash mumkin?

a) Fe^{2+} ionlarining konsentratsiyasini aniqlash uchun qanday titrlash usulini qo'llash kerak?
b) qaysi titrantni tanlash kerak?
d) reaksiya qanday muhitda amalga oshirilishi kerak?
e) qanday indikatorni qo'llash kerak?

6. Me'da shirasining kislotaliligini aniqlash uchun laboratoriyada elektrodlar to'plami bo'lgan pH o'lchagich mavjud: platina, kalsiy, to'yingan kumush xlorid, stakan, natriy. Yo'naltiruvchi elektrodlar va pHni aniqlash elektrodini tanlash kerak.

a) yo'naltiruvchi elektrod sifatida natriy elektrodini tanlash mumkinmi?
b) yo'naltiruvchi elektrod sifatida kumush xlorid elektrodini tanlash mumkinmi?
d) kalsiy elektrodini pH elektrodi sifatida tanlash mumkinmi?
e) shisha elektrodni pH elektrod sifatida tanlash mumkinmi?
f) platina elektrodini pH elektrod sifatida tanlash mumkinmi?

7. Sr90 zaharlanishiga chalingan bemor kasalxonaga atsidoz simptomi bilan yotqizilgan. Kasalxonada quyidagi dorilar mavjud:



Unitol	Trilon B	Sistein

Sr90 ni tanadan chiqarib yuborish uchun qaysi biri mos keladi?

a) zaharlanishga qarshi uchun ishlatiladigan dorilar qanday nomlanadi?

b) unitiol yordamida Sr90 ionlarini tanadan chiqarib yuborish mumkinmi?

d) sistein yordamida tanadan Sr90 ionlarini chiqarib yuborish mumkinmi?

e) trilon B tanadan Sr90 ionlarini chiqarib yuborish uchun ishlatilishi mumkinmi?

f) tanlangan dori bilan zaharlanishni yo'q qilish uchun nima asos bo'ladi? Javobingizni kimyoviy reaksiyalar bilan isbotlab bering.

Misollardan ko'rinib turibdiki talaba muammoli yondashuv orqali dars mavzusini keng ochib berishga imkon beradi, talabaga dars mavzusi bo'yicha mustaqil xulosalar chiqarishga imkon beradi, shu bilan birga ushbu mavzu bilan bog'liq barcha masalalarni keng qamrab oladi va mavzuni shaxsiy yondashuv nuqtayi nazaridan tushunadi.

Bizning fikrimizcha bu usulining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- muammoli o'qitish tamoyillaridan foydalanish – haqiqiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish, guruhning yagona muammoli maydonda ishlash qobiliyati, shu bilan birga o'quv jarayoni hayotdagi qarorlarni qabul qilish mexanizmlarini imitatsiya (o'xshatish) qiladi. Ma'lum bir atamalarni yodlab qaytib aytib berishdan ko'ra hayotiy vaziyatga ko'proq mos keladi. Bunda nafaqat atamalarni bilish va tushunish, balki, ularni ishlatish qobiliyati, muammoni hal qilish uchun mantiqiy sxemalar yaratish, o'z fikrlarini asoslash;
- jamoada ishlash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- eng oddiy umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- taqdimot qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- matbuot anjumani, savolni shakllantirish va javobni asoslash qobiliyatiga ega bo'lish.

Xulosa. Shunday qilib, muammoli vaziyatlar talabada doimiy yangilanib turadigan ma'lumotni mustaqil ravishda o'zlashtirishga imkon beradigan, ta'limni tugatgandan so'ng saqlanib qoladigan va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga erishishga imkon beradigan usul deb aytish mumkin.

Bundan biz shuni aytishimiz mumkinki, biz talabalarni o'rganishga o'rgatadigan yangi o'qitish usullari va yondashuvlarni, ya'ni, mustaqil ravishda kerakli ma'lumotlarni topishni va o'zlashtirishni o'rgatishimiz zarur. Muammoli o'qitish usullari talabalarning kasbga yo'naltiruvchi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun sharoit yaratadi. Ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashga katta ta'sir ko'rsatadilar. Bu esa o'z navbatida talabalarga mutaxassislik uchun zarur bo'lgan asosiy bilimlarni beradi hamda kasbiy mahoratini shakllantiradi, chunki, amaliyot uchun nazariya, nazariya uchun esa amaliyot kerak.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. [Elektron resurs]. URL: https://president.uz/oz/lists/view/4057 (Murojjat etilgan sana: 10.02.2021 yil)

2. Patrick W. A. What kind of research is essential to good teaching? //Journal of Chemical Education. – 1924. – T. 1. – №. 1. – C. 16.

3. Cooper M. M., Stowe R. L. Chemistry Education Research—From Personal Empiricism to Evidence, Theory, and Informed Practice //Chemical reviews. – 2018. – T. 118. – №. 12. – C. 6053-6087.

4. Tytler R., Prain V. A framework for re-thinking learning in science from recent cognitive science perspectives //International Journal of Science Education. – 2010. – T. 32. – №. 15. – C. 2055-2078.

5. Hofstein A. The laboratory in chemistry education: Thirty years of experience with developments, implementation, and research //Chemistry education research and practice. – 2004. – T. 5. – №. 3. – C. 247-264.

6. McDonnell C., O'Connor C., Seery M. K. Developing practical chemistry skills by means of student-driven problem based learning mini-projects //Chemistry Education Research and Practice. – 2007. – T. 8. – №. 2. – C. 130-139.

7. Gary Thomas A typology for the case study in social science following a review of definition, discourse and structure. // Qualitative Inquiry. 2011, 17 (6): 511–521 pp.

8. Carriazo J. G. Laboratory projects using inquiry-based learning: an application to a practical inorganic course //Química Nova. – 2011. – Т. 34. – №. 6. – С. 1085-1088.

9. Reid N., Shah I. The role of laboratory work in university chemistry //Chemistry Education Research and Practice. – 2007. – Т. 8. – №. 2. – С. 172-185.

10. Николаев Е.Л., Комиссарова Н.И., Григорьева Н.Н., Герасимова М.Н. Потенциал здоровья студенческой молодежи: личностные и поведенческие факторы риска // Научно-медицинский вестник Центрального Черноземья. 2010. № 41. С. 16-21.

11. Niyazov L.N. Analitik kimyo laboratoriya mashg'ulotlarida keys-stadini qo'llash imkoniyatlari //Fan va texnologiyalar taraqqiyoti. – 2018. № 4. – S. 53-57.

12. Niyazov L.N., Nikolayev Ye.L., Safarova N.S. Oliy tibbiyot ta'limida kimyo fanlarini o'qitishda keys usulini qo'llash masalalari / Monografiya. – Buxoro. – 2020. – 128 b.

13. Laziz Niyazov, Nafisa Safarova and Evgeni Nikolaev The Role of Case Technology in Training Graduates with Modern Competences / Proceedings of the 35th International Business Information Management Association (IBIMA). 1-12 April 2020. Seville, Spain. P. 1068-1071.

Nazifa ACHILOVA
Navoiy davlat pedagogika instituti
biologiya o‘qitish metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BIOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Maqolada bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish uslubiyoti haqida ma’lumot keltirilgan bo‘lib, bunda yosh biologiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda biologiya fanida integrastisa, hayotiy muammoli vaziyatlar, tabiat mo‘jizalaridan darsda foydalanish, o‘qivchilarda fanga bo‘lgan qiziqashni oshirishga yordam beradigan tavsiyalar, bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishdagi ayrim muammolar va ularning yechimlari haqidagi ilmiy ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetentlik, integratsiya, tabiat mo‘jizalari, pomidor, kakku, baobab daraxti, kalamush, biologiya va tarix, biologiya va kimyo, biologiya va fizika, biologiya va geografiya.*

В статье представлена информация о методах формирования профессиональной компетентности будущих учителей биологии, включая интеграцию биологии в подготовку молодых учителей биологии к профессиональной деятельности, использование жизненных задач, чудес природы на уроках. Рекомендации в помощь повышение интереса к науке, описаны некоторые проблемы в формировании профессиональной компетентности будущих учителей биологии и научная информация о способах их решения.

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, интеграция, чудеса природы, помидор, какку, баобаб, крыса, биология и история, биология и химия, биология и физика, биология и география.*

The article provides information on the methodology of formation of professional competence of future biology teachers, including the integration of biology in the preparation of young biology teachers for professional activities, life problems, the use of natural wonders in the classroom. recommendations to help increase interest in science, some problems in the formation of professional competence of future biology teachers and scientific information about their solutions are described.

Key words: *professional competence, integration, natural wonders, tomato, kakku, baobab tree, rat, biology and history, biology and chemistry, biology and physics, biology and geography.*

Kirish. Mamlakatimiz oliy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda, xususan, bu boradagi ishlar sirasiga oily ta’lim muassasalari moddiy texnik bazasining to‘liq ta’minlanishi, DTS, dastur va darsliklarning yangi avlodining yaratilishi, o‘qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalardan uyg‘un ravishda foydalanishning tatbiq etilishi, o‘quvchilarning bilish faoliyatining mustaqil va ijodiy izlanishlar asosida tashkil etilishi, fan o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlari faoliyatini rivojlantirish, “Mahorat maktablari”ning tashkil etilishi kabi ko‘plab yutuqlarni kiritishimiz mumkin.

Shunday islohotlar olib borilishiga qaramay, bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligida bir qator muammolar mavjudligi ko‘zga tashlanmoqda.

Asosiy qism. Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir [1, 4-5]. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishinigina emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini ham nazarda tutadi, shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o‘rganish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

“Kompetentlik” tushunchasi shaxsning doimo o‘sib boruvchi tasnifi bo‘lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o‘z bilimi, o‘quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanadi.

Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorlash sifatini tubdan oshirish uning mazmuni bilan bevosita bog‘liqdir. Ta’lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli zamonaviy ta’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o‘quv-uslubiy, didaktik majmualardan unumli foydalanish negizida biologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini

shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish dolzarb vazifalardan biri ekanligini belgilaydi.

Mutaxassislar tayyorlashga nisbatan oldindan belgilab berilgan me'yorlarga ko'ra "kompetentlik" atamasi mutanosib kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassisga nisbatan qo'llaniladi. Kompetentlik ma'lum holat xususida to'g'ri mulohaza yuritish imkoniyatini beradigan bilimga ega bo'lish, dalil-isbotli fikr, kishining muayyan sohada saviyasini ifoda etadigan atama. Kompetentlik shaxs xususiyatlari va holatining murakkab majmui bo'lib, ma'lum sohadagi bilim, ko'nikma va tajribani mujassamlashtirish, insonga muayyan masalalarda fikr bildirish, ma'lum qarorlarni ishlab chiqishda ishtirok etish yoki o'zi qaror qabul qilish imkonini beradi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

– murakkab jarayonlar;
– noaniq vazifalarni bajarish;
– bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanish;
– kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

– o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
– yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
– davr talablarini chuqur anglaydi;
– yangi bilimlarni izlab topadi;
– ularni qayta ishlaydi hamda amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligida ko'zga tashlanadigan muammolarning yuzaga kelishiga ko'pgina omillar sabab bo'lmoqda:

– bilimlarining izchil ravishda boyitib borilmasligi, yangi axborotlarni o'rganishning sustligi;
– internet tizimidan yetarlicha foydalanmaslik;
– darslikdagi ma'lumotlar bilan chegaralanib qolish;
– fandagi yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llamaslik;
– laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etmaslik;
– o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg'un ravishda foydalanmaslik;
– biologiyadan hayotiy muammoli vaziyatlarni yechish metodikasining to'liq shakllanmaganligi;
–biologiya darslarida fanlararo integratsiya yetarlicha takomillashmaganligini ta'kidlash joiz.

Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining bu kabi muammolari ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga to'sqinlik qiladigan asosiy sabablardan hisoblanadi. Keltirilgan muammolarning yechimlarini birgina maqolada yoritish, albatta, mushkul, shu bois maqolada o'qituvchining kasbiy kompetentligini biologiyadan hayotiy muammoli vaziyatlarni yechish va biologiya darslarida fanlararo integratsiya jarayonida shakllantirishgagina to'xtalamiz.

Biologiyadan hayotiy mauammoli vaziyatlarni yecha olish biologiya o'quvchilarining amaliy hayotda zarur bo'ladigan eng muhim kompetensiyalaridan biri sanaladi. Olib borilgan tajriba-sinov natijalariga ko'ra, ko'pchilik umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya fani o'qituvchilari fanni o'qitishda hayot bilan bog'liqlikning yetarli emasligi hamda fanlararo bog'lanish umuman yo'qligini yoki umuman tushunmasliklari aniqlandi. Bunga sabab o'z ustida ishlamasliklari va darslarda tizimli ravishda tatbiq etmasligidir. Vaholanki, o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida nazariy bilimlarni mustahkamlashda hamda ularning mazmun-mohiyatini anglab yetishda hayotiy vaziyatlar va fanlalaro bog'liqlik asosiy o'rinda turadi.

Muhokamalar va natijalar. Quyida biologiya fani o'qitishda hayotiy vaziyatlar keltirish orqali ularda o'z ustida mustaqil o'qish, ishlash ko'nikmasi shakllanadi.

Darslarda "Tabiat mo'jizalari"dan o'quvchilarni xabardor qilish (Bunda bo'lajak o'qituvchi har darsdan oldin o'zida mustaqil ishlash uchun fanga oid adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi).

Tabiatda shunday daraxt borki, unga xos xususiyatlar: 4-5 ming yil umr ko'radi, uning po'stlog'idan gazlama to'qiladi, mahalliy aholi undan arqon ham to'qishadi, uning qiziq tomoni o'zidagi suvni saqlab qolish maqsadida yilning quruq kelgan oylarida barglarini to'kadi, gulining o'lchami 20-22 sm. (*baobab*)

Bu hayvon yer qimirlashini 2-3 kun oldin seza oladi, shu sababli ham uning bezovtalanishi boshlanishini olimlar isbotlab berganlar. U soatiga 8-10 km tezlikda

chopadi va suvda yaxshi suzadi. Bundan tashqari, u 2 metr balandlikdan ham oshib o‘tadi, qizig’i shundaki, sovutkichda -17°C da ham bemalol yaxshi ko‘paya oladi. Bu hayvon….(*kalamush*)

Bu o‘simlik hammamizga ma’lum va mashhur bo‘lib, O‘zbekistonga XIX asrning 70-yillarida kirib kelgan va oziq-ovqat mahsuloti sifatida ekila boshlangan. Uning tarkibida 75-80% gacha suv bo‘ladi. Eng qizig’i inson fiziologik jihatdan normal o‘sishi uchun undan yiliga 45-50 kg iste’mol qilishi kerak. (*pomidor*)

Bu qush qo‘ygan tuxumi in egasi qo‘ygan tuxumdan also farq qilmaydi, buni hatto ornitologlar ham zo‘rg’a ajratishadi, u, asosan, chumchuqsimonlar uyasiga tuxum qo‘yib ketadi va tuxumini o‘zi ochmaydi uning jo‘jasi esa tuxumdan chiqqan zahoti boshqa tuxumlarni indan chiqarib tashlaydi va o‘zi uy egasiga aylanadi. Bu xususiyat qaysi qushga egaligini bilasizmi?...*(kakku)*

Biologiya darslarida integratsiya

Bo‘lajak biologiya fani o‘qituvchisi darsni sermazmun, qiziqarli, barcha o‘quvchilar uchun kerakli bo‘lishi, boshqa fan o‘qituvchilari bilan hamkorlikda ishlash malakasiga hamda maktabdagi fan o‘qituvchilari o‘rtasida mustaqil ishlash va hamjihatlikda bo‘ladi.

Biologiya va kimyo

Inson organizmida doim bo‘ladigan va ularning hayot faoliyatida muhim rol o‘ynaydigan kimyoviy elementlar:

kislorod, uglerod, vodorod, kalsiy, azot, kaliy, fosfor, magniy, oltingugurt, xlor, natriy, temir kiradi.

Biogen elementlardan birortasi organizmda yetarli miqdorda bo‘lmasa kasallik ro‘y beradi (biogeokimyoviy endemiyalar), masalan, suvda va ovqatda yod yetishmasaodam buqoq bo‘ladi yoki bor yetishmaganda qand lavlagi qora dog‘li bo‘lib qoladi.

Sog’lom odam organizmida mineral tuzlar ortiqcha miqdorda iste’mol qilinsa zaxira sifatida to‘planib boradi masalan: NaCl - teri osti kletchatkasida, temir tuzlari - jigarda, kalsiy tuzlari - suyakda to‘planib boradi.

Bioelementlar deb ham ataladigan mineral elementlar inson tanasida muhim rol o‘ynaydi:

tana qurilishida (kaltsiy, fosfor, temir);

metabolizm jarayonida ko‘plab biokimyoviy jarayonlarni (kaliy, natriy, yod, xlor, mis, marganets, selen va boshqalar) tartibga soladi;

qon ivishi (kalsiy) jarayonida ishtirok etish;

tanadagi suv muvozanatini saqlash (natriy, kaliy);

kislota-ishqor muvozanatini saqlashga ta’sir qiladi;

Tirik tizimlarning kimyoviy elementlari tarkibi yer qobig’ining kimyoviy elementlaridan farq qiladi. Yer qobig’ida O, Si, Al, Na, Fe, K, tirik organizmlarda H, O, C, N. Boshqa barcha elementlar 1% dan kam. Bizga 20 ta kimyoviy element kerak - ularsiz tirik tizim bo‘la olmaydi. Ushbu moddalarning to‘plami atrof-muhit va metabolizmga qarab farq qiladi. Ba’zi kimyoviy elementlar barcha tirik organizmlarning bir qismidir (universal kimyoviy elementlar) H, C, N, O. Na, Mg, P, S, Ca, K, Cl, Fe, Cu, Mn, Zn, B, V, Si, Co, Mo...

Organizmda 1,5 kg atrofida kalsiy mavjud bo‘lib, uning ikki fondi mavjud:

1. Suyaklardagi kalsiy.
2. Suyuqliklardagi yoki to‘qima oqsillari bilan birikkan kalsiy.

Biologiya va geografiya

Maktabda o‘qitiladigan biologiya darsi o‘rganiladigan obektlarning ayrim sohalari bo‘yicha geografiya predmetiga juda ham yaqin turadi. Biologiya predmeti tabiiy geografiyaga va iqtisodiy geografiyaga ham nihoyatda bog’liqdir. Bu bir-biriga yaqin fanlar tabiatdagi bir xil hodisa va narsalarni o‘rganishda o‘ziga xos xususiyatlardan foydalanadilar.

Biologiya predmeti o‘simlik va hayvonot organizmining hayotiy xususiyatlarini ularni atrofini o‘rab turgan muhitga bog’lab o‘rganadi. Geografiya darsi o‘simlik va hayvonlarning territoriyadagi tarqalish sababini o‘rganadi. Maktab geografiyasi kursida jumladan o‘simlik zonalari (hayvonlari bilan birga) o‘rganganda ularning iqlimi va tuproq sharoitiga bog’liq holda tarqalish qonuniyatlarini belgilaydi. Masalan, zoologiya darsida o‘quvchilar ayrim hayvonlarning qay tarzda yashashiga va ovqatlanishiga bog’liq bo‘lgan organism tuzilishini o‘rganadilar. Geografiya darsida esa mazkur hayvonning qayerda va qaysi sharoitda qanday sabablarga ko‘ra shu yerda yashashi o‘rganiladi.

Ma’lumki, 5-sinf tabiiy geografiyasi kursidagi “Tabiat zonalari” mavzusi o‘simliklarning iqlimga, hayvonot duyosining esa iqlim va o‘simliklarga bog’liqligi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Mana shu asosida o‘quvchilarga tabiat zonalari haqida umumiy tushuncha beriladi. Maktab joylashgan zonaning

tabiiy sharoiti, aniq ravishda ko‘rib chiqiladi. 5-sinf botanika dasturida kirish qismidan keyin “Mahalliy o‘simliklarning xilma-xilligi” (6 soat) mavzusini o‘tish tafsiya etiladi. Shu mavzuning oxirida esa o‘tilgan materialni amalda ko‘rish uchun ekskursiya uyushtiriladi. Natijada o‘quvchilarga biologiyadan o‘tilgan dars takrorlanib, geografik bilim mustahkam tushuntiriladi.

Biologiya va tarix

Qadimgi dunyo tarixi madaniy o‘simliklarning tarqalishi bilan bog’liq. Ularning aksariyati paydo bo‘lgan joyga yaqin joyda yetishtirilgan. Eng qadimiy madaniyatlar bir necha ming yillar davomida mavjud bo‘lgan: bug’doy - Misrda, guruch - Xitoyda, arpa - Mesopotamiyada, no‘xat, loviya, lavlagi - Yevropada, turp - Yevropada va Xitoyda, karam – O‘rta dengizda, bodring - Hindistonda.

Misrda piramida quruvchilar sarimsoq, piyoz, bodring, karam va non iste’mol qilishgan. Misrda olma bog’lari miloddan avvalgi 2-ming yillikning o‘rtalarida mavjud bo‘lgan.

Madaniy o‘simliklardan tashqari, ko‘plab o‘tlar iste’mol qilingan, ularning ozuqaviy qiymatini hozirgi kunda hech kim eslamaydi: bizon, yalpiz, qichitqi o‘t, dulavratotu, mallow, cinquefoil va boshqalar, shuningdek suv o‘tlari.

Xitoy va Misrda botqoq va suv o‘simliklari ularning ildizi, poyasi, barglari yeyilgan: suv nilufarlari, lotus, kalamus, o‘q uchlari, geleoxaris, mushukcha, qamish, suv yong’og’i, o‘rdak va boshqalar.

Harbiy yurishlar o‘simliklarning yangi navlarini tarqalishiga hissa qo‘shdi. Shunday qilib, Buyuk Iskandarning yurishlari tufayli yevropaliklar banan bilan tanishdilar. Rim sarkardasi Lucullus Kichik Osiyodagi Pontiya qiroli Mitridataga qarshi yurishlaridan gilosni Rimga olib keldi. Ossuriya shohlari Tigratpalassar va Sargon o‘zlarining yurishlaridan daraxtlar urug’ini, xususan, Kichik Osiyoda yoyila boshlagan sadr urug’larini olib kelishdi.

Biologiya va fizika

Hozirgi zamon tabiatshunoslik fani rivojlanishi va texnik yuksalishida fizika fani munosib o‘rin tutadi. Keyingi yillarda fizika fanida erishilgan yutuqlar, jumladan, yadro energiyasi, raketasozlik, yarim o‘tkazuvchanlik texnikasi va boshqa fanlarning rivoji hamda ularda yangi kashfiyotlar yaratilishi boshqa fanlar, masalan, biologiya fani rivojiga salmoqli ta’sir ko‘rsatgan, jumladan optik va elektron mikroskoplar kashf etilishi ham. Mikroskoplar orqali tirik organizmlarning hujayraviy tuzilishi, hujayrada sodir bo‘ladigan murakkab jarayonlarni tadqiq etish imkoniyati yaratildi. Mikroskopiya natijasida tirik organizmlar irsiyatining tabiati, irsiyatning moddiy asosi bo‘lgan DNK va RNKlarning o‘ziga xos xususiyatlari, vazifalari, belgilarining paydo bo‘lishidagi rolini aniqlash mumkin bo‘ldi.

Mexanika qonuniyatlarini organizmni o‘rganishga (qon aylanishi, tovush va yorug‘likni sezish) tatbiq qilishga urinish birinchi marta 17-asrda sodir bo‘lgan. 18-asr oxirida L.Galvani va A.Volta tomonidan “hayvon elektri”ning kashf etilishi fizik-kimyoviy hodisalarni o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. 19-asr va 20-asr boshlarida organizm energetikasi prinsiplari (Y.R. Mayer); ko‘rish va eshitish organlari ishlashining fizik asoslari hamda biologik strukturalar bilan yorug‘likning o‘zaro ta’siri (G. Gelmgols, K. A. Timiryazev, P. P. Lazarev), to‘qima va hujayradagi osmotik va bioelektrik hodisalar (E. DyubuaRaymon, Yu. Bernshteyn, J. Lyob, V. Nernst) tug‘risidagi asosiy tushunchalarga asos solindi.

Ochiq biologik sistemalar termodinamikasi, energetik jarayonlardagi energiya o‘zgarishlari hamda membranasi orqali transport qilinishi va u bilan bog‘liq bioelektrik hodisalar, muskul qisqarishi va boshqa harakat shakllari (G. M. Frank), fotobiologik jarayonlar (A. N. Terenin, A. A. Krasnovskiy B.)ning rivojlanib kelayotgan sohalari hisoblanadi. Biologik sistemalarning uzuzini tashkil qilishi (P. B. Usmonov) ilon, chayon va arilar zaharidan ion kanallarini tanlab o‘tkazuvchi neyrotoksinlar umurtqalilar va hasharotlar sinapslari glutamat neyroreseptorlari o‘rganildi va boshqarilishi ham xuddi shunday sohalar qatoriga kiradi.

Biologiya darslarida hayotiy muammoli vaziyatlarni yechishda ham yosh o‘qituvchining kreativlik qobilyati toblanadi.

Agar qizil lola o‘sadigan maydonning 100 m^2da 100 ta lola uchrasa, shu maydondagi lolalarning soni 10 yil davomida qanday o‘zgarishini yillar bo‘yicha hisoblab toping. Mazkur o‘zgarishlarni grafik shaklda tasvirlang.

Eslatma: qizil lola ko‘sakchasida 6 ta urug‘ yetilib, urug‘dan chiqqan nihol 9-10 yilda gullaydi. Har bir tup lolada bir yilda 4 ta piyozcha hosil bo‘lib, undan ungan nihol 4-5-yilda gullaydi. Lola urug‘ining unuvchanligi 75% ni tashkil etadi.

Haydarali ota o‘z tomorqasida 20 tup bodiring yetishtirdi. Bodringlar o‘sib – rivojlanib, gulladi. Ota qiziqishi tufayli bodring gullarini sanadi, ular 100 ta gul ekanligini aniqladi. Ota hosilni o‘zicha hisoblab chiqdi. Lekin hosil yetilganda jami 30 ta bodring oldi. Ota buning sababini tushunmay, sizdan maslahat so‘raganda siz bu holatni qanday izohlagan bo‘lardingiz?

Eslatma. O‘qituvchi o‘quvchilarga muammoning kelib chiqish sabablariga e’tiborli bo‘lish, ya’ni bodringni morfologik, anotomik, fiziologik, agronomik va boshqa xususiyatlari haqidagi bilim, ko‘nikma va

malakalariga tayanishlari kerakligi orqali o‘quvchilarni yo‘naltiruvchi, yodga soluvchi va ma’lumot beruvchi savollar orqali masalani hal etishga yo‘llaydi.

Xulosa. Biologiya o‘qituvchisi o‘quvchilarning biologiya darsi materiallaridan olgan bilim va ko‘nikmalarini qaysi biri qachon va qaysi mavzuni o‘tishda boshqa mavzu o‘quvchisiga yordam bera olishini ham yaxhi bilgan bo‘lishi lozim. Aks holda biologiya o‘qituvchisi boshqa dars o‘qituvchilariga yaqindan yordam bera olmaydi va o‘z darsini ham boshqa dars materiallariga bog’langan holda tushuntira olmaydi. Ana shundagina predmetlararo aloqani to‘g’ri va asosli hal qilgan bo‘lamiz va o‘quvchilarga har tomonlama chuqur mustahkam bilim va tarbiya bergan bo‘lamiz.

Adabiyotlar

1. Муслимов Н., Усмонбоева М., Сайфуров Д., Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Ташкент: “Sano-standart”, 2015. – Б. 4-5.
2. Shaxmurova G. A., Azimov I. T., Raxmatov U. E. Biologiyadan masala va mashqlar yechish. – Toshkent: “Adabiyot uchqunlari”, 2017. – B. 3-4.
3. Babinskiy.Y.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktablarida o‘qitish texnikasi. -T.: “O‘qituvchi”, 1991.
4. G’ofurov A.T., Tolipova J. Umumiy biologiya kursini o‘qitishda ta’lim mazmuni, usullari va shakllarini takomillashtirish. //Umumiy biologiyani o‘qitishning norasmiy usul va shakllari. Ilmiy maqolalar to‘plami. –Toshkent: Nizomiy nomli Tosh. DPU, 1992. -3-34 b.
5. Tolipova J.O. G’afurov. A.T. Biologiya ta’lim texnologiyalari. -T.: “O‘qituvchi”, 2002-y.
6. Sayidaxmedov.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: O‘zMU, 2005.
7. Yo‘ldoshev J.G’. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: “O‘qituvchi”, 2004.

Madina AVEZOVA
Navoi state pedagogical institute

INNOVATIVE FORMS OF MODERN EDUCATION

The article provides information about the current problems of teaching students in higher education institutions and modern interactive methods used to improve the quality of education, improve the quality of knowledge of students. Also in this article, the types of education that are relevant to the present time demand, the interesting injurious techniques used in increasing the knowledge and skills of students are also touched upon and briefly highlighted their types.

Keywords: *practical games, graphic organizers, problematic teaching, interactive learning, module-credit system, distance learning, blended learning, strategies.*

Maqolada bugungi kunda Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarni o'qitishdagi dolzarb muammolar va ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarning bilim sifatini oshirishda qo'llaniladigan zamonaviy interfaol metodlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, ushbu maqolada hozirgi zamon talabiga mos keladigan ta'lim turlari, talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirishda qo'llaniladigan qiziqarli interfaol metodlarga ularning turlariga ham to'xtalib o'tilgan va qisqacha tarzda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *amaliy o'yinlar, grafik organayzerlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning.*

В статье представлена информация об актуальных проблемах в обучении студентов обучающихся в высших учебных заведениях, и современных интерактивных методах, используемых для улучшения качества образования, повышения качества знаний студентов. В этой статье также рассматриваются и кратко освещаются типы образования, соответствующие современным требованиям, интересные неактивные методы, используемые для повышения знаний и навыков учащихся.

Ключевые слова: *практические игры, графические органайзеры, проблемное обучение, интерактивное обучение, модульная кредитная система, дистанционное обучение, смешанное обучение, стратегии.*

Introduction. Nowadays in modern conditions it is expedient to use innovative forms of education in order to strengthen the learning activity of students, improve the quality and effectiveness of teaching. [1] Practical games, problematic teaching, interactive learning, modular-credit system, distance learning, blended learning and master classes are recognized as innovative forms of modular education and other education (Scheme).



1. Scheme. Innovative forms of modern education

Main part. The scheme shows the innovative forms of modern education. Games of practical-innovative nature are effectively used in educational practice on modern conditions.

I. Practical games – games that allow you to imitate the organization of certain practical actions. Game technologies (game learning) – all forms of social experience: one of the types of person-centered education, which represents a conditional learning situation aimed at the formation of knowledge, skills, abilities and the process of emotional-evaluative activity.

II. Problem-based learning - improved teaching technology. Effective teaching technology in today's high school is a problem-based learning. Its task is to encourage an active cognitive process and to shape the research method in thinking. Problem-based learning is consistent with the goals of educating a creatively active individual.

> **Problem-based education –** education aimed at developing students' skills and competencies such as creative research, small research, making certain assumptions, substantiating results, drawing certain conclusions.

In the 1960s, problem-based learning was further developed based on the views of researchers such as L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Y.Lerner. **S.L.Rubinshteyn's** idea that "Thinking begins with problematic situation" was accepted as the psychological basis of problem-based learning.



Problem-based learning (greek, "obstacle", "difficulty") forms the basis of problematic learning, and problem-based learning serves to find solutions to them. In most cases, problem and problematic situation are accepted as synonyms. Actually, they differ from each other.

III. Interactive learning - the type of education and form of teaching that is recognized as the most optimal way to increase the effectiveness of education.

> **Interactive learning** – the education based on the organization of students' interaction in the acquisition of knowledge, skills, competencies and certain ethical qualities.

In essence, interactivity means that students have the ability to organize a movement based on cooperation, in the process of acquiring knowledge, skills, competencies and certain ethical qualities. From a logical point of view, interactivity refers, first of all, to the fact that social actors carry out activities based on dialogue interaction.

Interactive learning has the following opportunities:

- Arouses in students an interst in the acquisition of knowledge, encourages every participant in the learning process;
- Has a positive effect on the psyche of each student; creates favorable conditions for thorough mastering of educational material;
- Has a multifaceted impact on students;
- Stimulates students' thinking and attitudes on topics;
- Forms vital skills in students;
- Ensures that students' behaviour changes for the better.

Nowadays the following most popular technologies are used in the organization of interactive education in educational institutions of the Republic:

1. **Interactive methods:** "Case study", "Blitz-poll", "Modeling", "Creative work", "Attitude", "Plan", "Conversation" and etc.
2. **Strategies:** "Brainstorming", "Boomerang", "Galery", "Zig-zag", "Step by step", "Icebreaker", "Rotation", "T-table", "Rounded snow" and etc.
3. **Graphic organizers**: "Fishbone diagramme", "BBB", "Conceptual table", "Venn diagramme", "Insert", "Cluster", "Why?", "How?" and etc.

Nowadays actively used interactive methods, strategies and graphic organizers are discussed in the appendix of the manual.

I. The modular credit system is the most advanced form of modern education. Nowadays progressive humanity is continuing to seek new ways to achieve mutual understanding, cooperation in the social, economic, military and cultural spheres.

The term :credit" means "passed the test" and provides information on the student's successful completion of a particular course at the institution.

Modular-credit system is a system that ensures that each subject is mastered by students on the basis of a certain number of credit units.

II. Distance learning – the most important and increasingly popular form of modern education. The rapid development of information and communication technologies in modern conditions created favorable conditions for the use of their potential in the educational process. At the same time, it has accumulated rich experience in distance learning in leading foreign countries. Distance learning technologies are a set of forms, methods and tools aimed at ensuring that education is carried out on the basis of a defined content.

III. Blended learning is a relatively new but increasingly popular form of modern education.

Blended learning – a form of teaching based on online teaching materials and group learning under the guidance of a teacher.

In this form of teaching, the student receives independent learning, but at the same time is supported by the group and the teacher. Due to the use of **"Blended learning"** in group lessons, each student develops communication skills, reflecting the positive changes that are taking place in the acquisition of educational materials, revises the materials and prepares to explore a new topic.

Blended learning, in most cases, relies on assignments and is mainly organized on the basis of important information, additional materials are provided to the student through an online platform.

Blended learning The success of Blended learning is determined by the right choice of teaching aids. The advantage of this education form is that the student himself/herself determines the speed of mastering the learning material and the intensity of the learning process.

In higher education institutions Blended learning is based on the followings:

1. Online lecture sessions.
2. Online practical sessions.
3. Project and group work discussed on the Internet.
4. Online laboratory classes.
5. Online independent test.
6. Online advice.

IV. Master classes are once again a popular form of modern education. Master classes are an openly organized and effective form of teaching aimed at promoting best pedagogical practices.

This type of teaching is disposable. The professional skills of innovative teachers with many years of experience in organizing master classes, as well as, effective methods or technologies will be demonstrated to colleagues and students in an open, interactive manner. [3-4].

Today's day 21st century is the century of high technologies, the concept of computer graphic is closely linked to our lives.

In our society there are a lot of software products such as Maya, ZBrush, Blender, 3DMax, Nazzar.uz, 3D Virtual, 3D life thrre-dimensional modeling in the hearts of people of all ages. The term "D" is derived from the English word "dimensions". 3D technology is the most advanced method of visual and audio transmissions of an image in the world. All the smart people in the world have complete concepts like 3D image, 3D graphics, 3D modeling [5]. If we look at the modern film industry, architectural design and even the field of education, it is possible to observe real processes through various 3D special effects. The use of 3D technology in the teaching of chemistry in the organization of virtual laboratory classes leads high efficiency in teaching science. It is it is explained to students that virtual laboratory lab rooms are created in a web environment and that experiements can be performed as desired [6-7] .

Explosive experiements, experiements with toxic properties can also be performed in a virtual chemistry laboratory, and the results of ongoing reactions can be clearly seen in 3D virtual images (image).

V. Academia virtual environment provides an oppotunity to ensure high quality of education through trainings, various games, simulators, master classes.

On the implementation of virtual learning technologies as follows:

- Firstly, assessing the positive and negative consequences of the use of virtual learning technologies in our educational environment based on world experience;
- Secondly, paying special attention to the prparation of manuals on the effective use of virtual learning technologies in Uzbek;
- Thirdly, conducting research to promote national virtual learning environments and devices and promote research-based software and devices;
- Fourthly, providing conclusions and recommendations such as the introduction or government incentives for producers of virtual learning resources.

The following suggestions can be made for the development of distance learning technology in education:

1. It is achived to improve the quality of education through the widespread use of interactive methods in teaching.
2. There will be an opportunity to use specially developed teaching aids (e-textbooks, training courses, videos, audio-video lectures and etc.)
3. Integration between listener and teacher is ensured in assessing listener mastery through a developed test bank.
4. Access to the world's leading Information Resources Center through development.
5. Distance learning is introduced to improve the qualification of professor-teachers.
6. During the implementation of the development in practice, students receive training on a paid contract, in addition, the university does not require additional buildings, inventory, electricity, teaching staff, etc.
7. The implementation of this project will increase the ability of students to re-learn e-textbooks, training courses, video films, audio-video lectures.
8. There will be an opprtunity to further enhance the role of deen's office among the audience.
9. The interaction between the educator and the learner is lost.
10. Additional opportunities will be created through the implementation of the practice (loss of "workbook", "seminar notebook", "journal grades", etc.)
11. Commercialization increases the economic potential of the higher education institution.

Conclusion. To sum up, nowadays we can clearly see that every field, including education, is developing rapidly. All of the above-mentioned modern forms of education are aimed at the same goal, and all of them serve to increase the quality and effectiveness of the lessons taught to students. Educational technology and distance learning technology in education solve tasks such as the development of individualized teaching methods, the formation and improvement of student knowledge and determining the level of knowledge acquired. The use of distance learning technologies in the educational process has a strong impact on the positive change in the content, forms and methods of education.

References

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
2. Begimqulov U.Sh., Djurayev R.X., Isyanov R.G., Sharipov Sh.S., Adashboyev Sh.M., Soy M.N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent, 2011. – 177 b.
3. Abduqodirov A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: "Iste'dod", 2008. – 180 b.
4. Begimqulov U.Sh. Malaka oshirish tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish// Xalq ta'limi. -Toshkent, 2004. №6.132-137b.
5. Ixtiyarova G., Ahadov M., Haydarova Ch. Virtual laboratoriyadagi uch o'lchovli o'zaro ta'sirning kimyo ta'limidagi o'rni. Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, № 2. Б.146-152.
6. Ixtiyarova G.A., Dehqononova Sh.N., Haydarova Ch.Q., Juraqulova N.X., Oliy ta'limda virtual ta'lim texnologiyalari "Markaziy Osiyo davlatlari olima ayollarining ilm fan sohasiga qo'shgan hissasi" Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman matiriallari (1-qism). –Toshkent, 2020 20-mart.
7. Ixtiyarova G.A., Juraqulova N.X. Qurbonaliyeva Z. Kimyo sohasida 3D virtual texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. Olima ayol intellectual salohiyat va jamiyat tarqqiyoti yo'lidagi fidoyi kuch! Mavzusida Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. –Toshkent, 2019 16-may. 21-23 betlar.

Mahfuza ODILOVA
Buxoro davlat universiteti
biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

QORA-QIR KO‘LIDAGI SUVNING FIZIK-KIMYOVIY TARKIBI

Qora-qir tabiiy ko‘li Buxoro vohasining shimoliy g’arbida joylashgan. Ko‘lning umumiy maydoni 26,5-27,2 ming gektarni tashkil qiladi. Ko‘l suvining fizik-kimyoviy tarkibi yil fasllariga bog’liq holda o‘zgarib turadi. Qora-qir suvining tarkibidagi xloridlarning miqdori 3,6–3,7 g/l, sulfatlarni esa 5,0–5,2 g/l yuqori kontsentratsiyada bo‘lishi, sho‘rlanish darajasi xlorid-sulfatlar hisobiga ekanligi dalolat beradi. Suvdagi erigan kislarodning ko‘rsatgichi asosan fotosintez intensivligiga va suv aerotsiyasiga bog’liq holda o‘zgarib turadi.

Kalit so‘zlar: *xlorid, sulfat, fotosintez, Qora-qir, mavsumiy, kollektor, ko‘l, mineral moddalar, pelagial.*

Озеро Каракир расположено на северо-западе Бухарского оазиса. Общая площадь озера составляет 26,5-27,2 тысячи гектаров. Физико-химический состав озерной воды меняется в зависимости от сезонов года. тот факт, что количество хлоридов, содержащихся в воде, составляет 3,6-3,7 г/л, а сульфатов в высокой концентрации 5,0–5,2 г/л, свидетельствует о том, что степень засоления происходит за счет хлорид-сульфатов. Показания растворенного цисларода в воде варьируют, в основном в зависимости от интенсивности фотосинтеза и аэрации воды.

Ключевые слова: *хлорид, сульфат, фотосинтез, Каракир, сезонность, коллектор, озеро, минеральные вещества, пелагиаль.*

Lake Karakir is located in the northwest of the Bukhara oasis. The total area of the lake is 26.5-27.2 thousand hectares. The physicochemical composition of lake water changes depending on the seasons of the year. the fact that the amount of chlorides contained in water is 3.6-3.7 g/l, and sulfates in high concentration 5.0-5.2 g/l, indicates that the degree of salinity occurs due to chloride -sulphates. The readings for dissolved cislarod in water vary, mainly depending on the intensity of photosynthesis and aeration of the water

Key words: *chloride, sulfate, photosynthesis, Karakir, seasonality, reservoir, lake, mineral substances, pelagial.*

Kirish. Qora-qir tabiiy ko‘li (ko‘llar sistemasi) Buxoro vohasining shimoliy g’arbida joylashgan. Qora-qir kollektor suvlari to‘planish hisobiga hosil bo‘lgan. Shimoliy kollektor ko‘l suvining asosiy manbasi hisoblanadi. Ko‘ldan suv olinmaydi, suvning asosiy qismi bug’lanish va filtratsiya hisobiga kamayadi. Ko‘lga suv shimoliy kollektor orqali 30-40 m^3/sek.da kiradi, ammo chiqib ketish imkoniyati mavjud emas. Qish va bahor oylarida kollektor suvining ko‘payishi natijasida ko‘lning maydoni, mayda ko‘lmaklarning hosil bo‘lish hisobiga 26,5-27,2 ming gektarga yetadi. Yoz oylarining yuqori haroratli kunlarida bug’lanish va filtratsiya yuqori darajaga chiqadi, undan tashqari ko‘lga kiradigan suv 5-10 m^3/sek gacha kamayishi hisobiga ko‘lning maydoni ancha qisqarib 10-12 ming gektargacha kamayadi. Ko‘lning maksimal chuqurligi (Katta Qora-qir) 7-8 metr, o‘rtacha chuqurligi 2,0-2,5 metr, minimal 0,7-1,8 metrni tashkil qiladi. Qora-qir ko‘lining maksimal chuqurligi umumiy maydonni 5-10 % ni, o‘rtacha chuqurlik 15-20 % ni, minimal chuqurlik 70-80 % ni tashkil qiladi [1, 2, 3].

Asosiy qism. Suvning fizik–kimyoviy holatining tahlili dala va laboratoriya sharoitda olib borildi. Dala sharoitida suvning harorati, rangi, tiniqligi, loyqaligi va rN ko‘rsatkichlari aniqlandi. Suvning qolgan barcha ko‘rsatkichlar laboratoriya sharoitida aniqlandi. Suv tahlillari Buxoro davlat universitetining Biotexnologiya va ixtiologiya ilmiy laboratoriyasi va Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga qarashli ilmiy laboratoriyasida Y.Y.Lure va N.S.Stroganov uslublari bo‘yicha tahlil qilindi [5,6].

Suvning fizik xususiyatlarini o‘rganishda suvning tiniqligi, rangi, haroratiga e’tibor qaratildi. Suv tiniq, tiniqlik mavsumiy xarakterga ega. Eng yuqori ko‘rsatgich 2,8–3,0 metr yanvar fevral oyida kuzatiladi. Yoz faslida esa bu ko‘rsatgich 0,5-1,5 metrni tashkil qiladi. (Sekki diski bo‘yicha). Suv harorati havo harorati bilan chambarchas bog’liq. Yil davomida havo haroratining o‘rtacha ko‘rsatgichi 22 0C, suv haroratining ko‘rsatgichi 15,2 0C ni tashkil qildi (1-rasm.).



1-rasm. Qora-qir ko‘lida suv va havo haroratining o‘rtacha ko‘rsatkichi

Keyingi yillarda Qora-qir ko‘lining suvi qish oylarida muzlashi kuzatilmoqda. 2015-yil dekabr oyining 17-kunidan boshlab qirg‘oqlari muzlay boshladi. Ammo pelagial zona chuqurligi 5-7 metr bo‘lgan joylarda to‘lqin kattaligi sababli muzlash kuzatilmadi. Qora-qir ko‘li suvining kimyoviy tarkibini aniqlashda mavsimiy namunalar yig‘ildi.

Muhokamalar va natijalar. Suv tarkibi bir nechta ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlil qilindi. Qora-qir va Shimoliy zovur suvlarining gidrokimyoviy tarkibini o‘rganish natijalari, suv tarkibidagi mineral moddalarning hamda suvda erigan kislorodning miqdori yil fasllariga bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda. Qora-qir ko‘li suvi tarkibidagi muallaq moddalar, ko‘lning suv ta'minotchisi bo‘lgan Shimoliy zovurga nisbatan ko‘pligi aniqlandi. Ko‘lda suvning oqimi bo‘lmaganligi sababli, bahorda, yozda va kuzda fitoplanktonlarning hamda zoplanktonlarning faollik bilan rivojlanganligi sababli muallaq moddalarning ko‘rsatkichlari yuqori. Ko‘ldagi quruq qoldiqlarning miqdori yoz va kuz fasllarida ko‘pligi, Buxoro viloyatida yoz hamda kuz fasllarida havo harorati yuqori bo‘lganligi sababli suvning parlanishi natijasida quruq qoldiqlarning ko‘payishi aniqlandi. Qora-qir suvning tarkibidagi xloridlarning miqdori 1,8–3,7 g/l, sulfatlarni 5,0–5,2 g/l yuqori konsentratsiyada bo‘lishi, suvlarning parlanishi hisobiga mavsumiy ekanligi, sho‘rlanish darajasi xloridlar sul’fatlar hisobiga ekanligi aniqlandi.

Suv tarkibidagi biogen elementlar azotli va fosforli birikmalar, ko‘ldagi tuban va yuksak o‘simliklar tomonidan o‘zlashtiriladi. Shu sababli suvda kislorodning miqdori ko‘payadi va ular fasl davomida 6,6–6,8 mg/l hisobida saqlandi (1-jadval).

1-jadval. Buxoro viloyati Qora-qir ko‘lli suvining 2018-2019-yillardagi gidrokimyoviy ko‘rsatgichlari

№	Aniqlangan ko‘rsatkichlar	Bahor	Yoz	Kuz	Qish
1	Muallaq moddalar, mg/l	84,9 ±2,2	90,2±3,3	89,3±3,5	78,0±2,8
2	pH	6,0 ±0,09	7,2±0,1	6,0±0,09	6,0±0,09
3	Quruq qoldiq g/l	10,6 ±0,3	11,5±0,4	11,0±0,3	9,8±0,3
4	Suvda erigan kislorod, mg/l	6,7 ±0,21	6,7±0,23	6,8±0,15	6,8±0,24
5	Kislorodning bikimyoviy sarflanishi, gO_2/l	20,3 ±0,6	17,1±0,6	13,9±0,5	11,7±0,4
6	Azot ammoniy, mg/l	2,0 ±0,06	1,8±0,06	2,0±0,07	2,0±0,08
7	Nitratlar, mg/l	0,05 ±0,001	0,03±0,001	0,03±0,001	0,04±0,001
8	Nitratlar, mg/l	3,2 ±0,1	5,2 ±0,2	5,8±0,26	5,5±0,2
9	Xloridlar, g/l	1,8 ±0,06	3,6 ±0,12	3,7±0,17	1,8±0,07
10	Sulfatlar, g/l	5,0 ±0,24	4,6 ±0,18	5,2±0,21	5,1±0,2
11	Fosfatlar, mg/l	0,1 ±0,003	0,1 ±0,004	0,1±0,003	0,1±0,003
12	Temir, mg/l	0,1 ±0,002	0,1 ±0,003	0,1±0,004	0,1±0,003

Suvdagi erigan kislarod sutkalik ko‘rsatgichi asosan fotosintez intensivligiga va suv aerotsiyasiga bog’liq. Suvda erigan kislarodning o‘rtacha ko‘rsatgichi 2018-yilda 6,26 mg/l to‘yinish ko‘rsatgichi 75,1 % ga teng. Faqat kuchli to‘lqinda suvdagi erigan kislarod ko‘rsatgichi 9,5–10,2 mg/l gacha oshadi (2-jadval).

Qoraqir ko‘lida suvda erigan kislarodning sutkalik ko‘rsatkichi

Vaqt	May		Iyun		Avgust		Sentabr		Dekabr	
	Mg/l	To`yinish ko`rsatkichi%	Mg/l	To`yinish ko`rsatkichi%	Mg/l	To`yinish ko`rsatkichi%	Mg/l	To`yinish ko`rsatkichi%	Mg/l	To`yinish ko`rsatkichi%
9	5,7	52,8	4,8	68,6	6,8	54,3	4,5	64,0	6,0	85,7
12	6,2	60,0	5,9	84,3	7,0	57,1	5,5	78,6	6,0	85,7
15	6,6	94,3	6,5	92,8	8,5	121,4	6,0	85,7	6,5	92,8
18	5,9	84,3	8,9	127,1	8,0	114,2	5,8	68,6	5,0	71,4
21	5,5	64,0	6,0	85,7	5,3	75,7	5,9	55,7	5,0	71,4
O‘rtacha	6,4	48,6	6,42	91,7	5,9	84,3	6,5	70,0	6,7	81,4

Qora-qir ko‘li suvi tarkibidagi kislarodning sarflanish darajasi ancha yuqori. Buning sababi ko‘lning evtroflanishidir. Ko‘lning chuqurligi 4–5 metr bo‘lgan joylarda suvda erigan kislarod ko‘satkichi ancha past 2,5–3,0 mg/l ga teng. Buning sababi suv tubida organik qoldiqlarning ko‘pligi va serkulyatsiyaning ozligi yoki amalga oshmasligidir. Suvning kislarodga to‘yinishi invaziya orqali amalga oshiriladi. Suv haroratining va organik moddalarning yuqori bo‘lishi suvdagi erigan kislarod miqdorini kamayishiga olib keladi [4]. Suvdagi erigan organik moddalarning miqdori 9,8–20,3 mgO_2/l bo‘lib, ularning oksidlanishi uchun ham ancha kislarod sarf bo‘ladi.

Xulosa. Qora-qir ko‘li suvining fizik-kimyoviy tarkibini o‘rganish natijasida sho‘rlanish miqdori yuqori ekanligi va mavsumiy o‘zgarib turishi isbotlandi. Bundan tashqari ko‘lga Shimoliy kollektordan kiradigan suvning bahor faslida ko‘payib yozda kamayish ham mineral moddalarning ko‘rsatgichlari yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Adabiyotlar

1. Buriev, S.B. and Kobilov, A.M. (2019) The Region’s Aquatic Vegetation of Lake Kara-Kira Bukhara. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 9, 5-11. https://doi.org/10.5958/2249-7137.2019.00072.7

2. Mukhtorovich, K.A. and Burievich, B.S. (2019) Distribution of High Water Plants of Lake Karakir in Bukhara Region in Ecological Groups. American Journal of Plant Sciences, 10, 2203-2207. https://doi.org/10.4236/ajps.2019.1012155

3. Buriev, Sulaymon Burievich and Kobilov, Aziz Mukhtorovich (2019) “Prevalence and systematics of high water plant species of Karakir lake in Bukhara region," Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 1 : Iss. 10 , Article 18. https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss10/18

4. Пименова Е.В. Химические методы анализа в мониторинге водных объектов.-М.: Изд-во ФГБОУ ВПО Пермская ГСХА, 2011.- 138 с

5. Лурье Ю.Ю. Унифицированные методы анализа вод. - М.: “Химия”, 1973. - 376 с

6. Строганов Н. С. Практическое руководство по гидрохимии. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1980. – 257 с.

Laziz NIYAZOV
Buxoro davlat tibbiyot instituti tibbiy kimyo kafedrasi mudiri, dotsent

Anatoliy BREL
Volgograd davlat tibbiyot universiteti kimyo kafedrasi mudiri, kimyo fanlari doktori, professor

Umurbek G'APUROV
Buxoro davlat tibbiyot instituti tibbiy kimyo kafedrasi o'qituvchisi

XORIJIY TALALABALARGA TIBBIY KIMYO FANIDAN DARS BERISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI

Maqolada Buxoro davlat tibbiyot institutida tahsil olayotgan chet ellik talabalarga ingliz tilida tibbiy kimyo fanini o'qitilishi masalalari tadqiq qilingan. O'qitishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tibbiy kimyo fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinib, kelib chiqadigan muammolarni oldini olish bo'yicha kafedra tajribasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: *xorijiy talaba, tibbiy kimyo, fan, tibbiy oliy ta'lim, dars, ta'lim.*

В статье рассматриваются вопросы преподавания медицинской химии на английском языке иностранным студентам, обучающихся в Бухарском государственном медицинском институте. Для успешной реализации обучения проанализирована специфика преподавания медицинской химии и представлен опыт кафедры в предотвращении возникающих проблем.

Ключевые слова: *иностранный студент, медицинская химия, наука, высшее медицинское образование, курс, образование.*

The issues of teaching medical chemistry in English to foreign students studying at the Bukhara State Medical Institute have been examined in the article. The specificity of teaching medical chemistry is analyzed and the department's experience in preventing emerging problems for the successful implementation of training is presented.

Key words: *foreign student, medical chemistry, science, higher medical education, course, education.*

Kirish. Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, albatta, mamlakat aholisining turmush darajasini yanada yaxshilash, ularning sog'lom, ozod, tinch va osoyishta mamlakatda yashashlari uchun etarli shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Bu borada mamlkatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev 2016-yilning 7-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasida: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz", deb ta'kidganlar [1].

Haqiqatdan ham bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini, talabalar va o'qituvchilarning akademik harakatchanligini kuchaytiradigan globallashuv jarayonida raqobatdosh mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida chet ellik talabalarning o'qishi hamda ularning soni insititut yoki universitetning mavqesini belgilaydigan omillardan biri hisoblanadi. Bu borada respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida yetarlicha imkoniyat va asos mavjud. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish PF-5847-son Farmon bilan qator vazifalar belgilab berilgan [2]. Masalan, O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish; oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish; respublika oliy ta'lim tizimini xalqaro ta'lim standartlari bilan uyg'unlashtirish, ilg'or xorijiy tajribani chuqur o'rganish va tahlil qilish asosida ta'lim dasturlarini jahonda tan olingan xalqaro standartlar talablariga moslashtirish bo'yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish; xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyatini kengaytirish; xorijiy talabalarning ulshini 2030-yilgacha 15% ga yetkazish kabilarni keltirish mumkin. Oxirgi yillarda respublikamizda bir qator chet el oliy ta'lim muassasalari va filiallari, mahalliy oliy ta'lim muassasalarida qo'shma ta'lim dasturlari ochilishi hamda chet el dasturlarini integratsiyasi natijasida xorijiy talabalarning ulushi sezilarli o'sganini kuzatish mumkin.

Asosiy qism. Xorijiy talabalar soni oshishsi o'z navbatatida oliy ta'lim muassasalari oldida bir necha savollarni qo'yadi: chet tilida dars bera oladigan mahalliy kadrlarning mavjudligi, infrastrukturaning mavjudligi va uning talabga javob berishi, tegishli darsliklar bilan ta'minlanganligi, ishchi-xodimlarning xalqarolashuvga tayyorgarlik darajasi va boshqalar. Xorijiy talabalarni o'qitish muhitiga moslashtirish, turli xil o'qitish metodlari va uslublarini qo'llash, maxsus adabiyotlarni qo'llash bo'yicha tadqiqotlar [3-9]

ishlarda keltirilgan. Shunga qaramasdan kimyo fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari yetarlicha o‘rganilmagan. Shu maqsadda kimyo fanini o‘qitishda vujudga keladigan qiyinchiliklarni tahlil qilish va ularning oldini olish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotning obyekti sifatida Abu Ali ibn Sino nomli Buxoro davlat tibbiyot institutida tibbiy kimyo fanini o‘qitish jarayoni olingan.

Bugungi kunda Abu Ali ibn Sino nomli Buxoro davlat tibbiyot instituti Xorijiy fakultetida 10 ta davlatdan 300 dan ortiq talabalar tahsil olishmoqda. Shu bilan birga 2019-yilda institutda Pokiston va Hindistonda tan olinadigan MBBS (Bachelor of Medicine, Bachelor of Surgery) ta’lim yo‘nalishi yo‘lga qo‘yilgan.

Tibbiy kimyo fani birinchi o‘quv yilida o‘tiladigan fundamental fan hisoblanadi, shuning uchun talabalar duch keladigan muammolar orasida nafaqat yangi jamoada, balki notanish mamlakatda ham moslashishning murakkabligi bilan bog’liq ijtimoiy-psixologik muammolar muhim o‘rin tutadi. Turli xil an’analar va turmush tarzi, tili va odatlari bilan farqlar kuzatiladi. Bu, shubhasiz, nafaqat talabalarning hissiy holatiga, balki ularning o‘qishga bo‘lgan munosabati va o‘qish samaradorligiga ham ta’sir qiladi.

Avvalo, mashg’ulotlar olib boriladigan ingliz tilida o‘qituvchi va talabalarning o‘ziga xos talaffuzi xususiyatlari natijasida yuzaga keladigan qiyinchiliklarga to‘xtalib o‘tamiz. Bu qiyinchiliklar dars jarayonlarining birinchi oyida vujudga keladi. O‘qituvchi va talaba bir-birini tushunishi qiyinroq bo‘ladi. Ingliz tilida so‘zlashadigan chet el guruhlari odatda dekanat tomonidan tarkibi jihatidan bir-biriga yaqin holda tuziladi. Bunda fan bo‘yicha qiyinchilikka duch kelganda eng qiyin masalalarni tushuntirib beradigan talabalar jamoasining a’zolari o‘zlashtira ololmayotgan talabaga yordam berish uchun o‘z ona tilidan foydalanib yordam berishadi. Bu holat ham hindistonlik ham pokistonlik talabalar orasida ko‘pincha amaliy darslar jarayonida kuzatiladi. Bunday o‘zaro yordam natijasida ikkinchi yilga kelib vaziyat ancha yaxshilanadi.

O‘quv jarayoni, shuningdek, o‘quvchilarning maktab, kollej yoki litseydan keyin kelgan har xil boshlang’ich bilim darajasi bilan murakkablashadi, bu, avvalo turli mamlakatlarda turlicha bo‘lgan maktab o‘quv dasturlariga bog’liq. Aksariyat hollatlarda o‘qishga qabul qilingan talabalar kimyoning bazaviy tushunchalari hamda masalalarni yechishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu, avvalambor, maktab dasturidagi farqlardan kelib chiqadi. Ma’lumki, bugungi rivojlanayotgan dunyoda fan va texnologiyalar sohasida o‘zgarishlar shiddat bilan bormoqda. Talabalarga bugun berilayotgan bilimlar tez eskirmoqda, bu esa o‘z navbatida bo‘lajak mutaxassislardan bilim, ko‘nikma va malakalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishlarini talab etmoqda [10]. Ammo, institutda o‘qish dasturi barcha talabalar uchun bir xildir. Tibbiyot OTMlarida o‘qitiladigan tibbiy kimyo kursi maktabda o‘rganilgan kimyo, fizika va matematika bilimlariga asoslanadi. Shuning uchun maktab kimyo kursiga kiritilgan mavzular ancha oson va tez o‘rganiladi; bu holda murakkabroq masalalarni yechish uchun vaqt ajratish mumkin, masalan, bir nechta mavzular materialini qamrab olgan yoki birlashtirilgan mavzular uchun. Aksincha, boshlang’ich bilim darajasi yetarli bo‘lmagan taqdirda, asosiy masalalar va muammolar turlarini muhokama qilish bilan cheklanib qolinadi. Ehtimol, kimyoning asosiy tushunchalarini o‘zlashtirish uchun qo‘shimcha soatlarni ajratish orqali vaziyat yaxshilash mumkindir.

Muhokamalar va natijalar. Chet ellik talabalar uchun tibbiy kimyo fanini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlariga to‘xtalamiz.

1. Matematik hisob-kitoblarda qo‘llaniladigan formulalar va kattaliklarni ifodalashdagi farqlar. Ayniqsa eritmalar mavzusida qo‘llaniladigan eritmalarning konsentratsiyasini aniqlashda nafaqat formulalarning tuzilishi, balki, kattaliklarning farq qilishiga ham duch kelamiz. Kattaliklarning farq qilishi ham qo‘shimcha noaniqliklarga olib keladi.

Bunda talalabalar formulalarni yozishda qisqartirilgan belgilarning o‘rniga to‘liq so‘zlarni qo‘llashadi (1-jadval). Taqqoslaydigan bo‘lsak, o‘rtacha o‘zbek talabalari konsentratsiyaga doir oddiy masalalarni yechish uchun 4-5 daqiqa sarflasa, ingliz tilida tahsil oladigan talabalar analogik masalani yechish uchun 2-2,5 barobar ko‘p vaqt sarflashadi. Bu esa o‘z navbatida masalalarni yechish uchun ko‘p vaqtni talab etib, ba’zida mavzu yuzasidan berilgan vazifalarni to‘liq qamrab olishga vaqt yetmay qolishiga olib keladi.

2. Amaliy va laboratoriya ishlarini rasmiylashtirish hamda kimyoviy formulalar yozishdagi farqlar. Bunday tushunmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun qo‘yiladigan talablar bilan kurs boshida talabalarni tanishtirish juda muhimdir. Masalan, organik kimyoni o‘rganishda talabalar ko‘pincha organik molekuladagi vodorod atomlarini yozishmaydi, odatda bizning dastur bo‘yich qo‘yilgan talab bo‘yicha vodorodlarni ham yozishi kerak, ammo, qisqartirilgan formulalar ham qo‘llaniladi.

1-jadval. Ba’zi formula va kattaliklardagi farqlar

№	Formula yoki kattaliklarning ma’nosi	O‘zbek tilidagi adabiyotlarida	Ingliz tilidagi adabiyotlarda
1	Molyar konsentratsiya	C_M	M

2	Molyal konsentratsiya	C_m	m
3	Qismlar ifodasi, masalan, mingdan bir qism milliondan bir qism	Qo‘llanilmaydi	pcm ppm
4	Molyar konsentratsiyani topish formulasi	$c_M = \frac{n}{V}$	$\text{molarity} = \frac{\text{moles of solute}}{\text{liters of solution}}$

Shu bilan birga terminologiya ham jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki o‘qituvchining ham talabaning ham ona tili ingliz tili emas. Buni kabi qiyinchiliklarni oldini olish uchun professor-o‘qituvchilarni ingliz tili ona tili bo‘lgan davlat oliy ta’lim muassasalariga kimyo fanini o‘qitilishi bo‘yicha qisqa muddatli stajirovkaga yuborish bilan erishish mumkin.

Shuni ta’kidlash kerakki, chet ellik talabalar laboratoriya ishlarida faol qatnashadilar va ularning amaliy ko‘nikmalari darajasi zarur talablarga javob beradi. O‘qituvchi talabalarga dars paytida ham, ularga tayyorgarlik jarayonida ham maksimal darajada maslahat yordamini ko‘rsatishga tayyor bo‘lishi kerak. Chet ellik talabalarning bilimlarini nazorat qilish ham individual yondashuvni talab qiladi.

Amaliy mashqlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu turdagi faoliyatni o‘tkazish usullari har xil bo‘lishi mumkin, ammo amalda talabalar bilan og’zaki muloqot qilish zarur. Talaba kimyoviy atamalar yordamida o‘z fikrini bayon etishi kerak. Shuning uchun talabalar bilan og’zaki suhbatlashish zarur [11].

Xulosa qilib aytganda, chet ellik talabalarni o‘qitishda kuzatiladigan ayrim xususiyatlar O‘zbekiston, Rossiya, Qozog’iston kabi davlatlarning turli ixtisoslikdagi universitetlariga xosdir. Ulardan ba’zilari tuzatishni talab qiladi, masalan, o‘quv jarayonida yuzaga keladigan til qiyinchiliklari. Ularni bartaraf etish uchun qo‘shimcha til ta’limi kerak bo‘lishi mumkin. Kimyoni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari chet ellik talabalar guruhlarida darslarni olib boradigan o‘qituvchidan qo‘shimcha vaqt, e’tibor va qo‘shimcha ishni talab qiladi. Shunday qilib, tibbiy kimyo kafedrasida chet ellik talabalarni o‘qitishda ko‘p qirrali yondashuv mavjud bo‘lib, ta’lim va tarbiya elementini o‘z ichiga olgan pedagogik jarayonning yaxlitligiga asoslanadi. Bunga rivojlanayotgan ta’lim muhitida zamonaviy ilm talab qiladigan texnologiyalarni kompleks qo‘llash orqali erishiladi. Kafedra professor-o‘qituvchilari o‘quv jarayonini rejalashtirishda o‘ziga xos yondashuvni qo‘llaydi, bu esa o‘z navbatida ta’limning amaliyotga yo‘nalganligini oshiradi va talabalarning motivatsiyasini yuqori darajada rag’batlantiradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2016-yilning 7-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligiga bag‘ishlangan ma’ruzasi. https://www.gazeta.uz/uz/2016/12/07/speech

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi Farmoni.

3. Артюхина А. И. и др. Учебная деятельность иностранных студентов в новой социокультурной среде на кафедре химии //Современные проблемы науки и образования. – 2018. – №. 2. – С. 89-89.

4. Сыровая А. О., Макаров В. А., Андреева С. В. Методика проведения контроля знаний студентов в процессе изучения медицинской химии. – 2013.

5. Нечепуренко Е. В. Особенности обучения химии иностранных студентов //Инновации в здоровье нации. – 2019. – С. 512-516.

6. Chen Y., Wang J. Disussions on teaching experiences for foreign medicine students [J] //Modern Medicine & Health. – 2007. – Т. 9.

7. Ruyffelaert A. et al. Teaching scientific terminology in foreign language improves the performance of undergraduate medical students //International Congress on Education, Innovation and Learning Technologies (ICEILT 2015). – 2015. – С. 116-116.

8. Oludipe D., Awokoy J. O. Effect of cooperative learning teaching strategy on the reduction of students’ anxiety for learning chemistry //Journal of Turkish science education. – 2010. – Т. 7. – №. 1. – С. 30-36.

9. Chen R. et al. Practices on the English Teaching of Analytical Chemistry for the Foreign Students Majored in Pharmacy //Pharmaceutical Education. – 2016. – С. 04.

10. Niyazov L.N., Nikolayev Ye.L., Safarova N.S. Oliy tibbiyot ta’limida kimyo fanlarini o‘qitishda keys usulini qo‘llash masalalari / Monografiya. – Buxoro. – 2020. – 128 b.

11. Кондрашова А. В. Преподавание химической дисциплины иностранным студентам //Школа будущего. – 2019. – №. 3. – С. 268-275.

Nurazimxon MAMAXONOVA
Buxoro davlat universiteti
tarix (yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha)
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

O‘ZBEKISTON VA YEVROPA: HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan savdo-diplomatik aloqalarining so‘nggi bosqichi haqida adabiyotlar va internet materiallari tahlili asosida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *investitsiyaviy, individual holatlar, Federiko Mogerini, chegarasiz OAV, qora hudud, benefitsiar, Yevropa Ittifoqi, Yevropa Parlamenti.*

В данной статье на основе анализа литературы и интернет-материалов даны отзывы о последнем этапе торгово-дипломатических отношений Республики Узбекистан со странами Европейского Союза.

Ключевые слова: *инвестиции, индивидуальные случаи, Федерико Могерини, СМИ без границ, черная зона, бенефициар, ЕС, Европейский парламент.*

In this article, opinions on the last stage of trade-diplomatic relations of the Republic of Uzbekistan with the countries of the European Union are made on the basis of literature and analysis of internet materials.

Keywords: *investment, individual cases, Federico Mogherini, Mass Media Without Borders, black zone, beneficiary, European Union, European Parliament.*

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan barcha jabhalardagi munosabatlari jadal sur’atlarda rivojlanib borishi natijasida o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi davri boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Fransiya (2018-yil, oktyabr), Germaniya (2019-yil, yanvar) va Turkiyaga (2017-yil, oktyabr va 2020-yil fevral) rasmiy tashriflari tashkil etilib, ularning natijalari bo‘yicha siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda salmoqli kelishuvlarga erishildi. O‘z navbatida, GFR Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer (2019-yil, may) hamda Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog’an (2018-yil, aprel) mamlakatimizga javob tashrifini amalga oshirganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtda Vengriya, Italiya, Belgiya, Buyuk Britaniya va Chexiya kabi davlatlar bilan oliy darajadagi tashriflarni tashkil etish yuzasidan har tomonlama ish olib borilmoqda[1].

Asosiy qism. Biz so‘nggi vaqtlarda Yevropa Ittifoqi bilan eng yuqori va oliy darajadagi muloqot ilgari kuzatilmagan darajada faollashayotganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Xususan, 2019-yil, may oyida Yevropa Kengashi rahbari Donald Tusk ilk marotaba O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Bundan tashqari Yevopa Ittiffoqining Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo‘yicha endilikda sobiq oliy vakili Federiko Magerini ikki marta (2017-yil, noyabr va 2018-yil, mart oylari) Respublikamizga tashrif buyurdi. Uning safarlari, asosan, O‘zbekistonning Afg’oniston va Markaziy Osiyo bo‘yicha tashabbuslari bilan bog’liq edi. Mogerini O‘zbekistonda Afg’oniston va Markaziy Osiyo bo‘yicha uyushtirilgan xalqaro konferensiyalarda ishtirok etdi. 2020-yil, aprel oyida Shavkat Mirziyoyev va Yevropa Kengashi rahbari Sharl Mishel o‘rtasida telefon muloqoti o‘tkazildi. Tashqi ishlar vaziri A. Komilov Yevopa Ittiffoqining Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo‘yicha oliy vakili, Yevropa Ittifoqi komissiyasi vitse-prezidenti Jozep-Borell (2020-yil, yanvar oyida Berlin shahrida va may oyida telefon orqali) bilan ikki marta suhbatlashdi. Muzokaralar chog’ida O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar sohalarda ko‘p qirrali hamkorlikning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Mazkur muzokaralar chog’ida Yevropa tomoni iqtisodiyot, savdo, innovatsiya va investitsiya, transport, ilm-fan, ta’lim va sog’liqni saqlash sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor ekanini bildirdi. Shu o‘rinda Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy yo‘nalishda hamkorlikning sezilarli tarzda o‘sib, rivojlanib borayotganini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Jumladan, 2019-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston va Yevopa Ittiffoqi mamlakatlari o‘rtasidagi savdo hajmi 2016-yil bilan taqqoslanganda deyarli 60% o‘sib, 4 milliard AQSH dollarni tashkil etdi. Shu bilan birga, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Yevropaga eksport qilish 1,5 barobar ortgan holda 580 million AQSH

dollari miqdoriga yetgan bo‘lsa, bu davrda import hajmi 1,5 barobar oshdi va 3,42 milliard dollarni tashkil etdi. Aniqki, bu sohada tomonlar hali foydalanilmagan ulkan salohiyatga ega [1].

2020-yil yanvar-may oylarida tovar ayriboshlash hajmi 1,315 mlrd dollarni, shu jumladan, eksport 196,6 mln dollarni, import 1,11 milliard dollarni tashkil etdi.

Yevropa Ittifoqining O‘zbekiston Respublikasi uchun 2014-2020-yillarga mo‘ljallangan beg‘araz yordami to‘g‘risidagi ko‘p yillik indikativ dasturi doirasida Respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish uchun qariyb 168 million yevro mablag‘ ajratildi.

Shu sababli Toshkent va Bryusselda 2019-yildan beri muhokama qilinayotgan keng qamrovli Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi yangi kelishuv doirasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish istiqbollariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Toshkentning Markaziy Osiyoda olib borayotgan ochiq va konstruktiv tashqi siyosatini qo‘llab-quvvatlagan holda Bryussel mintaqamizga nisbatan o‘z siyosatini tubdan qayta ko‘rib chiqdi. Bu Yevropa Ittiffoqining 2019-yilda qabul qilingan Markaziy Osiyo bo‘yicha yangilangan strategiyasida o‘z aksini topdi. Mazkur hujjatda mintaqalararo o‘zaro bog‘liqlikni rivojlantirish, Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy barqarorligi va izchil taraqqiyotini Yevropa Ittifoqi tomonidan qo‘llab-quvvatlashga e’tibor kuchaytirildi.

Ayni paytda O‘zbekiston “Umumlashtirilgan imtiyozlar tizimi” (GSP)dan foydalanmoqda. Unga ko‘ra, 3000 ga yaqin tovarlar bojxona to‘lovisiz va 3200 ga yaqin mahsulotlar Yevropa Ittiffoqiga arzon narxlarda eksport qilinishi mumkin. “Umumlashtirilgan imtiyozlar plyus tizimi” – GSP+ bo‘yicha bir tomonlama tarif imtiyozlar olinsa, Yevropa bozoriga 6200 dan ortiq tovar turlarini bojxona to‘lovlarisiz eksport qilish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu imtiyozlarni berishda, Yevopa Ittiffoqi tomonidan bir qator omillarga asoslaniladi. Bular mamlakatda xavfsiz mehnat sharoitlari, mehnat huquqlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, ishlab chiqarish jarayonini samarali boshqarish ta’minlanganlik darajasini o‘z ichiga oladi.

O‘zaro munosabatlarni sifat jihatidan yangi va yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida Toshkent va Bryussel o‘rtasidagi yangi ikki tomonlama hujjat-“Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g’risida”gi bitimni tuzish bo‘yicha 2019-yildan boshlab faol muzokaralar o‘tkazilmoqda. Yevropa Ittifoqi bilan ko‘p jabhali muloqotni rivolantirishga xizmat qilayotgan mazkur yo‘nalishga asosan, 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi” doirasida O‘zbekistonda amalga oshirilgan tub islohotlar tufayli erishildi. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda kuzatilayotgan hamkorlikning ijobiy dinamikasi, shuningdek, O‘zbekistonning mintaqa davlatlariga nisbatan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash va konstruktiv muloqot orqali barcha masalalarni hal etishga qaratilgan yangi siyosati asosida Bryussel mintaqaga nisbatan siyosatini mintaqalararo aloqalarni rivojlantirish sari tubdan qayta ko‘rib chiqdi.

Bularning bachasi Bryussel tomonidan Markaziy Osiyo uchun tasdiqlangan (2019-yil, iyun oyida) yangi strategiyada yaqqol namoyon bo‘ldi. Yevropa tomonning pozitsiyasiga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi va unga a’zo davlatlar Markaziy Osiyoning siyosiy barqarorligi va izchil rivojlanishidan, shuningdek, ikki mintaqa o‘rtasidagi integratsiya aloqalarini faol rivojlantirishdan manfaatdordir. O‘zbekistonning majburiy mehnatga barham berish, sud islohotlari, qiynoqlarning oldini olish va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilan bog’liq muammolarni hal etish borasidagi yutuqlarini Yevropa Ittifoqi alohida ta’kidlaydi.

Ushbu sohalardagi sezilarli yutuqlar tufayli 2019-yilda Yevropa Ittifoqi “individual holatlar” deb nomlanuvchi ro‘yxatni birinchi marta taqdim etmadi [2]. Albatta, bu mamlakatimizda mazkur sohalarda olib borilayotgan islohotlardagi sezilarli o‘zgarishlardan dalolat beradi. Ma’lumot uchun: “O‘zbekiston-Yevopa Ittiffoqi” quyi qo‘mitasining adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va aloqador masalalari bo‘yicha yig’ilishlari doirasida Yevropa tomoni qamoqdan ozod qilish talabi bilan “siyosiy mahbuslar” deb ataluvchi 10-15 kishining ro‘yxatini an’anaviy tarzda taqdim etar edi. Bundan tashqari 2019-2020-yillarda oqlanganlarning o‘tgan yillarga nisbatan juda ko‘pligi O‘zbekiston sud tizimidagi islohotlar amalda ijobiy natijalarni ko‘rstayotganidan dalolat beradi. O‘zbekistonning ushbu sohada erishgan ijobiy natijalari Yevropa Ittifoqining dunyoda inson huquqlari va demokratiya bo‘yicha yillik hisobotida (2020-yil, iyun oyida e’lon qilingan) ham yuqori baholandi. Hujjatda 2016-yildan boshlab liberallashtirish va demokratlashtirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar dasturi, shu jumladan, siyosiy dasturlar amalga oshirilayotgani ta’kidlangan.

Alohida qayd etilishicha, bu yo‘nalishda jiddiy yutuqlarga 2019-yil yakunida (22-dekabr) bo‘lib o‘tgan parlament saylovida erishildi. Bu esa, o‘z navbatida, respublikamiz rahbariyatining tub o‘zgarishlarni amalga oshirishga bo‘lgan intilishlarini yaqqol namoyish etdi.

Bundan tashqari, Yevopa Ittiffoqi hisobotida so‘z erkinligi sohasida erishilgan ijobiy o‘zgarishlarga e’tibor qaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi turli davlat idoralari bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelgan o‘zbekistonlik

jurnalistlarga jiddiy yordam koʻrsatgani qayd etildi. Shu bilan birga, Oʻzbekiston 2019-yilda “Chegarasiz OAV” tasnifiga koʻra, “qora hudud”dan chiqarildi.

Rasmiy xabarlarga koʻra, Xalqaro Mehnat tashkiloti Bosh kotibi oʻrinbosari Haynd Kyoller, oʻtkazilgan monitoring natijalariga tayanib, Oʻzbekistonda bolalar mehnati, shuningdek, majburiy mehnatdan foydalanish tajribasiga barham berilganini ta’kidlagan. Yevropa Ittifoqi rasmiylari Oʻzbekistondagi islohotlarni qoʻllab-quvvatlash, jumladan, qishloq xoʻjaligi sohasiga ham turli loyihalar bilan koʻmak berishga va’da bergan. Avvalroq AQSH hukumati majburiy mehnat orqali yetishtirilgan oʻzbek paxtasiga qoʻyilgan ta’qiqni bekor qilgan edi.

Oʻzbekiston Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarda inson huquqlari va qonun ustuvorligi sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratmoqda. Respublikamiz birinchilardan boʻlib adliya, ichki ishlar, inson huquqlari va aloqador masalalar boʻyicha Oʻzbekiston - Yevropa Ittifoqi quyi qoʻmitasi doirasida “Inson huquqlari boʻyicha muloqot”ni tashkil etdi. Bugungi kunga qadar tomonlar oʻrtasida 12 raund muloqot boʻlib oʻtdi.

Mintaqamizdagi barqaror vaziyatni e’tirof etgan holda, Toshkent tomonidan ilgari surilgan yaxshi qoʻshnichilik siyosati tufayli Rim ilk marta “Italiya – Markaziy Osiyo” formatidagi vazirlar uchrashuvini (2019-yil, dekabr) oʻtkazdi. Oʻz navbatida, Markaziy Osiyo bilan hamkorlikni kuchaytirish maqsadida Parij ham shu singari muloqotning ikkinchi bosqichini davom ettirishga qaror qildi.

Muhokamalar va natijalar. Siyosatshunos Farxod Tolipov Oʻzbekiston - Yevropa Ittifoqi oʻrtasidagi yangi hamkorlik bitimiga doir muhokamalarda qatnashgan ekspertlardan biri. Uning fikriga koʻra, blok Oʻzbekiston tashabbuslarini qoʻllab kelmoqda. “E’tirof etish joizki, Toshkent tashabbuslari e’tiborsiz qolayotgani yoʻq - AQSH, Yevropa ham qoʻllab kelmoqda. Ammo mohiyat baribir bu tashabbuslarning qanchalik amaliyotga koʻchishida qoladi. Masalan, Afg’onistondagi vaziyat qanchalik oʻzgaradi, bu tashabbus tinchlik oʻrnatilshiga qanday hissa qoʻshadi. Umuman, Oʻzbekiston bilan hozirlanayotgan yangi strategiya bizdagi oʻzgarishlardan, islohotlardan ham kelib chiqmoqda. Yevropa Ittifoqi aynan Oʻzbekiston qaysi sohalarda hamkorlikni rivojlantirishdan manfaatdorligiga ham diqqat qilmoqda. Bu narsa avval ham aytilgan edi, Yevropa Ittifoqi biror loyihani majburan singdirmoqchi emas. Koʻproq mintaqa davlatlarini oʻzidan kelib chiqib, hamkorlikni rivojlantirmoqchi. Shu fikr yangi bitim haqida ham aytilmoqda”, – deydi Tolipov.

Farxod Tolipov fikriga koʻra, inson huqulari va siyosiy islohotlar borasida Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlar qanday rivojlanishi baribir Toshkent ixtiyorida qoladigan masala. “Islohotlarni olib boruvchi mamlakat - bu Oʻzbekiston, shuning uchun bu masala aynan uning oʻziga bog’liq. Chunki Yevropa bu borada biror yordam taklif qilgan taqdirda ham bu narsa Oʻzbekistonning oʻzi tomonidan tasdiqlanishi kerak. Kuzatishlar avval ham boʻlgan, bugun ham boʻladi, lekin masala aniq qanday islohotni amalga oshirishda. Bizda hozirgacha siyosiy islohotlar, bu masala nimalarni nazarda tutishi oʻzimizda muhokamaga chiqqani yoʻq. Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlikka kelganda ta’lim sohasida, huquqiy, sarmoya sohasida mavjud boʻlgan loyihalar keltirib oʻtiladi va bunday hamkorlik loyihalari bor. Siyosiy islohotlarda biror oʻzgarishlar boʻlishi uchun esa avval bu islohotlar nimalarni nazarda tutishi oʻzimizda muhokamaga olib chiqilishi kerak”.

Yevropa Ittifoqi diplomatiya xizmati — “European External Action Service” saytida Oʻzbekiston va Yevropa Ittifoqi munosabatlariga bagʻishlangan (2017-yil) maqola chop etilgan. Unda ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish hamda mustahkamlash boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida soʻz boradi.

Maqolada qayd etilishicha, Oʻzbekistonda sud tizimi, davlat boshqaruvi hamda xavfsizlik sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda sudlarning chinakam mustaqilligini ta’minlash, muqobil jazo turlarini kengaytirish boʻyicha aniq qadamlar tashlanayotgani fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashda muhim huquqiy kafolat boʻlib xizmat qilayotgani ta’kidlangan. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurashning ta’sirchan, institutsional hamda huquqiy mexanizmlari joriy qilinayotgani ham e’tirof etilgan. Oʻz navbatida, ishbilarmonlik va investitsiya muhiti ijobiy baholangan.

Yevropa Ittifoqining Oʻzbekiston bilan hamkorligi turli darajadagi, jumladan, Yevropa parlamenti vakillari, Yevopa Ittiffoqining Markaziy Osiyo boʻyicha maxsus vakili, Yevropa moliya institutlari, Yevropa tashqi aloqalar xizmati hamda Yevropa Komissiyasi rasmiy xodimlarining koʻp sonli tashriflari bilan yanada rivojlanib bormoqda. Jumladan, 2017-yilning aprel oyida mamlakatimizga tashrif buyurgan Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo boʻyicha maxsus vakili Peter Burian Yevopa Ittiffoqi 2017-2021-yillarda Oʻzbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi amalga oshirilishini qoʻllab-quvvatlashga tayyorligini ma’lum qilgan. Uning ta’kidlashicha, Oʻzbekistondagi islohotlar nafaqat Yevropa Ittifoqi, ayni paytda qoʻshni davlatlar bilan ham hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Yevopa Ittiffoqi Oʻzbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan chegara va

boshqa masalalardagi hamkorligini yuqori baholaydi. Bu mintaqaviy hamkorlik bo‘yicha loyihalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur loyihalar ta’lim sifatini yuksaltirish, qonun ustuvorligi va xavfsizlikni ta’minlash, barqaror rivojlanishga ko‘maklashish hamda tabiat resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan.

Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik O‘zbekiston uchun mamlakatni isloh qilish va rivojlantirishda siyosiy va moliyaviy ko‘mak olish, Yevropa Ittifoqi uchun esa o‘z qadriyatlarini Yevropa Ittifoqidan tashqarida targ’ib qilish imkoniyatidir.

Yevropa parlamentining Osiyo, Avstraliya va Yangi Zelandiya bo‘limi rahbari Nikkolo Rinaldi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish va yanada rivojlantirish bo‘yicha sa’y-harakatlarini yuqori baholadi. U, shuningdek, O‘zbekistonning yaqin qo‘shnilari ham Yevropa Ittifoqi bilan KSHHB ni imzolashiga umid bildirdi.

Yevropa parlamentidagi “Yashillar” partiyasi deputati Nikolas Nienass “O‘zbekiston islohotlar borasida yana nimalar qilishi kerak?” degan savolga quyidagicha javob bergan: “Mamlakat o‘z iqtisodiyotini katta ishtiyoq bilan isloh qilmoqda va u xuddi shunday kuch bilan demokratiya va inson huquqlarini ham yanada mustahkamlashi kerak. Ommaviy axborot vositalari faoliyatini cheklovchi qonunlar o‘zgartirilishi lozim va so‘z erkinligi shunchaki shior emas, balki jamiyat poydevorining asosi bo‘lsin. Iqtisodiy islohotlar oddiy insonlarga amaliy foyda keltirishini ta’minlash darkor. Bu, shubhasiz, mamlakat uchun qiyin vazifa, ammo uni o‘zbek xalqining hayotini yaxshilash uchun, albatta, bajarish zarur”.

“EU Reporter” Yevropa Ittifoqi huzuridagi missiya vazifasini bajaruvchi O‘zbekiston elchixonasi vakilining ham so‘zlarini keltirgan.

“O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi bilan o‘zaro manfaatli va amaliy hamkorlikni izchil rivojlantirishdan manfaatdor - deydi o‘zbek diplomati. Biz Yevropa Ittifoqi demokratiyaning umuminsoniy qadriyatlarini targ’ib qilish, qonun ustuvorligi, inson huquqlarini himoya qilish, tinchlik va barqaror rivojlanishini ta’minlashdagi rolini yuqori baholaymiz. Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonning eng muhim savdo sheriklaridan biridir. O‘zbekiston Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun eng qulay savdo-sotiq tartibini yaratgan. Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar Yevropa biznesi va sarmoyalarining O‘zbekistonda keng ishtiroki uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.”

“EU Reporter” Bryusselda joylashgan yirik multimediya platformasi hisoblanadi. U Yevropa va jahonda kechayotgan voqealar to‘g’risida onlayn tarzda 58 ta tilda matnli va video materiallar taqdim etadi.

“European External Action Service” saytida yozilishicha, hamkorlik aloqalari O‘zbekistondagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlar bilan to‘ldirilmoqda. Masalan, 2017-yil fevral oyida Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston o‘rtasida qayta tiklanadigan energiya sohasida hamkorlik bo‘yicha anglashuv memorandumi imzolangan [4].

2020-yil aprel va iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir o‘rinbosari - Investitsiylar va tashqi savdo vaziri S. Umurzoqov Yevropa Ittifoqi savdo komissari F.Xogan bilan ikki marotaba videokonferensiya shaklida uchrashuvlar o‘tkazdi. Muzokaralar davomida O‘zbekiston va Yevopa Ittiffoqi o‘rtasida kengaytirilgan sherikchilik va hamkorlik to‘g’risidagi bitim loyihasi bo‘yicha kelishish jarayonini faollashtirish bo‘yicha kelishuvga erishildi. O‘zbekistonning JSTga a’zo bo‘lishi bo‘yicha ishchi guruhning 4-yig’ilishiga tayyorgarlik ko‘rish doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga, shuningdek, O‘zbekistonning Yevopa Ittiffoqi “PBT+” imtiyoz tizimida benefitsiar mamlakat maqomini olishi jarayoniga alohida e’tibor qaratildi.

Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda COVID-19ning global miqyosida tarqalishi va butun dunyo iqtisodiyotiga salbiy ta’siri sharoitida Yevropa Ittifoqi uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun O‘zbekistonga 30 milliondan ko‘proq mablag’ ajratishga qaror qildi.

Yevropaning “EU Reporter” internet nashri Martin Benksning O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayoni haqidagi tahliliy maqolasini e’lon qildi. Material Yevropa Parlamenti va Yevropa Ittifoqi (YI) vakillarining “O‘zbekistonning turli sohalarda erishayotgan ulkan taraqqiyoti”ga bag’ishlangan fikr-mulohozalariga asoslangan [2].

Muallif Yevopa Ittiffoqi va O‘zbekiston o‘rtasida 1999-yildan beri amalda bo‘lib kelayotgan “Sheriklik va hamkorlik to‘g’risida”gi bitim o‘rniga shu kunlarda “Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g’risida”gi bitim (KSHHB)ni imzolash bo‘yicha muzokaralar davom etayotganiga e’tibor qaratgan:

“O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi KSHHB bo‘yicha muzokaralar olib bormoqda va joriy yil oxirigacha mazkur bitim imzolanishiga umid qilinmoqda. 2018-yil noyabr oyida boshlangan muzokoralar muvaffaqiyatli yakunlansa, ikki tomon munosabatlarida yangi davr boshlanadi”.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston hamda Yevropa Ittifoqi o‘rtasidagi siyosiy-iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy sohalardagi diplomatik munosabatlar yangi ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda. Bu hol O‘zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy gullab-yashnashi uchun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston va Yevropa Hamkorlikning yangi davri boshlandi.// Yangi O‘zbekiston. 2020-yil 17-iyul. 132-son.

2. O‘zbekistonning mintaqadagi yangi tashqi siyosati.//Yangi O‘zbekiston. 2020-yil 9-dekabr. 237-son.

3. Hidirov H. O‘zbekiston tashqi siyosati: siyosiy modernizatsiya va integratsiya// Falsafa va huquq. -2007-N:1.

4. O‘zaro munosabatlarda yangi sahifa //Xalq so‘zi. 2018-yil 9-oktyabr.

5. Shodmonovich, Khaitov Jakhongir. “History Of The Spread Of New Varieties Of Fodder Crops In Turkestan In The First Quarter Of The XX Century.” *International Journal of Progressive Sciences and Technologies* 24.2: 18-21.

6. Hayitov, Jakhongir Shodmonovich. “SPREAD OF NEW TYPES OF CORPS IN TURKISTAN CONTINENT AT THE END OF THE 19th-AT THE BEGINNING OF THE 20th CENTURIE.” *European Science Review* 1.11-12 (2018): 24-26.

7. Хайитов, Жахонгир Шадмонович. “ИСТОРИЯ О РАСПРОСТРОЕНИИ ДЕКОРАТИВНЫХ ДЕРЕВЬЕВ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ (В КОНЦЕ XIX-В НАЧАЛЕ XX В.).” Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. 2019.

8. HAYITOV, J. “History of dissemination of the ornamental trees’ new types in Turkestan (the end of XIXth-beginning of XXth centuries).” Scientific journal of the Fergana State University 1.6 (2019): 61-63.

Saidaxbor BULATOV
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

“VANITAS ” USULIDA ISHLANGAN NATYURMORTDAGI O‘N SAKKIZ MING OLAM FALSAFASI

Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimida “vantitas” usulida bajarilgan asarlarini falsafiy tahlil qilishning metodologik asoslari berilgan bo‘lib, kompozitsiya va rangtasvir mashg‘ulotlarida rassomlarning natyurmort janridagi asarlarni falsafiy tahliliga innovatsion yondashuv asosida, ta’limning sifat va samaradorligini takomillashtirish yo‘llari bayon etilgan.

Kalit so‘zlari: *milliy qadriyat, go‘zallik, tuyg‘u, madaniy meros, an’ana, ijodiy uslub, ramz, timsol, o‘lim, qum soat, harakat, durdona, natyurmort, ilhomlanish, kompozitsiya.*

В статье даны методологические основы философского анализа произведений, выполненных методом “vantitas” в системе непрерывного образования, описаны пути повышения качества и эффективности обучения на основе новаторского подхода к философскому анализу жанров натюрморта в композиции и живописи.

Ключевые слова: *национальная ценность, красота, эмоции, культурное наследие, традиция, творческий стиль, символ, эмблема, смерть, песочные часы, движение, жемчужина, натюрморт, вдохновение, композиция.*

The article gives the methodological foundations of the philosophical analysis of works made by the “vantitas” method in the system of lifelong education, describes the ways to improve the quality and effectiveness of learning based on an innovative approach to the philosophical analysis of still life genres in composition and painting.

Key words: *national value, beauty, emotions, cultural heritage, tradition, creative style, symbol, emblem, death, hourglass, movement, pearl, still life, inspiration, composition.*

Kirish. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy hamda innovatsiya yutuqlarini amalga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifasi belgilangan. Ota-bobolarimizning qanchalik buyuk shaxslar, yetuk alloma, olim va ulamolar bo‘lgani bilan faxrlanibgina qolmasdan, balki ularga munosib farzand bo‘lish, olamshumul kashfiyotlar qilishga qodir xalq ekanimizni amalda isbotlashimiz ham lozim. Bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarning sifatini oshirish, pirovardida yurtimizning ilmiy-texnologik salohiyatini mustahkamlab, iqtisodiyotimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan balki, birinchi navbatda, o‘zining yuksak madaniyati va ma’naviyati bilan kuchlidir. Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an’analarni rivojlantirish, undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy materiallar bilan ishlash, insonlarda, ayniqsa, yoshlarda qunt, chidam, qat’iyat, tasviriy va amaliy san’atning falsafiy, psixologik, qirralarini o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim tizimida, ya’ni maktab, lisey, kasb-hunar kollejlarida, oliy o‘quv yurtlarida o‘quvchi-yoshlarni siyosiy–g‘oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go‘zallikni seza bilishga, san’at asarlarini kitob o‘qigandek o‘qiy olishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, ushbu san’atga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirish, kasb tanlash va dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Deni Didro shunday degan edi: “Qaysi millat o‘z bolalariga rasm ishlashni xuddi xat-savodni o‘qish va hisob-kitobni o‘rgangandek qunt bilan o‘rgatsa, bu millat fan, san’at va hunarmandchilikda boshqa xalqlardan o‘zib ketadi”.

Asosiy qism. Borliqni va voqelikni musavvir yoki usta tomonidan bajarilgan asarlari har bir insonga o‘ziga xos ruhiy ta’sir etadi. Shu o‘rinda rassomlarning asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tasviriy va amaliy san’atiga nazar tashlar ekansiz, musavvirlarning asarlaridagi har bir chiziq va rang hamda shakllarda bir dunyo hikmatlar yashiringanining guvohi bo‘lasiz. Ta’lim tizimida natyurmort chizish va

natyurmort san’at asarlari o‘rgatiladi. Lekin ularni badiiy tahlil qilish, ulardan tegishli xulosalar chiqarish hamda hayotda foydalanish yo‘llari haqida yetarli darajada bilim, ko‘nikma va malakalar yetishmaydi. Biz muammoni bartaraf etish uchun natyurmort janridagi asarlarni o‘qishning falsafiy va psixologik asoslarini ko‘rib chiqamiz.

Natyurmort tasviriy san’at janridan biri bo‘lib, fransuzcha “jonsiz tabiat” degan ma’noni bildiradi. Insonning atrofini o‘rab turgan real maishiy muhitda joylashgan va kompozitsiya jihatidan yaxlit guruhni tashkil qilgan narsalar tasvirlanadi. Shuningdek, shu janrda yaratilgan rassomlik asari ham natyurmort deb ataladi. Asosan, dastgohli rassomlik (rangtasvir va grafika)da, qisman haykaltaroshlik (asosan, relyef)da ishlanadi. Natyurmortda “jonsiz buyumlar” (masalan, uy–ro‘zg‘or buyumlari, qurol-aslahalar va boshqalar)dan tashqari, tabiatdan ajratib olingan va buyum, narsalarga aylantirilgan jonli tabiat narsalari ham tasvirlanadi [1].

Natyurmort janrida M.Karavadjo, V.K.Xedi, P.Klas F.Sneyders, J.B.Sharden A.Matiss va boshqalar, O‘zbekiston rassomlari R.Ahmedov, A.Ikromjonov, M.Nuriddinov va boshqalar samarali ijod qilib, natyurmortining taraqqiyotini ta’minladilar.

Natyurmort janrida ishlagan olmoniyalik rassom Xramen Stenveyk asarlaridan birini badiiy tahlil qilib chiqamiz. Xramen Stenveyk taxminan 1580-yilda Frankfurtda tug‘ilgan. 1649-yilda esa Londonda vafot etganligi ham taxmin qilinadi. O‘z otasi Gendrik van Stenveyk Starshiyning shogirdi bo‘lgan. Frankfurtda, Gaagada va Antverpenda faoliyat ko‘rsatgan. 1617-yilgacha Londonda Karl I saroyida xizmat qilgan. Asosan, “Vanitas” usulida ishlanadigan falsafiy natyurmort janrida ijod qilgan va, asosan, maishiy turmush masalalarini yoritgan (“Bosh chanoqli natyurmort”, “Inson hayotidagi ma’nosizliklar”. 1647-yil. Londondagi Milliy galereyada saqlanadi). Stenveykning asarlarida ayrim predmetlar qatori Ona zamin (yer) va undagi boyliklarni madh etish (qurol-yarog‘lar, kitoblar, san’at atributlari, qimmatbaho jihozlar) yoki hissiy lazzatlanishga asos bo‘ladigan gullar, mevalar kabilarning bosh chanog‘i yoki qum soat bilan hamohang kelishi go‘yo hayotning o‘tkinchi ekanligini eslatadi. Stenveykning ijodi predmetlardagi eng nozik jihatlarning rang-barang tuslarda ishlanishi hamda obrazlarni ifodalashda o‘ziga xos kinoya orqali yondashganligi bilan ajralib turadi. Shunday falsafiy ishlaridan biri “Bosh chanoqli natyurmort” asaridir (1-rasm).



1-rasm. X.Stenvek. “Bosh chanoqli natyurmort”. Kompozitsion joylashishi

2-rasm. X. Stenvek. “Bosh chanoqli natyurmort”dagi asosiy elementlar (1-bosh chanoq, 2 - bosh kiyim, 3 - qum soat, 4 - nay, 5 - kitob, 6 - nota daftari 7 - may, 8 - shaftolilar, 9 - barglar, 10 - tasbeh, 11 - quticha, 12 - dasturxon, 13 - yorug‘lik, 14 - qorong‘ilik).

Natyurmort qizg‘ish jigarrang koloritda bajarilgan bo‘lib, tomoshabinni hayajonga soladi. Inson bir daqiqa tinchlanib, hayollar olamiga kirib qoladi.

Asar bamisoli kitobga o‘xshaydi. Uning o‘rtasidan bukilsa uning chap tomoni hayot quvonchlarini so‘zlayotgandek, ikkinchi tomoni esa zulmat, ya’ni o‘limni ramziy ma’noda ifodalaydi. Ufq chizig‘i o‘rtadan o‘tgan. U ham asarni teng ikkiga bo‘lib tiriklik va o‘lim ramzida berilgan.

Natyurmort kompozitsion uchburchak shaklida joylashgan. Yorug‘lik tepadan chap tomondan tushirilgan. Nur uchburchakni ikki uchburchakka bo‘lib, ikkinchi uchburchak ikkinchi, ya’ni abadiy hayotga ishoradir. Ikkinchi tomoni kontrass rangda qoramtir berilgan. Bu esa kun bilan tunni, hayot va o‘limni ramziy ma’nolarda beradi.

Kompozitsiyaga yorug‘lik, qorong‘ilik va hayot chiziqlarini o‘tkazsak uchburchak shaklidagi ABC shaklini beradi. Bu insonning umumiy, ya’ni ikki olamini anglatadi. Qizil chiziq (XC) – yorug‘lik, tiriklik ramzidir. Qora chiziq (AB) – o‘lim chizig‘i. Hayot chizig‘ini, albatta, bir kun o‘lim chizig‘i kesib o‘tishi muqarrardir degani. Yashil chiziqlar (AC va CB) - insonning ikki olamda yashaydigan hayoti. Asardagi tiriklik chizig‘i ABC uchburchakni foniy dunyosini, DBC uchburchagi esa insonlarning boqiy hayotini bildiradi [2].

Kompozitsiyada odam bosh chanog‘i birinchi ko‘zga tashlanadi. Keyin boshqa narsalar birin-ketin bosqichma-bosqich ko‘zga tashlanadi. Natyurmortdagi bosh chanoqqa boshqa narsalar uyg‘unlikda berilgan. Asosiy g‘oyani amalga oshirishda qo‘yilgan predmetlar xizmat qilgan.

Natyurmortda bosh chanoq, bosh kiyim, nota daftari, nay, kitob, qum soat, shaftolilar, barglar, tasbeh, quticha va dasturxonlardan iborat (2-rasm).

Muhkamalar va natijalar. Endi natyurmortdagi har bir predmetni badiiy tahlil qilib chiqamiz.

Bosh chanoq – o‘lim ramzi hisoblanadi. Erkak bosh suyagi bo‘lib, suyakda jarohatlangan joyi borligi va tishlarning yaxshi saqlanganligi, insonning o‘z ajali bilan o‘lmaganligi, yoshi taxminan 30-35 yoshda bo‘lganligini ko‘rsatib turibdi. Bu bilan rassom o‘lim haq demoqchi bo‘lgan. Bosh chanoq peshonasiga to‘g‘ri yorug‘lik tushirilishi, xuddi teatr sahnasidagi rol o‘ynayotgan qahramonga tushirilgan yorug‘likka o‘xshaydi. Inson yosh o‘ladimi, qari o‘ladimi uni faqat tangri biladi degan ma’noni beradi. O‘tkinchi dunyoda har bir insonning boshida o‘lim bor deydi. O‘limdan hech kim qochib qutulolmaydi. O‘lim haqida Arastu bunday deydi: “O‘limning muqarrarligini hamma biladi, ammo u yaqin emas degan fikr mavjudligi tufayli, hech kim u haqida o‘ylamaydi”. “O‘lim inson uchun hech narsa emas, chunki biz bor paytda o‘lim yo‘q, o‘lim bor joyda esa biz yo‘q” - degan edi Epikur.

Bosh kiyim (beretka) – erkak kishining bosh kiyimi bo‘lib, uni zodagonlar kiygan. Bosh kiyimda ukpar bo‘lib, u ulug‘lik, aslzodalik, bilimdonlik, martabali insonlar ramzini bildiradi. Uning rangi to‘q jigarrang bo‘lib, natyurmort atributlari ichida eng to‘q rangda berilgan. Ya’ni qoramtir jigarrang o‘limni bildiradi. Bu bilan rassom, o‘tkinchi dunyoda insonlar shoh bo‘ladimi, gado bo‘ladimi hammaning boshida o‘lim borligiga ishora qilingan. Natyurmortdagi bosh chanoqning mantiqiy g‘oyasiga uyg‘unlik berib, asarning g‘oyasini kuchaytirib bergan.

Kitob – ilm ramzi. Inson umrining oxirigacha ilm o‘rganib, dunyoni tushunish va anglashga harakat qiladi. Lekin inson hayoti so‘ngida hech nima bilmasligini anglaydi. Ushbu o‘tkinchi dunyoda har bir inson hayot kitobini yozib qoldiradi. Buni muqaddas kitoblarimizda har bir inson umurtqasining past qismida no‘xotdan kichik, moshdan kattaroq suyak orasida insonning gavhari joylashgan bo‘lib, insonning barchi xatti-harakatlarini yozib boradi deyiladi. Ana shu qilgan ezgulik yoki yovuzlik ishlari uchun oxiri ajri mukofotini oladi.

Nay – kuy ramzi. Kuy esa hayot ramzidir. Inson umri davomida Alloh tomonidan berilgan nota bo‘yicha o‘z kuyini chalib o‘tadi. Kuylarni baland pastligi, sho‘x va g‘amgin chalishi insonlar umri davomidagi hayotiga qiyoslanadi.

Nota kitobi – bu o‘tkinchi dunyoda har bir inson Alloh bergan notasi bo‘yicha o‘z kuyini chalib o‘tadi. Lekin nota kitobining yarmidan kami kuylanganligi bosh chanoq egasini bevaqt, ya’ni navqiron yoshida vafot etganligiga ishora qilingan.

“Yer yuzidagi barcha mavjudot-u maxluqotlar, shu jumladan, har bir kishining harakatlari Xudo tomonidan avvaldan belgilab berilgan, deyiladi. Ammo, shu bilan birga, insonga harakat berilganligi, ya’ni taqdir bilan bir qatorda tadbiri ham berilgan. Kishining qilgan amallari natijasi sifatida, taqdirni yaxshi yoki yomon tomonga o‘zgartirsa bo‘ladi, deyilgan Islomda” [3].

Qum soat – vaqt, umr ramzi. Insonning umri chegaralanganligi, undan to‘g‘ri va unumli foydalanib, uning qadriga yetish kerakligi hamda insonning vaqtni qaytarib bilmasligiga ishora qilingan. Umar Hayyom ta’biri bilan aytganda “insonning hayoti bir karvonsaroyga o‘xshaydi. Uning ikki eshigi bo‘lib, biridan kirib turadilar, ikkinchisidan chiqib turadilar ”. “Umr bir lahzadir, Hadisu sharifda kimga qancha umr berganligi faqat tangri bilguvchidir” (3-rasm).

3-rasm. Umr soati

Dunyoda koʻzga koʻrinmas gʻoyat bebaho narsa borki, u ham boʻlsa - vaqt. Vaqt – oʻtib boruvchi va oʻtmishga aylanuvchi, keluvchi va voqelikka aylanuvchi jarayon. Vaqt mavjud boʻlmagan kelajakdan kelib, voqelikka aylanadi, keyin esa endi mavjud boʻlolmaydigan oʻtmishga aylanadi.

Qadimgi Rim faylasufi kichik Plinniy – "inson qanchalar baxtli boʻlsa, vaqt shunchalik tez kechadi" degan.

E.Kant vaqt xuddi fazo singari mutlaq voqelik emas, u oliy ongning sof, azaliy shakli boʻlib, zohiriy hamda botiniy olamlar asosidir, deb aytgan. Uning ta'kidlashicha, vaqt chetdan qaraganda kishiga zohiriy oʻlchamday tuyulishi mumkin, ammo u mohiyatan ilohiy xususiyatga ega.

Shaftolilar – jannat mevalaridan biri. Ikki bir juft shaftolining berilishi bu oʻtkinchi dunyoda hammaning jufti haloli bilan yaratilganligiga ishora. Shaftolining yorugʻ tomoni insonlarning xursandchilik kunlarini, uning soyasi qiyinchilik kunini anglatadi.

Ikki shaftoli va sharbat dasturxondan tashqarida tasvirlanishi bu oʻtkinchi dunyodan rizq-u nasibaning uzilganligini bildiradi. Chunki dasturxon rizq, nasiba ramzidir.

Uch bargli novda – umuman, barg hayot ramzi. Ota-ona va farzand, ya'ni oila ramzida ifodalangan. Insonlar jufti haloli bilan yashab oila quradilar.

Sharob – hayot sharbati, nasiba, oʻlim sharbati ramzi. Oʻtkinchi dunyoda har inson oʻlim sharbatini ichuvchidir. Idishdagi sharbatning yarmi ichilganligi insonning uzoq umr koʻrmaganligi, ya'ni 30-35 yoshlar atrofida vafot etganligiga ishora qilingan.

Tasbeh – insonning xudojoʻyligiga va uning oʻtgan umrini ifodalagan.

Quticha – sirli quticha, sirli dunyo. Yopiq quticha insonlarning hayoti sirlidir, ularning umri qanaqa oʻtishi hech kimga ayon emas. U faqat yaratganga ayondur. Yana inson bu oʻtkinchi sinov dunyosida oʻzidan nimalarnidir meros qilib qoldiradi, ezgulik yoki yovuzlik.

Dasturxon – insonlarning foniy dunyodagi rizq–nasiba ramzi. Dasturxon qizil rangdaligi qonni anglatadi. Qon esa hayot joʻshqinligini, kurash va qarama–qarshilikdan iborat ekanligini bildiradi. Hayotda ezgulik yoʻlida yurgan inson komillikka erisha oladi deyiladi.

Yorugʻlik va qorongʻulik – olamning qarama–qarshiligi, zulmat, tun va kundan, ezgulik va yovuzlikdan iborat ekanligi. Inson hayoti zulmatdan iborat ekanligi, u zulmatdan yorugʻlikka, ya'ni olamni anglashga harakat qiladi va hayotining oxirida hech nima bilmasligini anglatadi. Agarda chap tomondan tushayotgan yorugʻlik, asosan, ikki narsaga: odam chanogʻi va nota daftari, bu hayot va oʻlim timsolida berilgan. Yana asarni vertikalidan ikkiga ajratilsa chap tomoni yorugʻ ikkinchi tomoni qorongʻulik. Bu esa tun va kunni, ezgulik va yovuzlikni, hayot va oʻlimdan iboratligiga ishora qiladi.

Qum soat – besh kunlik dunyo, inson umrining bir lahza ekanligi, soatning yorugʻlik bilan qorongʻulikni oʻrtasida berilishi, tiriklikdan vaqti soati yetib, oʻlim borligi uqtiriladi.

Xulosa. X.Stenvekni natyurmort janrida "Bosh chanoqli natyurmort" bajarilgan asari "borliq va yoʻqlik" olam falsafasini bayon etgan boʻlib, insonlarni hayot abadiy emasligi, oʻz vaqtini, ya'ni hayotini behuda oʻtkazmasligi, oʻz va oʻzgalar hayotini qadrlashga chaqiradi.

Tugʻilish va oʻlim. Oʻlim va tugʻilish. Ular oʻrtasidagi farq shundaki, inson tugʻilishi bilan mavjudligining bir koʻrinishi – "oʻladi", vafot etganida esa mavjudligining yangi bosqichi – "tugʻiladi". Shundanmi, "oʻlim- bir hayotning tugab, ikkinchi hayotning boshlanishidir", degan ekan mashhur faylasuf Arastu.

Bu borada ayniqsa mashhur soʻfiy, shoir, avliyo Xoja Ahmad Yassaviyning quyidagi hikmati ayniqsa diqqatga sazovordir.

Beshak biling, bu dunyo borcha eldin oʻtaro,
Inonmagʻil molingga, bir kun qoʻldan ketaro.
Ota-ona, qarindosh, qayon ketti fikr qil,
Toʻrt oyogʻligʻ choʻbin ot bir kun sanga yetaro.
Dunyo uchun gʻam yema, haqdin oʻzgani dema,

Kishi molin yema, sirot uzra tutaro.
Ahli ayol, qarindosh, hech kim bo‘lmaydur yo‘ldosh,
Mardona bo‘l g‘arib bosh, umring yeldek o‘taro.
Qul Xoja Ahmad, toat qil, umring bilmam necha yil.
Asling bilsang obu gil, yana gilga ketaro.

Adabiyotlar

1. Azimova B. Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi. -Toshkent: “O‘qituvchi”, 1984. 4-bet.
2. Bulatov S.S., Saipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. (Tasviriy, amaliy va me’morchilik san’at asarlari misolida). Monografiya. –Toshkent: “Fan va texnologiya” nashryoti, 2016. -103 bet.
3. Ziyomuhamedov B. Komillikka elituvchi kitob. -T.: “Turon-iqbol”, 2006.

Ilhomjon TURSUNALIYEV
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha
mutaxassislarni ilmiy-metodik ta’minlash,
qayta tayyorlash va malakasini oshirish
markazi direktori, dotsent

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASI TADQIQOTLARIGA ILMIY SHARH: MUAMMODAN AMALIY NATIJA SARI

Ushbu maqolada 2016-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasida o‘zbek tili ixtisosligidan jismoniy tarbiya va sport atamalariga bog‘liq muammolarning tahlili va istiqbol tadqiqotlar zarurati haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, jismoniy tarbiya, sport, tadqiqot, “sport” sememali birlik, sport atamashunosligi.*

В данной статье представлен анализ проблем, связанных с условиями физического воспитания и спорта на узбекском языке в Республике Узбекистан в 2016-2021 годах, и даны комментарии о необходимости дальнейших исследований.

Ключевые слова: *узбекский язык, физическое воспитание, спорт, исследование, семантическая единица “спорт”, спортивная терминология.*

This article provides an analysis of the problems associated with the terms of physical education and sports in the Uzbek language in the Republic of Uzbekistan in 2016-2021 and comments on the need for future research.

Key words: *uzbek language, physical education, sports, research, semantic unit “sport”, sports terminology.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi [1], 2020-yil 20-oktyabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari [2] ijrosini ta’minlash, shuningdek, xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tilini targ‘ib qilish hamda o‘zbek tilshunosligi sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 139-sonli Qarori [3] qabul qilingan.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestasiya komissiyasi oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestasiyasi natijalari ko‘ra, 2015-2021-yillarda “10.00.01 – O‘zbek tili (filologiya fanlari)” ixtisosligi bo‘yicha 124 ta dissertatsiya ishi himoya qilingan. Ulardan 108 tasi falsafa doktori (PhD), 16 tasi fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan tadqiqotlar sanaladi [4]. Mazkur dissertatsion tadqiqotlarning faqat bittasidagina, ya’ni Shokirova Mahbuba Nazirg‘ulomovnaning “O‘zbek tilidagi “sport” sememali birliklarning struktur-semantik tadqiqi” nomli tadqiqot ishidagina jismoniy tarbiya va sport sohasi atamalari bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan [4]. Muallif tadqiqotlarida “ot va ot sporti bilan bog‘liq odatlarni ifodalovchi leksemalar” mazmun va mohiyatiga asosiy e’tiborini qaratgan [5]. So‘nggi 5 yilda 10.00.01 – O‘zbek tili (filologiya fanlari) ixtisosligidan himoya qilingan umumiy tadqiqotlarning 0,0088 foizi jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid muammolar ulushiga to‘g‘ri keladi. Tahlillarga ko‘ra, M.N.Shokirova tadqiqotining ilmiy yangiligi sifatida quyidagilarni:

1) o‘zbek tili umumlisoniy leksikasi, sport sohaviy birliklari va terminologik qatlamga doir lug‘aviy birliklarning iste’mol darajasi ochib berilganligini;

2) “sport” sememali shaxs, predmet va jarayon nomlarini anglatuvchi leksemalarning semantik belgilari aniqlanganligini;

3) sohaviy birliklar tarkibidagi kurashmoq, tepmoq, yugurmoq, sakramoq singari leksemalarning sintagmatik munosabati orqali ularning lokal va temporal valentliklari asoslanganligi;

4) o‘zbek milliy kurashi va ot sportiga doir uloq, ko‘pkari, kurash, qilichbozlik kabi lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik asoslari ochib berilganligini alohida e’tirof etish mumkin [4].

Shuningdek, o‘zbek tilidagi “sport” sememali birliklarning struktur-semantik va lingvokulturologik tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida: terminologik leksikasining taraqqiyoti, sohaviy leksik sistemaning semantik xususiyatlari, sport terminlarining lingvistik tabiati bilan bog‘liq natijalardan 2017-2018-yillarda bajarilgan I–2017-1-14/3 raqamli “O‘quvchi yoshlar uchun olimpiya ta’limining samarali tizimini yaratish” nomli innovatsion loyihada foydalanilgan. Natijada sport terminlari, umumtil materiallaridan to‘g‘ri va samarali foydalanishga erishilgan, zaruriy o‘rinlarda ularning o‘zbekcha muqobiliga almashtirishda foydalanilgan.

Muhokamalar va natijalar. O‘zbek tilidagi sportga oid tushunchalarning lingvokulturologik tahliliga doir nazariy qarashlar, amaliy tavsiyalardan 2015-2017-yillarda bajarilgan A–1-099 raqamli “O‘zbekistonning barqaror strategik taraqqiyotida fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish va ma’naviy-axloqiy xavfsizligini ta’minlash konsepsiyalarining ahamiyati” nomli amaliy loyihada foydalanilgan. Natijada xalq o‘yinlari, milliy sportga xos so‘zlar, umumtil materiallaridan o‘rinli foydalanishga erishilgan [3]. Shuningdek, 2017-2021-yillarda “13.00.04 – Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)” ixtisosligi bo‘yicha 51 ta dissertatsiya ishi himoya qilingan. Ulardan 49 tasi falsafa doktori (PhD), 2 tasi fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan tadqiqotlar sanaladi [3]. Lekin tahlillarimiz natijasiga ko‘ra, so‘nggi 4 yilda birorta izlanishning tadqiqot predmeti sifatida “sport atamashunosligi” o‘rin olmagan.

Hozirda ilmiy-ijodiy guruh tomonidan:

- sport ensiklopediyasi;
- sport jihozlarining o‘zbek tilida nomlanishi;
- jismoniy tarbiya va sport atamalari lug‘ati hamda izohli lug‘ati;
- sport sohasiga oid o‘zbek tiliga xorijiy tillardan o‘zlashtirilgan so‘z va atamalar lug‘ati hamda izohli lug‘ati;
- sport turlari bo‘yicha so‘z va atamalar hamda izohli lug‘ati yaratilmoqda.

Tahlillardan ko‘rinadiki, bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha atamalarni o‘zbek tilida muqobillashtirish muammosini tadqiq etish juda ham sust ravishda kechmoqda. So‘nggi yillarda chop etilayotgan yoki nashr etishga ruxsat berilgan qator o‘quv adabiyotlarida, ayniqsa, “sport jihozlari”, “sport anjomlari”, “sport asboblari” va boshqalarning o‘zbekchalashgan muqobillari turli ko‘rinishlarda berilmoqda. Masalan, sport gimnastikasi bo‘yicha jihozlardan birining nomi bir o‘quv adabiyotida “kozyol”, yana birida “kon”, boshqasida “eshak” va (yoki) “uloqcha” tarzida yozilishini uchratish mumkin.

Xulosa. Birinchidan, istiqbolda bu kabi jismoniy tarbiya va sport sohasi atamashunosligi bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etishda, soha mutaxassislari o‘zbek tili mutaxassislari bilan hamkorlikda fundamental, amaliy, innovatsion tadqiqot ishlarini olib borishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Ikkinchidan, mazkur tadqiqotlar natijasiga tayanib, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi boshchiligida “Jismoniy tarbiya va sport ensiklopediya”sini tuzish va iste’molga kiritish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF–5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni / https://lex.uz/pdfs/4561730

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni / https://lex.uz/pdfs/5058351

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi “O‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 139-sonli Qarori / https://lex.uz/docs/4759743.

4. Шокирова М.Н. От ва от спорти билан боғлиқ одатларни ифодаловчи лексемалар // “GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2019: CENTRAL ASIA” атты V Халықар. ғыл.-тәж. конф. материалдары (VI ТОМ)/ Қҧраст.: Е. Ешім, Е. Абиев т.б.– Астана, 2019. – Б. 5–9.

5. http://oak.uz/pages/3102

G‘ayrat SALIMOV
Buxoro davlat universiteti
jismoniy madaniyat nazariyasi
va uslubiyoti kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Abdullo FOZILOV
Buxoro davlat universiteti
jismoniy madaniyat fakulteti
II bosqich magistranti

TALABALARNING O‘QUV JARAYONIDA JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSIGA TIZIMLI YONDASHUV

Mazkur maqolada “Jismoniy madaniyat” o‘quv fanida sportga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya jarayonida talabalarning sport madaniyatini shakllantirish keng madaniy va kasbiy kompetensiyalar tizimida faoliyat ko‘rsatadigan pedagogik tizim sifatida ochib berilgan. Ushbu pedagogik tizimning individual tarkibiy qismlari: o‘qitishning maqsadi, mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini ko‘rib chiqishda tizimli tahlil va sintez amalga oshirildi. Keyingi tadqiqotlarning vazifalarini aniqlash, shaxsning sport madaniyatini shakllantirish muammosi shulardan biri bo‘lib, uning rivojlanishi hozirgi paytda universitetda o‘qish jarayonida talabalarning sport madaniyatini shakllantirish muammosini o‘rganishning asosiy uslubiy sharti sifatida murakkab obyektlarni bilish uchun umumiy ilmiy metodikadan - tizimli yondashuvdan foydalanishni nazariy va amaliy ish tajribalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *tizimli yondashuv, izchillik, yaxlitlik, tuzilish, jismoniy madaniyat, sport, sport madaniyati, jismoniy tarbiya, vosita, usul.*

В данной статье системный подход к педагогике выявляет общность педагогических явлений и процессов с другими явлениями действительности, обогащает педагогику идеями, фактами, методами смежных наук или, наоборот, распространяет данные педагогических исследований на другие области знаний, интегрирует и систематизирует педагогические знания, снижает субъективность в трактовке педагогических явлений. Позволяет и обрабатывает, определяя задачи дальнейшего исследования, проблема формирования спортивной культуры личности является одной из ее разработок, разработка которой в настоящее время находится в процессе обучения в университет. Теоретический и практический опыт работы по использованию общенаучной методологии - системного подхода к изучению сложных объектов как основного методологического условия исследования проблемы формирования культуры.

Ключевые слова: *системный подход, последовательность, целостность, структура, физическая культура, спорт, спортивная культура, физическое воспитание, средство, метод.*

In this article, a systematic approach to pedagogy reveals the commonality of pedagogical phenomena and processes with other phenomena of reality, enriches pedagogy with ideas, facts, methods of related sciences, or, conversely, extends pedagogical research data to other areas of knowledge, integrates and systematizes pedagogical knowledge, and reduces subjectivity in interpretation. pedagogical phenomena. It allows and processes, defining the tasks of further research, the problem of the formation of a person's sports culture is one of its developments, the development of which is currently in the process of studying at the university. Theoretical and practical experience in the use of general scientific methodology - a systematic approach to the study of complex objects as the main methodological condition for studying the problem of culture formation.

Key words: *systematic approach, consistency, integrity, structure, physical culture, sports, sports culture, physical education, media, method.*

Kirish. Haqiqatning har qanday obyektini tizim deb hisoblaydigan tizimli yondashuvlarning umumiy nazariyasi avstriyalik olim Lyudvig fon Bertalanfi tomonidan ishlab chiqilgan. Tizimli yondashuv - bu obyektlarni tizim sifatida ko‘rib chiqishga asoslangan ilmiy bilimlar metodologiyasining yo‘nalishi, umumiy ilmiy uslubiy prinsiplarning to‘plamidir: dialektik-materialistik ta’limotni umuminsoniy bog‘lanish va umuminsoniy harakat konkretlashtirish shakli, moddiy voqelikning rivojlanishi va uning inson ongida aks etish shakllari.

Tizimli yondashuvning asosiy prinsiplari - izchillik, yaxlitlik, tuzilish, ko‘plikda namoyon bo‘ladi.

Tizim yondashuvining asosiy tarkibiy birliklari bu tizim (yaxlitlik yoki birlikni tashkil etuvchi o‘zaro bog‘liq elementlar to‘plami), tuzilish (tizim elementlarining ma’lum ulanishlar orqali o‘zaro ta’sir qilish usuli), jarayon (tizimning vaqt ichida dinamik o‘zgarishi), funksiya (tizimdagi elementning ishlashi), holat (tizimning holati uning boshqa qoidalariga nisbatan), tizimli effekt (butunlik oddiy qismlar yig‘indisidan ko‘proq bo‘lganda, tizim elementlarini maxsus qayta tashkil etish natijasi) [3, 79].

Tizimli yondashuv har qanday tizimni (obyektni) natijasi (maqsadi), kirishi (resurslari), tashqi muhit bilan aloqasi (teskari aloqasi) bo‘lgan o‘zaro bog‘liq elementlar (komponentlar) to‘plami sifatida ko‘rib chiqadi.

Pedagogikadagi tizimli yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning haqiqatning boshqa hodisalari bilan mushtarakligini ochib berishga, pedagogikani g‘oyalar, dalillar, turdosh fanlarning usullari bilan boyitishga yoki aksincha, pedagogik tadqiqotlar ma’lumotlarini boshqa bilim sohalariga yoyishga, pedagogik bilimlarni birlashtirish va tizimlashtirishga, pedagogik hodisalarni talqin qilishda subyektivlikni kamaytirishga imkon beradi va jarayonlar, keyingi tadqiqotlarning vazifalarini aniqlash, shaxsning sport madaniyatini shakllantirish muammosi shulardan biri bo‘lib, uning rivojlanishi hozirgi paytda universitetda o‘qish jarayonida talabalarning sport madaniyatini shakllantirish muammosini o‘rganishning asosiy uslubiy sharti sifatida murakkab obyektlarni bilish uchun umumiy ilmiy metodikadan - tizimli yondashuvdan foydalanishni talab qiladi [2, 112].

Asosiy qism. Tizim yondashuvni bir-birini to‘ldiruvchi ikkita yo‘nalishda - tizim tahlili va tizim sintezidan foydalanamiz, ular dialektik birlikda qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv sport madaniyatini shakllantirishning mohiyati va mazmunini nazariy tahlil qilishda amalga oshirildi.

Shaxsning sport madaniyati tarkibidagi tarkibiy qismlarni o‘rganish ularning har biri haqida o‘ziga xos rolga ega bo‘lgan, elementlarning miqdoriy tarkibidagi sifatning o‘ziga xosligi bo‘lgan nisbatan mustaqil, ajralmas funksional tizim sifatida g‘oyalar asosida amalga oshirildi. “Jismoniy madaniyat” o‘quv fanida sportga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya jarayonida talabalarning sport madaniyatini shakllantirish keng madaniy va kasbiy kompetensiyalar tizimida faoliyat ko‘rsatadigan pedagogik tizim sifatida ochib berilgan. Ushbu pedagogik tizimning individual tarkibiy qismlari: o‘qitishning maqsadi, mazmuni, shakllari, usullari va vositalarini ko‘rib chiqishda tizimiy tahlil va sintez amalga oshirildi.

Shaxsning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida sport madaniyati faoliyatining maqsadi ijtimoiy va shaxsiy darajadagi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida sport qadriyatlarining faoliyatga asoslanganligidir. Strukturaviy tahlil sport madaniyatining ichki tarkibini aniqlashga, uning faoliyatidagi o‘rni va roli jihatidan sifat tomonidan farq qiluvchi tarkibiy qismlarini ajratib ko‘rsatishga imkon berdi. Ushbu tarkibiy qismlarning har biri uning mohiyati (umumiy tizimning elementi - sport madaniyati sifatida) va mazmuni (ichki tuzilishi) nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Strukturaviy (tarkibiy) tahlil - bu tashqi va ichki ishlash mexanizmlarini ochib berishni o‘z ichiga olgan funksional tahlilning asosidir.

Sport madaniyatini, bir tomondan, tarkibi va tuzilishi bo‘yicha, ikkinchidan tashqi vazifasi bilan ko‘rib chiqamiz.

Dialektik mantiq mavzuni rivojlanish jarayonida ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shuning uchun sport madaniyatining maqsadli, tarkibiy va funksional tahlili uning genetik tahlili bilan tugaydi, bu uning rivojlanishining sifat jihatidan turli darajalarini ajratish, rivojlanish qonuniyatlarini belgilashga imkon beradi.

Tizimli tahlil materiallari uning tarkibiy qismlari o‘zaro ta’sirining ajralmas natijalari sifatida yangi tizimli fazilatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishining qonuniyatlari va mexanizmlarini ochib berib, jismoniy madaniyatining nazariy modelini yaratish uchun ishlatilgan.

Pedagogik tizimlar ijtimoiy tizimlarga tegishli va V.P. Bespalko berilgan fazilatlarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishga uyushgan, maqsadga muvofiq pedagogik ta’sir o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan vositalar, usullar va jarayonlar to‘plami sifatida, hozirda bir qator ishlar ta’lim sifatida jarayon sifatida yondashuvning yuqori samaradorligini namoyish etdi.

Maqsadli pedagogik tizim sifatida umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni boshqarish asos hisoblanadi.

Oliy ta’limda o‘qish jarayonida talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bo‘lajak mutaxassisning umumiy madaniy va kasbiy vakolatlari tizimining yo‘nalishlaridan biridir. Faoliyat maqsadlarining sifat jihatidan o‘ziga xosligi, oliy ta’limda o‘qish jarayonida talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirishni funksional tizim sifatida va uni tizimli yondashuv pozitsiyasidan ajratib ko‘rsatish imkoniyati va zarurligini belgilaydi. Bu jarayonda talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish tizimining strategik maqsadiga erishish funksional tizim sifatida oliy ta’limda o‘qitish va uni tizimli yondashuv jihatidan o‘rganish, o‘qish jarayonida talabalarning sport madaniyatini shakllantirish tizimining strategik maqsadiga erishish o‘quv rejalariga muvofiq fanlarni o‘rganish orqali ta'minlanadi. O‘qish jarayonida talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish maqsadlarining sifat jihatidan o‘ziga xosligi, uni talabalarning umumiy madaniy va kasbiy vakolatlari doirasida jismoniy madaniyatini shakllantirishning yanada keng tizimi doirasida (maqsad mezoniga ko‘ra) uni nisbatan mustaqil integral pedagogik quyi tizim sifatida ajratish imkoniyati va zarurligini belgilaydi.

Shunday qilib, maqsadli tahlil tadqiqot predmeti sifatida talabalarda sport madaniyatini shakllantirish tizimini va o‘qish jarayonida talabalar o‘rtasida umumiy madaniy va kasbiy vakolatlarni shakllantirish tizimini ajratib ko‘rsatishga imkon berdi.

Maqsadli yaxlitlik, albatta, tizimning tarkibi va ushbu tizimni tashkil etuvchi alohida qismlarning o‘zaro bog‘liqligini oshkor qilishni o‘z ichiga oladi, bu tizimning tuzilishi, uning ichki tashkiloti to‘g‘risida g‘oya beradi. Tadqiqot jarayonida murakkab obyekt ko‘p bosqichli ta’lim vazifasini bajaradi. Ularning umumiyligi bo‘yicha tizimning turli xil tuzilmalari ajralmas qismini tashkil qiladi. Har bir pastki tuzilmaning o‘ziga xos ajralmas xususiyatlari bor, ular tizimning ishlashida namoyon bo‘ladi. Strukturaviy tahlil talabalarda sport madaniyatini shakllantirish tizimining tarkibiy qismlarini va universitetda o‘qish jarayonida talabalarning umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish tizimini aniqlashga va ularning ichki mazmunini, maqsadga yo‘naltirilganligi jihatidan sifat jihatidan farq qilishga imkon berdi.

Muhokamalar va natijalar. Tizimli tahlil qilish metodologiyasiga muvofiq shaxsning sport madaniyati tizimli ravishda tashkil etilgan obyekt sifatida qaraladi va maqsadga yo‘naltirilganligi, tarkibiy qismlarining mazmuni, ichki va tashqi faoliyat mexanizmlari, paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda izchil ochib beriladi.

Talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish tizimining ichki faoliyati va o‘qish jarayonida umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish tizimi ularning shartliligi bo‘yicha, bir tomondan, tarkibiy tarkibi va tuzilishi, boshqa tomondan, ularning tashqi vazifalari bo‘yicha tekshiriladi. Ichki funksiyani tahlil qilish jarayonida alohida tarkibiy qismlar o‘rtasidagi funksional va muvofiqlashtirish munosabatlari ochib beriladi [2, 189].

Shu bilan birga, tizimlarning ierarxiyasi to‘g‘risidagi qoidalar hisobga olinadi, unga ko‘ra har bir quyi tizim yuqori qismning ajralmas qismi sifatida qaraladi va bir tomondan, uning namoyon bo‘lishida unga bo‘ysunadi va boshqa tomondan, u o‘zi xususiyatlarini belgilaydi, o‘ziga xos xususiyatlariga asoslangan qulay tizim hisoblanadi. Asosiy quyi tizimlarning xususiyatlari bir xil tartibdagi boshqa quyi tizimlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish jarayonida yuqoriroq xususiyatlariga aylantiriladi. Yuqori darajadagi tizim quyi tizimlarni faoliyatga maqsadga muvofiq ravishda faqat tanlangan holda, dasturlashtirilgan natijani olishda ularning yordami darajasida jalb qiladi.

Talabalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish tizimining tarkibiy qismini oliy ta’lim jarayonida umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish tizimini va ularning ishlash mexanizmlarini o‘rganish asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning kelib chiqish qonunlari, rivojlanishi va takomillashtirish istiqbollarini ko‘rib chiqish, mantiqiy mavzuni rivojlanish jarayonida ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shuning uchun biz aniqlagan tizimlarning maqsadli, tarkibiy va funksional tahlillari genetik tahlil bilan birlashtirilgan. Ushbu tahlil turidan foydalanish talabalarning jismoniy madaniyati rivojlanishining sifat jihatidan har xil darajalarini va “Jismoniy madaniyat” fanida tanlangan sport turi asosida sportga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya jarayonida umumiy madaniy va kasbiy vakolatlarni shakllantirish bosqichlarini aniqlashga, ularning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va shakllanish qonuniyatlarini aniqlashga yo‘l ochadi.

Butizimlarning individual tarkibiy qismlari o‘zaro ta’sirining ajralmas natijalari sifatida yangi tizimli fazilatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishining qonuniyatlari va mexanizmlarini ochib berishga imkon berdi.

V.G. Afanasev tizimlarni ajralmas shakllanish deb ta’riflashi mumkin bo‘lgan bir qator xususiyatlarni aniqlaydi: integral sifatlarning mavjudligi (izchillik), ya’ni tizimning biron bir alohida elementiga ega bo‘lmagan bunday fazilatlar; tizim tashkil etuvchi tarkibiy qismlarning mavjudligi; strukturaning mavjudligi, ya’ni ba’zi ulanishlar, qismlar va elementlar o‘rtasidagi munosabatlar; umuman tizimning funksional xususiyatlari va uning alohida tarkibiy qismlarining mavjudligi; ikki shaklda namoyon bo‘lgan tizimning kommunikativ xususiyatlarining mavjudligi: atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir shaklida va ushbu tizimning quyi va supersistemalar bilan o‘zaro aloqasi shaklida, ya’ni pastki tizimlar yoki unga nisbatan qism (quyi tizim) yoki umuman harakat qiladigan yuqori darajadagi buyurtma; tizimda va uning tarkibiy qismlarida o‘tmish, hozirgi va kelajakning tarixiyligi, uzluksizligi yoki aloqasi [1, 159].

Xulosa. Shunday qilib, universitetda tizimli yondashuv asosida o‘qish jarayonida talabalarning sport madaniyatini shakllantirish muammosini nazariy o‘rganish natijalarini umumlashtirib, quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:

1. Tizimli yondashuv - obyektlarni tizim sifatida ko‘rib chiqishga asoslangan ilmiy bilimlar metodologiyasining yo‘nalishi, umumiy ilmiy uslubiy tamoyillar to‘plami. Tizimli yondashuvning asosiy prinsiplari - izchillik, yaxlitlik, ierarxik tuzilish, ko‘plik.

2. Tizimli yondashuv metodologiyasiga muvofiq sport madaniyati biz tomonidan murakkab tizimli tashkil etilgan obyekt sifatida qaraladi va quyidagilarga nisbatan izchil ochib beriladi:

a) ishlashning maqsadi (maqsadli tahlil jismoniy tarbiya sohasida olingan natijalarni matematik-statistik tahlil va ularni solishtirish);

b) tarkibiy qismlarning tarkibi (tarkibiy tahlil jismonan sog‘lom yosh avlodni voyaga yetkazish, bolalar sportini ustuvor rivojlantirish, sport tayyorgarligi metodikalari va dasturlarini takomillashtirish, ilmiy asoslangan sport tibbiyotini rivojlantirish, trenerlar tarkibining kasbiy darajasini doimiy ravishda oshirish);

d) ichki va tashqi ishlash mexanizmlari (har bir jarayonni olib borilishida uning qanday olib borish to‘g‘risida rejasi tuzib olinadi. Funksional tahlilning olib borilishida ham quyidagi bosqichlarni amalga oshiramiz: tayyorgarlik bosqichi; manbaa to‘plash etapi; tahlil etish jarayoni; ijodiy mulohaza bosqichi; taklif etish jarayoni; ilg‘or g‘oyalarni ishlab chiqarishga joriy etish etapi);

e) paydo bo‘lishi va rivojlanishi (genetik tahlil – organizmlardagi irsiyat va o‘zgaruvchanlikni o‘rganish usullari yig‘indisi. Genetik tahlil yordamida organizmlar belgi va xususiyatlarining o‘ziga xos rivojlanish farqlari o‘rganiladi, bu farqlarni nazorat qiluvchi genlar miqdori hamda ularning o‘zaro ta’sir xarakteri aniqlanadi.

3. Tadqiqot predmeti sifatida ta’kidlangan “Jismoniy madaniyat” fanida tanlangan sport turi asosida sportga yo‘naltirilgan jismoniy tarbiya jarayonida talabalarning sport madaniyatini shakllantirish (umumiy madaniy va kasbiy vakolatlarni shakllantirish) tizimi aniqlandi (maqsadlar, mazmun, shakllar), ularni to‘liq tavsiflash uchun zarur va yetarli bo‘lgan uslublar va o‘quv qo‘llanmalari ko‘rib chiqildi.

4. Model xarakteristikalari natijalarini tahlil qilish insonning sport madaniyati tarkibidagi zarur va yetarli tarkibiy qismlar: motivasion, shaxsiyat-xulq-atvorli, jismoniy, informatsion, refleksiv, operasion deb tasnif qilishga asos beradi.

5. Tizimli tahlil metodologiyasiga muvofiq shaxsning sport madaniyati tizimli ravishda tashkil etilgan obyekt sifatida qaraladi va maqsadga yo‘naltirilganligi, tarkibiy qismlarining mazmuni, ichki va tashqi faoliyat mexanizmlari, paydo bo‘lishi va rivojlanishi bilan bog‘liq ravishda izchil ochib beriladi.

6. Sport madaniyati konsepsiyasini sport faoliyatining maqsadlari va mazmuni (faoliyat yondashuvi), shaxsiyat xususiyatlari (shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv) va uni tizimli tashkil etish g‘oyasi (tizimli yondashuv) bo‘yicha tan olinishiga asoslanib, sport madaniyatini insonning yaxlit, tizimli ravishda uyushtirilgan va shaxsan aniqlangan xarakteristikasi deb tushunamiz, uning maqsadi va mazmuniga mos keladigan, shaxsan va ijtimoiy jihatdan maqbul darajada amaliy bajarilishini ta'minlaydigan sport faoliyati sub'ekti sifatida qaraladi. Sport madaniyatini shakllantirish maqsadlar, vazifalar va sifat jihatidan o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan pedagogik tizim sifatida tadqiq etiladi.

Adabiyotlar

1. Афанасов В.Г. Социальная информация и управление обществом. -М., 1975. -408 с.

2. Бурцев В.А., Хурамшин И.Г., Бобырев Н.Д. Системный подход к исследованию проблемы формирования спортивной культуры студентов в процессе обучения в вузе // Фундаментальные исследования. – 2015. – № 2-26. – С. 5906-5910;

3. Xudaynazarov A. Tizimli tahlil asoslari (darslik). –Toshkent, 2016. -160 b.

4. Абдуллаев А., Инатов А. Таълим жараёнини такомиллаштиришда тизимли ёндашувнинг аҳамияти. Текст научной статьи по специальности “Науки об образовании”.

5. Самаров Р.С., Садриддинов С.Р. Педагогик фаолият тизими такомиллашувини таъминлашда тизимли таҳлил: функционал ёндашув.Текст научной статьи по специальности “Науки об образовании”. -Т.: 2016. -232-239 б.

6. Turg‘unov S.T., Doniyorov B.X., Ahmadjonova N. O‘qituvchilarni kasbiy konpitentligini rivojlantirishga tizimli yondashuv. Xalq ta’limi. -Toshkent, 71. -76 b.

Nurzod DAVRONOV
Buxoro davlat universiteti
jismoniy madaniyat nazariyasi
va uslubiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ BAYRAMLARINING QADRIYAT SIFATIDAGI AHAMIYATI

Mazkur maqolada o‘zbek xalq bayramlarining mamlakatimiz kelajagi hisoblanmish yoshlarimizni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishdagi ahamiyati yoritilib, bayramlarda tashkil etiladigan milliy o‘yinlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy sifatlarini shakllantirishdagi o‘rni ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *tarbiya, xalq bayramlari, milliy o‘yinlar, rivojlanish, barkamollik, jismoniy sifatlar, an’ana, qadriyat.*

В данной статье освещается роль узбекских национальних праздников в всестороннем развитии молодежи, а также в формировании физических качеств школьников начальных классов.

Ключевые слова: *воспитание, народные праздники, национальные игры, развитие, совершенство, физические качества, традиция.*

This article highlights the role of Uzbek national holidays in the comprehensive development of young people, as well as in the formation of physical qualities of primary school students.

Key words*: education, national holidays, national games, development, perfection, physical qualities, tradition.*

Kirish. Yosh avlodni ma’naviy boy, axloqiy pok, jismoniy barkamol qilib tarbiyalash bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan muhim masalalaridan biridir. Bu masalani amalga oshirishda esa boshlang‘ich ta’lim muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich ta’limda yoshlarimizni aqliy hamda axloqiy tarbiyalash bilan bir qatorda ular organizmining shakllanishi va rivojlanishida asosiy ahamiyat kasb etadigan jismoniy tarbiyaning o‘rni beqiyosdir. Darhaqiqat, mamlakatning kelajagi ham aqlan, ham ma’nan, ham jismonan uyg‘unlikda faoliyat olib boradigan yoshlarimizning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Maktab o‘quvchisining shaxs, komil inson bo‘lib shakllanishida, rivojlanishida jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Xalq jismoniy tarbiyasi esa insoniyat rivojining ilk bosqichlaridayoq bola va o‘smirlarning shakllanishida asosiy vositalaridan biri bo‘lgan. Shu bois bugungi milliy o‘zligimizni anglayotgan davrda xalqning milliy qadriyatlariga asoslangan jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Asosiy qism. Milliy qadriyatlarni ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishda olimlardan akademik J.Tulenov, professorlar M.Murodov, U.Qoraboyev, I.Jabborov, N.Bekmurodov, T.Javliyev kabilarning ishlarini alohida ta’kidlash o‘rinlidir. Jismoniy tarbiya va sportga oid milliy qadriyatlarni ilmiy o‘rganish va keng targ‘ib qilishda olimlarimizdan A.Q.Atoyev, R. Abdumalikov, T.S.Usmonxo‘jayev, R.S.Salomov, O‘.Ibragimov, X.A.Meliyev, Sh.Xonkeldiyev, A.Abdullayev, K.Maxkamjonov, X.T.Rafiyev, K.D.Yarashev, R.K.Qudratov, T.X.Xoldorov, F.Xo‘jayev, K.Yusupovlarning ishlarini alohida ta’kidlash zarurdir. Qadriyatlarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati haqida professorlar X.Homidov, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Inomova, M.Davletshin, F.Nasriddinov, T.Usmonxo‘jayev, X.Rafiyev, O‘.Ibrohimov, R.Abdumalikov, F.Axmedov, X.Meliyev, Sh.Q.Mardonov, O.Jamoliddinovalarning maqolalari, risolalari, uslubiy qo‘llanmalari, monagrafiyalar va ular tomonidan ilmiy darajalar uchun yozilgan dissertatsiyalari hamda o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirish yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini alohida takidlash lozim. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarda jismoniy sifatlarni har tomonlama rivojlantirish, ularning milliy qadriyatlarga e’tiborini oshirish, ma’naviy, axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun kichik maktab yoshi eng qulay davr hisoblanadi. O‘z navbatida shaxsning jismoniy shakllanishi va jismoniy tayyorgarlik dinamikasi o‘quvchining mehnat qilish layoqati va izchil bajariladigan jismoniy mashqlarning xususiyatiga bog‘liqdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun milliy va harakatli o‘yinlarga asoslangan dars, mashqlarni to‘g‘ri tashkil etish va o‘tkazish eng muhim masaladir. Ko‘pgina tadqiqotchilar maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi bo‘yicha olgan ma’lumotlar tahlilining ko‘rsatishicha kichik maktab yoshiga kelib rivojlanishning tezlashish jarayoni ro‘y beradi. Shunga asosan mazkur maqolamizda milliy xalq bayramlari orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy sifatlarni shakllantirish masalasiga e’tiborimizni qaratdik.

O‘zbek xalq bayramlari o‘zining uzoq o‘tmishi, boy tarixiga ega bo‘lgan, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o‘tib kelayotgan ma’naviy boyligimiz, qadriyatlarimizdan hisoblanadi.

Ibn Sino “Tib qonunlari” asarida kurash va jismoniy mashqlarning kishi badantarbiyasidagi o‘rni, o‘yinning shifobaxsh xususiyatlari haqida to‘xtalgan. Kaykovus, Umar Hayyom, Abulqosim Firdavsiy, Beruniy chavgon, nard, shaxmat, tirandozlik, qilichbozlik, chavandozlik kabi yuzlab o‘yinlar xususida yozib qoldirgan. Alisher Navoiy asarlarida bayramlar, tantanalar, to‘ylar munosabati bilan tashkil etilgan o‘yinlar haqida ko‘pgina ma’lumotlar bor. Ularda o‘yinlarning uyushtirilishi, ijrochilari, o‘tkazish qoidalari bayon etilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab milliy qadriyatlarimiz, an’ana va udumlarimiz, shu jumladan, xalq bayramlarini qayta tiklashga katta e’tibor qaratildi.

Shunday milliy xalq bayramlarimizdan biri bu Navro‘z hisoblanadi. Ha, Navro‘z shunchaki bayram emas. Uning millat tarixi, falsafasi, badiiyati va san’ati, madaniyati, mifologik, diniy va dunyoviy dunyoqarashini, ilmiy tafakkur tarzini o‘zida mujassam etgan qomusiy bir ayyom ekanligi mustaqillik sharofati bilan tiklandi. Navro‘z hamisha barcha davrlarda ham ommaviy ravishda katta maydonlarda, saylgohlarda zo‘r tantana bilan nishonlangan. Katta-yu kichik, yosh-u qari, erkak-u ayol – butun xalqning ezgu niyatlari, shodiyona olqishlarining quvvati qo‘shilib, borliqni onadan tug‘ilganday tozartib, yashnatishga xizmat qilgan. Bayramning tantana qilinishi, unda uyushtirilgan barcha o‘yin-tomoshalar, qo‘shiq-raqslardan kutilgan muddao ham ushbu maqsadga yo‘naltiriladi.

Mustaqillik sharofati ila bu bayram hayotda yana o‘z o‘rnini topdi, yangicha mazmun va mohiyat kashf etdi. Chinakamiga xalq shodiyonasining tantanasiga aylandi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Navro‘z xalqimizning ma’naviy qiyofasini va pokiza his tuyg‘ularini, o‘lmas ruhi va madaniyatini o‘zida yorqin namoyon etadigan eng ko‘hna, eng sevimli, chinakam milliy ayyomimizdir. Navro‘zning o‘lmas ruhi va boqiy falsafasi biz bugun bunyod etayotgan Yangi O‘zbekiston g‘oyasi bilan uyg‘un va hamohangdir”.

Navro‘z nafaqat tabiatning o‘zgarishi, yasharishi, balki inson qalbi, ruhiyati va tafakkur tarzining ham yangilanishidir. Inson tabiatni anglash orqali, o‘zligi, “men”ligini kashf etadi, qalbida o‘ziga ishonch, ertangi kun umidi uyg‘onadi. Shuning uchun ham bu bayram hamma davrlarda ham tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, do‘stlik, yurtga, ona tabiatga mehr-muhabbatning taronasi, har insonning o‘z xalqi, uning tarixi va madaniyatiga bo‘lgan hurmatining nishonasi bo‘lib kelgan. Endilikda o‘zining teran mohiyati hamda chuqur falsafasi, yasharish va yangilanish pallasi, sharqona yangi yilning debochasi sifatida hayotimizda alohida o‘rin egalladi. Navro‘z bilan bog‘liq tadbirlar, kurash, ko‘pkari, poyga kabi ko‘plab xalq milliy o‘yinlari, folklor namunalari, rasm-rusmlar, urf-odatlar, qadriyatlar tiklandi va ular yoshlarni milliy hamda umumbashariy g‘oyalar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qadimiy tarixga ega bo‘lgan xalq milliy o‘yinlari o‘zining jozibasi, rango-rangligi, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik va ruhiy tarbiyadagi o‘rni bilan beqiyos ahamiyatga ega. Ular hech qachon shunchaki ermak bo‘lmagan, balki kishining go‘daklikdan o‘sib-ulg‘aygunicha eng muhim tarbiya vazifasini o‘tagan. Murg‘ak bola qatnashgan o‘yinlar orqali hayot voqealari, tabiat hodisalari, so‘z qudrati, insoniy munosabatlar o‘rgatilgan. Xususan, “Besh tosh”, “Pichoq”, “Jambul”, “Yong‘oq merganlik”, “Varrak”, “Ovchi”, “Mindi”, “Arqon tortish”, “Chillak” kabi o‘yinlar kurashishni o‘rgatadi, aqlni charxlaydi. O‘z-o‘zini anglashni, xatolarni tuzatish tuyg‘usini shakllantiradi. Jamoaviylik tuyg‘usini hech narsa o‘yinlarchalik singdira olmaydi.

Xalq an’anaviy milliy o‘yinlari nomoddiy madaniy merosga kiradi. Shunday bo‘lgach, uzoq ajdodlarimiz yaratgan va bizgacha “suyak surib” yetib kelgan xalq milliy o‘yinlarini izlamoq, topmoq, qayta tiklab, yosh avlod kamoloti uchun joriy etmoq har bir vatanparvar yosh-u keksaning, ziyoli-yu ishchining burchiga aylansa, ma’naviy, madaniy, ruhiy qudratimiz yanada kuchli, baquvvat bo‘ladi.

Muhokamalar va natijalar. Bugun yurtimizda yoshlarni sportga, xalq bayramlarida takshil etiladigan milliy xalq o‘yinlariga keng jalb qilish masalasiga sog‘lom avlodni voyaga yetkazishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Darhaqiqat, sog‘lom avlodni shakllantirishda milliy xalq bayramlari muhim ahamiyat kasb etadi. Barchamizga ma’lumki, butun yer yuzida har bir xalq millat sifatida shakllanibdiki, ular o‘zining milliyligiga egadir, shu bois, o‘zbek xalqining milliy urf-odatlari, bayramlari an'analari, qadriyatlari hamda milliy o‘yinlari ham takomillashib bordi.

Milliy xalq bayramlarining sog‘lom avlod tarbiyasidagi ahamiyati pedagogik, psixologik, tarbiyaviy, jismoniy va sog‘lomlashtiruvchi nuqtayi nazarda ko‘rib chiqiladi.

Pedagogik ahamiyati – xalq bayramlarida tashkil etiladigan o‘yinlar har bir shaxsning his-tuyg‘usini, tasavvurini, dunyoqarashini boyitib boradi. Yana ularning kuzatuvchanligi, ziyrakligi va zehnini tahlil qilib, bilimini oshiradi. O‘yinlar orqali yoshlarga madaniyatimiz va urf-odatlarimiz tanishtiriladi.

Psixologik ahamiyati – o‘yinlar shaxsning ruhiyati va kayfiyatini ko‘tarishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy ahamiyati – yoshlarni irodali, sabr-toqatli, hayot qiyinchiliklarini yengadigan, g‘alaba qozonishga intiladigan, chaqqon, epchil, mard qilib tarbiyalaydi.

Jismoniy va sog‘lomlashtiruvchi ahamiyati – xalq bayramlarida tashkil etiladigan milliy o‘yinlar o‘ynalganda organizm tizimlari – nafas olish, mushak, yurak qon tomirlarga samarali ta’sir qiladi. O‘yinlar ochiq havoda o‘ynalganda qon kislorod bilan to‘yinadi va bu moddalar almashinuvini kuchaytiradi. Bu esa organizmga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va barcha hujayralar uyg‘onadi. O‘yin o‘ynagan shaxs jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lib voyaga yetadi. Xalq milliy bayramlarining barchasida chaqqonlik, epchillik, jasurlik, pahlavonlik, mardlik kabi jismoniy sifatlar va insoniy fazilatlar to‘la mujassamlashgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan milliy o‘yinlarning elementlari, harakatli o‘yinlarning maqsadli tashkil qilinishi natijasida ularning ongiga milliy qadriyatlarimiz tobora singdirib boriladi. Natijada ta’lim-tarbiya jarayonlarida milliy o‘yinlar tobora singib, keng qo‘llanish imkoniyatlari yaratadi. “Navro‘z”, “Mustaqillik kuni”, “Hosil bayrami” kabi xalq bayramlarida milliy o‘yinlarimiz (arqon tortish, bilak kuchini sinash, ot o‘yinlari, xo‘roz, qo‘chqor urishtirish) keng ommalashib bormoqda. Hatto, chet elliklarda ham qiziqish uyg‘otmoqda.

Xulosa. Inson o‘zini jismonan tarbiyalashi uchun jismoniy tarbiya va sportning zarurligini tushunib yetishi va qunt bilan o‘ziga yoqqan ma’lum bir jismoniy mashg‘ulotlar tizimi asosida salomatligini shakllantirishi kerak. Yosh avlodning jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lgan jismoniy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiyaning maqsadi jamiyatning sog‘lom, xushchaqchaq, har tomonlama jismoniy rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan quruvchilarini tarbiyalashdan iborat uzoq muddatli, uyushtirilgan pedagogik jarayondir.

Jismoniy tarbiya oldida turgan vazifalarni hal etishda xalq bayramlarida tashkil etiladigan o‘yinlarni to‘plash va ularni hayotga tadbiq etish, ulardan oqilona foydalanish zarurligi bugungi kunda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim vazifa yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy tarbiya oldiga ham katta ma’suliyat yukladi.

Mamlakatimizda xalq bayramlarida tashkil etiladigan milliy o‘yinlarga keng e’tibor berib kelinishi natijasida ularning mazmunida milliy qadriyatlar, g‘urur, iftixor, mardlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, o‘zaro yordam, vatanga sadoqat kabi his-tuyg‘ular, fazilatlar to‘la mujassamlashganligini e’tirof etishimiz mumkin.

Yoshlarni har tomonlama jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, o‘quvchilar jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bu muammoni umumta’lim maktab o‘quvchilari jismoniy tarbiyasini tashkiliy va pedagogik jarayonlar bilan birga bir-biriga bog‘lab kelgan uzviylikda ko‘rib chiqish lozimligini keltirib chiqaradi, bunda milliy harakatli o‘yinlarining ahamiyati katta ekanligini qayta-qayta ta’kidlab o‘tmoqchimiz. Shuning uchun xalqimizning asrlardan asrlarga o‘tib kelayotgan milliy o‘yinlarini avaylab-asrab, keyingi avlodga yetkazish yo‘llarini izlash, ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish bizning maqsadimizdir.

Adabiyotlar

1. “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chorat-adbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyun PQ–3031-son Qarori.

2. Ahmedov F., Atamurodov Sh., Boshlang‘ich sinflarda jismoniy madaniyat darslari. Uslubiy qo‘llanma. -T.: “Turon zamin ziyo”, 2017. -140 b.

3. Yo‘ldosheva R. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. –Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1992-yil.

4. Qoraboyev U. O‘zbek xalq o‘yinlari ilmiy ommabop kitob. -T., 2008.

5. Davronov N. I. DEVELOPMENT OF PHYSICAL QUALITIES OF CHILDREN IN THE HERITAGE OF OUR ANCESTORS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 3.

6. Davronov N. I. THE CONCEPT OF PHYSICAL EDUCATION AND PHYSICAL CULTURE //УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА. – С. 91.

7. Давронов Н. И. “Авеста” как ценность и источник по физическому воспитанию молодежи //Педагогическое образование и наука. – 2020. – №. 1. – С. 87-91.

8. Давронов Н. И. ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ВРЕДНЫХ ПРИВЫЧЕК У ПОДРОСТКОВ НА ОСНОВЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА //EUROPEAN RESEARCH. – 2018. – С. 132-134.

9 .Mamurov B. et al. Acmeological Approach to the Formation of Healthy Lifestyle Among University Students //III International Scientific Congress Society of Ambient Intelligence 2020 (ISC-SAI 2020). – Atlantis Press, 2020. – С. 347-353.

Раджаб БАЙМУРАДОВ
Бухарский государственный университет
старший преподаватель
Малохат БАХШУЛЛАЕВА
Бухарский государственный университет
студент 2-курса

ТВОРЧЕСКОЕ ОТНОШЕНИЕ К РАБОТЕ - ЗАЛОГ УСПЕХА В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

В статье изложено о творческой работе учителя физической культуры. Не секрет, что исследовательское, поисковое начало присуще и повседневной педагогической работе учителя физической культуры. Это он благодаря высокому профессионализму и глубоким знаниям добивается средствами своего учебного предмета, чтобы школьники росли всесторонне развитыми людьми.

Ключевые слова: *тест-ориентир, дидактический направленность, нестандартные ситуации. урочные и внеклассные формы учебно-воспитательной работы.*

The article describes the creative work of a physical education teacher. It is no secret that the research, search principle is also inherent in the daily pedagogical work of a physical culture teacher. Thanks to his high professionalism and deep knowledge, he achieves by means of his academic subject that schoolchildren grow up to be comprehensively developed people.

Keywords: *test guide, didactic orientation, non-standard situations. regular and extracurricular forms of educational work.*

Maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchisining ijodiy ishi haqida ma'lumot berilgan. Hech kimga sir emaski, tadqiqot, qidiruv boshlanishi jismoniy tarbiya o'qituvchisining kundalik pedagogik ishlariga xosdir. Bu yuqori kasbiy va chuqur bilim tufayli maktab o'quvchilari har tomonlama rivojlangan insonlar bo'lib o'sishi uchun uning o'quv mavzusi vositalaridan foydalanadi.

Kalit so'zlar: *sinov nuqtasi, didaktik yo'nalish, nostandart holatlar. ta'lim va tarbiya ishlarining darsdan tashqari va darsdan tashqari shakllari.*

Сегодня нет смысла убеждать кого-либо в том, что педагогический труд - дело прежде всего творческое. Не секрет, что исследовательское, поисковое начало присуще и повседневной педагогической работе учителя физической культуры. Это он благодаря высокому профессионализму и глубоким знаниям добивается средствами своего учебного предмета, чтобы школьники росли всесторонне развитыми людьми, двигательная активность которых, по меткому определению выдающегося русского ученого П. Ф. Лесгафта, существенным образом озарялась бы мыслью.

Согласитесь, что не где-нибудь, а именно в школьных спортивных залах, на открытых площадках и пришкольных стадионах начинается все то, что затем не только глубоко заботит и радует всех нас, причастных и укреплению здоровья подрастающего поколения, его физической закалке, но и порой огорчает и тревожит.

Например при проведении занятий по легкой атлетике нужно умело использовать широкий набор подводящих и специальных упражнений, добиваясь от занимающихся четкого освоения двигательных действий в каждой фазе прыжка.

При этом ученики с особым старанием должны выполнять упражнение-тест. Развернутой через всю площадку шеренгой учащиеся с двух шагов разбега осуществляют на размеченном 18-метровом отрезке серию многоскоков. Каждый должен преодолеть отрезок за возможно малое количество прыжков. При этом педагог должен объявит , что тот, кому удастся преодолеть 18 м за 9 прыжков, приступив к прыжкам в длину с разбега способом «согнув ноги», сможет приземлиться за отметкой 3 м 80 см, а у тех, кто выполнит задание за 8 прыжков, появится реальная возможность показать результат в пределах 4 м 20 см, за 7 прыжков - 4 м 50 см, за 6 прыжков- 5 метров и т. д.

И хотя каждый тест-ориентир, как показывает практика, имеет допуск плюс-минус 10 см, выполняя прыжки в длину, как правило, полностью подтверждает «прогнозы». Тестом может быть любое упражнение - эту мысль утверждает наука о физическом воспитании. По всей вероятности, это так. Но учителю физической культуры в первую очередь нужны тесты, которые разрушали бы существующее кое - где мнение о том, что обучающимся, когда они выполняют физические упражнения, не следует вникать в процессы, происходящие в их организме, что стоит во всем положиться на учителя и успех будет обеспечен. Современному педагогу нужны тесты, помогающие не просто проверять уровень физической подготовленности учеников, а тесты - ориентиры, позволяющие

обучать занятиям физической культурой, как творческому процессу, в ходе которого формируется мышление учащихся, развивается умение находить нешаблонные решения в нестандартных ситуациях.

Тесты - ориентиры своей четкой дидактической направленностью, которая позволяет открывать перед каждым учащимся перспективу развития своих физических способностей, дает ему возможность быть уверенным, что, выполняя определенные двигательные действия в заданной учителем последовательности, он непременно подготовит себя к успешному овладению другим, более сложным упражнением. Тесты, согласно шкале дидактических оценок, выше тех, что рекомендованы в учебной программе, так как четко ориентируют школьников на поступательное продвижение в своем физическом развитии, показывают то, к чему занимающийся должен стремиться сегодня, завтра, через неделю. И именно такую работу педагога можно, на наш взгляд, назвать творческой.

Нельзя перейти на качественна новый уровень управления физическим воспитанием учащихся, не разрабатывая и не совершенствуя арсенал надежных показателей, помогающих существенным образом контролировать и сопоставлять различные степени формирования двигательных умений и навыков, уровни развития физических качеств.

Практика методики управления учебным процессом на уроке физической культуры при помощи оценки физической подготовленности учащихся (по специально разработанным таблицам), - применения этой методики позволяет трудиться в течение всего учебного года с открытыми глазами, задолго до конца каждой четверти определять готовность каждого учащегося к сдаче учебных нормативов и норм комплекса «Алпомиш», «Барчиной». Тестирование дает возможность педагогу работать на школьников с конкретной физической подготовкой, с конкретной степенью усвоения учебного материала, с конкретной корректировкой своих учебных планов».

Когда мы говорим, что общеобразовательная школа должна осуществлять единый для всех физкультурно-оздоровительный режим, это, в первую очередь, свидетельствует о нашем твердом намерении сделать предмет «Физическая культура» основой, краеугольным камнем здорового образа жизни школьников. Можно назвать немало имен педагогов Бухарской области, которые своим творческим отношением к делу заслужили всенародную признательность.

Развитию физических способностей подчинена у него кроме учебной внеклассная кружковая и секционная работа, причем каждый школьный физкультурный или спортивный кружок трансформируется во времени с учетом прохождения комплексной программы, текущих учебных тем, а также интересов детей.

Психологи утверждают, что в одно и то же время у большинства школьников младшего, да и среднего возраста может проявиться интерес сразу к нескольким видам спорта. Как здесь быть! Не может же школа, тем более сельская, иметь с учетом быстро меняющихся пожеланий детей сразу 6-8 секций. *«А* к этому и не следует стремиться». Если ученики из младших классов приходят в школьный спортивный зал, заранее зная, что никто их не упрекнет за то, что им сегодня захотелось вдруг поиграть в мини-баскетбол или пионербол. «Пожалуйста»,- должен ответит на их просьбу учитель и после необходимой разминки дать возможность ребятам поиграть с мячом. Школа мяча, - залог успешного развития ручной ловкости, так необходимой детям для овладения школой письма и других важных умений.

-Со стороны можно услышать возражения: а надо ли давать такую свободу детям, стоит ли так раскрепощать учителя! Есть стабильный, утвержденный на год план секционных мероприятий - вот и извольте по нему работать! Ведь в таких условиях проверяющим очень трудно проконтролировать деятельность учителя физической культуры!

Что можно ответить на эти вопросы! Очень нужны нам всем эксперименты, позволяющие педагогическим коллективам вести творческие поиски в разных направлениях и отделах школьных дисциплин, в том числе и в физическом воспитании школьников, по предмету «Физическая культура».

Например нужно провести эксперимент «Два плюс два». Суть его в том, что к двум урокам физической культуры прибавить еще два урока за счет времени продленного дня и так называемых спортивных часов. Эксперимент рассчитан на сравнительно продолжительный период, при проведении данного эксперемента в школе станеть ли больше учителей физической культуры: двое трудятся в учебном дне, двое — после обеда, в продленном. Вчетвером легче решаются многие вопросы преемственности, обмена опытом работы, совместного планирования всего общешкольного физкультурно-оздоровительного режима. Богаче станеть содержание внеклассных и внешкольных спортивно-массовых мероприятий. И еще одно существенное приемущество улучшается здоровья школьников.

Все времена наша медицинская общественность все больше и чаще напоминает учителям общеобразовательных школ о негативных процессах, вызванных хроническим дефицитом двигательной активности школьников, прогрессирующей гипокинезией, тормозящей физическое развитие детского организма, грозящей всеобщей бедой - ухудшением здоровья подрастающего поколения. Согласимся, что реакция школы, педагогических коллективов на все эти тревожные сигналы была неоправданно замедленной, с постоянными ссылками на то, что хорошей организации физического воспитания детей необходим весомый материальный стимул, что нужно во всех классах прибавить хотя бы по одному дополнительному уроку физической культуры.

Все правильно, без материального задела, без укрепления школьных баз здоровья многих проблем не решить. Однако учителя физической культуры должны быть инициативными, творчески мыслящими.

О новаторстве, особенно педагогическом, сегодня говорится достаточно много. Новаторство учителя многогранно и многообещающе. Представьте на короткое мгновенье, что все школы страны действуют по такой рекомендации. Вот какая из этого вырисовывается картина: где бы ни застал звонок на удлиненную перемену того или иного учителя, воспитателя, членов обслуживающего персонала школы, включая административный, они обязаны выйти вместе со всеми детьми на школьную площадку, стадион и дружно участвовать в оздоровительных мероприятиях. «Таким образом,— мы дарим еще несколько десятков минут общению с учащимися, в том числе с детьми своего класса, да и сами не окажемся в накладе: двигательная активность и у нас, педагогов, тоже низкая, а здесь мы даем себе разрядку».

Сегодня постановка всего дела физического воспитания учащихся нуждается в серьезных коррективах, которые должны определяться в школах, рождаться по инициативе самих педагогических коллективов и ими же утверждаться в школьной жизни. Надо, например, взять за правило установку на то, чтобы учительская молодежь не обходила стороной школьные игровые площадки и чтобы ее отчеты о повышении профессионального мастерства перед старшими коллегами и товарищами завершались сообщениями о личном вкладе в укрепление физкультурных традиций общешкольного спортивного коллектива

И, конечно же, школам, прокладывающим курс к новому, нужно обеспечивать режим наибольшего благоприятствования, давать возможность для проявления творчества.

Творческого переосмысления требуют различные стороны физического воспитания учащихся общеобразовательных школ, в том числе и организация соревнований среди школьников. Нет нужды скрывать, что здесь у нас еще много показухи, очковтирательства и бюрократизма. Выбрав такую серьезную и злободневную тему, какой является творчество учителя физической культуры, мы стремимся показать не только позитивные начала в его развитии. И коль речь идет о педагогических кадрах, не будем скрывать, что в учительской среде, к сожалению, есть еще немало слабых педагогов, с недостаточной для обучения детей собственной двигательной подготовленностью, не владеющих теми элементами, которые предусмотрены учебной программой для овладения учащимися, не имеющих необходимых теоретических знаний. Гласность позволяет нам по-новому взглянуть на эти факты: не в них ли истоки многих негативных явлений, которые характерны для современного состояния физического воспитания в школах. Решительное слово здесь принадлежит институтам усовершенствования учителей, кабинетам физического воспитания, призванным обогащать каждого учителя современными знаниями педагогики и психологии, на курсах переподготовки вооружать их передовым опытом, повышать профессиональное мастерство.

Пожалуй, мы еще никогда так настойчиво не ратовали за распространение передового учительского опыта по организации физического воспитания учащихся, как в сегодняшние дни глубокой перестройки общеобразовательных школ. К мастеру-учителю должны идти учиться не только коллеги из близлежащих школ, а также должны к нему идти посоветоваться и издалека, чтобы перенять педагогику общения, позаимствовать методическую новинку, разнообразие и разновариантность учебных средств и приемов обучения. И в этом обмене опытом нет ничего удивительного, поскольку каждая из общающихся сторон учится в нем большей свободе творческой мысли.

Особая дружба должна связает учителей физической культуры с факультетами физической культуры. Студенты этого учебного заведения должны в течении всего обучения пройти педагогическую практику в одной же итой школе.

Кроме того профессорско - преподавательский состав и магистры которые ведет научно-исследовательские работы должны провесты свои работы в этой же школе, проверят здесь актуальность и правильность своих научно-исследовательских работ, особенно касающихся физического воспитания юношей-старшеклассников.

Всех творчески работающих педагогов отличает любовь к детям, глубокое знание своего предмета, владение методикой его преподавания, аналитический и конструктивный взгляд на решение различных вопросов, связанных с интенсификацией учебного процесса. Их опыт требует своевременного изучения, обобщения и распространения. Ведущее место в расширении поискового содружества учителей физической культуры, работающих в общеобразовательных школах страны, как мы уже говорили, принадлежит кабинетам физического воспитания городских, областных, краевых и республиканских институтов усовершенствования учителей. Именно они призваны стоять у истоков формирования у учителей физической культуры творческого почерка, исследовательской «жилки».

Широк аспект деятельности сотрудников кабинетов физического воспитания ИУУ. Так, с помощью кабинета должны готовят и выпускать методические пособия для учителей городских и сельских школ.Большое внимание должны уделят сооружению в школах учебно-спортивных баз, оснащению их нестандартным спортивным оборудованием и инвентарем. Под особый контроль надо взять работу начинающих учителей, методику проведения в школах переводных экзаменов по физической культуре. Работники кабинета физического воспитания института усовершенствования учителей повсеместно должны помогать коллегам организовывать и проводить дни здоровья и спорта, единые внутришкольные спартакиады.

Понятию «педагогическое творчество» всегда. сопутствуют слова «поиск», «вдохновением, «подвижничество». Именно такими гранями отменен труд современного учителя физической культуры. И мы должны быть уверены, что конечный итог его воспитательных усилий выльется не в количество завоеванных учащимися победных вымпелов и призов, а приведет к выработке у молодежи правильной жизненной позиции, готовности к высокопроизводительному труду и, если потребуется, к защите Отечества.

Использованная литература:

1.INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, part 1, December 2020, COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS Washington USA 25th Desember 2020, Баймурадов Раджаб Сайфитдинович, Бахшуллаева Малохат, Жамилова Гульчеҳра «Роль учителя-наставника в становлении молодого специалиста», стр 37-45.

2.SCIENCE AND EDUCATION, SCIENTIFIC, ISSN 2181-0842, VOLUME 1,ISSUE 9, Desember 2020, Раджаб Сайфитдинович Баймурадов, Малохат Бахшуллаева, Гульчеҳра Жамилова «Индивидуальная работа-залог успеха в работе учителя» стр.452-458.

3.AJMR:Asian Journal of Multidimensional Research (A Double Blind Refereed & Peer Reviewed International Journal) ISSN 2278-4853, Vol 9, Issue 11,November, 2020, Impact Factor: SJIF 2020,= 6.882, Baymuradov Radjab Sayfitdinovich «THE ROLE OF A MENTOR IN THE FORMATION OF A YOUNG PHYSICAL TRAINER».

4.«МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕК-ТИВЫ » Сборник статей по материалам CL XXXVII международной научно-практической конференции № 40 (187) Октябрь 2020г, Бахшуллаева М., Баймурадов Р.С., Попов В.А. «Развитие силы в подготовке метателей копья» стр.30-34.

Muxsinbek OLIMOV
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti

YENGIL ATLETIKACHILARNING KO‘P YILLIK TAYYORGARLIK BOSQICHLARIDA MASHG‘ULOT YUKLAMALARINI TAQSIMLASH VA BOSHQARISH TEXNOLOGIYASI

Ushbu maqolada yengil atletikachilarni ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida qichqa, o‘rta va uzoq masofaga yuguruvchilarning mashg‘ulot yuklamalarini taqsimlash va mashg‘ulot jarayonini boshqarish texnologiyasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *yengil atletikachi, ko‘p yillik tayyorgarlik, boshqarish texnologiyasi, yuklamalar shiddat zonasi, dastlabi, boshlang‘ich ixtisoslik, chuqurlashtirilgan ixtisoslik, sport takomillashuv ixtisosligi, qisqa, o‘rta va uzoq masofalar.*

В статье описывается распределение тренировочных нагрузок и технология управления тренировочным процессом бегунов на короткие, средние и длинные дистанции на этапах многолетней подготовки спортсменов.

Ключевое слова: *легкоатлет, многолетней подготовка, технология и управления, зона интенсивности нагрузок, предварительный, начальная специализация, углубленная специализация, совершенствования спортивной специализации, короткие, средние и длинные дистанции.*

This article was presented the distribution of training loads and training process management technology for short, medium and long distance runners in multi-year training phases for athletes.

Keywords: *athlete, multi-year training, management technology, load intensity zone, initial, beginner specialization, advanced specialization, sports improvement specialization, short, medium and long distances.*

Kirish. Mamlakatimizda aholining, ayniqsa, kelajak vorislari bo‘lgan yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport turlari bilan doimiy shug‘ullanishi uchun bugungi zamon talablariga mos keladigan shart-sharoitlar yaratib berish, sport mashg‘ulotlarini yuqori saviyada tashkil etish, mashg‘ulot jarayonlarini tashkil qilish va rejalashtirish, ular orasidan iqtidorli istiqbolli sportchilarni izlab topish, saralash asosida ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlariga sportchilarni yo‘naltirish va ular bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarni yangi texnologiyalar asosida boshqarib borish sportchilar tayyorlash tizimidagi o‘ta dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Asosiy qism. Yurtimizda va jahon sporti amaliyotida to‘plangan ilg‘or pedagogik tajribalar sportchilar tayyorlash tizimining turli bosqichlarida tashkil etilgan musobaqa faoliyatini natijaviyligi o‘quv-mashg‘ulotlari jarayonlarini to‘g‘ri rejalashtirish va boshqarish samaradorligi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ammo bugungi kunda erkaklar o‘rtasida o‘tkaziladigan jahon va Osiyo chempionatilarida yengil atletikaning qisqa, o‘rta va uzoq masofalarga yugurish turlari bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalarini O‘zbekistonlik sportchilar ko‘rsatgan natijalari bilan qiyosiy tahlil etganimizda ular o‘rtasida sezilarli farq borligi aniqlandi. Bunday sport natijalarining qayd etilishi sportchilarimizning tayyorgarligida o‘ziga xos kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Bunda birinchidan, ular bilan o‘tkazilayotgan sport mashg‘ulotlarini rejalashtirishda yuklamalarni to‘g‘ri taqsimlanmasligi sabab bo‘lsa, ikkinchidan, mashg‘ulot vosita usullarini tayyorgarlik bosqich va davrlariga mos ravishda qo‘llanmasligidir, uchinchidan, sportchilarni saralashda yo‘l qo‘yilayotgan xatoliklar bo‘lsa, to‘rtinchidan, ularni jimoniy rivojlanishi, jismoniy funksional holati, texnik-taktik tayyorgarligini inobatga olinmasdan mashg‘ulotlarni tashkil etilishi qisqa, o‘rta va uzoq masofalarga yuguruvchi sportchilarni tayyorlash samaradorligini pasayishiga olib kelmoqda.

Yuqoridagi muammolarni hal etish va yechimini topishda yetakchi olimlardan V.N.Nikitushkin, F.P.Suslov, (2017-y), V.K.Balsevich va boshqalar sportchilar tayyorlash tizimini optimal rejalashtirishni takomillashtirish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishgan bo‘lsa V.V.Ivochkin va boshqalar (2009-y), Yu.G.Travin, O.I.Pavlova, V.B.Zelechonok va boshqalar, Yu.V.Verxoshanskiy yengil atletikachilarni yillik mashg‘ulotlarini tuzilishi va ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida sportchilarni tayyorgarlik texnologiyasi bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ammo ularning ishlarida yuklamalar hajmini umumiy tarzda berib o‘tishgan. Yuklamalarni rejalashtirish bo‘yicha bergan ma’lumotlarida yugurish shiddati, takrorlanish sonlari aniq me’yorlari yosh xususiyatlari bo‘yicha ko‘rsatilmagan va ko‘p yillik mashg‘ulotlarni rejalashtirish dasturlari umumiy holatda yoritilganligi aniqlandi.

Ushbu tadqiqotda yuklamalar hajmi yosh guruhini inobatga olinib yuklamalarni taqsimlanishi va ko‘p yillik tayyorgarlikning boshqarish sxemasi berilib unda boshqaruvni asosiy komponentlarini ochib berishga harakat qilingan.

Sportchilar tayyorlish tizimida sportchilan kelayotgan axborot va murabbiy tomonidan berilayotgan qaytma axborotlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi. Qolaversa, sportchilar tayyorlash tizimini boshqarish omillari, ya’ni joriy, oraliq va tezkor boshqaruv tizimini murabbiylar tomonidan puxta egallanmaganligi sportchilar tayyorlash tizimini samaradorligini ortga surishi muqarrar. Albatta, buning uchun ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulotlarni boshqarish tizimini ishlatish zarur. Bu esa sportchilar tayyorlash tizimida sportchilarni maqsadli tayyorlash samaradorligini oshirishga hizmat qiladi. Buning uchun albatta ko‘p yillik tayyorgarlik bosqich va davrlarida iqtidorli istiqbolli sportchilarni izlab topish, tayyorgarlik mashg‘ulotlarini samarali rejalashtirish va ular bilan o‘tkaziladigan sport mashg‘ulotlarini yangi texnologiyalar asosida boshqarish kabi omillarni amaliyot jarayoniga tadbiq etishni taqazo etadi. Bu esa sportchilar tayyorlash tizimida bugungi kundagi davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan dolzarb masalalardan biridir.

Muhokamalar va natijalar. Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, tayyorgarlik dasturlari, maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, yildan-yilga mashg‘ulot yuklamalari tayyorgarlik bosqichini maqsad va vazifalaridan kelib chiqib takomillashtirib boriladi (Nikitushkin V.N.). Ko‘p yillik tayyorgarlik boshlang‘ich ixtisosligi bosqichida shug‘ullanuvchi sportchilarni saralash va tor ixtisoslikka yo‘naltirish vazifalari amalga oshiriladi. Ular bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar mazmuni tor ixtisoslikka yo‘naltirish, tanlagan ixtisosligi bo‘yicha texnikasini egallash va musobaqa tajribasini shakllantirish masalalari hal etiladi (Nikitushkin V.N., Suslov F.P. 2017-y.) Chuqurlashtirilgan ixtisoslik bosqichida funksional, maxsus jismoniy tayyorgarligi texnik-taktik, psixologik tayyorgarliklar rivojlantirishiga musobaqalarda ishtirok etish va hakamlik amaliyotlariga e’tibor qaratiladi. Sport takomillashuv bosqichida sportchilarni asosiy musobaqalarga maqsadli tayyorlash, ularning integral tayyorgarligini har tomonlama takomillashtirish, xalqaro sport musobaqalarida tajribaga ega bo‘lish kabi omillar takomillashtiriladi. Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlariga bog‘liq holda maxsus tayyorgarlik ko‘rsatkichlari va musobaqa faoliyati natijaviyligi o‘rtasidagi o‘zaro korelyatsion bog‘liqliklar mavjud.

Sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarligini boshqarishning innovatsion texnologiyasi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:



1-sxema. Yengil atletikachi qisqa, o‘rta va uzoq masofalarga yuguruvchi sportchilarni ko‘p yillik tayyorgarligini boshqarish tuzulmasi

Ko‘p yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlar jarayonida sportchilar tayyorgarligiga ta’sir etuvchi quyidagi omillar boshqaruv samaradorligini ta’minlashga ta’sir etadi.

Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida yengil atletikaning qisqa, o‘rta va uzoq masofalarga yugurish turlarida mashg‘ulot yuklamalari quyidagicha taqsimlanishi olib borilgan tadqiqot jarayonida aniqlandi.

Tayyorgarlik turlari / Yugurish ko‘rsatkichlari va masofalari	Dastlabki tayyorgarlik bosqichi (11-12 yoshlar uchun)	Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi (13-15 yoshlar uchun)	Chuqurlashtirilgan tayyorgarlik bosqichi (15-17 yoshlar uchun)	Sport takomillashgan ixtisoslik bosqichi (18-20 yoshlar uchun)
Qisqa masofaga yuguruvchi shiddat zonasida % hisobida (100m, 200m, 400m masofalarga yuguruvchilar)	90-100% 3 km 80-90% 15 km 70-80% 100 km 60-70% 300 km Umumiy yuklamalar hajmi 1000 m	90-100% 6 km 80-90% 15 km 70-80% 100 km 60-70% 400 km Umumiy yuklamalar hajmi 1300 m	90-100% 15 km 80-90% 30 km 70-80% 237 km 60-70% 520 km Umumiy yuklamalar hajmi 1650 m	90-100% 18 km 80-90% 57 km 70-80% 260 km 60-70% 450 km Umumiy yuklamalar hajmi 1800 m
O‘rta masofaga yugurish masofasi (800 m, 1500 m)	Umumiy yuklamalar hajmi aerob, aralash va anaerob shiddat zonalarda bajariladi. 1800 km 2000 km 2200 km	Umumiy yuklamalar hajmi aerob, aralash va anaerob shiddat zonalarda bajariladi. 2000 km 2400 km 3000 km	Umumiy yuklamalar hajmi aerob, aralash va anaerob shiddat zonalarda bajariladi. 2400 km 3000 km 3500 km	Umumiy yuklamalar hajmi aerob, aralash va anaerob shiddat zonalarda bajariladi. 3000 km 4000 km 4500 km
Uzoq masofaga yugurish masofasi (3000m, 5000m, 10000m)	Umumiy yuklamalar hajmi aerob, aralash va anaerob shiddat zonalarda bajariladi. 2200 km 2400 km 2800 km	Umumiy yuklamalar hajmi aerob, aralash va anaerob shiddat zonalarda bajariladi. 2400 km 3000 km 3500 km	Umumiy yuklamalar hajmi aerob, aralash va anaerob shiddat zonalarda bajariladi. 3000 km 3800 km 4500 km	Umumiy yuklamalar hajmi aerob, aralash va anaerob shiddat zonalarda bajariladi. 3500 km 4500 km 6000 km

Yuqoridagi berilgan jadvalda qisqa, o‘rta va uzoq masofaga yuguruvchilar va ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida umumiy yuklamalarni bajarish hajmi va shiddat zonasi berilgan. Qisqa masofaga yugurishda tayyorgarlik mashg‘ulotlar hajmi shiddat zonalari bo‘yicha foizda tayyorgarlik maqsad vazifalaridan kelib chiqib berilishi kuzatildi. O‘rta va uzoq masofalarga yugurish turlarida umumiy yuklamalar hajmi aerob, aralash va anaerob rejimda bajarishi tadqiqot jarayonida aniqlandi. Demak, yengil atletikani qisqa, o‘rta va uzoq masofalarga yugurish turlarida mashg‘ulot yuklamalarini taqsimlanishi yildan-yilga takomillashtirib borilishi lozim ekanligi ko‘rsatadi. Qolaversa, sport amaliyotida yuklamalarni taqsimlash va rejalashtirish sportchilarni staji, rivojlanish darajasi, yoshi, jinsi, tayyorgarligi, funksional holatini inobatga olish lozim.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalar asosida quyidagi xulosalarni qayd etish imkonini berdi:

1. Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida yengil atletikachilarni tayyorlash bo‘yicha ilmiy uslubiy manbalarni yetarlicha ta’minlanmaganligi aniqlandi.

2. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga asosan, ko‘p yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida yildan-yilga mashg‘ulotlar mazmunini uning maqsad vazifalari, yuklamalar hajmi va bajarilish shiddati o‘zgarib borishi aniqlandi.

3. Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida qisqa masofalarga yugurish bo‘yicha yuklamalar shiddat zonasi bo‘yicha aniqlanar ekan. O‘rta va uzoq masofaga yugurish turlarida esa aerob va anaerob rejimdagi yuklamalar asosida mashg‘ulot yuklamalari taqsimlanishi aniqlandi.

4. Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichida yengil atletikani qisqa, o‘rta va uzoq masofaga yugurish turlarida mashg‘ulot yuklamalarini taqsimlashda murabbiylar tomonidano‘zlari bilgancha mashg‘ulotni

taqsimlashi va o‘tkazishi ularni kutgan sport natijasiga erishishni ta’minlamasligi kuzatildi. Bu esa sportchilar tayyorlash tizimida o‘tkazilayotgan mashg‘ulotlar samarasini to‘liq ta’minlamasligiga olib keladi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari qisqa masofalarga yugurishda o‘rtacha yuklamalar hajmi boshlang‘ich ixtisoslikda 1300-1500 km tashkil etib, shundan maxsus jismoniy tayyorgarlikka 40% bajarilgan bo‘lsa, umumiy jismoniy tayyorgarlikka umumiy yuklamani 60% bajargan. Chuqurlashtirilgan bosqichda esa umumiy yuklamalar 1650 kmni tashkil etib, shundan 42,5 % maxsus yugurish mashqlariga e’tibor berilagn bo‘lsa, umumiy jismoniy tayyorgarlikka 57,5 % yuklama bajarilishi aniqlandi. Sport takomillashuv bosqichida esa umumiy yuklamalar hajmi 1800 km tashkil etib, shundan II-III-IV-V shiddat zonasida 43,6 %ni bajargan bo‘lsa, umumiy va ixtisoslashmagan yuklamalar 56,4 % ni tashkil etilishi aniqlandi.

O‘rta masofalarga yugurishda yuklamalar aerob va anaerob rejimda bajarilishi qayd etildi. Shundan dastlabki tayyorgarik bosqichida umumiy yuklamalar 1800 km dan 2200 km gacha tashkil qilishi aniqlandi. Boshlang‘ich ixtisoslikda esa 2000 kmdan 3000 kmgacha chuqurlashtirilgan ixtisosligida 2400 kmdan 3500 kmgacha umumiy yuklama hajmini tashkil etadi. Sport takomillashuv guruhida esa umumiy yuklamalar hajmi 3000 km dan 4500 km gacha taashkil etishi kuzatildi.

Uzoq masofalarga yuguruvchilarda esa dastlabki bosqichda o‘rtacha yuklamalar 2200 kmdan 2800 kmgacha boshlang‘ich ixtisoslikda esa 2400 km – 3500 kmgacha tashkil qilar ekan. Chuqurlashtirilgan ixtisoslik bosqichida esa 3000 kmdan – 4500 kmgacha sport takomillashuv ixtisosligida esa 3500 dan 6000 kmgacha umumiy yuklamalar tashkil etishi aniqlandi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari yengil atletika bo‘yicha sportchilar tayyorlash tizimini yangi rejalashtirish dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni talab etadi.

Adabiyotlar

1. Shakirjanova K., Soliev I., Olimov M., Baratov A., Akmanov B., Saydkulov Z., Pedagogical technologies and interactive methods asa factor of in creasing special knowledge ofstudents. Journalof Critical Reviews., 2020; 7(6): 42-46.doi:10.31838/jcr.07.06.10. http://www.jcreview.com/?mno=101674

2. Soliev I., Khaydrov B., Mirzatillayev I., Khujamkeldiyev G., Ziyayev F., Functional training level of runners student-athletes sprinters. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020, http://www.psychosocial.com/article/PR201878/17061/

3. Tajibaev S.S., Abdullaev M.J., Niyazov A.T., Niyazov O.Y. // Improving Methodology Of Action Games In Training Athletes Of Different Ages. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, Volume 07, Issue 06, 2020, 2909-2914 p.

4. В.В. Ивочкин, Ю.Г. Травин, Г.Н. Каролев, Г.И. Семаев. “Легкая атлетика программа бег на среднии и длинии дистанции, спортивная ходьба”. Москва 2004, 107 бет.

5. Верхошанский Ю.В. Выносливость, как фактор, определяющий движения в циклических видах спорта //Научно-спортивный вестник. - М.,1988. №1. - С. 15-20.

6. Гордон С.М. Спортивная тренировка. – М., 2008.

7. Губа В.П., Никитушкин В.Г., Квашук П.В. Индивидуальные особенности юных спортсменов. - Смоленск: Информ. -ком. “Агенство”, 1997. - 244 с.

8. Ивочкин В.В., Травин Ю.Г., Королев Г.Н., Семаева Г.Н. Легкая атлетика: бег на средние и длинные дистанции, спортивная ходьба: Примерная программа спортивной подготовки для детско-юношеских спортывных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. - М.: Советский спорт, 2009. - 108 с.

9. Никитушкин В.Г., Квашук П.В., Бауэр В.Г. Организационно-методические основы подготовки спортивного резерва: Монография. - М.: “Советский спорт”, 2005. - 232 с.

10. Озолин Н.Г. Настольная книга тренера. - М.: “Астрель”, 2003. - 672 с.

11. Полунин А.И. Школа бега Вячеслава Евстратова. - М.: “Советский спорт”, 2003. - 216 с.

12. Самоленко Т.В. Методика индивидуального планирования спортивной подготовки легкоатлеток высокой квалификации, специализирующихся в беге на средние и длинные дистанции. – М., 2016.

13. Селуянов В.Н. Подготовка бегуна на средние дистанции. -М.: ТВТ “Дивизион”, 2007. - 112 с.

14. Soliev I.R. Qisqa masofalarga yugurishda sportchilarni texnik tayyorgarlik davrida start reaksiyalarini takomillashtirishni tahlil qilish. //FAN-SPORTGA ilmiy – nazariy jurnal. –Toshkent, 2018-yil 2-son. 56-60 betlar.

15. Sultonov U.I. Chuqurlashtirilgan ixtisoslik bosqichida uzoq masofaga yuguruvchilar mashg‘ulot jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida boshqarish. Dissertatsiya. 2020-y. -143 b.

TA’LIM-TARBIYA FIDOYISI

70 YOSHINGIZ MUBORAK BO‘LSIN

“Axloq – odobga doir hadis namunalari” kitobida shunday so‘zlar bor: “O‘zini kamtarin olib yuruvchi, halol kasb qiluvchi, qalbi pok, ko‘rinishi yoqimli kishilar naqadar yaxshi”. Mana, yarim asrdan oshiq pedagoglik kasbini ulug’lab kelayotgan, tunlarni kunlarga ulab qilgan halol mehnati bois “Xalq ta’limi a’lochisi” nishoniga sazovor bo‘lgan, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Ataxo‘jayev Valixo‘ja ham hadisda ulug’langan ana shunday baxtli insonlardan biridir. U 1972-1977-yillarda Andijon davlat tillar pedagogika institutini tugatib, pedagogik faoliyatini o‘zi tug’ilib o‘sgan Andijon viloyatining Izboskan tumanidagi 12-maktab rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi mutaxassisi sifatida ish boshladi. 1980-yilda Andijon davlat tillar pedagogika institutida ish boshlaganida faqat o‘zigagina xos bo‘lgan kasb mahorati, ajoyib insoniy fazilatlari bois jamoa a’zolarining hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘ladi. “U sabr-toqat bilan guruhda intizomni o‘rnatib, mehr bilan fidokorona dars o‘tadi”, degan so‘zlarini kasbdoshlari faxr bilan tilga oladi.

Imoni pok, e’tiqodi kuchli bu insonga taqdir mansab tojini kiydirganiga ham 50 yildan oshdi. Andijon davlat tillar oliygohida 35 yil mehnat qildi. Kafedra mudiri, rus tili va adabiyoti fakulteti dekani, institut ilmiy ishlar bo‘yicha mudir lavozimlarida ilmiy tadqiqotni takomillashtirishga katta hissa qo‘shdi. Aspirantura ochdi, unga boshchilik qildi.

Hozirgi davr o‘zbek pedagogikasi rivojiga munosib hissa qo‘shgan, uning taraqqiyoti uchun jon kuydirgan, fidoyi olim va mohir murabbiy sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan uztozim Ataxo‘jayev Valixo‘ja bugun o‘zlarining tabarruk 70 yoshlarini oila azolari hamda kasbdoshlari, yor-u do‘stlari davrasida nishonlamoqda. U o‘zining tinimsiz amaliy faoliyati – o‘qituvchilik, yoshlarga o‘qitish va tarbiyalash sirlarini o‘rgatish bilan birga nazariy, ilmiy tadqiqot faoliyati orqali pedagogikaning eng dolzarb masalalari ta’lim samaradorligini oshirish borasidagi tadqiqotlar yechimiga munosib hissa qo‘sha olgan iqtidorli olimdir.

Ustozning ilmiy ishlari va darsliklari o‘zining chuqur nazariy-metodologik jihati, dolzarb va dalillarga boyligi, ilmiy asoslanganligi sababli sobiq ittifoqning ko‘pgina yetuk olimlari tomonidan yuqori baholandi. Ataxo‘jayev Valixo‘ja fikricha, oliy o‘quv yurti o‘qituvchisi boshqa sohadagi o‘qituvchilardan farqli uch faoliyatni uyg’un olib borolsa, muvaffaqiyat va obro‘ qozona oladi. Bular: yuqori saviyada dars bera olish, ijtimoiy faoliyat bilan faol shug’ullanish, muntazam ravishda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishida. Chunonchi, shunday ishlash Ataxo‘jayev Valixo‘janing ajralmas fazilati hisoblanadi.

Zabardast ustoz pedagoglik faoliyatida salmoqli tadqiqotlarini amalga oshirib, ko‘plab shogirdlarni komillik sari yetaklab yaxshi natijalarga erishdilar. Ustoz Ataxo‘jayev Valixo‘janing ilmiy ishiga bunday yuqori baho berilishi va unga bo‘lgan qiziqishning boisi o‘z kasbini chin dildan sevib, tinimsiz ijod va izlanishda bo‘lishlaridir. Ataxo‘jayev Valixo‘ja faqatgina o‘zi ilm bilan shug’ullanmay, u yoshlarga mehribon ustoz va beminnat maslahatchi hamdir. Ustozning ilmiy rahbarligida ko‘plab fan nomzodlari S.M.Alijonova, Doniyorbek G’aniyev kabi yetuk pedagoglarga rahbarlik qilib, ustoz-shogird an’analarini davom ettirmoqdalar. Ustozning ilmiy-pedagogik faoliyati faqat yuqoridagilar bilan chegaralanmaydi. U tom ma’noda pedagogika fanining fidoyi tadqiqotchisi va tashviqotchisi hisoblanadi. U mamlakatimiz poytaxti va uning turli shaharlarida tashkil qilingan ko‘pgina ilmiy-amaliy seminar va konferensiyalarda o‘zining mazmunli ma’ruzalari bilan ishtirok etib kelmoqdalar. Ustoz bugungi kunda Toshkent davlat agrar instituti Andijon filiali “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dosenti sifatida faoliyat yuritib kelmoqdalar. Ustozning kelgusidagi ilmiy pedagogik faoliyatlariga ulkan muvaffaqiyat, oilaviy sog’lik va xotirjamlik tilayman. Mustaqil O‘zbekistonimizga yuqori saviyali barkamol kadrlarni hayotga tayyorlab, kelajakda yuz yoshlarga kirishlarini tilab qolaman. Shogirdlar baxtiga hamisha sog’-salomat bo‘lsinlar.

Akbar GULBOYEV
Buxoro davlat universiteti pedagogika
kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

“ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ” ЖУРНАЛИ УЧУН МАҚОЛАЛАРНИ РАСМИЙЛАШТИРИШ ТАЛАБЛАРИ

1. Мақола бошланишида Универсал ўнлик кўрсаткич (ЎУК) берилади.

Қуйидагилар алоҳида қатордан бошлаб киритилади:

1) мақола сарлавҳаси (оддий ҳарфларда, масалан: Абдулла Қодирийнинг тасвирлаш маҳорати);

2) муаллиф(лар)нинг фамилияси (тўлиқ), исми ва отаси исмининг бош ҳарфлари;

3) мақоланинг аннотацияси (пробеллар билан бирга 500 белгидан иборат), аннотация курсив билан берилади ва бир қатор ташлаган ҳолда асосий матндан ажратилади;

4) калит сўзлар (5–10 та).

2. Мақола матни “Microsoft Word” дастурида тайёрланиб, “Times New Roman” 14 ўлчамли шрифтда, сатрлар ораси бир интервал, саҳифа четлари чапдан 3 см, юқоридан ва пастдан 2 см, ўнгдан 1,5 см, хатбоши 1,25 см қолдирган ҳолда терилади ва электрон варианти билан (флешка ёки CDда) топширилади.

Мақола матнида бошқа шрифтлардан фойдаланилган тақдирда бундай шрифтлар муаллиф томонидан электрон вариантда таҳририятга тақдим этилиши лозим.

3. Мақоланинг умумий ҳажми (расм, жадвал ва диаграммалар билан биргаликда) 8 саҳифадан кам бўлмаслиги (аннотациялар, калит сўзлар ва адабиётлар рўйхати бу ҳисобга кирмайди) талаб қилинади. Журнал учун энг мақбул ҳажм 8-10 саҳифа оралиғида.

4. Агар мақолага расм, жадвал, диаграмма, схема, чизма, турли график белгилар киритилган бўлса, улар оқ-қора рангларда чизилган бўлиши, аниқ ва равшан тасвирланиши, қисқартмаларнинг тўлиқ изоҳи ёзилиши лозим. Мақолада матнида ранг воситасида маъно фарқлашга хизмат қиладиган расм, чизма ва диаграммаларнинг бўлиши мумкин эмас.

Формулалар матнга махсус компьютер дастурларида киритилиши керак.

Адабиётлар рўйхати лотин алифбосига транслитерация қилинади.

Мақолага муаллифлар ҳақида маълумот илова қилинади.

Муаллиф(лар) ҳақидаги маълумот қуйидагиларни ўз ичига олади:

– муаллиф(лар)нинг фамилияси, исми ва отасининг исми (тўлиқ)

– илмий даражаси (агар бўлса)

– иш жойи, бўлим, вазифаси (қисқартирмаган ҳолда).

Муаллиф ҳақида инглиз тилидаги маълумотлар қуйидагиларни ўз ичига олади:

1) муаллиф(лар)нинг фамилияси, исми ва отаси исмининг инглиз тилидаги варианти, мақола номи ва муаллиф иш жойининг инглиз тилига таржимаси, масалан: *Dilmurod H. Quronov,* Andijan State University (Andijan, Usbekistan). E-mail: kuronov@rambler.ru

COMPOSITIONOF LYRICAL WORK

2) калит сўзларнинг инглиз тилига таржимаси;

Фойдаланилган адабиётларнинг инглиз тилидаги варианти (References) APA-2010 стандарти бўйича тайёрланиши зарур.

1. Китобларни бериш тартиби:

Esin, A.B. (2000) *Printsipy i priyemy analiza literaturnogo proizvedeniya* [Principles and techniques of analyzing literary work]. Moscow: Flinta.

Rakhimzhonov, N. (2012) *Intellektual sheriyatning tabiati* [Nature of intellectual Poetry] In: *Istiqlol va bugungi adabiyot* [Independence and Modern Literature]. Toshkent: Teacher. pp. 145–155.

2.Мақолаларни бериш тартиби:

Suyarov, M. (2008) Peyzazh she’riyatida kompozitsiya [Composition in landscape poetry]. *O‘zbek tili va adabiyoti* [*Uzbek language and literature]*. 1. pp. 72–75 (In Uzb.).

3. Интернет манбаларини бериш тартиби:

Belova, E. A., Kilkeeva, Yu. A., & Trenogina, A. A. (2014). *Tendencies of the world market of transportation and logistics services development.* Retrieved from http://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles-2014/TGU_5_336.pdf *(in Russ.)*



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:
Moliya vazirligi g‘aznachiligi
23402000000100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2021-yil 3-son (79)

2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:
Alijon HAMROYEV.
Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.
Muharrir: O‘g‘iljon Olloqova

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 28.06.2021
Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.06.2021
Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi.
Shartli bosma tabog‘i – 20,6
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 230
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.